

Jahongir Muhammad

SALTANAT

Prezident tansoqchisining kundaligi

Jahongir Muhammad

Saltanat - Qissa

Prezident tansoqchisining kundaligi

Ikkinchi kitob

2023 yil

“Muallifga maktub

Assalomu alaykum, hurmatli Jahongir aka!

Sizga Taymurning kundaligini men yuborgandim. Nashr ettingiz va ko‘p odam o‘qidi, hali ham o‘qishmoqda. Bilaman, siz o‘quvchilarning ancha-buncha savollariga aniq javob berolmadingiz va berolmas ham edingiz. "Shimoliy Koreya"da shunday, ko‘p narsalar sirli va izohlash juda qiyin.

Aka, Taychini men o‘ldirganman. Eva rol o‘ynab bergan, xolos. Ammo haligacha zindonda. Balki kerak bo‘lar, deb saqlab turibmiz. O‘sha kun Taymur qonga belanib yotarkan, xonasidan kundaligini topdim.

Kuzatuv videolarini uzgandik. Evani behush qilib, ertalabga qadar kundalikni o‘qidim. Miyam portlab ketdi. Oyog‘im qaltiradi. Bilmadim, qanday kuch bilan kundalikning oxirgi satrlarini qo‘shdim. Balki hazil qilib yozgandirman? Balki kinoya? Yo‘q, o‘sha kun men o‘zgardim. Bilaman ishonmaysiz. Ammo odam bir kunda, ba‘zan bir soatda ham o‘zgaradi. Meni Taymurning kundaligi yirtqich hayvondan odamga aylantirgandek bo‘ldi.

Taymurning kundaligi juda keskin ta’sir qildi. O‘zimning manqurt holga tushib qolganimni his qildim. Vaholanki, otam mendan buni kutgan emas. Men xalqqa xizmat qilishim kerak edi. Ammo qotilga, jinoyatchiga aylandim. Xalqning ahvoli esa tuzalmayapti. Nimalar bo‘layotganini hech kim bilmaydi. Yozilgan, aytilayotgan va hatto mish-mishlar ham yuz berayotgan voqealardan olisda.

Sizning video suhbatlaringiz esa har quni qalbimga tig‘ bo‘lib sanchildi. Xuddi menga gapirayotagandek edingiz. Xullas, nima bo‘lsa bo‘lar, yiqilsam, yo tuproq tishlab turaman va yo qon tishlab yotaman dedimda, men ham yoza boshladim. Sizga etkazib turaman, olmadingizmi, u yog‘ini o‘zingiz taxmin qilaverasiz! Faqat bilingki, bu dunyoda biz

ham bor edik. Bor edik! Ammo hech narsa qilolmadik va qilolmayapmiz. Shu narsani hamma bilishini istayman. Buning uchun esa, bugungacha ko'rganlarimni va bugun ko'rayotganlarimni batafsil yozib boraman. Duo qilib turingki, hikoyalarim bemahalda uzilmasin!"

1. "Batya" o'lgan kunlar

O'n yil davlatning tepasida o'tirgan "okaxon"larning xotinlariga beli sinmagan "yashil"idan tashidim. Ular hukumat boqimida turadilar. Xotinlari telefon qilib oziq-ovqat buyuradi, hukumat mashinasi tarqatadi. Men shoferning sherigi. Sandiroqiga o'xshasamda, aslida bu juda muhim ish. Raisning eng yaqin odami bo'lganim uchun bu vazifa menga yuklatilgan. Haydovchi oziq-ovqatni tashiydi, men unga yordam bergan bo'lib, kennoyilarga atalgan "xalta"chani etkazardim.

"Yanga"larning hammasi bir xil.

Indamay oladi, boshini sekingina qimirlatib, ichkari xonaga o'tadi. Orqadan borib:

-Sanab olsangiz..., -deyman.

-Hammasi to'g'ri, nimasini sanayman, ukajon?

Bugun falon yil, falon kun, falonchi falonchievga aytib qo'yasiz, deyman.

-Albatta, albatta... har safar aytaman! Ko'nglingiz to'q bo'lsin!

-Qo'shimcha kerak bo'lsa, telefon qilarsiz!

-Xo'p, xo'p ukajon, baraka toping!

Menga shu etarli. Kostyumimning old cho'ntagidagi videoyozuv kamerasi qaydiyatga oladi.

Keyin faylga o'tkazaman va har bir rahbarning "papka"sigam joylab qo'yaman. Bir nusxasini "fleshka"ga ko'chirib, oyma-oy Raisga beraman. U indamay cho'ntagiga solib qo'yadi. "Fleshka" qaerga borishini ham bilaman. Chunki yilda bir marta borib "Taychi" bilan seyfni tozalardik.

"Batya" yonidagilarga o'z sodiqligini shunday ko'rsatardi. Ular hech qachon unga xiyonat qila olmasdilar. Qilmasdilar ham. Kennoyilar qancha so'rasa, yo'q deyilmasdi. "Og'ziga kelganini aytsa ham olib borib beraverasan", degandi Rais. Kennoyilar ham anoyimas. Foyizni oyma-oy oshirardilar. Erlarini qul qilgan shular, aslida.

Pulni Markaziy Bankdan olardim va Rais bergan ro'yxat bo'yicha tarqatardim. Ishimdan mamnun edim. O'zim o'zimga bek. Nomiga Raisning adyudanti. Aslida bu ishni boshqalar bajaradi. Rais shu erdaligida xonamdan chiqmayman, kompyuterimda "davlat sirlarini" o'qiymen, internetni "kovlayman". Ba'zi narsalarni "sizdiruvchi"larga tashlayman. Bizda shunday odamlar bor. Ular muxolifat orasidagi, xorijiy radiolar va nashrlardagi odamlarning "odamlariga" ma'lumot etkazib beradilar. Buni aslida "G'iybat" bo'limidagilar hozirlashadi. Ular turli rejalarni tuzadilar, ba'zan tepadan tushadi topshiriq, gohida Rais bilan ikkalamiz ham uydiramiz.

Xullas, oxirgi qoralamani men ko'raman. Ertasiga sizlar internetda o'qiysizlar. U tomoni bilan ishimiz yo'q. Shovshuvni davom ettirib turadigan boshqa bo'lim bor. Bular hammasi beshinchi boshqarmaning ichida tuzilgan.

Rais bir yoqqa ketdimi, sport zaliga tushardim.

"Batya" o'ldiyu "ritmim" buzildi.

U o'ldirilgan kun hech kim shokka tushmadi. Juda qiziq holat. O'qigandim, Stalin o'lgan dam Beriya xonadan chiqib, "O'ldi!" deganda, kutib turgan rahbariyat parvo ham qilmagan ekan. Chunki ular Stalinni allaqachon qalblariga ko'mishgan. Yoqtirgan divanida yotib qolganidan va yoniga hech kim kiritilmaganidan rahbariyatdagilar uni o'z tafakkurlarida yashirincha "o'ldirishgan".

Xuddi shu holat "Batya"ning o'limida ham yuz berdi. Hech kim shoshib, talvasa ko'rsatmadi. Dodlagan va uvvos solgan ham bo'lmadi. Sukunat. Og'ir sukunat. Odamlarning quloqlari ichida xishillab, qichqirib yuborishga urinayotgan sukunat. Ammo hamma xayolchan. Endi nima bo'ladi? Har kimning fikriga har qanday xayol keladi. Meni "Kennoyilar eshitishsa, nima qilisharkin?" degan xayol tark etmasdi...

Darvoqe, o'zimni tanishtirmabman. Qishloqda mol boqib o'sgan bolaman. Ismim Shunqor. Ohalik tog'i etagida tug'ilganman. Bolaligimda kurashda hammani yiqitardim. "Hojimurod" deb laqab qo'yishgandi. Nimagaligini bilmasdim. Katta bo'lganimdan keyin negaligini angladim.

Hech esimdan chiqmaydi. Dadam men bilan boshqacha gaplashardilar.

-Sen katta bo'lsang, podsho bo'lasan,-derdilar.- Podsho degani, eru ko'kka xo'jayin degani. Sen bugungi podshoga o'xshagan emas, odil bo'lasan. Xalqqa er berasan, ish berasan, tok berasan, gaz berasan, non berasan...

-Ilm demadingiz bu safar...

-Ilm berasan, balki ungacha xalq ilimli bo'lib qolar?

-Ungacha erli, ishli, tokli, gazli ham bo'lib qolsa-chi?

-Ayttim-ku, podsho bo'lasan deb, podshoning birinchi ishi odamlar gapirganda xatosini topish, yolg'on-rost gapirishni bilish, sen esa bunga qodir.

-Unday bo'lsa, nega o'zingiz ham yolg'on gapirayapsiz?

-Nima dedim, yolg'on gapirib?

-O'zim ko'rdim, televizorda bugungi podsho gapirganini eshitib, biyijonim bilan uni duo qildingiz, uzoq yashasin, dedingiz.

Dadam odatiga ko'ra tirjaydi. Uning jahli chiqsa, tirjayishini ham bilardim. Lekin hech qachon menga baqirgan emas, ovozini balandlatgan ham emas. Biyijonim so'kkanlarida dadam dashnom berardilar.

-Televizorni ichida kamerasi bor. Duo qilmasak sen podsho bo'lolmaysan. Biz duo qilaylikki, u sen katta bo'lguncha yashasin va podsholikni senga topshirsin!

Bitta farzand bo'lganim uchunmikan, dadam ko'pincha televizorni o'chirib, men bilan gaplashardilar. Keyin xonalariga kirib, radio eshitardilar.

Mana yillar o'tdi, dadam duo qilgan podshoning yoniga yaqinlashib qoldim. Mana u o'ldi. Dadamning orzulari amalga oshmadi. Oshmaydi ham. Podsho bo'lish oson emasligini tushundim. Hamma podsho bo'laman deydi, joy esa bitta. Odam o'ziga o'zi podsho bo'lsa, eng katta baxt o'sha. Menda bu ham yo'q. "Bor" desa boraman, "kel" desa kelaman. Podsho nima, uning atrofidagilar uchun ham o'zimni o'limga otishim kerak. Hatto mana shu gaplarni xayol qilishga ham haqli emasman. Buni birinchi boshlig'im aytgan:

-Eng katta dushmaning xayol surish. Seni xayol o'ldiradi. Xayol surishingni sezib qolgan kunim o'zim tugataman! Bizda ishdan ketish yo'q! Bizda ishda qolish bor. O'lguncha, o'lgandan keyin ham! Kerak bo'lsa, mayitingni topib kelib, tergov qilaman!

Dadam xayolparast edi. Ertadan kechgacha xayol surardi. Demak, erkin odam bo'lgan ekan. Ammo ko'p yashamadi...

Uyga kelguncha xayol surishga cho'chidim. Shuning uchun qo'shiq eshitib keldim. O'lgan san'atkorlarni eshitish xavfsiz. Ko'proq Faxriddin Umarov, Tavakkal Qodirovni eshitaman.

Uyga kelib televizorni qo'ysam, u "o'lmabdi". Tavba qildim. Nima gap? Suxandon xuddi otasini ko'mib kelgan odamdek, o'zini motam ruhiga cho'mdirgan.

"Vazirlar mahkamasi bildiradiki, "Mutaxassislarning fikriga ko'ra, to'liq tibbiy ko'rik va davolanish jarayoni uchun muayyan vaqt talab etiladi".

Nahotki? Tirilib qoldimi? Nafas olib qoldimi? Tiriltiradigan dori bor ekanmi? Nima bo'ldi? Nahotki, rais bexabar? Qaytib borsammi, unga sim qoqsammi? To'xta, o'lganiga ikki kun bo'ldi-ku! Jinnimisan? Qanday qilib tiriladi? Sen ham mana bu yolg'onchi qutiga ishonib qoldingmi? Shunchalikka ham borasanmi? Demak, qattiq charchabsan! Uxla!

Uxlab bo'ladimi?

Darvoqe, "Shum"ni bilmaymanmi? Axir uning ishlarini etti yil kuzatdimku?! Nima ishlarni qilmadi? Andavachi bo'lib ketdim-ku? Agar Taymurga uchini chiqarganimda "Shum" osmoni falakka uchib ketardi. Taymur bilan ichki

raqobatimiz bor edi. Uning “Batya”sini sevmadim. U esa “Shum”ni.

Darvoqe, unga yashirin kod nom tanlaganimizda “Batya” meni ham chaqirgandi. “Taychi” bilan yonma yon suhbatni kuzatgandik:

-“Shum” bo‘la qolsin, -dedi “Batya”.

“Shum”ning o‘zi kulaverib qizarib ketdi va “Batya”ga “Topqirligingiz uchun qoyil,-dedi. Keyin:

-Bolalikda “Shumtaka” deb charishardi. O‘zimga ham yoqardi. Shumtakalar aqlli bo‘ladi deyishardi,-deb xato qilgan boladek boshini egdi.

Bu gap “Batya”ga yoqmadi. “Batya”ning qoshi osilib, qovog‘ini ishg‘ol qilib, ko‘zining ustiga tushib qolay dedi.

-“Shum”ini olib, “Taka”sini qoldirsak ham bo‘larkan...,-dedi birdan.

“Shum” xuddi taxtimonidan ayrilgan odamdek bo‘zrayib qoldi. Yomon ahvolga tushdi. Bunday paytda Rais oraga kirishga usta:

-Taka bo‘lsin, sut bersin,-dedi.

Biladiki, “Batya” boshqaning taklifiga rozi bo‘lmaydi.

-Mayli “Shum” qolaversin. Menga ham yoqdi,-dedi u sovuqqina ohangda. G‘afur aka go‘rida tik bo‘lmasa bo‘ldi, uning “Shumbolasi”...

“Batya” gapini davomini aytmadi. “Shum”ni kamsitgisi kelmadi.

Shu bilan uning yashirin, kod nomi “Shum” bo‘lib qoldi. “Shum”ni bir necha marta baliqdek to‘rga tushirib, keyin

peshanasidan o‘pib, yana suvga qo‘yib yuborganman. “Batya” ikki marta undan voz kechdi. Rais bilan saqlab qoldik. Uchinchisida, Taymurning qo‘li bilan “Batyaning o‘zini asfalasofunga jo‘natdik.

Uyda u yoqdan bu yoqqa pildirab televizordagi gaplarni hazm qila olmayotgandim. Bir payt, “Batya” statsionar davolanishda deb aytishdi.

Televidenieda vahima qilmaylik, deb shunday xabar berishgandir? To‘xta, qani internetda nima gap?

Instagramni ochsam, qiziqchi Kirza ko‘zida yosh bilan “Batya”ni duo etayapti va hammadan duo qilishni surayapti:

-Iloyo dodamizga uzoq umr, sihat salomatlik ber! Tezroq tuzalib ketsinlar! Qanii omin!

Xayolimda: “Mana shu ishing rosmanasiga qiziqchilik. O‘zing ham bilmaysan hatto! Dodang o‘ldirilganiga uch kun bo‘ldi. Ikki kun xonasida sassib yotdi. Bugun tepadan ruxsat kelgandan keyin boshqa xonaga olib chiqildi. Jiyib ketmasin deb sevimli mullasini chaqirdik. Atir sepib o‘tiribdi xonaga...

Hey! Xayolning kuchlisini qildim-ku?! Unutishim kerak bu gapni!

Chunki qiziqchiga qo‘shilib, qo‘limni yuzimga tortibman. Demak, o‘zimni yo‘qottim.

Yo‘q, to‘g‘ri qilding. Seni ham kimdir kuzatayotgani aniq. Bunday paytda sovuqqon bo‘lish kerak. Mamlakatni boshqarish, xalqni boshqarish taktikasiku bu! Kallavaram, shunga ham aqling etmayaptimi? Hammani gap bilan lol qilib qo‘yadigan odam, nega tentirab qilding? General bo‘lganingami? Tez o‘sding, bola, tez o‘sding!

Bu yoqda Internet “portlab” ketibdi. Hatto otasi qamoqda bo‘lganlar ham duo qilishmoqda. Yigirma yildan beri otasi qamoqda yotgan bitta boyvachchaning bolasi “Men u ulug‘ zotni sevaman” deyapti ko‘zda yoshi, labda titrog‘i bilan!

“Odn”dagilar Ollohga iltijo qilib, “Agar yurtboshimizga biror narsa bo‘lsa, seni Ollohim deya sira tan olmayman!” deya yozg‘irishyapti. Tavba!

“Peshanangdan otaman sen ablahni!” degan gap xayolimdan o‘qdek huvillab o‘tib ketdi.

“Biz chuqur tashvishdamiz. Moskva rasmiylari nomidan “Batya” tez orada sog‘ayib ketishini tilayman. Biz hozirda faqat OAVdagi va diplomatik kanallardan kelayotgan xabarlargagina egamiz”, debdi Vladichning kotibi.

“Bilmaysiz. Vot blin...Ikki kun tinmay gaplashildiku? Ana u qo‘nalg‘adagi uchqichlar Ohalikdan keldimi? Ichidagilar tarakanlarmi? Hamma yoqni o‘rab turibsanlarku? Tag‘in gapingga qara? Siyosat! Endi sanlarga nafratimni yashirib, etigingni tozalab yurishim kerak. Sanlar esa dunyoni axmoq qilib yuraveringlar. He...”

Bunday paytda tirjayishim kerak. Ichki nafrat yuzga uradi bo‘lmasa.

-Yashasin tinchligimiz posponlari,-deb qo‘ydim. Bilaman kimlar kuzatayotganini? “Bratva” ham uxlamayapti. Uxlama, Rais hali hammangni go‘rga tiqadi. Sanlarga planni o‘zi berib, sanlarni itdek zanjirga bog‘lagandi. Ha, Rais ham shum. “Shum”dan ham shum!

“Shanba kuni otam miyaga qon quyilish tashxisi bilan shifoxonaga olib kelindi. Hozir reanimatsiya bo‘limida tibbiy muolaja olmoqda. Holati shifokorlar tomonidan barqaror deb baholanmoqda.”

Qizi ham maydonga chiqibdi. Bu tomonda otasi o‘lib yotibdi, u yoqda qizi siyosat bilan ovora. O‘l-a?

Nozanin! O‘zbekcha yozishni qayoqdan bilasan? Batyaning “Beriya”si yozgan va bularning hammasini ham o‘sha tashkil qilgan. Pixini yorgan odam. Osmonda yulduz uchsa, ushlab olaman deydi. “Shum” esa erga qaraydi, ilonni tutaman deydi. “Beriya” yomon. Hali “Shum”ni ham osmonga qaratib qo‘yadi. Chiroyli gaplar bilan xalqning og‘zini ochofat baliqlarning jag‘idek ochib qo‘yadi. Taxtadan paxta, paxtadan taxta yasaydigan darajada usta. Taxta nimaga kerak desa, “qalam” deydi, paxta nimaga kerak desa “o‘lam”, deydi.

“Shum” ham sekingina borib, nutqlarini unga ko‘rsatib kelardi. U “Batya”ga yoqadigan gaplardan qo‘shib berardi. Uning yulduzi porladi. “Akajon” demasam, “okajon” dedirtiradi. Ishni shunday bitiradiki, Qo‘hi Qofning orqasidagi odamning fikrlarini olib kelib, qog‘ozga yopishtiradi. “Batya”ni buyuk yozuvchi, dohiy - yo‘lboshchiga aylantirgan ham shu edida, Endi “Shum”ni ham qoyaga olib chiqadi.

Sarzoda, Mayhon, Manzura, Qazoqbek, Hurxon, Unisa... hamma “lik-lik, shik-shik”lar baqir-chaqir qilmoqda. “Shum” ularni yoqtirmaydi. O‘zlari ham bilishadi. “Lik-lik, shik-shik” deganini ham eshitishgan. Shuning uchun ham otam o‘lmasin, deb faryod qilishmoqda.

"Har xil gap so‘zlarga ishonmanglar, qadrdonlarim. Yurtboshimiz sog‘ salomatlar, hammamiz duo qilaylik".

Falon-falon artistlar duo qilmagani uchun muxlislari tomonidan tanqid qilingan.

"Opajon, siz nega jimsiz. Otamizni duo qiling. Ilohim sog'aysinlar. Men sizdan kutmagandim. Birinchi bo'lib ayting, qo'shiqlaringizni otamizga atab, ular bizga suv va havodek keraklar"!

"Batya"ning o'lgani haqida gapirayotgan muxolifatga, dushmanlarga ham hujum buyurilibdi, toshbo'ron boshlanib ketibdi. Ularga qoyil. Hammadan oldin xabar topishdi. Ammo kimdan? Ma'lumot qaerdan chiqdi? Nahotki, ichimizda ularning odamlari bor? Bor. Nega bo'lmasin? Ular ham o'zimizdan. Tanish-bilishlari, do'st-birodarlari etib ortadi. Qolaversa, taxtga o'tiraman deganlarga ham jon kirib qolgan. Markazda ham itni gapirishga o'rgatadigan ustalar bor.

Biroz o'zimga keldim. O, "Beriya", "Beriya"! Barmoq izlaringdan bilaman. Avval atristlarga, keyin shoir-poiralarga amru farmoyish berasan. Radio televidenieni ham o'z yo'linga qarab sayratasan. Juda pishiqsan, "Beriya", ilonning yog'ini yalagansan!

Shundayku-ya, lekin qitmir va qo'rqq. O'zicha tashabbus qilmaydi. Kimdandir buyruq olgan? Kimdan? "Shum"danmi? Unda nega men bilmayman? Qachon ko'rishdi u bilan? "Shum" oqshom yo'lga chiqib, Markazdan ertalab qaytib kelganda kutib olishga chiqqandi. Demak, o'sha erda buyruq olgan. "Bos!" degan bo'lsa, bas. Unga shu bir so'z kifoya.

2. Saunada

"Batya"ning o'limidan bir kun oldin saunaga bordik. Aslida tashqari sauna bo'lib yotibdi. Osmondan olov yog'sa, yerdan bug' o'rlayotgan kabi issiq.

Xayriyatki, oqshom inib, qaerdandir sunbularning hidi kela boshladi. Demak, salqin kunlarga yaqin qoldi.

Shunday paytda tabiat saunasidan qochib, sun'iy saunaga borish uchun chinakamiga zarurat kerak.

“Shum” dala kezib yurgandi. Balki changga botgan bo'lsa kerak, deb ham o'ylashingiz mumkin. E, yo'q borgan joyida hammomi bor. Dalaga borsa, archilgan tuxumdan ham toza bo'lib qaytadi.

Kamina oyda bir yangalarga pul tarqatganim bilan asosiy ishim Raisning adyutanti ekanligini aytgandim. Norasmiy ishim esa, “Shum”ning xizmatchisi. “Shum” yonida yurishimni istamaydi. Ammo Rais xizmatini qilib, uni asrab yurishimni talab qiladi. Shuning uchun uzoqroq turganim, ko'p vaqtimni idorada o'tkazganim bilan, kerakli paytda yoniga etib boraman.

Bundan tashqari uning yordamchisi ham o'zimizning odam. U har tomonlama etishgan. Devorni bu tomonidan tepib, to yiqulguncha u tomoniga o'tib, ushlab qoladigan darajada usta. U hech kimga to'g'ridan to'g'ri yordam qilmaydi. Ammo juda ko'p odamning ishini bitiradi Masalan, bitta tuman prokurorini ishdan olishdi. Unga yo'l topishadi. U esa “Shum”ning nomiga ariza yozib pochtdan yubor yoki internetda chiqar deydi. Keyin mana shu masala shov-shuv bo'layapti, nima qil, deysiz deb “Shum”ga murojaat qiladi.

-Shuni ham menga aytasanmi, tinchit,-deydi “Shum”.

Uni mana shu joyidan ushlaganman. Doim qarmog'imda. Shuning uchun hech narsani yashirmaydi. Aytganimni bajaradi. “Shum” xurрак otib yotgan bo'lsa ham, to'g'risini aytadi. Kelajagi bor. Samimiy ayyor. Rais ham unga ishonadi. Baribir meni ham bog'lab qo'yan. Xonasiga

kamera o'rnatganman. Kompyuterimning bir burchagidan uni ko'rib turaman.

“Shum”ni nazorat qilish qiyin emas. U o'zini o'zi nazorat qiladi. Odamlarning ko'ziga tashlanishni istamaydi. Hatto qilayotgan yaxshi ishini ham birov bilib qolishini xoxlamaydi. Ayniqsa radio, televidenie, gazetalardan uzoq turadi. Hammasining rahbarlariga yo'l topib, buni tushuntirib qo'ygan. Internetda u haqda yozishsa ham, qanday qilib yo'qotishni biladi. Yo menga aytadi yoki “Mo'ylov”ga. U ismi sharifi “Batya”ning ko'ziga tushib qolishidan cho'chiydi. Yuragini oldirgan. Oddiy qilib aytganda arvoh bo'lishni, ko'zga umuman tashlanmaslikni afzal biladi.

“Mo'ylov” ham Raisning yaqin odami. “Shum” bilan apoq-chapoq. Dunyoning qayerida kashfiyot chiqsa, unga aytiladi. Topib keladi. Texnikani tushunadi. Uni “Batya” ham yaxshi ko'rardi. Ammo qizining nomaqbul videolari paydo bo'lgach, chet ellarda qizi haqida ish ochilgach, uni aybladi. “Batya” uni ishdan haydaganda Rais xafa bo'ldi. Lekin bildirmadi. Sauna majlisini faqat unga ishonishardi. U shunday tashkil qilardiki, hatto “Taychi” ham, uning otasi ham bilmay qolardi. Yonida bir bola bilan yuradi. Aqlli. Otiga tadbirkor. Ammo “Mo'ylov”ning pulini aylantiradi. Ko'p o'qigan. Unga “Kal” deb laqab qo'yishgan. Kim qo'ygan bilmayman. Uni ko'rgan kunimdan beri xo'jayin uni “Kal” deydi. Sochi bo'lsa ham, bu nom yarashadi.

Rais “Kal”ga qarab turdi-da:

-Yoshlarni bunga o'xshatib otga mindirish kerak, aksari latta bo'lib, eshakning orqasidan emaklab qolgan,-dedi. Qiyqirib kulishdi. “Shum” ko'zidan yosh chiqquncha kuldi. Keyin

devorlarga qarab qo'ydi. Kafelli devor mustahkam, aks sado berib turibdi, xuddi qo'shilib kulayotgandek.

Saunaga boradigan bo'lsak, Shumni olib borish mening vazifam. Avval tennis kortiga borardik. U erdan kiyimlarni almashtirib, orqa eshikdan chiqib, boshqa mashinada ketardik. Hamma bizni sport zalida deb o'ylandi.

“Mo'ylov”ning saunasi ko'p uzoqda emas. Ustida katta restoran. Sauna er ostida. Restoranning orqa garajiga kelganda, devor surilib, darvoza ochiladi va mashina ichkariga kiradi. U erdan er ostiga tushiladi. Did bilan qurilgan. Ustalarni Koreyadan olib kelgan. Uchta hovuz bor. Suvning harorati turlicha. Bir joyda shiddat bilan oqadigan sharashara. Quruq saunadan chiqib uning tagida ozgina tursangiz, oyoq uchiga qadar zirqiratadi. O'zingizni bug'li saunaga urasiz. “Shum” bug'li saunanni yaxshi ko'radi. Yuzim kuymasin deb boshiga sochiq o'rab o'tiradi. U erdan chiqib, sovuq suvga kirishga hayiqadi. O'rtacha haroratli hovuzga kiradi. Keyin mascaj stoliga yotib oladi.

“Mo'ylov” Koreyadan ustasini olib kelgan. Dastlab “Shum”ni yaxshilab cho'miltiradi. Keyin suyaklarini qisirlatishni boshlaydi. “Oh-oh”lagan “Shum” ba'zan ko'zini ochib, shu erdamisan, degandek arang men tomonga qaraydi. Bir joyi sinib qolishidan cho'chisa kerak. Lekin turgisi kelmaydi. Ana u massajchi yigit ham charchash nimaligini bilmaydi. Hech narsadan g'ijinmaydi. Shumning eng nozik joylarini ham uqalab yuvadi va oyoqlarining ostini erinmay barmog'i bilan yarim soat bosib chiqadi. Oxirida “Shum”ga bildirmay, boshini bir buradi, “shax” etgan tovush menga ham eshitiladi. Shundan keyin “Shum” bir soat mazza qilib uxlaydi. O'sha orada biz ham cho'milib olamiz. “Kal” mening ko'nglimni olishga urinadi.

Kimligimni bilishni istaydi. Ichida taxmin qiladi, ammo tirjayib turaveradi.

-Bu bola har qanday yolg'onga ettita to'n kiygizib, haqiqatga aylantirib yuboradi,- degandi Mo'ylov "Shum" ga uni tanishtirar ekan.

-Orqasiga tepib odam qilamiz,-deb askiya qildi Rais.

Rais askiyaga usta. Sekin gapiradi. Ammo kuldiradi.

"Shum" kulganida pomidordek qizarib ketadi. Ikki yuzi tepaga ko'tarilib, ko'zlari lattaning yirtig'idek torayib qoladi..

Tashqarida ko'rganlar uni har doim jiddiy, sal narsaga jahli chiqib ketishi mumkin deb o'ylashadi. Unday emas, bu uning tashqi ko'rinishi. Ichkarida askiyachi, miriqib kuladigan odam. Ko'cha zindon, xona xandon. Ko'p kulsam bo'ynimning orqasi og'rib qoladi, deydi. Tashqarida hamma vaqt ikki qo'li oldida. Barmoqlarini barmoqlariga bog'lab turadi. Go'yo qarshisidagi odamni diqqat bilan tinglayotgandek. Ichkarida esa qo'li qo'lga tegmaydi. Ayniqsa, telefonda gaplashganini ko'rsangiz. "Batya" bilan gaplashganda o'rnidan turib, "xo'p-xo'p" deb turaveradi. Qizarib ketayotganidan so'kish eshitayotganini his qilasiz. Keyin boshqa telefonni olib, vazir yoki hokimni shunaqa so'kadiki, "Batya"dan telefonda qanday gap eshitganini aniq anglab olasiz.

"Shum"ning g'urursizligi ichimni tirnardi. Stokgolm sindromi haqida o'qiganman. Bundan qariyb yarim asr avval yuz bergan. O'shanda qamoqdan qochgan mahkum Shvetsiya poytaxtidagi yirik bankka qurol bilan kiradi. Bu haqda film ham olingan.

Bank bosqini davomida ikki kishi olti kun davomida to'rt kishini garovda ushlab turgan. Garovga olinganlar qo'yib yuborilgandan so'ng, ular o'zlarini o'g'irlab ketganlarga qarshi ko'rsatma berishdan bosh tortganlar va hatto ularni himoya qilish uchun pul yig'ishni boshlaganlar.

Mana shuni "Stokgolm sindromi" deb atashgan. "Batya" "Shum"ni asirga olgan, qancha tahqirlaganiga qaramasdan uni hurmat qiladi, yaxshi ko'radi. Balki ota deb bilar? Ota bolasini uradi, so'kadi, tepadi deb o'ylar? Kim bilsin, balki mansab uning hissiyotlarini o'ldirib yuborganmikan? U o'z egasining ablahligini biladi, ammo juda vafodor.

Ba'zan unda sadistlik bormikan, deb o'ylagan vaqtlarim bo'lgan. Ayollar borku, eri qancha qiynamasin, urmasin uni sevadi va ko'proq tahqirlanishni istaydi. Nahotki, bunda ham shunday kasallik mavjud? Biror marta bo'lsin, "Batya"ning tahqirlariga qarshi qosh qimirlatmadi. Mana shu narsa "Taychi"ning oldida mening boshimni egardi. U men haqimda ham shunday o'ylayotgan bo'lsa kerak degan o'y g'urur borasidagi tasavvur imoratini buzib yuborardi.

Bugun ham saunada dam olishgandan keyin maxsuc xonaga kirishdi. "Mo'ylov" o'zlari uchun alohida o'tiradigan xona tuzatgan, ancha gaplashishdi. Rais menga bildirmay kamera olib kirasani va o'sha xonaga joylaysan, degandi. O'rnatdim. Lekin ketishimizda Rais tasmani mendan olib qo'ydi. Nima gapligini bilmay qoldim. Ertaga yoki indinga qaytib berishini bilaman. Chunki raisning xazinasiman. Hamma narsasi menda turadi.

Chiqarkanmiz, "Shum"ning rang-quti o'chgandi. Ustida tegirmon toshi aylanayotgan kabi qiynalayotgandi. Boshini egib olgan, gapiraman desa, labi labiga yopishmoqda. Nima bo'ldiykin? Nahotki Rais uni xafa qildi? Ammo

“Mo‘ylov”ning ko‘zlari kulib turibdi. Tushundim, Rais asosiy rejani ularga aytgan. Demak, “Batya”ning kuni bitdi.

Rais ham mamnun. Yuzida hech qanday xavotir yo‘q. Ish oxiriga etishini kutib yurgandi. Agar “Taychi” bitirmasa, uning ikkinchi plani ham bor. Vladich:

-Batya charchadi, hurmat bilan kuzatib qo‘yinglar, ko‘p xizmat qildi. Oilasiga tegmanglar. Unvonlari ham joyida tursin. Bunday odamning tarafdorlari ko‘p bo‘ladi. Qolaversa, u bizga sodiq. Hech qachon xiyonat qilmadi,- degan.

Vladichning bu gapini qaerdan bilamanmi? Uni “Batya” o‘ldirilgan tunning saharidagi majlisda bilib qoldim.

Ammo majlisga qadar onadan emgan sutimiz og‘zimizga keldi desam, ishonavering. Chunki bizga qarshi guruh ham shimini shimarib ishga kirishgan edi. Bunday paytda Rais eng yaqin odamlariga ishonadi va ish ustiga ishni yuklaydi. Menga qonun bo‘yicha hokimiyat qo‘liga o‘tadigan odamni olib kelish ham yuklatildi.

Rais, “Ozgina ishlov ber unga, xazinangni ishga sol” dedi.

3. Senator

Hammasini tushundim. Demak, ertalabga majlis. “Shum”ni sportzalga olib bordim. U mashinadan tushmadi, ichkari kirib kiyimlarini olib chiqishimni buyurdi. Keyin:

-Qo‘nalg‘aga hayda,- dedi.

Oldin Aeroport derdi. Qaerdadir shu so‘zni eshitib qolibdi, avvaliga “Qo‘nolg‘o” deb yurdi. Keyin “Qo‘nolg‘a” deydi bo‘ldi. Hozir to‘g‘risini aytdi. “Qo‘nalg‘a”. Qo‘nadigan joy degani. Kallavaram, hozir shu so‘z haqida o‘ylaydigan paytmi?

Bu qayoqqa ketmoqda? Qo'rqdimikan? Qochishni o'ylayaptimi? Nimani rejalashtirdi? Nahotki Raisga ishonmadi? Qanday qilib, Raisni xabardor etsam? Xayolimda ming ko'chaga kirib chiqsamda, mashini bitta ko'chadan bormoqda. Yarim tun bo'lgani uchun hamma chiroqlar ko'k yonib turibdi. Deyarli to'xtamasdan qo'nalg'aga keldik.

Hammayoq o'rab olingan va bizni ham tekshirib kiritishdi. Bular qachon kelib ulgurishdi? Maxsus guruhning bolalariga o'xshamaydi. Chunki bittasi sigaert chekib turgandi. Maxsus guruhda intizom kuchli, sigaret chekadigan chetlashtiriladi. Demak, bu yollanma kuch. Basharasidan bilinib turibdi. Bizdan emas, orasida soqol qo'ygani ham bor. Vagnerchilar bo'lmasin, tag'in? Keyingi paytda shular ham kuchayib ketdi. Chirigan daraxtning ostiga qarasangiz ham bittasi chiqib keladi.

Ichkariroqda Boy ota kutib turgan ekan. U mamnun qiyofda "Shum"ni quchoqlab oldi va o'zining shaxsiy uchqichi tomon boshladi. "Shum" menga indamadi ham. Biroz kutib turdim. Boy otaning uchqichi ko'kka ko'tarilgach, esim joyiga kelgandek bo'ldi. Raisga sim qoqdim.

-Gapirma, hammasi tushunarli, aytganimni qil va ana uni ertalabga olib kel,- dedi.

Uning bizdagi nomi "Senator". Ichidan pishgan. Oliygozni pulga bitirgan bo'lsada, o'z ishini biladi. Qanday, qachon, qaerda olish masalasida pixini yorgan. U prokuraturadan devonga o'tgach, kovlashtirgandik. Narkobiz anchagina kopmpromat to'plagandi. Hammasini tayyorlab, "Batya"ga chiqardik. Uni qamoqqa olishga hozir bo'lib turganimizda, "Batya" uni senator etib tayinladi. Shu bilan hamma narsa arxivga tushdi.

Xonamda biroz mizgʻib olishga urindim, boʻlmadi. Qahvani achchiq damlab, Senatorning tarixini qayta qarab chiqdim. Subhi kosibning aldovchi tongi boʻzarib-boʻzarmay yoʻlga chiqdim. Biroz uxlasin, keyin uygʻotaman, desam, unga allaqachon Rais sim qoqqan va kiyinib, uyining oldida aylanib yurgan ekan.

Meni darrov tanidi va mashinaga oʻtirdi.

-Yana biroz kelmasangiz, oʻz mashinamni chaqirmoqchi edim,-dedi u.

-Uzr, aytilgan vaqtdan oldinroq keldim. -Kelolmay qolsam, qaerga borar edingiz?-dedim mashinani katta yoʻlga burarkanman.

-Raisning oldiga-da,-dedi u sovuqqonlik bilan.

- Darvoqe, nima gap ekan, bilmaysizmi? Internetni kovladim, dunyoda tinchlik. Kecha katta majlis qilgandim, shundan bir fikr tugʻildimi, desam, u erda faqat tabiat va mehnat mavzusini muhoka qilgandik. Xullas, boshim qotib qoldi,-dedi.

Idoramizning oʻziga xos siyosati mavjud. Yaxshi gap bilan ilonni inidan chiqarish mumkin. Hachcha bilan boʻgʻish kerak. Keyin istaganingni qilasan. Boshini ezish topshirigʻi berilgan boʻlsa, ezasan. Zahrini olmoqchi boʻlsang, bu ham ixtiyoringda.

Idoramiz shugʻullangan har qanday odamga ilon deb qaraladi. U sher boʻladimi, chumoli boʻladimi, farqi yoʻq. Avval yaxshi gap, ish bermasa, iniga choʻp suqiladi, zarurat boʻlsa tortib chiqariladi yoki inida bitiriladi. Darrov biqinga niqlaydiganlar ham bor. Ularning omadi chopmaydi. Oʻz boshlariga ish orttirib oladilar. Mijozing, ayniqsa mana bunday katta odam boʻlsa, juda ehtiyot boʻlish kerak. Uning

mamlakat rahbarligiga bir qadami qolgan. Agar ozgina xato qilinsa, Raisdan boshlab hammamiz dorga osilamiz.

-“Batya” ketib qolibdi,-dedim unga.

-Qaerga ketadi?-dedi u.

-U dunyoga rihlat qilibdi,-dedim.

-Bunaqa gaplarni gapirmang, sizga yarashmaydi.

Indamadim. O‘zi so‘z ochdi.

- Nima bo‘ldi? Bunday yotog‘i bilan tushuntirsangiz-chi?

-“Batya” o‘lib qolibdi. Endi sizning davringiz keldi. Shuning uchun kechirasiz...

-Hech qisi yo‘q. U ablah odam edi. O‘lgani yaxshi bo‘libdi. Erkin nafas oladigan kunlarga etdik. Xudoga shukur! Uka mashinani tezroq haydang, ishlarimiz ko‘p, bugun juda og‘ir kun bo‘ladi. Yomonning o‘zidan o‘ligi og‘ir deydilar.

-Bitta og‘ir gap ham bor.

-Nima ekan?

-Batyaning seyfidan siz haqingizda juda ko‘p hujjatlar, videolar chiqibdi.

Senatorning nafasi ichiga tushib ketdi. Oynani ochmoqchi bo‘ldi. O‘zim ochdim. Mashina ichini gurillab havo bosdi. Mashinani sekinlatdim. U yana bekitib oldi va:

-Ukajon, bu yaxshimas, nimalar deyapsiz? Kim topdi? Nima haqda? Yana eski gaplarmi? Bir martaku qamoqqa ololmagan edingizlar yo endi olmoqchimizlar? Mening daxlsizligim bor. Mamlakatda ikkinchi odamman. Asosiy qonun bo‘yicha endi men bosh qo‘mondonman! Siz ham

menga buysunasiz! Men bilan birga bo'lsangiz Raisning o'rni sizniki.

-Sizni Rais emas, "Batya" qamoqqa oldi,-dedim mashinani daraxt tagiga to'xtatib.

-Uni o'ldi dedingizku?

-Ha, o'ldi, ammo sizni qamoqqa olib ketdi. Prokuraturada ishlaganingizda Olmaliq ishini yopib, yuz ming dollar olgan paytingiz videoga tushgan ekan. Chegarada ushlangan qora dori masalasidagi ishni ham yopib yuborganingiz... Oltin quyma, yombilarning o'rni...Hozir Moskvada yashayotgan karatechi bilan suv bo'yida uchrashganingiz. Boltiq bo'yidagi uylar, harbiy generalning hovlisi...

-Bas! Bo'ldi uka!

-Ustoz, lekin men siz tomonda. Agar bularning bari uydirma, kurashamiz, o'zimni oqlayman desangiz, oxirigacha siz bilan birgaman,-dedim.

-Ablah "Batya"! Va'da bergandi, bo'ldi, bularni hech kim ko'rmaydi deb. Rais juda boltakash, har qanaday og'ochni kallaklaydi. Ildizi Moskovda. U bilan kurashib bo'lmaydi.

-Yigitlarim bor, sizga tuhmat qilishayotgan bo'lishsa, hammasini qamoqqa olamiz, siz uch oylik muddatda oqni oqqa, qorani qoraga ajratasiz. Keyin saylovda ham ilojini qilamiz.

-Yo'q uka, siz bularni bilmaysiz. Boshqa narsalar ham topishadi. Sharmandai sharmisor qilishadi.

-Ha, bu borada ham ikkita video bor ekan. Bittasi Chimyonda, ikkinchisi Bishkekda olingan.

-Uf!-deb yubordi Senator.

-O‘zingizga olmang, mana hokimiyat qo‘lingizga o‘tmoqda. Bunday paytda tetik bo‘lish kerak. Tuhmat, shantajni ochib tashlaymiz!

Unga suv uzatdim.

-Istasangiz qahva ham olgandim.

-Qahva ichgandim. Mayli suvni bera qoling.

U xayolga toldi. Keyin:

-”Shum” ko‘rmadimi?-deb so‘radi.

-Seyfni ochishganda “Shum” ham bor edi. Ana u Azim ham, Salimxon aka ham,-deb unga ozgina bosim o‘tkazdim.

-Voy iblis, saqlab qo‘ygan ekanda-a? Rasvo bo‘ldi. Nima qilamiz endi?

Inson nega bu qadar tuban ketadi? Pora olish o‘zini sotish, vijdonini oyoq ostiga tashlab ezg‘ilash, kimgadir tobe bo‘lib qolish ekanligini anglamaydimi? Sharaf, o‘zlik, g‘urur pulga sotiladigan bo‘lib ketdi. Kim aybdor? Farzandining qulog‘iga bu iblisona ish ekanligini quymagan ota-onami? Balki ularning o‘zi ham pora berib pora olgan bo‘lishsa-chi? Hayotlari shundan iborat bo‘lsa-chi? Unda jamiyat aybdormi? Axir jamiyat ham insonni tartibga chorlab turadigan hodisaku? Jamiyatda ishonchni o‘ldirishdi. Har bir harakatni ko‘rguvchi, bilguvchi, nazorat qilguvchi Xudodir degan tushunchani ongdan siqib chiqarishdi. Jamiyat kasal bo‘lib qoldi. Bu vaboni tuzatish mumkinmi? Xudoga ishonilmasa, qonunga ishonilmasa, qanday tuzatish mumkin? To‘la tuzata olmasa ham, tuzum davolashi mumkin. Buning uchun siyosat to‘g‘ri bo‘lishi, tuzum ishlashi zarur. Ammo bu ham boshi berk ko‘cha. Mana bunday senatorlar belgilaydi siyosatni. Tuzumni ishlatish

shularga qolgan. Nima qilishini bilmaydi, mendan so‘rab o‘tiribdi. Aslida bu vazifadagilar faqat menga emas, boshqalarga ham yo‘l ko‘rsatishi kerak emasmi?

-Sharoitga qarab ish tutish kerak,-dedim.- Masalan, hammasini “Shum”ga topshirib, u bilan kelishgan holda hozirgi mavqeingizni saqlab qolishingiz mumkin...

Hey deyman, o‘zinga o‘zim. Hozirgina nima haqda o‘ylab turganding? Qara, o‘zing ham shulardan biriga aylangansan! Qabih insonga yomonligini xaspo‘shlash va qilmishlarini davom ettirish uchun ko‘k chiroq yoqayapsan.

Xuddi xayolimni uqib turgandek, Senator keskin savol berdi.

-Rais shunday dedimi?

Nima deyish kerak unga? Yo‘q deyish kerakmi? Ishonmaydi. Ha, deyish kerakmi, unda shuncha gapni nega gapirdim.

-Elchiga o‘lim yo‘q, ustoz. Iltimos, bu haqda gaplashganimizni bildirmang. Sizni hurmat qilganim, tuhmatga qolayapsiz deb o‘ylaganim uchun gap ochdim.

Agar shunday demasam, do‘zaxning qoq marakaziga tushib qolishim hech gap emas. G‘ulomning guruhi ham juda kuchli. Mabodo bu odam ularning to‘riga tushib qolsa, hammasi barbod bo‘ladi. Ehtiyotli ish tutishga majburman. Raisning ishonchini yo‘qotsam ham yonaman. U juda osonlik bilan quduqqa otadi. Ozgina zulmat boshlansa, soya g‘oyib bo‘ladi. To tong otguncha osonmi, keyin.

-Hamma to‘planmoqdami?-Senator titroq tovushda so‘radi.

-Ha, favqulodda majlis.

-Qaerda?

- "Bahor" da.

- Nega Devonda emas, nega bizning binoda emas?

- U tomonini bilmayman. Menga sizni o'sha erga olib kelish topshirilgan. Qolganiga kichkina odammiz, - dedim.

- Yo'q, uka, siz kichkina odam emas, agar tushuntirmaganingizda o'z oyog'imni o'zim sindirardim.

Darvoqe, biz boradigan joy bir paytlar konsert zali bo'lgan. Mashhur va go'zal qizlar raqsga tushishgan. Katta anjumanlar o'tkazilgan. Qizlarning rahbari dong'i dovon oshgan ayol vafot qilgandan keyin bu erdagi sahnaning devorlari ham nuray boshlagan. Binoning bir chetida qabulxona bor. Avvaliga shuni kengaytirishdi, keyinchalik binoni hukumat idorasiga moslashdi. Rais odamlarni bu erga to'playotgani xavfsizlik chorasi.

Senatorning bunchalik oson taslim bo'lishini bilganimda bemalol mizg'ib olgan va keyin bamaylixotir kelgan bo'lardim. Tun bo'yi arxiv titibman. Kim bilsin, bunday katta lavozimdagi odam mahkam turadi, deb o'ylabman-da? Axir qanchda-qancha jinoyatlarni tergov qilgan, son-sanoqsiz odamlarni qamashga qaror chiqargan, o'zini yaratuvchi hisoblab, ne-ne taqdirlarni yozgan, qismlarni belgilagan, mansabdan mansabga esa pul degan norvonda ko'tarilgan bu odam kaminani kichkina barmog'ida aylantiradi, deb o'ylagandim. Juda chigal holatlarda ham qutilib qolgan. 'Batya'ni qanday qo'lga olgan, haliga qadar muammo. Balki vazirlik paytidayoq "Batya"ning sirli dunyosiga xizmat qilgan bo'lishi mumkin? Balki topganini "Batya" bilan bo'lishganmikan?

Xullas, taroziga qo'ysam, ikki yomondan birini tanlashim kerak. "Shum"ga nisbatan buning qilmishlari og'ir. "Shum"

olganiga yarasha yuguradi, ishlaydi ham. Bu esa ham oladi, ham ishlamaydi. Agar qo‘limda bo‘lganda hozir kimligini basharasiga aytib uni mashinadan dumatlab yuborardim.

O‘zingchi? O‘zing ham qulsan! Rais o‘l desa o‘lasan, qol desa qolasan. Ammo qachongacha? Mana shunday burilish nuqtalarida hech narsa qila olmasang, yomon ekan. Kecha “Shum”ning g‘urursizligi haqida o‘ylayotganding. O‘zingda g‘urur bormi? Shartta bu ishni tashlab keta olasanmi? Yo‘q ketolmaysan. Chunki qo‘rqasan. Chunki bilasan, keyin nima bo‘lishini, Shunqorbek!

Shunaqa bo‘lganing uchun ham xotining bolasini olib chiqib ketdi. Avvaliga xafa bo‘lding. Ammo keyin o‘ylab ko‘rib, yaxshi bo‘libdi deding. O‘g‘lim mening tarbiyamni olmagan yaxshi. Qaynotam tuzuk odam, Uning tarbiyasini olsin deb o‘zingni ovutding. Xotining kimligingni va qanday ziyon etkazishing mumkinligini bilgani uchun ham boshqa turmushga chiqmaydi, hayotini o‘g‘liga bag‘ishlaydi deb o‘ylading. Yordam qilib turaman. Otasi ham yakka. Hayhotdek hovlida. Ajralganimizni bildirmayman unga. Onda-sonda borib turaman, deb ko‘nglingga taskin berasan. Qachon bording? Artistlik qilma! Otasi ham biladi kimligingni. U bechora ham qo‘rqadi sendan, shuning uchun miqqini chiqarmaydi. Sen tag‘in odamlar, jamiyat, siyosat haqida o‘ylaysan. Sen bu ishda xayol surish ham mumkin emasligini unutding. Qoidani buzding. Buning ham jazosi bo‘ladi.

-Aql yoshda emas, boshda,- Senatorning bu gapi xayolimni chil parchin qildi.-Uka, nima maslahat berasiz? Siz haqqingizda yaxshi gaplar eshitganman.

Shu, dod deb yuborgim keldi. Ammo o‘zimni qo‘lga oldim.

-Menimcha, majlisda mamlakatga rahbarlikni bajara olmayman, bu juda qiyin ish, ayniqsa hozirgi murakkab zamonda kuchli rahbar kerak bizga, deysiz.

Bir zum tin olib davom etdim:

-”Shum”ni maqtaysiz, undan boshqa odam eplolmaydi, bizni bu chohdan faqat va faqat “Shum” qutqazadi desangiz, bas, hammasining og’ziga urasiz.

-O’zim ham shunday fikrdaman. Boshqa yo’l ham yo’q. Sizga rahmat. Ancha engil tortdim, ukajon. Rostdan ham bu ishni uddalay olmayman. Osonmi? Bo’ldi, o’zim tashabbus qilib shu gapni aytaman.

Indamadim. Ammo negadir shu damda o’zimdan nafrat qildim. Chirkin o’yinlarning ichidasan Shunqor. Yana ham botib ketayapsan. Oxiri baxayr bo’lsin-da. Yozganlaringni o’qib, boshqalar ham sendan nafrat qilishadi. Mayli qilishsin. Bilishsinki, shunday odamlar bor va ular jamiyatni davolash o’rniga uning quli bo’lib qolmoqdalar. Orqaga yo’l yo’q. Oldinda botqoq. Nima qilish kerak? Hech bo’lmaganda shu savolni berayotganlar bor-ku? Demak, javobi ham topiladi.

Senatorni binoning Anhor tomondagi orqa eshigi yonida Raisning o’zi kutib oldi. Menga esa:

-Endi borib, Azimni olib kel, sir sizdirma,-dedi.

4. Otasiga o’xshamagan bola

Poytaxtni uruslar bosib olganda qozikalonning uyiga odam yuborishadi. U kelmaydi.

-Uruslarning kattasi o’zi kelsin,-deydi.

Bu gap rus generaliga yoqmaydi. Qurolli odamlarni yuborib, qozikalonni keltiradi.

-Yaqinda qozikalonlik o'rnini bekor qilaman, keyin senga o'xshagan bo'ysunmas, bo'yni yo'g'onlarning terisini shildiraman,-deydi general.

-Taqsim, men kelmayman demadim, general hazratlari tashrif buyurib, bir piyola choyimizni ichsinlar dedim, odatimiz shunaqa, bu hurmatu ehtiromimiz ramzi, sizga atab qo'yilgan to'nni elkangizga yopib, oyog'ingiz ostiga so'yiladigan qo'yni semirtirib qo'ygandim.

Rus general bu gapga ishonmabdi va qani yur uyingga boramiz, debdi.

Kelishsa, haqiqatdan ham semirtirilgan qo'y bor, to'n ham qavat-qavat. Ziyofat avjiga chiqibdi.

Ertasiga qozikalon ishga kirishib. qo'zg'olonchilarni osishga hukmu fatvo chiqarib beraveribdi.

U generalga bormayman degan paytda xuddi anshu isyonchilar uning uyida o'tirishgan ekan. Ularning oldida o'zini sheryurak qilib ko'rsatgan. Keyin esa rus generalini siylagan. Chunki qozikalon har kuni avomdan bitta-ikkita qo'y va uch-to'rtta to'n olarkan. Ko'p o'tmay general uning ukasini Dumaga delegat qilib jo'natgan.

Bu qozikalon va uning o'g'li haqida arxivda o'qigandim. O'g'li sho'ro xafsizlk idorasining eng suyangani odami bo'lgan. Uni juda hurmat qilishgan. Bilimidan foydalanishgan. Sendan ugina, mendan bugina. Uni sho'ro partiyasining tepasida turganlar ham siylashgan. Orden ordenda, medal medalda. Tarixga nomini buyuk olim deb yozishgan. Hozirgacha ham uning shuhrati haqidagi

hikoyalar maktablarda quloqdan kirib, quloqdan chiqib ketadi.

Idorada xayol surishni man etib to‘g‘ri qilishgan. Bu qoidani buzdimu ichki menimni uyg‘otib yubordim. Xayol surdingizmi, o‘qiganlaringiz, bilganlaringiz qo‘zg‘alib qoladi.

Mana, Azimjonni olib kelishga borayapmanu uning tarixi xayolimni ishg‘ol etmoqda. Idoramizda avlod-ajdodi haqida, o‘zining qilmishlari xususida eng ko‘p hujjat to‘plangan odam Azimjon bo‘ladi, desam, unchalik xato qilmayman. Chunki uni o‘rganish uchun haftalab vaqtim ketgan. Hujjatdagi ismi Azimjon. Ammo Rais Azim desa ““Shum”” uni “Baloi azim” deydi. “Shum” bilan ikkalasining orasi daryodek ochilgan. Bu daryodan baliq ham chiqishi mumkin, akula ham. Daryoda akula nima qiladi, deb o‘ylayapsizmi? Akula ham baliq, bittasi olib kelib, qo‘yib yuborsa, “Shum”ning sohiliga kelib qolishi hech gap emas. Akulaning ko‘zi ko‘rmasa ham, suyagi bo‘lmasa ham, tishlari bor. Mening vazifam “Shum”ni bu tishlardan qo‘riqlash.

Azimjon sho‘rolar paytidayoq idoramizga mixlab qo‘yilgan. Bir tomonda otasining madadi va ikkinchi tarafda idoramizning qo‘llovi bilan lip etib suvning yuziga chiqqan.

Bizda shunday ana’na bor. Yoshlardan birini xalqqa tanitish uchun uni bir hafta tayyorlashadi. Eng dolzarb masala bo‘yicha nutqi ustida ishlanadi. Keyin katta bir majlisda so‘zga chiqariladi. Elning ham. elboshining ham nazariga tushadi. Kutilmaganda uning yulduzi porlaydi. Bu amaliyotni “uchar gilam” deymiz. Azimjon ham “uchar gilam”da ko‘tarilgan. Katta majlisda u o‘zi uncha bilmagan bank masalasida taklif aytgan va “Batya”ga “paxta

qo‘ygan”. Aslida “Batya” uning otasini yaxshi tanigan. Shu bilan u Azimjonni banklarning qozikaloni qilib qo‘ygan.

“Shum” bilan ikkalasi ikki ovsunga o‘xshaydi. Qaynonaning yonida bir-biriga kulib qarab turadigan va o‘zlari qolganda, ha, afting qursin, deb teskari qarab ketadigan ovsinlar bo‘ladiku, xuddi shu holat.

Azimjon pulning xo‘jayini. Jilovni mahkam tutgan. “Shum” loyihalari uchun undan pul so‘rashga or qiladi va “Batya”ga chiqadi. “Batya” esa unga yuboradi. Bu bir-ikki takrorlangandan keyin, qaytib og‘iz ochilmaydi. Loyiha o‘ladi. “Shum”ning suprasi quruq, ammo supraning xo‘jayini. Azim esa suprasi yo‘q, ammo qop-qop unning egasi.

Azimjon balo. “Batya”ning qizi Puldona bilan uzoq vaqt don olishib yurdi. O‘sha paytda ”Batya”ning darmoni, Puldonaning karmoni” degan nom ham ortirib olgan. Oralariga bir artist oraladiyu silliqqina turgan g‘isht qolipdan ko‘chdi. Azimjon Puldonaga bir so‘m ajratsa, o‘ziga ikki so‘m oladigan bo‘ldi. Puldona buni sezib qolgandan keyin idoraning “Janjal” guruhini oyoqqa turg‘azdi. Qiyqiriq boshlanib ketdi. Avj pardaga etganda, Rais ham, G‘ulomning guruhi ham janjalga aralashab ketdi. Puldona osh pishiraman, deb toshi terilmagan moshkichiri pishirdi. Idoramiz naqd ikkiga bo‘lindi. Topgan ham otadi, topmagan ham. Internet degani jang maydoniga aylandi.

O‘shanda eng mazza qilgan “Shum” bo‘ldi. Ammo ma‘rakada o‘t chiqsa, xodimning ishtoniga ham tegadi degan gap bor. Xanjarning bir qirrasi “Shum”ga tekkandi, darhol chora olishdi. ”Batya”ning qo‘li bilan kitobni yopishdi.

Aslida Azimjon idoramizga tupurib, Mag‘rib bilan og‘iz-burun o‘pishni boshlagandayoq uni bitirmoqchi bo‘lishdi. Lekin “Batya” joniga malham bo‘ldi.

“Batya”ni ag‘darmoqchi deb hujjat ham qilindi. “Batya” emadi. Undan voz kechmadi. Chunki uning bir necha millard dollari Mag‘ribda, Azimjonning nomida. Buni “Shum” ham biladi. U pulni osonlikcha qaytarib bo‘lmaydi. Azimjonning pishiqligi ham shunda. Buni o‘zi sizdirgan. Chunki o‘sha pul uning sug‘urtasi. Aks taqdirda bu kecha dodasi bilan birga taqdiri hal bo‘lardi.

Azim juda qayishqoq. So‘ksangiz so‘k oshi, ursangiz un oshi, deb qabul qiladi. Unisidan ham, bunisidan ham to‘yib ketaveradi. Bir paytlar “Taychi”ning otasi bilan oshna edi. O‘shanda zahar tayyorlaydigan joyni Azimjonning opasiga berishgan. Kimlar o‘lib ketdi, kimlar chirib ketdi. Hatto Rais ham u ishga aralasha olmasdi. “Batya” va “Taychi”ning otasi nazorat qilardi. O‘shandan beri Azimjon yayrab qoldi. Hozir ham miriqib o‘xlayotgan bo‘lishi mumkin. Balki dodasining o‘limi tushiga kirgan bo‘lsa-chi?. Uning shunaqa odati bor. Biror joyda biror gap eshit sa, fitna-pitnaning hidini olsa, tushimga kiribdi deb qudug‘idan qamish qilib o‘stiradi.

Rais bu safar qovunni yaxshi pishirdi. Selitra solmadi. Tun bo‘yi o‘ziga ishongan uch kishi ishlayapmiz. Agar hukumatning mashinalari chaqirilsa, keldi-ketdilar ko‘paysa, gap ham ko‘payadi. Qo‘nalg‘ada Azimjonning odamlari bor. Ammo dedi-qo‘di ertalab unga etib boradi. Ungacha biz ishni bitirayapmiz.

Rais odamlarni to‘playotgan joyda hamma narsa bor, deraza yo‘q. Kirdingizmi, qochib chiqolmaysiz. Bitta eshik. Rais tapponchasini ko‘z-ko‘z qilib, taqib olgan. Yonida yana bitta

tutingan o'g'li bor. U ham bir musht bilan ikki amaldorni erga qulatadigan. Qolaversa, bizning amaldorlar bo'sh xalta. Eh, xato qildim. Bo'sh xalta emas, pulga to'ldirilgan xalta.

Bular uxlamay chiqadimi deyman, Azimjon ham uyining yonida aylanib yuribdi. Demak, rais bunga ham sim qoqqan.

U indamay mashinaga o'tirdi. Qo'liga telefonni olib:

-Nima gap, Rais telefon qildilar, shundan keyin aloqa uzildi. Kiyinib tashqariga chiqdim. Ko'nglim g'ash bo'ldi. Tinchlikmi?

-Telefonlarga bir kor-hol bo'lganga o'xshaydi. Meniki ham ishlaymay qoldi,-dedim. Shu erda boshqa gap aytishim kerak edi. Azimjon buncha ham laqqa emas.

U odati bo'yicha indamadi. Menga ishonmasligini bilaman. "Shum"ni qanchalik yomon ko'rsa, mendan undan battar nafrat qiladi. "Shum"ning nomi "Shum", buning esa o'zi shum. O'zini bozorga solishni biladi. "Shum" ko'rinmaslikka urinsa, bu hamma joyda haykal. Asli tarixchi. Onasi ham tarixchi. Kim bilsin balki shu uchun tarixni bitirgandir? Komsomolda ishlaganida partiyaga o'tish kerak bo'lgan. Sirtidan suvchilikni o'qib, cho'lga miroblikka ketgan va o'sha erda partiyaga o'tgan. Diplom deganidan besh-oltita bor. Amalga mindingizmi, bir yo'talsangiz, ikki cho'ntagingizdan ikkita diplom tushadi.

Hozir ichidan zil ketayapti, ammo gapirmaydi. Toqatiga balli. Mana shunday toqatli bo'lmasa, qachonlardir qamoqda o'lardi. Bundaylarni ichi xandak, fe'li andak, deyishadi. "Lazgi"ga ham o'ynaydi, "Tanovar"ga ham.

Bir paytlar "Shum" hokim bo'lganida harbiy generallarning uylarini "Batya"ning atrofida qilarga hadya qilgan. O'shanda bunga ham, uning tutingan otasi Temur Alimga ham tekkan.

Umuman kim “Batya”ning huzuriga kirib chiqadigan bo‘lsa, “Shum” hammasiga bittadan uy hadya qilgan. Ammo uymi uy. Sho‘ro davrida generallar uchun qurilgan. Villa deyishadi. Atrofi bog‘u rog‘. Havosi toza bo‘lsin deb igna bargli daraxtlarni devordek terib, yashnatib qo‘yishibdi. Bu o‘sha joydan ketgisi kelmaydi. Shahar tashqarisida koshona qurdirdi. Hafta oxirlarida boradi, ammo bu uyiga ko‘ngil qo‘ygan. Kim bilsin, oltinlarini shu uyining devoriga suvaganmi, har holda aylanib, aylanib shu qoziqqa qaytadi.

Uni dastlab ko‘rgan paytlarim soyasiga salom berganman. Otasi haqida ko‘p o‘qigandim. Kuchli olim bo‘lgan. Dong‘i dunyoga ketgan Quyosh sandonni qurgan. Atom energiyasi, Quyosh nuridan foydalanish bo‘yicha misli ko‘rilmagan tadqiqotlar olib borgan. Oxirini emas, oqibatini bersin ekan. Oqibati yomon bo‘lgan. Tegirmon teskari aylanib ketganda uning ham tit-pitini chiqarishdi. Majlisda o‘lib qoldi, sho‘rlik. Majlisda “Batya” ham o‘tirgan. Kim bilsin, balki shunday ulug‘ insonning o‘limini ko‘rib, o‘g‘liga ko‘ngli iligandir? Yo‘q, unday bo‘lsa, nega otasining ishi davom ettirilmadi?

Biz so‘z mulkining suloni Navoiy haqida gapirganimiz gapirgan. Haliga qadar uning darajasida yozadigan shoirimiz chiqmadi. Xorazmiy deymiz og‘zimizni to‘ldirib, ammo oramizdan Xorazmiy chiqsa, yakson qilamiz. Buxoriy deb ko‘krakka uramiz, Buxoriyga o‘xshayman deganlarni zindonga tiqamiz.

Mashinada shupshayib o‘tirgan mana bu kimsani yomon ko‘rib qolganimning boisi, otasi qurgan Quyosh sandonini ishlatishi, “Batya”sini bunga ko‘ndirib xalqqa quyosh energiyasidan tok tarqatishi mumkin edi. O‘shanda elektrga zor bo‘lmasdik. Hatto Atom elektr stansiyasi qurishni eplab ketardik. Hokimiyat tepasida yayrab, bekordan bekorga

urilgan otasining ishini tiklay olmagan odam qanday qilib yangi Xorazmiy etishtiradi?

Bilasizmi, menga alam qiladigan joyi nima, bir kun majlisda otasining shogiridlari Quyosh sandonini ishga solaylik, bu mamlakatimizning kelajagi desa, xazinabon o'g'il shumshayib, u erni muzey qilib qo'yaylik, turizm markazi bo'ladi, degandi. Bizning ham ichki, ham tashqi qiyofamiz mana shu! Turizmga alantiraylik, dollar kelsin! Bobolarni gapiraverishdan ham maqsad ularning ishini davom ettirish emas, nomlarini sotib, pul qilish. Ana bittasi pulni yig'di-yig'di nima bo'ladi? Ketdi asfalasofunga. Endi uning nomini pullash boshlanmasi bo'lgani. Bular nom sotarlar!

Azimjonning katta bobosi qozikalon bo'lganda ukasi Chor Rossiyasi Dumasida delegat ekan, birgalikda San Peterburgdan orden taqib kelisharkan. Chevara ham shu. Ordenning ishqibozi. Aks taqdirda otasi boshlagan maktabni oyoqqa qo'yardi-da, bunga uning imkoni, xalqning ehtiyoji bor edi.

Bu o'zini yoshlarga aqqli qilib ko'rsatadi. Ingliz tilida, rus tilida gapirib, iqtisodning ildizini ochganman deydi. Ammo iqtisod nima bo'ldi?

Bir kun majlisda u o'rta savol tashladi. Bunaqa savol tashlashining o'zi kulgili edi. Moliyaning taxtida o'tirgandi-da.

-So'mning qadrini oshirish uchun nima qilish kerak? -dedi.

U jim, hamma jim.

O'shanda "Agar pora olishni so'mda yo'lga qo'ysangizlar obro'yi oshib ketadi", degan kinoya o'tgan ko'nglimdan.

Xullas, xayolparast bo‘lib qoldim. Bir tomondan yaxshi. Mana bunday mum yutgan odamni olib kelishda xotirangizni zangdan tozalaysiz va kelib qolganingizni bilmaysiz.

Rais unga peshvoz chiqib kutib oldi va menga yaqinlashib, pichirlab:

-”Shum”ni olib kel, kechagi joydan,-dedi.

Chiqayotib ko‘zim tushdi, yana bir mashina kelayati. Tanidim. Raisning eshik og‘asi. Chirog‘ni o‘chirib yoqdi. Bu “jim” degan belgi. Demak u ham kimnidir olib kelmoqda.

Qo‘nalg‘aga borsam, “Beriya” shapanglab yugurib chiqib ketdi. Bu qayoqdan paydo bo‘ldi? Boy otaning uchqichi shu erda. Qaytib keldimikan? Bo‘ldi. Tushundim. Bizda “Rossiyaga borib kelish” degan amaliyot ham bor. Agar boshqa bir mamlakat rahbari bilan sirli gap bo‘lsa, uchqich bilan uning osmon hududiga kiriladi va maxsus aloqa bilan gaplashiladi. Buni sateletsiz gaplashuv ham deymiz. Yana kim bilsin?

Uchqichdan Boy ota tushmadi. “Shum” bilan Salimxon aka tushdi. U qachon kelib ulgurdi? “Shum”ni tanib bo‘lmas edi. Oldingi “Shum”dan asar ham qolmagan. Biroz egilgan qaddi tiklangan. Odimlari shaxdam. Ana shitobu mana shitob. Ana qatiyatu man qatiyat. O‘zim ham uning vajohatidan qo‘rqib ketdim. Yugurib tushib eshikni ochdim. Ikkalasi ikki tomonda o‘tirishdi. Salomga alik ham olishmadi.

Mashina yurgandan keyingina “Shum” elkamga qo‘li bilan urib qo‘ydi. Favqulodda holatlarda u haydovchining orqasida o‘tirardi. Bu xafsizlik uchun qilinadi. Mabodo

hujum uyushtirilsa, narigi tomondagi odam nishonga tushadi.

Ular to manzilga etguncha tovushlarini chiqarmadilar. Etib kelganimizda “Shum”:

-Ichkari kir, hammasini yozib ol,-dedi va qo‘limga telefon tutqazdi.

Demak, qaytarib oladi.

Ularning orqasidan ergashdim. Ichkarida Safoxon, Akmaliy, Komil aka va yana uch-to‘rt kishi bor. Majlisni Rais ochdi.

-Boshimizga og‘ir kulfat tushdi,-dedi u.-Buyuk yo‘lboshchimizdan ayrilib qoldik.

5. Maxfiy mashvarat

Rais xuddi qog‘ozga qarayotgandek, bosh egib stolning ustiga bir muddat termulib qoldi.

O‘tirganlarga nazar tashlayman. Hamma ‘Batya’ning o‘limini oldindan bilgandek, Raisning shu gapini kutgandek jim. Boshlar egik. Hatto raisga ham qarolmaydigan darajada horg‘inlik. Faqat “Shum”ning boshi tik va u atrofida gilarni kuzatmoqda. Negadir ularga ijirg‘inib qaragandek tuyuldi. Rais:

-Bir munut o‘rinlaringizdan turib, sukunat saqlashlaringizni so‘rayman,-dedi.

Hamma og‘ir o‘rindiqlarini arang orqaga surib, oyoqqa qalqdi. Ichimda sanay boshladim. Qani bir munut turishadimi? Ishonmayman. Rais “o‘tiringlar” desa o‘n soniyadan keyin ham joylariga cho‘kishadi. Bularning hech birida o‘zlik, g‘urur, qat’iyat, jur’at yo‘q. Robotga aylanib

qolishgan. O'tir desa o'tiradi, tur desa turadi. O'n to'qqizgacha sanadim. Rais "o'tiringlar" dedi.

Kimdir qo'lini duoga ocharmikan, deb o'yladim. Yo'q. Hammasi dinga ishonmaydi. Ammo tashqarida tillaridan "Xudo", "Oллоh" tushmaydi. Qaerga borishsa, qo'llarini duoga ochishadi. Ichkarida esa boshqacha. Nega yashirishadi bilmayman. Hozir ham ich-ichlaridan dinsiz. Borgan joylarida stolning ustida turgan to'la shishalar ko'p o'tmay bo'sh holda "yiqilaveradi". Lekin hozir rais qani bir duo qilaylik, desin, hammasi qo'lini ochadi. Bir soniyada mulla ham chiqib qoladi oralaridan. Hech bo'lmasa, "alhamdi"ni chala-chulpa qilib o'qiydi.

Sukunatni "Shum" buzdi.

-Xudo rahmat qilsin, -dedi.

O'ylaganimdek bo'ldi. Hammasi birdan jonlandi.

-Xudo rahmat qilsin,-deb ovoz chiqarishdi.

Xuddi ularni sinayotgan yoki masxara qilayotgandek "Shum" biroz pichirladida, qo'lini yuziga tortdi. Takrorlashdi. Hamma o'z-o'zidan "Shum"ning quliga aylanib qolgandi. Demak, yigitlar ham, Rais ham o'z vazifasini yaxshi bajargan.

-Kimda nima gap bor?,-dedi rais.

Jimlik. Bir payt Azimjon qo'l ko'tardi.

-Qo'l-po'l ko'tarmasdan gapiraveraylik, bu er maktab emas-ku? Qolaversa, endi "Batya" ham yo'q,-dedi Rais xuddi kinoya qilgandek.

-Biror vasiyat qoldirganlarmi?-so'radi Azimjon.

-Ha, dedi rais. Qimmatbaho toshlardan toj yasatgan ekanlar, oltin to'n tiktirgan ekanlar, mendan keyin hokimiyatga keladigan o'g'limga shu kiydirilsin, qo'liga soatim taqilsin,- degan.-Buni el oldida bajo keltiramiz.

Azimjon bu gap kesatiqligini tushundi, shekilli:

-Qaerga ko'mish haqida...-dedi ovozini ko'taribroq. U o'zini "Batya"ning birinchi o'g'li deb bilardi. "Shum" bilan raqobatga kirishdan cho'chimasligini siri ham mana shunda. "Batya" unga o'g'limsan deb qo'ygan. Ichida balki, o'zini valiahd, hokimiyat menga qoldi, deb ham o'ylayotgan bo'lishi mumkin. Buni po'tixgan yuzi, kutilmaganda charaqlagan ko'zidan ham sezish mumkin. U shu paytda shartta o'rnida turib, qani o'sha toj, qani soat deb yuborgisi yoki atrofdagilarga buyruq bergisi kelayotgandir, ammo bunga yigirma etti yillik "tarbiyasi" yo'l bermasligi aniq.

Yigirma etti yil oz vaqtmi? Odamni zanjirga bog'lab qo'ysangiz buncha vaqtda akillay yoki hangray boshlashi, egilib, bukilib eshakka yoki itga aylanishi hech gap emas.

U har saharlab xonasiga yuguradi. "Shum"dan oldin kelishga harakat qiladi, ammo u kelganda allaqachon "Shum" xonasida bo'ladi. Doim shunday yutqazadi.

Xonasiga kirdimi, ko'zi qora telefonda. Jiringlab qolishini kutadi. Soat millari tiq-tiq etib toshbaqadek sudraladi. Qog'ozlarga qaraydi. Kallasiga hech narsa kirmaydi. Biladi, "Batya" uxlab yotibdi. Ammo ko'zi telefonda...

Birdan jiringlasa nima bo'ladi? Choynakdagi choyni tugatib, yordamchisiga "choy" deydi. Bechora yordamchiga ham qiyin. U ham telefonga tikilib o'tiradi. Choynak qanchada bo'shashini ham biladi. Ikkinchisini hozirlab, ustiga

Koreyadan keltirilgan choynakpo'shni kiydirib qo'ygan. Darhol olib kiradi:

-Dastasi qizigan,-deb qo'yadi. Boshlig'i qo'lini kuydirsa, nima bo'lishini biladi-da. Azimjon esa necha choynak choyni ho'rillatganini kabinetidagi hojatxonaga kirgandagina his qiladi. O'sha erda ham xayoli qora telefonda. Jiringlab qolsa, nima qilaman, deb o'ylaydi. Siyishni bitirmay yuguramanmi yoki shim ho'l bo'lsa nima qilaman, degan o'y ezsa kerak uni? Biladi, qora telefon bir marta jiringlaydi. Darhol olish shart. Agar ikki marta jiringlasa:

-Falon narsani eb o'tiribsanmi, nega telefonni olmaysan,-degan so'kish eshitiladi. Lekin "Shum" usta. O'sha maxsus telefonning simini uzaytirgan. Hojatxonaga kirsam, birga olib kiradi. Hali yaqinda shimini yaxshi kiymasdan ham yugurib chiqqani haqida bilaman. Yordamchisi aytib bergan.

-To'xtang desang, to'xtamaydi, yugurib ketayapti. Undan tezroq yugurib oldinga o'tdim va yo'lini to'sdim.

-Shimingizni...,-dedim.

-Voy enasini,-deb shimini tuzatib oldi. O'shanda unga "Batya":

-Tez kel, uchib kel,-degan bo'lsa kerak deb aytib bergandi yordamchisi. Ishongandim. Ko'zimdan qochgan holatlarni undan so'rayman. Yordamchisi meni aldamaydi.

Hozir Azimjon shu ahvolda. Kim bilsin, ichini qanday qirinti qirmoqda?

-Qaerga bo'lsa, o'sha erga ko'mamiz,-dedi Salimxon aka xirillagan ovozda. Hech qachon majlislarda ovozini chiqarmaydigan, doim kulgan yuzini namoyish etib

o'tiradigan bu odamning gapi hammaning ustiga muz suv sepib yuborgandek bo'ldi.

Kutilmagan voqea yuz beradi. Senator sharta o'rnidan turdi va:

-Bunday holatda asosiy qonun bo'yicha hokimiyat mening qo'limga o'tadi, uch oyga. Shu muhlatda...

Uning labi qurib qoldi va atrofga qaradi. Yaqinidagi kichik stol ustida suv bor. Ko'zi tushdi, ammo olishga jazm qilolmadi. Burilsam, orqadan otishlari mumkin degan o'y ham kelishi mumkin xayoliga, bunday paytda. Rais seskanib ketdi. Uning ko'zi meni qidirayotgandi. Telefonning ustidan unga qaradim, shunaqa o'qraydiki, ko'zimning kosasi yorilib ketgandek bo'ldi. "Shum"ga qaradim, u boshini egib olgan, va soniya sari erga kirib ketayotgandek edi.

Senator:

-Mamlakatimiz juda qiyin ahvolda. Kelgan joyga kelib bo'ldik. Dunyodagi vaziyat ham yomon. Afg'onistondan har kuni noxush xabarlar kelmoqda. Buning ustiga huquq-tartibot idoralari ichida bo'linishlar mavjud. Shunday paytda jasoarat va siyosiy irodani o'rta qo'yadigan, xalqni o'z ortidan ergashtiradigan odam kerak. Saylovni kutish daxmaza. Hoziroq qiladigan birinchi vazifamiz "Batyani" ko'mish komissiyasini tuzish. Men bu vazifaga hurmatli "Shum"ni taklif qilaman.

Yana sukunat. Senator hokimiyatni qo'lga olgandek o'zini tobora bardam tuta boshladi. Oraga jimlik shu qadar indiki, yuraklar dukurlayotganini sezish qiyin emasdi. O'zimning ham ko'ksimdagi tipirlash telefonning titrashidan sezilmoqda. Har qanacha ishonsam ham, balki degan narsa asabimni kemirib tashladi.

-Men,-dedi senator va tin oldi.-Butun mas'uliyat va o'zimga bildirilgan hamma ishonchni idrok etgan holda mamlakat rahbarligiga muhtaram "Shum"ni tavsiya qilaman. Shu daqiqadan boshlab u kishi Bosh qo'mondonimiz, aytganlariga bo'ysunamiz va yo'lda davom etamiz.

Quyosh chiqib ketgandek bo'ldi. Hamma o'rnida turib qarsak chala boshladi. "Shum" ham o'rnidan turgan va qo'li ko'ksida, ko'zi Raisda. Minnatdorchilik qarashi edi bu. Rais esa yomonsan, degandek menga qarab qo'ydi. Boyagi o'qrayishdan asar ham qolmagan. Mag'rur edim. Qilgan ishim natija berdi. Garchi oqibati nima bo'lishini bilmasada, odam qandaydir faoliyatining natijasidan engil tortar ekan.

Nigohim Azimjonga tushdi. Yo Xudoyim! U o'rnidan turishga qiynalayotgan edi. Xuddi o'q eb yiqilgan to'ng'izga o'xshab lapanglayapti. Hozir yiqilib tushadi deb o'yladim. Sochlari oqarayotgandek edi. Ha, u o'zining hayot-mamoti hal bo'layotganini his qildi. Bunday paytda odam boshiga pishiq g'isht urilgandek tentirab qoladi. Hozir uning butun vujudi muzlagani aniq. Mushaklari simga aylanib, tomirlari har tomonga tortayotgan bo'lishi ham mumkin. Ana shu bosim ostida ko'tarilishga urinmoqda. Arang qad rostladi. Menimcha oyoqlari titarayapti. Buni elkasidan sezish mumkin. Elkasi bo'ynini qisayotgan yoki boshi elkasiga kirib ketayogandek edi. Umurtqasi butun ekan. Hammadan keyin bo'lsada o'rnidan turdi. Ammo qo'llari qarsakka qovushmadi. Harakat qilayapti, biroq kafti kaftiga tegmayapti. Boshqalar esa qarsak chalayotganimni "Shum" ko'rsin degandek xuddi besh qarsak o'yinini ijro etishmoqda.

Bunday holatlarda Mudofaa, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokratura muhim rol o'ynashi kerak. Ammo bu idoralarning rahbarlari ham hayajon bilan qarsak

chalishmoqda. Demak, Rais ular bilan gaplashib chiqqan yoki yarim tunda uchqichga borib kelishgan. Nima bo'lganda ham yuzlaridagi tashvish o'rnini qoniqish hissi egalladi.

Faqat Bitta odam xafaga o'xshayapdi. Hakimiy. U keyingi paytda "Batya"ning qo'riqchilariga bosh-qosh edi. Kim bilsin, balki haqiqatni bilar? Balki xabarsiz qolgan va endi bo'ynimga qo'yishmasin, degan xavotirda. Uning mana shu erda bo'lishining o'zi Raisning to'rida ekanligidir. Baliq to'rga tushdimi, tushdi, pitirlasa pitirlamasa, o'zini qutqazishi mushkul. Menimcha. birinchi bo'lib ishdan ketadigan shu odam. Rais uni jinidan battar yomon ko'radi.

Shum qo'lini ko'ksiga qo'yib, hammaga rahmat aytdida, qat'iy ohangda:

-Bo'ldi ishga o'tamiz,- dedida Raisga qaradi.

Rais:

-Bizga tunda bir necha mamlakat rahbari telefon qildi,-dedi u va qo'lidagi telefonni ochdi. Xonada deraza yo'qligi va sukunat bo'lgani uchun ovoz yaxshi eshitildi:

-Sizlarga hamdardlik bildiraman. Kutilmaganda yuz bergan bu voqea bizni ham tashvishga soldi. Ammo hayot bu hayot. Hammamiz ham ketamiz. Endi mavjud tinchlikni buzmasdan hokimiyatni qo'ldan qo'lga silliq o'tkazish haqida o'ylash kerak. "Shum"ning nomzodi menga juda ma'qul keldi va chin dildan qo'llab quvvatlayman. "Batya"ning hurmatini joyiga qo'yish mutloq va mutloq zarur. Uning nomi hammaga aziz bo'lishi lozim. Oilasiga hurmat ko'rsatinglar. Bu tinchlik davom etishi uchun juda muhim. Qolaversa, go'rdan chiqarib tashlangan rahbarlaringiz taqdiridan va Vladimir Ilich qismatidan dars

olish lozim. To‘rt besh kun sir saqlash kerak bo‘ladi. Azaldan shunday an‘ana bor. Hamma ishni joyiga qo‘yib, keyin e‘lon qilinadi. Ungacha biz har qanday yordamga hozirmiz. Yigitlarni yubordim, ular sizning qanotingiz!

Hamma tanidi. Bu Vladichning ovozi edi. Dunyoning ishlari qiziq. Bir paytlar Amerika Qo‘shma Shtatlari prezidenti so‘zlarining bosh harflaridan olib kod ism to‘qishgan. Potus! Buni faqat qo‘riqchilar va tansoqchilar bilishgan. Ammo g‘alvirda suv turmaganidek, odamda sir turmaydi. Bu yoyilib ketgan va endi keladigan hamma yangi rahbarlarni ham “potus” deyishadi. Hatto ularning o‘zi ijtimoiy tarmoqlarda shu nom bilan yozishadi. Bizda ham shunday bo‘ldi. Avaliga “Batya” ommalashib ketdi. Keyin uni tarjima qilib oldik: “Doda” deb. Mana endi “Shum” ham ommalashadi. Hatto Vladich ham “Shum” dedi. Haliyam “Shum Shumich” demadi.

Vladich “Shum”ni tabriklashidan masala oldindan hal bo‘lgani sezilib qoldi. Azimjon o‘tirgan joyida to‘kildi. Balki oldinroq bilganida, hammadan oldin qutlardim, deb o‘ylayotgandir? Nima o‘ylasa ham baribir endi foydasi yo‘q.

Darvoqe, Vladichning Lenin haqida eslatishi qiziq. U Leninni Stalin guruhi o‘ldirtirib, keyin nomini ko‘kka ko‘tarib yurishganiga ishora qildimikan? Yaxshi taktika. Baribir mish-mish tarqaladi. “Batya”ni o‘ldirishgani bir joydan sizadi. O‘shanda odamlar ishonishmaydi. Agar o‘ldirishgan bo‘lishsa, nega bu qadar ulug‘lashmoqda, nega haykaliga tiz cho‘kishmoqda, degan savol ustun keladi. Ana bu ongni osongina yuvish deyiladi. Vladich go‘ridan chiqarilgan rahbarimiz haqida nimaga ishora qildiykin? Balki uni ota-onasining yoniga ko‘minglar, aks taqdirda bir kun kelib bosh og‘ri bo‘ladi, dedimika?. Xullas, hamma

gapni “Shum”ning o‘ziga aytgan. Bu erdagi gap esa qolganlar uchun.

So‘ng qo‘shni mamlakatning otaxon rahbari gapirib, tabrikladi va undan keyin yana bir qo‘shnining so‘zi eshittirildi. U ikki tilda gaplashadigan bitta xalqning orasiga sim to‘r tortilgani, mina to‘shalganiga ishora qilib, o‘zim ko‘mish marosimiga boraman va “Shum” janoblarining qavatida turaman,-dedi.

-Menimcha etarli, qolganlarga ham rahmat aytdik,-dedi “Shum” ataylab so‘zlarga urg‘u berib. U bir lahzada jilovni qo‘liga olib, hukm qila boshladi.

-Ichki ishlar! Tur o‘rningdan. 24 soat oyoqda turasan. Sani qanday ishga kelganingni bilaman. O‘zingni oqla bola. Bu senga bir imkoniyat. ”Batya”ning komandasida biz bilan birga davom etishni istasang kemanding biror joyidan suv kirmasligi kerak. G‘ing deganini olib tiqib qo‘y. Keyin chiqaramiz. Devon atrofida to‘planganlar bo‘lmasin. O‘zing ham uxlamaysan, bolalaring ham, tushunarlimi? Yaxshi ishlasangiz o‘g‘rlik qilasanmi, pora olasanmi ishim yo‘q. Insof bilan qilaverasan. Yomon ishlasang ana shu olganlaringni burningdan chiqarib olaman. Manga sodiqlik kerak, xiyonat emas. Manga odolat kerak, bildingmi, odolat! Ko‘rsat buni!

-Tushunarli o‘rtoq Bosh qo‘mondon!

-Bor, ishni tashkil qil!

Vazir chiqib ketdi. “Shum” Bosh prokurorga yuzlandi:

-Qara, sanlarni yaxshi taniyman. Qadamingni o‘ylab bos. Shunday kezda menga yordam bersang, qanotim ostiga olaman. Ana u chiqib ketganni nazorat qil! Xiyonatni kechirmayman! Qonimni ichmalaring!

-Xo‘p qo‘mondonim!

-Bor, ishni yurit! Xotiningga ham aytmaisan nima gapligini, ana u qarindoshlaringga ham!

U ham orqasi bilan yurib, chiqib ketdi.

“Shum” Mudofaaga yuzlandi.

-San vazifangni bilasan! Agar tonsang, qochadigan joying bo‘lmaydi. Kuniga 23 soat ishlaysan, mayli bir soat mizg‘iysan, shu ham ko‘p! Agar tvarlik qilsang, yaxshilik kutma!

-Albatta qo‘mondonim!

“Shum” Hakimiyni turg‘azdi.

-Xo‘sh generalchik! Seni nima qilamiz? Banana eysanmi yoki bir juft olma berayinmi? Ko‘rdingmi, tashlagan qadamingni bilaman. Lekin sanga ham shans beraman. Imkoniyat! Besh kun davomida o‘likni qo‘riqlaysan, hidi chiqsa boshing ketadi. Istasang ko‘rintirmay morgga olib borib qo‘y, istasang morgni uning uyiga olib kel, bo‘lmasa besh olti xalta muz olib borib, muzlatib tur. Agar bitta egri qadam tashlasang, o‘sha zahoti pagoningni yulib olaman! Mana, ma bu qo‘llarim bilan. Bilasan kuzatuvimdasan, bilasan sanga ishonaman. Bor, o‘zingni oqla!

Hakimiy ham yarim egilib, chiqib ketdi. “Shum” boshqalarga ham shunday vazifalarni berib chiqarib yubordi, bir ikkitasini juda qattiq so‘kdi. Ayniqsa Akmalxonga:

-Sen tirjayib yurishni bas qil, og‘zingdan boshqa, ko‘tingdan boshqa gapirasan! Hamma yoqni sasitib yurasan. Gapirishni o‘rgan! Agar yana lo‘lilik qilsang, chiqqan joyingga kirib ketasan. Ko‘nglimni topsang, kaftimda o‘tirasan. O‘shanda yolg‘oningni ham sotib yuraversan! Bor,-dedi.

Xonada besh kishi qoldi.

Shu payt eshik ochiliv “Batya”ning bevasi kirib keldi. Qo‘lida hassa. Hali kecha ham hassasi yo‘q edi. Ko‘nglimga yomon fikr kela boshladi. Agar “Shum”ga tashlansa, nima qilishni rejalab, o‘sha tomonga yaqinlashdim.

6. “Nadejda”

““Shum”” xuddi “Doda”sini ko‘rgandek, dik etib o‘rnidan turdi. U o‘tirgan o‘rindiq oraqaga yiqila boshladi. Bir qo‘lim bilan ushlab qoldim. Unga yaqin borganim ish berdi. Uxlamagan bo‘lsam ham, hushyorlikni yo‘qotmabman. Qiziqsan-a. bunday paytda uyqu keladimi? Holatingdan uyqu ham qo‘rqib, qochib ketadi.

“Shum” Bevani avval quchoqladi, u ham “Shum”ni bag‘irga bosdi. Yuzida g‘am belgisidan asorat ham yo‘q. Qandaydir mamnunlik bor. “Shum”ning elkasidan qo‘lini tortib olgandan keyin “Shum” uning ikki qo‘lini o‘z qo‘llari orasiga oldi va egilib o‘pdi. Bu xuddi men bilmaydigan qandaydir marosim belgisiga o‘xshaydi. Qolganlar esa o‘rinlaridan turib xuddi koreyslar hurmatli odami qarshisida ikki qo‘lini vujudiga juftlab, egilgandik boshlarini quyi soldilar.

-Sizdan minnnatdormiz,-dedi “Shum” unga ruschalab. Umuman suhbat ruschaga ko‘chdi.

-Nima qilmoqchisizlar endi?-dedi kampir atrofdagilarga razm solib.

-Hammasi yaxshi. Kelishganimizdek silliq ketmoqda. 3-4 kun sir saqlaymiz. Ungacha mayda-chuyda masalalarni ham hal qilamiz.

-Men kichkina qizim va nevaralarimni chaqiraman. Nima gapligini aytmayman. Uzoq yo'l, to etib kelishguncha bir ikki kun o'tadi. Bayramga kellaring deymen,-dedi Beva xola.

-Yaxshi qilasz. Shuncha yil panada yurdingiz. Mehnatlaringizni hech kim ko'rmadi. Endi xalq sizni ham tanishi va el ardog'ida bo'lishning hayajonini his qilishingiz kerak. Shuning uchun sizga ham bitta vazifa berish haqida o'yladik. Odatda o'lgan rahbarning bevasi turmush o'rtog'ining muzeyini yaratadi, uning nomini targ'ib qiladi. Shu bilan uning siyosati davom etishiga katta ulush qo'shadi,-dedi "Shum" uni erkalab.

-O'g'lim, salomatligim pan bermasa, sizlar bilan birgaman.

-Davolaymiz,-javob qildi "Shum".-Dunyoning mana man degan duxtirlarini olib kelamiz. Hali ko'rasiz. Keliningizdan ham yosharib ketasiz.

-Unaqa dema,-Beva xola jilmayib sensirab gapira boshladi,-kelininga teng keladigani yo'q. Butun Koreya unga hafas qilsa bo'ladi. Gapimga kirib uni uzoq yil o'sha yoqda saqlaganing ham ish berdi. Bu erda bo'lsa o'lgan xotinbozning ko'ziga tushsa, hayoting barbod bo'lardi. Yonidagi eng yaqin do'stlarining xotiniga ham ko'z olaytirdi. Yosh qizlar oshib-toshib yotganini, nima qilib yurganini bilmasmidim? Bilardim, dardim ichimda edi. Ayol kishi uchun bundan ham og'riq azob bormi? Menga uylanganda oyoqlarimni o'pgan. Keyin xiyonat qildi. Mana baloga griftor bo'lib ketdi.

"Shum" yana uning ikki qo'lini kaftlari orasiga oldi.

-Endi ketdi. Bu yog'iga uni unutamiz. Ammo uni unutilmaydigan juda ko'p odam bor. Yoshlarning miyasiga kirib oldi. Qurt kabi kemirib tashlagan.

-Bor gapni ayttingiz, qo'ydingiz,-dedi Rais ham yaqin kelib, suhbatga aralashib.-Xafsizlik xizmatlari ichida to'qson to'qqiz foiz yoshlar uni "dodam" deb biladi. Umuman huquq tartibotni saqlash sohasi deymizmi, talabalarmi, hali ko'rasiz o'lganini eshitib qolishsin, dunyoni vayron qilib yig'lashadi.

-Ha, o'zimizda ham bor. Uni davlatimiz asoschisi, milliy qahramonimiz, o'lmas koshshey qilib ko'rsatdik. Endi uncha bunchaga ularni ishontira olmaymiz,-dedi Beva xola.

Bittayu bitta yo'li Vladich aytganlaridek, har qadamda haykallarini qo'yish, nomini ko'kka ko'tarib, ulug'lash, buyuk odamimizdan ayrilb qoldik, deb ko'rsatish, uning kitoblarini nashr ettirish, muzeyini yaratish... Darvoqe, u ishlagan butun binoni sizning ixtiyoringizga beraman. O'zingiz bu ishga bosh-qosh bo'lasiz. Xalqning muhabbati siz tomonga qayriladi.

Rais ham suhbatga arlashdi va:

-Siz bizning Elenora Ruzveltimiz bo'lasiz. U eridan keyin qariyb yigirma yil yashagan, uning siyosatini davom ettirgan, siz undan ham ko'p yashaysiz.

Beva kampir biroz o'zgardi. Balki Elenora Ruzvelt haqida o'ylayotgandir? Dunyoning eng mashhur ayollaridan biri. U BMTni tuzishda, Inson huquqlari deklaratsiyasini qabul qilishda faol qatnashgan.

Ammo eri hokimiyatga kelmasidan oldin taniqli siyostchi bo'lgan. Ikkinchi jahon urushi paytida Mudofaa vazirining

o‘rinbosari sifatida jangdagi askarlar yoniga borishga jur‘at qilgan.

-Kinosini ko‘rganman, u xonimchani,-dedi xola sal asabiylashib.- Uni “doda”ga tenglashtirsang bo‘ladi. U ham ayollarga ishqiboz bo‘lgan, feministka.

“Shum” nima qilib qo‘ydingiz degandek, Raisga ko‘z qirini tashladi. O‘zi esa qizarib ketdi va onasining oldida gunoh qilgan boladek, pitirlab qoldi.

-Albatta, u sizning tirnog‘ingizga ham arzimaydi...

-Istganingizcha xizmatkor beraman. Pul ham qancha desangiz shuncha. Siz faqat ko‘rinish berib yursangiz bo‘ldi. Tug‘ilgan kun qilamiz, o‘lgan kun qilamiz. Vladich sizni bekordan Nadejda Krupskaya demadilar,- “Shum” gapni boshqa tomonga burib, topqirlik qilganidan mamnun edi.

Krupskaya... Leninning vafodori sifatida tarixda nomi qolgan. Lenin o‘lgandan keyin o‘zini erining faoliyatini targ‘ib qilishga bag‘ishlagan. Lenin otilganda uning yonida mung‘ayib o‘tirgan surati xalqning ko‘z oldiga muhrlangan. Maktabda ham, oliygohlarda ham, kitoblaru ko‘chalarda ham shu suratni ko‘rishgan. Aslida nafrat qilgan eridan. Chunki ayol. Bola ko‘raman degan. Lenin esa buni istamagan. Hali, erta, hali erta deb aldab yuravergan. O‘q eb xastaxonada yotganida, Nadejdagi bor gapni aytgan.

-Men seni aldab keldim, asli bola yaratish imkoni yo‘q edi,- degan.

O‘shanda u Volodyaga:

-Seni ham sevaman, ham sendan nafrat qilaman,-degan ekan.

Lekin uning nafratini hech kim ko‘rmadi, hech kim sezmadi ham. Uning nafrati oddiy guvoh hamshiraning xotirasida qolib ketdi. Hamshiraning o‘zi esa uyida yo‘qolib qolgan.

Krupskaya degan gap xolaga yoqdi. Qolaversa, Vladichning qiyosi bu! Shuncha yil erining soyasidan chiqolmadi, o‘zi bilan o‘zi unsiz gaplashib yurdi. Mana endi zamoni keldi. Mamlakatda ikkinchi shaxs ko‘rnishida yuradi. Amalda esa birinchi. Nima desa, aytgan gapi farmon, fatvo o‘rnida yangraydi. Demak, bundan keyin qora ko‘ylakli, xafaqon ayol rolini o‘ynashi kerak.

“Shum” uni onasi kabi hurmat qiladi. U ham o‘g‘lim deydi. Ikkalasining orasidagi bunday yaqin bog‘ning sababini bilsa-bilsa Rais yoki Salimxon bilar? Ammo biz bilmaymiz. “Taychi” va Otasi ham bilgan. Lekin ular yo‘q endi. Demak, bu sirlicigicha qoladi.

Bu zaminning “peshonasi sho‘r” ekan. Nega deysizmi? Man shundaylarning qo‘liga qolgan-da. Axir qaysi yurt bu qadar ko‘p aziyat chekkan, bu qadar ko‘p talofat bergan, bu qadar ko‘p qoni to‘kilgan? Uch karra tili, etmish etti marta qo‘li kesilgan bu yurtning taqdiri haqida hali hech kim aniq tasavvurga ega emas va hali beri bu qusur barham topmasligi aniq.

Kimlar bosib olishni orzu qilmadi va kimlar bosib olmadi? Jangu jadalsiz, azob-uqubtsiz o‘tgan yili bormi bu yurtning? Gohida Mashriq tarafdin, gohida Mag‘rib yondan otlar dupuri kelib turdi, o‘qlar yog‘ildi boshiga. Ba‘zan Spitamen bo‘lib ko‘kdan yog‘ilgan o‘qqa ko‘ksini qalqon qildi o‘g‘lonlari.

Neva sohilida uyg‘ongan Pyotrning tushlariga bu yurtning oltinlari kirdi. Ekaterinadan tortib, inqilob qilichidan yiqilgan Romanovlarga, so‘ng Vladichlarga qadar ham, bu

yurtning tillolari, boyliklari, mehnat uchun yaralgan “oltin qo‘llari” tinchlik bermadi.

Nega? Bu savolni berishga haqqimiz yo‘q. Meni shu qiynaydi. Hali ham bizni bosib olishmagan “ixtiyoriy qo‘shilganmiz” deb o‘ylashadi. Hali general gubernator Kaufmannning “Elni tiz cho‘ktirish uchun uning madaniyatini yakson qilish kerak” degan “purhikmat” so‘zlarini bilmaganlar bor. Skoblev, Chernyaev degan zotlarning qilichidan oqqan qon dog‘lari tariximizning chang bosgan sahifalarida ko‘rinmasdan qolayotir. Registon madrasasida otib tashlangan talabalar ruhi qariyb bir asirdirki, osmonimizda chirqillab yuribdi. Buxoro vayron etilgan, o‘q teshmagan joyi qolmagan kunni biz bayram qilamiz.

Endigina qodiriylar daftarini ochdik. Usmonlar mustaqillik uchun zanjirlanganini bildik, xolos. Biroq, moziy uzoq va yaqin o‘tmish hali qorong‘ulik ichra mag‘lub bo‘lib turibdi. Hali nur yoritgan emas bu kenglikni. Hali ham mana shunday xolalar hukmron. Bu xalqning madaniyatini bir tiyinga olmaydi. Tilini mensimaydi, bilmaydi. Ammo hukmron. Hamma uning qo‘lini o‘padi. Qo‘yib bersa oyog‘ini o‘padiganlar ham chiqib qoladi.

Kimki olamdan o‘tmasin, uni erga topshirar ekanmiz, qabristonda “U qanday odam edi?” degan savol beriladi. Hamma “yaxshi edi” deydi. Bu hikmat. Chunki u doril fanodan dorul baqoga ketdi. Endi uni qaytarib ololmaysiz. Uni so‘roqqa tutaman, desangiz tilingiz toshga aylanadi. Ammo “Lenin tirik!” degan gap qonimizga singib ketgan. Qolaversa, jasadini hali hech kim erga topshirgan emas. Umuman ko‘pning taqdirini hal qilgan odam bo‘lsa, u haqda o‘lganden keyin gapirmaslik o‘lim bilan barobar. Gapirish

kerakki, undan ibrat olishsin, gapirish kerakki uning jinoyatlarini halafllari takrorlamasin.

Bolalikdan otalarimizning tili Lenin deb kalimaga kelgan. Hatto er-xotin munosabatlarida ham lenincha nazariyalar yaratilgan. Bolalar Lenin ruhida tarbiyalangan. Uning haykallari yonida kelin-kuyovlar suratga tushgan, haykal ostiga gullar qo'yishgan, to'nqayishgan... Undan zulm ko'rganlar ham uni maqtashgan, uning nomi berilmagan maskan qolmagan. Bunda Krupskaya peshqadam bo'lgan.

Bugunga kelib, haykallari yiqitildi, nomi olib tashlandi, to'la asarlar to'plami chala bo'lib chiqdi. Yurtlarni bosib olish, mustamlakani kuchaytirish xususidagi "asarlari" yashirib kelingan ekan-ku?! U jinoyatlari ochilib qoldi. Latviya va Estoniyani jazolash haqida yozgan xati o'rta q chiqdi: Biror chegaradan kirib mingga yaqin qorni to'q odamni so'yib kelish kerak deb ko'rsatma bergan ekan.

Mana endi o'zimizning Leninni yaratish haqida bosh qotirilmoqda. Nadejdamiz maydonga chiqdi.

Biri "Daho" nomi bilan yashadi. Ikkinchisi "Doda" nomi bilan yashaydi. Ammo qachongacha? Buning farqi yo'q. Bu haqda o'ylash mana bulardan keyin keladiganlarning ishi.

-Ko'mish masalasida ham sizning yordamingiz kerak,-dedi "Shum" xolaga

-Uzoqroqqa ko'maylik. Har kun qabrini ko'raverish ham oson emas.

-Tug'iligan joyiga ko'rsak bo'ladimi?

-Yaxshi, ota-onasining yoniga. Qo'shmazor bo'lsin o'sha erda...

-Bu gapingizni eshitib qolishmasin, devorning ham qulog‘i bor,-dedi Rais.

-Sizlar o‘tirgan bu devorning qulogi yo‘q,-dedi xola. Ular engil kulib yuborishdi.

Demak, buyuk shahar oyoq osti qilinar ekan-da? U erda yotgan ulug‘ va tabarruk zotlarning ruhi chinqirmaydimi? Lekin ular haqidagi haqiqatni ham bilmaymizku? Xuddi “Doda” haqidagi haqiqatni yoshlar bilmaganidek?

Yana diqqatim qochdi. Raicga qarayman, u ko‘mish marosimini qanday o‘takazish haqida gapirmoqda.

-Bizning talabalarimizga birdek oq ko‘ylak buyurganman, hammasining do‘ppisi ham bor. Maxsus amaliyot uchun tayyorlagandik. Ana shularni olib chiqamiz. O‘zim borib boshida turaman.

-Yo‘q, men o‘zim boraman,-dedi “Shum”.-Siz bu erni tashlab ketsangiz holimizga maymun yig‘laydi. G‘ulomning guruhi allaqachon eshitib bo‘lgandir? Ular ham o‘z rejasini tuzishmoqda. Siz bu erda shuni nazorat etsangiz... Mayda chuydasini yo‘qotavering. Xo‘rozlarini xalq ichida o‘zim patini yulib beraman. Keyin u senatorga yuzlandi:

-Sizni doim hurmat qilib kelganman va bugun xato qilmaganimni tushundim. Siz ham xonangizda mahkam o‘tiring. Chapdan ham, o‘ngdan ham kelaverishadi. Taklif, fitna... Hammasiga xo‘p deyavering. Ammo joyingizdan jilmang.

-U kishini ham qo‘riqlaymiz. Yonlariga odam beraman. Aytib bo‘ladimi, yomonlar ko‘p. Xonalarini ham. Uylarini ham video kuzatuvga qo‘yamiz. Hayotlari biz uchun muhim,-dei rais.

Senatorning yuz qizarib ketdi. Ammo o‘zini ushladi.

-Rahmat, sizdan doim minnatdorman. Muhtaram rahbarimiz nima desalar shuni bajaramiz.

-Bekordan Krupskayani eslamadim. Uning ismi Nadejda bo‘lgan. Umid. Bizning Nadejdamiz o‘zingiz,-dedi “Shum” yana Tanya xolaga qarab.

-Qo‘limdan kelgancha harakat qilaman. Bu erga etaklab kelgan boshqa narsa. Eshittimki, Pulnorani qo‘yib yubormoqchi ekansizlar.

“Shum”ning avzoyi buzildi. Buni ko‘rgan Rais gapga aralashdi.

-Hakimiydan eshittingizmi? Qizingizni ozod qilmoqchi bo‘lgan ham, bayram kuni sahnaga olib chiqishni rejalagan ham, “Batya”ni...

-Kelinglar “Batya” demaylik endi, Bundan keyin “Doda” deylik,- gapni kesdi “Shum”.

Bu gap raisga yoqdi.

-Haqiqatdan ham dodamiz edi, dodani Hakimiy boshqa yo‘llarga boshladi. Sizni ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin, Puldona qamoqdan chiqmaydi. Buni bizga muhtaram rahbarimiz va‘da berdilar.

-Unday bo‘lsa, mish-mishga ishonib, bu erga yugurib kelib, xato qilibman.

-Yo‘q xato qilmadingiz, yana bir marta ko‘rishganimiz yaxshi bo‘ldi, hamma gapni siz bilan bamaslahat qilamiz va siz ham bizga hukm qilib turing. Sizdek dono ayolga ehtiyojimiz bor. Siz qahramonsiz. Hozirgi harakatingiz bilan nafaqat bizni, balki butun mamlakatni asrab turibsiz.

“Shum”ning bu gapidan Tanya xola oftobda qolgan muzqaymoqdek erib ketdi.

Uning “qorasi o‘chgandan” keyin:

Salimxon aka:

-Juda ham insofli ayolda,-dedi.-Tinchlik, mamlakat uchun qizidan ham, eridan ham voz kechdi.

Yodimga bir rivoyat tushdi.

“Bir guruh odam sahroda ketayotgan ekan. Hammasi charchagan va chanqoqda. Bir bino ko‘rib qolishdibdi. O‘sha joyga kelishsa, Sardoba ekan. Hamma suv ichaman deb Sardoba eshigiga yuzlanibdi.

-To‘xtanglar,- debdi ularning shayxi.-Bitta-bitta kirasizlar. U shunday deb yo‘lovchilardan birini chaqiribdi.

- Tush sen ichib chiq, keyin boshqa odam odam. Nafsingni tiy!

-Taqsir nega meni tanladingiz?-deb so‘rabdi haligi odam.

-Sen insofliroqqa o‘xshading. Agar bitta insofsizni tushirsam, boshqalarning haqiga xiyonat qilib chiqishi mumkin. Oralaringdagi insofsizni oxirida tushiramiz, bo‘kkanicha ichsin,-debdi Shayx.

-Men oxirida tushsam maylimi?-degan ekan haligi odam. Beva xola ham mana shunday insofli, oxirida bo‘kmoqchi.

Tashqiriga chiqarkanmiz, rais menga Senatorni ishxonasiga olib borishimni va undan ko‘z quloq bo‘lib turishimni buyurdi. “Xo‘p deb ketayotgandim, “Shum””

-Telefonni tashlab ket,-dedi.

Rais, Selimxon aka va “Shum” qolishdi, Senatorni olib yo‘lga chiqdim. Allaqachon quyosh ko‘tarilgan. Havo qizdirmoqda. Sovuq havoni ochdim. Senator orqada mag‘rur o‘tiribdi. Ko‘zim Anhorga tushdi. Bir maromda oqmoqda. Hatto oqayotgani ham sezlimaydi. Tashidan ko‘l kabi sokin, ichida esa nimalar bo‘lmoqda, sezmaydiz. Birozdan keyin hukumat idoralari, ayniqsa, G‘ulomning guruhi ”sharsharaga” aylanadi. O‘zlarini toshdan toshga urishadi. Foydasi bo‘larmikan? Ko‘ramiz!

7. Jonxo‘r

Odamzot paydo bo‘lgan vaqtda insondan nafrat qiladigan bir maxluq yashar ekan. Nomi Jonxo‘r. U qaerga borsa, erto‘la kovlab olar va ushlagan odamini tortqilab kelib, erto‘lada qiynab o‘tirishdan lazzatlanarkan. Ison terisini shilish uning kayfini chog‘ qilsa, kimningdir suyaklarini qirsillatib sindirish orom bag‘ishlarkan. U qaerga bormasin, ko‘chalarda inson qoni izlari paydo bo‘larkan. Buni ko‘rganlar yo qochib qutularkan, yoki eshitishlari bilan uzoq joylarga ko‘chib ketisharkan. Unga qarshi bosh ko‘taradigan odam chiqmabdi. Chiqib qolsa ham uni samimiy ko‘rinishi va shirin so‘zi bilan aldarkan. Jonxo‘r shundan keyin odam qiyofasiga kiribdi va avlodlari ham odam ko‘rnishida yashab, eski hunarlarini bajarisharkan. Ularning huzur halavoati insonni tahqirlash, kamsitish, qonini ichish, qiynoqqa solish ekan.

Senatorni olib borayapmanu xayolim Raisda. U o‘sha Jonxo‘rning davomchilaridan bittasi bo‘lsa kerak.

Ichki o‘zligim savolga tuta boshladi.

Oliygohta dadam bilan birga o‘qishgan. Esingdami Shunqor? Poytaxtga kelganingda dadang:

-Yur ana u idoraga kirib chiqaylik, sinfdoshimni ko'rib ketmoqchiman,-dedi. Ichkariga kiritishmadi;

Dadang sizlarni quvmoqchi bo'lgan zobitni chetga chaqirib:

-Uka Rais bilan birga o'qiganmiz. Yoshlikda do'st edik. Saratonga uchrab qoldim, u bilan xayr-xo'sh qilib ketmoqchiman, kirib bir so'ra, yo'q desa, ketaveraman,-dedi.

Dadang bu gapni sen eshitmaydi deb o'yladi. Vaholanki, orqasida turganding. Dunyo ag'dar-to'ntar bo'lib ketdi. Qanday raisni kutdilar, xonasiga chiqib, ular nimani gaplashdilar, dadang raisga "go'shti ham, suyagi ham sizniki" degani, Rais senga o'zi ish topib berishi va o'qishga kiritishi, yordam qilishini aytib, telefon nomer berganini eslaysanmi?

Tashqiraga chiqib dadangga:

-Zobitga nima dedingiz? Qanaqa saraton?-deding.

-Eshitib qoldingmi? Qulog'ing ja o'tkir-da. Parvo qilma, shunday demasam, Raisni ko'rolmay ketardik,-deb javob qildi u.

Ishonding! Go'! Galvars!

O'qishga kirib, raisning idorasida ishlab yurganingda otang olamdan o'tdi. Rostdan ham saraton ekan.

Rais boshingni siladi. Uni yaxshi odam deb o'ylading. Astasekin uning shaytonligini kashf eta bording. U har qanday odamning ichiga kirib olish mahoratiga sohib. Sening ham ichingda yashay boshladi. Uning jalllod ekanligini bilib borganing sayin, ichingdagi shayton kichrayib bordi. Uni jalllod deyish unga hurmat bo'ladi. U jalllodlarning jallodboshisi. Inson zotini bir tiyinga olmaydigan Jonxo'r.

Unga birovni yo‘qotish suvarakni ezib tashlashdek gap. U odamlarga suvaraklar deb qaraydi. Har qanday odamni osongina yo‘qotadi va bundan engil tortadi.

Esingdami, bir kun chaqirib qoldi. O‘ta muhim gaplarni gaplashadigan xonasiga o‘tdingizlar. Bu xona har qanday elektro magnit to‘lqinlaridan himoyalangan. U erda telefon ham ishlamaydi. Devor ichidan ovoz yutg‘ich mato bilan bir necha qavat qilib qoplangan.

Rais o‘rinbosarlariga ishonmaydi. Doda ularni qayrab qo‘ygan. Bir-biriga tirjayadi, ammo ko‘rgani ko‘zi yo‘q. Qachon oyog‘idan osaman, deb yurishadi. Seni raisdan ham ko‘proq yomon ko‘rishadi. Uning muridchasi deb o‘ylashadi. Aslida ham shunday.

Ketib ketolmaysan! Nafrat qilib hurmat ko‘rsatasan! Aytganini aytganidan ham oshirib bajarasan. O‘zing ham Jonxo‘rning avlodiga aylanib qolding, Shunqor!

Rais bir ikki kunga safarga borib kelsa ham bu xonadagi devor qoplamasini almashtiradi. Aniqrog‘i sen almashtirasan. Temir-betonli devorni maxsus apparat bilan tekshirib chiqasan va keyin ustalarga yangi qoplama qildirasan. Har safar boshqa joydan usta olib kelasan. Ishni bitirishgandan keyin yaxshigina haq to‘laysan. Naqd pulda. Ana shu pul ularni “tinchitadi”.

-“Zaman” degan dorining yangisidan ozgina surib qo‘y, ko‘p o‘tmay yuragini g‘ijimlab qoladi,-deb buyurgan Rais senga.

Mana shu kichkina xonani deb har yili 3-4 kishi ketadi.

Nima ham qilarding? Rais shuni buyurdi deb o‘zingni ovutding. Buni vatan uchun, millat uchun xizmat deb aytdi-da. Burchingni bajarayasan dedi. Qahramonlikka yo‘ydi.

Ishonding. Yaxshi ish qilayapman, xalqimning xizmatidaman deb yurding.

Lekin yuragingda ozgina uchqun bor edi. Ustani topganda keksarog‘ini, kasalmandini qidirarding. Oilasini surishtirarding. Ba‘zilariga ko‘proq pul berarding. Hech bo‘lmasa, jigarbandlariga bir narsa qolsin, deb o‘zingni ovutarding.

Keladigan ustaning boshiga qop kiygiziladi. Hech qaerda kameraga tushmaydi. U biror shov-shuvli ishning gumondori sifatida olib kelinardi.

Xullas, o‘shanda Rais eshikni yopdida:

-O‘g‘lim muhim topshiriq oldik, buni sendan boshqasiga topshirsam, baribir hidi chiqadi. Juda yomon killer kelibdi. Birovning uyini ijaraga olibdi. U o‘zini artistdek qilib ko‘rsatadi. Ammo dunyodagi yomon qotillardan biri. Malayziya orqali keldi. O‘zi asli italiyalik. Markazdan aytishlaricha, o‘ta muhim vazifa bilan kelgan va juda ustalik bilan yo‘qotish kerak. U haqdagi ma’lumotlarni mana bu erda o‘qigin va kuldoni bilan olib ket..

Bu degani qo‘limga berilgan hujjatni yoqishim va kulini o‘zim olib chiqib, anhorga oqizishim kerak.

“Jorj Karabuchcho. 1978 yilda Italiyaning Sitsiliya mintaqasida tug‘ilgan. Dunyoga mashhur model. Bizga kelgunga qadar beshta mamlakatga kirib chiqibdi. Juda mohir qotil. Har qanday zaharni biladi va qo‘llashga usta. Eng katta mamlakatlar ham uning izidan yurib, hech narsa topolmaydi yoki ko‘p pul berib ishlatadi. Laqabi Yo‘lbars.”

Demak, u bizdagi zaharlarni ham biladi. Bu esa ishni qiyinlashtiradi.

Esingdami, uning nima uchun kelgani haqidagi uch taxminni o‘qib vahimaga tushding..

Birinchisi: Yaqinda keladigan oliy martabali mehmonni zaharlash.

Ikkinchisi: Shunning qizida alami bor. Moskovda tuzog‘iga ildira olmagan.

Uchinchisi, meni topmoqchi. Ya’ni Shunqorni. Evani tinchitganim uchun. Eva ularga ham ishlagan. Evaning izini qidirmoqda.

Demak, muhim odam ekansan. Lekin hissiyotga berilmay, aql bilan ish qilish kerak.

U o‘ladi. Keyin nima bo‘ladi? Qaerda xabar chiqadi. Kazo-kazolar va katta mamlakatlar aralashadi. Hech biri u bizga ishlagan deb ayta olmaydi. U mashhur model, deydi xolos. Lekin ularni bu model bilgan narsalar bizga ma’lum bo‘lishi va biz orqali qaergadir chiqishi mumkinligi tashvishga soladi.

Jorj qolgan joy o‘rganildi. Uy egasini uzoqroqdagi qo‘shnisinikiga mehmonga chaqirding.

-Qaerdan topdingiz bu chet ellikni?

-Bir qiz telefon qildi. “Tarjimoniman”, dedi. Keldi, kelishdik. Kalitni berdim. Bu qadar. Nima qilaylik, tirikchilgimiz shu yo‘l bilan. O‘g‘limni uyida yashab, hovlini ijaraga beramiz.

Kuzatish kerakmi?? Yo‘q, eng axmoqliq bo‘ladi. Nima qilish kerak unda?

-Amaki bir borib xabar olasiz uyingizdan. Hech kim bo‘lmasa indamay chiqib kelaverasiz. Kimdir bor bo‘lsa,

“axlatni chiqarishga keldim” deysiz, uy sasib qolmacligi, ko‘chaga to‘kilsa jarimasi borligini aytasiz. Axlatni to‘plab, bu uyingizga olib kelasiz,-deb buyurding Amakiga, esingdami? U hazil aralash:

-Shpionlik qilar ekanman-da,-dedi.

-Shtirlits, soatiga og‘zingizdan chiqqanini “ko‘k”ida olasiz. Ammo hech kim bilmasin.

-He, uka, ko‘rasiz qanday qotiraman,-dedi amaki.

Otaxon bir zumda borib axlat xaltani ko‘tarib keldi. Tarjimon qizning o‘zi chiqarib beribdi.

-Hech tarjimonga o‘xshamaydi. Sakrab-sakrab fizkultura qilayotgan ekan. Ammo suluv...,-deb og‘zidan suvi qochib gapirib berdi amaki.

-Ha, otaxon, ko‘z to‘ymaydi deng.

-Ko‘z to‘ygandi, ammo birdan ochiqib qoldi-da,- otaxon askiyachi ekan, qahqaha otib kuldi.

Kuzatgan bo‘lishlari mumkin. Otaxonga bir dasta ko‘kidan tutqazib ikki kunga bir xonangizni berasiz, dedim. Chunki uning o‘zidan ham boxabar bo‘lib turishim kerak.

Axlat xaltani tekshirganing esingdami, Shunqor? Mehmon somsa eyishga kelgan ekan deb o‘ylaganding. Go‘shini eb, xamirini tashlar ekan.

-Aytmasam bo‘lmaydigan, qo‘shnimiz somsachi, shundan olib borib beraman, yoqib qolgan , har kuni istaydi. Besh-oltita dumbali somsa etkazaman. Ayibga buyurmaysiz, uka,-dedi amaki.

Model bo‘lsa, qanday qilib har kuni dumbali somsa eyishi mumkin? Ho‘kizga aylanib qoladi-ku? E, yo‘q, xamirini

emas ekan-ku? Ha, yodinga tushdi, o‘zimizda ham chetga boradigan yigitlarga 3-4 kun har narsa emaysan. Faqat go‘shlti ovqat eb tur. Aks taqdirda zaharlanib qolishing va vazifa orqaga surilishi mumkin, deymiz.

Labaratoriyaga bording. Byurtma berding. Somsaga qo‘yiladigan maxsus xom go‘sh. Ichketma qiladi, to‘xtatadigan dori yo‘q. Holdan toydirib, jon uzadi.

Otaxon somsani olib borsa, tarjimon yo‘q ekan. Jorj sevinib olibdi va anchagina pul ham beribdi. Bu orada tarjimon ham topildi. Uni ham otaxonning uyiga olib kelding.

Ikkalasi anchadan beri yaqin ekan. Jorj oldin ham bir kelib ketibdi, Shu xonadonda turgan ekan. Otaxon buni aytgandi, tarjimon izza bo‘lib qoldi.

Ertasiga borsa, Jorj qornini ushlab yurgan ekan.

-Tinchlikmi ?-desa, tushunmabdi.

Tarjimon qizga sim qoqib, ichketma bo‘lganini aytdi. Telefonini eshitib turganding-da.

-Buyuk Ibn Sino ham hamma dardga davo topgan, ammo ichketmaga topolmagan, o‘zi shundan o‘lgan deb ayt,- deding tarjimonga,- qiz qurg‘ur aytmadi va senga huquqdan dars o‘ta boshladi. Raisga hisob berding.

-Ularning burni ostiga ozgina zahar sur,-dedi Rais o‘shanda,-guppa yotib qoladi. Keyin amaking bilan ikkalasini echintirib, ko‘rpa ostiga tiqib qo‘y!

Bajarding! Ammo amakini unuta olmaysan. Juda yaxshi odam edi. Rostdan ham sen ham Jonxo‘rga aylanding, Shunqor!

O'sha kun tumandagi internetni suslatib qo'yding. Elektr ham uchib qoldi. Otaxonga hovlini sirtdan qulflab kelishni buyurding. Vaqt o'taverdi. Modeldan sado chiqmadi.

Bir haftadan keyin Tashqi ishlar vazirligidan iltimos tushdi, Italiyadagi qarindoshlari surishtirayotgan ekan. Mirshablar borib tekshirishdi, ekspertiza qilishdi. Ichketmadan o'lgan. Xom go'sht egan. Otaxon va ayolni esa allaqachon ko'mib kelishgandi.

Bu shu qadar kuchli qotil bo'lsa, nega buncha oson o'ldi? Shu narsa senga tinchlik bermasdi. Qolaversa, Rais ham xuddi unutgandek. Jorjning tarixini surishtirding. Haqiqatdan ham model sifatida dunyo bo'ylab kezib yurarkan. Bunday odamlar maxsus xizmatlarning e'tiboridan chetda qolmasligi ham aniq deb o'ylading, o'zingga taskin berding.

Katta shaxsga suiqasd qiladigan odam bu qadar oddiy ish tutmaydi. Demak, boshqa gap bor. Qidirsang, qumdagi ignani ham topasan. Topdingu, ichingdagi shayttonni eng boshlading. Jorjning gunohi Raisning o'g'li bilan tanish ekanligi. U Moskovda Jorj bilan do'stlashib qolgan ekan.

Rais mana shunaqa, har qanday gumonga o'rin qoldirmaydi.

Rais avvaliga har kun Andropov haqida o'qirdi, videolarini ko'rardi. O'shanda u Dodani yo'qotib, o'rmini oladi deb o'ylardim. Xursand ham bo'lardim. U mamlakat boshiga kelsa, yaxshi bo'ladi deb sevinardim. U juda ko'p o'qirdi. Endi o'ylab ko'rsam, o'qigan hamma kitoblari fitnalar haqida. O'shanda bunday vazifadagi odam shunday kitoblarni o'qishi kerak deb o'ylaganman. U musiqani ham yaxshi ko'radi. Ayniqsa mumtoz kuylarni. Yoddan she'r o'qishni, ba'zan o'zi ham yozishini qotiradi. Kam gap. Ko'rgan odam uni o'ta madaniyatli deb o'ylaydi. Qanday

qilib mana shunday odam bu qadar shavqatsiz, rahmsiz bo‘lishi mumkinligi menga tinchlik bermaydi.

“O‘zini tinchit, ishni yop, hidi chiqmasin!”

“Tunda ko‘mishsin. O‘lgani haqida ota-onasi bilishi shart emas!”

“Mahallasida sharmanda qilinglar”

“Ota-onasi, yaqinlari bilan ishlanglar, tavbasiga tayansin!”

“O‘n besh kunga olib kiringlar, u mashhur. Gap-so‘zlar tinchigach, chiqmaydigan qilib qo‘yasizlar!”

“Video qilinglar, sharmandasini chiqaringlar!”

“Uyidan ta‘qiqlangan kitob chiqishi turgan gap!”

“Xaltachadan tashlab qo‘yinglar”

“Xotiniga yo‘l topinglar!”

“Ko‘kini ishga solinglar”

“Ko‘haning bolalariga topshiringlar!”

“Ovozini o‘chiringlar!”

“Xorijdagilarga bog‘langlar!”

Bu gaplar uning og‘zidan juda oson chiqardi, xuddi bir piyola choy quy degan ohangda aytilardi, sovuqqonlik bilan. Achinish hissi yo‘q. Shayton deganda ko‘z oldimga badbashara, qo‘rqinchli maxluq keladi. Bu badbashara emas. Yuzi kulimsirab turadi. Istarasi issiq, ammo qalbi shu qadar sovuqki, o‘z onasini o‘ldirish kerak bo‘lsa ham, osongina aytib qo‘yadi. Dunyodagi eng vahshiy kuch shayton deyishdi, lekin rais undan ham yomonroq, Jonxo‘r!

U o'zi taxtga chiqaman deb yurib, kutilmaganda voz kechib qoldi va "Shum"ni tayyorladi. Nega bunday qildi? Salomatligi pand bera boshladimi? Yo'q, yarim vujudi ishlaymay qolsa ham taxtni olardi. Bunday odamlar xuddi o'zlariga o'xshagan bosh yirtqichning izmida bo'ladilar. Demakki, unga shu vazifa topshirilgan. Odamlardan xasni uloqtirgandek voz kechadigan bu kimsa taxt orzusidan ham shunday osongina voz kechdi.

Raisning otasi ham, bobosi ham shu tizimda ishlagan. Otasi sho'rolar paytida KGBning polkovnigi bo'lgan. Bu daraja bugungi o'zimizning generaldan o'n marta baland mavqe. U Sho'ro degan imperiyaning KGBsida polkovnik bo'lgan. U Afg'oniston chegarasida tug'ilgani uchun forschani yaxshi bilgan. Oliygoxda ham shu sohaga ixtisoslashgan. Eron adabiyotini o'rgangan. Forscha she'rlarni aytganda, qadahlar titrab ketadi. Doda uning forscha she'r aytishini yoqtirardi.

Otasi uni o'qib yurgan paytida, qurilishda ham ishladi qilib, partiyaga o'tkazib qo'ygan. Armiya bahonasida o'zining idorasiga ishga joylagan.

Til bilgani ish bergan. KGBning eng sirli - birinchi boshqarmasida ishlagan. U erga har kim ham o'tolmagan. Tashqi razvedka deydi uni. Afg'onistonga rezident qilib jo'natishgan. Sho'rolar bosib borganda u o'sha erda KGBning rezidenti bo'lgan. Dindorlarga nafrati o'sha erdan. Ko'p odamning boshini egan. Afg'onlar Jonxo'ring boshiga tilla tikkandan keyin Moskov uni markazga olib ketgan.

Xullas, katta qozonda qaynagan. Odamning qadri degan tushunchadan yiroq qolgan. Umuman odam degan ma'nidan uzoq bo'lgan.

Biroq Raisni manqurt deb ayta olmaysiz. U odamsizlik erto'lasida chiyabo'riga o'xshagan maxluqqa aylangan. "Bu chiyabo'ri, uni ko'rganda tanish mumkin", demang. Buni taniy olmaysiz. Ziyosiz, ziyonli deyolmaysiz. Ma'naviy qashoq deb tashhiz qo'yolmaysiz. Hammasi a'lodek ko'rinadi. Tuppa tuzuk odamga o'xshaydi. Ammo jigaringizni osongina sug'urib olishi, yuragingizni yumshoqqina parchalashi, miyangizni bir zumda zaharlashi, qo'l oyog'ingizni she'r o'qib g'ir-g'ir arralashi mumkin. Unga yosh bola, go'dak yoki ayol, onaning farqi yo'q. Yig'layotgan, och-nahor jovdirayotgan, dul-dul titrayotgan odam uning parvoyini buzolmaydi. Engil tirjayishi bor. Bilolmay qolasiz. Iljaydimi, tirjaydimi, kulimsiradimi, zaharxandalik bilan qaradimi? Bu baloning qo'liga tushib qolsangiz xonumoningiz vayron, tirik qutulmaysiz.

Eh, Shunoqr, seni otangning qo'lidan tortib olib, sendan ham shunday qiyofa yaratmoqchi bo'lgan u. Buni bilasan. Ko'p narsaga erishdi ham. Lekin otang seni pishitgan ekan. Ichki umurtqang sinmadi. Uni sindirishga qo'ymading. Shunday deymanu uning toshirig'ini bajarib, senatorni olib ketayapsman. Senatorni u aytgani kabi qorachig'dek asrashing darkor.

Xayol qursin, bilmay qolibman. Ikki tomondan ikki mashina bizni siquvga oldi.

8. Samanning siri nimada?

Xayolga berildingmi, hushyorlikni yo'qotasan. Bular qaerdan paydo bo'lishdi? Qanday qilib ikki yonimdan kelgan ikki mashinani sezmay qoldim? Sekinladim. Qarasam bitta mashinada katta kuyov. Ikkinchisida kichkinasi. Ular qo'llari bilan "chetga ol" ishorasini qilishdi. Tushib ulgurmasimdan katta kuyov yonimga keldi. Uning

idoradagi laqabi “Ichkuyov”. Ikkinchisiga esa “Itkuyov” deb nom berishgan.

“Itkuyov” yonimga kelib:

-Nega senator janoblari idoraga emas, bu tomonga olib ketayapsan?-dedi.

Bu qaynotasiga o‘xshab hammani sensirab gapiradi. “Siz” deyishga tili aylanmaydi. Balki to‘g‘ridir, butun dunyoda azldan “sen” deyish odat. Bugunga kelib ba’zi xalqlarda begonani “siz” deydi. Turklarda ham qadimdan “sen” deb gaplashilgan. “Siz” deyish qachon boshlangan ekan va uning ildizi qaerda?

Bu tomonda qovunning kattasi tushgan ekanu kaminaning “sizu biz, jizu-biz” haqida o‘ylashi nimasi?

Maxfiy majlis zalidan ikki daqiqada Senatorning idorasiga etish mumkin. Sen esa uni uyiga olib borayapsan Shunqor. Kallangni edingmi? Vaziyatdan chiq endi? Qani mahorating? Ustalik bilan vaziyatdan chiqmasang, G‘ulomning guruhiga a‘zo qilib qo‘yishadi. Taqdiri makoning Sahroi Kabir bo‘ladi.

-Senator “har kun ichadigan dori uyda qolibdi”, dedilar,- deb yubordim.

Senator ham pishiq odam. Meni saharlab o‘ziga yaxshilik qildi, deb o‘ylamayotgan bo‘lsa ham shu damda qutqazib qolishi kerakligini tushunadi. U ham o‘ziga sodiq odam topishi kerak-da. Bir gap bilan yo‘q etishi ham mumkin. Qil ustidasan Shunqor!

-U kishini biz olib ketamiz, sen esa borib dorini olib kel,- dedi “Ichkuyov”.

Idamadim. Jonimga senator ora kirdi.

-Pochcha,-dedi u kulimsirab.-Bu borib mening dorimni so‘rasa, kennoyingiz vahimaga tushadi. Mayli, bugunchalik dori ichmaganim bo‘lsin. Orqaga qaytdik.

Unga minnatdorlik nazari bilan qaradim. U ham ko‘zi bilan kulimsiradi. Meni qarmog‘iga ilintirib qo‘ygan bo‘ldi. Shunday bo‘la qolsin. Taxtini boy bergan odam shu narsaga xursand bo‘lsa, nima qilibdi?

Senatorning ishxonasiga kelarkanmiz:

-Ha, siz ham ko‘z ostidasiz, ehtiyot bo‘ling,-dedi menga.

-Rahmat Ustoz,-dedimu o‘ylanib qoldim. Rostan ham ko‘z ostidamiz. Demak, “Shum”ning yaqinlari ham bu kechsi bilan ishlagan va har qanday “chapga burilish”ning oldi olingan. Kuzatuvchiga kuzatuv qo‘yish deyiladi bunga. Shunday bo‘lmasa, davlatmi? Hokimiyat degani jon degani. Hokimiyatni olgan joningizni ham oladi. Mana, bittasi yonimda. Jonsiz. U bilan ish joyiga keldik.

-Shunqorbek, siz mening ichki xonamada o‘tiring, bo‘lmasa shubha paydo bo‘ladi,-dedi u. Kotibasi va yordamchisi allaqchon ishga kelishgan ekan. U ikki kishilik nonushta buyurdi.

-Yordamchining ichi uzildi, u o‘zining o‘rniga sizni ishga olishimni tushungani aniq, rangidan, harakatidan bildim,-dedi jilmayib. Har kun buyurtmani daftarchasiga yozar va “Boshqa narsa istamaysizmi?” degan bir savol qo‘shardi. Bugun esa pati yulingan tovuqdek pildir-shildir qilib qoldi. Ammo o‘zi yaxshi bola. Kim ham issiq joyini yo‘qotgisi keladi?

Senator bilan uning ichkaridagi xonasida nonushta qildik. U o‘z harakatidan mamnun edi. Juda katta ish qilib qo‘ygandek

engil tortgan, seyfdan topildi deyilgan narsalar haqida ham unutgan. Yo‘q, xato qildim, Unutmagan ekan:

-Dodaning seyfidan chiqqan narsalarni nima qilishdi?- dedi u xayolimni uqqandek.

-Menga berishdi, saqlab qo‘yish uchun,-dedim tili qisiqlik xaltasidan chiqish uchun.

U indamadi. Demak, bu haqda keyinchalik gap bo‘ladi. Hozircha hujjatlar ishonchli qo‘lda ekanidan rozi.

-Uka, umuman uxlamagan ko‘rinasiz, mizg‘ib oling,-dedi u divanni ko‘rsatib va ish xonasiga chiqdi.

Qayoqda? Bunday paytda mizg‘ib bo‘ladimi?

Ko‘zim stol ustidagi ot haykalchasiga tushib qoldi. To‘xta! Ajab? Xuddi shu haykalchadan Raisning xonasida ham bor. Uni “Shum”ning ichkari xonasida ham ko‘rgandim. Dul-dul ot. Loydan pishirilgan. Sopol kabi yaltirab turmasa ham, sariq kesakdek diqqat tortmaydi. Uncha buncha odam e’tibor qilmaydi. Esingga keldimi, Shunqor, bir paytlar melisaning otasi Chalmatov senga ham bergandi va:

-Sen ham dodaning nazariga tushgan bolasan,-degandi. O‘shanda buni olib ko‘zdan kechirding. Ostida “Horse”, \$ belgisi va 8.75 yozilgan. Bu odamlar axmoq. Shuni ham qariyb to‘qqiz dollarga oladimi, deb hayron bo‘lganding. Chetga chiqqan bo‘lsa hadya o‘rnida olgandir-da? Hadyaning arzon yo qimmat bo‘lmaydi. Lekin odatda bizda hadyaning narxi olib qo‘yiladi. Qiziq, balki e’tibor qilmagandir? Xullas, u yoq bu yog‘ini tekshirding. Ammo raisning xonasida ham ayni haykalchani ko‘rib qolding. O‘zingniki deb o‘ylab, ostiga qarading. \$ belgisi va 21 raqami bor edi. Bunisi yana ham qimmat deb o‘ylading.

Toki, yana ikki-uch joyda ko‘rmagauncha va narxlari turli ekanini anglamaguncha shubha qulmading. Keyin qiziqding.

Tarixda Parkana otlarini “uchar ot” deyishgan. Dul-dul ot Parkana davlatining ramzi ekan. Baqtiriya qirolining tangasida ham xuddi shu ot tasvirlangan. Ammo dunyoga mashhur bo‘lishi shunday haykalchalardan ikkitasi Xitoyning Tang imperiyasi qabirstonida topilgandan keyin boshlangan.

Milloddan avval Xitoy Farg‘ona dul-dul otlarni o‘zimizniki, deb dunyo bozorida rosa pullagan. Keyinchalik bu otlar Parkana, ya‘ni Farg‘ona oti ekanligi ma‘lum bo‘lgan va bugun shu nom bilan ataladi.

Xitoy Parkana davlatining nomini Davon deb ataydi. Xullas, bu haykalchalar qanaday bu erga kelib qoldi? Nega asosiy rahbarlarning xonalarida turibdi? Kim bergan ekan? Qaerdan kelgan? Ma‘nosi nima? Agar chetdan hadya qilingan bo‘lsa nega Raisning ham xonasida turibdi? Nega Chalmatov hadya qilib yurgandi? Rais soatini soniyalab sanaydigan odam. Xorijdan kelgan narsani xonasida saqlamaydi. Senatorning haykalchasi ostida \$ belgisi va 2.04 yozilgan

Chin imperatorlarini ko‘mganda sopol askarchalar va ot haykalchalari bilan ko‘mishgan. Ot haykalchalar Farg‘ona otlarining nusxasi. Eramaizdan oldin Chin josusi Farg‘onaga kelib bu erda “Jannat samani” deyilgan otlarni ko‘rib qoladi. Bu otlar shu qadar uchqirki, qoplon va sherga ikki hamlada etib oladi. Undan ham qizig‘i, odamning gapini tushunadi. To‘rt oyoqlab yurishi, egilib ta‘zim qilishi, ko‘kka qarab o‘rlashi, o‘z egasiga sodiqligi, favqulodda go‘zalligi, terisining oltindek tovlanishi, uch tuyog‘ida oppoq yol, peshansida ham oq belgi, yollari chiroyli xonimning

sochlaridek silliq... deb ta'riflaydi josus o'z imperatoriga. Shundan keyin imperator armiya yuborib, otlardan talab qiladi. Parkanaliklar berishmaydi. Chin son-sanoqiz askar bilan bosib keladi. Parkana har tarafdan o'rab olinadi.

Oxiri kelishuvga borishadi. Chin uch mingdan ziyod ot va minglab otboqarlarni olib ketadi. Otlarni ko'paytirishni rejalaydi. Uddasidan chiqolmaydi. Otboqarlar bo'ysunmaydilar. Ularni qatliom qilishadi.

Keyin yana tarixda "Ot urushi" nomi bilan qolgan jangga kiradi. Ammo bu safar Chin Farg'onada katta talafotga uchraydi. So'ng ayyorlikka o'tadi. Oltin evaziga otlarni sotib oladi, ot qochirish, ya'ni urchitish usulini o'rganadi va Farg'onaliklarni ishga taklif qiladi. Ularga yaxshi sharoitlar qilib beradi. Natijada o'shanda Xitoy dul-dil otlarni dunyoga sotibgina qolmay, o'zining ko'p ming sonli armiyasini shunday otlarga mindiradi.

Lekin nega Tang qabrostonida topilgan haykalcha bu erda? Bu aslimi? Balki shunchaki o'xshatmadir? Nega unda Senatorning ham ichkarigi xonasida stolning ustiga qo'yilgan. Nima siri bor buning? To'xta! Buni vazirlarning ham uyida ko'rganding? Hokimlardan bir ikkitasining xonasida ham bor edi? Kimdir bularning hammasini sovg'a qilganmi? Kim? Chin-mochinmi? Vladichmi? Valadichga nima qizig'i bor? U hadya qilsa, Kreml aks etgan biror narsani sovg'a qilardi? Yo'q, bu erda qanaqadir sir bor?

Turkmanlarning Ahaltegin, forslarning Niso otlari ham Farg'ona samanlariga borib taqaladi. Chin tarixchilari bu otlarga o'z davlatchiligining ramzi sifatida qarar ekan? Juda qiziq! Aslida bizniki. Ammo ular bizniki deb turibdi. Ramzi rahbarlarimizning xonasida. Bu erda qandaydir sir-sinoat

bor? Anglay olmayapsan, Shunqorbek! Izlan. Topasan! Shuni topolmasanng, nima qilib yuribsan bu dunyoda?

Telefonimni ochdim va internetdan bir narsa toparman, deb qidira boshlasam, ko'zim o'zimiz xabar sizdiradigan mashhur bir saytga tushdi.

Unda "Doda engil insult kechirdi" degan bir satrli xabar. O'n daqiqa oldin qo'yilibdi.

Sir Sirdaryoga to'kilibdi. Qanday to'kildi? Odatda u saytga xabarlarini o'zimiz sizdirar edik. Rais sizdirdimi? Maqsadi nima? Tushunarli. Mish-mishlarning oldini olish. Lekin ko'p o'tmay boshqa saytda "Doda o'lgan bo'lishi mumkinmi?" degan savolli xabar paydo bo'ldi. Ortidan "Doda jidiy kasal" deb yozildi.

Bu safargisi oldingilariga o'xshamayapti. Ilgari idora bu saytlarni shunday xabarlarlar bilan rosa semirtirgan. "Doda amaliyot kechirdi", "Doda yurak xurujiga uchradi", "Doda kasal bo'lib qoldi."

Bu juda o'ylab qilinardi. Qaysi bir saytning reytingi oshib ketaversa, bunday xabar o'sha tomonga sizdirilardi. Hamma qiziqardi. Tashvishga tushardi. Bahslar boshlanib ketardi. Ammo ertasiga oynaijahonda Doda ko'rinardi. Bu ham raqiblarni, ham muxoliflarni obo'sizlantirishning bir usuli.

Mana shuning uchun bu safar turli saytlar o'z uquvchilarini ishontirishi mushkul bo'layotgandi. Ayniqsa, rus saytlarida bu avjga chiqdi. Xabar Markazdan sizdirildimikan? Ularda jamoatchilikni katta voqealarga tayyorlash usuli bor. Idora ham buni qo'llamoqda. "Doda o'lgan" degan xabarlar ham paydo bo'ldi.

Senatorning xonasida televizor qo'yilgan. Kupa-kunduzi Dodaning qaror va farmonlaridan o'qib berishmoqda,

Odatda bunday hujjatlar kechki soatlarda e'lon qilinardi. Buning ustiga shanba kuni. Demak, sizdirish idoradan yoki Raisdan emas. Bu yo markazdan, yo G'ulomning guruhidan. Ular bilib qolgan. Kimlardir unga ham ishlaydi. Ba'zilar har ikki tomonga xizmat qiladi. Buning oldini olish, birovni jazolash juda qiyin. Rais bilan opoq-chapoq bo'lgan xodim, uning o'rinbosari bilan teskari bo'lolmaydi-da. Qolaversa, ularning ko'pchiligi rahbarlar ikkiga bo'linganini bilishsada, har ikki tomonga taltayishadi. Bu jon saqlashning bir yo'li. Jon saqlovchilardan bittasi hamma gapni Raisning o'rinbosari G'ulomga shipshitgan bo'lishi aniq. Bundan tashqari G'ulom telefonlar oqimini ham nazorat qiladi.

Tlefonim "ting" etdi. Ochsam Istanbuldagi rezident.

"Ob-havoni so'ramoqchi edim?" deb yozibdi.

"Ob-havo joyida. Havo jazirama, qizdirmoqda."

Shunday deb yozdimu o'chirdim. Chunki jazirama so'zini har tomonga burish mumkin. "Issiq", desam ham xabarlarini tasdiqlagan bo'lib chiqaman.

"Hammasi joyida..."

Uch nuqta qo'ydim. Qanday tushunsa o'zi biladi. Uni aldasam, bir kun u ham meni aldaydi. Unga ishora bersam, boshimga balo bo'lishi mumkin.

Yana telefon "ting" etdi.

Moskvadan eski tanish.

"Bizga har turli xabarlar kelmoqda. Surishtirib berolmaysizmi?"

"Uyda yotibman. Bugun dam olish kuni. Nima gap ekan?"

"Doda haqida. O'qimadingmi?"

O‘zimni go‘llikka soldim:

“Kecha juda kech yotgandim, uxlab qolibman. Nimani o‘qishim kerak? Havola berib yubor.”

Boya o‘qiganlarimning hammasini yubordi. Keyin u yana yozdi.

“Mashhur vrach siz tomonga uchmoqda, guruhi bilan. Sen bo‘lsang uxlab yotibsan-mi?”

Shu gap alam qildi. Ammo u bilmaydiki, vrachlar qo‘nalg‘adan qaytib ketadi. Ertaga bir gap chiqib qolmasligi uchun mashhur tanish-bilish doktorlar chaqirtiriladi. Qo‘nalg‘aga keladi. Oladiganini oladi va qog‘ozga qo‘l qo‘yib, qaytib ketadi. Bu masala bilan Salimxon aka shug‘ullanmoqda. Istasa, ularga osh qilib beradi, istasa, mehmon qiladi. Xullas, uning vazifasi. Hatto etkazadiganini etkazib, doktorlarni yarim yo‘ldan qaytarishi ham mumkin.

“Xush kelibdi. Quchoq ochib kutib olamiz. U odamlar kun ora kelib turishdi. Dodamizning aziz mehmonlari, davolab ketishadi. Buning ustiga hafta oxiri” deb yozdim.

“Mish-mishlar bilan mos tushib qolgani uchun qiziqdim.”

“Qiziqib ko‘ray, mish-mishlarning tagida bir gap bo‘lsa, o‘zibm senga ekazaman.”

Unga ko‘p ham ishonib bo‘lmaydi. Biz sizdirgan xabarlarini ham chop etadi. Ammo pulni G‘arbdan oladi. O‘zinikilarga ham ishlaydi. Xabarni ular orqali olgan va mendan tasdiqlatmoqchi ko‘rindi.

Salimxon akaning hunarlarini bilmaydi-da. U kerak bo‘lsa chet ellarning mana-man degan duxtirlarini ham chaqirtiradi. Uchqich yuborib olib ham keladi. Kalganlaridan keyin:

-Uzr, kech bo‘lib qoldi, ketib qoldilar, bizda musulmonchilik, mayitni u yoq bu yog‘ini kesib, azob bermaydilar, vasiyatlari shunaqa,-deb haqlarini besh-o‘n baravarini to‘lab, jo‘natadi ham. Uning bu boradigi san‘atiga qoyil qolmay, tan bermay ilojingiz yo‘q. Hammadan gap chiqsa chiqadi, ammo unda chiqmaydi. Uni “go‘r” deyishadi. Eshitgani ichiga ko‘miladi. Go‘rning ustida o‘t-o‘lan unib chiqadi, buning yuziga hech narsa chiqmaydi, “go‘r”ligini ham sezmaysiz.

Xayolga barham. Chunki senatorning xonasiga kirib-chiquvchilar ko‘paydi. Partiya raislari, qo‘mita rahbarlari bitta-bitta kirib, uni quchoqlab, qulog‘iga bir narsalarni shipshitib, chiqib ketishmoqda.

-Hech gap yo‘q hali. Ko‘ngilni tinch qilinglar. Ozgina mazzalari bo‘lmabdi. Duo qilinglar, vahimaga, mish-mishga o‘rin bermanglar!

Senatorning hammaga aytayotgan gapi shu.

9. Zuhra

Yodimga tushdi. Ot haykalchalardan bittasini arxivda ko‘rgan edim. Arxivning jovon qatorlari boshida kiril harflari va yonida turli hayvonchalarning surati bor.

Masalan, “B” yonida baliq, P harfi yonida “Pul”, “O”ning yonida otning haykalchasi. Harflar qator sirasini belgilaydi. Surat esa sirli kod. Misol uchun, “Baliq” bo‘limida turli jinoyatlar bilan ushlangan va osongina qutilib ketgan odamlar bilan bog‘liq hujjatlar saqlanadi. Jovon yonida maxsus seyflar bor. Rim raqami bilan raqamlangan. Uning ichidagi hujjatlar esa Xorazmiy raqamlari tarzida joylashtiriladi. Idoraga ishga kelgan odamning arxivdan foydalanishi oson emas. Bu ishni Zuhra nazorat qiladi.

Zuhra ismiga monand qiz. Qaddi qomati uncha-buncha yigitni asirga oladi. Ko‘zlari ko‘kimtir, sochi qora, yuzi qaymoqrang. Doim jiddiy. Hech kulganini ko‘rmaysiz.

Esingdami, Shunqor, yangi ishga kelgan paytlaring edi, uni liftda ko‘rib qolding. Bir qarashda vujuding junjikdi, labing qurib, tiling kominga tortildi. Arang o‘zingni qo‘lga olib, unga qarading. U ham senga tikilib turibdi. Jilmayding. U esa qovog‘ini soldi, parvo qilmadi. Ko‘zingni olib qochding, ammo uning termulib turgani seni goh muzlatib, goh eritib yuborayotgandi. Hatto qaysi qavatga chiqish tugmasini ham bosmabsan. U to‘rtinchi qavatga chiqdi.. Orqasidan qarab qolding. Xanjardek tik, qadam tashlashlari ham askarnikidek mahkam. Orqasiga qaraydi deb o‘zingni ovutding, ammo qaramadi. Lift eshigini basharangga bekitdi. Nimadir jing etdi. Shunda bildingki, lift pastga qarab keta boshladi. Erto‘ladan chaqirishgan ekan. Liftdan tushib atrofga nazar soldingda, ikkinchi liftning tugmasini bosding va kuta boshlading. Eshik ochilishi bilan boyagi qiz chiqdi. Vujuding shuv etdi. Unga qarab kulimsirading, u esa parvo ham qilmay o‘tib ketdi va arxiv tomon yo‘l oldi. O‘la, yigit bo‘lmay, hatto bir so‘z aytolmading. Bitta idorada ishlaysan-ku endi, nega jiddiy tarzda biror narsa deya olmading? Oylar o‘taverdi, uni liftda ko‘rish uchun pastga, tepaga qatnab yurding. U xonalarga kerakli arxiv hujjatlarini tarqatib yurgani uchun liftga tez-tez chiqadi va gohida ko‘rishib qolasizlar. U senga qaraydi. Pisand qilmaydi. Xuddi devonaga termulgandek nigohini uzmaydi. Sen unga tomosha.

Bir kun Rais bilan kelayotganding, Zuhra ham lift kutayotgan ekan. Raisga alohida lift eshigini ochib turishadi. U Zuhraga imo qilib, liftga chaqirdi.

-Assalomu alaykum, o‘rtoq general!-dedi u liftga minarkan.

-Amaki deyaver,-dedi Rais salomga alik ham olmay.

Keyin menga qarab gapirdi:

-Zuhra yaqin do'stimning qizi. Shaxmatini ko'tarib keladigan do'stimning qizi.

So'ng qizga qaradi:

-Zuhra, bu yigitni taniysanmi? Yordamchim. Arxivda nima kerak bo'lsa, topib beraver, qaydiyatdan o'tkazib yurma. Menga ishongandek ishon unga!

Birinchi marta ko'rdim, Zuhra boshni egib, ko'zini olib qochdi. Qani edi lift to'xtamasa. Yana biroz uni tomosha qilgim keldi. Ammo Zuhra tushib qoldi. Rais esa:

-Juda bilimdon qiz, uni qo'lga olishing uchun bilimli bo'lishing kerak, to'yingni o'zim qilib beraman,-dedi

Uyalib ketding. Rais qayoqdan bilib qoldi? U liftni ham kuzatadimi? Balki idorada kimni kimga uylanishi, kimning oilasidan ajralishi ham raisga bog'liqdir?

Xullas, Rais yo'lingni ochib berdi. Aslida u seni Zuhraga yaqinlashtirish bilan birga yuz yillik tarixning ichiga qo'yib yubordi.

Har kun Zuhraning oldiga tusharding.

U senga arxiv qoidalarini, hujjatlarni qanday asrashni, Rais aytgani bilan hech narsa o'zgarmasligini, hujjatlarni tekshirib berishi va tekshirib olishini aytdi. "G'ing" deya olmading. Arxivda nima kerakligini ham bilmasding. Bir kun Zuhraga:

-Idora tarixini o'rganmoqchiman, qanday maslahat berasiz?-deding.

U butun arxivni ko'rsatib:

-Hammasi tarix,-dedi.-Chap tomondagi devor "Birinchi seyf". Ikki marta maxfiy hujjatlar o'sha erga tashlanadi. Hech kim ocholmaydi. Sirli raqamlangan. Ellik yilda o'zi o'zidan ochiladi. O'ng tomondagi esa yuz yilda ochiladi. Jovondagilar ochiq. Albatta hammaga emas. Raisga, o'rinbosarlariga va mana endi sizga ham. Qolganlar uchun alohida qoida bor. Murojaat qiladilar va o'zim olib borib, hujjat imzolotib, ma'lum soat yoki ma'lum kunga topshiraman. Aytilgan paytda yordamchim yig'ib, joyiga qo'yadi. Atrofga qarayman, yordamchi ko'rinmaydi.

-Yordamchim to'rtinchi qavatda o'tiradi. Unga kompyuterda ro'yxatni tashlayman va qaysi soatda kimdan qaysi hujjatni olishni biladi.

-Nega bu erda emas, to'rtinchi qavtda o'tiradi?

-U erda hujjatlarga kimyoviy ishlov beriladi. Eskirib yoki o'chib qolmasligi uchun. Keyin o'zim olib kelaman. Agar ma'lumot ko'p kerak bo'lsa, tergovchilar shu erga kelishadi va mana bu xonalarda o'tirib, ishlashadi.

Ko'zing, jovondagi "Q" harfiga tushdi va suratiga qarading. "Qilich". O'zingcha o'ylading, bu erda qotillar haqidagi ma'lumotlar to'plansa kerak.

-Ashaddiy killerlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishmoqchi edim,-deding Zuhraga.

-Ko'cha qotillarimi yoki o'zimizning qotillarmi?

Ajablanib qolding. Bu gap juda sovuq eshitildi. Nima degani bu? Qanaqasiga o'zimizning qotillar. Ammo Zuhraning yonida bo'sh kelmaslikka harakat qilding.

-O'zimizning qotillar...

-Tiriklarimi yoki o'lganlarimi?-deb so'radi Zuhra. Shoshib qolding.

U xuddi ustingdan kulayotgan va bu borada savodsizligingni pesh qilayotgandek edi.

-Tiriklari,-deding soxta sovuqqonlik bilan. Qiz bolaning yonida o'zingni pastga uring kelmadi. U yana savolga tutdi?

-Ichkaridagilarmi yoki chetdagilarmi?-dedi.

Nihoyat seni sindirdi va bilmaganingni tan olding.

-Shu qadar bo'limlarga ajratilganmi?

-Ko'rdingizmi, arxivdan foydalanish uchun ham ko'p narasani bilish kerak. Bo'sh vaqtingizda kelsangiz hammasini tushuntirib beraman,-dedi.

-Jonim bilan!-deb yubording. Uning mayin tovushi senga shu qadar yoqdiki, xuddi "bo'ldi men sizniki" degandek eshitildi. O'zingni yo'qotding va ortga burilib chiqib ketayotganding, Zuhra gap otdi:.

-Ro'yxatni ko'rmaysizmi?

-Qaysi ro'yxatni?

Yana qovun tushirding.

-Bunaqa dovdirab qoladigan bo'lsangiz bu idorada ko'p ishlay olmaysiz,-dedi u va jilmaydi. Bu uning senga ilk jilmayishi edi.

-To'g'risini aytayinmi, aslida arxivdan foydalanishni o'rganishga kelgandim, gap boshqa tomonga aylanib ketdi,-deding.

-Tushunarli, ancha narsa o'rgandingiz, lekin boyagi masalani yana davom ettirish mumkin. Masalan, qotillarning haqiqiy ism-shariflari bo'lgan ro'yxatmi yoki to'qima nomlarimi deb ham so'rashim mumkin.

-Hammadan shunday so'raysizmi?

-Yo'q, faqat sizdan. Chunki Rais sizga izn berdilar. Hammaga izn bermaydilar. Hamma o'z chegarasini biladi.

-Demak men chegarasiz...

-Yo'q, siz ham chegarangizni bilishingiz kerak. Masalan, meni ko'rganda dovdirab qolmasligingiz zarur. Aks taqdirda ko'rganlar har narsa deb o'ylaydilar. Qolaversa, liftda tushib-chiqishni kamaytirishingiz shart. Bekorxo'ja deb o'ylashadi.

-Rahmat,-deding, keyin,-taslim bo'ldim, mot qo'ydingiz,-deb jilmayding.

-“Shah” deyishni va ortidan “mot” deyishni dadam yaxshi biladilar. Rais bilan birga o'qiganlar. Darvoqe, sizning dadangiz bilan ham. Ular kursdosh bo'lishgan.

-Siz qayoqdan bilasiz?

-Ko'rdingizmi, yana xato qildingiz, men arxivda ishlayman-ku?-dedi Zuhra yana o'zining ustunligini ko'rsatib.

Uning dadasi kun ora kechki payt kirib keladi. Uni hamma taniydi, shekilli, hech narsa demay kirib kelaveradi. Raisning xonasida kechquruni bilan shaxmat o'ynashadi. Yonlarida telefon turadi. “Ketdilar” degan ovozdan keyin o'yin qizimaydi. “Uxladilar” deyilganidan so'ng ular o'yinni to'xtatishadi va birgalikda chiqib ketishdi.

-Dadam haqida bilmoqchiman,-deding arxiv tomonga tikilib.

-Dadangizni bilmaysizmi? Buni Raisdan so‘rashim kerak. Ko‘rdingizmi, sizga ham chegara qo‘yilgan.

-Kim qo‘ygan?

-Kim bo‘lardi, men qo‘ydim,-dedi Zuhra;

-Ertaga..., -deb to‘xtab qolding.

-Ertaga vaqtim yo‘q,-dedi Zuhra.-Yigitlarga ozgina ro‘yxushlik bersang, tamom, ertaga deb gap boshlaydi.

-Ertaga arxivga kelsam bo‘ladimi?-demoqchi edim.

-Ertaga dam olish kuni, men ishlamayman. Boshqa odam keladi.

Indamay bosh egib chiqib ketding. Zuhra tit-pitingni chiqarib tashladi. Gapga chechan, ishni biladigan, qo‘rqmas, jasur qiz ekan. Bundaylarni quruq gap bilan engib bo‘lmaydi. O‘zingni ko‘rsatishing kerak. E‘tibor qilmaslik lozim unga. Yo‘q, bunga katta salohiyat kerak. Qo‘lingdan kelmaydi. Yaxshisi, bo‘sh vaqtingda arxivda ishla. Kallanga kirs-kirmasa, hujjatlarni varaqla.

Zuhra bahonasida arxivga boshing bilan kirib, oyog‘ing bilan chiqib ketolmay qolding. Shu qadar sirli dunyo ekanki, Zuhraning gapini eshitmay qolarding. Mashhur odamlar bilan bog‘liq hujjatlarni ko‘rganingda inson zotining qanchalik turlanishiga hayron qolganding. Aka-ukalarini, yaqin do‘stlarini qoralab ko‘rsatma berganlar. Ayniqsa, mansabdorlar osongina hamma gapni yozib berishgan va aybni boshqaga to‘nkashgan. Ko‘plarini ustalik bilan sindirishgan deb o‘ylarding.

Mana endi ko‘rib turibsan, Senatning xonasiga kirib chiqayotganlarni, avvaliga uni quchoqlab, qulog‘iga shivirlashgan bo‘lishsa, endi ochiqchasiga tabriklashmoqda.

Bitta partiyaning raisi kirib uruscha gapirdi:

-Xudoga shukur, shu kunlarga ham etdik. Sizni bizga Xudoning o‘z berdi. Hammamiz sizdek iste’dodli rahbarga muhtojmiz,-dedi.-Boshingizda “angellar” aylanib turibdi.

-Unaqa demang, hali hech gap yo‘q,-dedi Senator ayni gapini ruschalab.

U telefonda ham kimlar bilandir ruscha gaplasha boshladi. Faqat “Shum” bilan gaplashganini sezding. “Shum” negadir unga baqirdi. U o‘rnidan turib, “est-est” deb turaverdi.

Shunday paytda ezilib ketasan, Shunqor. Xalq kimlarning qo‘liga qolgan.

Birlashmagan xalq olomonga aylanadi, bo‘ronlar ostida qoladi, shunda ham birlashmasa, yolg‘iz kimsalarga aylanadi, sirtlonlar qo‘rshovida qoladi, shunda ham birlashmasa, u yo‘qolib, yo‘q bo‘lib ketadi. Nahotki shu niqtaga yaqinlashayapmiz?

Xayolimdan olis tarix o‘ta boshladi. Ming yil nari va ming yil berida ham birlashganlar omon qolishgan. Qancha-qancha elatlar tarqoqlik tufayli yo‘q bo‘lib ketganlar. Agar odamlar uyat joylarini yopishni hali anglab etmagan o‘sha ibtidoiy jamoa davrida birlashmaganlarida bugun er yuzida faqat hayvonlar yasharmidi?!

Tariximiz arxivlarda yotibdi. Biz sayyoh Klavixo, savdogar Jenkinsondan o‘qiymiz tarixni. Bartold nima yozgan deb kitob qidiramiz. Imomqulixonning o‘rislar podshosiga bizga vakil yuboring, deb iltimos qilganini bilmaymiz. Ivan

Xoxlovning Xiva, Buxoro, Samarqandga kelib ikki yil axborot to'plagandayoq, bu zaminga ofat kelishini o'ylab ham ko'rolmaganmiz. Shohniyoixonning Pyotrga sovg'a - salomlar yo'llab, zarbof to'nlar yuborib, "Bizni qo'shib oling!" deya gapirishga nima majbur qilganini o'ylamymiz.

Nazarimda, uruslar eng nozik joyimizni topgan ko'rinadi. Ya'ni qal'ani ichidan olish osonligini bilib olishgan. Axir Iskandar Zulqarnayn qanday qilib bu tuproqni bosib olganini eslang? Undan oldin chin-mochinchi? Oqposhso ham shu yo'lni tanladi.

Tog'lari oltin, bog'lari kumush, zamini kon, yurti kuchga makon joyni nima qilib bo'lsa-da olishi kerak edi. Ochko'z va ochofat general Chernyaevning Toshkentga kirib kelishini bilasizmi? O'ris podsho bu shaharni kuch bilan emas, hiyla bilan olgan.

Toshkent sarhadida o'ttiz ming sipohiy turardi. Jang deyarli bo'lmadi. Zangiota, Niyozbek, Chinozda darrov taslim bo'lishdi. Dushmannning askari ikki ming nafarga ham etmas edi. Chernyaev shaharga yo'l oldi. Bu orada Turkistonning o'zida ham ichki kurashlar boshlanib ketgandi. Toshkent shahri yoshlari jangga o'tlanishganda oqsoqollar oraga tushishdi. O'z farzandlarini, kelajakni bog'lab berishdi.

Ana shu dahshat, ana shu meros bugungacha davom etayapti. Mustaqillik deya birlashgan yurtsevarlarga, mustaqillik tarafdorlariga qancha oqsoqollar pand-nasihat o'qiganlar. Ularni idoraga chaqqanlar. Qo'lyozmalarini ko'rib vahimaga tushganding, Shunqor!. Mustaqillik deya chiqqanlar qolib, unga qarshi bo'lganlarni qo'llagan idorang, Shunqor! Mard yigit-qizlarni o'ldirishgan. Qotillarning nomlarini, qanday o'ldirganliklari haqidagi

bitiklarni ko‘raverib, sen ham odamligni yo‘qotding, Shunqor!

Bu ana’na deb o‘zingni ovutasan, Turkiston qon ichida, olov ichida qolgan damlarda qancha bobolarimiz eshik ochib berilishi uchun xizmat qildilar deb taskin topgandek bo‘lasan. Turkistonni qilichdan o‘tkazgan general-gubernator Kaufmanning “yashin tezligi”da Samarqand, Kattaqo‘rg‘on, Zirabuloq, Buxoroni bosib olishini bilib, qoning qaynagan bo‘lsa, amir Muzaffariddin himoyaga otlanish o‘rniga Kaufman bilan til biriktirgani haqidagi hujjatlarni o‘qib muzlab qolding.

Xayriyatki, Abdurahmon oftobachi singari ulug‘lar atrofiga birlashgan g‘azavotchilar haqida o‘ylasang, xayol botqog‘idan chiqa boshlaysan. Lekin arxiv oyog‘inga osiladi.

Urus inqilobidan keyin Turkiston yana olov ichida qoldi. Yana o‘sha shaharlar, qishloqlar vayronaga aylandi, yonib kul bo‘ldi. Endi faqat Kaufmanning o‘rnida Frunze edi. U ham qal’ani olish uchun ichkaridan harakat qilish “qoida”sini ishga soldi. Sotqinlar qahramon bo‘ldilar, qahramonlar sotqin! Yurt esa vassal, mustamlaka! Millat vakillarining, jadidlarning ozodlik uchun yigirma yillik kurashlari, birlasholmaganlari talofot bilan, ofat bilan, zamonning aqli yanchib tashlanishi bilan tugadi.

Yana zamon o‘zgara boshlaganda olov seli ustimizga keldi. Farg‘ona voqealari ildiziga qaramadik. Parkent fojeasiga yuzaki munosabatda bo‘ldik. Keyin O‘shdagi olovning gulxanini yoqqanlarga so‘zimizni aytmadik.

Mana oqibat. Hamma ko‘rsatmani Moskvadan olmoqda. Dod deb yuborging keladi. Ammo o‘zing ham ulardan bittasi

ekanliging bu faryodni yutib, maydalab, hazm qilib yuboradi, Shunqor!

Nima ham qila olarding? Bu savol seni ham, boshqalarni ham mahf etgan.

Yana xayolga berilding va Senator kimlar bilan gaplashayotganiga e'tibor qilmading. Telefonning "ting" etmasa hali beri xayol botqog'idan qutula olmasding.

"Bor, damingni ol". Bu raisning buyrug'i..

Tashqarida kun botgan. Kun botganda va tong otganda ko'kdan Zuhrani qidirasan. U yorqin sayyora! Kimdir Quyoshni alqaydi. Kimdir Oyni maqtaydi. Sen esa Zuhrani sevasan. Ko'kka boqdingmi, uni qidirsan, ha, deganda ko'rinmaydi. Ammo topasan. Ko'kdan topolmasang, qalbingdan topasan. Uni qalbingga muhrlab qo'ygansan. Qiyin soatlarda dilingni yorishtiradi, kuch beradi.

Tashqari dim, ammo Senatorning xonasi kabi biqiq emas.

Tashqari qorong'u, ammo Senatorning yuzidek tund emas.

10. G'ulom

"Batya" o'ldiyu o'zimni erkin his qilib, xayolga berilayapman. Xayollar og'ushida hali uyga etib kelmasimdan ortga qaytarishdi. Raisning o'ziga uchrashishim kerak ekan. Borsam:

-Qahva ichayaptilar, biroz xalaqit qilmaylik, - dedi qabulxona adyutanti. U general. Sen esa polkovnik, Shunqor. Lekin sendan hayiqadi. Xuddi o'zidan katta generalga muomala qilayotgandek "yumshoq supurgi" bo'lib oladi.

Stol ustidagi apparat "gapirib qoldi":

-Keldimi, kirsin!

Adyutant boshini qimirlatib, tirjayib qo'ydi va eshikni ochdi.

Hayajon bilan qadam tashlab kirayotgandim:

-Kel, o'g'lim,-dedi rais va yonidagi kresloni ko'rsatdi.-
Ishlaring qalay?

-Yaxshi o'rtoq Rais!

-Rais-paisingni qo'y! Seni narigi idoraga ko'chirdim. Yangi rahbarimizni qo'riqlaysan. U juda ham yaxshi odamligini bilasan, bir necha yil ham bevosita, ham bilvosita xizmatini bajarding. Boshimizni silaydi. Biz unga sodiq bo'lishimiz kerak. Kelgusida sen ishlaydigan idorani qayta tuzamiz va o'zing boshqarasan. Odamlaringni tanlab yur. Bu gap ikkalamizning oramizda qolsin. Sen, men va yangi rahbar biladi. Hozir esa bor, damingni ol, ertadan boshlab uxlashga vaqting bo'lmaydi. U kishining atrofida xas aylanmasligi kerak. Devonga bormaydigan bo'ldi. Senatorlarning binosida ishlab turadi. Anhorning bo'yida. Ertalab o'sha yoqqa borasan. Qolganini o'zing bilasan, sen qanday bola ekaningni dadang aytmadan oldin ham bilardim. Rahmatli dadang yaxshi odam edi. Seni ishga olishimizga rozilik bermagandi, tirik bo'lganda ko'rardi, o'g'li qanaqangi ishga ko'tarildi.

Boshliq shunday deb arang o'rnidan turdida, "Boraver" degandek elkamga urib qo'ydi.

-Xayolga berilma,-dedi eshikka yaqinlashganimda.

-Xo'p bo'ladi Raisim!

Uyga kelguncha xayol surishga cho'chidim. Shuning uchun qo'shiq eshitib keldim. Uyga kelib ijtimoiy tarmoqlaru oynajahonda nima bo'layotganini oldinroq yozgandim.

Butun mamlakat o'likni tuzalsin deb duo qilish bilan ovora. Hatto senday odam ham bunga ishonib qolayapsan, Shunqorbek. Targ'ibotning kuchi yomon. Soppa-sog' odamni jinniga aylantirib qo'yadi.

Charchagan ekanman, uxlab qolibman. Telefonning tinimsiz jiringlashidan uyg'onib ketdim. Ichkuyov ekan.

-Tez etib kel, safarga ketamiz,-dedi u. Oldin sensiramasdi. Nima bo'ldiyan?

Yangi devonga borib bildimki, Ichkuyov rasman ishga olingan ekan. Katta xo'jayin. Bu sohani umuman bilmaydi. Oliygozlarda o'qiyapman deb hujjat so'ragan, o'zing yasab bergansan, Shunqor! Koreyada har kuni sport bilan band, saunaga borgan, malikasi bilan dunyoni kezib yurgan. Qaynata "pul dunyosiga ko'mib qo'ygandi. Mana endi, osmondan tushgan farishtadek hammani ishga buyurgan, vazifalarni belgilagan, hisob so'ragan, sensiragan... xullas, kallasiga kelgani tiliga chiqmoqda.

Ichkuyov yonimga kelib:

-Ikkalamiz ikki tomondan yuramiz. Men bu ishda yangi bo'lsam, sen... kechirasiz bratan, tilim "sen"ga o'rganib qolibdi, siz bu ishda eski, tajribali. Adamni ham yaxshi bilasiz, kayfiyatlariga qarab ish tutishimiz kerak. Menga ham past-balandni ko'rsatib turasiz. Bitta ko'zingiz adamda tursa, bittasi menda bo'ladi,-deb "tarbiya" bergan bo'ldi.

Bir zumdan keyin hammamizni ""Shum""ning xonasiga taklif qilishdi.

U Ichkuyovga qaradida:

-Sen Shunqorga bo'ysunasan, -dedi xuddi uning biroz oldin menga aytgan gapini eshitgan kabi. Keyin menga yuzlandi:-

Shunqor, bu bolaga polkovnik unvoni berdim. Rasmiylashtirib qo'y! Unga dars berib, odam qilasan! Qolganlariga ham yo'l ko'rsatasan! Jamoatchilikka ozroq ko'rin. Uzoqroqda, panada yur va hammasining qadam olishini kuzat. Ko'zing amaldorlarda bo'lsin. Kerakli gapni sendan so'rayman!

Kamina shikoyat qilganu "Shum" Ichkuyovga dashnom berayotgandek u ikki qo'lini oldinga qilib, boshini egib turardi. Pishiq bola. Uni oldindan yaxshi bilaman. Hozir tashqariga chiqishi bilan "Xo'jayin" deyishni boshlaydi.

"Shum" boshqalarga javob berib, Ichkuyov bilan kaminani olib qoldi. Bizni ichkari xonaga boshladi.

-Bu erni yaxshilab tekshiringlar,-dedi.-Shunqor, sen kuyovga G'ulomning guruhi haqida batafsil ma'lumot ber. Kim kim bilan bitta teshikka siyishini tushuntirib qo'y. Ular talvasada. Arining uyasini kovlamasin. Birozdan keyin yo'lga chiqamiz. Men bilan ketasan,-dedi.

Ichkuyovga idoradagi past-balandni tushuntirdim. Aytganimdek u o'zini qarshimda yosh boladek tuta boshladi.

Elkasiga urib qo'ydim:

-Siz bilan eski qadrdonlarmiz. Baribir bamaslahat ish qilamiz,-deb ko'nglini olgan bo'ldim. Bilib bo'ladimi, "Shum"ga biror gap etkazsa, menga emas, unga ishonishi turgan gap. Sulton suyagiga sodiq!

Biz Ichkuyov bilan ancha gaplashib qoldik. G'ulom haqida bilganlarimni aytib berdim.

Ichkuyov chetda yurib ichkaridagi xabarlardan bexabar ekan. Hatto G'ulomning saroyini titratgan o'yinlarini ham eshitmagan. Demak, bu joylarga kelib qolish xayolining

ko'chasidan ham o'tmagan. Olma terib katta bo'lgan bolani traktor zavodiga olib borib, bosh ta'mirchisan degandek gap bu. Tosh ko'tarib yurish, bosh ko'tarib yurish deb mana shunga aytadilar. Ichkuyov biroz o'pka. Ikki ma'nosiga ham mos tushadi. Sport zallarida tosh ko'targan bo'lsa, mana endi qo'ltig'ida toshi borligi ham ko'rinib qoldi. Chunki bojasidan shikoyat qildi.

-U lattaga boshqa ish berish kerak edi,-dedi. Boja bojani ko'rganda allaqaeri qichiydi deb bekorga aytishmagan.

Hali ish boshlaganimiz yo'q, bu bojasini yomonlayapti.

-Nima ish berishibdi?

-Salimxonga o'rinbosar...

Indamadim, gapni yana G'ulomga burdim.

G'ulom "“Doda”"ning eng sevgan eshagi edi. Aslida u Raisning muridi. Uni Rais topgan va o'zining o'rniga tayyorlab yurgandi. "Oltin yulduz"dan bittasini uning ko'ksiga taqdirgan ham Rais. Agar indamay yurganda yoki "“Doda”"ning gij-gijlash o'yiniga tushmaganda, bugun omadi olchi edi.

Unga "Doda" Raisning taltayib ketgani va biror muhim gap chiqsa o'ziga etkazib turishni aytgandan keyin atrofiga bir nechta generallarni yig'di. Rais sir bermaydi. G'ulom "Doda"ga etkazishi uchun voqealarni o'zi yaratib, go'yo Rais yashirgandek qilib aytib yurgan. Norvonni baland qo'ygan. G'ulom tomga etaman deganda norvonni tortib olishni rejalagan.

"Doda" asta-sekin uning aytganiga ishona boshladi. Yaqinlari amaldan amalga sakray boshladi. Bir kuni uni "Doda" chaqirib, tayyorgarligingni ko'r, yaqinda Raisni

ishdan olamiz, degan. Rais ilonning yog‘ini yalagan odam, xuddi shuni kutgan. Moskovdagi oshnalari orqali saroyni titratdi.

G‘ulomning ukasi ummon ortidagi davlatga sotilgani haqidagi xabarni olib “Doda” jinni bo‘lib qolay degan.

Bu etmagandek Rais “Doda”ning qizi haqida to‘plangan hujjatlarni ochiqqa sizdirdi. Xorijdagi uylarni tomoshaga chiqardi. Ovozayu darvoza bo‘ldi.

“Doda” dod-voy qildi. Bu ham G‘ulomning bo‘yniga ilindi. U ham bo‘sh kelmadi. “Doda”ga borib, Rais qamoqxonalarda dindorlarni tayyorlamoqda, nimanidir rejalamoqda, deb aytgan. Bir ikkita mahbusni gapirtirib, hokimiyatni Rais olmoqchi, deb xabarlar chiqardi. Janjal boshlanib ketdi. G‘ulom tashqaridan ham odam yig‘a boshladi. U Azimjon bilan uchrashib turdi. Buni videoga olganing esingdami, Shunqor. Bu gaplarni Ichkuyovga bildirsang, boshing baloning tegirmoniga kiradi. Sirni berdingmi, tamom, u bir kunmas bir kun o‘zingga qarshi ishlaydi. Shuning uchun ham sirni aytganda, bir joyini bukib aytish kerak. O‘zingga qarshi ishlatishsa, bukilgan joyini ochib, dushmaningni tit-pit qilasan.

-G‘ulom guruhi bizga qarshi er ostida g‘imirlab yurishibdi, deding Ichkuyovga, o‘zingni unga yaqin tutib. Aslida ham yaqinsan. Shu guruhdasan. Rais nima desa shuni bajarasan, shunday emasmi, Shunqor? G‘ulomning guruhini bitta-bitta sindirish muammoo chiqarishini, ularni bir hamlada bitirish rejasini aytting.

Mana shu gap Ichkuyovga yoqib ketdi.

“Shum” chiqib qoldiyu suhbat uzildi.

-“Doda”ning tug‘ilgan yurtiga boramiz. Moshindami, samalyotdami?-dedi senga “Shum”

Nega so‘radi? Meni sinab ko‘rmoqchimi? Balki ichida qo‘rquv bordir? Qo‘nalg‘ada G‘uloming giyohbandasi etarli. Ular narkotik kelishini va ketishni nazorat qiladilar. Pichoqlari moy ustida. Ularni “giyohbanda” deb ataymiz. U kechagi gaplardan xabarsiz qolgani uchun banditlarini muzning tagiga tiqib olgan bo‘lsa kerak. Talvasada u bir narsani o‘ylashi, rejalashi ham mumkin.

-Ishonchlisi mashina,-dedim.

-Sanda adashmadim, kallang zo‘r,-dedi “Shum” elkamga qo‘lini qo‘yib.

-Ruqsat bersangiz, boshqa mashina olib kelaman, ikki daqiqada,-dedim va yigitlardan biriga telexat yubordim.

“Ertaga bozorlik qilib, jiyanlaringga olib bor, tushimga kirishibdi”.

Bizning maxsus yozishmamiz bor. Yodlab olganmiz. “ertaga” degani “hoziroq”, “bozorlik”, degani “yangi mashina” “jiyan” shunqor, “tushimga kiribdi” degani Anhor tomondan kirish”.

G‘ulomning qulog‘i ham, qarmog‘i ham telefonda. Shuning uchun doim unga topishmoq tashlayman..

“Shum” orqaga qaytdi. Uzoq yo‘l, hojatini chiqarib olishi kerak. Uning yo‘lda mashinadan tushish odati yo‘q. Chidaydi, Bo‘zarib ketaveradi. To‘xtaylik desang, “hayda” deydi. Oxiri bo‘lmaydi. Bir joyda to‘xtaydi. Qiynalib ketadi shekilli, uf-uflab qaytib keladi. Xuddi orqasidan kimdir miltiq bilan quvib kelayotgandek, yugurib mashinaga o‘tiradida, “sur” deydi. U qorong‘udan qo‘rqadi. Negaligini

bilmayman. Balki birov poylab yuribdi, deb o‘ylashi ham mumkin. Balki bolalikda qo‘rqitishgandir? Uning bitta daftari bor. Jo‘qining she’rlaridan yozadi. Bir kun qo‘limga tushib qoldi. Ilk sahifasida “Siyosatga kirmaganimda shoir bo‘lardim” deb yozilgan. “Zaminiy” deb taxallus ham olgan. Qorong‘udan nega qo‘rqishi sirini she’rlaridan biridan topgandayman.

“Tunda jiyda tagidan,

O‘tma derdilar buvim,

Tunda daraxt bargidan,

Tutma derdilar buvim”

Demak, buvisi qo‘rqitgan bo‘lsa, shuurida qolgan. Hozir ancha vaqt ichkarida qoldi va keyin, chiqib;

-Keldimi?-dedi.

Ikki daqiqalik yo‘l, Shogirdim kutib turganiga shubham yo‘q edi.

-Keldi,-dedim.

Orqa eshikdan tashqariga chiqsak, mashina yo‘q. “Shum”ning avzoyi buzildi. Xayolim qochdi. Bir narsa bo‘lmasa, shogirdim etib kelardi. Nima qilish kerak? Yo‘lini top, Shunqor?

Atrofga qaradim, Xudoga shukur, shogirdim, uzoqroqda telefon titiklab turibdi. Tushundim.

Atrofda hech kim yo‘q.

-Bu yoqqa kel,-dedim unga.

Salom berib keldida:

-Orqadan kuzatishayotganini sezdim, mashina oshxona eshigi yonida. Olib kelayinmi?- dedi.

-Yo‘q, biz oshxona eshigidan chiqamiz, u itlarga ko‘rsataman hali, hammasini bulbulchadek sayrataman, - deb “Shum” jahlini yashirmadi.

Tezda mashinaga mindik. “Shum” darhol yotib olgandek, mashina ichiga cho‘kdi.

-Bu bola kim?-dedi xavotirli ohangda.

-Bu yigit eng ishonchli shogirdim, o‘lsa o‘ladi, ammo xiyonat qilmaydi. Sizga juda sodiq. Orqavarotdan juda hurmat qiladi sizni.

-Bunaqa gaplarni ko‘p eshitganman, Rais biladimi?

-Biladilar?

-Nega menga aytmadi. Bir chetga to‘xtat!

To‘xtadim. “Shum” shogirdimga:

-Uka xafa bo‘lmaysiz, bizning maxsus ishimiz bor. Mana sizga yo‘lkira. Uyga etib olasiz. Sadoqatingiz uchun rahmat,-dedi.

U qo‘ltiq cho‘ntagidan bir bog‘ dollarni unga uzatdi. U o‘zini taroziga solayotgandi:

-Ol, tabarruk, bu kishining qo‘li tekkan pul narsa omad keltiradi,-dedim.

Shogirdim, tushib qolgach, “Shum” biroz dashnom berdi. Juda so‘kag‘on. Oddiy gapni ham boloxonador so‘kinish bilan aytadi. Gapning ochig‘i ichimda xafa bo‘ldim. Uni deb jonimizni berishgacha borayapmizu...

Buni o‘zi ham tushundi, shekilli:

-Shunqor, sen o‘zimning qadrdon ukamsan, seni so‘kmasam kimni so‘kaman, yaxshi ko‘rganimdan so‘kaman, xafa bo‘lmasin,- dedi.

Tushunib turibman, buni odamiylik uchun aytmadi. Shu damda hayot-mamoti qo‘limdaligi esiga tushdi.

-Bu qanaqa mashina,-dedi birdan.- Bunaqasini ko‘rmaganman. Koshona-ku?

-Bu “Bentley” degan mashina. Yangi markasi. “Doda”ning qizi buyurtma qilib olgan, lekin uning tansoqchisi olib qo‘ygan.

-Bunga u yaramas minganmi?

Kimni so‘radi? Otasinimi, qizinimi? Tushunmay qoldim.

-Qizi ko‘rib ham ulgurmagan. Ammo uning buyurtmasi bilan qo‘lda terilgan va tashqarisi oddiy mashinaga o‘xshatilgan, ichi esa mana shunday koshona,-dedim yo‘ldan ko‘zimni uzmay.

-Qizini so‘ramayappman, o‘zi.

-Yo‘q ulgurmadi.

-Xudoga shukur!

Shunday deb “Shum” xayolga cho‘mdi. Sen undan ham chuqirroq xayolga berilding!

“Shum” “Doda”sidan juda qo‘rqardi. Bir marta qora telefon jiringlaganda oldiyu, o‘rnida turdi. “Doda” uni rosa yasadi, shekilli, bir muddat simyog‘ochdek qotib qoldi. Keyin ikki qo‘lini boshiga mushtladi. Birdan yosh boladek hungrab yig‘lab yubordi.

“O‘ldim, hammasi tamom!” deb boshini devorga urgandek peshonasini devorga tirab, turib qoldi. Demak, “Doda” unga yo‘qol, bo‘shading degan. O‘shanda videodan bu manzarani kuzatib, darhol Raisga ekazgandim.

Rais unga telefon qildi. U gapirolmadi. Ichkari xonaga kirib, yuzini yuvdi, keyin Raisga javob qildi.

-Aka qutqazing, o‘ldim, o‘ldim, aka!-deb yalina boshladi,- Bir umr xizimatingizni qilaman. Azimning ishi bu! Dunyoda haqiqat yo‘q ekan, meni sotishdi, aka, sotishdi!

-Hozir Shunqorni yuboraman, sizni bir joyga olib boradi,- dedi Rais va meni jo‘natib, o‘zi “Doda”ning oldiga ketdi.

Kelsam “Shum” Salimxon aka bilan gaplashayotgan ekan. Ancha kutdim, qarasam qizil chiroq hech o‘chmaydigan. Bir kor-hol bo‘lmasin, deb ichkariga mo‘ralamoqchi edim, kotiba qiz ko‘zi bilan qizil chiroqqa ishora qildi. Yordamchining esa rangi o‘chgan va menga kiravering degandek ishora qildi.

Kirsam “Shum”:

-Rahmat aka, rahmat, qulluq akajon,-deb Salimxon bilan gaplashayotgan va o‘zini ancha bosib olgan edi. Bu dunyoda haqiqat bor aka, bu siz bilan Rais!

Boyagina bu dunyoda haqiqat yo‘q deb turgan odam, haqiqat bor deb turibdi.

Lekin baribir aposematik holatda edi. Yuzi qizargan, ichki qahri betiga urgan.

Hayvonot dunyosida aposematiklari bor. Xaf bilan yuzma yuz qolsalar zaharli tikanlarini, ranglarini, hunarlarini, har turli himoya vositalarini ishga soladilar.

Ayrim odamlarda ham shunday turlanish mavjud.

Ishonmayman. Bizda haqiqat istalgani qadar egiladi, sindiriladi, tovlanadi, yo‘q qilinadi, oyoq osti etiladi. Bu zehniyatni buzishga uringanlarni dushmanga chiqarishadi. Haqiqat ularga qo‘shilib, sinib ketadi, yo‘qolib ketadi va biz tarix deb yolg‘onlarga oshufta bo‘lib yuraveramiz.

Rostga shubha bilan qaraymiz va yolg‘onni indamaygina hazm qilamiz. O‘qimishlisi “Xudoga bandamiz” deb aytib, o‘zi shohga qul bo‘ladi. Shoiri “Darveshman” deb saroy ostonasida gadoylik, tilanchilik bilan ovora. Boshqasi mahalliychi, manfaatchi va yolg‘onchilik qiladi. Bu ahvolda haqiqat qanday qilib sinmay qolishi mumkin?

Ozgina pul, mansab va‘da qilgan odamni ko‘klarga ko‘taradi. Pulim yo‘q, beradigan mansab ham yo‘q deb ochiq aytgan odamdan yuz o‘giradi. Biri, va‘dalar yolg‘onligini biladi, ammo quruq va‘daga sotiladi. Ikkinchisi, gap rostligini bilsa ham shubhadan qutula olmaydi. Bu ahvolda haqiqat qovjirab ketmaydimi?

Bilib turadi, tinch namoyishga chiqqan xalq otildi. Ammo rostga shubha bilan qarab, yolg‘onga mahliyo bo‘ladi, yolg‘onning etagiga osilaveradi. Bunday zaminda haqiqat qanday ko‘karsin?

Bilib turadi, minbarga chiqqan odam uni sotmoqda, ammo hokimiyatga kelib qolar deya unga tilining uchidagi savolini bermaydi.

Bilib turibdi, do‘sti qotil, ammo raqibim uning o‘rniga kelib qolsa-chi, degan o‘y bilan qotilga oqlovchi bo‘ladi.

Bilib turibdi, millati va mamlakati sotib yuborilmoqda, ammo “menga nima?” deya pinagini buzmaydi. Shunday ekan, o‘rtada haqiqat qoladimi?

Maqtasangiz yoqasiz, maqtamasangiz dushmansiz. Hatto chittakday odam ham sizdan filday maqtov kutadi. Filday odamni chumolining chaqqaniday ham ta'sir qilmaydigan darajada tanqid qilsangiz, bas bir umrbod dushmansiz. Haqiqatni shunday sindirishadiki, tiklab bo'bsiz!

To'xta, to'xta Shunqor, faylasuf bo'lib ketding. Nimalar deyapsan? Mana ko'rasan, bu odam yana joyida qoladi. Allaqachon bu hal bo'lganki, haqiqat bor deb aytmogda.

O'shanda o'ylaganing to'g'ri chiqdi. Mana endi shu odamga o'zing ham qulsan, Shunqor. Hamma ham sendek, sen ham hammaddek. G'ulomni g'ulom deysan, o'zing ham g'ulomsan, Shunqor!

11. Qabriston

Yarim tun. Mashinamiz "Batya"ning shahriga yaqinlashib qoldi. "Shum" telefonda hokimga topshiriq berdi:

-Talabalar bo'ladimi, qurilish tashkilotlarimi, farqi yo'q, hammasini olib chiq va qabristonni tekisla!

Hokim nimadir dedi "Shum"ga yoqmadi.

-Sakkizta odamning og'zini yuma olmasang, nima qilib o'tiribsan u erda, tezda xavfsizlikni uyg'ot, bolalarini olib chiqsin, hozir o'zim ham to'g'ri o'sha joyga boraman. Darvoqe, besh oltita bola olib "Batya" yashagan uyni borib ko'r, eshiklarini yangila, devorlarini bo'yab qo'y, kiraverishda katta portreti tursin. Butun dunyoning ko'ziga tushadigan joy, yaltiratib qo'y. Agar biror kamchilik topsam o'zingga yalataman, bildingmi? Sen bilan bugungacha birga ishladik. Agar endi ham qoqilmasang hech qachon qoqilmaysan, qanotim ostida bo'lasan. Bitta kamchilik topsam qaerga tiqib yuborishimni bilasan!

U aslida hokimni yaxshi ko‘radi. Chunki hokim unga xizmat qilishning havosini olgan. Boshqalarning vazifasiga kiradigan ishni ham uning oldida o‘zi qilaveradi. Bir kun “Shum”ning tufllisidagi ipi ochilmay qoldi. U shuncha chaqqon va ko‘zi o‘tkirki, bir soniyada “Shum”ning qo‘lidan tufllisini olib, ipini echdi va tuflining changini o‘zining ust qiyimiga surtib, kiygazib qo‘ydi.

Hozir ham biz etib borguncha u “Batya” tug‘ilgan uyga odamlarni joylashtirib, o‘zi qabristonga borib turadi. “Shum”ning kallasidan nima o‘tishini va nima unga yoqib-yoqmasligini ham o‘rganib olgan. Hatto daryo bo‘yidagi qo‘riqxonaga “tandir” ham buyurib qo‘yadi. “Shum”ning tandirda pishgan go‘shtni yaxshi ko‘rishini biladi.

“Shum” juda oz uxlaydi. O‘lgudek charchagan bo‘lsa ham bir mizg‘ib olsa, etarli, yugurib ketaveradi. Hozir jimib qoldi. Demak, mizg‘imoqchi. Bilaman, mizg‘iy olmaydi. U hozir o‘zi bilan o‘zi gaplashmoqda. Hayotining eng burilish nuqtasida turganini his qiladi. Bitta xato odim uni gum qilib yuborishi va butun niyatlari yakson bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham ko‘zini yumgani bilan uxlay olmaydi.

Shu payt qarshisida biron bo‘lganda uni urishardi, zahrini unga sochardi.

Bir paytlar dadam aytib bergandilar. Bir podsho kasal bo‘lib qolibdi. Manaman degan tabiblar kelib ko‘ribdi. Ochilmabdi. Hazinlik dilidan yuziga ko‘chibdi, kundan kunga sarg‘ayib ketaveribdi. Xonaga kirib olib, hung-hung yig‘larkan. Nashaga ruju qo‘yibdi. Endi yig‘lash o‘rniga qahqaha otib kuladigan bo‘libdi. Uyqusida halovat yo‘q, kunduzida ko‘z oldini qora bulut bosgan kabi yorug‘ joy izlarmish.

Shunda qo'shni yurtidan ovozasi chiqqan bir donishmand tabibni olib kelishibdi:

Tabib podshoni ko'rib bo'lgach:

-Saroydagilar sizni devonaga chiqarishbdi, sizni sharobxo'r, nashavand, aqldan ozgan, kuchini yo'qotgan, tildan qolgan deyishmoqda, menimcha ularga o'zingizni ko'rsatib qo'yishingiz kerak. Ularni yig'ib shunday gapiring-ki, etmish etti suyaklari zirqirasin va bundan keyin mish-mishlarga berilishmasin, sizning katta bilim sohibi, donishmand, yo'lboshchi ekaningizga tan berishsin! -debdi.

Podshoning jahli chiqib, g'azab "otiga minib" saroy ayonlarini to'plabdi va hammani rosa so'kibdi, ularga baqirib-chaqiribdi. Ayrimlarini o'limga buyuribdi, ba'zilarini do'pposlabdi. Kimlarnidir zindonga jo'natibdi.

Ertasiga tabib shohning huzuriga kirsam, uning avzoyi joyida.

-Olampanoh, kechagi ishni tez-tez takrorlab tursangiz, bir haftada tuzalasiz,- debdi.

Dadam aytgan hikoyatni tinglar ekanman, o'shanda hayron bo'lgandim. Axmoq tabib qancha odamning uvoliga qolibdi deb. Lekin dadam davomini aytganlaridan keyin ko'nglim joyiga tushgandi.

Tabib ilk ko'rishidayoq podshoning kasalini bilgan ekan. Ba'zi odamlar burgut, ayrimlar ilonsifat bo'lisharkan. Burgut kenglikni, erkinlikni sevadi. Ilon esa zahrini sochib turmasa, o'zini zaharlab o'ldirisharkan.

Tabib ketishida Podsho unga "Tila-tilagingni"-debdi:

-Bir qoshiq qonimdan kechsangiz, qilgan xatoimni aytaman. Kechirmasangiz qilichingizni shaylang, hayotim shn kungacha ekan.-debdi tabib.

-Qani aytschi, undan keyin qaror beramiz,- debdi podshoh.

-Sizni ilk ko'rganimda yolg'on gapirdim. Saroyingizdagilar sizga sodiq, mehribon, g'amxo'r ekanliklarini ko'rsatishdi. Ammo sizni davolashning birdan bir yo'li shu edi,-debdi tabib.

Podshoning jahli chiqibdi.

-Senga ishonib eng sodiq odamlarimni ham o'limga buyurdim... Evoh!

-Yana bir gunoh qildim. O'sha odamlarni siz buyurdingiz deb o'limdan, zindondan saqlab qoldim.

-Xudoga shukur! Yaxshi qilibsan! O'zim ham pushaymon edim. Sen dono odam ekansan,-deb uni maslahatchi qilib olibdi.

“Shum” ham shunday. Birovni so'kmasa yoki urmasa kasal bo'ladi. Bu yuqumli kasallik unga “Doda”dan o'tgan. Undan esa hokimlarga.

Birdan “Shum”ning “qora” telefoni jiringladi. “Ming yilda” bir jiringlaydigan bu telefon faqat chet mamlakat rahbarlari bilan gaplashganda ishlatiladi. Buning uchun oldindan yordamchilar tomonidan vaqti va muhokama qilinadigan mavzusi kelishiladi. Tayyorgarlik ko'rib, keyin gaplashiladi.

“Shum” qo'lini elkamga qo'ydi. Mashinanai chetga oldim.

-Haydayver, ammo sekinlash,-dedi. Keyin telefonni ochdi. Vladich ekan.

Odamlar oldida sizlaydigan Vladich bunday paytda o'ziga yaqin olib sensiraydi.

-Qaerdasan, tinchlikmi?-dedi u. Uning gapi menga ham eshitilib turdi.

-Rahmat, soyangizda tinchmiz.

-Ha, yaxshi. Seni topolmay qolishibdi. Xabar menga qadar etib kelganiga qaraganda sen muhofazani pishiq qilganga o'xshaysan!

-Hozir shunday qilmasak bo'lmaydi-da. O'zingiz maslahat bergan edingiz!

-Lekin biznikilar bilib tursin, yordam kerak bo'lsa yuborish uchun. Hech bo'lmasa Raisga aytib ket! U ham tilmovsirab qoldi.

“Shum” “xo‘p, xo‘p” dedi-da telefonni yopdi:

-Bu sening aybing,-dedi engil ovozd. Doim shunday ishlang martabang oshaveradi. Raisning o'rnini ham seniki bo'ladi.

Orqaga burilib qo'lim bilan ishora qildim. Avval telefonni ko'rsatdim va qo'limni osmonda aylantirdim. U darhol tushundi.

-Vladich juda yaxshi odam-da, uning yordamisiz hech narsa qila olmaymiz. Umri uzoq bo'lsin va bizga doim nur sochib tursin! Rais kekso odam, ammo juda yaxshi odam. O'rniga seni tayyorlayotganini ham bilaman. Shuning uchun yaxshi tayyorlan dedim-da, Shunqor! Mayli men mizg'ib olay!

Shundan keyin gaplashmay kettik. Uning hamma shaharda o'zining qoladigan maxsus joyi bor. Lekin u erga bormadik.

-Qabristonga boramiz,-dedi. Nima ko'p qabriston ko'p. Eshitgan odam hech narsani tushunmaydi.

Manzilga etib kelganimizda tong otgan, qabristonda yuzdan ziyod yigitlar ishlashayotgandi.

Mashinadan tushganimizdan keyin:

-Qanday eshitadi?-deb so‘radi. Indamay telefonni undan oldimda, o‘z telefonimdagi qoplamani unga o‘tkazdim. Telefonimni esa mashina ichiga tashladim.

-Eshita olmasdi, ammo telefoningizga satilet orqali maxsus xizmatlarini bog‘lab qo‘ydi,-dedim uning boyagi savoliga javob qilib.

-Bundan keyin chorasini ko‘rib qo‘y, hamma gapni bilishmasin,-dedi u.

Odamlar katta bozorning atrofidagi do‘konlarini ochgan, hech kimning biz bilan ishi yo‘q. Kimdir bozor tomonga, kimdir bozor tomondan degan gap bor-ku, shunday vaziyat. Qabriston ichida esa yigitlar qabrlar ustidagi xas-xashak, qurigan-qurimagan gullarni terib va panjaralarni ag‘darib, qabr toshlarini yig‘ib olishmoqda.

Birdan qarshimizda “lo‘p” etib hokim paydo bo‘ldi. U shunchalik tez harakat qiladiki, hatto bir soniyada ham egilib, ham qo‘l bilan ko‘rishib, ham gapirib ulguradi.

-Choy tayyor, nonushta qilib olsangiz bo‘lardi...

-Juda ham kichik joyni tozalayapsizlar. Kengroq olinglar, iloji bo‘lsa ana u tomonlarni ham tekislanglar. Latta-putta bozorini yig‘ishtir! Mana bu erda maqbara quramiz, unga chiqib keladigan maxsus yo‘lak uchun ham joy kerak. Maqbara atrofida odamlar, ziyoratga keladigan mehmonlar uchun va duo payti to‘planish maydoni bo‘ladi. Shuni ham hisobga ol !

-Bir soniya iz bering, topshiriqni etkazay,-deb hokim buzilayotgan qabrlar ustidan lapanglab o‘tib kimningdir yoniga bordi. Shu payt kutilmagan voqea bo‘ldi.

‘Shum” nimadandir cho‘chib o‘zini orqaga oldi. Qarasam, bir ayol shartta mashinamizning oldiga kelib, erga o‘tirib oldi. Oq ko‘ylakda. Ro‘moli ham oppoq surfdan. Xuddi qabrdan chiqqandek rangi bir holu bir ahvol. Yuzida ham nafrat, ham yalinish ifodasi bor. Ko‘zlari ichiga cho‘kkan. Yugurib borib, uni ko‘taraman desam, qichqirib yig‘lab yubordi.

-Tegma onaxonga, man o‘zim gaplashaman,-dedi “Shum”. Keyin etmish yoshlardagi onaxon yoniga borib enkaydi.

-Onaxon, meni taniysizmi?-deb so‘radi.

-Yo‘q, tanimayman, ammo ana u hokim yomon ekan, juda yomon ekan, meni onamdan so‘kdi, iloyo o‘zining onasini er tortcin! Nomard! Hayvon! Qabristonni ham buzasan-mi? Elning bozoriga va mozoriga tekkanni Xudo uradi! Iloyo sening ham mozoring kunbayakun bo‘lsin!

-Shunday dedimi, hali, bo‘ldi uni ishdan quvaman,-dedi “Shum”.

-E, yo‘q, quvoldim, u “Doda”sining bu erdagi soyasi. Ana qarang, butun qabristonni tekislatmoqda. Bu erda mening ota-onam yotibdi. Ularning go‘rlarini ham buzdi. Dod dastingdan jallod! Iloyo ota-onang ham go‘rba-go‘r bo‘lsin!

Onaxonning ko‘zlaridan duv-duv yosh oqdi. Lablari qurib qolmoqda, shekilli, qayta-qayta labini yalab, keyin faryod qilmoqda.

To‘g‘risi, juda yomon ahvolga tushdim. Onam tengi ayol. Balki bechora onam, shu yoshga ham etmadilar. Otamning vafotidan keyin ko‘p yashamadilar. Dadamga “Ketsak birga ketamiz” derdilar doim. Otamning vafotidan so‘n qadlarini ko‘tara olmadilar. Bir oyga bormasdan dadamning yoniga

qo'ydik. Tassavur qilayapman, agar kimdir ularning qabrini buzadigan bo'lsa, kekirdagini sug'urib olardim. To'xta, Shunqor! Mana hech narsa qila olmayapsan-ku? O'zingni ovutma, ota-onangni mozorini buz, desa, darhol ketmon olib ishga kirishasan! Qulga aylanib qolding, Shunqor!

“Shum”ning gapi xayolimni bo'ldi:

-Mana hozir hokimga aytaman, go'ringizni topib tuzatib qo'yadi,-dedi u va hokimga qarab:

-Tez kel,-dedi. Hokim sakkiz odimni bir qadam qilib, go'rlarning ustidan sakrab etib keldi.

-Bu nima? Seni onang yo'qmi? Nega buncha zorlatding bu ayolni? Nega mo'tabar onaxonni so'kding, ablah! Onang bormi o'zi? Nima sen haromimi? Ota-onangni qabrini birov buzsa, nima qilarding?

Hokim boshini egib turaverdi. O'rgangan. Onangni deb so'ksa ham qo'li ko'ksida turaveradi Oriyat, g'urur o'ldirilgan hammamizda!

-Buni oldinroq o'ylashing kerak edi. Qani atrofda muhofaza? Nega o'rab olmading? Nega hamma bu erga kelib tomosha qilayapti? Hammasini tinchit,-dedi va cho'ntagidan bir dasta pulni chiqarib onaxonga tutqazdi.

Hayron bo'lmang, buning hamma cho'ntagi to'la pul ekan, deb. Kennoyi ancha-buncha irim-jirimlarga ishonadi. Biror yomon hodisa yoki yaxshi xabar bo'lsa, erining cho'ntagiga uch-to'rt bog'lam “ko'ki”dan solib qo'yadi va:

-Buni boshingizdan aylantirib, gadoy-sadoygga bering,-deydi.

Onaxon 'Shumning qo'lini qaytardi.

-Meni sotib olmoqchimisizlar? Ota-onamning go‘rini sotaman-mi? Bu pulni nima qilaman, go‘rimga olib kiramani-mi?

-Onajon bilmaysizmi, hamma narsani pul hal qiladi. Pulingiz bo‘lsa go‘rni ham ko‘chirasiz, qabr ustiga kattaroq tosh ham qo‘yasiz. Xatmqu‘on qilasiz, mullaga berasiz, ota-onangizni ruhlari shod bo‘ladi. Qolaversa, buni chin yurakdan sizga yordam deb berayapman. Birovga ehson qilmoqchi edim.

-Rahmat, bolam, baraka toping! Har kun bo‘lmasa ham kun ora bir kelib ota-onamning qabrini ziyorat qilaman. Yoshim bir joyga etdi. Bolalarimga vasiyat qilganman, o‘lsam, onamning qabriga qo‘yinglar deb. Endi nima bo‘ladi?

-Unaqa o‘ylamang! Hali ko‘p yashaysiz. Bu tomon bo‘lmasa ana u tomonda joy bor!

-Yo‘q! U tomonga zinhor ba zinhor ko‘mmasinlar! U tomonda ana shu qabristonni buzdirgan katta jallodning ota-onasi yotibdi. Iloyo, uning ham mozoriga shu kun kelsin!

“Shum” hokimga qaradi:

-Onaxonni tinchit va kuzatib qo‘y! Qabr toshini topib, ko‘miladigan joylariga qo‘yib qo‘y,-dedi va mashinaga o‘tirdi.

-Hayda!

-Qaysi tomonga?

Hokim juda ham quv. Men mashinadan chiqqunimcha yugurib keldi va:

-Qo‘riqxonaga,-deb qaytib ketdi.

Borguncha “Shum” gapirmadi. Qo‘riqxonada qabristonga yaqin joyda. Ilgari ham bu joyga ko‘p kelingan. Bir tomondan suv oqib o‘tadi. Ikkinchi tomonda dunyoning eng go‘zal va noyob hayvonlari boqiladi. “Shum” ayniqsa, tovuшни yaxshi ko‘radi. Mashinadan tushib, tovuş boqiladigan joyga bordi. Tovus ham odamni taniydimi, boshqa payt uncha-bunchaga qanotlarini yoymaydi. Ammo “Shum”ni ko‘rish bilan undan achchiqlangandek, orqasini burdi. Keyin qanotlarini yozdi. Bu juda katta tovuş. Qanotlarini yoyganda rangli televizor ekranidek, diqqatingizni o‘ziga mixlaydi. “Shum” biroz tikilib turdida, o‘ng tarafga qarab hayrtalanib qoldi.

Qafasda katta sher yotibdi.

-Bunaqasi yo‘q edi-ku, qaerdan paydo bo‘ldi?- deb so‘radi.

Hali javob berib ulgurmasimdan, u telefonini chiqardi va:

-Ishonching komilmi?-dedi.

-Isroildan kelgan. Hech narsa o‘tmaydi. Qoplama mustahkam,-dedim--Sherni Vladichning o‘gay o‘g‘li yuborgan. Eski muftiga atalgan. Ammo u o‘lib qoldi. Keyin bu erga keltirildi.

-Bilmagan narsang yo‘g‘-a?

-Ishimiz shu, bilmasak boshimiz ketadi.

-Ketmaydi, xavotir olma, men bor ekanman senga hech kim tegolmaydi.

Indamadim. Nima deyman. Boshimni egib turdim.

-Sen ana u sherga o‘xshab boshingni egib turibsan. Qara, uning biz bilan ishi yo‘q. Parvoyiga ham kelmayapmiz. U mag‘rur va loqayd. Loqayd bo‘lmaganda qafasga

tusharmidi? Ming marta qafasga tushish holati paydo bo'lsa ham sher qutilib ketishi kerak!

U gapirmaganimga meni sherga o'xshatayati deb o'ylasam, o'zi haqida so'zlayotgan ekan.

-Sher bolalikda ko'p azoblarga uchraydi. Ammo engadi. Dushmanini ko'rsa, mulohaza qiladi. Uning kuchini sinaydi va payt poylab uradi. Vaqtini, soatini kutadi. Shuning uchun ham sher! Bor, tandirdan olib kel,-dedi.

Bu erda ko'p odam bo'lmaydi. Bitta odam ishlaydi, u ham ko'zga tashlanmaslikka harakat qiladi. Ichkarida esa eng go'zal qizlardan ikkitasi xizmat qiladi.

“Shum” har kelishiga tandir tayyorlanishini biladi. Lekin hali ochilmagan ekan.

Shu sabab xom go'sht olib keldim.

-Tandir ochilmabdimi yoki bu sherning kayfiyatini ko'taradimi?-dedi “Shum”.

-Tajriba qilib ko'raylik,-demoqchi edim, Sher gurillab o'rnidan turdi va qafasning biz tomoniga kelib, so'lagini yalay boshladi.

-Ko'rdingmi, Shunqor, uning qorni och, bu paytda seni ham, meni ham eb qo'yishi mumkin. Shuning uchun sherni hech qachon och qoldirmaslik kerak!

U shunday deb menga qaradi.

-Shunqor xato qildikmi, qabristonni tekislab?

Indamadim.

-Bilaman, onangni eslading, men ham esladim, lekin nima qila olardik? Ba'zan qo'limizdan hech narsa kelmaydi.

“Doda”ning xotini shu erga deb turib oldi, Vladichga ham aytibdi. Mavzoley qilasan, dedi. Nima, o‘ylaysanki, menda yurak yo‘qmi? Men ham ana shu sheriga o‘xshab hozir qafasdaman. Qo‘limdan hech narsa kelmaydi. Bajarishim kerak! Shuning uchun o‘zim keldim!

Qo‘limdagi besh kiloga yaqin go‘shetni sherning oldiga tashladim.

“Shum” orqaga qayrildida:

-Ayt, tandirni ochsin,-dedi va ichkariga qarab yurdi.

Demak, u ham ochiqibdi.

Qaytib kelsam “Shum” xayolga botgan.

-Shunqor, seni yaxshi bilaman. Og‘zing mahkam, ishing pishiq, o‘zing menga sodiqsan. Ko‘rding, hatto kuyovimni ham seni qo‘linga topshirdim. Sen men bilan ochiq gaplashib yurgin. Ba’zi gaplarni boshqalarga ayta olmayman. Eng yaqinlarimga ham ayta olmayman. Faqat senga aytishim va sen bilan maslahat qilishim mumkin,-dedi.

Indamadim.

-Indamaslikni bas qil! Menga do‘st kerak, sirdosh kerak, taklifingni bajarmasam ham munosabatingni bilishni istayman. To‘g‘risini ayt, bu hokim menga sodiqmi, yo‘qmi?

-Bilishimcha sodiq,-dedim.

-Qaerdan bilasan?

-Tandir go‘shiti dasturxonga qo‘yilguncha u kirib keladi,-deb yubordim.

-Folbinligim ham bor degin?

-Tahlil va kuzatuv...

Kutilmaganda ochilib ketdim. Ko‘p gapirgan, ko‘p xato qiladi, Shunqor! Tilingni tiy!

Shu payt eshikni taqillatib hokim keldi va ortidan tandir go‘ishtini olib kirishdi.

-Istasangiz qaymoq bilan issiq non ham keltirdim, -dedi u.

-Yo‘q, Atkins degan parhezdaman. Ozishim kerak ekan. Faqat go‘st eyishim kerak ekan. “Tandir” bo‘lsa bas, kun bo‘yi jonga tegmaydi.

-Qaymoq ham o‘sha parhexga kiradi.

-Sen ham bilasanmi buni?

-Oz-moz, ammo nonsiz qaymoq eb bo‘lmaydida...

-Tinchitdingmi?

-Uzr-da, u har kuni saharlab kelarkan. Bilmay qoldik. Hozir yana ikki-uchtasi topilib keldi, bolalar og‘izlarni bekitishayapti.

-Barka top! Senga ishonaman! Ishqilib, xorijsiz sizib ketmasin.! Telefon qil, melisani, prokuror va xavfsizlikni chaqir!

-Ular shu erda, tashqarida kutib turishibdi.

-Shunqor, qani ularni chaqir!

Men qolib hokim yugurib, chiqib ketdi. Unga qoyil qolmay iloj yo‘q!

Tashqarida birdan talato‘p boshlandi. Baqir-chaqir eshitildi. “Shum” menga qaradi. Tashqariga otildim.

12. Sirli marosim

Tashqariga chiqsam, qandaydir ikki mashina kelgan va bir kishi ichkariga kirmoqchi. Viloyat rahbarlari uni to‘xtatishga urinmoqdalar. Qarasam, Boy otaning odami. Uni chetga tortdim.

-Nima gap?

-Boy ota yubordilar.

-Bu erni qanday topib keldingiz?

-Shu erda bo‘laman degan bo‘lsalar kerak. Boy ota shu erga yubordilar.

Shunqor sen bo‘lsang, telefon qoplmasini o‘zgartirib yuribsan. Mana, topaman degan odam har qanaday joydan ham topadi. Nima, Boy ota bilganni Vladich bilmaydimi? Sen o‘zingni bilag‘on deb yuribsan-da! Ko‘rdingmi, kichkina odamsan!

-Narigi mashina kimga oid?

-Uni bilmayman, ammo meni kuzatib keldi. Balki idorangizdan bo‘lsa kerak?!

-Qani yurchi, tekshirib ko‘ramiz.

Mashina ichida ikki yigit va ne ko‘z bilan ko‘rayki, Puldona. U meni ko‘rishi bilan otilib chiqdi va ruschalab baqira ketdi:

-Sen ham otamga dushmansan, bilaman “Shum”ning qo‘l-oyog‘isan! Birgalashib otamni o‘ldirdinglar! Qotillar!

-Nima deyapsiz? Kim o'ldi,qachon? Otangiz tirik! Ozigina mazzalari qochdi, xolos. Davolanayaptilar!

-Bekor aytibsa, sanlar o'ldirdinglar uni! Ana u nomardga ayt, bu yoqa chisin!

Men ham jahlimni ko'rsatish uchun uni sensiradim.

-Bilib bilmasdan birovni haqorat qilma! Kimni aytayapsan? O'zingcha fol ochma!

Mashina ichidan tushgan yigitlarni tanidim, "Doda"ning qo'rimasidan.

Bo'ldi. Bu Hakimiyning ishi. Puldonani qamoqdan chiqarib, "Boy"otaning iziga tashlagan.

-Olib ketinglar buni! -dedim ularga.

Puldona tovushini yanada balandlatdi. Shu lahzada sochi to'zib ketgan, ko'zlari kirtaygan, jax suyagi bo'rtib qolgan alvastiga o'xshab ketdi.

-Gapirma, ular mening soqchilarim! Otamga bir gap bo'lsa, mana men bor! Hokimiyatni o'zim boshqaraman! Hammangni erto'laga tiqaman va dorga osaman! Hamma men tomonda. Sanlarga xana!

-Ichib olganmisan? Nima deb valdirayapsan? O'chir tovushingni!

Shu paytda ichkaridan "Shum" chiqib keldi. Puldona unga tashlangandi, bir hamlada qo'lini qayirib qoldim. Qo'rimalari yaqinlashgandi, "Shum"ning vajohatidan qo'rqib ketishdi.

-Bu yoqqa kel, tvar, o'sha Hakimiyning pagonini o'z qo'lim bilan yulib olaman, bildingmi? Tomosha qilib turasanlar!

Keyin menga yuzlandi:

-Shunqor, Hakimiyini top!

Telefon qilsam, darrov oldi. Telefonni ““Shum””ga uzatdim.

-Itvachcha, senga nima degan edim? Generallik pagoningni yulib olib, ...ga tiqib qo'yaman! Bu itlaringni nimaga yubording? Ma, gaplash!

Telefonni yigitlardan biriga olib berdim. Uning rangi o'chib ketdi va “Ketdik!” bir zumda mashinaga minishdi. Puldona esa baqirishda davom etdi:

-Otamni nimaga o'ldirdinglar? U meni avf etgandi va bayramga chaqirgandi. Men unga aytgandim, bular seni o'ldiradi deb, quloq solmadi. Bayramdan keyin senlar bilan yuzma-yuz uchrashtirmoqchi edi.

“Shum” mashina ichidagi yigitlar yoniga keldi:

-Mana bu manjalaqini olib borib, chiqqan joyiga tiqib qo'ylaring va bu haqda Hakimiy Shunqorga hisob bersin!- dedi.

“Osh zahar bo'ldi” degani mana shu. “Shum” o'zimizning mashinamiz tomonga yurdi. U boshi bilan Boy otaning vakiliga ishora qildi. Demak, yaxshigina taniydi uni.

Hokim yugurgancha bir narsani mashina orqasiga qo'ymqochi bo'ldi.

-Nima bu?-deb so'radim.

-Tandir!- dedi.

“Shum”ga qarasam, “Ol” degandek, imo qildi.

Boy otaning vakili mashinaning oldingi o‘rindig‘iga o‘tirdi, hech kim bilan xayrlashmasdan ham jo‘nab ketdik.

-Qo‘nalg‘adamilar?-dedi “Shum” birozdan keyin.

-Ha, sizni kutayaptilar.

-Orqa eshikdan kiramiz,-dedi “Shum” va menga bir hijjatni uzatdi.

Bu qo‘nalg‘a boshlig‘i Alibekka oid hujjat edi.

Etib borgach, shuni ko‘rsatdim. G‘ing demay ochishdi. Alibek qudratli ekan, hatto tekshirishga yoki mashina ichiga razm solishga cho‘chishdi. Aylanib, Boy otaning uchqichi yoniga bordik. U tayyorgarlikni qilib, bizni kutib o‘tirgan ekan. Havoga ko‘tarildik. Birdan ko‘zim Zuhraga tushib qoldi? U bu erda nima qiladi? Kim uni bu erga chaqirdi? Nahotki... Kallamda nahotkilar aylana boshlandi. U menga ko‘zi bilan “qalaysiz” deb qo‘ydi, javob berolmadim. Avzoyim buzildi. Xizmatchining kiyimini kiyib olgandi. Nahotki Rais uni josus sifatida bu erga qo‘ydi? Shunqor nima qildingki, rais senga ishonmay qoldi? Nega uni ham yubordi? O‘zim bilan o‘zim olishib turgandim, “Shum” chaqirdi va oldingi tomonda xizmat qilib turgan boshqa qizga ishora qildi. U ikki dasta gul va qutilarda bir narsalar olib keldi.

-Shunqorbek, ukam, seni uylantirish mening zimmamga tushdi,-dedi “Shum”.

-Otang rahmatli bo‘lganda hozir u ham davramizda bo‘lardi,-deb qo‘shib qo‘ydi Boy ota.-Lekin baxtli ekansan, ko‘kda, mana shunday uchqichda senga non sindiramiz. Bu ishni bir mamlakatning kattasi bajarmoqda. Bundan ortiq baxt bormi?

Tilim dilimning ichiga kirib ketdi. O‘zimni qo‘lga ololmay qoldim. Negadir ko‘zimda yosh qalqadi. Tomog‘im g‘ilt-g‘ilt etib, yuragim urishi tezlashib ketdi. Otamni esladim. Zuhra u haqda ham ma‘lumot bor degandi. Boy ota uni qaerdan biladi. Zuhrani ishga solishim kerak.

“Shum” o‘rnidan turdi va;

-Kelin, bu yoqqa kel,-dedi Zuhraga qarab, seni otang uyida xurрак otib yotibdi, ammo roziligini oldik, mana tog‘ang shu erda, baxtli bo‘l qizim,-deb unga va menga gul berdi. Keyin og‘ir-og‘ir qutilarni tutqazishdi.

-Men nikoh uylarining bosh qo‘mondoniman, shu daqiqadan boshlab ikkingizni bir oila,-deb e‘lon qilaman,-dedi “Shum” qo‘ltiq cho‘ntagidan bir daftarchani chiqarib qo‘limizga tutqazdi. Tavba, nikoh hujjati-ku bu?

-Tabriklayman,-deb elkamga urib qo‘ydi.

Zuhrani cho‘lpillatib o‘pdi.

-Baxtli bo‘l jiyan,-dedi unga. So‘ng menga yuzlandi va:

-Sen bilan bitta jonmiz, man o‘lsam san o‘lasan, san o‘lsang man,-dedi.

O‘zimga kelolmay qoldim, Zuhra qayda ediyu men qayda edim? Raisning gapidan so‘ng kechalari Zuhra haqida xayol surardim, xolos. U qo‘lini ushlatmasdi, nigohi bilan hukm qilardi. Hurkog‘ kiyik edi. Birdaniga bu kiyik bosh egib yonimga kelsa, bundan ortiq baxt bormi? Zuhraga ko‘z qirim bilan qarayman lov-lov yonmoqda. U shu lahzada hammadan ham qutilarni ochib ko‘rmoqchidek edi.

-Borlaring chap qo‘ldagi xona sizlarniki,-dedi Boy ota.

Tavba! Xonani kelin kuyovlar uchun maxsus tuzatishibdi. Yo‘qning o‘zi yo‘q. Zuhraning qo‘lidan tutmoqchi bo‘ldim, qushdek “lip” etdi-yu o‘zini tortdi.

-Nima, shuncha oson deb o‘ylaysizmi?-dedi lablari titrab.

-O‘yladim, o‘ylamadim, endi menikisiz? Mening jonim, mening osmonim!-deb yuborganimni o‘zim ham bilmay qoldim.-Mana hujjat!

-Yo‘q, siz “Shum”ning jonisiz,-dedi u.

Bu gap asabimga boltadek tegdi va sevgi degan hayajonni chiqqan tuynugiga yashirdi.

-Biz u yoqdagi gapdan bexabar qoldik,-dedim men uni tushungan kabi.

-”Shum”i dardingiz.

-Yo‘q, mana istasangiz suhbatni eshiting, u shunday deb tugmani bosdi.

“Shum” va Boy ota ruscha gaplashayotgan ekan.

-Hakimiyini o‘rtadan ko‘tarish kerak. Oyog‘imizga bolta urmoqchi.

-Ha, ko‘p narsani bizdan yashirardi. “Doda” hali tirikligidayoq Pulnorani chiqarishga ulgurgan ekan.

-Pagonini yulib tashlayman u iflosni, ko‘ramiz qani keyin nimani yashiradi?

-Azimni nima qilamiz, tezroq yo‘qotmasak boshimizni og‘ritadi?

-Shoshmang, avval uni xalqning oldida obro‘sizlantirish kerak. Tarafdorlari ko‘p. Yoshlar ichida ham, xorijda ham.

Astalik bilan, ustalik bilan itni ham o'rgatish mumkin. Bu nima bo'libdi? Hozir marosimlarni eson-omon o'tkazib olish haqida o'ylash lozim. Men ham istamasdim buncha dahmazani. Ablah edi. Lekin nima qila olamiz. Vladich shunday qilasanlar deganlaridan keyin majburmiz. Azimni esa daraxt kabi kallaklaymiz. Ko'mish marosimida, Siz ham tobutni ko'tarasiz, deb aytib qo'yamiz. Ammo siz belgilangan vaqtdan oldinroq ko'tarasiz va unga qaraysiz. U qaqqayib kutib turgan bo'ladi va buni tasvirga olamiz. Siz unga qarab jahl qilasiz, "Ko'tar nomard" degandek. Buni butun xalq ko'radi, qayta-qayta namoyish etiladi, IAKning hamma odamlari siz tomonga ko'chadi. Keyinchalik uni kallamush deb e'lon qilasiz va kichikroq bir vazifa berasiz, yuraveradi, o'ralashib, bitlagan po'stagini qoqib. O'ldirsangiz yoki ishdan olsangiz, xalq ichida obro'yingizga putur etishi mumkin. U mazlumga aylanadi.

Bu Boy ota degani juda aqlli odam ekan Qovunni tilkalab kesibgina qolmay edirishni ham bilarkan. Keyin mazza qilasizmi, qorin qappayadimi, farqi yo'q.

Gapning indallosini aytganda Zuhra qo'lini ham ushlatmadi. Uning menga xotinligi masalasi ham o'yinga o'xshab qoldi. O'zidan so'rasam, xafa bo'ldi. Qo'lini ushlayman desam, olib qochadi. Kuch ishlata olmayman-ku? Uchqichning ichida quvib yuramanmi? Man shu tovuqning katagidek xonadan chiqa olmasak, Boy otaning bu kulbasini vayron qilamizmi? Charchagan ekan, bir payt joyga kirdi, uchqich uni allalay boshladi.

-Ozgina ichib olasizmi?-dedim, unga stol ustidagi sharobni ko'rsatib.

-Jinni bo'ldingizmi, o'z ayolingizga ham ichirasiz-mi?-dedi u suzilibgina.

O‘ziimni uning quchog‘iga otdim. Uxlamadik.

Uyalib, qizarib-bo‘zarib uchqichdan indik. Bizlarni “Shum”ning qizlari qutib olishdi. Ular xuddi koreys askarlariga o‘xshab kiyingan ekan. Chegarachilar kelib, tekshirgan bo‘lib, mashinalarga kuzatishdi.

Mashinada “Shum”ning qizi o‘tirmoqchi edi, otasi qarshilik qildi.

-Shunqor haydaydi, sizlar opang bilan oldingi mashinada borasizlar,-dedi.

“Shum” bu erda go‘zal, hashamatli koshona qurdirgan. Kennoyi doim shu erda yashardi. Adashmasam 14-15 yil bo‘lgan bu erda. Nevaralari shu erda tug‘ilgan. Kennoyining o‘zlari ham shu erda bitta tug‘ib olganlar. Agar kelajakda yurtimiz podsholikka aylansa, shu bola taxtga chiqadi. Unga hamma narsani o‘rgatishmoqda. Ingliz tilini ham, koreys tilini ham birdek biladi. Texnologiya bo‘yicha pochchalari unga yalinib yurishdi. Uzoq Sharq kurashlari to‘garagiga ham qatnaydi.

“Shum”ning oilasi uchun sotib olingan qasr sharqona usulda qurilmagan bo‘lsa ham ta‘miri va bezatilishi sharqona edi. Bino to‘rt qavatli bo‘lib, ichida ellikka yaqin xonasi bor. Har bir xonanaing ichi bitta oilaga moslangan. Hammomidan tortib, jakuzi hovuzchalariga qadar hamma narsasi mavjud. Tashqi ko‘rinishi qadimiy shohning qasriga o‘xshaydi. Qimmatbaho toshlardan naqsh tizilgan. Ilk kelganimda bu tomoni emas, xavfsizlik hisob-kitobi rom qilgandi. Bino o‘rtada. Atrofi keng dala. Bir tomonda katta ochiq hovuz. Yonida esa uchta kichkina hovuz. Issiq suv bug‘lanib turadi. Katta hovuzda cho‘milgan odam keyin issiq suvga kirib-chiqishi nazarda tutilgan. Hovuzning atrofida bolalar suzib

yurishlari uchun aylana soy qurilgan. Bu soyda kattalar ham balon qayiqqa minib rohat qilishlari mumkin.

Hovuzning yana bir tomonida voleybol va futbol o'ynaydigan joy. Sport zali ichkarida. Hovlida devor osti bo'ylab yuguradigan joy ham qilingan. Bu joyning osmonida dronlar va uchqich uchmasligi uchun katta pul to'lanadi. Devor burchaklarida subtropik daraxtlar bor. Suniymi, tabiiymi ajrata olmaysiz. Chunki bitta tabiiyning yonida bitta suniysi ham bor. Kameralar ana shu suniy daraxtga o'rnatilgan. Daraxtning barglarida ko'z bor degani ana shu.

Darvoza ochilib-yopilishi bilan orqadan mashina yaqinlasha olmaydigan po'lat to'siq ko'tariladi. Devor esa menga o'xshagan odamning uchtasining bo'yidan ham baland. Tepasida qamoqxona simto'ri kabi tikonli muhofaza o'rnatilgan. Sim maxsus o'rgimchak to'ridan yasalgan. Uzilmaydi. Unda doim o'rtacha tok mavjud. O'taman degan odamni behush qilib qo'yadi. Yaqiniga kelib qarasangiz ham ko'rinmaydi. Bu esa qasr qal'asining husniga dog'tushirmaydi. Koreyslarga qoyil qolish kerak. Agar devorga yaqin joyda begona odam ko'rinsa ichkaridagilarning telefonida o'sha odamning surati paydo bo'ladi. Uning harakatini kuzatib turishingiz mumkin. Darvoza qarshisida qo'rima tashkilotining uyi ham bor. U erda doim navbatchi o'tiradi. Xullas, bu er dunyoning eng tinch va havobaxsh joyi.

Ichkariga kirib joylashganimizdan keyin bildikki, Boy otaning odami Oliy darajali spa xizmatini buyurgan ekan. Bir zumda "Shum"ning sochini bo'yab, qoshini terib, yuzini botoks qilib qo'yishdi. Qornidagi vaznni ham olib tashlashmoqchi edi. Rozi bo'lmadi. Bir haftadan keyinga qoldirdi.

-Bu ish xuddi yuzingizni botoks qilgan kabi oson kechadi,-
deganiga ham ko'nmadi.

Unga turli o't-o'lanlardan hozirlangan uyqu dori berishdi. Dong qotib uxladi. Hayron edim. Nahotki bu erga uxlash va spa olish uchun kelindi. Buni o'sha yoqda ham qilish mumkin edi-ku? Yo'q, bu erda boshqa gap bo'lishi kerak? Nahotki sen bexabar qolding, Shunqor?

O'ylarim aldamadi. "Shum" uyqudan uyg'onib, sutli hovuzda chayqanib, xushbo'y o'tlarning choyidan ichib olgandan so'ng, kutilmaganda sarosima boshlandi. Qanaqadir mehmonlar kelishi kerak ekan. Darvoza ochilib, ikkita mashina kirdi. Ular Boy ota bilan Uzoq Sharq uslubida enkayib salomlashdilar. Keyin "Shum"ga qarab egildilar. "Shum" ham ikki qo'lini yoniga qo'yib, ularga egildi.

Ichkariga kirdik. Kelgan odamlarning yordamchilari o'rta kashtasimon gilamni yoyishdi va yostiqqa o'xshagan mitti ko'rpachani qo'yishdi. Ko'rpacha qarshisida esa ot haykalacha. Hov o'sha, siriga etolmaganim, kazo-kazolarning xonasida turadigan ot haykalchaning yana bittasi.

"Shum" ko'rpacha ustiga chordona qurib o'tirdi. Kelganlardan biri yonidagisiga imo qildi. U mashinada qinga solingan qilich olib keldi. Men hushyor tortdim va Boy otaga qaradim. U xotirjam bo'l ishorasini qildi.

Xitoy basharali odam qilichni qinidan chiqardi. Oltin rangli, dastasi esa olmosdan yasalgan. Qilichning uchini "Shum"ning boshiga yaqinlashtirib havoda bir aylantirdida, dastasini "Shum"ning qo'liga tutqazdi. "Shum" bu marosimning qoidasini oldindan bilgan ekan. Qachon va kimdan o'rgandi. Bo'ldi. Biz uchiqda Zuhra bilan ichkari

kirganimizda ular shuni gaplashishgan. Boy ota unga tushuntirgan.

“Shum” qilichni qo‘liga oldida, o‘rnidan turdi va o‘pdi. Keyin qiniga solib, qinning bog‘ichidan bo‘yniga osib oldi va:

-Xizmatga shayman, so‘ngi qonim qolgunga qadar qilich qo‘limda, ot yonimda turadi. O‘zim o‘zim uchun emas, o‘zim biz uchun! Bir yo‘l, bir kamar!,-deb ortidan uchmarta “Shanxay” deb takrorladi.

Shundagina nimalarnidir tushungandek bo‘ldim. Bu Shanxay qasamyodi bo‘lsa kerak. Shanxay oltiligi tuzilganda shunday qasamyod qabul qilish kerakligi haqida gaplar bo‘lganini eshitgandim. Ammo marosimidan bexabar edim.

Shu payt devordagi monitor yondi. Unda dastlab Vladich ko‘rindi, “Shum”ni tabrikladi va qaytishimda kirib o‘taman, gaplashamiz, dedi. Vladichning yonida Xitoy rahbari ham o‘tirgandi. U ham qisqa qilib, bir nimalar dedi. Tabrikladilar, deb Boy ota tarjima qilgan bo‘ldi. U mandarin tilini bilar ekanda deb o‘yladim.

Xonadan chiqarkanmiz, “Shum” qulog‘imga:

-Mum!,-dedi

Bu o‘lsang o‘lasan, ammo zahar yutgan kabi jimgina o‘lasan, degani!

Ikki ajdarho nimalarni ishga solmoqda? Shanxay tashkiloti qutblashmaning bir ko‘rinishi deb o‘ylar edim. Endi tushuna boshladim. Bu dunyoni bo‘lib olish va o‘ziniki qilishning harakati ekan. Bu ketishda dunyo yana ikkiga bo‘linib qolsa kerak?

Biz nega bularning pinjiga tiqlib qoldik. Bu qachon yuz berdi. Oq poshsho istilo qilgan paytdami? Qizillar inqilobidan keyinmi? Qachon bo'lsa ham, anchadan beri ularning pinjidamiz. Bugunning tili bilan aytganda strategik sheriklarimiz. Sherikni qasam ichdirish nimasi unda? Bu qanaqa sherikchilik? "Doda" qoziqni qattiq qoqib ketgan ekan. Uni sindirish yoki arqonni uzish oson bo'lmasa kerak?

Bir paytlar o'qigandim, kim yozgani esimda yo'q. O'zimizning ziyolilardan biri

-“Shanxay” bizga hech narsa olib kelmaydi, balki faqat “Doda”ga o'zini qoniqtirish uchun tashqi qalqondir,- deb yozgandi. Mana endi “Shum”ing ham qalqon--himoyasi, qilichi-kuchi va oti-yo'li! Bu bekorga-mi? Bir paytlar Oqqoshsho Buxoro amiri Olimxonga general unvonini berar ekan:

-Unutma, sen mening sevimli askarimsan, askarning xiyonati esa kechirilmaydi,- degan. Buni ochiq aytgan. Bular shuni yopiq tarzda aytishmoqda-mi?

Zuhraga qarasam, hech narsadan xabari yo'q, mehmonlar kelib ketdi deb o'yladi, shekilli, savol ishorasi bilan menga qaradi. Elkamni qisib qo'ydim. Kim bilsin, qasamyodning qoidasida bo'ydoqlar qatnashmasin, deb yozilganmiki, bizni rosmanasiga uylantirib qo'yishdi. Hatto qo'limizga hujjat ham tutqazishdi. Demak, bu ham bejiz emas.

Qisqa marosimdan keyin darhol yo'lga chiqdik. Uchqich “Doda”ning shahriga qo'ndi. “

“Shum” yonimga kelib:

-Shunqor, ana uning jahlini chiqarmayin deb “Shum” degan kod nomga rozi bo'lgandim. O'zgartir!

--Nima deb qo'yamiz?

13. Nurxon

Xato qildim. Hech qachon unga savol berishim kerak emas. Olgan ilmim shunday. Ammo u meni o'ziga maslahatchi, eng yaqin odamdek tutgani uchun savol berdim. Nima bo'lsa, bo'ldi? Bu ham bir sinov. Qani qanday munosabat qilar ekan?

-Farqi yo'q! O'sha nomdan qutulsam bo'ladi. Jonga ham tegib ketdi,-dedi.

-“Muhtaram”ga nima deysiz?

-Senlarga maqul bo'lsa, bas.

-Bu tez ommalashib ketadi. Hamma oldingisini unutadi, mana ko'rasiz.

Shunqor, senga nima bo'lmoqda? O'zingni juda qo'yib yuborayapsan! Qisqa, lo'nda gapir! Qo'shimcha, izohga berilma. Qat'iyolingni yo'qotma!

-Yaxshi...

Gapimizni yonimizda kelayotgan Nurxon eshitayotgan ekan, meni qo'lladi.

-Haqiqatdan ham, tez yoyiladi. Bu nom xalqning sevgisiga yo'l ochadi. Tez yoyilishi uchun matbuotni ishga solishimiz kerak.

“Muhtaram” qiziga topshiriq berdi:

-Past-balandni tushunasan, matbuot va internetni nazoratga ol. Har narsalar chiqib ketmasin! Jilovni yaxshi ushlash kerak. Lozim paytida bo'shatib, zarur holatda tortib turish

darkor. Aks holda ot biz istgan tomonga emas, boshqa yoqqa olib ketadi.

Nurxonning quvonchi cheksiz edi. Xunukkina ko‘zlariga nur ingan va yoqimli bo‘lib qolgan. Otasi unga eng muhim sohani ishondi.

Nurxon Moskovda o‘qirdi. U haqda gap so‘zlar ko‘payib qoldi, shekilli, bir kun Rais:

-Shu qizni kuzatasan,-dedi.- Oyisi istayapti. Farzand ham ba‘zan boshingga balo bo‘ladi. Vaqtincha komandirovkaga borasan, unga tahdid bo‘lgan deb, seni qo‘rimaga qo‘yaman. Oyisiga og‘zingdan oldirma. Nima so‘rasa, mendan olishini ayt.

Raisning bu degani, hamma gapni o‘zimgagina hisob berasan, degani.

-Hatto otasi avrasa ham ezilib ketma, so‘kadigan odati bor, indamay turasan. Ammo og‘zingni tikib olasan. Qiz senga ko‘z olaytirishi mumkin. Ko‘zingni suzma. Kelishgan yigit, nima qilsang qil, yoqtirib, sevib qolishiga yo‘l berma. Yo‘l nima, hatto so‘qmoq ham ochma!, Uni boshqa yo‘ldan qaytarib olsang, ishing besh. Nimaga qiziqishini, qanday gaplarga mahliyo bo‘lishini, qaysi masalada bahs qilishini o‘rgan. Uni anqaytirib qo‘yadigan bitta hezalakni topamiz, boshini aylantirib yuradi, o‘shanda qaytib kelasan, bu erda keraksan. Qiz ersiragan ko‘rinadi. Ko‘rgan ho‘kizga qarab yugurayapti ekan. Onaning ko‘ngli hamma narsani sezadi. Bechora nima qilsin?

Borganda bildimki, Nurxon yaxshi qiz ekan. Ko‘p kitob o‘qiydi, aqilli, mushohadali. Ammo ochiq ko‘nglli va dilidagini yashirib o‘tirmaydigan sharttaki. Meni avvaliga nazariga ilmadi. O‘ziga qorovul deb o‘yladi. Men

qorovullikdan ham o'tkazib yubordim. Uyini sidirib, qozon-tovog'ini ham yuvib qo'yadigan bo'ldim. Sekin-sekin kiyim tanlashda, xarid qilishda ham unga yordamchi bo'ldim. U Rais aytganchalik, ho'kizni ko'rishi bilan buzog'ini uzadigan emas ekan. Odmigina qiz, biroz manmanligi bor. Hamma sohada ilk bo'laman, deydi. Boshqalar haqida ham qayg'uradi. "Doda"ning qizlaridan gap ochilsa, yomonlaydi. Ular bizni bosh ko'tara olmaydigan qilib qo'ydi, deydi. Ammo ular bilan yuzma-yuz gapirishga cho'chiydi. Bolalikdan kallasiga "zapret" qo'yilgan.

Qisqa vaqtda do'st bo'lib qoldik, u menga shu qadar ishonddiki, qo'shni xonada emas, o'z xonasidagi divanda uxlab qolishimga ham qarshilik qilmaydigan bo'ldi. Ba'zi kunlari suhbatimiz avj olardi. Ozigina-ozgina ichardik. U uxlab qolardi, mening ham yarim tunda xonamga ketgim kelmasdi, divanda yotib qolardim. Ertalabga yaqin u ustimga o'zining paltosini yopib qo'yishidan sezardimki, xonasida qolishimga ro'yxushlik bermoqda.

Men nafsimni tiyishga harakat qilardim U ba'zan gapiragapira birdan bilmasdan qo'llarimni ushlaganda ham, xuddi qiz boladek barmoqlarimni uning kaftidan sug'urib olardim. Uning mana shunday samimiyati yomon fikrlar tug'ilishiga olib kelgan deb o'ylasam, bir kuni u "yorildi"

-Dadam bittasiga bermoqchi, otasi sizlardan. Dadamning yaqin do'sti. Og'iz ochgan ekan, yo'q demabdi. Bola bilan uchrashdim, so'tak. Bo'yi mendan pastligi go'rga, ammo kallasida intrigadan va sportdan boshqa narsa yo'q. Falon kitobni o'qidingmi desam, ko'rgan kinosini aytadi. Jahon adabiyotidan so'rayman, u yashirin ko'rsatiladigan besselarlarni gapiradi. Klassiklardan so'rayman, mum tishlaydi. Hech bo'lmasa mardlik qilib, vaqtim bo'lmadi, o'qiy olmadim, siz qiziq deyapsiz, o'qishim kerak ekan, desa

ham mayli edi. Erkak kishiga kitob emas, pul topish muhimligi haqida shama qiladi. Dadamning imkoniyatlaridan gapiradi, u kishining yonida yursak, kitob o'qishga vaqt bo'lmaydi, deydi. Oyimga istamayman, degandim, ko'z yoshi qildilar. Kim bilsin, balki sizni tiqishtirayotgan bo'lishlari mumkin. Qaysi kitobdan so'z ochsam, hammasini o'qigansiz, qaysi sohadan gapirsam, bilmagan narsangiz yo'q.

-Meni tiqishtirayotgan bo'lishsa, xo'p derdingizmi?

-O'ylab ko'rardim.

-Men ham, meni kimgadir tiqishtirishlariga xo'p deb ketavermagan bo'larmidim, shunday deb o'ylaysizmi?

-Shuni o'ylayapmanda, sizga o'xshagan bir so'zli yigitni sindirish qiyin. Qolaversa, kattaning qiziga uylanishga orqilasiz, chunki erishgan hamma narsangizga o'zingiz erishgan bo'lsangiz ham, qaynatasi tufayli deyishlariga dosh berolmaysiz.

-Juda topqir va aqillisiz!

-Sizni meni ko'ndirishga, o'sha so'takka ko'ndirish uchun yuborishgani aniq. Askar sifatida bunga rozi bo'lasizda...

Uning nazarida ham biz qulmiz. Qanday topshiriq bo'lsa, bajarib ketaveramiz. Nima ham deya olman. Yo'q, bunday deya olamanmi? Aslo, bunga na kuchim, na jur'atim bor. Shuning uchun indamadim.

-Lekin meni o'rganishga qancha vaqt kerak?-U bu savolni berar ekan, yuziga qaerdandir chiroq nuri tushgandek bo'ldi. Ko'zida allanima g'ilt etgandek tuyuldi. U xuddi titrayotgandek edi.

-Sizni o'rgandim deb ayta olman,- dedim beparvo ohangda.

-Unda nega o'sha so'tak haqida bir og'iz ham gapirmayapsiz? Undan qo'rqasizmi? Balki u haqda so'z ochma deyishganmi?-Uning bu savollarining ohangida qandaydir e'tiroz borga o'xshadi.

-Chunki siz aytayotgan odamni tanimayman. Surati bormi sizda?-dedim. Ammo uni taniyman. Otasini ham yaxshi bilaman. "Muhtaram" bilan tez-tez uchrashib turardi. Har turli gaplardan uni voqif etardi.

Nurxon sumkasidan bitta suratni oldimga tashladi.

-Mana!

-Bu sizning munosibingiz emas, sizga xotin emas, er kerak! U sizga yarasha er bo'lishni bajara olmaydi. Iltimos, bu gapimiz oramizda qolsin. Chegaradan chiqdim, Xato qildim, azbaroyi bu bolani yoqtirmaganim uchun gapirib yubordim.

Qo'lga tushdim:

-Balki meni yoqtirib qolayotgan bo'lsangiz va bu unga nisbatan nafaratingizni kuchaytirgan bo'lsa-chi?

Aytdimku, bu nozikkina qiz emas, bu har qanday erkakni boshi ber ko'chaga kiritib qo'yadigan turidan. Moskvada yashashning, erkinlikning, puldan kam bo'lmaslikning ta'siri ham bo'lishi mumkin.

O'zim tushib qolgan vaziyatdan qanday qilib chiqib ketishni o'yladim. Bitta yo'li bor xolos, orqaga qaytish kerak.

-Ha, desam-chi?! O'ylab ko'rishingizni tezlatasiz-mi?

U mening qo'limdan ushlab, o'ziga tortdi.

Qulog'im ostida shirin so'zlar eshitildi. Endi nima bo'lsa ham undan ajralishim, ammo juda yumshoqlik, ustalik bilan ajralishim kerak.

O'l-a, Shunqor! O'zingni nazorat qilishni uddalay olmading. Bu qizning yuragiga boychechak ekding. Koshki boychechak bo'lsa. Tezda so'lib qolardi. Ammo bu tikan kabi o'rnashib olsa-chi? Butun hayotingni mahv etadi-ku?! Ammo buni u ko'tara oladimi? Uning ko'zidan oqadigan tomchilarni ko'tara olasanmi?

Bir kun unga:

-Nega sizga Nurxon deb ism qo'yishgan,-dedim.

-Yoqmayaptimi?-deb pichirladi.

Indamadim. Unga sovuq muomala qilishni boshlashim kerak.

-Tarixi uzun, bir kun aytib beraman,-deb o'rnidan turgach, choy ham ichmay o'qishga yugurib ketdi. Shunda angladimki, unga yoqmaslikning yo'liga kiribman. Xonani tozalashni to'xtatdim. Uyda qozon-tovoq qalashib yotadigan bo'ldi. Qarasam, u o'qishdan qaytib, uyni tozalaydi, kirlarni yuvadi, qozon-tovoqni tozalab joyiga qo'yadi, ko'chadan olib kelgan egulikni stol ustiga qo'yib, meni ham choyga taklif etadi. Suhbatlarimiz kundan kunga qisqara boshladi. Uning o'qishga vaqti etmayotgan edi.

Bir kun telefonda onasi bilan urishib qoldi. Keyin otasi sim qoqdi. U bilan aytishdi. Ular to'y kuni belgilanganini aytishdi. U hungrab yig'lagancha xonasiga kirib, yotib oldi. Uni ovutmoqchi bo'lgandim, Rais telefon qildi:

-Qayt, ish chiqib qoldi.

-Tinchlikmi, qaerdadir urush boshlanibdimi?-deb, Nurxon xonasidan chiqib keldi.

-Shundan bo'lsa kerak, tezda etib borishim haqida buyruq keldi.

-Menchi...

-Boshqa odam yuborishsa kerak,

-Dadam bilan gaplashaman, hammasini ochiq aytaman!

-Gaplashing, iltimos, faqat o'rtadan yo'q bo'lib ketmasligimni ham nazarda tuting. Kichkina odamman, qanday bu ishga kelganimni aytib berdim, Dadangizni bir og'iz so'zi bilan ana u hezalaning otasi meni bir umrga zindonga tiqadi yoki o'ldiradi.

-Qo'rqayapsizmi?

-Qo'rqish emas, reallik shu! Sizni hech qachon menga bermaydilar. Otangizni fe'lini bilaman. Undan ko'ra, bir-birimizni uzoqdan bo'lsada ko'rib yurishimizga imkon bering! Bir umr yaqin do'st bo'lib qolaylik!

-Menchi, men real emasmi, ko'chada qolganmanmi, nega yo'q desam ham, o'shanga tiqishtirishmoqda?

U yum-yum yig'lay boshladi. Bag'rimga bosdim.

-Bu tomonini menga qo'yib bering, borib hal qilib qaytaman,. Boshqasini yuborishganda, bir xatosini topsangiz, keyin o'zimni qaytarib jo'natishadi. Yoningizda, soyangiz bo'lib yursam, bas! Uzoqdan ko'rib tursam ham etarli menga!

Qo'limni tortib qorniga qo'ydi. Oyog'im qaltirab ketdi. Bunchalik bo'lishini kutmagandim. Axir, oilam, ikki o'g'ilim bor. Unda hali ajrashmagan edim. Ularga nima deyman? Hayotim barbod bo'ldi. Ertalabgacha o'z xayollarim bilan olishdim. Ertalab yo'lga chiqdim. U negadir sokingina xayrlashdi. Demak, u ham qarorini bergan. Qolaversa, bu ish yaxshilik bilan tugamasligini his etgan.

Qaytib kelsam, Raisning yuzida tabassum- “Ma, hammasini ko‘rib chiq va xulosangni ayt”,-dedi.

Fleshkalarni ko‘rdim, hamma narsa yozilgan. Demak, bu markazning ishi. Ular ham kuzatadi. Nahotki, shunga aqlim bormadi? Nahotki, Rais ishora qilib qo‘ymadi? Nahotki... Boshimga og‘rik kirib, elkamdan muzli tog‘ eza boshladi. Bir payt qizil chiziqli telefon jiringladi. Yugurib bordim:

-To‘yga rozi bo‘libdi,-dedi Rais.-Bilardim, uni sendan boshqasi ko‘ndira olmasdi.

-Unga qiyin bo‘ladi. Yoniga bitta o‘qimishliroq bittasini qo‘shib qo‘yish kerak. Erdan ham ko‘proq, unga suhbatdosh zarur.

-Men topdim,-dedi rais,- juda aqlli bola, o‘qimgan kitobi yo‘q. Har qanday qizga yoqadi, Biznesi bor. Gaplash, nima qilsang qil, ishga ol! Yaxshi tomoni, hezalak, Onasi bilan yashaydi. Uylana olmaydi, Haligilardan. Ammo qizlarga juda yoqadi. Ertagayoq jo‘natishimiz kerak. Bo‘lmasa, dadasiga dod- voy qilib, seni olib ketadi. Aslida, seni yuborib men xato qildim. Unday aqlli qizning oldiga senday aqlli bolani yubormaslik kerak edi. Boshqa tomondan yaxshi, Markaz xursand. Istagan paytda ishlatish uchun sirtmoq-da.

Rais uchun hamma bir tiyin. Markaz undan mamnun bo‘lsa, bas. Qachon markaz yuz o‘girsas, o‘sha kun kasalga chiqariladi. Keyin sekingina maskaniga jo‘natiladi. Nimalarni o‘ylayapsan, Shunqor! O‘zingni kelajaging ham shu! Qopqonga tushding.

Nurxonning to‘yi bo‘ldi. Oradan yillar o‘tdi. Onda-sonda ko‘rishib yurdik. Kin saqlamaydigan ayol ekan. Barini

unutdi. Yaqin do'st bo'lib qoldik. Hatto Zuhrani ko'rib, havasi kelganini ham aytdi.

-Ajrallish rejalaringiz borligini o'shanda aytganingizda, sizni kaklik kabi ovlardim,-dedi.-Ammo bu hurliqoni ko'rib, xursand bo'ldim. Hamma tomonlama etuk ekan. Baxtli bo'linglar, dedi.

Kim bilsin, balki otasining eng ishongan odamiga aylanganim uchun shunday muomala qildimi yoki rostdan ham realistmi, xullas unga eski havasim yana qo'zg'ala boshladi.

Shu damda u "Muhtaram" degan nomni ham qo'lladi. Bu nom "Muhtaram"ning o'ziga ham yoqdi.

Biz nimaga poytaxtga tushmay, yana bu erga qaytdik? Ana shu savol meni qiynayotgan edi. Qolaversa, rahbarlarning aksariyati shu erda edi. Hali "Doda" o'lganini e'lon qilishmadi. Nahotki, imi-jimida ko'mib yuborishadi. Unda ana u daxmazalar nimaga kerak? Qabristonni tekislash. Hamma yoqni o'rab olish, Yo'q, boshqa gap bor. Nega men bilmayman? Rais yashirdimi mendan? Balki "Muhtaram" hali to'la ishonmas.

Telepatiya degan gaplarda jon bor. Ba'zan o'ylab turgan narsangga yoningizdagi odam javob beradi.

-Shunqor, ko'zingni katta och! Poytaxtdagi hamkasblaring menga suiqasd qilishmoqchi ekan. Bu erda qorasini ko'rsang, yo'qot! Kimligini bilasan, boshida ana u "geroy" turgan ekan. Boy otaga markazdan shunday xabar keldi. Ular poytaxtda bilgan ...ini eb o'tiraversin, biz "doda"ni ko'mib olaylik, keyin ularni ham ko'mamiz,-dedi.

Bu gapni Nurxonning oldida aytdi. Demak, unga juda ishonadi.

Nurxon menga qarab ko‘zining qiri bilan jilmaydi. Orqadan Zuhra ham etib keldi.

-Kelin, sen har turli ayollarni kuzat, ering Nurxon bilan birga yonimda yuradi,-dedi “Muhtaram”.

Zuhra “Xo‘p bo‘ladi” der ekan quloqlari qizardi. Demak, o‘tmishdan uning xabari bor. Darvoqe, Markaz yozib olgan suhbatlarimizning asli uning qo‘liga ham tushgan bo‘lsa, ne ajab? Unday bo‘lsa, nega menga sezgirmadi? Ishqilib, Zuhra markazning odami bo‘lib chiqmasin-da. Xayolimga kelgan bu fikrdan avvaliga qo‘rqib ketdim, keyin esa, markaz o‘zimni ham tuzoqqa tushirganini eslab, uni qanday tushirgan ekan deb, o‘ylay boshladim. Ammo xayollarim bo‘lindi.

Qaerdandir o‘q ovozi eshitildi.

14. "Quloqsiz"

“Muhtaram” menga qaradi. Uning rangi o‘zgarib, ko‘zlari kosasidan chiqib ketay degandek edi. Men zumda uning oldini bekitdim. U ortimda to‘xtab qoldi. Bizdan ikki yuz metrilar chamasi uzoqda bir ayol yiqilib yotardi. Kim u? Uni nega otishdi? Kim otdi?

Shu damda “Muhtaram”ning xayol osmoni ham yiqilib tushgan bo‘lsa kerak? U hatto oldinga o‘tishga yoki qimirlashga ham cho‘chib qolgan va ikki qo‘li bilan orqa elkamga osilib olgandek edi. Bu soniyalik holat tezda tugadi.

Hokimning mashinasi etib keldi.

-Qaerda yuribsan?-deb o‘dag‘ayladi unga “Muhtaram”.

U indamasdan mashina eshigini ochdi.

-Shunqor sen qol, tezda nima gapligini aniqla va menga etkaz!-deb “Muhtaram” shiddat bilan mashinga o‘tirdi.

-Xo‘p,-deb ularni kuzatdim va qo‘nalg‘a tomonga qarab yurdim. Bu paytda u erda ishlaydiganlardan bir qanchasi ayol yotgan joyga etib kelishdi. O‘lib yotgan yosh juvon ekan?

-Nima bo‘ldi?-deb so‘radim qo‘nalg‘a xavfsizlik xizmati xodimidan.

-Bu bizda ishlaydi. Bobosining qabrini buzishibdi, shunga yordam so‘rayman, deb yuguribdi. Mana bu axmoq uni otib qo‘ydi.

Haqiqatdan ham axmoq bo‘lmasa, “Muhtaram” kelayotgan tomonga qarab otadimi?

-Buni qamoqqa olinglar,-dedim.- Maqsadi boshqa bo‘lishi ham mumkin. Rahbar tomonga qarab o‘q otish jinoyat! Har qanday maqsadda bo‘lsa ham jinoyat! O‘q, Xudo ko‘rsatmasin... Xullas, tergov natijasini tezda menga xabar qilinglar!

-Kechirasiz, siz kim bo‘lasiz?-deb qolsa bo‘ladimi. Jahlim chiqdi.

-Onangni eri bo‘laman,-deb yubordim. Xato qildim. Haligi odam boshini egib qoldi. Shu damda menga tarsaki ursa ham indamasdim. Qanday bu manfur gap og‘zimdan chiqdi, bilmayman. Lekin ortga chekinishim, undan uzr so‘rashim mumkin emas. Bu ta‘qiqlangan. Xato qildingmi, uni tuzatish uchun vaqt sarflama, oldinga ketaver, deb o‘rgatishgan. U shu lahzada o‘zi ham qamoqqa kirib ketishini ham o‘yladi, shekilli, miq etmadi. Viloyat xavfsizlik xizmati rahbari etib keldi. Tekshiruvni unga topshirib, uning mashinasini

oldimda “Muhtaram”ning ortidan ketdim. U qaerga borishini bilardim. Unga bo‘lgan voqeani aytib berdim.

-Bu ham mening bo‘ynimga qolib ketmasin,-dedi u.- Imijimida hal etishsin. Kim aytibdi mening bu erga kelishimni?

-Qiz uchoqlarni qo‘ndirish bo‘limida ishlarkan. Sizni bilmagan, ammo Boy ota kelishini bilgan va undan yordam so‘ramoqchi bo‘lgan.

Poytaxtdan asosiy odamlarning hammasi shu erga chaqirilgan ekan. “Muhtaram” ularning har biriga topshiriqlar bera boshladi. Salimxon unga:

-Ruxsat bersangiz ish joyingizni saroyga ko‘chirsak, bolalar kutib turishibdi,-dedi.

-U binodan siz hazar qilmaysizmi? Men u erga bormayman! Hozirgi joyim yaxshi. Bir tomonidan ta‘mir boshlanglar. Faqat kechasi ishlasin. Taq-tuqlariga toqat yo‘q.

Salimxon “Doda”ga qanday qulluq qilgan bo‘lsa, “Muhtaram” oldida ham o‘sha soxta kamsuqumlikni saqlab turardi.

-Unda, daryoning bo‘yidan yashashingiz uchun bitta kulba qurdirsak. Xavfsiz joyda yashamasangiz bo‘lmaydi.

“Muhtaram” biroz o‘ylab turdi-da:

-Tezda bitadigan bo‘lsa, mayli. Saylovgacha tayyor bo‘lsin. Saylovdan keyin ko‘chib o‘tamiz!-dedi.

-Undan oldinroq ham bitiramiz,- deb javob qildi Salimxon mayin ovozda.

-Mehmonlarga atab ham bir joy qilishimiz kerak..

-Marosimga keladiganlar uchunmi?

-Yo‘q, buni hokim hozirlagan. Siz kattaroq fikrlang. Ilgarigi rahbarlar Qirimda dam olishgan. Endi u yoqlar uzoq! Begona...

-Undan yaxshirog‘ini o‘zimiz quramiz. Sangin va Ramatjonga aytsak, o‘zimizning Yaltani yasashadi. Dengizi ham bo‘ladi, ov joylari ham. U joyga hech kim borolmaydigan bo‘ladi. Tog‘larning orasiga quramiz.

-Ilgari boshlagan joyimizni davom ettiringlar. Pulni ayamang, qurilish sifatli bo‘lsin. Toshsiz tarozining shayini siniq, degan gap bor. Toshu tarozisi joyida bo‘lsin!

Qiziq! Kimga aza, kimga to‘y. Hali “Doda”ning o‘lgani e‘lon qilinmasdan to‘yning maslahati bo‘layotganga o‘xshardi.

Ramatjon “Doda”ga yaqin odam edi. Bir kun ziyofatda “Lazgi”ga o‘ynaganda, semiz emasmi, shimi tushib ketdi. Rosa kulgi ko‘tarilgandi. Shundan keyin uning laqabi “Lazgi” bo‘lib qoldi. O‘zi ham xursand, xayriyatki “Mazgi” deb qo‘yishmadi, deb kuladi. Uni “Muhtaram” ham yaxshi ko‘radi. U bilan ancha yillar oldin, Nurxonning yonida ekanligimda tanishgandik. U Nurxonga markazdan bir necha million dollarlik uy olib bergandi. Xizmati uchun “Mercedes”ni shoferi bilan hadya qilgandi. Kun ora dunyoning eng noyob ne‘matlarini Nurxonga etkazib turardi. Keyin biz shoferni almashtirdik.

Bir kun undan:

-Bu haqda otasi biladilarmi?-deb so‘radim Ramatjondan.

-Bilmaydilar. Mana endi sirimiz ochiladigan bo‘ldi. Siz u kishining qalbi. Siz sezdingizmi u kishi ham biladilar,-dedi. Haq edi. Bilgan narsamni qachondir “Muhtaram”ga aytishga majbur bo‘laman. Aks taqdirda ishonchsizlik paydo bo‘ladi.

Sanginning ham tarixi bor. Bir kun u suv omborida cho‘milayotgan paytda “Batya” telefon qilibdi.

-Qaerdasan?-desa, “Shu erdaman” debdi. “Batya” hushyor edi, shamol va suvning shovqinini sezganmi yoki “quloq”lari gap etkazganmi:

-Nega ish paytida cho‘milayapsan ?-desa.

-Amudaman, cho‘milmayapman, siz sevgan baliqni ushlashga harakat qilayapman,-degan ekan.

Shunday keyin “Batya” unga “Amu” deb nom qo‘ydi. U ham o‘z nomidan mamnun. Amaldorlarga tepadan qanday laqab qo‘yishsa ham xursand bo‘lishadi. Buni yaqin odamiman, deb talqin qilishadi.

“Doda” laqab qo‘yishga usta edi. Hatto bitta vazirga “Fohisha” deb laqab qo‘ygandi, u tirjayib yuraverdi. Menimcha, endi ishdan ketadiganlardan bittasi o‘sha. “Muhtaram” uni juda yomon ko‘radi. U gap tashiydi. Laqabi ham shundan kelib chiqqan.

Hokim kelib, “Muhtaram”ning qulog‘iga nimadir dedi. U men tomonga qayrildi.

-Shunqor, poytaxtga jo‘na! Ana ularni o‘zing nazoratga ol! Biror ifloslik qilishmasin. Senga hamma huquqlarni berdim, kerak bo‘lsa, erto‘laga tiqaver! Jonini sug‘urib ol! Itday ishlat, qulog‘ini kesib tashla, kerak bo‘lsa!

Zuhrani ham oldim va yo‘lga tushdim. Zuhra mashinaning orqa qismida mizg‘ib olish uchun cho‘zaldi.

“Muhtaram”ning qulog‘ini kesib tashla, degan gapi bolalikka etakladi.

Qishlog‘imiz tog‘ adirlari orasida bo‘lgani uchun hammaning iti bo‘lardi. Vahshiyroq bo‘lsin deb quloqlarini kesishadi. Bunday it odamni ham ayamaydi.

Bir kun tog‘dan rivoj terib qaytayotgandim, qulog‘i kesilgan bir it tashlandi. Uni ushladimda, bir qo‘lim bilan jag‘ini qisib oldim. Ko‘zlari yondi. Vajohati shu darajagacha etib bordiki, qo‘yib yuborsam, meni eb tashlaydigan. Biroz ko‘zlariga tikildim. Uning vahojatiga suv sepgandek bo‘ldi. Keyin boshqa qo‘lim bilan peshanasini siladim. Ko‘zini yumdi. Keyin uni otib yubordim. Qochib ketdi.

Uyga yaqinlashganda qarasam, orqamdan kelayapti. Kutib turdim. Kelib oyog‘imga suykaldi. Keyin xuddi bo‘ri kabi ko‘kka qarab uvladi. Bu bo‘rilarni qo‘rqitadigan azamat it ekan. Ammo kimniki? Nega menga ergashib keldi? Balki egasidan qochgandir? Ha, mayli, bir kun tura qolsin, egasi chiqsa olib ketadi, deb uyga boshladim. Darvoza oldida uning boshni silab, ko‘zlariga ancha qarab turdim. Mehr borga o‘xshaydi. Sadoqat borga o‘xshadi. Hovliga olib kirdim. Oyim eshikdan chiqishlari bilan o‘qday tashlandi. Yugurib borib, oyimni qutqazdim. Tirsaklaridan tishlabdi.

-Bezalar,-dedilar. Ammo ranglari o‘chgan.

Yaxshilikni bilmaydigan itni devordan tashqariga itqitdim. Oyimga suv olib keldim. Itning tishi tekkan joylariga “zelyonka” surib qo‘ydim.

It eshikning yonidan ketmay, uy-uvlab turaverdi. Enam:

-Bolam bunchalar uvlatib qo‘yma!-dedilar.

Borib eshikni ochsam, oyog‘im orasidan sizib kirib, enam tomonga otildi. Borib xuddi yomon ish qilganu uzrga kelgan odamdek tiz cho‘kib oldi. Enam boshini siladilar. Shu bilan hovlimizda qoldi. Egasi chiqmadi.

“Quloqsiz” deb nom berdik. Ko‘p yashamadi. Qarib qolgan ekan. Bir kun ostonaga bosh qo‘yib, o‘lib qolibdi. Balki ishonmaysiz, o‘shanda uvlab-uvlab yig‘laganman. Hatto enam ham yig‘lagan.

Shunqor! O‘zingni ham ‘quloqsiz” kabi his qilmayapsanmi? Yo‘q! Qani edi, unday bo‘lsang! Unda quloqlarini kesib tashlagani uchun alam bor edi. Ammo senga tan berdi. Enangni ham sevdi. Sen ham sohibingga sodiqsan. Senga falonchini yo‘qot, desa, o‘sha odam mutloq gunohsiz, el uchun kerakli bo‘lishiga qaramay, o‘ldirasan! Senda o‘zi nima bor? Mehrmi? Mehirsizlikmi? Qahrmi? Nafratmi? Nima bor? Shu paytga qadar qul eding. Mana endi ozod qulsan. O‘zingcha yo‘l tanlay olmaysan. Aytilgan yo‘ldan yurasan. Shunday darajaga kelding. Bechoralarga yordam qilish imkonining bor. Ha, bor! Ammo yo qo‘rqasan yoki...

Telefon jiringlab qoldi. “Muhtaram”.

-Idorani to‘la nazoratga ol, hammani kuzatishayotgan ekan, so‘zlashuvlarini eshitishayotgan ekan. Nuxta qo‘y bariga! Odolat o‘rnat!

U nuqtani nuxta, adolatni odolat der edi.

Demak, G‘ulomning odamlari tinmayapti. Nima qilish kerak? Ularni qanday qilib to‘xtataman? Orqada uxlab yotgan Zuhra uyg‘ondi.

-Nima gap?

-“Muhtaram” sim qoqdi. G‘ulomning odamlari hammani eshitayotgan ekan. Shunga nuqta qo‘yishimiz kerak.

Zuhra bir zum o‘ylanib turdida:

-Nuqta qo‘yishning iloji yo‘q. Raisning qarori kerak. Ammo davom etaverishsin. Yozuv va xatga tushirish markazi

hamma narsani menga olib kelishi va keyin rahbariyatga borishi lozim. U erda ishonchli odamlarimiz bor.

-Ammo “Muhtaram” nuqta qo‘y deb aytdi. To‘xtatish kerak.

-Demak, “Muhtaram”ning yaqinlarini eshitishmoqda va kuzatishmoqda. Rais bilan gaplashing.

-Menimcha “Muhtaram” u bilan gaplashgan va u ishni Shunqor uddalaydi, deb qutilgan bo‘lsa, ajabmas?!

-Unday taxminlarga borma, jonim, ular bizni ham eshitishlari mumkin.

-Qo‘rqadigan joyimiz bormi? Ularni to‘xtatishning yo‘lini bilaman, lekin siz meni sensiradingizmi?

-Ha, jonim, yaqin olganim uchun sensiradim yoki xotinim emasmisan? Shanxaychilarning “uylanmaganlar marosimda qatnashmaydi”, degan qoidasi uchun o‘yin qildik-mi?

Yonboshlab yotgan Zuhra shartta o‘rnida turdi:

-Sizga o‘yin bo‘lishi mumkin! Ikki bolasi bilan otasinikiga olib tashlagansiz-ku bittasini? Ikkinchisi bilan ko‘z urishtirib turganingizni ko‘rmadim-mi?

Indamadim. Chunki xato qildim. Bir hisobdan yaxshi bo‘ldi, qachondir bu masala ko‘tarilishi kerak edi. Shu yo‘llarda qolib ket sin... gaplashib olamiz.

-Borim shu! Otam kasal edilar, gaplarini ikki qilolmay uylangandim. Yomon ayol emasdi. Ammo mening ishimga chidamadi. Uni tushundim. Bolalarimdan hozir ham xabardorman. Balki ularni siz bilan ham tanishtiraman,- dedim ataylab siz so‘ziga urg‘u berib.

U gap jidiylashganini his qilsin deb davom etdim:

-Ikkinchisiga kelsak, vazifamni bajardim. Hali kelajakda ham shunday topshiriqlar bo'lsa, nima deyman? Zuhradan ruxsat olib beringlar, deymanmi? Unisiniyam, bunisiniyam sevganim emas. Ammo sizni sevdim. Xohlasangiz qabul qiling, istamasangiz munosabatlarimiz rasmiyat bo'lib qolaversin. Sizni sevaman, ammo bunday dashnomlarni ko'tara olmayman!

Zuhra indamadi va anchagacha jimlik cho'kdi. Mashinani juda tez haydabman, orqadan "danchilar" quvdi. Nima qilsam ekan? Quvib eta olmaydi. Ammo bunday paytlarda "dum"ning keragi yo'q. Yo'l chetiga oldim va eshikni ochdim.

-Tushmang... G'ulomning odamlari bo'lishi mumkin...

Quloq solmadim. Hujjatimni ko'rsatgandim, mirshablarning rangi quv o'chdi. Lablari gapga aylanmay qoldi.

-Aka, oldinda yurib sizga yo'l ochib boraylik-mi?

-Yo'q, faqat bundan keyin hujjat ko'rsatganga yaltoqlik qilmanglar. Hozir soxta kazo-kazolar ko'paygan,-dedim va mashinaga qarab yurdim.

-To'xta,-dedi mirshablardan biri.

Burilsam, ikkalasi ham shaxdam odim bilan men tomonga kelmoqda.

Shunqor, o'zing qilding, endi o'zing tinchit! Kerakmidi shu senga? Mana endi qarshingda tapponcha o'qталib turibdi.

-Akalar, to'g'risini aytay, xotinimni kasalxonaga olib borayapman,-dedim.

Zuhra inqillagandek mashinadan tushdi va ular tomonga yurdi.

-Iltimos, uni ushlanglar, meni ham aldadi,-dedi.

Mirshablar bu gapni eshitib, “o‘ljalari” tomonga tashlandilar. Zuhra orqaga o‘tdi. Tushundim. Zuhra juda chiniqqan. Boldirlari qayroq. Hamlisi qoplondek. Men indamasam ham bo‘ladi. Ikkalasini bir hamlada erga qulatdi. Qo‘llaridan tapponchalarini oldik.

-Endi umrlaring qamoqda chiriydi. Hujjati to‘g‘ri edi,-dedi Zuhra ularga.

-Mayli qo‘yib yubor ularni, hushyorliklari uchun mukofot beramiz,-dedim.

Ikkalasining ham hujjatlarini oldim va:

-Vaziringiz olib kelib beradi, mukofoti bilan,-dedim.

-Akajon, bola-chaqamiz bor, bizni qo‘yib yuborganingizning o‘zi mukofot. Bir axmoqlik qildik. Kechiring, jon aka!

-Gaplaringizni bu qismi yoqmadi. Mardonavor turganlaringda baxt kulib boqqan edi,-dedimda ularni ogohlantirib:

-Hatto xotiningizga ham aytmysiz bu voqeani,-dedim.

Bechoralar! Mahkam turib, bizni ushlagandaku G‘ulomdan mukofotni kattasini olishardi.

Mashinani haydagandan keyin:

-Rahmat, hayotimni qutqazdingiz,-dedim Zuhraga.

-Bundan keyin sizlaydigan bo‘ldingiz-mi? Bir senladingizmi, bo‘ldi, senlayvering-da,-dedi Zuhra.

Demak, u masalaga nuqta qo'yildi. Zuhraning o'zi ham biladi, ana u ikki mirshabni "tekislab" qo'yishimni. Ammo shunday bo'lsada "kredit"ni unga berdim.

Poytaxtga etib kelguncha nima qilish rejasini tuzdik. Yozib oladiganlar va eshitadiganlar hammasi G'ulomning qo'lida. Ularga bir narsa desak, ishning pachavasi chiqadi.

Yozuvlarni Zuhraga topshiradigan zobitning uyiga bordik. Tong sahar. U balki tungi ishdadir? Balki uxlab yotgandir? Xullas, nima bo'lsa ham men mashinada o'tirdim, Zuhra eshikka bordi.

Yo'q ekan. Ishda. Men ham qo'shilib zobitning uyiga kirdik va xotinidan eriga telefon qilib, chaqirishni so'radik. Unga kimligimizni ochiq aytdik. Bo'lmasa, qiyin edi. Ayol o'qimishli ekan, tushundi va eriga telefon qildi:

-Adasi, tez kelmasangiz bo'lmaydi, kichkinamiz isitmalab yomon bo'ldi. Doktorlarni chaqirdim, olib ketolmaymiz, ahvoli og'ir deyishdi...

Ayol tuppa tuzuk aktrisa ekan. Bir piyola choy ichgunimizcha zobit kirib keldi. Zuhra va meni ko'rib shoshib qoldi.

Unga ham to'g'risini aytdik:

-Qara,-dedim unga.-Hammasini bilishadi va hammalaring G'ulom boshchiligida borsa-kelmasga ketasizlar. Agar kelajakda shu erda qoladigan, bolalaringga otalik qiladigan bo'lsang, aytganimizni bajarasan.

-Aka "Doda" rostdan ham...

-Ha, o'zing ham bilasan buni...

-Hamma yoqda shu gap. Ammo rasmiy emas-da.

-Mana mendan eshitganing rasmiy.

-O‘rniga...

-O‘rniga allaqachon “Muhtaram” o‘tdilar.

-“Muhtaram”? Kim bo‘ldi ekan?

-“Shum”. O‘zgardi bu nom. Qaroringni ber, biz bilanmisan?

-Albatta, men davlatimga xizmat qilaman deb kirganman bu ishga. Nima desangiz shuni bajaramiz!

-“Muhtaram”ning yaqinlarining so‘zlashuvlarini xatga tushirmaysizlar! G‘ulom so‘rasa, salom-alikdan boshqa gap yo‘q deysan. Kerakli nuqtalarini gum qilasan. Qolganini odatdagidek Zuhraga topshiraverasan.

-Xo‘p bo‘ladi!

-Unvoning nima?

-Polkovnik!

-Shu ishni uddalasang, generalsan, men so‘z berdim senga!

Ikki kun chidasang bo‘ldi, keyin yana suv o‘z joyida oqaveradi. Hatto sendan gumon qilgan taqdirda va hatto seni qamaganda ham o‘zim chiqarib olman va bundan ham yaxshiroq vazifaga o‘tasan!

U och qushdek nonni ko‘rib, kaftga osongina qo‘ndi va kechadan buyon eshtilgan gaplarni ham aytib berdi. Zuhra uning mashinasida ketdi. Men esa “Muhtaram”ning idorasiga keldim. Hamma yoq suv quygandek jimjit. Maslahatchilar birin-ketin kelib, salomlashib, topshiriq olib ketishdi. Faqat bittasi savol berdi:

-Qo'nalg'ada va yana bir ikki joyda Vladichning odamlari yurgan ekan, xabaringiz bormi?

-Ular Vladichning emas, o'zimizning odamlar, xavotir olmang,-dedim.

Qo'lidan biror yomon ish kelishi mumkin bo'lganlarni viloyatlarga jo'nata boshladim. O'sha yoqda tartibni saqlashlari uchun. Kattaroqlarini esa "Muhtaram"ning yoniga...

Bir payt Zuhra kirib keldi, rang-quti uchgan:

-Mana buni eshiting,-dedi.

15. "Ketgan" oltinlar

Zuhrani bunday holda ko'rmagan edim. Vajohati qo'rqinchli.

-Nima gap? Tinchlimi?

-Buni eshiting, kim bu odam?

Yozuvga quloq soldim. Kimdir rus tilida Azimga buyruq berayapti.

"Bardam bo'l, ertaga ko'mishga borsang ham bahona qilib qabristonda ko'rinma."

"U uncha-bunchaga chekinmaydi. Hamma yoqni o'ziniki qilib olgan. Ehtiyot bo'lmasak..."

"Ikkilanmaslik kerak! Uni qabristonda tinchitamiz, otasi bilan bitta go'rga kiradi!"

"Bu qiyin masala..."

"Biz uchun qiyin masalaning o'zi yo'q. Etarki, sen o'zingni qo'lga ol! Imkonini top va borma!"

“Uni yo‘q qilsangizlar, favqulodda holat yuz berishi va Senator saylovgacha rahbarlikni o‘zim bajaraman, deb chiqishi mumkin.”

“Uni ham tinchitamiz! Hammasi birdan ketadi.”

“Uning yangi tansoqchisi bor. Avval shuni yo‘qotish kerak.”

“Bu masalada ishlayapmiz. Uni amallab poytaxtga olib keldik. Oxirgi soatlarini yashamoqda.”

Zuhraning vahimaga tushganicha bor ekan. Kim bu? Qaerdan telefon qilgan?

Zuhra shu savolni kutib turgan ekan:

-Markazdan! Gap orasida Vladichni ham ko‘ndiraman, degan joyi bor,-dedi.

-Demak, katta kuch. Bundaylar soyasini saratonda soladi. Bu G‘ulomning Markazdagi akaxonlari. Ular manfaat uchun hech narsadan qaytmaydilar.

-Taxminlarni keyin qilamiz,-dedi Zuhra jiddiy ohangda, xuddi menga dashnom berayotgan kabi.-Birinchi galda bu erdan chiqib ketishimiz zarur. Meni ham kuzatgan bo‘lishlari mumkin.

-Qo‘yaver, bizga hujum qilishsin, balki ertangi marosim rejasi buzilib, ularning burniga loy tiqilib qolar?

-Olov bilan o‘ynashamizmi? Bu erda ularning kelishini kutib tursak, naryoqda bir narsa qilishmasin?!

-Raisga chiqaylik!-dedim.

-Rais nima derdi, tinchitinglar, deydi. Menimcha “Muhtaram”ning o‘zi bilan gaplashib, rejalarini o‘zgartirish kerak.

-Bo‘pti. Yozuvni uning yopiq telefoniga tashlayman. Balki gapirgan odam unga tanishdir? Balki u Vladich bilan gaplashar?

Yozuvni “Muhtaram”ga yubordim..

Ko‘p o‘tmay, o‘zi telefon qildi.

-Borayapman, meni kutinglar,-dedi.

“Muhtaram”ning xonasiga kirib, ovqatlanadigan xonasida suvni sharillatib oqizib qo‘ydik va turli rejalarni tuzishga boshladik. “Muhtaram” kelishi bilan “Nima qilamiz?” deb so‘raydi.

Gapirmasdan fikrimizni qog‘ozga yoza boshladik. Men yozdim, keyin Zuhra javob qildi:

“Ko‘mish marosimini orqaga tashlash kerak?”

“Bayramgacha ko‘minglar, degan gap bo‘lgan Markazdan”

“Vladichga telefon qilinsa, bunday paytda boshqa planga rozi bo‘ladi”

“Keyinchi, keyin nima qilamiz?”

“Bugunoq Azimni qamoqqa olish shart”

“Yo‘q, undan mazlum yasaymizmi? Agar, Xudo ko‘rsatmasin, ularning plani amalga oshsa, uni qamoqdan qahramon qilib olib chiqadilar. Menimcha, “Muhtaram” hech narsa bilmagandek, Azimni yonida olib yurishi kerak. Bir qadam ham uzoqlashtirmaslik lozim. Shu haqda o‘ylaylik”

Xullas, bir qancha yo‘llarini qog‘ozga tushirdik. Bir payt “Muhtaram” telefon qildi.

-Uchoqdaman! Sodiqli bolalaringni chiqar va qo'nalg'ani qo'lga olishsin. Ehtiyot bo'lishsin, Vladichning bolalari bilan to'qnashib qolishmasin. Ularga javob beringlar, ketaverishsin.

Gaplashib bo'lib, topshiriqni Zuhraga aytdim.

-Siz haqqingizda hech narsa demadimi?

Nima derdi? Xo'jayindan naf kelsa, orqasidan zarb keladi. Yolg'on gapirdim:

-O'zingni ehtiyot qil, dedilar.

Zuhra aldaganimni tushundi, shekilli, labini burib qo'ydi.

Darvoqe, men haqimda nima desin? Unga hozir o'zining joni shirin. Birinchi galda o'zini o'ylamoqda. Bizni ham shu yo'lga solishgan. O'zimizni emas, uni o'ylashimiz darkor. Biz hech kimmiz, aslida. Vazifamizni bajarishdan ozgina chekindikmi, tamom, hayotimiz tugaydi. Buni Zuhra ham yaxshi biladi. Lekin shunga qaramasdan so'radi. Uning uchun shu damda "Muhtaram" emas, men azizga aylanganimni his qilish quvvat berdi. Birinchi xotinim buni tushunmasdi, "Siz ham otasiz! Bolalaringiz mehringizga zor! Sahar ketib, yarim tunda qaytasiz. Boshqa bittasi bormi?" deb janjal qilaverardi. Ayollar uchun vazifa, ishdan ham oila muhim. Mana bu ham shu sohada o'qigan, etishgan bo'lishiga qaramay, shu topda erini o'ylayapti.

Telefon jiringladi:

"Shunqor, nima qilsang ham Azimni uchoqqa olib kel, shamol ham sezmasin!"

Nahotki uni yo'qotishga qaror qilishdi? Qanday qilib olib boramiz? Shoferini almashtiramiz, Zuhрани yuboraman. Yo'q, o'zim boraman.

Yonimdagi xotinimga xat yozdim:

“Azizim! Tezlikda Azimning shoferini almashtirib, uning o‘zini qo‘nalg‘aga olib borishim kerak. Shamol ham sezmasin, dedilar. Mayli sen shu erda qol, men kettim!”

‘Yo‘q, siz shu erda qoling va men ketaman. Bu ishni uddalayman. Uni eson-omon olib boraman! Ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin”.

Uning shunday deyishini bilardim. Bu ishni uddalashini ham bilaman. Ammo unga buyruq bergim kelmadi. Qolaversa, taklif undan chiqqani yaxshi-da!

Yo‘lini qilib, qo‘nalg‘aga bordim va hammayoqni kuzatib, yigitlarni joylab, Zuhrani kutdim.

Ko‘p o‘tmay, noma‘lum mashinada kelishdi. O‘zimni panaga oldim. Azim mamnun. Yuzida xavotir yo‘q. Shaxdam odim bilan uchqichga ko‘tarildi.

Zuhra menga qarab, ko‘zi bilan kulimsiradi. Ichkariga kirishimiz bilan tarvuzi qo‘ltig‘idan tushgan odamdek Azim qaltirab, orqaga yugurdi. Uni ushlab qoldim.

-Sen tvarni eb-ichaman, ablah, hali meni o‘ldirmoqchimisani?

“Muhtaram” so‘kingancha Azimga tashlandi. Rais jim o‘tiribdi. Qovog‘i osilib qolgan. Ko‘zida hadiksirash. Ishtonini ho‘l qilib qo‘ygan boladek qimirlamay o‘tiribdi. Negadir ko‘zimga u ichiga somon tiqib qo‘yilgan xaltaga o‘xshadi. To‘xta, Shunqor, allaqachondan Raisni nazarga ilmayapsanmi? Uning yaxshiliklarini unutdingmi? Seni shu ergacha kim olib keldi? Yo‘q, u ajdarho!

Doim “Muhtaram” uning asiri edi, hozir aksidek. Nahotki, bu ishlarning orqasida u turgan bo‘lsa? Yo‘q, bunday

bo'lishi mumkin emas. U ikki tomonga o'ynamaydi. Bu erda boshqa gap bor.

-Nima qilamiz buni?-dedi "Muhtaram" menga qarab.

Tuzgan planlarimiz qog'ozini unga uzatdim. O'qib chiqdida qaytib berdi.

-Ko'mish marosimini qoldiramiz. Azim, sen shu soatdan boshlab mening soyam bo'lasan! Qaerga borsam, yonimda turasan! Yarim qadam ham uzoqlashmaysan! Birga uxlab, birga turamiz! O'lmaganingga xursand bo'l! Ataylab olib qoldim, ko'mish marosimida birgalikda go'rga kiramiz! Havoga ko'tarilganda, seni uchqichdan tashlab yubormoqchi edim. Ammo mana bularga qulluq qil! Hayotingni qutqazib qolishdi. Sen bo'lsang, birinchi galda Shunqorni o'ldirishni buyurding! Shunqor, mana u sening qo'lingda. Qimirlasa, basharasini titkilab tashla, -dedi.

So'ng telefonidan Azimning suhbatini eshittirdi. Azim xuddi nuragan imoratdek yiqila boshladi. Bir qo'li bilan o'rindiqni tutib qoldi.

"Muhtaram" raisning yoniga borib uning qulog'iga pichirladi.

Demak, Rais hali ham o'z mavqeida. Bo'lmasa, unga ham baqirardi.

Boy otaning ishorasi bilan uchqich ko'kka ko'tarildi.

Mamlakat hudididan chiqqandan keyin Vladichga telefon qilindi. Ovozni Rais tanigan ekan. U Vladichning xavfsizlik idorasi boshlig'i.

Vladich eshitib, nimadandir ranjidi:

-Ix moxhit nado! Vot blin! Bu eski plan-ku? Qanaqa zamon bo'ldi, o'ng qo'ling qilganini chap qo'ling bilmaydi.

U ruschalab so'kindi-da:

-Yaxshiyam menga chiqdingizlar, xavotir olmanglar, hammasi joyida bo'ladi,-dedi.

“Muhtaram” Vladichning gapiga e'tibor qilmadi, shekilli, yuzidagi xavotir o'rnini mamnunlik egalladi.

Zuhra menga termulib qolganidan bildimki, u ham sezgan. Demak Vladichning dastlabki plani Azimni qo'yish bo'lgan. Balki uning plani emas, Xavfsizlik idorasining plani bo'lgandir. Vladich ko'k chiroq yoqqan. Keyin Boy ota uni “Muhtaram”ga ko'ndirgan. Vladich esa “otboy” berishni unutgan. Shunday deb xulosa qilsa bo'ladi. Lekin bunga ishonmayapman. Boshqa gap ham bo'lishi mumkin. Nega unda Raisni chetlashdi? Bu planni Rais ham bilganmikan? Bilgan va Boy otani ishga solgan bo'lsa-chi? Faqat bu haqda “Muhtaram”ga shipshitmagandir? Ammo bular taxmin. Haqiqat endi o'rtaga chiqadi.

Darvoqe, Vladich nega ko'mish marosimini bayramdan oldin qilinglar degandi? Bizda avval to'y, keyin aza deyilsa, ham qabul qilmadi. O'zi besh olti kun saqlanglar, deb aytgandi. Orqasidan “ko'masizlarki ko'masizlar”, deb turib oldi. Negadir g'ishtlar qolipga mos emas.

Savollar oqib kelaverdi. Javobi esa yo'q. Demak, hushyorlikni oshirishimiz kerak.

Bilsa bilsa hamma gapni Azim biladi.

Xuddi fikrimni uqib turgandek “Muhtaram” Azimni yoniga kelib o'tirdi.

-Qachondan beri gaplashayotgan edingizlar?-deb suradi.

-Kechadan beri. G‘ulom bog‘lab berdi. Tapponchasi bo‘ynimga qo‘yilgan edi. Hamma so‘zlashuvlar paytida u yonimda turdi. Qo‘rqdim. Vladichning plani deyishdi. Ishondim. Boshqa yo‘lim yo‘q edi. Mayli, men roziman shu mashmashalar o‘tguncha qamab qo‘ying bir joyga. Bo‘lmasa, tinchlik berishmaydi. Siz o‘ldirmasangiz ular o‘ldiradi. Men tugagan odamman...

Tog‘ boshida qor, bundaylarda or yo‘q!

U shunday deb yig‘lab yubordi.

-Shuncha holing bor ekanu, yana mamlakatga rahbar bo‘laman deb yuribsan-a? Seni yig‘loqilarga boshliq qilib qo‘yish kerak. Hayot bu kurash! Qo‘lingdan kelsa kurashga kir! Riskni bo‘yningga ol! Qo‘lingdan kelmadimi qisib yur!

-Tur o‘rningdan sassiq! Qancha berding? Kimga berding?-"Muhtaram" so‘roqqa o‘tdi.

-Berganim yo‘q...

-Sen iflos men bilan o‘yin qilma, gadoni nonidan taniyman, kerak bo‘lsa! Nima, bilmaydi deb o‘ylaysanmi? O‘zingni og‘zingdan eshitmoqchiman.

-Men berganim yo‘q. G‘ulom yubordi.

-Qancha? Ko‘kidanmi, sarig‘idanmi?

-Sarig‘idan?

-Necha tonna?

-Ko‘p... Anig‘ini aytmadi. Maxsus uchqichda jo‘natibdi.

-Evaziga nima so‘radi?

-Raisning o‘rnini...

Rais parvo qilmay so‘zga aralashdi va mavzuni o‘zgartirdi:

-Bunday ishlarni o‘zlari qilishmaydi. Ko‘chaga buyurishadi. Buyruq tepadan zinama zina tushadi va oxirida ijrochilarni hech kim tanimaydi. Shuning uchun “otboy” berilsa ham, buyurtma davom etaverishi mumkin. Qo‘rimalarni almashtiramiz. Talabalar orasidan yigitlarni saralab, jonli devor tashkil qilamiz. Marosim kuni, yonma-yon, birga yurasizlar. Azimjon, ungacha o‘rtada ko‘rinmaysiz!

Gapga “Muhtaram” aralashdi:

-Qani sadoqatingni ko‘rsat! G‘ulomni bu erga chaqir!

-Tushundim, hammasini bajaraman.

Bu amaldor degani artist bo‘larmikan, hozirgina yig‘lab o‘tirgan Azimga “jon kirdi”, o‘z telefonidan sim qoqdi.

-Yaxshi gaplar keldi. Boy ota yordamida Vladich bilan gaplashdik. Hammasi yaxshi. Ana uni qamoqqa olish kerak. Men qo‘nalg‘adaman, Boy otaning uchqichida. Shu erga keling, o‘ta muhim gap bor.

Qoyil qoldim. Ovozining ohangi hatto o‘zgarmadi. Bularni “Doda” bichib ketgan. Gado gadodan uyaladi, bu boylar esa bir-biridan uyalmaydi. Amaldor bo‘lmay o‘l!

Yarim soat ham o‘tmay, G‘ulomning kelayotganini bildirishdi

-Bolalaringa ayt, kutib olishsin,- dedi “Muhtaram”.

G‘ulom kelganda panaga o‘tdim va orqasidan uchqichga qarab yurdim.

U zinalardan sakrab-sakrab, yugurgancha, yaxshi kayfiyatda kirib keldiyu, jamoani ko‘rib esankirab qoldi. Xavfsizlikda etishgan odamning bunday esankirashi juda qiziq edi. U

hammadan eng qiyin holatlarda ham o‘zini yo‘qotmaslikni, vaziyatdan chiqish yo‘lini topishni talab qilardi. Mana endi o‘zi quduqqa tushdi. Qani qanday chiqarkin? Orqaga qarab qocholmaydi. Eshik oldini men “qo‘lga oldim”. Zuhraning ham qo‘li tapponchasida.

G‘ulom juda ayyor, ko‘rinishidan bilinmasada, ichidan o‘q o‘tmaydigan libos kiyish odati ham bor. Ammo tapponchasi borligi sezilmayapti. Odatda oddiy kiyimda yuradigan bu odam yangi harbiy libosni kiygan, generallik unvonlari ham yaltirab turibdi, qahramonlik belgisini ham taqib olgan. Bu Zuhraning “hunari” bo‘lishi mumkin. Ish bitdi, raislikka tayinlovga yuring deb uni quv tushirganga o‘xshaydi.

-Shunqor, uni tekshir!

Orqasida turganim uchun, tapponchaga intilmasin deb, avval ikki qo‘lini ushladim. U tortib olmoqchi bo‘ldi. Uddasidan chiqmadi. Har kuni sport zaliga borish o‘rniga ziyofatma ziyofat yurgani zarariga ishladi. Bir hamlada ikki oyog‘ini ikki tomonga itardim. Tekshirdim. Hammaga arqon to‘qiydigan odam o‘ziga ip esholmay qolishi mana shu. Shunchalik o‘ziga bino qo‘yganki, tapponchasini ham olmagan.

“Muhtaram” o‘rnidan turib, unga yaqinlashdi.

-Sen kimga ishonding, xoin! Vatan sotqini!

U shunday deb G‘ulomning pagonini shartta uzib oldi.

-Nima qilayapsiz?

-Nima qilayapman? Shunqor videoga ol, xalqqa ko‘rsatamiz. Mana nima qilayapman! U ikkinchi pagonni ham uzib oldi.

-Mana oddiy odam bo‘lib qolding. Darvoqe, mana bu yulduz ham senga harom!

“Muhtaram” uning qahramonlik yulduzini ham uzib tashladi.

-Haqqingiz yo‘q bunday qilishga, buni menga davlat bergan, “Doda” bergan.

-He, dodang bilan qo‘shib, onangni... , sen iblisni.

-Onadan so‘kmang,-yalingan ohangda gapirdi G‘ulom.

-Yana bir marta so‘kaman. Qani nima qila olasan? He, onangni... Tiz cho‘k!

G‘ulom bo‘ysunmadi. Egilmasang egamiz! Ikki tizzasining orqasiga tizzam bilan urgandim, tiz cho‘kib qoldi.

-Sen haqiqiy g‘ulom eding, g‘ulomliginga qaytding! Sendan rais chiqmaydi. Yutqazding. Buni kurash deydilar. Endi Raisning ustidan shikoyat qiladigan joying ham yo‘q. Bittasi ketar joyiga ketdi. Boshqalari seni sotdi. “Stavka”ni shu galvarsiga qilasanmi? Axmoqliging mana shunda.

G‘ulom hech narsa qila olmasligini, singanini his qildi. Buni uning orqasida turib sezish mumkin. Tizzasi qaltirayotgani sezilmoqda. Shimi xuddi shamolda o‘ynayotgan kabi qimirlamoqda. Umrda tiz cho‘kmagan, ziyofatu maishatlardan bo‘shamagan odam, tizzasida uzoq turolmaydi-da!

Shu payt u bir necha olovning ichida. Bir tomonda tizzalari qiynayapti, ikkinchi tomonda yuragi yonayapti. Azim hammasini sotdi deb o‘ylab, xato qildim, deb pushaymon. Ammo o‘rni tutarmidi? Uchinchi tomondan yiqqanlari havoga uchib ketdi. Buning ustiga unvonlaridan ham ayrildi.

Bu o'limga teng. Ekin ekkan ekin ekadi, tekin kelgan tekin ketadi. Baribir buncha xo'rlanishni ko'tarish oson emas.

-Necha tonna yubording?

G'ulom bilmaslikka oldi.

-Nimani?

-Enangni... ni! San yana men bilan o'yin qilayapsanmi?

“Muhtaram” uni tepib yubordi. U yo'lakka yiqildi va bir hamlada turmoqchi bo'ldi. Tepkining ikkinchisini mendan edi va “ih”illab qoldi.

-Necha tona yubording va qaerdan olding?

-Zahiradan... 15 tonna...

-Ablah! Zahirani ham egallab olganmiding, hali? Kim olib chiqib berdi? Shunqor, qog'oz ber bunga, hammasini yozsin. Bir boshdan yoz! Kimlar bor bu o'yinning ichida? Aslida bilaman, ammo sen tasdiqlashing kerak. Bittasini yashirsang, bugun hayotingni oxirgi kuni bo'ladi.

G'ulom qo'li qaltirab yozolmadi.

-Sen ayt, Shunqor yozadi. He, titramay o'!-dedi “Muhtaram”.

Ancha odamni qo'lga olgan ekan. Ichida nafaqat xavfsilikdan, balki prokuratura, ichki ishlar, devon va hukumatdan ham rutbali odamlar bor ekan.

-Hammasini aytdingmi?

-Hammasini...

“Muhtaram” yana uning yoniga kelib, bir tepib, rosa so'kdi.

-Senga nima dedim? Nega hammasini aytmayсан?

-Aytdimku...

-Ukangchi? Ukangni unutdingmi? Ha?!

-U dengizning naryog'ida va bu ishlarga aloqasi yo'q.

-Demak, tugading. Shunqor, buni olib bor va yo'qot! Yo'qolgani haqidagi xabarni keyinchalik tarqatamiz. O'ligi suvdan topilganda!

G'ulomni elkasidan siltab:

-Tur o'rningdan,-dedim.

U masala jiddiyligini angladi va:

-Hammasini aytaman,-dedi.

-Azim elchining huzuriga borgan ekan. Elchi biz aralashmaymiz,-debdi. Shundan keyin ukamni ishga soldik. U o'sha erda hukumat idoralariga kirib chiqdi va rad javobi oldi. Shundan keyin Markazga chiqdim. Ular narxni juda baland qo'yishdi. Vladichni ko'ndirish qiyinligini aytib, 15 tonna so'rashdi.

-Nima bo'ldi? Shuncha oltin kuydi, pufff... uchib ketdi. Sen tvarning kasringga... Endi qaytmaydi!

Ichkarigi xonada kuyovlar kutib turishgan ekan. "Muhtaram" ularni chaqirdi va ro'yxatni berdi. Hammasini uyidan chiqarmanglar. G'ing deganini g'ingillatib qo'yanlar. Shunqor, san mana bu yaramasni ol, erto'laga tiqib qo'y. Ehtiyot bo'lki, uning shotirlari xabar topmasin!

G'ulomning ikki qo'lini orqaga bog'ladim.

-Sen ham hali shu kuyga tushasan,-dedi.-Men ham edim sendek, sen ham bo‘lasan mendek.

Shu payt qo‘llarida avtomat ushlagan bir necha askar uchqich saloniga bostirib kirdi. Ular bizdan emas, begonalar edi.

16. Tobut

Bir soniyada xayolim dunyoning ming ko‘chasiga kirib chiqdi. Atrof o‘rab olingan. Yigitlarim uchqichning atrofida. Qanday qilib bular yorib o‘tdi? Askarlarga qarayman bizga o‘xshamaydi. Qandaydir yarim harbiy yoki qandaydir guruhning mansublari. Bunday paytda juda tez harakat qilishim kerak. Boshqalar bilan ishim yo‘q. “Muhtaram”ni qutqazishim shart. Ko‘z qirim bilan u tomonga qaradim. U esa parvo qilma, degan ishora berdi. Qurollangan kishilar yugurgancha orqa tomonga o‘tishdi. Uchqichning o‘rtasidagi majlis zaliga yurdim. “Muhtaram”ni bekitib turgan bo‘ldim.

-Xabaring yo‘qmi? Bular Boy otaning bollari.

Indamadim.

-Qaytamiz, deb ko‘rsatma berdim. Ular narigi uchqichda edilar. Shunqor, sen bunday narsalardan xabarsiz qolmasliging kerak,-deya Boy ota meni masxara qila boshladi.

-Shunqorga boshqa ishlar buyurgandim, shuning uchun xabari bo‘lmagan,-deya meni oqlagan bo‘ldi “Muhtaram”.

Xullas, yana biz qoladigan ular “Doda” ko‘miladigan joyga qaytib ketadigan bo‘lishdi. Azim ham ular bilan birga havoga ko‘tarildi. Azimni har qanday quduqdan chiqa oladigan odam deyishgandi, ishonmagandim. Haqiqatdan

ham balo ekan. Hamma ishni boshida o‘zi turgan bo‘lsa kerak. Biroq, safdoshlarini sotib, o‘zi qutilib qoldi.

G‘ulomni esa shahar tashqarisidagi maxsus hovliga olib bordim. Bu erda hamma sharoitlar bor. Qattiq qo‘riqlanadi. Internetga kirish uchun Raisdan raqam olish kerak. Hammaga ham bermaydi. Muhim mehmonlari kelgandagina beradi. G‘ulom shukur qilsin, erto‘laga olib borib tiqmadim. Erto‘la xavfsiz emas. Buning yaqinlari, qarindoshlari, tarafdorlari anchagina. Nima bo‘lganda ham uni sog‘-salim saqlashim darkor. Taqdiri nima bo‘lishini “Muhtaram” biladi.

G‘ulomning oyog‘iga qochsa, jiringlab ovoz beradigan va qisib oladigan kishanni taqdik.

-Uch metrgacha bermalol yurib turishingiz mumkin,-dedim.- Mayli televizor ham qo‘yib beraman. Agar o‘zingizni o‘ldirishga urunsangiz... bermalol.. bu sizning haqqingiz. Kutsangiz balki quyoshingiz qaytadan kulib boqishi ham mumkin.

To‘g‘risi shu damda unga rahmim keldi. Kim edi-yu kim bo‘ldi? Shunqor, bu senga ham dars bo‘lsin. Sen eng toza degan joylarda ko‘rayapsanmi nimalar bo‘lmoqda? Jiddiy deb yurgan odamlaring ko‘chaning jalabidan farq qilmaydi. Osongina sotiladi, osongina sotadi. Bularga xalq bir tiyin. Bular artist, sahnada boshqa, parda orqasida boshqa. Xalqni tomoshabin, qarsakchi deb bilishadi.

Televizorni qo‘ydim. Tinmay “Doda” ni maqtashmoqda. O‘lganini e‘lon qilishibdi. Uni avliyoga chiqarib ulgurishibdi. Bittasi betini bez qilib:

“Doda” zilzilani oldindan bilardilar, desa bo‘ladimi? Butun dunyoning olimlari bilolmagan narsani u bilarkan! Tavba!

Yana bittasi:

-Atrofda barcha mamlakatlarda urush bo'layotganda "Doda" bizni tinch saqladi, dunyoning qanchadan qancha rahbarlari uni ustozim deydi. U avliyo edi!-dedi.

Xullas, maddoh zotida na bet, na ket bo'ladi, deganlari to'g'ri ekan.

-Ko'rdingmi, uni xalq qanday sevardi. Senikini hatto tanimaydi ham,-dedi G'ulom ming'irlab.

Indamadim. Chunki xonadagi hamma harakat videoga yozib olinmoqda. Buni u yaxshi biladi va meni to'rga ilintirmoqchi. Unga xayolimda javob qildim:

"Bilasizmi, qadimda bir zolim shoh bo'lgan ekan. Uning davrida daryolarda qon oqar, qamchilardan jon uzilar ekan... U shunchalar zolim ekan-ki, biror kishi ham unga bu qilmishlari yaxshi emasligini aytolmas ekan. Shunday kunlarning birida Hotamtoyning yo'li uning o'lkasiga tushibdi. Xalqning azob uqubatlaridan larzaga tushgan Hotamtoy saroyga qarab yo'l olibdi va shohni odillikka chorlabdi. Shunda shoh:

-Sen xalqimni tanimas ekansan, uning ettidan etmish yashariga qadar meni o'ziga do'st deb biladi. Sen begonasan, seni dushman deb biladi. Ishonmasang, ana Devonbegi bilan xalq huzuriga chiqinglar,-debdi.

Devonbegi va Hotamtoy qaerga borishmasin xalq shohni do'st deya ulug'lab, Hotamtoyni dushman deya haqoratlabdi.

Saroyga qaytishganda Hotamtoy shohga:

-Ular Devonbegidan qo'rqqanlaridan bir narsa deya olmadilar,-debdi.

Shunda shoh:

-Unday bo'lsa, tunda janda kiyib chiqingiz,-debdi.

Yana Devonbegi va Hotamtoy qaerga borishmasin va kimdan so'rashmasin hamma Hotamtoyni la'natlabdi. "Agar u bizga do'st bo'lganda, bizni shunday qiyin sharoitga qo'yarmidi? U begona-da, bizni bilmaydi-da, bizda nima qasdi bor uning?" deyishibdi.

Saroyga qaytishganda shoh yana Hotamtoyni izza qilibdi.

-Bechora xalq, ikki kishidan biri josus bo'lishi mumkin, deb o'ylab, chekayotgan azob-uqubatlaridan so'z ochmadi,-debdi Hotamtoy.

Shunda shoh:

-Bo'lmasa bor, o'zing so'ra, qani nima deyishadi?- debdi.

Hotamtoy ko'chaga chiqsa, hamma undan yuz burib, uzoqroqdan yurar, ba'zilar esa ming'irlab uni so'kishibdi. Buning sababini so'rayman desa, uni toshbo'ron qilishibdi. U qonga belanib yotganda, bir darvesh uning yoniga kelib:

-Ko'rdingmi, kimning dushmani ko'p,-debdi.

Hotamtoy darveshning ovozidan tanibdi. Bu o'sha shoh ekan. Janda kiygan shoh. Xalq zolim shohning ana shunday kezib yurishlarini bilar va yurak oldirib qo'ygan ekan. Sen sig'ingan otang ham xuddi shunday edi..."

Yigitlarga tayinba-tayin qildim va yozib olinayotgan videoyozuvni telefonimga bog'lab qo'ydim. Istagan paytda G'ulomni kuzatishim mumkin. Uning sokinligi meni xavotirga soldi. Nimagadir juda ishonmoqda. Lekin bu joyni uning o'zi va Raisdan boshqa sanoqli odam biladi. Uning bu erga olib kelganimizni taxmin qilisholmaydi. Shunga

qaramay, ochiq telefonda Raisning yordamchisiga sim qoqib:.

-G‘ulom ishdan olindi, unvonlari bekor qilindi va o‘zi “podval”ga tashlandi. Birov u haqda so‘rasa, Raisni yoki meni xabardor qilinglar,-deb qo‘ydim.

Mashinaga chiqsam Zuhra mashinadan tushdi.

-Nima gap?

-Ko‘nglim g‘ash. Bilasiz, u shunchaki oddiy odam emas. Markazga o‘n besh tonna tillo etkazib beradagan kuchga qodir odamning tarafdori ko‘p bo‘ladi. Jinoyat zanjiri ochilib ketmasligi uchun undan qutilishni istaganlar juda ko‘p chiqadi. Hatto Markazning o‘zi ham undan qutilish yo‘lini qidirishi mumkin.

-Gaping to‘g‘ri! Shuning uchun ham bu joyni tanladim. Hech kimning xayoliga kelmaydi.

U o‘ldirilsa, soyasi “Muhtaram”ga tushadi. U tomonda Azimning vaziyatini ko‘rdingiz. Bunday paytda bitta kichik xato ham bizni osmonga uchirib yuboradi.

Zuhraning o‘ylash qobiliyati juda keng. Uncha-buncha erkakdan yaxshi o‘ylaydi va yaxshi xulosa chiqaradi.

-Nima qilamiz unda?-dedim Zuhraga yon berib.

-Menimcha shu erda qolishimiz kerak.

-Quvnoq G‘ulom bilan suhbatlashib o‘tiramizmi?

-Quvnoq xotiningiz turganda-ya?

- Quvnoqligini o‘zidan eshitib, ajablanib qoldim. Sen juda ham jiddiysan!

-Mana shunday qochiriq gaplar qilib o'tirsak, ana uni qochirishmasin...

Qaytib ichkariga kirdik. Qorovul yigitlarni hushyorlikka da'vat qildim. Alohida xonaga kirib, egulik keltirishlarini aytdim. Ko'p olib kelishdi.

-G'ulomga ham beringlar, ochidan o'lib qolmasin,-dedim.

Xudoga shukur ertalabgacha hech narsa bo'lmadi. Saharlab "Muhtaram" telefon qildi.

-Tinchlikmi?-dedi.

Yuragim shuv etdi. Biror kor-hol yuz berdimikan? Lekin bunday paytda o'ylab o'tirishga vaqt bo'lmaydi.

-Tinchlik. G'ulomni hech kim bilmaydigan joyda saqlayapman.

-O'ldirib qo'yma... Uni ochiq sud qilamiz. Bulbulchadek sayratamiz hali. Butun xalqqa ko'rsatamiz uning kimligini, qanaqa qahramonligini... Uni ishonchli odamga topshir, Zuhra ham o'sha erda tursin. O'zing tobutni hozirlashga bor. Jasadni bugunoq yubor, mashinada. Bir kor-hol bo'lmasin, deb shunday qaror qildik. Senga ishondim. Ehtiyot bo'! O'zing soxta tobut bilan birga kelasan. Yaxshilab qo'riqla!

Bir hisobdan ko'mish marosimini kechiktirishgani yaxshi bo'ldi. Tayyorgarlik ko'rish uchun vaqt kerak-da.

"Doda"ni kasalxonalarda aylantirib yurgan yigitlarni topib, topshiriqni berdim. Borguncha viloyatdan viloyatga o'tganda meni xabardor qilasizlar, dedim.

Soxta tobutni hozirlash ham qiyin kechmadi. Uni hukumat kasalxonasining morgiga keltirib qo'ydik.

“Muhtaram” hushyorlikka chaqirganidan, tushundimki qandaydir ma’lumot olishgan. Aks taqdirda jasadni alohida, tobutni alohida olib borishni buyurmasdi.

Shunday deymanu tepadagi maynavozchiliklarni ko‘raverib, xulosa chiqarishga ham qiynalib qolaman, ba’zan. “Muhtaram” xayoliga nima kelsa, shuni qiladigan odam. Hatto xatoligini bilib tursa ham o‘sha hujjatga imzo otadi. Keyinchalik xatoning ortidan katta xatolar kelavergach, bekor qilib, so‘zidan qaytib qo‘yaveradi. ”Doda”ning paytida shunga o‘rganishdi. Har qanday qaror yoki farmonni tayyorlashda ko‘p odamlar qatnashadi. Fikrlar olinadi. Olimlar ko‘rib chiqadilar. Undan keyin “Doda”ga imzoga borganda, u bitta gap bilan orqaga qaytarardi. Shunday hollar bo‘lardiki, oldingi hujjatning mutloq teskarisini yozib kel, desa shuni yozib, hammaga tasdiqlatib, keyin “Doda”ga ko‘rsatishardi. Endi o‘zi uning o‘rnida. Bilmadim, nima bo‘ladi?

-Qo‘nalg‘aga boradigan yo‘lni o‘zgartirmoqchi bo‘ldim. “Beriya” hovliqib keldi va:

-Biz odamlarni shu marshrut bo‘yicha chiqishga hozirladik,- dedi.

-Kimni?

-“Doda” bilan vidolashuvga chiqaman degan xalqni.

-Talabalar emas-mi?- O‘zimni go‘llika urdim.

-Ular ham xalq,-dedi maslahatchi va gapi o‘ziga qo‘pol tuyuldi, shekilli:

-Topshiriq shunday bo‘lgan,- dedi.

Bilaman, “Muhtaram” bunday topshiriq bermagan. U tasodifiy holatdan ham cho‘chib turibdi. Uni shunga ko‘ndirishgan. Maslahatchi yana gap qo‘shdi:

-Xalqimiz juda yaxshi ko‘rardi rahmatlini. Bizga otadek bo‘lib qolgan edilar. Vidolashuvga chiqmasa, odamlar juda norozi bo‘lishadi.

-Gul ham buyurdingizlar-mi?-deya piching qildim. Maslahatchi chin deb o‘yladi:

-Ha, gulchilarni boy qildik. To qo‘nalg‘aga borguncha yo‘llarga to‘shab chiqishadi. Talabalarga ham tarqatiladi. Butun dunyo kuzatadi, axir, bizga baho berishadi. Hozirning o‘zi hammayoqni jurnalistlar bosib ketdi. Qani bular birinchi rahbariga qanday hurmat ko‘rsatishdi, deb o‘ylashlari aniq. Ehhe, kelaman degan rahbarlarning son sanog‘i yo‘q. Yuborilayotgan hamdardlik maktublari xonalarga sig‘may ketayapti...

Bilaman, maktublar qanday yozilishini. Indamadim. Maslahatchi indamaganimdan cho‘chib qoldi va tinmay gapira boshladi.

-Siz ishonmasligingiz mumkin, ammo xalqimiz o‘z otasini yo‘qotgandek qayg‘urmoqda. Qaysi bir xonadonga kirib boring, hammaning ko‘zida yosh, yig‘i-sig‘i. Hurmatli “Muhtaram”ga oson bo‘lmaydi. “Doda”ning yuki juda og‘ir.

Uning bu gapi menga yoqmadi. Qanday jur‘at qildi bu gapni aytishga? Balki bu ham o‘zini sug‘urta qilish uchun yo‘l qidirmoqdami?

Kayfiyatim cho‘kkanday qilib ko‘rsatdim o‘zimni. Maslahatchining qoshi chimirildi. Avzoyi buzildi. Xato qilib qo‘yganini tushundi.

-Aslida “Muhtaram”dan boshqa odam davom ettira olmasdi. Faqat va faqat u kishi bu ishni uddalashi mumkin. Xudoyim, yaxshi odamni berdi bizga. Ana endi rivojlanishni ko‘rasiz. “Muhtaram”ning oyog‘idan olov chaqnaydi. Ko‘rasiz, korruptsiyani ham yo‘qotadilar!

Nima deyapti bu? “Beriya”ning o‘zi ham biladi. Aksar odamlarning qarashlari muqim emas. Inson shunday tuzilganki, uning o‘zi kabi qarashlari ham o‘zgarib turadi. Bunga vaqt, davr, voqealar, tajriba va boshqa omillar sabab bo‘ladi. Manqurtgina bir umr bir zaylda qolishi mumkin. Bular bugun “Doda”ni sevsalar, ertaga “Muhtaram”ni ulug‘laydilar.

Hamma o‘zgarishi mumkin, ammo “Doda” o‘zgarmadi. Buni vaqt ko‘rsatdi. Unda insoniy fitratdan shaytoniy illat kuchlilik qildi. Yurtni korruptsiyaga botirdi.

Bu juda yomon xastalik. Qo‘l bilan ushlanmaydigan va ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan, ammo har qadamda va har lahzada his etish mumkin bo‘lgan illatdir.

Diktatura jamiyatida hamma narsa diktatorga bog‘liq. Chunki butun jilovlar uning qo‘lida bo‘ladi. U istagan odamini yo‘qotishi va istagan ishini qilishi mumkin. Ammo u korruptsiyani yo‘qotishga qodir emas. Chunki uning o‘zi korruptsiyaga, korruptsiyaning timsoliga, korruptsiyaning o‘zagiga aylangan bo‘ladi. Uning korruptsiyaga qarshi o‘t ochishi o‘ziga qarshi o‘t ochishi demakdir.

Korruptsiya diktatorning nafas oluvchi havosi.

“Doda” ikki gapning birida shu haqda gapiradi. “Beriya” yozib bergan, u o‘qigan.

Har nutqida korruptsiya borligini tan olardi va bunga qarshi kurashga bel bog‘laganini aytardi. Lekin korruptsiyaga

qarshi chiqsa, kuni bitishini ham bilardi. Shuning uchun bu borada gapirish mumkin, ammo biror ish qilinmaydi. Uch to'rtta rahbarni qamab turish bu korruptsiyaga qarshi kurash emas.

O'rgimchak uyasi va uning o'rtasidagi o'rgimchakni tasavvur qiling. Bu uyani to'qigan o'rgimchak shu uyaning bandiga aylangan. U mana shu uyada oyog'idan osilib o'ladi, ammo bu uyani buza olmaydi.

“Beriya”ni gapi xayolimni bo'ldi U shunaqangi maqtay boshladiki, hatto “Muhtaram” haqida hozirdanoq kitob yozishga kirishganini ham qistirib ketdi.

Birdan:

-Darvoqe, tabriklayman sizni, katta vazifaga o'tdingiz. Endi har bir odimni siz bilan bamaslahat qilamiz,-dedi.

“Muhtaram” bu odamni yaxshi ko'radi. Uni uzoqlashtirmasligi aniq. Yanada yaqinga oladi. Shuning uchun u bilan dushmanlik qilishning foydasi yo'q. Shunqor, u senga yalingan kabi muomalaga o'tdi. Bitta xatosi uchun uni o'zingga dushman qilmagin.

-“Doda”ni sizdan yaxshi biladigan odam yo'q. “Muhtaram”ning ham hurmati baland sizga. Yaxshi-yaxshi gaplardan yozib bersangiz, ko'rasiz, oxirigacha yonlarida olib yuradilar.

U ustidan qor ko'chgan tog'dek “engil tortdi”. Aslida qor tog' uchun hech narsa, ammo hamma yog'ini ochib ketadi.

Telefon jirinladi. Odamlar, kimdir gapimni gapirayapti, deb quloqlarini qashib qo'yishadi. Qandaydir haqiqat bor bunda. Mana “Muhtaram” haqida gaplashayotgan edik, o'zi sim qoqdi:

-Qaerdan bo'lsa ham "Beriya"ni top va bu erga etkaz,-dedi u.

Tasodifmi bu? Axir maslahatchi yonimda bo'lsa? Shunday holatlar ko'p bo'ladi. Telepatiya deyishadi. Biroq undan ham ta'sirliroq kuch bor atrofimizda, faqat biz uni bilmaymiz.

-Telefoningiz bormi?-deb so'radim "Beriya"dan.

-Bor, ammo shoshilinchda ishxonaga tashlab chiqibman, shoferni yubordim, kelib qolsa kerak?!

Savolni ataylab bergandim. Demak, rostdan ham uni qidirishgan va topisholmagan. Bu esa ikki-uch kechadan beri uxlay olmagan. Soqoli olinmaganidan ham bilinib turibdi.

Shoferi kelishi bilan unga:

-Xo'jangizni uyiga olib boring. Yarim soat vaqt. Yo'lga chiqinglar, sizlarni kutishmoqda,-dedim.

-Yaxshi xabar, xavotir olmang, "Muhtaram"ning sizga maxsis topshiriqlari bor, etib boringlar, omadingizni bersin!-dedim "Beriya"ga.

Uning chehrasi ochildi va yaqinlashib quchoqlab olmoqchi bo'ldi. Elkasiga urib qo'ydim va u jilmayib, mashinaga o'tirib ketdi.

Tayyorgarlikni yana bir tekshirib chiqdim va o'zim ham uyga kirib, biroz dam oldim. So'ng Zuhraning yoniga bordim, u bilan bog'ni aylanib suhbatlashdim:

-Tinchlikmi?-desam:

-Oldingi boshliq bilan hangoma qilib o'tirdik. U ko'p harakat qildi, qo'lga olishga. "Doda"ning kulini ko'kka

sovrishlari va “Muhtaram” buning uchun javobgar bo‘lishni taxmin qilmoqda,-dedi.

-Bu uning taxminimi yoki rejasimi?

-Meni avrashi uchun topgan quruq gapi ham bo‘lishi mumkin.

Unga “Muhtaram”ning gapini eslatdim.

-Demak, shunday reja bor ekan-da. Aytgan bo‘lsa, buni “Muhtaram”ga Azim aytgan. Shunday qilgan bo‘lsa, hayotini qutqazibdi.

-Bu reja fosh bo‘lgan. Oldi olindi ham. Sen bilan soxta tobutni qo‘riqlab boramiz.

-Soxta tobut?

Unga vaziyatni anglatdim.

-G‘ulom “Doda”ning kulini ko‘kka sovrish haqida bir nimalar deyayotgandi. Balki bu ham o‘yinning ichida? Uni yo‘l-po‘lda biror narsa qilishmasin?!

-Kulini ko‘kka sovrursa ham hech narsa o‘zgarmaydi.

Asl gapni Zuhraga aytmadim. “Muhtaram” qo‘rqmoqda, Rais va Salimxon ham. Doktorlar ziyofatni eb, mukofotlarni olib, shaxsiy vrach nima degan bo‘lsa, o‘sha asosida xulosa yozishgan. Qolaversa, “Doda”ning o‘zi yozgan vasiyatnomasi ham o‘rtaga chiqdi. U xotini aytganiga yaqin. Faqat o‘rtada ko‘cha bor. Ya’ni u tayyorlanayotgan joyga emas, balki “meni otamning yoniga emas, otamning qabriga qo‘yinglar”, degan. Otasini shunchalik yaxshi ko‘rganmikan? Yo‘q. Otasi unga yoshligida qanchalik muammo chiqargan bo‘lsa, umrining oxirida ham uni ko‘p o‘ylatdi. Internetga qanchadan-qancha ma’lumot sizib

chiqdi. Balki o'sha gaplarni bosdi-bosdi qilish uchun shunday qarorga kelgan bo'lsa-chi? Agar otasi uni oq qilgan bo'lsa, uning qabriga qo'yinglar, deb vasiyat yozadimi? Har qanday odamni shu o'ylatadi. Lekin otasi yotgan joyni tekislab, kengaytirib bo'lmaydi. U erda onasi va boshqa qarindoshlari ham bor. Katta janjalga aylanishi mumkin. Shuning uchun uning vasiyatini bajarishga qaror qilishgan. Soxta tobut esa tayyorlangan joyga qo'yiladi. Haqiqiy jasad bu kecha ko'miladi. Taxminimni Zuhraga aytsam:

-Bir marta gapirdingiz, boshqa gapirmang. Devorning ham qulog'i bor,-dedi u.

-Bog'damiz-ku? Bu daraxtlarga quloq qo'yilmagan, shekilli? Qolaversa, juda sokin gapirayapmiz. Yozib olinganda ham seni qo'lingga keladi.

-O'zingiz sezayapsizmi, yo'qmi, juda erkinlashib ketayapsiz?

-Erkinroq joyga o'tdim-da, asosiysi yonimda sen bor...

Zuhra xayolga botib qoldi. Shu damda nima deyman unga? Ovunchog'im xayol. Bir narsani tushungandayman. "Muhtaram" meni tansoqchilikka oldi. Ammo maxsus topshiriqlar bo'yicha ishlaydigan, xuddi "Taychi" kabi "kirli ishlar"ni bajarishga olmagan bo'lsin-da. Menimcha shunday. Aks taqdirda u boshqa shaharda va kamina boshqa yoqda yurarmidik?

Ishqilib, olib borgan yigitlar eson-omon qaytishsin. O'zimning yaqin yigitlarimni jo'natibman-a? Hah, Shunqor hali ham xomsan! Agar ularga bir narsa bo'lsa, uzoq vaqt o'zingni kechirolmay yurasan.

Ichkariga kirdik, G'ulom uxlamadi. Uni anglasa bo'ladi. Hayoti ostin-ustun bo'lib ketdi. Cho'qqidagi odam oniydan

yiqilib tushsa, etmish ikki suyagi sinadi, degan gap bor. Uning ahvoli battaroq. Biz-chi? Biz nega uxlay olmadik? Chumchuq uyqu bilan tongga etdik.

Birdan G‘ulomning qahqaha otib kulgani eshitildi. Zuhra bilan o‘sha tomonga otildik.

17. G‘ulomning hujumi

Eshikdan ichkari kirishim bilan boshimga musht tushdi. Bir soniyada aylanib, musht urgan qo‘lni qayirib, orqasiga tizzam bilan tepib yubordim. Yuzi bilan erga yiqildi. Shuncha joni bor ekan, bu qanday qilib katta lavozimga chiqdi? Ko‘zim oyog‘iga tushdi. Oyog‘idagi eletron kishan yo‘q. Atrofga nazar solsam, kishan uyning bir chetida yotibdi. Qanday qilib ochdi? Nahotki, biz qo‘ygan raqamlarni topa oldi? Uni turg‘azib, divanga o‘tqazib qo‘ydim.

-Ko‘rdingmi, Shunqor! Raising ham, kattasi ham sening mana shu xom kallanga ishonadi. Men esa uxlamay, buning sirini echdim.

-Echishga echibsan...

-Sensirama meni,-deya u o‘dag‘aylay boshladi.

-Meni sensirash mumkin, bizga sizni sensirash mumkin emasmi? Hurmatingizni qilib turgandim. Ammo g‘irt kallavaram ekansan. Oyog‘ingdagini echibsan, men kirganda boshimga o‘sha bilan urmaysanmi? O‘shanda seni hali aqlini yo‘qotmabdi, deb o‘ylardim.

-Senga rahm qildim... Mayli, sensiraganimga xafa bo‘lma. Ishxonada hammani sensirashimni bilarding. Siz-piz deb o‘tirishga toqatim yo‘q edi. Siz deyishga tilim aylanmaydi, ko‘nglingga olma.

Uning kallasi g'ovlab ketgan va bir qancha rajalarni tuzganga o'xshaydi. Aks taqdirda ham tepki eb, ham yalaqilik qilmasdi.

-Kodni topgan odam qahqaha urib kuladi-mi?-dedim yumshoq ohangda.

-Seni ustingdan kuldim,-dedi u, xayolimni uqib turgandek, manziratdan masxara qilishga o'tib. Jahlim chiqdi:

-Endi navbat menga. Qahqahangni eshitganlar bor. Mana Zuhra ham shu erda. U ham guvoh. Aqldan ozibsan. Joying jinnixonada. Hozir chaqiramiz, endi oyog'ingga elektron kishan qo'ymaymiz, oppoq xalatga o'ranib yotasan!-dedim keskin ohangda. Sensirashim uni sergak torttirdi.

Zuhraga qayrilib:

-Telefon qil, jinnixonaga olib borish uchun mashina yuborishsin,-dedim.

Zuhra "xo'p" deb eshikdan chiqayotgandi:

-Zuhra, to'xta,-dedi G'ulom.- Agar yomon niyatim bo'lganda, Shunqorning o'zi aytgan kabi boshidan darcha ochgan bo'lardim. Ataylabdan kuldim va kelishlaringizni bilardim. Hamkorlik taklif qilmoqchiman.

-Kimga? Bizga-mi?

-Sanlar bilan nimani hamkorlik qilaman. Oyoqqa kishan taqish-taqmasliknimi?-U yana masxaraomuz tirjaydi.

-Ha, kim bilan hamkorlik qilmoqchisan? Vladich bilanmi? Otang bo'ladimi u, senga quloq solsin?

-Sensirashni bas qil! "Shum" bilan hamkorlik qilmoqchiman. Borib ayt unga.

Buyruq beradigan holda emassiz? Hatto savol berishga ham haqqingiz yo‘q. Siz tog‘dan quladingiz, xuddi orqasiga sochma o‘q egan kaklikdek.

G‘ulomning kaklik oviga chiqishini bilardim. U tog‘ni tepasiga chiqib, sochma o‘q otib, kaklik ovlashi haqida eshitgandim. Ayniqsa qishda bu ish oson. Kaklik jonivor boshini qorga tiqib, orqasini osmonga “tirab” yotadi. Gapim uning nozik hislarini titratib ketdi, shekilli.

-Men jiddiy aytayapman. “Shum”ning hayoti xavf ostida, sanoqli soatlari bor!

-Hamma ham qafasga tushganda chiqish uchun bahona izlaydi.-Birinchidan, u “Shum” emas, “Muhtaram”. Ikkinchidan, u siz bilan gaplashmaydi. Taqdiringizni menga topshirdi.

Uni sizlaganim uchun G‘ulom “usul”ni angladi. Kimnidir sindirish zarur bo‘lsa, hurmatini joyiga qo‘yib, iloji boricha do‘stlashib, kallasidagi quduq kovlanadi. Biroq G‘ulom hech qachon bu usulga rioya qilmagan. Qarshisidagi gumondorning boshiga xalta kiygizib, tepishni yaxshi ko‘rgan. U qo‘llagan qiynoq usullari dunyoning boshqa joylarida odamning xayoliga ham kelmasa kerak. U bir amaldorni sindirish uchun uning qiziga kelishgan, xushbichim yigitni tiqishtirgan. Qiz “tegaman”, yigit “olaman” bo‘lgan paytlari hamma holatni magnit lentasiga yozgan. Keyin tergovda otasiga ko‘rsatgan. U yuragini g‘ijimlab yiqilgan. Yarim tunda olib borib ko‘mishgan. Ma‘lum bo‘lishicha, o‘sha amaldorning aybi yo‘q ekan. Hamma ishni vazir bajarib, o‘rinbosarini aybdor qilishgan. Gap -so‘z ko‘paymasin, deb o‘n gulidan bir guli ochilmagan qizni ham yo‘qotgan. Rais hujjatlarni to‘plab, “Doda”ga olib borganda:

-Buni G‘ulomga topshir, tekshirib chiqsin,-deb hatto gap nimadaligini ham oxirigacha so‘ramagan. Shundan keyin Rais va G‘ulom ikki itga aylandi. Bir-biirni ko‘rganda tishini g‘ichirlatadigan darajaga etishdi. Xayolga botganimni ko‘rgan G‘ulom:

-Bizning ishda xayolparastlik mag‘lubiyatning belgisidir,-dedi.

-Sizning ishingiz qoldimi?

-Raisingga ko‘p orqa qilma. Hamma yoqni rasvo qilgan o‘sha.

-Agar “tuz”ingiz Rais bo‘lsa, “Muhtaram”ni bu qiziqtirmaydi.

-Rostdan shunday deb o‘ylaysanmi? Uning xorijdagi mulk adreslarini bilishni istamaydimi? Qaysi mamlakatda qancha tillasi borligini ham bilishni xohlamaydimi? Adreslari va raqamlarigacha bor. Qo‘lyozmalar insitutidan yo‘qolgan Quronnining dunyodagi noyob nusxasi qaerga yo‘qolganini mendan boshqa hech kim bilmaydi. Milliy Universitetdan ham ming yillik qo‘lyozmalarni u xorijdagi uyiga jo‘natgan. Boshlig‘ing edi. Sen ham... ha, kel, yosh bolaga o‘xshab arazchi ekansan, sizlay qolayin, hammasidan xabaringiz bor ukam! Agar ochilib qolsa, boshingiz dorda. Ko‘plarini o‘zingiz tashigan bo‘lishingiz mumkin-da?

-Meni shantaj qilmoqchimisiz?

-Ha, yo‘q, men ne-ne dindorlarni sindirganman. Muxolifatman deganlarini odam bo‘lganiga pushaymon qildirganman. Nechtasini narigi dunyoga jo‘natganimni ham bilasan. Sen bilan ishim yo‘q. Sen piyodasan, uka. Gunohsiz “peshka.” Bajar, dedimi, bajargansan! O‘rningda men bo‘lsam ham shunday qilardim.

-Yangi “taktika” qo‘llayapsiz. Agar siz aytgan ishda qo‘lim bo‘lsa, demak sizning hayotingizga nuqta qo‘yishim kerak. Mantiq ko‘rmayapman.

U menga tikilib qoldi. Ko‘z urishtirmoqchi, shekilli, dedimda, nigohimni uning ko‘ziga qadadim. U chiday olmadi va suhbatda davom etdi:

-Men esa mantiq ko‘rayapman. “Muhtaram” senga buning bir dona ham sochi to‘kilmasin degan. Buni tushunmaydigan darajada axmoq emasman. Aks taqdirda bu joyda saqlamas eding. Allaqachon gum qilarding!

-Xo‘p, siz aytgan kabi bo‘lsin. Lekin “Muhtaram” eshitishni istmasa-chi? Ko‘rdingiz sizga qanday “hurmat” ko‘rsatdi.

-Bizning ishda bugun tog‘dasan, ertaga g‘orda. Hammasiga tayyor bo‘lish kerak. G‘ordan chiqib, yana qoyaga ko‘tarilish uchun qurolingni hozirlab qo‘yishing lozim. Bugun hurmat qilmasa, ertaga tushunadi. Bir og‘iz gapi bilan suv o‘zaniga qaytadi. U men bilan uchrashmasa va odamga o‘xshab gaplashmasa, o‘zi biladi, mening ahvolimga tushadi. Soatlar qoldi. Butun oilasi tuzoqda. Ularning bugungacha qilgan ishlari videoga olinganini sen bilmasang, ana Zuhra biladi. Nusxasini unga tashlab qo‘yganman. Bor va kattanga ayt, Xitoy otlarining sirini ham, videolarni ham tashqariga chiqarganman. Agar menga bir gap bo‘lsa, hammasi internetda paydo bo‘ladi. Qudasi haqidagi hujjatlar butun dunyoning diqqatini tortadi. O‘zi haqida ham dalillar etarli. Uning dalada sigirni otaman, deb bir bolani otib qo‘ygani ham videoga tushgan. O‘sha bolaning ota-onasi qaerda hozir, bilasanmi? Bilmasang, borib surishtir. Qani, topa olasanmi?

-Shumi hammasi?-dedim xuddi aytganlari diqqatimni tortmagandek ko‘rsatib.

-Yo‘q, bu xamir uchidan patir. Bilasan, narkotrafikni men nazorat qilganman. Keladigan daromad faqat menda qoldi deb o‘ylaysanmi? Sen bir paytlar kattalarning xonimchalariga tarqatgan pulning ildizini qaerda deb o‘ylaysan?

-Bu gaplar bilan hech narsaga erisha olmaysiz. “Muhtaram”ga qizig‘i yo‘q. U sizni qamoqqa tiqib qo‘yadi. Olam guliston! Bir umr qamoqda yotasiz va ma‘lumotlaringiz ham o‘zingiz bilan birga gum bo‘ladi.

-Gum bo‘lmaydiganlari bor. Salimxon bilan munosabatlari. “Muhataam”ingga eslat! Menda uning Salimxonga berib turgan pullarining raqamlarigacha bor. Beva xolangga berganlarini ham eslatib qo‘y. Istasa, hamma videolardan bir nusxadan beraman.

Har qanday odam bir maqsadni ko‘zlasa, hamma qartasini o‘rtaga to‘kmaydi. Buning biladigan boshqa narsasi bor. “Muhtaram” bilan yuzma-yuz gaplashsa, bozorlik chun malzama deb saqlamoqda. Nima ekan u? Oldingining ham shunday qorong‘u dunyosi bor edi. Tarjima holidan boshlab, Markazga ishlaganiga qadar. Bu Xitoy otlarining siri deganiga qaraganda, u ham ahamiyatli emasga o‘xshaydi. Balki bu bilmas, bilganda og‘zining bir chetidan osongina chiqmasdi bu gap. Nimasi bor buning? Nega bu qadar xotirjam. Boyagi masalalarda uni chuqurroq kovlashtirsam bo‘ladi, ammo Zuhra borligi xalaqit qilmoqda. Bu mening ham qilmishlarimni ataylabdan aytishi mumkin va Zuhraning oldida mulzam bo‘lib qolaman. Demak, gapni ko‘p cho‘zmasdan Zuhraga javob berishim va keyin bu bilan gaplashishim kerak.

Elektron kishanni qaytadan raqamlab, G‘ulomning oyog‘iga taqdim va tashqariga chiqdim.

-Nima qilamiz?-dedim Zuhraga.

-Uning biladigani ko'p. Hozir aytganlari ham to'g'ri. Videolar arxivda turibdi,-dedi Zuhra.

-Raisning xabari bormi?

-Hammasini biladi.

-Nega unda yo'qotmadingizlar?

-Raisni bilmaysizmi, o'zidan keyin daryo toshib ketishini istaydi. Hamma yoq ag'dar-to'ntar bo'lishini xohlaydi. "Barini asraysan ve hech kim bilmasin", degan.

-Endi men ko'rsam bo'ladimi?

-Ruxsat olsangiz bo'ladi.

-Kimdan?

Zuhra bir zum o'ylanib turdida:

-Kimdan bo'lardi, kaminadan-da,-dedi jilmayib.

-Hozircha ularning qizig'i yo'q. Bularning bari yomon. Hammasining qo'li qonga botgan. Yomonlar to'dasidan bundayrog'ini qidirsang, "Muhtaram" bo'lib chiqadi. G'ulomning o'zi hech kimni o'ldirmaganmi? Qulog'imga chalinganlari qancha. Menga arxivdan u haqdagi narsalarni topib kelsang, uni yaxshilab so'roq qilishimiz va kerak bo'lsa "Muhtaram"ga hisob berishimiz lozim.

Zuhra ketdi. G'ulom o'tirgan xonaga kirdim.

-Ha bezovta bo'lib qoldingmi? Xonimchani jo'natib yubordingmi? Guvohning keragi yo'q! Hali senga etib kelmadim. Seni ham tarixingni bilaman. Oxirgisini aytayinmi, kimga somsa edirib o'ldirganingni

bilmaymanmi? Begunoh odam edi? Raisning oddiy taxmini bilan o‘lib ketdi. Rais seni aldadi. Vatan dedi, millat dedi, mamlakat dedi. Shundaymi? Uning vatani bormi? Bor. Uning vatani pul! Uning millati ham pul! Uning mamlakati ham, imoni ham, vijdoni ham kirli pul! Pul bo‘lganda ham yo ko‘kidan yoki sarig‘idan? Bilasanmi, unda sarig‘idan qancha bor?

-Siz bu gaplarni kamera borligi uchun o‘zingizdan to‘qiyapsiz,-dedim unga.

-Bu kameraning videosi seni qo‘lingga tushishini bilmaymanmi? Balki, allaqachon almashtirib ham kelgandirsan. Magnit lentasi cho‘ntagingda turgan bo‘lishi ham mumkin.

-Xo‘p, shunday ham deylik. “Muhtaramdan bularning evasiga nima istaysiz?

-Nima bo‘lardi? Hayotimni.

-Hayotingiz narxi shu qadar xolosmi? Aytganlaringiz evaziga chumchuqning jonini ham qutqara olmaysiz. Hayotingizni saqlash uchun kattaroq ro‘kach kerak. Sizni yo‘qotish menga topshirilgan, ammo sakkiz kundan keyin.

-Nega sakkiz kun?

-O‘sha kun “Muhtaram” tantanali marosimda vazifani qabul qilib oladi. O‘shangacha bu erda yashab turamiz. Keyin... mayli yaxshilik mendan. O‘zingiz qay shaklda istasangiz, o‘shanday qilib bajaraman. Suvga oqiz desangiz, suvga. Somsa eyman desangiz, u ham qiyin emas. Xullas, orzuingizni o‘ylab qo‘ying. Men askarman. Topshiriqni bajaraman. Siz bo‘lsangiz ham shunday qilardingiz, to‘g‘rimi?

-Yo‘q, unday qilmasdim. O‘z rahbarimning kelajagini ham o‘ylagan bo‘lardim. Meni to‘qqizinchi kun o‘ldirsang, o‘ninchida rahbaringdan ayrilasan!

Gapidan mantiq topa olmadim. Mana hozir ham u o‘rtada yo‘q. To‘qqizinchida o‘lgan taqdirda ham kim xabar topardi?

-Shunqor bekorchi xayollarga berilayapsan? Men o‘sha la‘nati yulduzni bekorga olgan edim-mi?. Generallikni-chi? Qolaversa, juda yaxshi bilasan, idoraning asosiy qismi menga ishlaydi. Mening bolalarim. Sen o‘tgan idorada ham ko‘pchiligi mening bolalarim. Ularni o‘zim etishtirganman. Hozir hammasi meni qidirmoqda. Ko‘cha bolalari-chi? Ular ham xizmatimda. Ko‘r-ko‘rona ish qilmayman. Hammasi rejalangan. “A” plan ishlamasa, “B” planim bor.

Xuddi hech narsa bo‘lmagandek bamaylixtir gapirayotgan G‘ulomni savolga tutdim:

-“V” ham bormi?

-Bor, bu “Muhtaram” bilan uchrashuv va hayotimni saqlab qolish.

-“A” planchi? Nima edi?

-Ishlamadi.

-“B” ?

-Mana “B”ni boshladik. Qo‘nalg‘aga Zuhraning gapiga kirib boraverdim-mi? Bilardim, juda katta hodisa borligini. Lekin Markaz bunchalik osonga sotganini, Azim darhol tiz cho‘kishini xayolga keltirmagandim. Boy ota ham o‘yin qildi. Uni tushunaman. Senga ochig‘ini aytaman. Yigitlarim bu erni topib kelishdi. Ishonmasang, eshik og‘alaridan so‘ragin. Oyog‘imni ham ochgan ular. Sen va Zuhrani

o'ldirishimiz va ketishimiz mumkin edi. Bunday qilmadim. Qaerga ketaman!? Chet elgami? "Muhtaram"ga va Raisga bu juda asqotadi. Meni xoin deb e'lon qilishadi. Tuhmatchi, vatanga tosh otuvchi, xiyonatkor... va hokazo va hokazo. U yoqda ham tinch yura olmayman. Meni ushlashadi va senlarga sotishadi. Qo'limda esa hayotimni qaytib oladigan qurolim bor.

-Nima ekan u?

-Sen bilan ertak aytib o'tirishga vaqt yo'q. Bu erdan hech qaerga ketmayman. Bor, "Muhtaram" bilan gaplash. "Doda"ning so'nggi soatlari yozilgan video ham menda. Uni tashqariga chiqarganman. "Muhtaram" hayotimni qaytib bersa, aytaman, borib olib kelasan barini. Senga yolg'on gapirayotganim yo'q. Zuhraga ayt, to'rtinchi seyfni ochsin. Nusxasi o'sha erda. "Muhtaram"ga ko'rsat. Hammasi immijimmida bo'ladi.

-U baribir sizni kechirmaydi.

-Kechirmasin, ammo hayotimni qaytib bersin. Mayli sud qilsin, qamasin, ammo tirik qolishim kerak. Vaqt o'tishi bilan "Muhtaram" yumshaydi.

Uning yonida Zuhraga telefon qildim, va to'rtinchi seyfdagi kasetalardan G'ulom aytganini olib kelishini so'radim.

-Mana bu boshqa gap. Endi jiddiy ishga o'tdik. U holda Zuhraga ayt, mening xonamdagi seyfda ham bitta fleshka bor, uni ham olib kelsin. U sen haqqingda, sening odimlaring haqida, o'zinga hadya qilaman. Otam deganing Raisning senga qarshi qilgan jinoyatini ko'rsataman.

Indamadim. U mot qilmoqchi meni, deb o'yladim.

-Gaplarimga ishonmayapsanmi? Bor qorovul bilan gaplashib kel!

Tashqariga chiqdim. Shuncha vaqtdan beri nafas ololmay qolgan kishidek chuqur nafas oldim. Xuddi alvastining qo‘yniga tushib qoldimu u meni avramoqda. Qorovulga:

-Kecha sizlarga tayinba tayin qilgan edim, nega begonalarini kiritdingizlar?

-Oka, begona kelgan emas, “Doda”ning bosh soqchilaridan biri keldi. “G‘ing” desang, Shunqor bilan birga o‘lasan,- dedi. Unga bo‘y sunmasdan jonimiz nechta. U bevosita rahbarimiz bo‘ladi.

Bu davlat emas, devonaxona ekan! Nahotki, shu darajada laqillatishdi seni, Shunqor? O‘zingni aqilli deb yurgandig-ku? Endi nima qilasan? G‘ulomning senga qanday hadyalari bor? Uni boshqa joyga ko‘chirasanmi? Eng xavfsiz joyda qovun tushirdin-ku? Boshqa joyda nima qilarding. Ular seni kuzatishgan va sezmagansan. O‘l bu kuningdan, galvars! Qopqonga tushding! Qochib chiqaman desang, “paq” etadi va tamom. Qopqonning ichida qachongacha turasan? Yo‘lini top, Shunqor! Bitta yo‘li bor, G‘ulomni “Muhtaram” bilan yuzma-yuz uchrashtirish. Aks taqdirda boshimiz g‘avg‘odan chiqmaydi. Yo‘q, G‘ulomning birinchi hujumidan keyinoq, mot bo‘ldingmi? Kutish kerak. Bunday paytda shoshmaslik oltin qoida! Sabr, sabr deyishadiku? Sabr mana shunday paytda kerak, Shunqor!

Zuhra keldi, avzoyi buzuq.

-Sizga berganini ko‘rmang! Iltimos,-dedi u yalinib. Keyin bo‘ynimga osilib yig‘ladi.

-Iltimos, iltimos, uni ko‘rmang!

-G‘ulomning ishonchiga kirishimiz zarur. Unda haqiqatdan ham ko‘p narsa bor! Hammasini olish haqida o‘ylashimiz darkor...

Zuhra gapirayapti, ammo mening xayolim fleshkada. Unda nima bor ekan? Balki, G‘ulomga berishdan oldin, o‘zim ko‘rsammikan?

-G‘ulomga berishdan oldin ko‘rib chiqaman, keyin u bilan gaplashaman,-dedim Zuhraga.

-Unday qilmang. So‘ng hech narsaga erisha olmaymiz. Hozir nima bo‘lsa ham uning ishonchini qozonishimiz zarur. Haqiqatdan ham, juda ko‘p odam unga ishlayapti. Chiqishimdan qaytishimchaga kuzatishdi. Ochiqdan ochiq kuzatishdi. Hatto:

-Buni akaga etkazing, qon bosimlari bor, dorilari,-deb bezbetlarcha mana bularni berib ham yuborishdi.

Shunchalar kuchlimi bu? Davlat ichida davlat qurganmi? Bunga qanday erishgan? Nega Rais oldini olmagan? Eshitardim ba’zi gaplarni, ammo bunchalikka borganini taxmin ham qilmagandim.

Zuhra keltirgan narsalarni G‘ulomga berdim.

-Mana endi hamkorligimiz boshlandi. Shunqor, sen chiq va mana bu fleshkadagi yozuvlarni ko‘r, keyin gaplashamiz sen bilan,-dedi G‘ulom mamnun qiyofada.

Zuhraga qaradim. Ko‘zida yosh g‘iltillayapti. Boshi bilan yo‘q ishorasini qildi. E’tibor qilmadim va fleshkani olib, tashqariga chiqdim. Yuragimning urishi avval ko‘kragimda eshitildi, keyin quloqlarimga ko‘chdi. Zuhra yugurib keldi orqamdan:

-Ko‘rmang, men o‘zim aytib beraman.

-Bu sen bilan bog‘liqmi?

-Qaniydi, men bilan bog‘liq bo‘lganda. Bu siz bilan... o‘zingizni qo‘lga oling. Menga so‘z bering! O‘zimni ushlashga qodirman, deb so‘z bering!

-Nima balo edi bu, nega buncha yalinayapsan?

-Men ham bilmas edim. Bugun bildim. Kelguncha, yig‘lab keldim. Bu sizni “portlatib” yuboradi. O‘zingizni biror narsa qilmasangiz, bas! Balki, bilganingiz yaxshidir?!

Fleshkani telefonga bog‘layman deganda sezdimki, qo‘lim qaltirayapti? Ko‘rmasdan turib, shuncha titroqqa tushding, Shunqor, ko‘rgach nima qilasan?

18. Vatan

Fleshkani ishlataman deb turganimda Zuhra kelib qo‘limni ushladi:

-U sizni sindirmoqchi, o‘zining yo‘liga solmoqchi! U tulki! Odamni garangsitib, boshqarishni biladi. Buning uchun har narsani tayyorlashini va odamni qanday “jinni” qilib qo‘yishini bilmasangiz, mana men bilaman. Kerak bo‘lsa, tovushni ham o‘xshata oladigan eng so‘nggi qurilmani sotib olgan. Suratingizni ham uydiradi. Mana bu erda eski “quloqlar”, g‘arib usullarda magnit lentasiga yoziladi. Ammo G‘ulomning qo‘l ostida Isroil va Xitoyda yaratilgan eng noyob texnologiya bor.

Zuhra to‘g‘ri aytayapti. Bu erdagi va boshqa qarorgohlarimizdagi uskunalarni yangilash uchun ko‘p murojaat bo‘lgan. Tepadan qop-qop pul tushgan. Bir emas, o‘n marta. Lekin yangilanmaydi. Rais esa buni boshqacha izohlaydi. “Bugun texnologiya ilgarilab ketdi. Hamma

yangisining ketidan quvmoqda. Eskisi mustahkam va qo‘lga kiritish uchun urinib ham ko‘rishmaydi”, deydi.

Bu kesak bilan tankka qarshi chiqishga o‘xshaydi, desangiz, Rais “atrofga qara, eng kuchli davlatlarni dronlardan ko‘ra, yakka xudkushlar qo‘rqitadi”, deydi. Magnit tasmalar qalashib yotibdi, uni eshitaman degan quloq yo‘q. Faqat kerak bo‘lgandagina haftalab qidirib, topilgan joyini fleshkaga o‘tkazishadi. Eh, “dam-dam”, namuncha “hardam” bo‘lib qolding! Hozir shu haqda o‘ylaydigan vaqtmi?

To‘xta, Zuhra nega bu qadar qarshilik qilmoqda? Aytgan gapida jon bor. G‘ulom meni sindirmoqchi bo‘lsa-chi? Mening qo‘lim bilan ish bajarmoqchidir balki? Tulkining tullagi bu!

-Avval mana buni eshitib ko‘ring, balki videoni ko‘rishga hojat ham qolmaydi,-deb Zuhra xayolimni buzdi.

-Bu nima?

-Bu doda o‘ldirilgan oqshomda Rais va G‘ulom orasidagi tortishuv.

Eshita boshladim. G‘ulom jahl bilan Raisga yuzlangan.

“-Nima qilayapsizlar? Markaz biladimi? Bu topshiriqni Markazdan olib keldingizmi? Nega meni chetladilaringiz? Axir birinchi o‘rinbosaringiz bo‘laman-ku? Nega “Doda”ni o‘ldirishga buyruq berdingiz?

-Agar sizga aytilmagan bo‘lsa, demak bilishingiz kerak emas. Gapingizni o‘ylab gapiring, hech qanaqa buyruq berilgan emas!

- Unda sizlar davlat to‘ntarishi qildingizlar...

-Davlat degani bir kishi emas! Bir kishini to‘ntarsa, davlat to‘ntarishi bo‘ladimi? “Doda”ngiz hammayoqni tiqqan joyiga tiqqandi. Davlat titilib ketdi-ku! Siz o‘zingizcha har qanaqa xulosa qilavermang!

-Agar xulosa qiladigan bo‘lsam, bu jinoyat uchun hammalaringni hoziroq qamoqqa olishim kerak edi.

-O‘pkangizni bosing,uka! Birovni qamaydigan bo‘lsa, mana men qamayman! Istasam, hoziroq sizni erto‘laga tushiraman.

-Oh-ho, ishtahangiz katta-ku! Vakolatlarimiz deyarli teng ekanligini bilasiz-ku! Qolaversa, mening qahramonligim, vatan uchun fidoyiligim o‘rtada.

-Vatan uchunmish? O‘sha qahramonlikni sizga kim olib bergan?

-Har holda siz emassiz! Qarshilik qilganingizni “Doda” menga aytmagan deb uylaysizmi?

-Aytganmi, aytmaganmi, u endi yo‘q, ammo “Oltin Yulduz” uchun tavsiya hujjatda mening imzoyim turibdi! Kerak bo‘lsa hozir ham qaytib olishim mumkin.

-Kuchingiz et sa, qaytib olasiz! Hozir mana shu erning o‘zida sizni bir yoqlama qilishim mumkin.

-Bu so‘zlaringiz uchun javob berishingni bilasizmi? Suhbatni yozib olayapman. Siz bilan gaplashishning boshqa yo‘li yo‘q!

-Men ham yozib olayapman! Sizni o‘ldiraman demadim, istasam o‘ldirishim mumkin, dedim. Sizni sudga olib chiqaman va butun jinoyatlaringizni ochib tashlayman!

-Uka, shoshqaloqlik qilayapsiz. Sizning qilmishlaringiz oldida mening xatolarim ummondan zarra! Sizning narkobaronlar bilan qilib yurgan hunarlaringizni bilmaydi, deb uylaysizmi? Tergov boshqarmasidagi jallodingiz orqali qancha guyohvand moddalarni shimolga qarab surganingizdan xabardor emasmizmi?

-U ishda sizning ham qo‘lingiz bor! Naqd pullar qaerdan keldi va qaerga ketdi? Ulushingizni olmadingizmi? Boltiq bo‘yidagi koshonalarni meni tog‘am sotib olib berdimi? Markazdagi eng qimmatbaho manzillardan olgan uylaringizchi? Hojatxonasigacha oltindan. Komunistlar dohiysi Lenin xalqqa va‘da qilgan oltin hojatxonadan sizda yigirma ettitasi bor.

-Hali hojatxona ham sanab yuribman deng?

-Xorijiy banklarda saqlanayotgan boyliklaringiz kod raqamlarini ham aytib berayinmi? Hammasiga “76816” degan pin raqami qo‘yganingizni ham bilamiz. Etmish olti yoshda, sakkizinchi oy, o‘n oltinchi yil... Tasodifmi bu? Xudodan so‘raganmisiz buni? Juda mos! Nahotki buni 10 yil oldindan rejalagansiz?

-Uka, siz chekist emas, ertakchi amaki bo‘libsiz. Bu hikoyalaringizni bolalarga borib aytib bering, balki kulishar? Yaxshiroq o‘ylab ko‘ring, u raqamlarda boshqa gap bor!

-Dodani aldab, necha ming gunohsiz odamlarni qamoqqa tiqdingiz! Buni ham bolalarga aytayinmi? Bo‘ji kelayapti, deb sizning nomingiz bilan qo‘rqitayinmi?

-Hey hey, hamma qilmishlaringizni menga to‘nkayapsizmi? Tergov boshqarmasi kimning qo‘lida? Qiynoqqa solish guruhini tuzgan men-mi? “Doda”ga dindorlar hamma yoqdan o‘rab oldi, Rais sizdan yashirayapti, deganingizni

bilmaymanmi? Muxolifatchilarning uyini kim yondirdi? Kim ularni qamadi, qiynoqqa tutdi, go‘rga tiqdi, qarindoshlarini quvg‘inga oldi? Hatto xorijga borib bir qancha yurtdoshimizni ottirgan menmi? Qo‘shni mamlakatdagi jurnalist yigitni men ottirdimmi? Markazdagi o‘zimizning uch-to‘rtta ishbilarmonni men gum qildimmi? Bitta imomni otish uchun millionlarni sarflab, shu ishni ham oxiriga etkazolmagan menmi?

-O‘zingizni farishta qilib ko‘rsatmang, Rais! “Doda”ning qizi haqidagi mashmashalarni internetga sizdirib, qizini qamoqqa tiqqan siz emasmi? Uning o‘g‘irlagan pullarini xorijga men chiqargandimmi? Odamda ozgina vijdon bo‘lishi kerak! Unga ko‘plab mamlakatlardan koshonalar olib berganingizni unutdingizmi? U zargarlik bilan shug‘ullanaman desa, tonnalab oltinni tashitgan siz emasmi? Esingizdan chiqdimi, tikuchar voqeasi? O‘sha oltinlar Markazda qolib ketdi!

-Men “Doda”ning qizini boy qilibman, sizchi? Hamma qarindosh-urug‘ingizni idoraga tiqdingiz! Hatto ukangizni ham!

-Ukam haqida gapirmang! U toza yigit. Shuning uchun ham “Doda” uni chet elga ishga yubordi.

-Ha, shuni aytayapman men ham. Ukangiz juda-a “toza odam”. Diplomatik yo‘l bilan nimalarni qaerga tashiganini aytib berayinmi? Ummonning naryog‘ida sizga atab daryo bo‘yida qurgan uy-joylarni sanab berayinmi? Boyliklarini qaysi kampirning hovlisiga yashirib qo‘yganingizni ham bilmaydi, deb uylaysizmi?

-Meni ukam yiqqan bo‘lsa, sizni o‘g‘lingiz yig‘di. Davlatni himoya qilish o‘rniga sotdingiz! Boshqalarni vatan xoini

deyishni yaxshi ko‘rasiz, ammo vatanga eng katta xiyonatni siz qildingiz!

-Siz ham o‘sha xoinlardan bittasi! Ko‘p ham og‘zingizga erk bermang! Boshingizda qora bulutlar aylanmoqda.

-Ko‘ramiz, Xudo xohlasa, pagoningizni yulib, peshanangizga yopishtirib qo‘yadigan kunlar yaqin! “Doda”ni o‘ldirib, hayotingizni eng katta xatosini qildingiz! “Doda” uch marta ishdan olganda ham siz uni qayta tiklashga muvaffaq bo‘ldingiz, endi uni “Doda”ning o‘rniga chiqarishga urinaysiz.

-Ha, siz har dom kompromat to‘plab, uni chohga qulataman dedingiz. “Doda”ngiz sizga ishondi. Ammo vaqtincha. Balki bir necha soatga, xolos. Oraga men qo‘shilganimdan keyin siz farzindan piyodaga aylanib qolaverdingiz. Butun alamingiz shunda!

-Hayotingiz oxiriga kelib qolgan bo‘lsa ham, o‘tirgan joyingizda o‘tirib qoladigan bo‘lsangiz ham, ko‘zingiz och, qonga to‘ymagan qotilsiz! Sizga xalq mamlakat, vatan degan tushunchalar yiroq. Chekistning vatani bo‘lmaydi, u sotib ketaverishi mumkin, degan gap sizga qarata aytilgan.

-Juda kulgili eshitilar ekan! G‘ulom, sizni g‘ulomlikdan shu darajaga ko‘targan kim? Qul o‘z xo‘jasiga isyon qiladigan kun keldimi? Gaplaringiz “serial killer”ning maqtanishiga o‘xshayapti. “Doda”ga yoqmagan odamlarni oilasi, bolalari bilan birga yo‘qotganingizni unutdingizmi, uka?

-Menku “Doda”ning dushmanini yo‘qotibman, siz esa o‘z yaqinlaringiz oilasini yo‘qotishdan huzur olasiz! O‘g‘lim deb yoningizda olib yurganingiz Shunqor bilib qolsa bormi, kallangizni uchirib, shafaqqa mixlab qo‘yadi!

-Ha, Shunqorni o'g'limdek yaxshi ko'raman. Nima qilgan bo'lsam, uning kelajagini uylab qildim! Uning o'tmishi toza bo'lsin, dedim. U hali sizdan ham, mendan ham yuqori lavozimlarga ko'tariladi. Shunga loyiqdir!

-Shuning uchun ajrashgan xotini va bolalarini yo'qotish uchun odam yubordingizmi?

-Ha, u allaqachon ajrashgan, lekin xotini uni o'z holiga qo'ymayotgan edi. Men uni bu tashvishlardan qutqazish uchun yo'lini tozaladim va o'ziga mos bo'lgan qizga uylantirmoqchiman...

-Videosini ko'rdingizmi? Ana u ko'kragingizdagi bir parcha go'sht qanday bardosh berdi?

-Ko'rmadim. Ammo siz videoga olishingizni va Shunqorga etkazishingizni taxmin qila bilaman. Shuning uchun ham bu ishni sizga yaqin bo'lgan odamlarga buyurdim. Bugun kimning kimligini aniqlaydigan kun, axir!"

Davomini eshita olmadim. Ko'zim qonga to'ldi. Miyam alg'ov-dalg'ov. Quloqlarim ostida qandaydir chinqiriq. Avval daraxt ustidan uchub ketgandek bo'ldim. Keyin quyiga, quduqqa sho'ng'idim. Quduqning tubi yo'q ekan. Oyog'im osmonda. Boshim bilan tushib ketayapman, ketayapman... Qani edi quduqning tubiga tezroq etib borsam va boshim urilib, yorilsay bu dahshat to'xtasa?!

Videoni ochdim. Zuhra uzoqlashdi. Tun. Bolalarim uxlab yotishibdi. Kimlardir kirib keldi. Bolalar chinqirmasin deb og'ziga "skoch" yopishtirishdi. Keyin qopga solishdi. Onasini ham qopga tiqishdi...

Yo'q, davomini ko'ra olmayman! Ey, nomard yuragim to'xta! Axir u ikki go'dakda nima ayb? Ayolimda ham ayb yo'q-ku? Sen ularni qutqazib qolaman, o'z hayotini

yashasin, deb olib borib qo'ymaganmiding? Bu iflos ishlardan uzoqda yashashsin demaganmiding? Qora ishlarni kasru kasofati bolalaringga urdi, Shunqor! Ularni sen o'ldirding, sen! Rais o'ldirgan emas, sen o'ldirding, axmoqliging, vijdotsizliging, odamiylikdan mahrumliging uchun o'ldirding! Balki buni senga Xudo ravo ko'rgandir? Axir qancha-qancha begunohlarning yostig'ini quritmadingmi? Qancha oilalarning boshiga qiyomat solmadingmi? Sen vatanim deb vatanni emas, Raisni sevding. Unga mehr qo'yding. Aytganlarini bajarding. O'sha "vatan"ning nima berdi senga? Seni quduqqa otdi. Tubi zim-ziyo. Tushsa chiqmas quduqqa otdi. Insonliging tugadi. Hayvonliging boshlandi. Qasoas, qasos! Seni yondira boshlagan kuch mana shu. Xo'sh, kimni o'ldirasan? Raisnimi? "Muhtaram"nimi?

Ilonni domiga tushding, Shunqor! U seni o'rab olmoqda. Ikki oyog'ingni o'radi. Qimirlata olmayapsan. Ana belinggacha o'radi. Birozdan keyin ko'ksingni qisadi va bo'yiningga o'raladi. So'ng xohlasi chaqadi, xohlasi bo'g'adi. Hech narsa qilolmaysan! Tugading Shunqor! Bolalaringga xoinlik qilding! Ayolingga xoinlik qilding. Boshqasini sevding. Hatto o'shanga uylantirib qo'yishdi. Biror marta, o'zingdan nega deb so'radingsmi?

Telefon jiringladi. Rais. Olmadim, Nima deyman? Onangni deb so'kamanmi? Bolalarimni nima qilding, deb so'raymanmi? Qaysi til bilan? Axir tiling muzlab qolgan-ku, Shunqor! Tishlamoqdan lablaringni qontalash qilib yubording-ku, Shunqor?

Zuhra oldimga keldi. O'zini ancha bosib olibdi.

-Nega telefonni ochmadingiz?

-Qotil bilan telefonda gaplashmaydilar, yuzlashadilar,- dedim.

-U qotil emas, bolalaringiz tirik ekan. Mana adresi. Gap shundaki, G‘ulom ularni garovga olishni rejalashtirganda, Rais o‘yin qilib, ularni boshqa joyga ko‘chiribdi.

-Yolg‘on! Ishonmayman!

Shu payt telefonim “ting-ting” etib suratlar va video keldi. Bolalarim tushgan video. Ular Turkiyada ekan. Dengiz sohilida. Bir zumda elkamdagi tog‘ yiqilib, nafas ola boshladim. Telefon yana jiringladi. Rais:

-Shunqor, seni bunaqa ifloslarning o‘yiniga bu qadar tez ilinasan, deb o‘ylamagan edim. O‘zingni tutib ol. U ilonni vujudingdan chiqarib tashla va bitta ham sochi to‘kilmasan, tirik tut. Xohlasang erto‘la kovlab o‘sha erda saqla, istasang u bilan o‘yin o‘yna!

Gapirolmadim. Bolalarimning xaloskorini qotil deb turgandim. Uni o‘ldirmoqchi edim. Bir soniyada pishiq emasligim, o‘yinlar qarmog‘iga laqqa baliqdek “lip” etib ilinishimni anglab qoldim. Zuhra nima deb o‘ylaydi? U ham ishondi-ku? Boya kelganda ko‘zlari qizarib kosasidan chiqib ketayin degan, ho‘ngir ho‘ngir yig‘layotgan edi.

Baribir u mendan aqlli ekan. Raisga sim qoqmaganida bilmadim bu yog‘i nima bo‘lardi? Rais nega bu voqeani mendan yashirdi? Bir og‘iz shipshitib qo‘ysa bo‘lardi-ku?

Zuhra qo‘limdan tutib:

-Yuring bir bog‘ni aylanamiz,-dedi.

Biroz indamay bordik. Darxtlardan bitta yarim barglar to‘kilib, oyoq ostida ezilmoqda. Ezilsa hatto shu jonsiz barglar ham ovoz chiqaradi. Inson esa, joni bo‘la turib

ba'zan o'z ichiga ko'miladi. Ovoz chiqara olmaydi. Ovoz chiqarganlari esa osmondagi gaplarni gapiradilar. Vatan, vatan deydi. Vaholanki ular uchun vatan degani fohishadek gap. Birining qo'ynidan chiqib boshqasining qo'yniga kiradi. Bu mening fikrim emas. Bu "Muhtaram"ning gapi. Unga ko'ra, kim bossa vatan o'shaniki. U vatan bilan qorishib, o'zi ham vatanga aylanadi. Odamlar uni sevishlari kerak. Unga sadoqat ko'rsatish talab etiladi. Uni salgina haqorat qilib qo'ygan odamning "uyini kuydirishadi". O'zlari esa istagancha so'kadilar, miriqib-miriqib so'kadilar. Asab chqindilarini xalqning ustiga to'kadilar, xuddi axlat to'kkandek. Xalq ham chidaydi. Axlatning tagida qolsa ham sado chiqarmaydi. Hatto shu xazonchalik sado chiqarmaydi.

O'zingchi Shunqor! Sado chiqara olasanmi? Sen ham ulardan biri. Gungsan! Bilasan, sado chiqarsang tiling kesiladi. O'z axlating ichida yashab yuraverasan. Baxtni ham, baxtsizlikni ham axlatga qorishtirib yuborasan. Ko'rdingmi, seni G'ulom qanday o'ynatdi? Olovdan olib, suvga otdi, suvdan chiqarib yana olovga tashladi. Bunga kim chiday oladi?

Shunqor buncha tez qo'rqqoqa aylanding? Bir "puf"lik joning bor. Hamma qatori baribir o'lasan. Hech narsani orqalab ketolmayсан. Shunday ekan, o'zingni qo'lga ol! Seni axlatga itqitganlarni jazola, o'zlarini tiq o'sha sassiq botqoqqa.

-Zuhra vatan degani nima?

Bu savolimga Zuhra ajablanib qoldi. Yuzimga qaradi. Ko'zimga qaradi. Keyin:

-Biz ana ulardan qo'riqlashimiz kerak bo'lgan narsa...

Vatan narsami? Zuhraning bu gapi yoqmadi menga.

Vatan bu qo‘l bilan ushlanadigan narsa emas. Vatan tafakkur ostidagi ma‘naviy kenglikni to‘ldirgan poyonsiz tushuncha.

Vatan – ruhning umurtqasi, hisning vulqoni. Inson shu tushuncha bilan tug‘iladi. Chunki u qondan qonga oqadi, irsiyatdan ruhga ko‘chadi. Ota-ona avlodidan keladi bu irsiyat. Bir kun olimlar inson tanasidagi millionlab genlarning eng kattasi va eng kuchlisi vatan hissini tashiydigan gen ekanligini aniqlashsa, bu haqiqatning o‘zginasi bo‘ladi. Chunki bu hisning tarkibida insonning qo‘nimi bor. Bu qo‘nim uning ruhiyati yoyilgan maskan.

Bu maskan sarhadlari ichida insonning qadri haqidagi qonuniyat bor. Ana shu qonuniyat buzilsa, hislar dunyosida zilzila boshlanadi. Hislar dunyosida insonning hurriyatga boshlaydigan kuch mavjud. Inson mudom hurriyatni, ozodlikni qidirib, sevib yashashi ana shundan.

Insonning tinchlikka intilishi, osoyishni axtarishini boshqaradigan markaz ham o‘sha maskanda. O‘sha maskandagi chinorlardan biri huzur-halovatga intilish kuchidir.

Boshqa bir ustun esa, insonning baxtga, saodatga tashnaligi.

Inson oilasi, yaqinlari bilan birga bo‘lganda, bu maskan ulkan bog‘ga do‘nadi. Daryolar oshiqadigan, nurlar yog‘iladigan, oydinlik inadigan, shodlik shoshadigan, quvonch quvnaydigan bog‘. Ammo senga o‘xshagan inson, bunday quvonchdan ham mahrumsan, Shunqor!

Vatan mudom inson bilan birga. Inson uni tark etolmaydi, o‘zi bilan birga olib yuradi. Vatan ham insondan ayrilmaydi, buyuk burgutdek uning qalbiga qo‘nib yashaydi. Shuning uchun uni kimningdir fohishasi bo‘lishga yo‘l qo‘yilsa,

demak gap vatanda emas, gap bizda. Uni shunday deb tushungan xum kallada gap! Uni oyoq ostiga olgan xoinda gap! Uni pullagan yirtqichda gap! Shunqor, sen vatanni himoya qilishing, uni qutqazishing kerak? Kimdan? Vatanni ustiga chiqib olgan “Muhtaram”danmi? Ustingda tajriba o‘tkazayotgan Raisdanmi? Seni qo‘girchoqdek o‘ynatayotgan G‘ulomdanmi? Kimdan? O‘zing ham bilmaysan buni?

-Namuncha xayolga cho‘mib kettingiz?

-G‘ulomni kallasini bir burab yuborsammi, deb o‘ylayapman.

Gapimiz bo‘lindi, Rais telefon qildi.

-Ana unga javob ber! Uyiga yo‘qolsin! Sen esa saharlab tobutni olib kel!

-Narigisi borib etdimi?

-Ha, uni vasiyat qilgan joyiga ko‘mib qo‘ydik. Nima bunisni hech kim bilmasin. Morglarga qara, o‘xshashini topolmasang, “Doda”ning “dvoynigi”ni tiq!

19. “Dvoynik”

Hayratdan yoqqa ushlab qoldim. Nimalar bo‘layapti o‘zi? Boyagina Rais G‘ulomni qattiq qo‘riqlash haqida gapirgandi. Endi esa, uni qo‘yib yubor, demoqda. Raisga quloq solishim kerakmi o‘zi? Axir uning idorasidan ketdimku? “Muhtaram”ning maxsus vazifalar bo‘yicha tansoqchisi bo‘lsam, nega Raisning qo‘lida o‘yinchoqqa aylanayapman? Zotan o‘yinchoq eding, Shunqor! Yo‘q, endi Rais istaganini ololmaydi. Vaqti keladi uning ham jonoyatlari ochiladi. Balki men ocharman?

Sabr qilmasdan xulosa chiqarish kerak emas. Miyamda aylangan savollarga bir zumda Raisdan javob keldi:

“Xizmatdagi barcha zobitlarga! G‘ulom yangi rahbarimiz tomonidan ishdan olindi va unvonlari bekor qilindi. U vatanga xiyonatda ayblanmoqda va kuchli nazorat ostiga olingan. U bilan gaplashish, uyiga borish, yashirincha uchrashish kabi holatlar ta’qiqlanadi. Mamlakatimiz uchun og‘ir bo‘lgan shu kunlarda kimning kimligi aniqlanadi. Shuning bois bosgan qadamingizga ehtiyot bo‘ling! O‘zingizga bog‘liq “uzunquloq”larni nazoratga oling! Jiddiy shubhalar paydo bo‘lsa, bevosita o‘zinga murojaat qiling!”

Bu raisning tantanasi edi. Necha yillardan beri orzu qilardi va maqsadiga erishdi.

Bizda “quloqlar” va “uzunquloqlar” bor. Hammasi xizmatdan tashqari. Birinchisi, nima bilandir qo‘lga tushib, hamkorlik uchun imzo chekkanlar. Ikkinchisi, ko‘chaning xo‘jayinlari. Ularning yonlariga odam qo‘yilgan yoki o‘zlari to‘rga ilintirilgan.

Xullas, Raisdan kelgan elektron maktub ko‘p narsani oydinlashtirdi. U xalqimizning zehniyatini yaxshi biladi. Ishdan olingan yoki urilgan odam akasi bo‘lsa ham, bunday paytda bahona topib, o‘zini chetga tortadi. G‘ulomning qochib ketishiga ham ishonishmaydi. Qaerga borsa ham iziga tushiladi va o‘sha joyda o‘ldiriladi. Bu xizmatning buzilmas qoidasi. G‘ulomning o‘zi takrorlagan gap bu! Uni ushlab beradiganlar ham ko‘p. Birinchi galda Vladichning o‘zi. Boshqa mamlakatlarda esa uni narkobaron deb bilishadi. Kim bilsin, balki qochishga urinsin, degan reja ham bo‘lishi mumkin. Nima bo‘lganda ham Rais bu qarorni yakka o‘zi olmagan.

Telefon jiringladi. Xuddi xayollarimni uqib olgandek, Rais:

-Savollaringga javob topdingmi, Shunqor? Bu “Muhtaram”ning buyrug‘i! Uyiga borsin, damini olsin, marosimlar tugagach u bilan gaplashaman, dedilar. Buni o‘ziga etkazib qo‘y!-dedi.

Ha, Rais qurmag‘ur. Bu tomonini ham biladi. Ozgina yolg‘onchi umid katta rejalarni buzib yuboradi.

Zuhraga:

-Agar ichkariga kirsam, u zahar gap qiladi va janjal chiqadi. Bor, sen unga etkaz, uyiga boraversin,-dedim.

Zuhra xonaga kirar ekan, eshik ortida kutib turdim. Biror kor-hol chiqsa, yugurib kirishga hozir edim.

Zuhraning gapini eshitib bo‘lgan G‘ulom:

-Shunqor qani, o‘zini osib qo‘ymadimi?-dedi kinoyali ohangda.

Zuhra javob qilishidan oldin ichkari kirdim va:

-Siz bilan ishimiz bitdi. Hozir “Muhtaram” bilan gaplashdim, sizga javob, uyingizga borib, kutar ekansiz, “Marosimlardan keyin yakkama-yakka gaplashaman”, dedilar. Ammo hech kimga aytmang. Siz bergan ma’lumotlar allaqachon u kishining qo‘lida. Bo‘ldi, boshqa gapira olmayman,- dedim.

-Bilaman, uka sizga juda og‘ir shu damda. Boshingiz omon bo‘lsin! O‘tganlarni Olloh rahmat qilsin! Juvonmarg bo‘lishdi. Hali ularning qasдини olamiz..., -dedi G‘ulom bamaylixtir ohangda.

-Chiqdik,-dedim va qorovul yigitlarni chaqirib, bu erni yopishlari, muhrlab uyga ketishlarini buyurdim. Zuhra bilan tashqariga chiqsak, G‘ulom:

-Menga berib ketilgan telefonlar ishlamayapti. Bu erda kutib turishi kerak bo'lgan yigitlar ham yo'q. Telefoningizni berib turolasizmi?-dedi menga yaqin kelib.

-Uzr, o'zingiz talab qilgan qoida, telefoningni otangga ham berma! Mumkin emas,-dedim uning o'z buyrug'ini eslatib.

-Bu erdan qanday ketaman? Uyimga olib borib qo'yinglar bo'lmasa.

-Bizga alohida topshiriq berildi. Tez etib bormasak, baloga qolamiz,-dedi Zuhra.

Uzoqdan bir mashina ko'rindi. To'xtatdim:

-Qancha so'rasang shuncha beradilar. Bu kishini uylariga olib bor!,-dedim haydovchi yigitga. U ham kira qilishga chiqqan ekanmi, darhol rozi bo'ldi.

...Zuhra bilan borib, tobutni yo'lga hozirlash choralarini ko'rdim.

Nima qilamiz? "Doda"ning o'xshashini tobutga tiqamiz-mi? E, yo'q, u juda ham yaxshi odam. Bechora. Birovga tik qarolmaydi. "Doda"ning g'irt aksi. Biroq ko'rinishi unga o'xshaydi. Bo'yi-basti ham birdek. Yuzlarida cho'tiri ham bor. Yurganda bitta oyog'i ko'rinmas tarzda oqsaydi. Balki egizagidur? Bolalikda ajralib ketishgan bo'lishlari mumkin emas-mi? Shunday deymanu dunyoda deyari hamma rahbarlarning shunday egizaklari bo'lgan. Buni maxsus o'qiganmiz. Ayrim "ikkinchi"lar keyinchalik mashhur ham bo'lib ketishgan.

Yangi rahbar kelganda o'xshashini qidirishadi, topishadi, o'qitishadi va yashirin saqlashadi. "Doda" avvaliga istamagan. Fitna chiqarib, joyimni olib qo'yadi, deb xavotirlangan bo'lsa, ne ajab?! Ammo keyinchalik jarrohlik

amaliyoti o'tkazganda, kasallanib yotib qolganda "dvoynik" kerak bo'ldi. U gapirmaydi. Uzoqdan ko'rinish beradi. Odamlar orasidagi mish-mishlarga nuqta qo'yish uchun birorta majlisda ko'rinish beradi, xolos. Bir marta "Doda"ning yuragi xuruj qilganda, "o'layapti", degan gap tarqalib ketdi. O'shanda "Doda"ning xotini, qizi bilan birgalikda tungi shaharni aylanishgan, "soxta egizak"ning ko'ksiga bosh qo'yib, suratga tushishgan. Bir nechta muxbirlar ularni uzoqdan kuzatib, yurtboshimiz tungi saylga chiqdilar, deb xalqning qulog'iga lag'mon ilishgan. Xato aytdim. Chunki ularning o'zi ham bilmagan. "Lag'mon"ning muallifi biznikilar.

-Zuhra, u odam juda ham xokisor, mingta gapirsang arang bitta javob qiladigan begunoh inson. Uni tobutga tiqishga hech ko'nglim yo'q, -dedim Zuhraning fikrini olish uchun.

-Men uni tanimayman. Siz yaxshi desangiz demak yaxshi, -dedi u.

-Qanday tanimaysiz. U axir xizmatning nomenklaturasiga olingan. Arxivda hech narsa yo'qmi u haqda?

-Eshitganman, "ikkinchi odam" bor deb. Ammo arxivdan hech narsa topa olmaganman, -dedi Zuhra va tin olib qo'shimcha qildi:

-Uni topishgandayoq qachondir o'ldirib yuborishga qaror berishgan bo'lishsa-chi?

-Unda Rais avval o'likxonalarni ko'r, demas edi. Topolmagan taqdirimizdagina uni tobutga qo'yishimizni aytdi.

-Unday bo'lsa, ketdik, o'xshashning o'xshashini topamiz.

O'lixonlardagi hidlardan "zaharlanib" ketgan bo'lsak kerak, tashqariga chiqqanimizda ham o'sha hiddan qutula olmadik. Birorta o'xshaydiganini topmadik. O'xshashning o'xshashi topilmadi.

-Baribir ochishmaydi. Undan ko'ra biror hayvonni tiqsakchi?-dedim Zuhraga,-masalan, cho'chqami, qo'ymi?

-Qo'y hayf ketadi, cho'chqani o'ylab ko'rish zarur.-Risk qila olmaymiz. Kafanga o'rab ko'mamiz yoki yuvamiz deb qolishsa nima bo'ladi?

Xullas, boshimiz qotdi.

Telefon jiringladi. "Dvoynik"ni otib ketishibdi.

-Sizga nima dedim?-Zuhra bir narsalarni biladiyu mendan yashirmoqda degan o'y kechdi xayolimdan.

-Ha, tasodif emas, sen bilar ekansan. Raisning hunari bu! Uning "Birinchi ketdimi, ikkinchi ham ketadi" degan gapi bor edi. Bizga telefon qilib uning o'lgani haqida xabar qilishdimi, demak bu bejiz emas, rejalangan.

-Rais bizga ham ishonmay qolayotgan bo'lishi mumkin,- dedim Zuhraga.

-Balki ishimizni osonlashtirmoqchidir?-dedi u o'ylab ham o'tirmay.

Xullas, tobutga "dvoynik" tiqildi...

"Beriya" yaxshi ishlabdi. Qo'nalg'aga borguncha hamma yoq gulga to'lgan. Teatrshunoslik talabalarini olib chiqqanmi, hammasi "otam-a, otam!" deb yig'lamoqda. Oralarida "Dodamni topib beringlar, bo'lmasa o'zimni osaman!" deganlari ham bor. Bittasi shunchalik baqirib aytdiki, bu gapni men mashinada turib eshitdim.

Xullas, qolgan gaplarni bilasiz. Ko‘mish marosimida ko‘zim doim Azimda edi. U o‘zini yo‘qotgan, garangsib qolgan. Hatto tobutni ko‘tarishda ham nima qilishni bilmay qoldi.

-Ko‘tarsang-chi!- “Muhtaram”ning bu nidosidan keyingina engashdi.

“Muhtaram”ning o‘shandagi vajohatidan cho‘chib ketdim. Birdan peshanasida ajinlar bo‘rtib chiqqandek bo‘ldi. Qoshlari chimirildi. Atrofda odamlar bo‘lmasa, Azimni do‘pposlab ketgan bo‘larmidi? Uning bunday vajohatidan shunchaki qutulgan odam oz. Hech bo‘lmaganda “Tvar! Onangni...!” degan gaplarni eshitardi.

Soxta tobutni va “dvoynik”ni ko‘misharkan, bildirmay qarshidagi mozorga o‘tdim. Rostdan ham “Doda”ni otasining joyiga qo‘yishgan, shekilli, yaxshilab qaragan odam qabrning yangiligini bilib oladi.

Xullas, marosim tinch o‘tdi. “Muhtaram” bir qancha mehmonlardan ham hamdardlik va ayni damda tabrik ham qabul qilaverib charchagan ekan, meni yoniga chaqirdi.

-Shunqor, mashina tayyorla, sen bilan ketaman,-dedi. Yo‘lda mizg‘ib olmoqchi deb o‘yladim.

Mashinaga bir o‘zi emas, qizi va Markazdan kelgan bir xushbichim juvon ham o‘tirishdi.

Rais mashinaga yaqin keldi. Derazani ochdim:

-Sizni endi yakka yubora olmaymiz. Vaziyatni bilasiz. Shuning uchun oldinda va orqada kuzatuvchilar bo‘ladi,-dedi “Muhtaram”ga.

-Kuzatuvchilarni ertadan boshlab ishlatamiz, bugun shaxsiy ishim bor, Shunqor o‘nta kuzatuvchining o‘rnini bosadi,-dedi va elkamga qo‘lini qo‘yib,

-Hayda,-dedi.

Yo'lga chiqdik. "Muhtaram" kimgadir telefon qildi. Biroz gaplashgach, qabriston yonida ko'rishamiz, dedi.

-Shunqor, onam yotgan joyga boramiz,-dedi.

"Muhtaram"ning onasi u hali yoshligida olamdan o'tgan. O'gay ona qo'lida o'sgan. Uni hurmat qiladi. Opa-singillari bor. Opasi uning uyida bolalariga, nevaralariga qaraydi. Ugay ukalari ham bor.

Ko'p o'tmay etib keldik. Hammalari qabriston yonida kutib turishgan ekan. Hokim ham shu erda. "Muhtaram" indamay bitta qabr yoniga bordi. Bu erga onasi ko'milgan. Shu erda o'tirib, ko'ziga yosh oldi.

-Mana shu toshni qo'yishimni ham yomonlikka yo'yib, "Doda"ga ig'vo qilishgandi. Ko'ramiz endi kimga shikoyat qilishadi?-dedi u qo'lini yuziga tortib bo'lib, hokimga qarab.-Senga bir hafta vaqt. Qabriston devorini yangilaysan! Bu erga keladigan yo'l boshqatdan asfalt qilinib, ikki tomoniga daraxt ekasan va o'tirgichlar qo'lasan. Qabriston ichida mana shu erga kelgunga qadar yo'lak qurasan. Endi bu erga keladigan odam ko'p bo'ladi. Rahmatli onam juda yaxshi ayol bo'lgan. Oddiygina ishda ishlagan. Elning xizmatini qilgan. Unga hurmat ko'rsatmasam, Xudo uradi. Bu erda maqbara qurasan. Qurondan oyatlar yozib qo'lasan. Bir haftadan keyin kelib, xabar olaman. Kiraverishda bino va ayvon qurasan. Qor-yomg'irda odamlar kutadigan joy bo'lsin. Bir hafta etadimi?

-Ko'plik ham qiladi,-dedi hokim.

-Menga quruq gaplarni qilma, bir haftadan keyin kelib ko'raman. Gapingni tilingga o'lchab gapir! Tiling osilib qolmasin tag'in!

-Bizga ozgina mablag‘dan va qurilish materiallaridan...

-Mana, Shunqorga aytasan, nima kerak bo‘lsa.

“Muhtaram” keyin menga yuzlandi:

-Shunqor, bunga telefon nomeringni ber. Darvoqe, onamning qaysi suratini qora marmar ichiga qo‘yishni men bilan maslahat qilinglar. Mana, qarindoshlardan so‘rab, tanlab olinglar va menga ko‘rsatinglar,-dedi.

Hamma ham shunday qiyin paytda onasini eslaydimi? Yuragida odamiylik ufurdimi? Menimcha, “Doda”ning dakkisi ko‘nglida qolgan ekan. Bu erni obod qilaman, deganda kimdir “Doda”ga suv ombori qurilishidan ko‘p narsani qabristonga olib ketayapti, deb xabar bergan. Shundan keyin katta qurilish ham to‘xtab qolgandi, oz qolsin “Muhtaram”ning o‘zi ishdan ketardi. Rais oraga kirmasa, ishi chatoq edi. O‘shanda “Doda” uni juda yomon so‘kkan. Shundan keyin bu erga kelmay qo‘ygandi. Yuragida ekan-da. U yoqda “Doda”ga maqbara qurishni buyurdi, bu yoqda onasiga ...

Mashinaga o‘tirganimizdan keyin:

-Suv omboriga hayda,-dedi.-Qurilishni boshlatamiz!

Yo‘l-yo‘lakay kimlargadir telefon qildi. U hali ham o‘zini oldingi ish joyida deb o‘ylab, hammaga sim qoqar va eskichasiga gaplashar edi.

Suv ombori yoniga etib kelganimizda uni ancha odam kutib turgan ekan. Poytaxtdan ham “dev”lardan uch-to‘rttasi kelgan. Demak, ularga oldindan xabar bergan, aks taqdirda buncha tez etib kela olishmasdi.

Kelganlar bilan salomlashib ham o‘tirmadi.

-Qanchada qurib bitiramiz?-dedi u Sanginga.

-Ancha ishi bor. To‘rt-besh yil kerak.

-Tush ko‘rayasanmi? Toshbaqaga o‘xshab sudralish yo‘q endi. Yo‘lbarsga o‘xshab yugurasan!

Sangin biroz o‘ylab turdida:

-Uch yilga tiqishtirishim mumkin...,-dedi. Uning qo‘li qornining ustida edi.

-Bu gap qorningdan chiqdi-mi? Men hali senga ishonib yuribman-mi? Bu erda asosiy ish bitgan. To‘xtab qolmaganda qachondir baliq ovlab yurgan bo‘lardik.

-O‘shanda xalqaro ekspertlar “Doda”ga bizdan izn olmadi, deb shikoyat yozishgandi. Hozir ham ular bilan kelishmasak bo‘lmaydi.

-Shu ham masalami? Mana “Doda”ni ko‘mamiz, desak, YuNESKO izn bermadi. U joyga maqabara qurish mumkin emas ekan. Bir soatda hal qilishdi va izn berildi. Ana, Halimboyvachchaga ayt, borib hammasini yog‘laydi va o‘zlari kelib, senga oq yo‘l beradilar. Hammasi bo‘lib bu erga qancha pul ketadi?

-Yarim milliard dollar bo‘lsa, etadi, Etmasa, o‘zimizdan qo‘shamiz!

-O‘zimiz-po‘zimiz yo‘q. Qancha pul desang topib beraman. Ammo tez qurishing kerak. Odimlarimizni ko‘rib odamlar ilhom olsin, hayratlansin, bizga baho beradigan bo‘lsa, mana shunday inshootlarimizga boqsin!

-Ikki yilga tiqishtiramiz...

-O‘zingni ikki yilga tiqishtirib qo‘yaman, shunaqa qilsang. Bir yil sanga! Bugunoq ishga kirish. Odamlar har bir

gapimga va har odimimga qarashadi. Shunday ekan, ko‘p narsa senga bog‘liq! Bajarmasang, kelgan joyingga ketasan! Mana Shunqorning o‘zi olib borib qo‘yadi, bildingmi?

-Bildim!

-Shu ham ishmi? Mana shu joyni yopasan, sakiz mashina shag‘al to‘kasan, bas!

Sangin erga qaradi. Lof ham evi bilan-da, degan gap o‘tdiyov ko‘nglidan. Balki “Muhtaram” nollarni tashlab gapirishini eshitmaganmi? Eshitgan, shunga qaramay sakkiz mashina degani lofning teskarisi bo‘ldi-da.

-Kelasi yil sen bilan mana shu erda qayiqda suzamiz? Birgalikda baliq ovlaymiz. Tasavvur qil, hovuz to‘la baliq! Son-sanoqsiz... Sen bilan ulardan ba‘zilarini qarmoqqa ilintirib, sohilda qovuramiz. Buning gashtini bilasanmi? O‘zingni eng qudratli kuch deb hisoblaysan o‘shanda. Yaxshi yaxshilaridan keltirib tashla, ko‘paysin! Baliqxo‘rlik qilmaganimizga ham ko‘p bo‘ldi.

-Aytganingizdek bo‘ladi!

-Qara, erta-indin vazifani rasman boshlayman va kimni xohlasang o‘shani qo‘l ostingga jo‘nataman. Bu men uchun hayot-mamot masalasi, bildingmi?

-Bildim...

-Esingdami, meni bahona qilib to‘xtatishgan buni? Kim bu ishning orqasida ekanini bilaman. Qonimni ichgan! Hali sayrataman hammasini! Suv ombori haqida saylovdan oldin e‘lon qilaman va bir yilda so‘zimizning ustidan chiqishimiz zarur!

-Siz ayttingizmi, bajariladi!

Sanginning nimagadir rangi oqarib ketdi. Ulgurmasligini anglab turibdi. Ulgurmasa ham ulguradi. Unga vaqtini aytish kerak, tamom! O'sha kun hisobotni olib keladi.

-Sen bilan yana bir ishni boshlaymiz. Esingdami, uchini chiqargandim. Boshlab ham qo'ygandik. Lekin pul topilmadi. Mana endi vaqti keldi. Tog'lar orasidagi joy. U erda ham suv ombori qurasan. Bundan kichikroq. Atrofida Vladichning saroyi kabi mehmonxonalar qurasan. Halimboyvachaning saroyini ko'rganmisan? O'shaning besh-olti baravar kattasi bo'lsin! Hamma qulayliklari bilan. U erga qush ham uchib bormaydi. Tikucharda boramiz. Salimxonga aytganman, osmondagi yulduzni so'rasang, uzib beradi. O'zim borib ko'raman. Sani didingga gap yo'q. Shunday bo'lsa ham oyda bir borib turaman. U joy juda ham muhim. Arab shayxlari mehmonga kelsa, qabul qiladigan joyimiz yo'q. Uyatdan erga kirib ketamiz. Ularga esa shohona koshona kerak. Koshonani ko'rsalar ishonadilar va pul chiqaradilar. Bo'lmasa, ular toshdan qattiq!

-Aytganingizdan ham ziyoda qilamiz. Dunyoga dong'i ketadigan bo'ladi!

-Aksincha hech kim bilmasligi kerak. Bu joy sir ichidagi sir bo'ladi!

Poytaxtga qarab yo'lga chiqdik. Nurxonning "dugonasi" aslida Vladichning "sartaroshi" ekan. Yo'q sochini bor qilib ko'rsatadigan. U endi biz tomonga ishga yuborilibdi. "Imajmeyker" deyisharkan. U "Muhtaram"ning tashqi ko'rinishiga javobgarmish. Kaminaga raqib topilibdi. Juvonni kuzatdim. Shunchaki emas. Boldirlari baquvvat. Chiniqqan. Kam gap. Yuzi kulimsirab turadi. O'zimizning qizlarga ham o'xshab ketadi. Ismi ham o'zimizga yaqin. Kamila ekan. "Muhtaram"ning parvoyiga kelmaydi Ammo

mening vazifamga vazifa qo'shildi. "Muhtaram"ni undan ham himoya qilishim kerak. Kim rozilik berdi ekan bunga? Raismi? Balki Nurxonni qo'lga oldimi? Xullas, yaxshi emas. Balki vaqtinchaga kelgandir, Shunqor? Sen ham xayoliy bo'lib ketayapsan. Yo'ldaman. Ashula aytishim kerak-mi? "Muhtaram" bilan hangoma qilib borishim darkor-mi? Yo'q, uni o'z xayollariga tashlab, men ham o'z girdobimda aylanaman-da.

Nurxon bilan dugonasi "Muhtaram"ning sochini bo'yab, qoshini terdirib, qaboqlarini chetidan tepaga torttirish, vaqti-vaqti bilan "botoks" qilish, tufliining poshnasini baland ko'tarish, kaltaroq kiyim kiyish kabi ikir-chikirlarga ko'ndirishga urinishmoqda. "Muhtaram" indamay ketayapti. Xayolidan boshqa mamlakat rahbari o'tayotgan bo'lsa, ajabmas. Bittasi sochini sariqqa bo'yab, boshiga salladek urab qo'yadi. Boshqasi dunyoda taroq anqoning urug'iga aylanib ketganday sochini umuman taramaydi. Vladich esa "dugonalar" aytganidek, ayollarning pardozi-andozini qilib yuradi. Xullas, oson emas! Oldingidek mashinada o'tirib olib, "Ozodlik"ni eshitib yurish endi tugaydi.

Aslida "Muhtaram"ga osonmas. "Doda" uni chetga chiqarmay, "uybola" qilib qo'ydi. Kim nima desa, shunga ko'nadigan.

Telefon jiringladi. Kim bo'ldiykin? "Muhtaram"ning avzoyi buzildi.

-Aniqmi? Melisani kattasi shunaqa qilib yuribdimi? Sabr qiling, uning ham pagonini yulib olaman! Aniq borib uchrashibdimi-ey! Shuncha gapdan keyin ham-a? Siz bo'lsangiz bitta xat bilan hammasini ayirib qo'yaman, deb yuribsiz. Menga Chalmatovni toping!

—...

-Bilaman, bilaman, kim uni vazirlikka qaytaraman deyapti? Uning qo‘li qonligini bilaman. Mafiyaning otasi ekanligini ham. Biroq u bilan gaplashadigan gapim bor. Ana u mafiyasi bilan bog‘liq!

Demak, Ichki ishlar vaziri G‘ulom bilan ko‘rishgan. Telefon qilgan esa Rais. Boshqa odam bo‘lganda bunday xabarni eshitib, yumshoq gapirmagan bo‘lardi.

...Poytaxtga kirib kelganimizda yo‘l to‘siq qo‘yilgan edi. “Muhtaram” mizg‘imoqda. Uzoqroqda to‘xtatdim va mashinadan tushib, melisalar tomonga yurdim.

20. Sirlarning siri

Bizni kutib olishga chiqishgan ekan. Shahar ichida qo‘rimasiz yurish mumkin emas. Ataylabdan bo‘lmasa ham, tasodifan falokat oyoq ostidan chiqishi mumkin.

“Muhtaram” boshqa mashinaga o‘tar ekan:

-Shunqor, senga javob, borib damingni ol, kechqurun keraksan,-dedi. Qizlar ham u bilan birga ketishdi.

Ko‘nglim g‘ash edi. Chunki qiladigan muhim ishim chala qolgandi. Uni Zuhra ham bilmasdi. Aslida, u bilmasin deb mahorat bilan rol o‘ynadim. Agar sezib qolganda, ishning beliga tepishi mumkin edi.

Tobutning ichiga “Dvoynik”ni tiqdik, degandim. Buni Zuhrani ishontirish uchun o‘ylab topgandim. Agar o‘likni qaytadan yuvamiz yoki basharasini ko‘ramiz deyishsa, naqd o‘sha erda otib o‘ldirilardim. Buni bo‘ynimga olgandim. Mustaqil harakat qilmaslik jonimga tekkandi. Endi o‘z xohishimga ko‘ra ham harakat qilaman deb ko‘nglimga tuydim. Nima bo‘lsa bo‘lsin, amakini qutqazish haqidagi fikrimni miyaning eng chuqur joyiga yozgandim.

Yigitlarimdan biri yaxshi ish bajardi. U “dvoynik” amakini chegara tomonga olib borishi va Raisga uning otib o‘ldirilgani haqida xabar tashlashi kerak edi. Bilmaslikka oldim va hammasi Raisning rejasi deb qaradim. Aks taqdirda Zuhra ishni buzardi.

“Qotil” yigitni ko‘chadan topganman. Bir kuni internetda idoramiz haqida keskin tanqidiy maqola paydo bo‘ldi. Hamma gaplar haq. Raisdan boshlab o‘rinbosaralariga qadar boshidan “qaynoq suv to‘kilgandi”. Hammasi bor gap. Sanoqli odam biladigan hujjatlar sizdirilgan. Rais buni G‘ulomdan, G‘ulom esa Raisdan ko‘rdi. Vaholanki, maqola ikkalasiga qarshi yozilgan.

-Bu iblis G‘ulomning ishi. Bilishmasin deb o‘zi haqida ham yozgan,-degandi u.

Shunqa odat bor. Buni ko‘proq muxolifatchilarga qarshi qo‘llaymiz. Ularni shu yo‘l bilan bir-biriga qiyratib qo‘yiladi. Raqibining uslubi, ishlatadigan so‘zlari bilan yoziladi va o‘zi haqida ham qisman qistirib ketiladi. Rais o‘zi haqida ko‘proq va G‘ulom to‘g‘risida kamroq yozilgani uchun shunday xulosaga kelgandi.

Jumboqning tubiga etishni kaminaga topshirdi. Qidirdim, topolmadim. Keyin, kimlar so‘ramasdan, kompyuter va ish telefonini uyiga olib borishini kuzatdim. Eng tepadagilardan uch kishi. Hammasi general. Oilalarini o‘rgandim. Bittasining o‘g‘li diqqatimni tortdi. Internetda bloggerlik qilar ekan. Qiziq?! Faqat daraxtlar haqida gapiradi.

Hamma videolarini qarab chiqdim. Biror joyda odamlar, shart-sharoit, siyosiy-ijtimoiy voqea, muammo haqida gapirmagan. Bu shubhali. Uning faoliyati xuddi josusning ishiga o‘xshardi. Tekshirsam, videolari to‘g‘ri. U aytgan joylarda daraxt kesilgan bo‘lib chiqdi. Baribir dilim

yorishmadi. Uni kuzatuvga oldim. Kechasi borib daraxtni arralar yoki ostiga dori sepib qo‘yar ekan. Ushladim. Otasiga telefon qilmoqchi bo‘ldim. Qo‘ymadim. Uyga olib keldim.

Yaxshi bola ekan. Ancha gaplashdik. Oxiri ochildi. Hech kimga aytmasligim haqida kafolat olgandan keyin savollarimga aniq-tiniq javob qildi.

-Nega bunday qilasan? Nega daraxtlar umriga zomin bo‘layapsan?

-Aksincha daraxtlarni qutqarayapman,-dedi u.- Qovjirayotgan yoki qurib bo‘lgan, kasalmand daraxtlarni tanlayman,-dedi u o‘z ishidan faxrlanib.

-Bu bilan nimaga erishasan?

-Odamlarning diqqatini daraxtlarga tortaman. Qarang, har yili million-million darxt ekiladi, biroq ko‘karmay qoladi. Bu erda katta o‘g‘irlilik ham bor. Lekin ekilganlariga e‘tibor yo‘q. Chunki daraxtni qadrlamaymiz. Uning hayotimizda bo‘lgan o‘rnini bilmaymiz. Umrimizni uzaytirishini til uchida gapiramizu aslini bilmaymiz. Daraxtlar yashasa, biz ham yashaymiz! Daraxtni e‘zozlash kerak! Odamlarni shunga o‘rgatmoqchiman.

-Bundan ham dolzabroq masalalar bor, agar video qilaman desang, nega o‘zingni xavf ostiga otayapsan?-dedim unga.

-Qolgan masalada gapirishimga izn yo‘q. Otam jalloddan ham yomon. Undan qo‘rqaman.

-Uradimi?

-Ursa mayli edi. O‘ldiradi.

-Shunchaki o‘ldiraman deb qo‘rqitadi-da. Odam o‘z bolasini ham o‘ldiradimi?

-Mening otam o'ldiradi. Onamni o'ldirgan!- Bu gapni aytarkan uning labi titrab, ko'zida yosh qalqdi.

-Yo'g'-ey?

-Hech kimga aytmaydiz-a?

-Ko'nglimga ko'ndim. Uni hech kim kovlab ololmaydi.

U tin olib turdida:

-Ha, urmasdan, so'kmasdan o'ldirgan. Oyimga qandaydir dori ichirgan.

-Buni qaerdan bilasan?

-Onam aytgan o'limidan oldin. Otangdan hushyor bo'l, meni edi, seni ham eydi, degandi.

-Bu degani zaharladi degani emas-ku?

-Onam soppa-sog' yurgandi. Otam bilan janjallashib qoldi.

-Nega janjallashdi?

-Otam "Doda"ning idorasiga ishga o'tishi kerak ekan. Uydan kimgadir pul olib borib beribdi. Ichidan soxtalari chiqibdi. Shuni onamdan ko'rdi. Onam juda xafa bo'ldi. Qasam ichdi. Fig'on chekdi. Lekin otam ishonmadi. Sen yo'limga g'ov bo'lding, ukang bilan birga,-dedi.

-Tog'angni nega qo'shdi?

-Tog'am bilan kelishmas edi. "Surish" degan xayolga keldim. Internet orqali mashhur oliygohga ilindim. Yubormadi. Mumkin emas emish. Shundan keyin, istamasam ham huquqshunoslikka joylab qo'ydi. Bo'sh paytimda alamimni blogerlikdan olaman. Daraxtshunos bo'lib ketdim.

Do'st bo'ladigan yigit ekan. Sir saqlashda unga teng keladigani yo'q. U bilan birga ishlashga qaror qildim. Aytgan topshiriqlarimni "top-toza" bajaradi. Bu orada otasi bizning idoradan prokuraturaga o'tqazildi.

Internetga idoramiz haqida ma'lumotlarni sizdirib kelgan uning otasi ekan. Shunday qilib o'ziga tepaga yo'l ochar va ko'tarilishi uchun boshqalarning "tagiga suv quyar" ekan. Hujjatlarni tayyorlab qo'ydim. Rais so'ramaguncha gap ochmadim. Haliga qadar gap ochilmadi. Endi uni "Muhtaram"ga bersam bo'ladi.

Shu yigitga aytib, "Dvoynik"ni chegara yaqinidagi tanishimning uyiga jo'natgandim. Raisga esa boshqasi orqali xabar jo'natgandim. Bunday olganda o'zim ham kalavanning ichiga o'ralib borayapman. Pushaymonlik yo'q.

Darvoqe, haligi yigitning ismi Humoyun.

-Ismingni ma'nosini bilasanmi?-deb so'radim undan.

-Bilaman. Lekin otam bu ismga ham qarshilik qilgan. Zamonaviy ism emas deb. Bobom- oyimning otasi katta olim edilar. Shunday ism qo'yaman deb turib olganlar.

-O'zingga yoqadimi?

-Yoqadi. Shu ismim sabab Boboriylar avlodining tarixini o'qib chiqqanman.

Humoyinni olib, amaki turgan joyga bordik. Amakiga hamma gapni ochiq aytdim. Ishonishi va qabul qilishi qiyin bo'ldi. Uning oilasini "Doda"ning odamlari gum qilganini eshitib ishonmadi. Unga Raisning "Tobutga "dvoynik"ni tiq", degan gapini telefonimda qo'yib berdim. Shundan keyin devonasirab qoldi.

-Nega o'ldirmadingizlar? O'lishni istayman! Yashamayman! Yasholmayman!-degan so'zlarni takrorlayverdi. Rejam bo'yicha uni chetga chiqarib yubormoqchi edim. Ko'nmadi. Boshim qotib qoldi. Bu yog'i chigallashib ketmasa, bas!

-Soxta tobutga nima qo'ydingiz?-dedi Humoyun.

-Aytolmayman...,- birdan xato qilganimni tushundim. U menga ishonmoqda, men esa...,-hozircha.

Kutganimdek, undan keskin javob oldim:

-Oramizdagi sirdoshlikka darz ketibdi-da,-dedi u.

Otasi boshqa ishga ko'tarilgandan beri Humoyun uyida yashamaydi. Otasining besh-oltita uyi bor. Ularga ham bormadi. Unga joy qilib berdim. Alohida telefon tutqazdim. Unga aysammikan? Aytolmayman! Uni aldashim kerak. U aldanadigan yigit emas. Darslarga bormay imtihon paytida bir ko'rinib, hammasini a'loga topshirib keladi. Kelgusida uni yonimga olaman degan rejam ham bor.

-Sen bo'lganingda nima qo'yarding?-dedim unga.

U o'ylab turdida:

-Otamni,-dedi.

-Bu yaxshi emas, nima, otangni o'ldirish xayolingda bormi?

-Yo'q, uning jazosini Xudo beradi. Shunchaki aytdim-da!

-Hayvonlardan qo'ysang qaysi hayvonni qo'yarding?

U o'ylanib qoldida:

-Bechora hayvonga jabr bo'lardi-da,-dedi.

-Jabr bo'lmaydigan hayvon ham bor. O'shandan bittasini chiroyli qilib joyladim.

U tushungandek miyig'ida kuldi.

Narigi xonada boshini ushlab o'tirgan amaki biz tomonga kirib keldida:

-Uka, qo'lingizdan kelsa, meni tog' joyga jo'nating. Besh oltita mol qilib bering. Boqaman. Odamlarning ko'zidan nari yuraman,-dedi.-Soqol qo'yib olsam, hech kimning diqqatini tortmayman. Faqat bitta shartim bor, hamma joyda ishlaydigan telefon ham berasiz. Yillar davomida telefonga o'rganib qoldim. Suyanganim telefon. Ko'raman, o'qiyman, izohlar yozaman...

-Izohlar yozasiz?

-Ha, Bakirbek deb tanilib qolganman.

-Hammasi yaxshi... ammo izohlar yozishingiz bo'lmaydi. Qo'lga tushishingiz mumkin.

-Hech parvo qilmang. "Doda"ning paytidayoq o'limni bo'ynimga olganman. Mana kostyumimning yoqasida turibdi. Boya ichib yuborgim ham keldi, ammo sizlarni o'yladim. Hayotlaringni xavf ostiga qo'yib, menga yaxshilik qilayapsizlar. Agar qo'lga tushadigan bo'lsam, o'sha erda o'laman. Boshqa pasport ham qilib berarsiz.

Xullas, rasmiy ismi ham Bakirbek bo'ldi. Bakir aka juda samimiy bo'lishi bilan birga dunyoga ochiq ko'z bilan qaraydigan odam. Bu ahvolda "Doda"ning rolini qanday o'ynadiykin? Men bo'lsam unga doim boshingni egib, xafaqon yurasan deb buyruq berishgan, deb o'ylandim. U esa past-balandni yaxshi tushunadigan, oq-qorani ajratadigan oqil inson.

-Bo'lmasa, shu erda biron oy turasiz. Humoyun o'z o'g'lingiz kabi xizmatda bo'ladi. Iltimos, hovlidan tashqariga chiqmang. Biror hodisa yuz bersa, mana bu telefonni ishlaatasiz, deb unga ham Humoyunga berilgan qurilmadan birini berdim. Hammasini hal qilib, sizni yaxshi bir joyga ko'chiraman,-dedim.

-Uka, yuragingiz otnikidek ekan. Qanday bu ishga jura't ettingiz, bilmayman? Shunday odamlar bor deb hech o'ylamasdim. Xalqimiz qo'rqitilgan qo'ydek deb yurardim. Ammo burgutlarimiz ham bor ekan,-dedi.

Nima deyman unga? Siz burgut degan odamning ham panjasi qon deymanmi? U qanchadan qancha begunoh odamlarni yo'qotib, endi aqli kirib qoldi, deymanmi? Umuman qilayotgan bu ishim to'g'rimikan? Sadoqat so'zini kuniga yuz martalab takrorlaydigan "Muhtaram" bilib qolsa, xoinlikda ayblamaydimi? Bir marta yashaymiz. Ayblasa ayblar. Qachongacha yashirin qotil bo'lib yuraman, qachongacha boshi egik qul bo'lib yuraman.? Bundan keyin gunohlarimni yuvishim, bechora odamlarga yordam qilishim, ana u ablahlarni esa bir-bir tuzoqqa ilintirishim kerak. Buning uchun Humoyun kabi yigitlarga ehtiyojim bor. Bunaqalar esa ko'p. Ayniqsa, muxolifat orasida, hech narsadan cho'chimaydigan alplar bor. O'limni ham pisand qilmaydiganlarini ko'rganman. Ularning orasidan ham tanlab olishim kerak. Shunchaki emas, bu ishlarni rasmiy tomonini ham o'ylab, "Muhtaram"ning imzosi bilan bir hujjat ham qilib olishim zarur.

Uyga kelsam, Zuhra ham qaytibdi. Birgalashib ovaqatlanayotgan edik, telefon jiringladi. "Muhtaram":

-Ana uni olib kel, birgalikda gaplashamiz, uchinchiga kel!

“Muhtaram”ning shahar markazidagi ko‘p qavatli uylarda maxfiy joylari bor. Uni raqamlagan. “Lenin shapka”ni bostirib kiyib oladida, hech kimga parvo qilmay kirib-chiqaveradi. Bugungacha uni yaxshi tanishmasdi. Hidi chiqmagan.

G‘ulomni uyidan olib, aytilgan joyga bordik. Ko‘p kuttirmadi. “Muhtaram” kirib kelishi bilan G‘ulom sakrab o‘rnidan turdi. “Muhtaram”ga tashlanib qolmasin, deb yoniga o‘tdim. U shartta tiz cho‘kib yalina boshladi.

-Tur o‘rningdan, o‘zingni qo‘lga ol va aytadigan gapingni ayt, vaqtim yo‘q,-dedi “Muhtaram”.

-“Doda”ni o‘ldirishdi,-dedi.

-Ko‘rdingmi, kim o‘ldirdi?

-Rais...

-Cho‘pchak aytna! Daliling bo‘lsa o‘rtaga qo‘y!

-Bir kun “Doda” chaqirdi. Seni o‘rnimga tayyorlayapman, yaqinda Bosh prokurorlikka qo‘yaman. Keyin Bosh vazir bo‘lasan. Hamma yoqni nazoratga ol. Puldonani oqla, bayramgacha,-dedi.

-Shumi hammasi?

-Yo‘q, sizga tegishli “papka”ni ham berdi. Negadir sizdan juda xafa edi. Dushmanlarim bilan bitta teshikka siyib yuribdi, dedi.

-Dushmanlari kim ekan?

-O‘sha paytda so‘ray olmadim. “Papka”dagi hujjatlarni ko‘rib chiqib, asosiy dushmani Rais ekanligini tushundim.

-Qanday hujjat.

-Raisning markaz bilan suhbatlarining matni. U “Doda”ning ishlay olmay qolgani, kim nima desa o’sha tomonga yo’rg’alashi, gapirgan gapi besh daqiqadan keyin yodidan chiqib qolishi, chetga katta miqdorda tilla chiqarayotgani...

-Bular hujjat emas, shunchaki gap.

G’ulom cho’ntagiga qo’lini tiqdi. Bir lahzada “Muhtaram”ning rangi oqardi va menga qaradi. Bu “Tekshirganmisan?” degani edi. Hammasi joyida degandek, boshimni qimirlatdim. Darhaqiqat, bir emas ikki marta tekshirgandim. Shunga qaramay “Muhtaram”ning qo’rquvi ko’nglimni xira qildi. Nahotki, oz bo’lsa ham ishonchsizlik bor? Shunqor, o’zingni bos! Bunday sezgi hammada bor. Hatto qirolicha Kleopatra ham har kun o’zining sevimli iloni yotgan ko’zaga qo’lini tiqqanda rangi oqararkan.

G’ulom cho’ntagidan ikki betli qog’ozni oldi. Unda faqat raqamlar yozilgan edi.

-Bu nima?-deb so’radi “Muhtaram”.

-Bu Raisning xorijdagi hisoblari. Mana bunisi esa sizniki ekan.

“Muhtaram” xuddi turg’azib qo’yilgan bosh xaltaga o’xshab shaloplab yiqilgandek bo’ldi. Ko’z oldimda muzdek eriy boshladi.

-Meniki?-dedi arang.

-Ha, sizniki?

-O’zim bilmayman, sen qaerdan bilasan?

-Buni Markazdan berishgan. Banklarning nomi, adresi ham bor. Qo’yilgan pul miqdori ham.

-Chetga chiqmagan bo'lsa, qanday qilib banklarda boyligim bo'ladi?

-Kimlar olib borib qo'ygani videoga tushgan, ulardan ayrimlari hozir hokim. Ayrimlari vazir.

-Kimligini bilasanmi? Bu fitna!- "Muhtaram" o'zini tutoqib ketgandek ko'rsatmoqchi bo'ldi shekilli, ovozini balandlatdi. Ammo ovozining "kuchi" yo'q edi.-Voy ablahlar, bu qanday bedodlik. Agar sen "Doda"ning o'rniga kelsang, meni erto'laga tiqardingmi? Shunga ishonib-a?

-Ishonmasa bo'lmaydigan hujjatlar bor. Boylikni qo'yib kelganlar orasida Shunqor ham bor.

-Shunqorni aralashtirma bu iflos ishingga.

-Hokimlarning odami qaytib kelgandan keyin raqamlarni sizga bergani ham videoga olingan ekan.

-Hojatxonaga kirganim ham olingan ekanmi?

-Afsuski, bor. Mayli unga o'tmaylik.

-Yana nimang bor?

-Siz bilib yo bilmasdan otib qo'ygan bola haqida... keyin odamlarni do'pposlashlaringiz... bularni hisobga olmadim. "Doda" tinchitish uchun saunada kelishilgani va Markazga Rais qancha olib borgani...

-To'xta! Meni shantaj qilmoqchimisan?

-Istasangiz meni o'ldiring yoki qamoqqa oling, ertasiga hammasi internetga chiqadi. Bari tashqarida, ishonchli odamimda.

-Xo'p, nima istaysan?

-Hayotimni qaytib bering.

-Qaytib beraman, ammo unvonlarsiz. Balki ochiqda, balki qamoqda yasharsan.

-Ochiqda o'ldirishadi. Bu ikkalamizga ham yomon.

-Demak, faqat qamoq...

-Odaming nima bo'ladi.

-Siz sud qilib, bir umrga qamaysiz. To men chiqquncha hech narsa bo'lmaydi.

-Ishonmadim gaplaringga.

-U holda Shunqor telefon qilsin. Mana bu nomerga.

Kanadaning telefon nomerini berdi.

-Odamim Kanadada emas. O'sha erning telefon nomerini olib berganman. Hozir Shunqor bilan gaplashib bo'lgach, adresini o'zgartiradi.

Telefon qildim. Ayol kishi oldi. Ruscha gaplashdi.

-O'zlari bilan gaplashaman, -dedi.

Telefonni G'ulomga uzatdim;

-Birinchi papkani och va u erdagi ikkinchi fleshkani telefonga bog'la,-dedi G'ulom ayolga.

Keyin menga yuzlandi.

-Siz eshitasizmi?-dedi.

“Muhtaram”:

-O'zim eshitaman, -deb telefonni oldi.

Ko‘z oldimda uning yuziga ajin tushgandek, sochlari oqara boshlagandek tuyuldi. Tomog‘iga bir narsa tiqilgan odamdek telefon ushlagan qo‘li qaltiray boshladi. Uning vajohatidan asr ham qolmadi. Lapashang odamga o‘xshab qoldi. Birdan:

-O‘ldiraman seni ablah,-deb G‘ulomga tashlandi.-Hamma ishga aralashsang ham oilaga aralashma. Oila toza va muqaddas, bildingmi? Sanlarga kim huquq berdi, birovning oilasiga tuhmat qilishni?

-Bu tuhmat emas. Buni menga “Doda” bergan.

Gapning ochig‘i “Muhtaram” nimani eshitganiga juda qiziqib qoldim. Uni cho‘ktirgan, keyin o‘zidan chiqargan gap nima edi? Nega uning qoshlari “tayoq”dek bo‘lib ketdi? Nima gap ekan? Nahotki sen bilmaysan, Shunqor?

-Ma, ayt odamingga, seni sud qilib, umr bo‘yiga qamayman!

G‘ulom telefonni olib, ayni gapni aytdi:

-Men qamoqda ekan, hech narsa, hech qaerga chiqmasin, hayot-mamot masalasi bu!

“Muhtaram” menga tikildi. Ko‘zidan uqdim:

“Shunqor uni topasan!” degan buyruq edi bu qarash. Boshimni silkitdim.

-Kelishdik,-dedi “Muhtaram” G‘ulomga qarab va g‘udurlagancha so‘kinib, chiqib ketdi. U ketgandan keyin G‘ulom menga yuzlandi:

-Bu tentak mana shunday sandroqlab yuraveradimi? Sho‘ringiz qurigan ekan, uning o‘ng qo‘li bo‘lib. Dalada ketmon chopadigan odamdan nima farqi bor uning?

-Hamma ham daladagi ketmonchi odamdek bo'lganda dunyo boshqa tomonga rivojlangan bo'lardi. Dalada ishlaydigan odamning qalbi musaffo, kir bosmagan. U jinoyatlarga ko'milmaydi. Siz va menga o'xshab tirnog'ining uchiga qadar qonga bulg'anmaydi. Qonunlar uni quvlab yuradi. Siz va biz esa qonunlarning ustida yuramiz,-dedim.

-To'g'ri, lekin bunda rahbarlik karomati yo'q-da, o'rtoq general!

-Nima, qanaqasiga genaral?

-Ko'rdingizmi, Rais ham, siz ham shoxida yursangiz, biz bargida yuramiz. Raisning xonasida sizga aytilgan gapni ham eshittiraymi?

-O'zingiz eshitib yuravering! Hayotingizni qaytib oldingiz-ku!

-Bir kunmas bir kun qahramon bo'lib chiqaman. Xalqimiz doim mazlum tomonida bo'ladi. "Muhtaram" bu dunyoga ustun emas, qilich bilan kelgan, qilich bilan ketadi!

Telefon jiringladi. "Muhtaram":

-Shunqor uni yaxshilab qo'riqla! Birortasi kallasini uzib tashlamasin. U juda ham xafli, uni sud qilasan, umrbodga qamaysan, va ishton tiktirasan! Umr bo'yi shu ish bilan shug'ullansin,-dedi.-Uni avraysanmi, aldaysanmi, nima qilsang qil, qo'lida bor narsalarning hammasidan nusxa ol. Salimxondan boshlab, Raisgacha hammasining shiltasini bilib ol!

21. "Jalabxona"

Uyga qaytayotsam yana “Muhtaram” chaqirayotganini aytishdi. Uning uchun ertami-kechmi, farqi yo‘q. Borsam, bir qancha hokimlar qabulxonada o‘tirishibdi. Kotib:

-Ichkarga kirarkansiz, o‘rtoq general!- dedi.

Kotib yaxshi yigit. Tarbiyasiga qoyil qolaman. Kuniga mingta odam kelsa, ming marta o‘rnidan turadi va qo‘li ko‘ksida. Uning qulog‘iga gap kiradi, ammo chiqmaydi. Chiqarib olishning imkoni ham yo‘q. “Eshitmadim” deb turaveradi. Urasizmi, so‘kasizmi, qiynaysizmi, farqi yo‘q. Devor, sas chiqadi, gap chiqmaydi. “Ichimdagini top” degan turidan. Shuning uchun ham Rais uni bu yoqqa “safarbar” qilgandi.

“Doda”ning kotiblari bittasi nafaqaga ketdi, ikkinchisi erto‘laga. Bu erda yordamchi ham bor, qarshi eshikdagi xonada o‘tiradi va qabulxonada esa kotib.

Kotib eshikni ochdi va undan minnatdor ekanimni bildirish uchun elkasiga qo‘limni qo‘ydim-da, ichkariga kirdim.

-Kel, Shunqor, bu erda kerak bo‘lasan, mana bu ifloslarni urishga ham or qilaman. “G‘ing” deganini erga qulatasan,- dedi “Muhtaram”. Tushundimki, bu kecha uyqu yo‘q.

-Mana suyangan tog‘ing yiqildi,-dedi “Muhtaram” hokimga qarab.

Hayron bo‘ldim. Tog‘ qanday yiqilarkan?

-Senga aytayapman, yiqildimi yoki hali ham osmondan tushmaysanmi?

Kechagina hech kimni pisand qilmay yurgan hokim xuddi ishtonini ho‘l qilib qo‘ygan bo‘ladek shumshayib qolgandi. Ko‘z kosalari olayib, yiriklashib ketgan. Xuddi oyog‘i qopqonga ilingan kalamushdek, nima qilishini

bilmayotgandi. Gapirsinmi, gapirmasinmi? Oxiri inqillab-sinqilab gapirdi:

-Siz... siz nima desangiz shu, erning tagiga kir desangiz ham kiraman!

-Er ostiga kirishing emas, sadoqating kerak!

-Qancha?-dedi hokim engil tortgandek.

-Nima qancha?

-“Sadoqat”-da? “Doda”ga ishga o‘tishda bira to‘la berardik.

-Ehhee, yaxshi-ku? O‘sha sadoqatingdan ikki baravari kerak!- miyig‘ida zaharxonada kuldi “Muhtaram”

-Bo‘ldi, topaman, faqat bolalarim, nevaralarim...

-Ularni ham o‘g‘rilikka o‘rgatayapsanmi? Qaerdan olasan buncha pulni? Nimaga o‘g‘irlayapsan? Uyalmaisanmi, og‘ayni? Uyat sanga. Vijdoningga o‘t ketsin! Padaringga ming la‘nat! Attangga la‘nat!

-Kam bo‘lsa... ayting, uch baravarga chiqaramiz...,- hokimning nafasi ichiga tushib ketdi.

-Taqdiring kimning qo‘lida? Ilgari pisand qilmasding? Men borganda nega aeroportga chiqmagan eding?

-Aybdorman! “Doda” buyurgandilar...

-Endi kim buyuradi? “Dodang” kirgan joyiga kirib ketdi. Taqdiring mana mening qo‘limda! He, onangni s...ay, poraxo‘r, o‘g‘ri, tvar! Nega tirjayapsan? Qo‘...qqa kulasanmi? Onangni o...iga tiqib qo‘yaman sani?

“Muhtaram” tutoqib ketdi va menga qarab:

-Shunqor, orqasiga bir tep, oldinga qochsa, yuziga tepasan,- dedi.

Hokim aslida kulmagan edi. “Muhtaram”ning gapiga javob qilmoqchi bo‘lib labini juftlagandi, xuddi miyig‘ida kulgan kabi ko‘rindi. Uning yoniga borsam, yalingan nazar bilan qaradi. Rahmim kelmadi. Onasini so‘ktirib o‘tirgan odamga umuman rahmim kelmaydi. Bunday odamga onangni go‘rdan chiqarib olib kel, desa ham yo‘q demaydi. O‘zini himoya qilmaydi. G‘urursiz, hamiyatsiz, sha‘nsiz bu odam. Bilaman, u bu erdan qaytib borib, boshqalarni xuddi shunday so‘kadi va uradi. Shu bilan o‘zini qoniqtirgan bo‘ladi. Lekin men urgan kabi urolmasa kerak. Bir aylanib, sakradimda, orqasiga tepdim. Oldi bilan borib devorga urildi.

-Ko‘rdingmi,-dedi “Muhtaram”,-tur o‘rningdan, nimaga men aytgan ishni qilmading?

Hokim engi bilan og‘zini artgan bo‘lib, cho‘kkalab qolgan joyida javob bermoqchi bo‘ldi, uddalay olmadi.

-Man sanga nima dedim, tvar, tur o‘rningdan, dedim, hozir bashrangdan darcha ochdiraman!

Hokim bir amallab o‘rnidan turdi.

-Arizangdi yozasanmi, gapimga quloq solib ishlaysanmi?

Hokim boshini egdi.

-San hali gapimga javob ham bermaysan-mi? Enangni o...iga tiqaman sen haromini. Sani gandonligingni dunyoga ko‘rsataman! Hozir bo‘g‘dirib o‘ldirsam, nima deysan, onangni go‘riga kirasan, hech kim bilmay qoladi, yarim tunda olib borib ko‘mishadi. Nima, bilmaydi deb o‘ylaysanmi, ikki kishining o‘ziga chuqur qazdirib,

tiriklayin ko‘mganingini bilmayman-mi? O‘zingni ham shunday qilaman.

-“Doda” buyurgandilar...

-He enangni s...kay sani, qotil, qonxo‘r, jallod! Namuncha “Doda”ni sotasan!

Hokim, “Enam” deb bir narsa demoqchi bo‘ldi,

-Paxtani nega enangni o...iga tiqding, bu yil bajarasan-mi!

-Bajaraman!

-Senga ishonmayman, pidaraz!

-Iltimos, ishoning!

-Qo‘...mni ebsan, ablah! Aldaysan! Lekin bilib ol. delavoylikni manga qilolmaysan! Men gapirganda gap qo‘shsang ko‘taningni sug‘urib olaman, bildingmi?

-Bildim...

-Hozir mana shu erda qo‘lingga kishan solayin-mi?

Hokim yig‘lab yubordi.

-Chiq yo‘qol. Agar yana ana ularga mezbonlik qilsang, ko‘...tingni yirtib qo‘yaman! Shu soatdan boshlab kuchli nazorat ostidasan, o‘zingni oqla, paxta-maxtangni bilmayman, sadoqatingni ko‘rsat! Boshqa viloyatga o‘tkazaman, u erda ham o‘zgarmasang, qaerga tiqaman, joyingni bilasan-mi?

-Bilaman...

-Unday bo‘lsa, topgan tutganingni to‘pla va mendan xabar kut!

Hokim xuddi emaklayotgandek chiqib ketdi.

Boshqasi kirdi. Yugurib kelib “Muhtaram” bilan ko‘rishaman degandi, u qo‘lini bermadi.

-Seng qo‘l bersam harom bo‘ladi. Devorning tagida tur, nax...y! Onangni si...y, sani, nega G‘ulomga tillo tashiding?

-Qanaqa tilla?

-Ha, onajoningni si...y sani!

-Nimaga onamni so‘kyapsiz?

-O‘hhoo sani onang bormi? Uni sotib bo‘lgansan. Nega G‘ulomnikini eb yuribsan?

“Muhtaram” menga yuzlandi.

-Shunqor, buni bir ihhillat, tili uzunga o‘xshaydi.

Nima qilardim? Lekin bunda ozgina vijdon bor ekan, onasini himoya qilmoqchi bo‘ldi, shunisiga ham qoyil! Uning ichiga bir urgandim, egilib qoldi. To‘g‘risi qattiq urmadim. O‘z onasi uchun mahkam turgan odamga qo‘l ko‘targim kelmaydi.

-Tashshog‘ingni sug‘urib olaman, sanga o‘xshagan maymunni. Manga lo‘lilik qilma. Savollarimga aniq javob ber! Nega unga tillo tashiding?

-Talab qildi.

-U otangmi, sendan talab qiladi? Nega menga aytmadim?

-U Markaz meni tanladi deganiga...

-Kim nima desa ishonib, ishtoningni echaverasanmi?

-Yo‘o‘..

-Hammasini joyiga qo‘yasan. Bundan keyin sakramaysan! O‘ynashma man bilan, blyat, o‘ynashma! San ishongan odam k...t! Xoin! Sotqin! San esa unga sherik bo‘lib qolding! Tushindingmi? Pidaraz, qani aytchi, qaerdan boy bo‘lding?

-...

-Og‘zinga G‘ulomnikini solib olganmisan? Hammasini bilaman! Hozir shu erda qamoqqa olaman seni, bir umrga ketasan! Hammasini bilaman. Kimga qancha er sotting? Qancha mashinang bor? Uy-joylaringni qanday qurgansan? Bazalardan oyiga qancha olasan? Bozorlardan qancha teriladi? Hov tog‘larda qancha qo‘ying bor? Hammasini bilaman. Urug‘ aymog‘ingni qaerlarga jo‘natganing va ularning nomiga qaerlarda villalar olib qo‘yganingni ham...

-Agar shunday qilganimda “Doda” onamani Uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatardi.

-Men esa onangni o...iga shunday tiqaman, qo‘yaman. Men nima desam, to‘ng‘izim nima deydi? Menga o‘lib ketgan “Doda”ngni pesh qilma! Istasam, hozirning o‘zida sani uning yoniga olib borib qo‘yaman.

-Xudoga emas, sizga sig‘inaman, nima desangiz shuni qilaman, faqat...

-Vot blin, hali san Xudoga ham sig‘inasanmi? Hajga ham borib kelgandirsan-a? Hojidsan balki? Yo‘q haji qizsan! Hozir modaga aylangan. O‘g‘irlik qilib-qilib, keyin Hajga borib kelasan-a? Go‘yoki toza bo‘lding! Endi vijdon ham toza. Hammasini qaytadan boshlaysan, lushqaga botganingdan keyin yana Hajga borasan. Haj ham sanlardan bezor bo‘lgandir? Yana “Hoji aka” desalar erib ketasan. Biz

ham seni bundan keyin “Hoji aka” deylikmi? Sanlar dinni ham...

-Izn bersangiz borish niyatim bor! Hali bormaganman...

-Uff! San qonimni ichgani kelganmisan? Shuncha ifloslikni qilib, yana gapirgan gappingga qara! Toming ketib qolganmi sani?

-Sizga sodiqman!

-Har bir odiming nazoratda. Chiq, yo‘qol! Ko‘zimga ko‘rinma, Salimxon akaga uchrash va u aytgan qurilishni ta‘minlab ber! O‘shanda ishning sifatiga qarab, san bilan gaplashaman.

Hokimning birdan yuzi ochildi. Olamida quyosh charaqladi.

-Rahmat, xo‘jayin, rahmat “Muhtaram”, aytganingizni ortig‘i bilan bajaraman. - deb engil qushdek uchib chiqdi xonadan.

Xonaga mashhur boy, Bosh vazir o‘rinbosari kirdi.

-Bilasan, endi-endi seni bag‘rimga bosayotgandim. O‘zing chichib qo‘yding, o‘zing vinovat. Suv omborini nega tezlatmayapsan,-dedi unga “Muhtaram”

-Tezlatdim. Lekin hujjatbozlik ko‘p ekan. U yog‘ini tekshir, bu yog‘ini tekshir...

-Manga bahona topma! “Doda”ni latifa aytib xursand qilarding. Ammo manga tishing o‘tmaydi. Osmonga chiqsang oyog‘ingdan, erga kirsang qulog‘ingdan tortaman! Nima uchun geroy bo‘lganingni, uning narxi qanchga tushganini bilmaydi, deb o‘ylayasanmi? O‘zingni erkak deb yuribsanda-a? Ko‘tingda ishtoning bor. Ammo ayolchalish gap qilasan. Endi bayramlarda jilpanglab o‘ynashing

ketmaydi. San ham ayollar bilan birga yuraverib, tovuqmiya bo‘lib qoldingmi? Shu urning o‘zida boshingni olaman va boshsiz tanang bilan yurib chiqib ketishga majbur qilaman, bilding-mi?

Boshsiz tananing o‘ttiz qadam yurgani xaqida o‘qigandim. Nahotki “Muhtaram” ham o‘qigan?

Olti yuzlar chamasi oldin Bavariya qiroli o‘ziga qarshi bosh ko‘targan aslzoda va uning to‘rta bolasini o‘limga xukm qilgan. Ularni boshini kesishga buyurgan.

Qirol hukm ijrosi oldidan mahkumlarga oxirgi so‘zini aytishni buyuradi. Shunda mahkum qirolga “Boshim kesilgach, sizning yoningizdan yugurib o‘tsam, yaqinlarimning gunoxidan kechasizmi?” deydi.

Qirol tirjayadida, rozi bo‘ladi. Mahkumning boshi sapchadek uchib ketadi. Dahshat yuz beradi. Tana qon sachratib o‘tiz qadamdan ikki odim oshirib, keyin gursillab yiqiladi.

Qirol hushini yo‘qotib, keyin o‘ziga kelgach, mahkumning bolalarini qo‘yib yuboradi. Buni o‘qiganda men ham hayratga tushgandim. Mana endi shunday holat o‘zimizda. Qani nima bo‘larkin?

-Butun aymog‘ingni quritaman. Kallangni esa sapchadek uzaman!

Shu payt kutilmagan hodisa yuz berdi. “Geroy” bir soniyada boshini stol ustiga qo‘ydi va:

-Bu boshim siz uchun kesilsa, roziman! Aymog‘im ham sizga fido!-dedi.

Bu holat menga yoqmadim. Ammo “Muhtaram”ga yoqdi. Uning yuzidagi qizarish g‘oyib bo‘ldi.

-Bo'ldi, bu bosh meniki, istagan paytimda kesaman, san bunaqa shovmenlik qilmagin, aytilgan ishni bajar, bajarmasang unvonning ham ketadi, boshing ham, yaqinlaring ham. Boshingni garovga qo'yding, unutma! Yo'limdan chiqdingmi, boshingni mana shu erda tegirmon toshining ostiga tiqib, ezg'ilayman, bildingmi?

-Bildim xo'jayin!

-Bilgan bo'lsang nega kecha berilgan topshiriqni savol ostiga olding? Bundan keyin men aytgan gapni savol ostiga oladigan bo'lsang o'zingni o'sha suv ombori ostiga yotqizaman. Aytdimmi, bajarasan! Chiq yo'qol!

U ham chiqib ketganidan keyin "Muhtaram" menga yuzlandi:

-Aslida seni bu uchun chaqirmagandim. Itvachchani qattiq nazoratda tut. Qochib ketmasin!

-Xo'p!

Qochmasligini bilaman. Qochsa o'lishini uning o'zi ham, "Muhtaram" ham biladi. Lekin bu bog'lovchi gap. "Muhtaram"ning boshqa masalasi bor. Boshlash qiyin bo'lsa, shunday tog'u-rog'lardan olib kelib, keyin gap ochadi.

-Mana shu videoni ko'rasan. Ikki xulosa kerak. Birinchisi, haqiqiymi? Haqiqiy bo'lsa kim olgan? Ikkinchisi, uydirmami, unda kimning ishi? Bilaman og'ir, ammo topasan, tez!-dedi.

-Xo'p,-dedim.

Kayfiyati buzilgan paytda "xo'p"dan boshqa so'z uni "portlatib" yuborishi mumkin.

-Menga bittasi bu xorijda maxsus tayyorlangan,-dedi.- Ammo ishonmadim. Sen anig'ini topasan. Ha, darvoqe, o'zingga bitta guruh tuz. Xaker-sakerlardan besh o'ntasini ishga ol! Bu ish samarali ekan. O'lishimga oz qoldi. Siyosatimizga qarshi bitta so'z otadgan bo'lsa, ularga mana shunaqa videolar, yasalgan suratlar jo'natinglar. Hammasi maqtanib rasmlarni internetga qo'yadi-ku, o'shalardan foydalaninglar. Menga bu video soxta degan odam, hozir chetda qalbaki videolar tayyorlash dasturlari borligini aytdi. Tabiiysidan aslo farq qilmas ekan. Suratlarini ham shunday tayyorlar ekanki, hatto aytichilar ham bilmas ekan. Hammasidan sotib ol! Man bu ishyoqmaslarni ham shu yo'l bilan nazorat qilamiz. Avvaliga o'zi haqdagi porno videoni o'ziga yuborasan, keyin menga. Ko'rasan, hammasi cho'kkalab qoladi!

Aslida oldingi ishxonada shunday xizmat bor. Biz uni "Jalabxona" derdik. Chunki pornochilik bilan band bo'lgan bolalarning o'zlari sog' emasga o'xshardilar. Aftlari aytib turardi. Lekin ular qilgan ishni boshqasi qilolmasdi. U joyga kirilmasd va u erda nima borligi sir tutilardi. Bir marta kirganman. Qarasam, mashhur ayolni rasvo qilish ustida band ekanlar. Gapning ochig'i ekranlariga qarab qusgim keldi. Qaytib u joyga bormadim.

Demak, men o'zimga maxsus "Jalabxona" ocharkanman. Bu ketishda qo'shmachilk ham qilasan, hali, Shunqor!

Bizning ish shunaqa, ba'zida birdan quduqqa tushib ketasan. Qutqaradigan odam yo'q. Aksincha bir iloj qilib jon saqlasang, qaerda eding, deb koyishadi. Shunchaki koyish bo'lsa mayli, eshitgan gapiydan suyaklaring zirqirab ketadi.

Yana quduqqa tushdim, shekilli ?!

Kecha Nurxon yonimga kelib:

-Qarzingiz ko‘p! Bittasini uzadigan payt keldi,-dedi.

-Boshim qildan ham inja,-dedim.

-Inja deganingiz nima?

-Nozik...

-Kimdir bizni videoga olibdi...

-Olsa olar!

-Yo‘q, yomon vaziyatda.

-“Kal” bilanmi?

Nurxon qizarib ketdi, ko‘zlarida olov yona boshladi.

-Hammasi sizning ishingiz, aslida. Hayotimni izdan chiqarib yubordingiz,-dedi yarim jahl bilan.

-Nima qilay? Bu erlardan bosh olib ketayinmi yoki otangizga kirib “Bir gunoh qildim, kesing bu boshni” deyayinmi?

-Gapni burmang! Men uni uydirma, dedim. Aniqlamoqchi. Sizga videoni berishi mumkin. Bu masalada boshqaga ishonmasligini bilaman. Balki ayol deb xotinchangizga berishi ham mumkin. Yo‘q, unday qilmaydi, Sizga beradi. Sizdan talabim: uning soxta ekanligini otamga isbotlab berasiz!

-Tushunmadim!

-Nimani tushunmaysiz? Siz Zuhrangizni quchog‘iga kirganda men qarab turarmidim? Men ham insonman. Menda ham yurak bor, his bor, hirs bor! Nima qilay, “kal”ning qayig‘iga mindim!

-Demak, video haqiqiy, uni qanday qilib yolg'on deyman, boshqaga ko'rsatsalar-chi?

-Namuncha qichiq qilasiz, bo'lmasa otamga hammasini aytaman, sizga qo'shib meni ham qamab yuborsin! Boshqa yo'l yo'q! Istasangiz xakerlarni ishga soling, istasangiz qaytadan oling videoni, istasangiz biror joyingizga tiqib qo'ying!

O'le, Shunqor! Nima holga tushding? Tag'in general bo'ldim, deb g'ururingga osilib yuribsan. Bunaqa gapni eshitgandan ko'ra, qamoqqa kirib o'tirsang yaxshi emasmi? Erkakmisan o'zi? Bu erka-tantiq jipiriqi seni eshak qilib minishni boshlaydimi, orqanga xalacho'p uradimi?

-Menga bunaqa gapirmang, hozir borib iste'fomni beraman va videoni qaerga tiqib qo'yishni ham qulog'ingizga pichirlab qo'yaman!-dedim jahl bilan.

Shartta orqaga burilib keta boshladim. Shunday ham ishim boshimdan oshib yotibdi. Shunday ham na uyqumda, na hushimda halovat qoldi. Endi kecha quchog'imga sidirilib kirgan toshbaqa, bugun ustimga chiqib siyadimi?

Nurxon yugurib kelib qo'limdan ushladi:

-Kechirasiz meni! Xato qildim. Oldin ham sizni vazifa uchun menga yaqinlashtirishgan. Balki uning ham videosi bordir? Balki otamning qo'liga etgandir? Nima bo'lsa ham yordam bering! So'zimizga men xiyonat qildim! Chiday olmadim. Bunday keyin sizga qattiq gapirsam, tilim kesilsin, o'shanda ozgina bo'lsa ham qoniqqaningiz haqqi yordam bering, qutqazing, hayotim sizning qo'lingizda, bir umr qulingiz bo'laman!-deb yolvordi. Lekin bularning hammasi buqalamun. Ishi bitsin, keyin yana o'ziga qaytadi.

Pushaymonligi ham bor, so‘zlari titrab chiqayotganidan, kipriklari namlanganidan ham ma’lum edi.

-Xo‘p!-dedim, va kettim. Mana endi video qo‘limda. Unda nima bor? Nahotki ikkalasining to‘shakdagi holi olingan?

Hey, Shunqor, qanaqa yigitsan, videoni qanday ko‘rasan? Chiday olasan-mi, rashking qo‘zg‘almaydi-mi?

Nimalar deyapman o‘zinga. Zuhra bilib qolsa, nima bo‘ladi?

Balki bu boshqa video bo‘lsa-chi? Dunyoda bitta yozuv bo‘lmaydik-u?

Avval ko‘r, keyin xulosa qil, Shunqor! O‘zingni qo‘lga ol! Senda oldingi qatiyatdan uchqun ham qolmadi. Taltayib ketayapsan, unutma sen zobit. Zobit bo‘lganda ham eng yuqorini ko‘zlagan zobit. Orzularing bor!

Yarim tun. Uyga borolmayman. Zuhra uxlab qolgan bo‘lsa kerak? “Muhtaram” chaqirdimi, qachon qaytishim noma’lum ekanligini u yaxshi biladi.

Ishxonamga kirdim. Eshikni ichkaridan qulfladim. Pardalarni tushirdim. Internetni tarmoqdan uzdim. Atrofni kuzatdim. Har qancha ishonsang ham baribir tekshir, bu bizning qurolimiz! O‘zimning alohida xavfsiz kompyuterimni oldim va fleshkani qurilmaga tiqdim.

22. “Lap-Lap”chi

G‘ulomni uyiga olib borganimda, o‘zi gap qo‘shdi.

-Uka, yaxshi yordam qildingiz, buni unutmaymandedi. Tovushini tegirmon toshi bosayotgandek arang gapirdi.

-Buni yaxshilik yoki yomonlik deb bo‘lmaydi, shunchaki vazifamni bajardim,-dedim darhol.

-Darvoqe, siz haqqingizda ham bilganim bor, ammo aytmadim. Nega ikkita tobut qildingizlar?

Yuragim shuv etdi. Bu qayoqdan bildi? Kimlar bilardi o'zi? Nahotki Zuhra? Yo'q, uning og'zi mahkam, ko'zi ko'r bunday ishlarga. G'ulom o'ylab ko'rish uchun vaqt ham bermasdan hujumga o'tdi. Go'yo tilining ustidagi tegirmon toshini tuflab tashladi va ovozini boricha qo'yib yuboradi.

-Ha, yigitning guli, nafasingiz ichingizga tushib ketdi?- Shunday deb u birdan quduqqa tushib ketgan odamdek tovushini sekinlatdi.

-Ha, bilaman, bu topshiriq bo'lgan va vazifangizni bajardingiz. Parvo qilmang.

Shunqor, burningdan ilinib qoldingku? Endi nima qilasan? Ishqilib davomini bilmagan bo'lsin-da? E, qayoqdan biladi? Bu yog'ini hatto Zuhradan ham yashirgandim.

Shu payt G'ulom ikkinchi "granata"ni otib yubordi. U aylana-aylana boshimning ichida portladi.

-Ikkinchi tobutga nimani tiqdingiz? - Bu gap quloqlarimni shang'illatib yubordi. Xuddi o'zim so'roq qiladigan, boshining ustida kuchli lampani qo'yib, uxlashga bermasdan, savolga tutganlarimning ahvoliga tushdim.

Ko'zlarim oldi tundlashgandek tuyuldi. Atrofdagi chiroqlar xira tortib, hatto svetofoir ham ko'zimga ko'rinmabdi. Qizilda o'tibman, oz qoldi qattiq falokat yuz berishiga.

-Shunchalik ta'sirlanadigan ekansizu men bo'lsam sizni qo'lga olish qiyin deb yuribman, - G'ulom pismiqona ovozini o'zgartirmay gapirdi.

Indamasam, qo'rqadigan chiqaradi. Balki o'zimni qo'rqqan qilib, uning xizmatiga kirayinmi? Hamma narsani bilib

olardim. Yo‘q yonib ketaman. Unga balki «Muhtaram»ning bisotidagi so‘zlardan bir-ikkitasini qo‘yib yuborsammi? O‘zingni bos, Shunqor, bu bilan boshqacha gaplashish kerak.

-Aslida ikkinchi tobutga sizni tiqish haqida buyruq olgandim,-dedim. Tilimga kelgan kelgan bu gapdan o‘zim ham ilhomlanib ketdim. -Menga qolsa, bo‘laklab tiqardim. Ammo «Muhtaram»ning siz bilan uchrashishga ko‘ndirdim. Shundan keyin u yog‘ini amalladim. Qaysi bir ma‘noda o‘zim o‘zimga qarshi chiqdim. Hayvonga aylanib ketmaganimni ko‘rsatgim keldi.

-O‘zim ham shunday deb o‘yladim. Nima bo‘lganda ham ko‘nglingiz tubida qandaydir odamgarchilik hissi bor. Bu yaxshi xislat. Faqat bizning ishda pand beradi. Hozir esa foydangizga ishladi.

Indamadim. Xayolim ming ko‘chalarga kirib chiqmoqda. Qaerda xato qildim? Ishongalarimdan kim sotgan bo‘lishi mumkin? Ulardan birortasini ham aralashtirganim yo‘q. Telefon maxsuz... E, to‘xta, maxsus telefonni ham buzib kiradigan uskuna olishgandi-ku?! Demak, hali ham ancha odam bunga ishlayapti. Uni sinab ko‘rmoqchi bo‘ldim:

-Yigitlaringiz ham chaqqon, ham quloqlari yaxshi eshitadi,- dedim.

-Bu ham bor gap. Ammo «Doda»ning o‘ligini olib ketgan mashinani kuzatishdimi, yo‘qmi, bu diqqatingizdan qochdi. Ko‘rdingizmi, ba‘zi hollarda telefonning ahamiyati qolmaydi.

Demak, bizni kuzatuvga olishgan va jasadni olib ketgan mashinani ham kuzatishgan.

-Unda nega indamadingiz? Juda ko‘p bloggerlaringiz borku? Shov-shuv bo‘lib ketardi,-dedim kinoyaomuz tarzda.

-Xo‘p, video chiqardi, nima bo‘lardi? Natija chiqarmidi? Yo‘q. Bitta siz uchardingiz, balki Zuhra ham. Qaerdandir yomon xabar olgandik, xavfsizlik nuqtai nazaridan shunday qildik, deyilardi. Olam guliston, hamma ishonardi. Hatto portlatmoqchi bo‘lgan soqolli odam ham ushlannardi. Buning ustiga o‘zimning hayotim ham tahlika ostida qolardi. Siz menga yaxshilik qildingiz, men qarzdor bo‘lib qolmaslik uchun javobini qildim va bu haqda gapirmadim.

Uning uyiga etib kelganimizda, u yumshoq ovozda”

-Bitta iltimosim bor,-dedi.-Sezdim, u ayolning ovozi tanidingiz. Qolaversa, uning izidan tushishingiz aniq. «Muhtaram» uni yo‘qotish haqida topshiriq bermagan bo‘lsa, endi beradi. O‘shanda ham tobutning ichiga boshqa narsa tiqib yuborsangiz, bas. Faqat bu safar to‘ng‘iz boqadigan odamdan hushyor bo‘ling!

U mashinadan bir qadam uzoqlashdi-da, orqaga qaytib, qulog‘imga pichirlagandek:

-Biz xato qildik, «Doda»ni biz o‘ldirishimiz kerak ekan. Uni sevganimiz pand berdi,-dedi.

U uyiga kirib ketdi va go‘lga o‘xshab orqasidan qarab qoldim. Uning juda ustaligi haqida har kun eshitardim. Ammo bu qadar quv va hammayoqni nazorat qiladi, deb o‘ylamagandim. U ishdan olinganidan keyin ham unga sodiq odamlari bor ekan. Ular mansab orqali emas, pul orqali bog‘langan bo‘lishi kerak. O‘shalarning iziga tushish zarur. Ularni kim tanishi mumkin? Oltin zahirasidagilarmi? Qarindosh urug‘larimi? Viloyatdoshlarimi? Xullas, ish ko‘p.

«Muhtaram» bilan bu masalani ochiqcha gaplashib olishim kera

Bu mening ojizligim emas, balki G‘ulomning kuchli ekanligi. «Doda» unga qattiq ishongan va hamma imkoniyatlar yo‘lini ochib qo‘ygandi. Istagan puliga istagan narsasini sotib olardi. Isroildagi bitta shirkat internetni nazorat qiladigan dastur ixtiro qilganda, birinchi bo‘lib biz olgandik. Hamma hayron bo‘lgan. Mana man degan devlar ham uni juda qimmat deb turganda biz darhol oldik. Keyinchalak bildikki, boshqalar bu dasturni o‘n baravar arzoniga olishgan. Tekshiruv o‘tkazib, «Doda»ga olib chiqilganda:

-Hamma narsaning birinchisi qimmat bo‘ladi, G‘ulomga o‘zim izn berganman, qanchaga bo‘lsa ham olaver deganman,-deb ishimizni orqaga chevirgan.

Saltanat degani katta ko‘lga o‘xshaydi. Unga atrofdan toza suv quyilmasa bijig‘ib ketadi. Yillardir shunday bo‘ldi. Ko‘lmakdagi baliqlar semirib ketdi. Suv toshbaqlari oftobda toblanishgagina chiqadi. Tikilib tursangiz suv ilonlari lip etib chiqib, lip etib kirib ketishadi. Suv sarg‘aya boradi va atroflarini ko‘kimtir chiqindi bosadi. Odamlar undan uzoqlashadilar. Bu ko‘ldan foyda yo‘qligini bilib, parvo ham qilmaydilar. Saltanat ana shu ahvolga kelib qolgandi. «Muhtaram» uni tozalay olarmikan? Urinib ko‘radi. Ammo tozalay olmaydi. Chunki o‘zi ham unga o‘rgangan. Shu ko‘lmakda semirdi.

Shunqor nimalarni o‘ylayapsan? Sen daryoda edingmi? Sen ham shu ko‘lmakda eding-ku? To‘g‘ri bir chetida. Hozir ham uning bir chetidasan. Faqat kerak bo‘lganida chorlashadi. Yaxshi ishlarga emas, qora ishlarni senga ishonishadi. Bu esa seni aqlli, dono deb bilishgani uchun

emas, balki tahlikali odam deb qarashgani uchun. Yo‘llaridan quduq chiqqanda seni tushirishadi. Suv bormi, ajdar bormi, bilmaysan, tushib ketaverasan.

Xayolimni telefoni buzdi.

Telefonni ochishim bilan «Muhtaram»ning baqiroq ovoz eshitildi.

-Ko‘rdingmi?

-Ko‘rdim!-dedim askarlarga xos shiddat bilan.

«Muhtaram» bir zum tin oldida, endi bosiq ovoz bilan:

-Fikring qanday?-dedi. Bu xuddi tog‘ tepasidan qulab tushgan odamning ovozi kabi xasta sas edi. U shu damda ikki olov orasida edi. O‘ngga qayrilsang ham yonasan, chapga burilsang ham. Lekin menga ishonadi. Agar video haqiqiy desam, tamom, dunyo ag‘dariladi va bir cheti o‘zimni ham parchalab ketadi. Shuning uchun kuttirmay:

-Juda tabiiy qilib yasashgan, ablahlar,-dedim. - «Doda»ning vaqtida juda zo‘r dasturlar olingandi.

-Bu hali begonaning ishi emasmi?- «Muhtaram» ajablangandek savol berdi. Joyi keldi, ot bolam, degandek,

-G‘ulomning bolalari qiladi bu ishlarni,-dedim.

-Hammasini qamoqqa ol, bulbulchadek sayrat! Kerak bo‘lsa ular bilan o‘zim gaplashaman. Hammasini onasinikiga tiqib qo‘yaman!

«Muhtaram» shunday deb telefonni qo‘ydi. Bilaman, u doim maxsus ish buyursa, bir pallasiga o‘zini ham qo‘yadi. Bu bilan meni nazorat qilmoqchiligini ko‘rsatib turadi. Yaxshi usul. Odamni doim hushyor saqlaydi. Lekin juda tez esidan chiqib ketadi. Bu ishi ko‘pligidanmi yoki boshqa sababi

bormi, hali bilmayman. Salomatligi yaxshidek. Lekin do‘xtiri sir bermaydi. Har ertalab suzadi. Bir-ikki marta to‘satdan oqsab qolganini ko‘rdim. «Doda» ham shunday edi.

-Suzganlar to‘qson to‘rtga kiradi,-derdi “Muhtaram” «Doda»ga yoqadigan gap aytgisi kelsa.

-Nega yuz emas,-derdi “Doda”.

Bunday paytda «Muhtaram» qovun tushirmaslikka harakat qilardi.

-Siz yuzda ham suzishingizga shubha yo‘q. Siz yigirmata “Lap” qilganda, biz arang o‘ntaga etayapmiz,-derdi.

Hovuzda narigi tomonga bir marta suzib borib kelishni shunday deyishadi. Doda bir paytlar Amerika elchisi bilan birga suzarkan, elchi har bir borib kelganda ovoz chiqarib “Lap” deb sanar ekan.

«Doda» orqavarotdan gapirganda elchini “Lap-lapchi” derdi. Mana endi «Doda» daf bo‘lib ketti. «Muhtaram» ham “Lap-lapchi”. Boshqa tilning so‘zi shu qadar kuchlimiki, darrov yuqib qoladi?

Uyga keldim. ”Muhtaram” chaqirmay qo‘ydi. Avvaliga buni “Borib damingni ol!” degan gapiga yo‘ydim. Ammo vaqt o‘tavigach, xayolimni har turli tasavvurlar zabt eta boshladi. Sen haqqingda yomon gapirishsa chap qulog‘ing, yaxshi gapirishsa o‘ng qulog‘ing qiziydi, derdilar onam. Negadir doim chap qulog‘im qiziyotgandek tuyulaverdi. Zuhra taskin berishga urindi.

-Yaxshi emasmi, dam olaylik, birga bo‘lishga haqqimiz yo‘qmi, balki «Muhtaram» shuni istagandirlar? Mana

ko'rasiz, hali bir-birimizni ko'rishga ham vaqt bo'lmay qoladi.

-Bo'пти, ketdik, restoranlab kelamiz.-dedim unga.

-Borgim yo'q, ko'nglim aynib turibdi,-dedi u va divanga cho'zildi.

Keyingi kunlar ham shunday bo'ldi. O'qchiy boshladi.

-Zuhra bo'yinda bormi?

-Qayoqdan oldingiz bu gapni?

-Menimcha shunday. Harakatlaring aytayapti.

- Qani edi, homila tutsa, bir muddat rasvo ishlardan uzoqda bo'lardim.

Qo'lim bilan atrofni ko'rsatib, eshitishlari mumkin ishorasini berdim va:

-Parvo qilma, o'sha rasvo ishlarni men qilaman. Qozon-tovoqni ham o'zim yuvaman, axlatni ham o'zim chiqaraman,-dedim.

U menga qarab jilmaydida:

-Unda bir tekshirtirishim kerak. Ilohim homilador bo'layin va hamma rasvo ishlarni sizga yuklab qo'yayin,-dedi.

To'xta biz qachon aloqa qilgandik u bilan? Necha oy bo'ldi? Ko'ngil o'zingga dushman deyдилar. Zuhraga qarasam:

Ko'zlari chaqnay boshladi. Uyda o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi.

-Shunqor aka, nega bu qadar beparvosiz? Axir bolamiz bo'lishi mumkin? Nega sevinmaysiz? Nega yugurib borib gul olib kelmaysiz?-deb savolga tuta boshladi.

-Hammasi ko'nglimda bor. Suvni ko'rmay etik echmaylik. Qani tekshirtir. Shunday bo'lsa, seni boshimga toj qilib ko'taraman.

-Oldingi xotiningiz kabimi?-dedi u birdan. Jahlim chiqdi.

-Kallang joyidami?-deb yubordim.

Bu gapim Zuharaga qattiq botdi.

-Sizdan xuddi shu gapni kutgandim. Bilman - sevinmaysiz. Bilaman - bu boshga balo bo'ladi deb o'ylaysiz. Bilaman-sizga oila emas, ish kerak!

-Bilsang nega meni qiynaysan! Nega birdan o'zgarib qolding...

Gapimni tugatmasimdan u yig'lab yubordi. Yoniga borishim bilan o'rnida turib vanna tomonga yugurdi va o'qchiy boshladi. Borib boshini ushlab turdim. Uning ko'zlari kirtayib, tomchilarga to'la boshladi. Har o'qchiganda vujudi titrab, qo'rqinchli ovoz chiqarardi. Bu ko'pga cho'zilmadi, yuzini yuvdida:

-Anor bering, anor eyman,-dedi.

-Hozir olib kelaman deb tashqariga yugurdim. Supermarketdan anor olib chiqayotsam:

-Shunqor aka,-dedi bir yigit. Tanimadim.

-Kimsiz?-dedim. Tanimadingizmi?

-Yo'q...

-Meni ushlagan edingiz. Dollar yasab yurardim. Qo'lga olib, o'n yilga qamatgandingiz. "Zvonokdan zvonokkacha» o'tirib chiqdim.

-Endi bu ishlaringni qilma...

-Qamoqdan chiqsang menga uchra degan edingiz, mana topdim sizni.

-Qanday topding?

-Esingizda yo'qmi, meni eng zo'r xakker ekansan, degandingiz. Mayli anorni Zuhra opamga bering, bosh qarong'i bo'lganlar. Qaytib chiqsangiz, gaplashamiz,-dedi.

Jahlim chiqdi. Yoqasidan olib, uloqtirmoqchi bo'ldim. Ammo tiyildim. Bu bola demak uyimga «qo'ng'izcha» qo'ygan. Ammo qanday? Balki kompyuterga ulangandir? Buni bilishim kerak.

-Yur, anorni beraylik, keyin gaplashamiz,-dedim.

Uyga kelsam, Zuhra ancha o'ziga kelibdi.

-Ish chiqdi,-dedim unga.-Sen anor eb, uyni tekshirib chiq, komputerlarni ham. Bizni eshitishayapti ekan. Men birozdan keyin qaytaman.

-Aytganmidim, ish chiqsa joningiz kiradi, deb.- Mayli, tezroq ayting.

Tashqariga chiqsam, boyagi yigit:

-Derazangizga «tariq» antenani otgandim, hamma digital narsalarga «kirdim». Derazangizdagi «tariqni» o'zingiz olib tashlashingiz mumkin. Chap tomondagi derazaning yuqiri qismidagi o'ng burchakda,-deb ko'rsatdi u.

-Oting nima edi?

-Otabek.

-O'n yilda xakerlik yodingdan chiqmabdi-da?

-Bu ishim xakerlik emas, josuslik. O'n yilda yana ham pishdim. Chiqqanimdan beri idorangizdagi kompyuterlarga ham "safar qildim? G'ulom aka bilan gaplaringizdan ham xabarim bor. Ikki haftadan beri uyingizda qolayotganingiz sababini ham bilaman.

-Unga ishladingmi?

-Yo'q. Uning qamalib ketishi aniq. Sizga ishlamoqchiman. Sizni hurmat qilib qolgandim. O'shanda meni qanday topganingizga tan berganman.

-Bo'lmasa, shantaj qilayapsanmi, pulga ehtiyojning bormi?

-Yo'q. Istaga bankadan istaganim qadar tortib olishim mumkin.

-Unda menga qanday talabing bor?

-Siz bilan birga ishlamoqchiman.

-Nega?

-Umrinni qolgan qismida vatanga xizmat qilish niyatim bor. «Gnida»larga ko'rsatib qo'yaman. Ko'chasiga ham, mentlariga ham. Ular qamoqda azob berishdi menga. Qandaydir konga olib borib ishlatishdi. Sochim to'kildi. Mazzam qochadigan bo'ldi. Hunarimni ko'rsatib, keyin o'lsam bo'laveradi.

-Nega o'limi o'ylab qolding?

-Saraton kasali deb tashhis qo'yishdi. 4-5 yil umrim bor ekan. «Gnida»lar mani shu kuyga solishdi. Ularga urush ochdim.

U samimiy edi. Haqiqatdan sochi to'kilgan, qoshi oqargan, yuzi zafaron. Biroz tojikcha aktsent bilan gapirardi. Kimlardandir qasd oladigan qiyofasi bor.

-Nimadan boshlaymiz,-dedim uni sinash uchun.

-Man uje boshladim. Mana bu fleshkani ko'rib chiqing. Unday keyin uchrashamiz.

-Seni qanday topaman?

-Men o'zim sizni topaman. Bu fleshkani ko'rib, analiz qilishingiz uchun 3-4 kun ketsa kerak. Yakshanba kuni soat 3-5 orasiga biror narsa rejalang, qaerda bo'lsangiz o'sha joyga kelaman.

-Telefonimga ham kirdingmi?

-Yo'q eni kiraman,-dedi u ishonch bilan. Kulib qo'ydim va xayrlashdik. Ammo shu damda o'zimni o'ta bilimsizdek, qo'lida ish kelmaydigan odamdek his qildim. Bitta «zek» bola meni mot qilib qo'ydi.

Lekin ko'nglimda negadir bu bola G'ulomga ishlaydi degan bir hadik bor. Tezda uyga kirib, fleshkani eski kompyuterimga uladim. Unda antivirus kuchliroq edi. Aytib bo'ladimi, o'yin bo'lishi ham mumkin. U bilan suhbatni kiyimga qo'yganim mitti video bilan yozib oldim, u sezdi shekilli, ko'pincha boshqa tomonga qarab gapirdi.

Fleshkani ulasam, ichida to'qqizta zip fayl bor ekan.

Birinchisining nomi: "Salom Shunqor aka" deb nomlangan. Ochsam, mening yillar davomida idorada to'plagan fayllarim. Ha, bu G'ulomning odami! Bo'lmasa bularni qayerdan oladi?

Ikkinchi faylning nomi: "Salom Zuhra opa" deb nomlangan. Uni Zuhraga ko'rsatgim kelmadi. Shunday ham boshi og'rib, ko'ngli aynib turibdi.

Keyingi fayl rais haqida. Hatto «Muhtaram» haqida ham hujjatlar, videolar to'plangan. Unga "Lap-lapchi" deb nom qo'yilgan. U bolani tezda topib, qamoqqa olgim keldi. Ammo ishni xom qilgandim. Uni topish uchun vaqt ketadi. Kutishdan boshqa ilojim yo'q.

U qanday qilib bu fayllarni qo'lga kiritdi? Xaker bo'lganda ham buning iloji yo'qku? Qanday qilib tizimga kirdi? Elektron maktublashma tizimiga kirishning yo'lini topish mumkin. Ammo tizim ichidagi maxfiy hujjatlarni qanday qilib oldi ekan? Oxirgi fayl G'ulom haqida Uning hamma qilmishlari to'g'risida videoyozuvlar, uning sirli so'zlashuvlari, giyohvand moddalarni qaysi yo'llar orqali olib kelib, qaerlarga etkazib bergani, o'ldirgan odamlari... Ko'nglim biroz xotirjam bo'ldi. Demak, u G'ulomga ishlamaydi. Qanday qilib buncha hujjatlarni to'plangan? Kim kimni kuzatgan? Kim yozib olgan? O'ylab o'yimga etolmadim. Uxlab uxlay olmadim. Masalaning uchini Zuhraga aytgandim. U ham hayron.

Diqqatimni chil-chil qilib yuborgani «Horse» deb nomlangan zip-fayl bo'ldi. Nahotki? Nahotki, men ishongan odam xoin? Nahotki uning hamma gapi yolg'on? Qanday qilib u rol o'ynab yashamoqda? Inson umr bo'yi ikkinchi yuzi bilan yashashi mumkinmi?

Shu damda «Muhtaram»ni pana joyga olib borib, do'pposlab-do'pposlab so'roq qilgim keldi. To'xta, bularning bari yolg'on bo'lsachi? Maqsadlari uni yo'qotishdir? Shunqor, hushyor bo'l, o'yin ichidagi girdobga tushib qolma!

Xullas, hafta oxiriga qadar do'zax azobini ko'radiganga o'xshayapman. Kim? Kim? Kim? Faqat shu savol, xuddi ikki damli xanjarga o'xshaydi bu savol. Miyadan

chiqaraman desam, yurakka uriladi, yurakdan chiqarib tashlayman desam, biqinimga sanchiladi. E, Xudo, kunlaring buncha uzoq, tunlar bu qadar uzun! Tong otishi o‘lim qadar, kuni botishi o‘lim qadar! Atrofimda kim bo‘lsa, hammaning sir-asrori to‘plangan. Uni ko‘rganimda yuziga qanday qarayman? Ustimdan kulmaydimi? Jilmayib, masxara qilmaydimi?

23. Qahramon

«Muhtaram» chaqirmayotganidan men xavotirda, Zuhra esa mamnun. Uyqum kelmaydi. Zuhra pishillab uxlaydi. Juda ko‘p uxlaydigan bo‘lib qoldi. Yangiliklarni internetdan bilayapman. Dunyoda eng yomon narsa seni unutib qo‘yishlari, hech kimga kerak bo‘lmay qolishing. Kim bilsin, balki «Muhtaram»ning qandaydir rejalari bordir? Yaxshilab dam olsin, deb o‘ylayotgandir? Balki video haqida aytgan gapim yolg‘onligini bilgandir? Ko‘zimga qarashdan uyalmoqdami? Yo‘q, undan hamma narsani kutish mumkin, ammo uyatni emas. U uyatni etti qavat ko‘rpacha qilib, ustiga chiqib o‘tiradi.

Lekin uyqimni o‘g‘irlagan «Muhtaram»ning chaqirmayotgani ham emas, balki Otabekning fayllari.

Aytilgan kun ham keldi. Vaqtidan oldinroq ko‘chaga chiqib, pana joy izladim. Yo‘q, pana joy xavfli. Agar kuzatishsa, suratga olishlari qulay. Videoga tushirishlari ham oson. Yaxshisi eski taktikani qo‘llayman. «Evos» kafesiga bordim va bitta kofe hamda engil egulik olib, derazadan uzoqroq joyga «cho‘kdim». Endi atrofga qarayman degandim, Otabekka ko‘zim tushdi. Demak, u ancha oldin uyimning yoniga kelgan va chiqishimni kutgan. Keyin orqa «vagon»ga aylangan. O‘l-e Shunqor! Shuncha ham boqibeg‘am bo‘lasanmi? Hushyorliging qayoqqa yo‘qoldi? Miyangni

yog' bosdimi? O'zingni bu bolaning qo'liga laqqa baliqdek topshirib qo'yding-ku! Yo'lini top va uni mot qil.

Bunday paytda yashin tezligida o'ylash va xuddi shunday tezlikda xulosa qilish zarur.

Otabek ham bir narasalar olib, yonimga keldi va salom berdi.

-Yaxshi joy tanlabsiz,-dedi u salom-alik qilarkan.

-Ha, boshqalardan yashiradigan gapimiz yo'q. Lekin uydan chiqqanda sizni sezib qoldim, kuzatib kelganingizni ham bildim. Avval ko'chada gaplashaylik deb o'yladim, keyin bu joyda doim musiqa borligi yodimga tushdi.

Otabek jilmayib qo'ydi.

-Yo'q sizga «dum» bo'lmadim. Telefoningiz «lokatsiya»sidan kuzatdim.

-Telefonim?

-«Blutus»ni doim ochib qo'yasizku? Lekin boshqa yo'llari ham bor,-dedi u mug'ombirona tirjayib.

-U holda meni boshqa odam kuzatmoqda. Balki ikkalamizning bir oraga kelayotganimizdan kimlardir xavotirga tushgandir?-deya o'zimni oqlashga urindim. Shuncha tajribang bo'lib, mana bunga kulgi bo'lib o'tiribsan, Shunqor! Senga nima bo'lmoqda?

-Kuzataversin,-dedi Otabek. Qo'lidan nima ham kelardi? Endi sizga narvon qo'yib ham etib bo'lmaydi. Istagan odamingizni olovga otib, jizg'anak qilishingiz mumkin.

Pastdagilar tepadagilar haqida shunday o'ylashadi. Ammo tepaga chiqqan sayin qo'rquvga engilish borligini bilishmaydi. Hozir hov ana u burchakda ayoli va ikki jajji bolasi bilan o'tirgan odamga qanchalik havas

qilayotganimni bu qayoqdan bilsin. Hayotim hayotmi? Do‘zaxning qoq o‘rtasidamanku?!

-Ha, «duma»ga kirib kettingiz?,- Yana xayolimni buzdi Otabek.- Xavotir olmang, endi yoningizda «atasnik» bor.

-U nima nima deganingiz?

-Sizlarga qamoq so‘zlarini o‘rgatishmaganmi? «atasnik» deb xavotirdan ogohlantiruvchi «dlinok»ka aytiladi.

-Biroz bilaman, sen haqiqatdan ham «dlinok», aqlingni ishlatishni bilasan. Ha, mayli, menga o‘sha so‘zlaringni kamroq ishlat. Umuman ishlatmasang ham mayli.

-Harakat qilaman, shef!

-Maqsadga o‘taylik. Bu narsalarni qaerdan olding?

-Jahlingiz chiqdimi, yana senlayapsiz? Yo doim senlang, yo sizlang. Xafa bo‘lish yo‘q. Yaxshisi senlab gapiring. Bu «svoyak»ning belgisi. Bizning dunyomizda shunday deyishadi. «Shuller»ga «svoyak» bo‘lish katta maqom.

-Xo‘p, ukam, bas qil bunaqa jargonlarni. Men «paxan» emas, demak «Shuller» ham emas. Buni qaerdan olding?

-Taxmin qilmadingiz-mi?- Otabek yana ko‘zini pastga olib qochib, o‘zini tirjaygan qilib ko‘rsatdi.

-Shu qadar ko‘p narsaki, taxmin qilishga ham vaqt topolmadim,-dedim uning bu holatiga e‘tibor qilmay.

-Ha, men o‘zim shunchaki qarab chiqishim uchun bir hafta ketdi. Ammo sizning «talantusha»ngiz mendan kuchli, shu uchun qisqa vaqtda hammasini ko‘zdan kechirasiz deb o‘yladim.

-Shunaqa bir-birimizga «lanka» tepib o'tiraveramizmi? Gapni qisqa qilaylik!

-Aka, men kasalman, aytgandim sizga. Umrinning qolgan qismini yurtimga atadim. Bu faylarni ko'rganimda ko'z oldim qorong'ulashib qoldi. Vatanni qutqazish kerak. Ikkita o'g'lim bor. Ularning ertangi kuni nima bo'ladi? Yaqinlarimiz, ota-onalarim nima qilishadi? Ularni qilichdan o'tkazishadimi? Qul qilib olib ketishadimi? Bu gaplarim sizga kulgili bo'lishi mumkin, ammo men o'g'illarimni juda qattiq sevaman. Qamoqdaligimda tug'ildi bittasi. Shuning uchun ismini Ozodbek deb qo'ydim. U ozodlikda edi, men esa bandi, qilgan xatoimning badalini o'tayotgandim. Mana endi uning ozodligi ikkalamizning qo'limizda.

Otabek, Otabek, mana odamga o'xshab gaplasha olarkansanku? Ko'p kitob o'qiganing ham sezilib turibdi. Ammo ikki shaxsiyati bor odamdek, boya boshqa yuzingni ko'rsatayotgandek eding. Mahbus kabi gapirayotganding. Endi esa ozodlikdasan.

-Mana shunday odam tilida gaplashaver,-deb qo'ydim unga.-Savolga aniq javob qilmading?

-Menimcha qaerdan olganimni bilasiz. Ammo qanchaga olganimni bilmaysiz.

Tushunding Shunqor! Oddiy odamlar internetning yuzini ko'rishadi. Xakerlar esa uning orqa tomonida, qora zonada harakat qilishadi. Bozorlari bor. Fayl sotib, fayl olishadi. Ba'zan ma'lumotlarni tekinga almashadi.

-Menga qizig'i bu narsalar qanday qilib qora bozorga tushdi? Kim to'pladi bularni? Kim yozib olgan? Qanday yozgan?

-Katta pulga sotib oldim, o'z million dollarga. Yuz million so'rsa ham topib berardim.

-Men bog'dan kelsam, sen tog'dan kelayapsan. Bunaqada birga ishlay olmaymiz. Asabimga o'ynayapsan.

..., -U o'ylanib qoldi. Demak, gapim ta'sir qildi.

-Xo'p, o'n millionni qayerdan olding? -dedim qat'iy ohangda.

-«Muhatarm»ning fondidan chiqardim.

-Bilishmadimi?

-Kim hisob-kitob qiladi? Bir paytlar o'zingiz ham shu fondan amaldorlarga tarqatar edingiz. Hisob-kitob qilinarmidi?

Bu bola hamma narsani biladi-ya? Shunaqa odamlarimiz boru biz kimlargadir qaram bo'lib yuribmiz. Nega o'sha paytda bu bolani qutqazib, yonimga olmadim? Qamoqda o'tirguncha qancha sirlarni ochib berardi. Chet mamlakatlarda shunday «vundirkin»larni ushlashsa, ularni o'zlariga ishlatishadi. Men nima qildim, buni bandi etdim. Davomi bilan qiziqmadim.

-To'g'ri aytasan, -dedim “pastga tushgan” ohangda.

-Xayriyat, Shunqor aka, eni xursand qildingiz. Ozgina bo'lsa ham tan oldingiz. Demak, xumni ochsam bo'ladi. Bu «zip»lar qora makonga “Ali bobo”ning bozoridan tushdi.

-Xitoyning “Ali bobo”simi?

-Ha-da, aksariyat xakerlar o'sha erga to'plangan. Ularning ba'zilar ikki frontga ishlaydi. Shulardan mashhuri «Horse-1» «niki». E, kechirasiz, laqabi ostidagi xaker. Unga hamma tan beradi. U “Oltin xazina” deb nomlangan bu «zip»larni Xitoy idoralaridan tortib olgan. Sotuvga qo'ydi. Mallavoylar birinchi xaridor bo'ldi. Men ham kirdim. Savdolashdik.

Ruslarga sizlar chekinib turinglar, men olayin, keyin birgalashib «eymiz» dedim. O'n million dolarga oldim. Lekin nusxasi «Horse-1» da qolgan bo'lishi aniq. U "sariq bozor"da ham ishlaydi. O'sha yoq orqali bir nusxasini ruslarga ham sotishi aniq.

...Bunday paytda odam ongning ostki qismini ishga soladi. Ham suhbat qilasan, ham tahlil. Shunqor, sen ham ba'zan "Sariq bozor"ga kirib turasan. U erda ma'lumotlar kriptovalyutaga sotiladi. "Qora bozor"da esa naqd pulga. Hisobiga pulni transfer qilib, ma'lumotni oladi. Otabek ikkalasiga ham kirsak kerak.

-Ikki bozorda ham ayni «nik» bilan ishlaysanmi?-dedim unga.

-Yo'q, boshqa-boshqa. Lekin ustalar "barmoq izi"dan bilishadi. Buning unchalik ahamiyati yo'q.

-«Zip»lardan qaysi biri diqqatingni tortdi?- uning boyagi savolini o'ziga tashladim.

-Faqat bittasi. Qolganini bilardim, tushunardim. Hammayoq korrupsiya bo'lib ketgan. Sizlarda ham toza odam kam. Ayniqsa tepalarda. Pastda borlari ham tepaga chiqsa buzilishga majbur. Shuning uchun ularga ko'p e'tibor bermadim.

-Demak, sening ham diqqatingni «Horse» tortibdi.

-Ha... Sizni ham xuddi shu bezovta qilishini oldindan taxmin qilgandim.

-Do'stlashib qolayapmiz.-dedim unga biroz ishonchdan «otib».

-Qani edi do'stlashsak, nozik joyimni topdingizmi, oldingi kabi zindonga jo'natasiz. O'shanda siz bilan ishlayman

degandim, “Senga o‘xshagan jinoyatchi bilan ishlaydigan ahmoq yo‘q” deb javob bergandingiz. Ruhim s ingandi. Tiklash qiyin kechdi. Hozir ham shu fikrdasiz.

-Otabek, hozir ham shu fikrda bo‘lganimda sen bilan mana bu erda emas, kamerada gaplashayotgan bo‘lardim.

-Bilaman, qonunlardan tepadasiz. Hozir ham bir ishora bilan ushlashingiz mumkin. Shu erda ham odamlaringiz bor.

-Nimalar deyapsan?

-Ilgarilari «quloqlar» bilan shu erda uchrashar edingiz.

Voy «blin»! Bu bolaning bilmagan narsasi bormi o‘zi? U bilan gaplashish taktikasini o‘zgartirishim, pastga tushishim kerak.

-Mayli, ketdik, ko‘chada gaplashamiz. Qo‘rqadigan joyimiz yo‘q. Sen ham ishga olinding hisob. Bundan keyin menga yordamchi bo‘lasan.

-«Muhtaram» nima der ekan?

-Uning nima deyishi meni qiziqrtirmaydi. Ayniqsa, sen bergan fayllardan keyin. Kerak bo‘lsa uni ham, yaqinlarini ham...

-Qanday qilib?

-Shuncha narsaga aqling etgan ukam, shunga etmadimi? Qo‘lingda ikki bozor bor. Uchinchisi ochiq bozor, o‘sha yoqqa sizdiramiz. Xalq bilsin! Chet ellarga bitdan nihol ekib qo‘yibman. O‘shalarni sayratamiz.

-Lekin foydasi bo‘larmikan? Xalq... bilsa ham bilmaslikka oladi.

-Unda nima qilamiz? Ot haykalchalar hammaning xonasi yoki uyida turaveradimi?

-Nega oldin shu haqda o‘ylab ko‘rmadingizlar?

-O‘yladim, ukam, o‘yladim. Ammo hammada bor edi. Hatto menga ham berishgan. Tekshirib ko‘rgandim. Tarkibida sopol dan boshqa narsa yo‘q edi. Uni “Shanxay klubi” mansublarining ramziy belgisi deb bilishadi.

-Ko‘rdingizmi, qancha orqada qolganmiz. Ana shu sopol ichida zarra kameralar bor, atrofdagi ovozni yozadigan va Xitoyga uzatadigan ko‘rinmas «chip»lar mavjud. Bundan tashqari o‘zlaringiz hamma texnikani ulardan olasizlar. Xonadagi soatdan, qo‘lingizda telefonga qadar ularniki? Binolarga o‘rnatilgan ”ko‘z”lardan tortib, yo‘llardagi kameralargacha ularniki.

-Bilaman... ukam, bilaman. Ammo qo‘limizdan hech narsa kelmaydi. Hammani sotib olishgan.

-Lekin sizni hali tuzoqqa tushirishmadi.

-Balki endi tushirishar. Ikkalamizning gaplarimiz borib etar.

-Yo‘q, men o‘z jihozlarimni tozalaganman. Sizni telefoningizga kirib, uni ham «chekanka»ladim.

-Yaxshi qilibsiz? Bu ablahlar hamma narsani sotishmoqda. Maqsadlari nima? Axir o‘lsa shu erga ko‘miladilarku? Nahotki o‘z avlodlarini kimlargadir qul qilib ketsalar? Otabek, men senga yuz foyiz ishon dim. Seni sinab ham o‘tirmayman. Birovga sotishingdan ham qo‘rqmayman. Chunki hammasi jonimga tegdi. Odam qassobi bo‘lishning og‘irligini his qila olmaysan, uka?

-Aka sizda yurak borligini bilardim. Shuning uchun ham o‘z tug‘ishgan akasining yoniga kelgan kabi qo‘rqmadim.

-Rahmat! Atrofingda o'zingga o'xshagan yigitlar, qizlar bormi?

-Kuchli odamlarimiz bor. Masalan, Qahramon aka...

-Uni qayoqdan bilasan? Biz uni ko'p qidirdik, ammo izini topolmadik.

-U kishi hajga borib kelganman deb, ismlarini ham, pasportlarini ham o'zgartirib olganlar. Sizlardan ko'p ham uzoq manzilda emaslar. Oqsoqol qiyofasida bizlarga odob-axloqdan dars berib yuribdilar. Diniy yo'l bilan qamalgan mahbuslarni tarbiyalash bahonasida qamoqqa ham kirib chiqardilar.

-Odob-axloq deganing hozir ikkalamiz gaplashayotgan gaplarmi?

-Ha, u kishi vatanni sevadigan odam. Yurtini qutqazish orzusida. «Doda» o'lganda sevingandilar. Lekin hozir juda xafalar, bitta siyosiy partiya shamsiyasi ostida to'planib, parlamentga kirib, hamma narsani asta-asta xalqimizga qaytarish kerak degan fikrdalar.

-Qahramon aka hozir qaerda? Uchrashish imkoni bormi?

-Kafeda qoldilar. O'sha erda o'tirgandilar. Biz birga kelgandik. Sizni uzoqdan u kishiga ko'rsatmoqchi edim. Iltimos, xafa bo'lmang.

-Bugun uchun keragidan ortiq gaplashdik. Hozircha «Muhtaram» bilan ko'rishmayapman,-dedim engilayotganimda ozor chekib. Otabekning oldida o'zimni juda zaif tutayapman.

-Lekin erta indinga chaqirib qoladi?-dedi Otabek boshimga bolta bilan urgandek.

-Vanga bo‘lib ket-e! Folbinlik ham qilasan-mi?

-Yo‘q, idorangizga bir ma’lumot tashladik. Bugunoq «Muhtaram»ning qo‘liga boradi. Aminman, bu masalani sizga topshiradi.

Otabekni rasman ishga olishga qaror qildim. Zotan, «Muhtaram»ning o‘zi shundaylardan alohida bir guruh tuz degandi. Unga Qahramon akaning shogirdlaridan topishni buyurdim.

Qahramon aka bir paytlar idoramizdagi hammaning uyqusini qochirgan. Uning chet eldan kirib kelganini eshitganmiz. Otini bilardik, xolos. Ammo kecha-kunduz qidirib topolmaganmiz. Yillar o‘tib, u bilan yuzma-yuz kelish hammaning orzusiga aylandi. Mana, bu ham qismatingda bor ekan, Shunqor! O‘zi keldi senga!

Otabek bilan xayrlashib, uyga etib kelgandim hamki, «Muhtaram» telefon qildi:

-Yaxshi dam oldingmi, bas, endi ishga chiq! Kechqurun oldimga kir!,-dedi.

Aytgan paytida etib bordim.

«Muhtaram» kompyuteridan nimanidir o‘qidida menga:

-Eshitdingmi, Qahramon akang paydo bo‘libdi. Mana bularni u yozayotgan ekan. Top va oldimga olib kel. Qahramon akaning yozganlarini oldimga tashladi va ”O‘qi” dedi. O‘qiy boshladim.

"Mustaqillikdan bir yil oldin edi. Suv xo‘jaligi institutiga jiyanimni izlab borsam, kartoshka ko‘tarib kelayotgan ekan.

-Otang yotib qoldi, shunga seni olib ketgani keluvdim,- dedim unga.

-Yaxshimilar? Ketdik, faqat mana shuni domlga berib o'taylik.

-Domlang qaerda?

-Kafedrada zachyotda besh kilo kartoshka olib kel devdi.

-Uyiga olib borib bermaysanmi??

-Kafedraga to'g'ri ko'tarib boraveraman, hamma shunaqa qiladi,- dedi.-Yaxshi domla. Pulingiz bo'lmasa, narsa oladi, xafa qilmaydi, qo'yib beradi. O'zi ham qishloqdan chiqqanda.

Ko'p o'tmay o'sha domla deputatlika tanlandi. Tumanga, so'ng viloyatga hokim bo'lib o'tganda kartoshkaning davri keldi deb kulishardik. Mana bugun u hammamizga domlalik qilmoqda. Qahatchilk davrida kunimiz kartoshkaga qolardi. Buning davrida ham shunday bo'ldi. ”

-He onangni...-dedi «Muhtaram» tugmani bosib,-Tvar! Malakasos! Sen bolani odam bo'lasan desam, nima qilib yuribsan? Dunyoni suv bossa ham to'pig'ingga chiqmaydi,- deb baqirdi u telefonga.-Ishdan olaman seni, pogoningni yulib tashlayman. Bitta odamni top desam, nafasing ichiga tushib ketadi. Topdingmi? Videolarni nima qilding, internetdan olib tashlatdingmi?

Kimga gapirmoqda? Ikkinchi qatordagi, birinchi chiroq. Demak, Ichiki ishlar vaziri. Bugun undan norozi. Ikkita- uchta videolar internetga chiqib ketgan va butun mamlakat kulib yotibdi.

Telefonni qo'yib, menga yuzlandi va

-Sendan boshqasi aytganimni bajarmaydi. Qani o'qi,-dedi.

"Saudiyalik jallod qilichini charxlab o'tirib, muxbirning savolariga javob qilganda, "Ishim shu! Vazifamni bajarayapman. Qilichim o'tkir bo'lishi kerak va bittada boshni uzishim shart!"degan.

Bugun «Muhtaram» jallod Chalmatovni yana ishga chaqirdi.

Men shaxsan haj ziyoratini musulmonlik talablaridan bittasi, deb qabul qilaman, o'tmishda qilgan jinoyatlari uchun tavba qilinadigan oliy dargoh deb hisoblayman. Chalmatov o'z xalqiga nisbatan qilgan jinoyatlarini yuvish uchun hajga borib keldi. Agar u gunohlari uchun tavba tazzarru qilgan bo'lsa, nimaga jinoyatlarni xaspo'shlab, yolg'onlarni gapirishni davom qilmoqda? Sherigi uni yoniga oldi. Ularning orasida gap ko'p. «Muhtaram»ning jinoyatlarini u yopib kelgan. Juda yomon gaplar bor. Bilganlarimni keyinchalik yozaman."

«Muhtaram» boshini ko'tardida:

-Chalmatovga ayt, kechga saunasini hozirlasin. Sho'rva solsin! Kirib o'tamiz!-dedi.

Bir zumga tashqariga chiqib Chalmatovga sim qoqdim va qaytib kirdim.

-Davomini o'qi,-dedi «Muhtaram»

"Oliygoch yotoqxonasida rus bolalar ham turardi. Talabalardan biri bahslashib, urusga "Sanlar bosib olib hamma yoqni rasvo qildilaring, qani bizning paxtamiz, qani bizning tillomiz, agar sanlar bizni bostirib olmaganlaringda hozir tillo qoshiqda ovqat eb o'tirgan bo'lardim" deb qoldi.

urus ham bo'sh kelmadi.

-Sanlarning rahbarlaring sotdi, biznikilar oldi. Tekinga sotdi! Olmasinmi? Qo'lingan kelsa mustaqil bo'l, o'z

narsangga o‘zing xo‘jayin bo‘l!-dedi urus ovozi
balandlatib. Shunda kutilmagan voqe yuz beradi. Oramizdan
bir yigit o‘rnidan turib, savolga odamga bir tarsaki tortdi.

-Sen milliy masalani qo‘zg‘ayotganingni bilasanmi,
buzg‘unchi?-deb chiqib ketdi. Ko‘p o‘tmay savol bergan
odam yo‘qolib qoldi.

Mana mustaqil ham bo‘ldik. Shuncha yil yashab ham
qo‘ydik, mamlakatni boshqarish o‘zimiznikilarga o‘tdi,
lekin oddiy xalq qo‘lidagi besh tiyinlik alyumin qoshig‘ini
ham oldirib qo‘ydi. Yurt boshqa mamlakatlar uchun qullar
makoniga aylandi. Jamiyat har tamonlama inqirozga
yo‘liqdi. O‘sha savol bergan bolani sotib, komsorg bo‘lib
olgan bola shu «Muhtaram» edi”

-Kim bo‘ldi bu Qahramon? Kim? Shunqor biz bilan
o‘qiganlarning hammasini topasan va elakadan o‘tkazasan.
O‘shanda uni ushlaysan. Davomi o‘qi:

“Mihtaram”ga og‘ay otasidan vasiyat qolgan. Vasiyatda
mamlakatni boshqarish uchun odamlarni kambaga‘al
darajasida ushlab turish kerakligi aytilgan. Xalq qorni,
ro‘zg‘ori bilan band bo‘li qolsa, uni siyosat qiziqmaydi,
degan o‘gay otasi.

Uruslarda kelgan «imajmeyker» maslahatchilar esa unga
jarangdor, vahimali nutqlar qilib turish, jurnalsitlardan
qochish, o‘ziga dushman yartamaslik, o‘zini xalq dardini
eshitayogandek qilib ko‘rsatish, rahbarlarni tez-tez u yoqdan
bu yoqqa lamshtirib borish, o‘ziga sadoqatlilarning boshini
egmaslik, boyliklarni ular bilan baham ko‘rish,
qarindoshlarini muhim nuqtlarga joylashtirishni
o‘rgatishmoqda.

Qarang, bog'chadagi boladan tortib, daladagi ketmonchiga mikrofon tegsa, «Muhtaram»ga rahmat" deb turibdi. Odamlarda vatan, kindik qoni degan gaplar o'z ma'nosini yo'qotib borayapti..."

-Bas!,-dedi «Muhtaram». Shunqor! Ishonganim san, buni top va Chalmatovga topshir! Qonini ichsin, satillab ichsin!

Bunday paytda jim turib engish kerak. «G'ing» dedingmi olovga kerosin sepgandek bo'lasan.

Qahramon aka qisqa-qisqa, ammo nishonga uradigan qilib yozgandi. «Muhtaram»ning suratini chizib, o'ziga ko'rsatgandi.

Shunqor, bu Otabek deganing seni ham tutib berdi-ku? Qahramon akani topish senga yuklatildi. Nahotki sening ham oxiring ko'rinib qoldi? Yo'q. Darrov engilma! Ular biror yo'lini ham o'ylab qo'yishgandir!? Bo'lmasa o'zing topasan.

Bu elning, bu xalqning peshonasi shu qadar sho'r ekanmi-a? Bittasi erga kirdi. Ikkinchisi undan ham o'tkazadi, shekilli? Shuncha yillar faqat va faqat mana shu kursiga o'tirish uchun yashagan ekan. Bunday odamdan har qanday yomonlikni kutsa bo'ladi.

Mamlakatning boshiga birin-ketin ofatlar yog'ila boshladi. Zulmat indi hamma yoqqa. Saltanatning esa chiroqlari yonib turibdi.

(Ikkinchi kitob tugadi. Quyida ushbu qissani kirilda ham o'qishingiz mumkin). 2023 yil.

САЛТАНАТ

Қисса

Иккинчи китоб

Президент тансоқчисининг кундалиги

“Муаллифга мактуб

Ассалому алайкум, ҳурматли Жаҳонгир ака!

Сизга Таймурнинг кундалигини мен юборгандим. Нашр эттингиз ва кўп одам ўқиди, ҳали ҳам ўқишмоқда. Биламан, сиз ўқувчиларнинг анча-бунча саволларига аниқ жавоб беролмадингиз ва беролмас ҳам эдингиз. "Шимолий Корея"да шундай, кўп нарсалар сирли ва изоҳлаш жуда қийин.

Ака, Тайчини мен ўлдирганман. Ева рол ўйнаб берган, холос. Аммо ҳалигача зиндонда. Балки керак бўлар, деб сақлаб турибмиз. Ўша кун Таймур қонга беланиб ётаркан, хонасидан кундалигини топдим.

Кузатув видеоларини узгандик. Евани беҳуш қилиб, эрталабга қадар кундаликни ўқидим. Миям портлаб

кетди. Оёғим қалтиради. Билмадим, қандай куч билан кундаликнинг охирги сатрларини қўшдим. Балки ҳазил қилиб ёзгандирман? Балки киноя? Йўқ, ўша кун мен ўзгардим. Биламан ишонмайсиз. Аммо одам бир кунда, баъзан бир соатда ҳам ўзгаради. Мени Таймурнинг кундалиги йиртқич ҳайвондан одамга айлантиргандек бўлди.

Таймурнинг кундалиги жуда кескин таъсир қилди. Ўзимнинг манқурт ҳолга тушиб қолганимни ҳис қилдим. Ваҳоланки, отам мендан буни кутган эмас. Мен халққа хизмат қилишим керак эди. Аммо қотилга, жиноятчига айландим. Халқнинг аҳволи эса тузалмаяпти. Нималар бўлаётганини ҳеч ким билмайди. Ёзилган, айтилаётган ва ҳатто миш-мишлар ҳам юз бераётган воқеалардан олисда.

Сизнинг видео суҳбатларингиз эса ҳар қуни қалбимга тиғ бўлиб санчилди. Худди менга гапираётгандек эдингиз. Хуллас, нима бўлса бўлар, йиқилсам, ё тупроқ тишлаб тураман ва ё қон тишлаб ётаман дедимда, мен ҳам ёза бошладим. Сизга етказиб тураман, олмадингизми, у ёғини ўзингиз тахмин қилаверасиз! Фақат билингки, бу дунёда биз ҳам бор эдик. Бор эдик! Аммо ҳеч нарса қилолмадик ва қилолмаяпмиз. Шу нарсани ҳамма билишини истайман. Бунинг учун эса, бугунгача кўрганларимни ва бугун кўраётганларимни батафсил ёзиб бораман. Дуо қилиб турингки, ҳикояларим беаҳалда узилмасин!”

1. “Батя” ўлган кунлар

Ўн йил давлатнинг тепасида ўтирган “окашон”ларнинг хотинларига бели синмаган “яшил”идан ташидим. Улар

хукумат боқимида турадилар. Хотинлари телефон қилиб озиқ-овқат буюради, хукумат машинаси таркатади. Мен шофернинг шериги. Сандироқиға ўхшасамда, аслида бу жуда муҳим иш. Раиснинг энг яқин одами бўлганим учун бу вазифа менга юклатилган. Ҳайдовчи озиқ-овқатни ташийди, мен унга ёрдам берган бўлиб, кеннойиларга аталган “ҳалта”чани етказардим.

“Янга”ларнинг ҳаммаси бир хил.

Индамай олади, бошини секингина қимирлатиб, ичкари хонага ўтади. Орқадан бориб:

-Санаб олсангиз...,-дейман.

-Ҳаммаси тўғри, нимасини санайман, укажон?

Бугун фалон йил, фалон кун, фалончи фалончиевга айтиб қўясиз, дейман.

-Албатта, албатта... ҳар сафар айтаман! Кўнглингиз тўқ бўлсин!

-Қўшимча керак бўлса, телефон қиларсиз!

-Хўп, хўп укажон, барака топинг!

Менга шу етарли. Костюмимнинг олд чўнтагидаги видеоёзув камераси қайдиятга олади.

Кейин файлга ўтказаман ва ҳар бир раҳбарнинг “папка”сига жойлаб қўяман. Бир нусхасини “флешка”га кўчириб, ойма-ой Раисга бераман. У индамай чўнтагига солиб қўяди. “Флешка” қаерга боришини ҳам биламан. Чунки йилда бир марта бориб “Тайчи” билан сейфни тозалардик.

“Батя” ёнидагиларга ўз содиқлигини шундай кўрсатарди. Улар ҳеч қачон унга хиёнат қила олмасдилар. Қилмасдилар ҳам. Кеннойилар қанча сўраса, йўқ дейилмасди. “Оғзига келганини айтса ҳам олиб бориб бераверасан”, деганди Раис. Кеннойилар ҳам

анойимас. Фойизни ойма-ой оширардилар. Эрларини кул қилган шулар, аслида.

Пулни Марказий Банкдан олардим ва Раис берган рўйхат бўйича тарқатардим. Ишимдан мамнун эдим. Ўзим ўзимга бек. Номига Раиснинг адюданти. Аслида бу ишни бошқалар бажаради. Раис шу ердалигида хонамдан чиқмайман, компютеримда “давлат сирларини” ўқийман, интернетни “ковлайман”. Баъзи нарсаларни “сиздирувчи”ларга ташлайман. Бизда шундай одамлар бор. Улар муҳолифат орасидаги, хорижий радиолар ва нашрлардаги одамларнинг “одамларига” маълумот етказиб берадилар. Буни аслида “Ғийбат” бўлимидагилар ҳозирлашади. Улар турли режаларни тузадилар, баъзан тепадан тушади топшириқ, гоҳида Раис билан иккаламиз ҳам уйдирамиз.

Хуллас, охири қораламани мен кўраман. Эртасига сизлар интернетда ўқийсизлар. У томони билан ишимиз йўқ. Шов-шувни давом эттириб турадиган бошқа бўлим бор. Булар ҳаммаси бешинчи бошқарманинг ичида тузилган.

Раис бир ёққа кетдими, спорт залига тушардим.

“Батя” ўлдию “ритмим” бузилди.

У ўлдирилган кун ҳеч ким шокка тушмади. Жуда қизик ҳолат. Ўқигандим, Сталин ўлган дам Берия хонадан чиқиб, “Ўлди!” деганда, кутиб турган раҳбарият парво ҳам қилмаган экан. Чунки улар Сталинни аллақачон қалбларига кўмишган. Ёқтирган диванида ётиб қолганидан ва ёнига ҳеч ким киритилмаганидан раҳбариятдагилар уни ўз тафаккурларида яширинча “ўлдиришган”.

Худди шу ҳолат “Батя”нинг ўлимида ҳам юз берди. Ҳеч ким шошиб, талваса кўрсатмади. Додлаган ва уввос солган ҳам бўлмади. Сукунат. Оғир сукунат. Одамларнинг қулоқлари ичида хишиллаб, қичқириб юборишга уринаётган сукунат. Аммо ҳамма хаёлчан. Энди нима бўлади? Ҳар кимнинг фикрига ҳар қандай хаёл келади. Мени “Кеннойилар эшитишса, нима қилишаркин?” деган хаёл тарк этмасди...

Дарвоқе, ўзимни таништирмабман. Қишлоқда мол боқиб ўсган боламан. Исмим Шунқор. Оҳалик тоғи этагида туғилганман. Болалигимда курашда ҳаммани йиқитардим. “Ҳожимурод” деб лақаб қўйишганди. Нимагалигини билмасдим. Катта бўлганимдан кейин негалигини англадим.

Ҳеч эсимдан чиқмайди. Дадам мен билан бошқача гаплашардилар.

-Сен катта бўлсанг, подшо бўласан,-дердилар.- Подшо дегани, еру кўкка хўжайин дегани. Сен бугунги подшога ўхшаган эмас, одил бўласан. Халққа ер берасан, иш берасан, ток берасан, газ берасан, нон берасан...

-Илм демадингиз бу сафар...

-Илм берасан, балки унгача халқ илмли бўлиб қолар?

-Унгача ерли, ишли, токли, газли ҳам бўлиб қолса-чи?

-Айттим-ку, подшо бўласан деб, подшонинг биринчи иши одамлар гапирганда хатосини топиш, ёлғон-рост гапиришни билиш, сен эса бунга қодир.

-Ундай бўлса, нега ўзингиз ҳам ёлғон гапираяпсиз?

-Нима дедим, ёлғон гапириб?

-Ўзим кўрдим, телевизорда бугунги подшо гапирганини эшитиб, бийижоним билан уни дуо қилдингиз, узоқ яшасин, дедингиз.

Дадам одатига кўра тиржайди. Унинг жаҳли чиқса, тиржайишини ҳам билардим. Лекин ҳеч қачон менга бақирган эмас, овозини баландлатган ҳам эмас. Бийижоним сўкканларида дадам дашном берардилар.

-Телевизорни ичида камераси бор. Дуо қилмасак сен подшо бўлолмайсан. Биз дуо қилайликки, у сен катта бўлгунча яшасин ва подшоликни сенга топширсин!

Битта фарзанд бўлганим учунмикан, дадам кўпинча телевизорни ўчириб, мен билан гаплашардилар. Кейин хоналарига кириб, радио эшитардилар.

Мана йиллар ўтди, дадам дуо қилган подшонинг ёнига яқинлашиб қолдим. Мана у ўлди. Дадамнинг орзулари амалга ошмади. Ошмайди ҳам. Подшо бўлиш осон эмаслигини тушундим. Ҳамма подшо бўламан дейди, жой эса битта. Одам ўзига ўзи подшо бўлса, энг катта бахт ўша. Менда бу ҳам йўқ. “Бор” деса бораман, “кел” деса келаман. Подшо нима, унинг атрофидагилар учун ҳам ўзимни ўлимга отишим керак. Ҳатто мана шу гапларни хаёл қилишга ҳам ҳақли эмасман. Буни биринчи бошлиғим айтган:

-Энг катта душманинг хаёл суриш. Сени хаёл ўлдиради. Хаёл суришингни сезиб қолган куним ўзим тугатаман! Бизда ишдан кетиш йўқ! Бизда ишда қолиш бор. Ўлгунча, ўлгандан кейин ҳам! Керак бўлса, майитингни топиб келиб, тергов қиламан!

Дадам хаёлпараст эди. Эртадан кечгача хаёл суради. Демак, эркин одам бўлган экан. Аммо кўп яшамади...

Уйга келгунча хаёл суришга чўчидим. Шунинг учун қўшиқ эшитиб келдим. Ўлган санъаткорларни эшитиш хавфсиз. Кўпроқ Фахриддин Умаров, Таваккал Қодировни эшитаман.

Уйга келиб телевизорни қўйсам, у “ўлмабди”. Тавба қилдим. Нима гап? Сухандон худди отасини кўмиб келган одамдек, ўзини мотам руҳига чўмдирган.

“Вазирлар маҳкамаси билдирадики, "Мутахассисларнинг фикрига кўра, тўлиқ тиббий кўрик ва даволаниш жараёни учун муайян вақт талаб этилади". Нахотки? Тирилиб қолдими? Нафас олиб қолдими? Тирилтирадиган дори бор эканми? Нима бўлди? Нахотки, раис беҳабар? Қайтиб борсамми, унга сим қоқсамми? Тўхта, ўлганига икки кун бўлди-ку! Жиннимисан? Қандай қилиб тирилади? Сен ҳам мана бу ёлғончи қутига ишониб қолдингми? Шунчаликка ҳам борасанми? Демак, каттиқ чарчабсан! Ухла!

Ухлаб бўладими?

Дарвоқе, “Шум”ни билмайманми? Ахир унинг ишларини етти йил кузатдимку?! Нима ишларни қилмади? Андавачи бўлиб кетдим-ку? Агар Таймурга учини чиқарганимда “Шум” осмони фалакка учиб кетарди. Таймур билан ички рақобатимиз бор эди. Унинг “Батя”сини севмасдим. У эса “Шум”ни.

Дарвоқе, унга яширин код ном танлаганимизда “Батя” мени ҳам чақирганди. “Тайчи” билан ёнма ён суҳбатни кузатгандик:

-“Шум” бўла қолсин, -деди “Батя”.

“Шум”нинг ўзи кулавериб қизариб кетди ва “Батя”га “Топқирлигингиз учун қойил,-деди. Кейин:

-Болаликда “Шумтака” деб чаришарди. Ўзимга ҳам ёқарди. Шумтакалар ақлли бўлади дейишарди,-деб хато қилган боладек бошини эгди.

Бу гап “Батя”га ёқмади. “Батя”нинг қоши осилиб, қовоғини ишғол қилиб, кўзининг устига тушиб қолай деди.

-“Шум”ини олиб, “Така”сини қолдирсак ҳам бўларкан...,-деди бирдан.

“Шум” худди тахтимонидан айрилган одамдек бўзрайиб қолди. Ёмон аҳволга тушди. Бундай пайтда Раис орага киришга уста:

-Така бўлсин, сут берсин,-деди.

Биладики, “Батя” бошқанинг таклифига рози бўлмайди.

-Майли “Шум” қолаверсин. Менга ҳам ёқди,-деди у совуққина оҳангда. Ғафур ака гўрида тик бўлмаса бўлди, унинг “Шумболаси”...

“Батя” гапини давомини айтмади. “Шум”ни камситгиси келмади.

Шу билан унинг яширин, код номи “Шум” бўлиб қолди. “Шум”ни бир неча марта балиқдек тўрга тушириб, кейин пешанасидан ўпиб, яна сувга қўйиб юборганман. “Батя” икки марта ундан воз кечди. Раис билан сақлаб қолдик. Учинчисида, Таймурнинг қўли билан “Батянинг ўзини асфаласофунга жўнатдик.

Уйда у ёқдан бу ёққа пилдираб телевизордаги гапларни ҳазм қила олмаётгандим. Бир пайт, “Батя” стационар даволанишда деб айтишди.

Телевидениеда ваҳима қилмайлик, деб шундай хабар беришгандир? Тўхта, қани интернетда нима гап?

Инстаграмни очсам, қизиқчи Кирза кўзида ёш билан “Батя”ни дуо этапти ва ҳаммадан дуо қилишни сураяпти:

-Илоё додамизга узоқ умр, сихат саломатлик бер! Тезроқ тузалиб кетсинлар! Қани омин!

Хаёлимда: “Мана шу ишинг росманасига қизиқчилик. Ўзинг ҳам билмайсан ҳатто! Доданг ўлдирилганига уч кун бўлди. Икки кун хонасида сассиб ётди. Бугун тепадан рухсат келгандан кейин бошқа хонага олиб чиқилди. Жийиб кетмасин деб севимли мулласини чақирдик. Атир сепиб ўтирибди хонага...

Ҳей! Хаёлнинг кучлисини қилдим-ку?! Унутишим керак бу гапни!

Чунки қизиқчига қўшилиб, қўлимни юзимга тортибман. Демак, ўзимни йўқоттим.

Йўқ, тўғри қилдинг. Сени ҳам кимдир кузатаётгани аниқ. Бундай пайтда совуққон бўлиш керак. Мамлакатни бошқариш, халқни бошқариш тактикасику бу! Каллаварам, шунга ҳам ақлинг етмаяптими? Ҳаммани гап билан лол қилиб қўядиган одам, нега тентираб қолдинг? Генерал бўлганингами? Тез ўсдинг, бола, тез ўсдинг!

Бу ёқда Интернет “портлаб” кетибди. Ҳатто отаси қамоқда бўлганлар ҳам дуо қилишмоқда. Йигирма йилдан бери отаси қамоқда ётган битта бойваччанинг боласи “Мен у улуғ зотни севаман” деяпти кўзда ёши, лабда титроғи билан!

“Одно”дагилар Оллоҳга илтижо қилиб, “Агар юртбошимизга бирор нарса бўлса, сени Оллоҳим дея сира тан олмайман!” дея ёзғиришяпти. Тавба!

“Пешанангдан отаман сен аблахни!” деган гап хаёлимдан ўқдек ҳувиллаб ўтиб кетди.

“Биз чуқур ташвишдамиз. Москва расмийлари номидан “Батя” тез орада соғайиб кетишини тилайман. Биз ҳозирда фақат ОАВдаги ва дипломатик каналлардан

келаётган хабарларгагина эгамиз”, дебди Владичнинг котиби.

“Билмайсиз. Вот блин...Икки кун тинмай гаплашилдику? Ана у кўналғадаги учқичлар Оҳаликдан келдими? Ичидагилар тарақанларми? Ҳамма ёқни ўраб турибсанларку? Тагин гапингга қара? Сиёсат! Энди санларга нафратимни яшириб, этигингни тозалаб юришим керак. Санлар эса дунёни ахлоқ қилиб юраверинглар. Ҳе...”

Бундай пайтда тиржайишим керак. Ички нафрат юзга уради бўлмаса.

-Яшасин тинчлигимиз поспонлари,-деб қўйдим. Биламан кимлар кузатаётганини? “Братва” ҳам ухламаяпти. Ухлама, Раис ҳали ҳаммангни гўрга тикади. Санларга планни ўзи бериб, санларни итдек занжирга боғлаганди. Ҳа, Раис ҳам шум. “Шум”дан ҳам шум!

“Шанба куни отам мияга қон қуйилиш ташхиси билан шифохонага олиб келинди. Ҳозир реанимация бўлимида тиббий муолажа олмакда. Ҳолати шифокорлар томонидан барқарор деб баҳоланмокда.”

Қизи ҳам майдонга чиқибди. Бу томонда отаси ўлиб ётибди, у ёқда қизи сиёсат билан овора. Ўл-а?

Нозанин! Ўзбекча ёзишни қаёқдан биласан? Батянинг “Берия”си ёзган ва буларнинг ҳаммасини ҳам ўша ташкил қилган. Пихини ёрган одам. Осмонда юлдуз учса, ушлаб оламан дейди. “Шум” эса ерга қарайди, илонни тутаман дейди. “Берия” ёмон. Ҳали “Шум”ни ҳам осмонга қаратиб қўяди. Чиройли гаплар билан халқнинг оғзини очофат балиқларнинг жағидек очиб қўяди. Тахтадан пахта, пахтадан тахта ясайдиган

даражада уста. Тахта нимага керак деса, “қалам” дейди, пахта нимага керак деса “ўлам”, дейди.

“Шум” ҳам секингина бориб, нутқларини унга кўрсатиб келарди. У “Батя”га ёқадиган гаплардан кўшиб берарди. Унинг юлдузи порлади. “Акажон” демасам, “окажон” дедиртиради. Ишни шундай битирадики, Қўҳи Қофнинг орқасидаги одамнинг фикрларини олиб келиб, қоғозга ёпиштиради. “Батя”ни буюк ёзувчи, дохий - йўлбошчига айлантирган ҳам шу эдида, Энди “Шум”ни ҳам қояга олиб чиқади.

Сарзода, Майхон, Манзура, Қазоқбек, Хурхон, Униса... ҳамма “лик-лик, шик-шик”лар бақир-чақир қилмоқда. “Шум” уларни ёқтирмайди. Ўзлари ҳам билишади. “Лик-лик, шик-шик” деганини ҳам эшитишган. Шунинг учун ҳам отам ўлмасин, деб фарёд қилишмоқда.

"Ҳар хил гап сўзларга ишонманглар, кадрдонларим. Юртбошимиз соғ саломатлар, ҳаммамиз дуо қилайлик". Фалон-фалон артистлар дуо қилмагани учун мухлислари томонидан танқид қилинган.

"Опажон, сиз нега жимсиз. Отамизни дуо қилинг. Илоҳим соғайсинлар. Мен сиздан кутмагандим. Биринчи бўлиб айтинг, қўшиқларингизни отамизга атаб, улар бизга сув ва ҳаводек кераклар”!

"Батя"нинг ўлгани ҳақида гапираётган мухолифатга, душманларга ҳам хужум буюрилибди, тошбўрон бошланиб кетибди. Уларга қойил. Ҳаммадан олдин хабар топишди. Аммо кимдан? Маълумот қаердан чиқди? Наҳотки, ичимизда уларнинг одамлари бор? Бор. Нега бўлмасин? Улар ҳам ўзимиздан. Таниш-билишлари, дўст-биродарлари етиб ортади. Қолаверса,

тахтга ўтираман деганларга ҳам жон кириб қолган. Марказда ҳам итни гапиришга ўргатадиган усталар бор. Бироз ўзимга келдим. О, “Берия”, “Берия”! Бармоқ изларингдан биламан. Аввал атристрларга, кейин шоир-поирларга амру фармойиш берасан. Радио телевидениени ҳам ўз йўлингга қараб сайратасан. Жуда пишиқсан, “Берия”, илоннинг ёғини ялагансан!

Шундайку-я, лекин китмир ва қўрқоқ. Ўзича ташаббус қилмайди. Кимдандир буйруқ олган? Кимдан? “Шум”данми? Унда нега мен билмайман? Қачон кўришди у билан? “Шум” оқшом йўлга чикиб, Марказдан эрталаб қайтиб келганда кутиб олишга чиққанди. Демак, ўша ерда буйруқ олган. “Бос!” деган бўлса, бас. Унга шу бир сўз кифоя.

2. Саунада

“Батя”нинг ўлиmidан бир кун олдин саунага бордик. Аслида ташқари сауна бўлиб ётибди. Осмондан олов ёғса, ердан буғ ўрлаётган каби иссиқ.

Хайриятки, оқшом иниб, қаердандир сунбуланинг ҳиди кела бошлади. Демак, салқин кунларга яқин қолди.

Шундай пайтда табиат саунасидан қочиb, сунъий саунага бориш учун чинакамига зарурат керак.

“Шум” дала кезиб юрганди. Балки чангга ботган бўлса керак, деб ҳам ўйлашингиз мумкин. Э, йўқ борган жойида ҳаммоми бор. Далага борса, арчилган тухумдан ҳам тоза бўлиб қайтади.

Камина ойда бир янгаларга пул тарқатганим билан асосий ишим Раиснинг адютанти эканлигини айтгандим. Норасмий ишим эса, “Шум”нинг хизматчиси. “Шум” ёнида юришимни истамайди. Аммо Раис хизматини қилиб, уни асраб юришимни талаб

қилади. Шунинг учун узоқроқ турганим, кўп вақтимни идорада ўтказганим билан, керакли пайтда ёнига етиб бораман.

Бундан ташқари унинг ёрдамчиси ҳам ўзимизнинг одам. У ҳар томонлама етишган. Деворни бу томонидан тепиб, то йиқулгунча у томонига ўтиб, ушлаб қоладиган даражада уста. У ҳеч кимга тўғридан тўғри ёрдам қилмайди. Аммо жуда кўп одамнинг ишини битиради. Масалан, битта туман прокурорини ишдан олишди. Унга йўл топишади. У эса “Шум”нинг номига ариза ёзиб почтадан юбор ёки интернетда чиқар дейди. Кейин мана шу масала шов-шув бўлаяпти, нима қил, дейсиз деб “Шум”га мурожаат қилади.

-Шуни ҳам менга айтасанми, тинчит,-дейди “Шум” .

Уни мана шу жойидан ушлаганман. Доим қармоғимда. Шунинг учун ҳеч нарсани яширмайди. Айтганимни бажаради. “Шум” хуррак отиб ётган бўлса ҳам, тўғриси айтиди. Келажаги бор. Самимий айёр. Раис ҳам унга ишонади. Барибир мени ҳам боғлаб қўйган. Хонасига камера ўрнатганман. Компютеримнинг бир бурчагидан уни кўриб тураман.

“Шум”ни назорат қилиш қийин эмас. У ўзини ўзи назорат қилади. Одамларнинг кўзига ташланишни истамайди. Ҳатто қилаётган яхши ишини ҳам биров билиб қолишини хохламайди. Айниқса радио, телевидение, газеталардан узоқ туради. Ҳаммасининг раҳбарларига йўл топиб, буни тушунтириб қўйган. Интернетда у ҳақда ёзишса ҳам, қандай қилиб йўқотишни билади. Ё менга айтиди ёки “Мўйлов”га. У исми шарифи “Батя”нинг кўзига тушиб қолишидан чўчийди. Юрагини олдирган. Оддий қилиб айтганда

арвоҳ бўлишни, кўзга умуман ташланмасликни афзал билади.

“Мўйлов” ҳам Раиснинг яқин одами. “Шум” билан апоқ-чапоқ. Дунёнинг қаерида кашфиёт чикса, унга айтилади. Топиб келади. Техникани тушунади. Уни “Батя” ҳам яхши кўрарди. Аммо қизининг номақбул видеолари пайдо бўлгач, чет элларда қизи ҳақида иш очилгач, уни айблади. “Батя” уни ишдан ҳайдаганда Раис хафа бўлди. Лекин билдирмади. Сауна мажлисини фақат унга ишонишарди. У шундай ташкил қилардики, ҳатто “Тайчи” ҳам, унинг отаси ҳам билмай қоларди. Ёнида бир бола билан юради. Ақлли. Отига тадбиркор. Аммо “Мўйлов”нинг пулини айлантиради. Кўп ўқиган. Унга “Кал” деб лақаб қўйишган. Ким қўйган билмайман. Уни кўрган кунимдан бери хўжайин уни “Кал” дейди. Сочи бўлса ҳам, бу ном ярашади.

Раис “Кал”га қараб турди-да:

-Ёшларни бунга ўхшатиб отга миндириш керак, аксари латта бўлиб, эшакнинг орқасидан эмаклаб қолган,-деди. Қийқириб кулишди. “Шум” кўзидан ёш чиққунча кулди. Кейин деворларга қараб қўйди. Кафелли девор мустаҳкам, акс садо бериб турибди, худди қўшилиб кулаётгандек.

Саунага борадиган бўлсак, Шумни олиб бориш менинг вазифам. Аввал теннис кортига борардик. У ердан кийимларни алмаштириб, орқа эшикдан чиқиб, бошқа машинада кетардик. Ҳамма бизни спорт залида деб ўйларди.

“Мўйлов”нинг саунаси кўп узоқда эмас. Устида катта ресторан. Сауна ер остида. Рестораннинг орқа гаражига келганда, девор сурилиб, дарвоза очилади ва машина

ичкарига киради. У ердан ер остига тушилади. Дид билан курилган. Усталарни Кореядан олиб келган. Учта ҳовуз бор. Сувнинг ҳарорати турлича. Бир жойда шиддат билан оқадиган шарашара. Куруқ саунадан чиқиб унинг тагида озгина турсангиз, оёқ учига қадар зирқиратади. Ўзингизни буғли саунага урасиз. “Шум” буғли саунада яхши кўради. Юзим куймасин деб бошига сочик ўраб ўтиради. У ердан чиқиб, совуқ сувга киришга ҳайиқади. Ўртача ҳароратли ҳовузга киради. Кейин массаж столига ётиб олади.

“Мўйлов” Кореядан устасини олиб келган. Дастлаб “Шум”ни яхшилаб чўмилтиради. Кейин суякларини қисирлатишни бошлайди. “Оҳ-оҳ”лаган “Шум” баъзан кўзини очиб, шу ердан кетган, дегандек аранг мен томонга қарайди. Бир жойи синиб қолишидан чўчиса керак. Лекин тургиси келмайди. Ана у массажчи йигит ҳам чарчаш нималигини билмайди. Ҳеч нарсадан ғижинмайди. Шумнинг энг нозик жойларини ҳам уқалаб ювади ва оёқларининг остини эринмай бармоғи билан ярим соат босиб чиқади. Охирида “Шум”га билдирмай, бошини бир буради, “шах” этган товуш менга ҳам эшитилади. Шундан кейин “Шум” бир соат мазза қилиб ухлайди. Ўша орада биз ҳам чўмилиб оламиз. “Кал” менинг кўнглимни олишга уринади. Кимлигимни билишни истайди. Ичида тахмин қилади, аммо тиржайиб тураверади.

-Бу бола ҳар қандай ёлғонга еттита тўн кийгизиб, ҳақиқатга айлантириб юборади,- деганди Мўйлов “Шум” га уни таништирар экан.

-Орқасига тепиб одам қиламиз,-деб аския қилди Раис. Раис аскияга уста. Секин гапиради. Аммо кулдиради.

“Шум” кулганида помидордек қизариб кетади. Икки юзи тепага кўтарилиб, кўзлари латтанинг йиртиғидек торайиб қолади..

Ташқарида кўрганлар уни ҳар доим жиддий, сал нарсага жаҳли чиқиб кетиши мумкин деб ўйлашади. Ундай эмас, бу унинг ташқи кўриниши. Ичкарида аскиячи, мириқиб куладиган одам. Кўча зиндон, хона хандон. Кўп кулсам бўйнимнинг орқаси оғриб қолади, дейди. Ташқарида ҳамма вақт икки қўли олдида. Бармоқларини бармоқларига боғлаб туради. Гўё қаршисидаги одамни диққат билан тинглаётгандек. Ичкарида эса қўли қўлига тегмайди. Айниқса, телефонда гаплашганини кўрсангиз. “Батя” билан гаплашганда ўрнидан туриб, “хўп-хўп” деб тураверади. Қизариб кетаётганидан сўкиш эшитаётганини ҳис қиласиз. Кейин бошқа телефонни олиб, вазир ёки ҳокимни шунақа сўкадики, “Батя”дан телефонда қандай гап эшитганини аниқ англаб оласиз.

“Шум”нинг ғурусизлиги ичимни тирнади. Стокгоlm синдроми ҳақида ўқиганман. Бундан қарийб ярим аср аввал юз берган. Ўшанда қамокдан қочган маҳкум Швеция пойтахтидаги йирик банкка қурол билан киради. Бу ҳақда филм ҳам олинган.

Банк босқини давомида икки киши олти кун давомида тўрт кишини гаровда ушлаб турган. Гаровга олинганлар қўйиб юборилгандан сўнг, улар ўзларини ўғирлаб кетганларга қарши кўрсатма беришдан бош тортганлар ва ҳатто уларни ҳимоя қилиш учун пул йиғишни бошлаганлар.

Мана шуни "Стокгоlm синдроми" деб аташган. “Батя” “Шум”ни асирга олган, қанча таҳқирлаганига қарамасдан уни ҳурмат қилади, яхши кўради. Балки ота

деб билар? Ота боласини уради, сўкади, тепади деб ўйлар? Ким билсин, балки мансаб унинг ҳиссиётларини ўлдириб юборганмикан? У ўз эгасининг аблаҳлигини билади, аммо жуда вафодор.

Баъзан унда садистлик бормикан, деб ўйлаган вақтларим бўлган. Аёллар борку, эри қанча қийнамасин, урмасин уни севади ва кўпроқ таҳқирланишни истайди. Нахотки, бунда ҳам шундай касаллик мавжуд? Бирор марта бўлсин, “Батя”нинг таҳқирларига қарши қош қимирлатмади. Мана шу нарсa “Тайчи”нинг олдида менинг бошимни эгарди. У мен ҳақимда ҳам шундай ўйлаётган бўлса керак деган ўй ғурур борасидаги тасаввур иморатини бузиб юборарди.

Бугун ҳам саунада дам олишгандан кейин махсус хонага киришди. “Мўйлов” ўзлари учун алоҳида ўтирадиган хона тузатган, анча гаплашишди. Раис менга билдирмай камера олиб кирасан ва ўша хонага жойлайсан, деганди. Ўрнатдим. Лекин кетишимизда Раис тасмани мендан олиб қўйди. Нима гаплигини билмай қолдим. Эртага ёки индинга қайтиб беришини биламан. Чунки раиснинг хазинасиман. Ҳамма нарсаси менда туради.

Чиқарканмиз, “Шум”нинг ранг-кути ўчганди. Устида тегирмон тоши айланаётган каби қийналаётганди. Бошини эгиб олган, гапираман деса, лаби лабига ёпишмоқда. Нима бўлдийкин? Нахотки Раис уни хафа қилди? Аммо “Мўйлов”нинг кўзлари кулиб турибди. Тушундим, Раис асосий режани уларга айтган. Демак, “Батя”нинг куни битди.

Раис ҳам мамнун. Юзида ҳеч қандай хавотир йўқ. Иш охирига етишини кутиб юрганди. Агар “Тайчи” битирмаса, унинг иккинчи плани ҳам бор. Владич:

-Батя чарчади, хурмат билан кузатиб қўйинглар, кўп хизмат қилди. Оиласига тегманглар. Унвонлари ҳам жойида турсин. Бундай одамнинг тарафдорлари кўп бўлади. Қолаверса, у бизга содиқ. Ҳеч қачон хиёнат қилмади,-деган.

Владичнинг бу гапини қаердан биламанми? Уни “Батя” ўлдирилган туннинг саҳаридаги мажлисда билиб қолдим.

Аммо мажлисга қадар онадан эмган сутимиз оғзимизга келди десам, ишонаверинг. Чунки бизга қарши гуруҳ ҳам шимини шимариб ишга киришган эди. Бундай пайтда Раис энг яқин одамларига ишонади ва иш устига ишни юклайди. Менга конун бўйича ҳокимият қўлига ўтадиган одамни олиб келиш ҳам юклатилди.

Раис, “Озгина ишлов бер унга, хазинангни ишга сол” деди.

3. Сенатор

Ҳаммасини тушундим. Демак, эрталабга мажлис. “Шум”ни спортзалга олиб бордим. У машинадан тушмади, ичкари кириб кийимларини олиб чиқишимни буюрди. Кейин:

-Қўналғага ҳайда,- деди.

Олдин Аэропорт дерди. Қаердадир шу сўзни эшитиб қолибди, аввалига “Қўнолғо” деб юрди. Кейин “Қўнолға” дейдиган бўлди. Ҳозир тўғриси айтди. “Қўналға”. Қўнадиган жой дегани. Каллаварам, ҳозир шу сўз ҳақида ўйлайдиган пайтми?

Бу қаёққа кетмоқда? Қўрқдимикан? Қочишни ўйлаптимми? Нимани режалаштирди? Наҳотки Раисга ишонмади? Қандай қилиб, Раисни хабардор этсам?

Хаёлимда минг кўчага кириб чиқсамда, машини битта кўчадан бормокда. Ярим тун бўлгани учун ҳамма чироқлар кўк ёниб турибди. Деярли тўхтамасдан кўналғага келдик.

Ҳаммаёқ ўраб олинган ва бизни ҳам текшириб киритишди. Булар қачон келиб улгуришди? Махсус гуруҳнинг болаларига ўхшамайди. Чунки биттаси сигаерт чекиб турганди. Махсус гуруҳда интизом кучли, сигарет чекадиган четлаштирилади. Демак, бу ёлланма куч. Башарасидан билиниб турибди. Биздан эмас, орасида соқол кўйгани ҳам бор. Вагнерчилар бўлмасин, тагин? Кейинги пайтда шулар ҳам кучайиб кетди. Чириган дарахтнинг остига қарасангиз ҳам биттаси чиқиб келади.

Ичкарирокда Бой ота кутиб турган экан. У мамнун қиёфда “Шум”ни кучоклаб олди ва ўзининг шахсий учқичи томон бошлади. “Шум” менга индамади ҳам. Бироз кутиб турдим. Бой отанинг учқичи кўкка кўтарилгач, эсим жойига келгандек бўлди. Раисга сим қоқдим.

-Гапирма, ҳаммаси тушунарли, айтганимни қил ва ана уни эрталабга олиб кел,- деди.

Унинг биздаги номи “Сенатор”. Ичидан пишган. Олийгоҳни пулга битирган бўлсада, ўз ишини билади. Қандай, қачон, қаерда олиш масаласида пихини ёрган. У прокуратурадан девонга ўтгач, ковлаштиргандик. Наркобиз анчагина коппромат тўплаганди. Ҳаммасини тайёрлаб, “Батя”га чиқардик. Уни қамокқа олишга ҳозир бўлиб турганимизда, “Батя” уни сенатор этиб тайинлади. Шу билан ҳамма нарсa архивга тушди.

Хонамда бироз мизғиб олишга уриндим, бўлмади. Қахвани аччиқ дамлаб, Сенаторнинг тарихини қайта қараб чиқдим. Субҳи косибнинг алдовчи тонги бўзариб-бўзармай йўлга чиқдим. Бироз ухласин, кейин уйғотаман, десам, унга аллақачон Раис сим қоққан ва кийиниб, уйининг олдида айланиб юрган экан.

Мени дарров таниди ва машинага ўтирди.

-Яна бироз келмасангиз, ўз машинални чақирмоқчи эдим,-деди у.

-Узр, айтилган вақтидан олдинроқ келдим. -Келолмай қолсам, қаерга борар эдингиз?-дедим машинани катта йўлга бурарканман.

-Раиснинг олдида-да,-деди у совуққонлик билан.

- Дарвоқе, нима гап экан, билмайсизми? Интернетни қовладим, дунёда тинчлик. Кеча катта мажлис қилгандим, шундан бир фикр туғилдим, десам, у ерда фақат табиат ва меҳнат мавзусини муҳока қилгандик. Хуллас, бошим қотиб қолди,-деди.

Идорамизнинг ўзига хос сиёсати мавжуд. Яхши гап билан илонни инидан чиқариш мумкин. Ҳачча билан бўғиш керак. Кейин истаганингни қиласан. Бошини эзиш топшириғи берилган бўлса, эзасан. Заҳрини олмоқчи бўлсанг, бу ҳам ихтиёрингда.

Идорамиз шуғулланган ҳар қандай одамга илон деб қаралади. У шер бўладими, чумоли бўладими, фарқи йўқ. Аввал яхши гап, иш бермаса, инига чўп суқилади, зарурат бўлса тортиб чиқарилади ёки инида битирилади. Дарров бикинга никлайдиганлар ҳам бор. Уларнинг омади чопмайди. Ўз бошларига иш орттириб оладилар. Мижозинг, айниқса мана бундай катта одам бўлса, жуда эҳтиёт бўлиш керак. Унинг мамлакат раҳбарлигига бир

қадами қолған. Агар озгина хато қилинса, Раисдан бошлаб ҳаммамиз дорға осиламиз.

-“Батя” кетиб қолибди,-дедим унга.

-Қаерга кетади?-деди у.

-У дунёга рихлат қилибди,-дедим.

-Бунақа гапларни гапирманг, сизга ярашмайди.

Индамадим. Ўзи сўз очди.

- Нима бўлди? Бундай ётоғи билан тушунтирсангиз-чи?

-“Батя” ўлиб қолибди. Энди сизнинг даврингиз келди.

Шунинг учун кечирасиз...

-Ҳеч қиси йўқ. У аблаҳ одам эди. Ўлгани яхши бўлибди.

Эркин нафас оладиган кунларга етдик. Худога шукур!

Ука машинани тезроқ ҳайданг, ишларимиз кўп, бугун жуда оғир кун бўлади. Ёмоннинг ўзидан ўлиги оғир дейдилар.

-Битта оғир гап ҳам бор.

-Нима экан?

-Батянинг сейфидан сиз ҳақингизда жуда кўп ҳужжатлар, видеолар чиқибди.

Сенаторнинг нафаси ичига тушиб кетди. Ойнани очмоқчи бўлди. Ўзим очдим. Машина ичини гуриллаб ҳаво босди. Машинани секинлатдим. У яна бекитиб олди ва:

-Укажон, бу яхшимас, нималар деяпсиз? Ким топди? Нима ҳақда? Яна эски гапларми? Бир мартаку қамоққа ололмаган эдингизлар ё энди олмоқчимизлар? Менинг дахлсизлигим бор. Мамлакатда иккинчи одамман. Асосий қонун бўйича энди мен бош қўмондонман! Сиз ҳам менга буйсунасиз! Мен билан бирга бўлсангиз Раиснинг ўрни сизники.

-Сизни Раис эмас, “Батя” қамоққа олди,-дедим машинани дарахт тагига тўхтатиб.

-Уни ўлди дедингизку?

-Ҳа, ўлди, аммо сизни қамоққа олиб кетди. Прокуратурада ишлаганингизда Олмалиқ ишини ёпиб, юз минг доллар олган пайтингиз видеога тушган экан. Чегарада ушланган қора дори масаласидаги ишни ҳам ёпиб юборганингиз... Олтин қуйма, ёмбиларнинг ўрни...Ҳозир Москвада яшаётган каратечи билан сув бўйида учрашганингиз. Болтиқ бўйидаги уйлар, ҳарбий генералнинг ҳовлиси...

-Бас! Бўлди ука!

-Устоз, лекин мен сиз томонда. Агар буларнинг бари уйдирма, курашамиз, ўзимни оқлайман десангиз, охиригача сиз билан биргаман,-дедим.

-Аблаҳ “Батя”! Ваъда берганди, бўлди, буларни ҳеч ким кўрмайди деб. Раис жуда болтакаш, ҳар қанадай оғочни каллаклайди. Илдизи Московда. У билан курашиб бўлмайди.

-Йигитларим бор, сизга тухмат қилишаётган бўлишса, ҳаммасини қамоққа оламиз, сиз уч ойлик муддатда оқни оққа, қорани қорага ажратасиз. Кейин сайловда ҳам иложини қиламиз.

-Йўқ ука, сиз буларни билмайсиз. Бошқа нарсалар ҳам топишади. Шармандаи шармисор қилишади.

-Ҳа, бу борада ҳам иккита видео бор экан. Биттаси Чимёнда, иккинчиси Бишкекда олинган.

-Уф!-деб юборди Сенатор.

-Ўзингизга олманг, мана ҳокимият қўлингизга ўтмоқда. Бундай пайтда тетик бўлиш керак. Тухмат, шантажни очиб ташлаймиз!

Унга сув узатдим.

-Истасангиз қаҳва ҳам олгандим.

-Қаҳва ичгандим. Майли сувни бера қолинг.

У хаёлга толди. Кейин:

-”Шум” кўрмадими?-деб сўради.

-Сейфни очишганда “Шум” ҳам бор эди. Ана у Азим ҳам, Салимхон ака ҳам,-деб унга озгина босим ўтказдим.

-Вой иблис, сақлаб қўйган эканда-а? Расво бўлди. Нима қиламиз энди?

Инсон нега бу қадар тубан кетади? Пора олиш ўзини сотиш, виждонини оёқ остига ташлаб эзгилаш, кимгадир тобе бўлиб қолиш эканлигини англамайдими? Шараф, ўзлик, ғурур пулга сотиладиган бўлиб кетди. Ким айбдор? Фарзандининг кулоғига бу иблисона иш эканлигини қуймаган ота-онами? Балки уларнинг ўзи ҳам пора бериб пора олган бўлишса-чи? Хаётлари шундан иборат бўлса-чи? Унда жамият айбдорми? Ахир жамият ҳам инсонни тартибга чорлаб турадиган ҳодисаку? Жамиятда ишончни ўлдиришди. Ҳар бир ҳаракатни кўргувчи, билгувчи, назорат қилгувчи Худодир деган тушунчани онгдан сиқиб чиқаришди. Жамият касал бўлиб қолди. Бу вабони тузатиш мумкинми? Худога ишонилмаса, қонунга ишонилмаса, қандай тузатиш мумкин? Тўла тузата олмаса ҳам, тузум даволаши мумкин. Бунинг учун сиёсат тўғри бўлиши, тузум ишлаши зарур. Аммо бу ҳам боши берк кўча. Мана бундай сенаторлар белгилайди сиёсатни. Тузумни ишлатиш шуларга қолган. Нима қилишини билмайди, мендан сўраб ўтирибди. Аслида бу вазифадагилар фақат менга эмас, бошқаларга ҳам йўл кўрсатиши керак эмасми?

-Шароитга қараб иш тутиш керак,-дедим.- Масалан, ҳаммасини “Шум”га топшириб, у билан келишган ҳолда ҳозирги мавқеингизни сақлаб қолишингиз мумкин...

Ҳей дейман, ўзимга ўзим. Ҳозиргина нима ҳақда ўйлаб тургандинг? Қара, ўзинг ҳам шулардан бирига айлангансан! Қабих инсонга ёмонлигини хаспўшлаш ва қилмишларини давом эттириш учун кўк чироқ ёқаяпсан. Худди хаёлимни уқиб тургандек, Сенатор кескин савол берди.

-Раис шундай дедими?

Нима дейиш керак унга? Йўқ дейиш керакми? Ишонмайди. Ҳа, дейиш керакми, унда шунча гапни нега гапирдим.

-Элчига ўлим йўқ, устоз. Илтимос, бу ҳақда гаплашганимизни билдирманг. Сизни ҳурмат қилганим, тухматга қолаяпсиз деб ўйлаганим учун гап очдим.

Агар шундай демасам, дўзахнинг қоқ мараказига тушиб қолишим ҳеч гап эмас. Ғуломнинг гуруҳи ҳам жуда кучли. Мабодо бу одам уларнинг тўрига тушиб қолса, ҳаммаси барбод бўлади. Эҳтиётли иш тутишга мажбурман. Раиснинг ишончини йўқотсам ҳам ёнаман. У жуда осонлик билан қудуққа отади. Озгина зулмат бошланса, соя ғойиб бўлади. То тонг отгунча осонми, кейин.

-Ҳамма тўпланмоқдами?-Сенатор титроқ товушда сўради.

-Ҳа, фавқулодда мажлис.

-Қаерда?

-"Баҳор"да.

-Нега Девонда эмас, нега бизнинг бинода эмас?

-У томонини билмайман. Менга сизни ўша ерга олиб келиш топширилган. Қолганига кичкина одаммиз,- дедим.

-Йўқ, ука, сиз кичкина одам эмас, агар тушунтирмаганингизда ўз оёғимни ўзим синдирардим. Дарвоқе, биз борадиган жой бир пайтлар концерт зали бўлган. Машҳур ва гўзал қизлар рақсга тушишган. Катта анжуманлар ўтказилган. Қизларнинг раҳбари донғи доvon ошган аёл вафот қилгандан кейин бу ердаги сахнанинг деворлари ҳам нурай бошлаган. Бинонинг бир четида қабулхона бор. Аввалига шуни кенгайтиришди, кейинчалик бинони ҳукумат идорасига мослашди. Раис одамларни бу ерга тўплаётгани хавфсизлик чораси.

Сенаторнинг бунчалик осон таслим бўлишини билганимда бемалол мизғиб олган ва кейин бамайлихотир келган бўлардим. Тун бўйи архив титибман. Ким билсин, бундай катта лавозимдаги одам маҳкам туради, деб ўйлабман-да? Ахир қанча-қанча жинойтларни тергов қилган, сон-саноксиз одамларни қамашга қарор чиқарган, ўзини яратувчи ҳисоблаб, не-не тақдирларни ёзган, қисматларни белгилаган, мансабдан мансабга эса пул деган норвонда кўтарилган бу одам каминани кичкина бармоғида айлантиради, деб ўйлагандим. Жуда чигал ҳолатларда ҳам қутилиб қолган. ‘Батя’ни қандай қўлга олган, ҳалига қадар муаммо. Балки вазирлик пайтидаёқ ‘Батя’нинг сирли дунёсига хизмат қилган бўлиши мумкин? Балки топганини ‘Батя’ билан бўлишганмикан?

Хуллас, тарозига қўйсам, икки ёмондан бирини танлашим керак. ‘Шум’га нисбатан бунинг

қилмишлари оғир. “Шум” олганига яраша югуради, ишлайди ҳам. Бу эса ҳам олади, ҳам ишламайди. Агар кўлимда бўлганда ҳозир кимлигини башарасига айтиб уни машинадан думалатиб юборардим.

Ўзингчи? Ўзинг ҳам кулсан! Раис ўл деса ўласан, қол деса қоласан. Аммо қачонгача? Мана шундай бурилиш нуқталарида ҳеч нарса қила олмасанг, ёмон экан. Кеча “Шум”нинг ғурурсизлиги ҳақида ўйлаётгандинг. Ўзингда ғурур борми? Шартта бу ишни ташлаб кета оласанми? Йўқ кетолмайсан. Чунки кўрқасан. Чунки биласан, кейин нима бўлишини, Шунқорбек!

Шунақа бўлганинг учун ҳам хотининг боласини олиб чиқиб кетди. Аввалига хафа бўлдинг. Аммо кейин ўйлаб кўриб, яхши бўлибди дединг. Ўғлим менинг тарбиямни олмагани яхши. Қайнотам тузук одам, Унинг тарбиясини олсин деб ўзингни овутдинг. Хотининг кимлигингни ва қандай зиён етказишинг мумкинлигини билгани учун ҳам бошқа турмушга чиқмайди, ҳаётини ўғлига бағишлайди деб ўйладинг. Ёрдам қилиб тураман. Отаси ҳам якка. Ҳайҳотдек ҳовлида. Ажралганимизни билдирмайман унга. Онда-сонда бориб тураман, деб кўнглингга таскин берасан. Қачон бординг? Артистлик қилма! Отаси ҳам билади кимлигингни. У бечора ҳам кўрқади сендан, шунинг учун миққини чиқармайди. Сен тагин одамлар, жамият, сиёсат ҳақида ўйлайсан. Сен бу ишда хаёл суриш ҳам мумкин эмаслигини унутдинг. Қоидани буздинг. Бунинг ҳам жазоси бўлади.

-Ақл ёшда эмас, бошда,- Сенаторнинг бу гапи ҳаёлимни чил парчин қилди.-Ука, нима маслаҳат берасиз? Сиз ҳаққингизда яхши гаплар эшитганман.

Шу, дод деб юборгим келди. Аммо ўзимни қўлга олдим.

-Менимча, мажлисда мамлакатга раҳбарликни бажара олмайман, бу жуда қийин иш, айниқса ҳозирги мураккаб замонда кучли раҳбар керак бизга, дейсиз.

Бир зум тин олиб давом этдим:

-”Шум”ни мақтайсиз, ундан бошқа одам эпллолмайди, бизни бу чоҳдан фақат ва фақат “Шум” кутқазади десангиз, бас, ҳаммасининг оғзига урасиз.

-Ўзим ҳам шундай фикрдаман. Бошқа йўл ҳам йўқ. Сизга раҳмат. Анча енгил тортдим, укажон. Ростдан ҳам бу ишни уддалай олмайман. Осонми? Бўлди, ўзим ташаббус қилиб шу гапни айтаман.

Индамадим. Аммо негадир шу дамда ўзимдан нафрат қилдим. Чиркин ўйинларнинг ичидасан Шунқор. Яна ҳам ботиб кетаяпсан. Охири бахайр бўлсин-да. Ёзганларингни ўқиб, бошқалар ҳам сендан нафрат қилишади. Майли қилишсин. Билишсинки, шундай одамлар бор ва улар жамиятни даволаш ўрнига унинг қули бўлиб қолмоқдалар. Орқага йўл йўқ. Олдинда ботқоқ. Нима қилиш керак? Ҳеч бўлмаганда шу саволни бераётганлар бор-ку? Демак, жавоби ҳам топилади.

Сенаторни бинонинг Анҳор томондаги орқа эшиги ёнида Раиснинг ўзи кутиб олди. Менга эса:

-Энди бориб, Азимни олиб кел, сир сиздирма,-деди.

4. Отасига ўхшамаган бола

Пойтахтни уруслар босиб олганда қозикалоннинг уйига одам юборишади. У келмайди.

-Урусларнинг каттаси ўзи келсин,-дейди.

Бу гап рус генералига ёқмайди. Қуролли одамларни юбориб, қозикалонни келтиради.

-Яқинда қозикалонлик ўрнини бекор қиламан, кейин сенга ўхшаган бўйсунмас, бўйни йўғонларнинг терисини шилдираман,-дейди генерал.

-Тақсирим, мен келмайман демадим, генерал ҳазратлари ташриф буюриб, бир пиёла чойимизни ичсинлар дедим, одатимиз шунақа, бу ҳурмату эҳтиромимиз рамзи, сизга атаб қўйилган тўнни елкангизга ёпиб, оёғингиз остига сўйиладиган қўйни семиртириб қўйгандим.

Рус генерал бу гапга ишонмабди ва қани юр уйингга борамиз, дебди.

Келишса, ҳақиқатдан ҳам семиртирилган қўй бор, тўн ҳам қават-қават. Зиёфат авжига чиқибди.

Эртасига қозикалон ишга киришиб. қўзғолончиларни осишга ҳукму фатво чиқариб бераверибди.

У генералга бормайман деган пайтда худди аншу исёнчилар унинг уйида ўтиришган экан. Уларнинг олдида ўзини шерюрак қилиб кўрсатган. Кейин эса рус генералини сийлаган. Чунки қозикалон ҳар куни авомдан битта-иккита қўй ва уч-тўртта тўн оларкан. Кўп ўтмай генерал унинг укасини Думага делегат қилиб жўнатган.

Бу қозикалон ва унинг ўғли ҳақида архивда ўқигандим. Ўғли шўро хафсизлк идорасининг энг суянган одами бўлган. Уни жуда ҳурмат қилишган. Билимидан фойдаланишган. Сендан угина, мендан бугина. Уни шўро партиясининг тепасида турганлар ҳам сийлашган. Орден орденда, медал медалда. Тарихга номини буюк олим деб ёзишган. Ҳозиргача ҳам унинг шуҳрати ҳақидаги ҳикоялар мактабларда кулоқдан кириб, кулоқдан чиқиб кетади.

Идорада хаёл суришни ман этиб тўғри қилишган. Бу қоидани буздимۇ ички менимни уйғотиб юбордим. Хаёл сурдингизми, ўқиганларингиз, билганларингиз қўзғалиб қолади.

Мана, Азимжонни олиб келишга бораяпману унинг тарихи хаёлимни ишғол этмоқда. Идорамизда авлодаждоди ҳақида, ўзининг қилмишлари хусусида энг кўп ҳужжат тўпланган одам Азимжон бўлади, десам, унчалик хато қилмайман. Чунки уни ўрганиш учун ҳафталаб вақтим кетган. Ҳужжатдаги исми Азимжон. Аммо Раис Азим деса ““Шум”” уни “Балои азим” дейди. “Шум” билан иккаласининг ораси дарёдек очилган. Бу дарёдан балиқ ҳам чиқиши мумкин, аюла ҳам. Дарёда аюла нима қилади, деб ўйлаясизми? Аюла ҳам балиқ, биттаси олиб келиб, қўйиб юборса, “Шум”нинг соҳилига келиб қолиши ҳеч гап эмас. Аюланинг кўзи кўрмаса ҳам, суяги бўлмаса ҳам, тишлари бор. Менинг вазифам “Шум”ни бу тишлардан кўриқлаш.

Азимжон шўролар пайтидаёқ идорамизга михлаб қўйилган. Бир томонда отасининг мадади ва иккинчи тарафда идорамизнинг қўллови билан лип этиб сувнинг юзига чиққан.

Бизда шундай анаъна бор. Ёшлардан бирини халққа танитиш учун уни бир ҳафта тайёрлашади. Энг долзарб масала бўйича нутқи устида ишланади. Кейин катта бир мажлисда сўзга чиқарилади. Элнинг ҳам, элбошининг ҳам назарига тушади. Кутилмаганда унинг юлдузи порлайди. Бу амалиётни “учар гилам” деймиз. Азимжон ҳам “учар гилам”да кўтарилган. Катта мажлисда у ўзи унча билмаган банк масаласида таклиф айтган ва “Батя”га “пахта қўйган”. Аслида “Батя” унинг отасини

яхши таниган. Шу билан у Азимжонни банкларнинг қозикалони қилиб қўйган.

“Шум” билан иккаласи икки овсунга ўхшайди. Қайнонанинг ёнида бир-бирига кулиб қараб турадиган ва ўзлари қолганда, ҳа, афтинг қурсин, деб тескари қараб кетадиган овсинлар бўладику, худди шу ҳолат.

Азимжон пулнинг хўжайини. Жиловни маҳкам тутган. “Шум” лойиҳалари учун ундан пул сўрашга ор қилади ва “Батя”га чиқади. “Батя” эса унга юборади. Бу бир-икки такрорлангандан кейин, қайтиб оғиз очилмайди. Лойиҳа ўлади. “Шум”нинг супраси қуруқ, аммо супранинг хўжайини. Азим эса супраси йўқ, аммо қоп-қоп уннинг эгаси.

Азимжон бало. “Батя”нинг қизи Пулдона билан узоқ вақт дон олишиб юрди. Ўша пайтда “Батя”нинг дармони, Пулдонанинг кармони” деган ном ҳам ортириб олган. Ораларига бир артист ораладию силлиққина турган ғишт қолипдан кўчди. Азимжон Пулдонага бир сўм ажратса, ўзига икки сўм оладиган бўлди. Пулдона буни сезиб қолгандан кейин идоранинг “Жанжал” гуруҳини оёққа турғазди. Қийқириқ бошланиб кетди. Авж пардага етганда, Раис ҳам, Ғуломнинг гуруҳи ҳам жанжалга аралашаб кетди. Пулдона ош пишираман, деб тоши терилмаган мошкичири пиширди. Идорамиз нақд иккига бўлинди. Топган ҳам отади, топмаган ҳам. Интернет дегани жанг майдонига айланди.

Ўшанда энг мазза қилган “Шум” бўлди. Аммо маърақада ўт чиқса, ходимнинг иштонига ҳам тегади деган гап бор. Ханжарнинг бир қирраси “Шум”га текканди, дарҳол чора олишди. “Батя”нинг қўли билан китобни ёпишди.

Аслида Азимжон идорамизга тупуриб, Мағриб билан оғиз-бурун ўпишни бошлагандаёқ уни битирмоқчи бўлишди. Лекин “Батя” жонига малҳам бўлди.

“Батя”ни ағдармоқчи деб ҳужжат ҳам қилинди. “Батя” емади. Ундан воз кечмади. Чунки унинг бир неча миллиард доллари Мағрибда, Азимжоннинг номида. Буни “Шум” ҳам билади. У пулни осонликча қайтариб бўлмайди. Азимжоннинг пишиқлиги ҳам шунда. Буни ўзи сиздирган. Чунки ўша пул унинг суғуртаси. Акс тақдирда бу кеча додаси билан бирга тақдири хал бўларди.

Азим жуда қайишқоқ. Сўксангиз сўк оши, урсангиз ун оши, деб қабул қилади. Унисидан ҳам, бунисидан ҳам тўйиб кетаверади. Бир пайтлар “Тайчи”нинг отаси билан ошна эди. Ўшанда заҳар тайёрлайдиган жойни Азимжоннинг опасига беришган. Кимлар ўлиб кетди, кимлар чириб кетди. Ҳатто Раис ҳам у ишга аралаша олмасди. “Батя” ва “Тайчи”нинг отаси назорат қиларди. Ўшандан бери Азимжон яйраб қолди. Ҳозир ҳам мириқиб ўхлаётган бўлиши мумкин. Балки додасининг ўлими тушига кирган бўлса-чи?. Унинг шунақа одати бор. Бирор жойда бирор гап эшит са, фитна-питнанинг ҳидини олса, тушимга кирибди деб қудуғидан қамиш қилиб ўстиради.

Раис бу сафар қовунни яхши пиширди. Селитра солмади. Тун бўйи ўзига ишонган уч киши ишляпмиз. Агар ҳукуматнинг машиналари чақирилса, келди-кетдилар кўпайса, гап ҳам кўпаяди. Қўналғада Азимжоннинг одамлари бор. Аммо деди-қўди эрталаб унга етиб боради. Унгача биз ишни битираяпмиз.

Раис одамларни тўплаётган жойда ҳамма нарсa бор, дераза йўқ. Кирдингизми, қочиб чиқолмайсиз. Битта эшик. Раис таппончасини кўз-кўз қилиб, тақиб олган. Ёнида яна битта тутинган ўғли бор. У ҳам бир мушт билан икки амалдорни ерга қулатадиган. Қолаверса, бизнинг амалдорлар бўш халта. Эҳ, хато қилдим. Бўш халта эмас, пулга тўлдирилган халта.

Булар ухламай чиқадими дейман, Азимжон ҳам уйининг ёнида айланиб юрибди. Демак, раис бунга ҳам сим қоққан.

У индамай машинага ўтирди. Қўлига телефонни олиб:

-Нима гап, Раис телефон қилдилар, шундан кейин алоқа узилди. Кийиниб ташқарига чиқдим. Кўнглим ғаш бўлди. Тинчликми?

-Телефонларга бир кор-ҳол бўлганга ўхшайди. Меники ҳам ишламай қолди,-дедим. Шу ерда бошқа гап айтишим керак эди. Азимжон бунча ҳам лаққа эмас.

У одати бўйича индамади. Менга ишонмаслигини биламан. “Шум”ни қанчалик ёмон кўрса, мендан ундан баттар нафрат қилади. “Шум”нинг номи “Шум”, бунинг эса ўзи шум. Ўзини бозорга солишни билади. “Шум” кўринмасликка уринса, бу ҳамма жойда ҳайкал. Асли тарихчи. Онаси ҳам тарихчи. Ким билсин балки шу учун тарихни битиргандир? Комсомолда ишлаганида партияга ўтиш керак бўлган. Сиртдан сувчиликни ўқиб, чўлга миробликка кетган ва ўша ерда партияга ўтган. Диплом деганидан беш-олтита бор. Амалга миндингизми, бир йўталсангиз, икки чўнтагингиздан иккита диплом тушади.

Ҳозир ичидан зил кетаяпти, аммо гапирмайди. Тоқатига балли. Мана шундай тоқатли бўлмаса, қачонлардир

қамокда ўларди. Бундайларни ичи хандак, феъли андак, дейишади. “Лазги”га ҳам ўйнайди, “Тановар”га ҳам.

Бир пайтлар “Шум” ҳоким бўлганида ҳарбий генералларнинг уйларини “Батя”нинг атрофидагиларга ҳадя қилган. Ўшанда бунга ҳам, унинг тутинган отаси Темур Алимга ҳам теккан. Умуман ким “Батя”нинг ҳузурига кириб чиқадиган бўлса, “Шум” ҳаммасига биттадан уй ҳадя қилган. Аммо уйми уй. Шўро даврида генераллар учун қурилган. Вилла дейишади. Атрофи боғу роғ. Ҳавоси тоза бўлсин деб игна баргли дарахтларни девордек териб, яшнатиб қўйишибди. Бу ўша жойдан кетгиси келмайди. Шаҳар ташқарисида кошона қурдирди. Ҳафта охирларида боради, аммо бу уйига кўнгил қўйган. Ким билсин, олтинларини шу уйининг деворига суваганми, ҳар ҳолда айланиб, айланиб шу қозикқа қайтади.

Уни дастлаб кўрган пайтларим соясига салом берганман. Отаси ҳақида кўп ўқигандим. Кучли олим бўлган. Донғи дунёга кетган Қуёш сандонни қурган. Атом энергияси, Қуёш нуридан фойдаланиш бўйича мисли қўрилмаган тадқиқотлар олиб борган. Охирини эмас, оқибатини берсин экан. Оқибати ёмон бўлган. Тегирмон тескари айланиб кетганда унинг ҳам тит-питини чиқаришди. Мажлисида ўлиб қолди, шўрлик. Мажлисида “Батя” ҳам ўтирган. Ким билсин, балки шундай улуғ инсоннинг ўлимини кўриб, ўғлига кўнгли илигандир? Йўқ, ундай бўлса, нега отасининг иши давом эттирилмади?

Биз сўз мулкининг сулони Навоий ҳақида гапирганимиз гапирган. Ҳалига қадар унинг даражасида ёзадиган шоиримиз чиқмади. Хоразмий деймиз оғзимизни

тўлдириб, аммо орамиздан Хоразмий чиқса, яксон қиламиз. Бухорий деб кўкракка урамиз, Бухорийга ўхшайман деганларни зиндонга тикамиз.

Машинада шупшайиб ўтирган мана бу кимсани ёмон кўриб қолганимнинг боиси, отаси қурган Қуёш сандонини ишлатиши, “Батя”сини бунга кўндириб халққа қуёш энергиясидан ток тарқатиши мумкин эди. Ўшанда электрга зор бўлмасдик. Ҳатто Атом электр стансияси қуришни эплаб кетардик. Ҳокимият тепасида яйраб, бекордан бекорга урилган отасининг ишини тиклай олмаган одам қандай қилиб янги Хоразмий етиштиради?

Биласизми, менга алам қиладиган жойи нима, бир кун мажлисда отасининг шогиридлари Қуёш сандонини ишга солайлик, бу мамлакатимизнинг келажаги деса, хазинабон ўғил шумшайиб, у ерни музей қилиб қўяйлик, туризм маркази бўлади, деганди. Бизнинг ҳам ички, ҳам ташқи қиёфамиз мана шу! Туризмга алантирайлик, доллар келсин! Боболарни гапираверишдан ҳам мақсад уларнинг ишини давом эттириш эмас, номларини сотиб, пул қилиш. Ана биттаси пулни йиғди-йиғди нима бўлади? Кетди асфаласофунга. Энди унинг номини пуллаш бошланмаси бўлгани. Булар ном сотарлар!

Азимжоннинг катта бобоси қозикалон бўлганда укаси Чор Россияси Думасида делегат экан, биргаликда Сан Петербургдан орден тақиб келишаркан. Чевара ҳам шу. Орденнинг ишқибози. Акс тақдирда отаси бошлаган мактабни оёққа қўярди-да, бунга унинг имкони, халқнинг эҳтиёжи бор эди.

Бу ўзини ёшларга аққли қилиб кўрсатади. Инглиз тилида, рус тилида гапириб, иқтисоднинг илдизини очганман дейди. Аммо иқтисод нима бўлди?

Бир кун мажлисда у ўртага савол ташлади. Бунақа савол ташлашининг ўзи кулгили эди. Молиянинг тахтида ўтирганди-да.

-Сўмнинг қадрини ошириш учун нима қилиш керак? - деди.

У жим, ҳамма жим.

Ўшанда “Агар пора олишни сўмда йўлга қўйсангизлар обрўйи ошиб кетади”, деган киноя ўтган кўнглимдан.

Хуллас, хаёлпараст бўлиб қолдим. Бир томондан яхши. Мана бундай мум ютган одамни олиб келишда хотирангизни зангдан тозалайсиз ва келиб қолганингизни билмайсиз.

Раис унга пешвоз чиқиб кутиб олди ва менга яқинлашиб, пичирлаб:

-”Шум”ни олиб кел, кечаги жойдан,-деди.

Чиқаётиб кўзим тушди, яна бир машина келяпти. Танидим. Раиснинг эшик оғаси. Чироғни ўчириб ёқди. Бу “жим” деган белги. Демак у ҳам кимнидир олиб келмоқда.

Кўналғага борсам, “Берия” шапанглаб югуриб чиқиб кетди. Бу қаёқдан пайдо бўлди? Бой отанинг учқичи шу ерда. Қайтиб келдимикан? Бўлди. Тушундим. Бизда “Россияга бориб келиш” деган амалиёт ҳам бор. Агар бошқа бир мамлакат раҳбари билан сирли гап бўлса, учқич билан унинг осмон ҳудудига кирилади ва махсус алоқа билан гаплашилади. Буни сателетсиз гаплашув ҳам деймиз. Яна ким билсин?

Учқичдан Бой ота тушмади. “Шум” билан Салимхон ака тушди. У қачон келиб улгурди? “Шум”ни таниб бўлмас эди. Олдинги “Шум”дан асар ҳам қолмаган. Бироз эгилган қадди тикланган. Одимлари шахдам. Ана шитобу мана шитоб. Ана қатияту ман қатият. Ўзим ҳам унинг вазоҳатидан кўрқиб кетдим. Югуриб тушиб эшикни очдим. Иккаласи икки томонда ўтиришди. Саломга алик ҳам олишмади.

Машина юргандан кейингина “Шум” елкамга қўли билан уриб қўйди. Фавқулудда ҳолатларда у ҳайдовчининг орқасида ўтирарди. Бу хафсизлик учун қилинади. Мабодо ҳужум уюштирилса, нариги томондаги одам нишонга тушади.

Улар то манзилга етгунча товушларини чиқармадилар. Етиб келганимизда “Шум”:

-Ичкари кир, ҳаммасини ёзиб ол,-деди ва қўлимга телефон тутқазди.

Демак, қайтариб олади.

Уларнинг орқасидан эргашдим. Ичкарида Сафохон, Акмалий, Комил ака ва яна уч-тўрт киши бор. Мажлисни Раис очди.

-Бошимизга оғир кулфат тушди,-деди у.-Буюк йўлбошчимиздан айрилиб қолдик.

5. Махфий машварат

Раис худди қоғозга қараётгандек, бош эгиб столнинг устига бир муддат термулиб қолди.

Ўтирганларга назар ташлайман. Ҳамма ‘Батя’нинг ўлимини олдиндан билгандек, Раиснинг шу гапини кутгандек жим. Бошлар эгик. Ҳатто раисга ҳам қаролмайдиган даражада ҳорғинлик. Фақат “Шум”нинг

боши тик ва у атрофидагиларни кузатмоқда. Негадир уларга ижирғиниб қарагандек туюлди. Раис:

-Бир мунут ўринларингиздан туриб, сукунат сақлашларингизни сўрайман,-деди.

Ҳамма оғир ўриндикларини аранг орқага суриб, оёққа қалқди. Ичимда санай бошладим. Қани бир мунут туришадими? Ишонмайман. Раис “ўтиринглар” деса ўн сониядан кейин ҳам жойларига чўкишади. Буларнинг ҳеч бирида ўзлик, ғурур, қатъият, журъат йўқ. Роботга айланиб қолишган. Ўтир деса ўтиради, тур деса туради. Ўн тўққизгача санадим. Раис “ўтиринглар” деди.

Кимдир кўлини дуога очармикан, деб ўйладим. Йўқ. Ҳаммаси динга ишонмайди. Аммо ташқарида тилларидан “Худо”, “Оллоҳ” тушмайди. Қаерга боришса, кўлларини дуога очишади. Ичкарида эса бошқача. Нега яширишади билмайман. Ҳозир ҳам ич-ичларидан динсиз. Борган жойларида столнинг устида турган тўла шишалар кўп ўтмай бўш ҳолда “йиқиладеради”. Лекин ҳозир раис қани бир дуо қилайлик, десин, ҳаммаси кўлини очади. Бир сонияда мулла ҳам чиқиб қолади ораларидан. Ҳеч бўлмаса, “алҳамди”ни чала-чулпа қилиб ўқийди.

Сукунатни “Шум” бузди.

-Худо раҳмат қилсин, -деди.

Ўйлаганимдек бўлди. Ҳаммаси бирдан жонланди.

-Худо раҳмат қилсин,-деб овоз чиқаришди.

Худди уларни синаётган ёки масҳара қилаётгандек “Шум” бироз пичирладида, кўлини юзига тортди. Такрорлашди. Ҳамма ўз-ўзидан “Шум”нинг қулига айланиб қолганди. Демак, йигитлар ҳам, Раис ҳам ўз вазифасини яхши бажарган.

-Кимда нима гап бор?,-деди раис.

Жимлик. Бир пайт Азимжон қўл кўтарди.

-Қўл-пўл кўтармасдан гапираверайлик, бу ер мактаб эмас-ку? Қолаверса, энди “Батя” ҳам йўқ,-деди Раис худди киноя қилгандек.

-Бирор васият қолдирганларми?-сўради Азимжон.

-Ҳа, деди раис. Қимматбаҳо тошлардан тож ясатган эканлар, олтин тўн тиктирган эканлар, мендан кейин ҳокимиятга келадиган ўғлимга шу кийдирилсин, қўлига соатим тақилсин,-деган.-Бунини эл олдида бажо келтирамиз.

Азимжон бу гап кесатиклигини тушунди, шекилли:

-Қаерга кўмиш ҳақида...-деди овозини кўтариброк. У ўзини “Батя”нинг биринчи ўғли деб биларди. “Шум” билан рақобатга киришдан чўчимаслигини сири ҳам мана шунда. “Батя” унга ўғлимсан деб қўйган. Ичида балки, ўзини валиаҳд, ҳокимият менга қолди, деб ҳам ўйлаётган бўлиши мумкин. Бунини пўтихган юзи, кутилмаганда чарақлаган кўзидан ҳам сезиш мумкин. У шу пайтда шартта ўрнида туриб, қани ўша тож, қани соат деб юборгиси ёки атрофдагиларга буйруқ бергиси келаётгандир, аммо бунга йигирма етти йиллик “тарбияси” йўл бермаслиги аниқ.

Йигирма етти йил оз вақтми? Одамни занжирга боғлаб қўйсангиз бунча вақтда ақиллай ёки ханграй бошлаши, эгилиб, букилиб эшакка ёки итга айланиши ҳеч гап эмас. У ҳар саҳарлаб хонасига югуради. “Шум”дан олдин келишга ҳаракат қилади, аммо у келганда аллақачон “Шум” хонасида бўлади. Доим шундай ютқзади.

Хонасига кирдими, кўзи қора телефонда. Жиринглаб қолишини кутади. Соат миллари тик-тик этиб

тошбақадек судралади. Қоғозларга қарайди. Калласига ҳеч нарса кирмайди. Билади, “Батя” ухлаб ётибди. Аммо кўзи телефонда...

Бирдан жирингласа нима бўлади? Чойнакдаги чойни тугатиб, ёрдамчисига “чой” дейди. Бечора ёрдамчига ҳам қийин. У ҳам телефонга тикилиб ўтиради. Чойнак қанчада бўшабини ҳам билади. Иккинчисини ҳозирлаб, устига Кореядан келтирилган чойнакпўшни кийдириб қўйган. Дарҳол олиб киради:

-Дастаси қизиган,-деб қўяди. Бошлиғи қўлини куйдирса, нима бўлишини билади-да. Азимжон эса неча чойнак чойни ҳўриллатганини кабинетдаги ҳожатхонага киргандагина ҳис қилади. Ўша ерда ҳам хаёли қора телефонда. Жириглаб қолса, нима қиламан, деб ўйлайди. Сийишни битирмай югураманми ёки шим ҳўл бўлса нима қиламан, деган ўй эса керак уни? Билади, қора телефон бир марта жиринглайди. Дарҳол олиш шарт. Агар икки марта жирингласа:

-Фалон нарсани еб ўтирибсанми, нега телефонни олмайсан,-деган сўкиш эшитилади. Лекин “Шум” уста. Ўша маҳсус телефоннинг симини узайтирган. Ҳожатхонага кирса, бирга олиб киради. Ҳали яқинда шимини яхши киймасдан ҳам югуриб чиққани ҳақида биламан. Ёрдамчиси айтиб берган.

-Тўхтанг десанг, тўхтамайди, югуриб кетаяпти. Ундан тезроқ югуриб олдинга ўтдим ва йўлини тўсдим.

-Шимингизни...,-дедим.

-Вой энасини,-деб шимини тузатиб олди. Ўшанда унга “Батя”:

-Тез кел, учиб кел,-деган бўлса керак деб айтиб берганди ёрдамчиси. Ишонгандим. Кўзимдан қочган ҳолатларни ундан сўрайман. Ёрдамчиси мени алдамайди.

Ҳозир Азимжон шу аҳволда. Ким билсин, ичини қандай қиринти қирмоқда?

-Қаерга бўлса, ўша ерга кўмамиз,-деди Салимхон ака хириллаган овозда. Ҳеч қачон мажлисларда овозини чиқармайдиган, доим кулган юзини намойиш этиб ўтирадиган бу одамнинг гапи ҳамманинг устига муз сув сепиб юборгандек бўлди.

Кутилмаган воқеа юз беради. Сенатор шарта ўрнидан турди ва:

-Бундай ҳолатда асосий қонун бўйича ҳокимият менинг қўлимга ўтади, уч ойга. Шу муҳлатда...

Унинг лаби қуриб қолди ва атрофга қаради. Яқинидаги кичик стол устида сув бор. Кўзи тушди, аммо олишга жазм қилолмади. Бурилсам, орқадан отишлари мумкин деган ўй ҳам келиши мумкин хаёлига, бундай пайтда. Раис сесканиб кетди. Унинг кўзи мени қидираётганди. Телефоннинг устидан унга қарадим, шунақа ўкрайдики, кўзимнинг косаси ёрилиб кетгандек бўлди. “Шум”га қарадим, у бошини эгиб олган, ва сония сари ерга кириб кетаётгандек эди.

Сенатор:

-Мамлакатимиз жуда қийин аҳволда. Келган жойга келиб бўлдик. Дунёдаги вазият ҳам ёмон. Афғонистондан ҳар куни ноҳуш хабарлар келмоқда. Бунинг устига ҳуқуқ-тартибот идоралари ичида бўлинишлар мавжуд. Шундай пайтда жасоарат ва сиёсий иродани ўртага қўядиган, халқни ўз ортидан эргаштирадиган одам керак. Сайловни кутиш дахмаза.

Ҳозироқ қиладиган биринчи вазифамиз “Батяни” кўмиш комиссиясини тузиш. Мен бу вазифага ҳурматли “Шум”ни таклиф қиламан.

Яна сукунат. Сенатор ҳокимиятни қўлга олгандек ўзини тобора бардам тута бошлади. Орага жимлик шу қадар индики, юраклар дукурлаётганини сезиш қийин эмасди. Ўзимнинг ҳам кўксимдаги типирлаш телефоннинг титрашидан сезилмоқда. Ҳар қанача ишонсам ҳам, балки деган нарсаси асабимни кемириб ташлади.

-Мен,-деди сенатор ва тин олди.-Бутун масъулият ва ўзимга билдирилган ҳамма ишончини идрок этган ҳолда мамлакат раҳбарлигига муҳтарам “Шум”ни тавсия қиламан. Шу дақиқадан бошлаб у киши Бош қўмондонимиз, айтганларига бўйсунамиз ва йўлда давом этамиз.

Қуёш чиқиб кетгандек бўлди. Ҳамма ўрнида туриб қарсак чала бошлади. “Шум” ҳам ўрнидан турган ва қўли кўксида, кўзи Раисда. Миннатдорчилик қараши эди бу. Раис эса ёмонсан, дегандек менга қараб қўйди. Бояги ўқрайишдан асар ҳам қолмаган. Мағрур эдим. Қилган ишим натижа берди. Гарчи оқибати нима бўлишини билмасам, одам қандайдир фаолиятининг натижасидан енгил тортар экан.

Нигоҳим Азимжонга тушди. Ё Худойим! У ўрнидан туришга қийналаётган эди. Худди ўқ ёб йиқилган тўнғизга ўхшаб лапанглаяпти. Ҳозир йиқилиб тушади деб ўйладим. Сочлари оқараётгандек эди. Ҳа, у ўзининг ҳаёт-мамоти ҳал бўлаётганини ҳис қилди. Бундай пайтда одам бошига пишиқ ғишт урилгандек тентираб қолади. Ҳозир унинг бутун вужуди музлагани аниқ. Мушаклари симга айланиб, томирлари ҳар томонга

тортаётган бўлиши ҳам мумкин. Ана шу босим остида кўтарилишга уринмоқда. Аранг қад ростлади. Менимча оёқлари титараяпти. Буни елкасидан сезиш мумкин. Елкаси бўйнини қисаётган ёки боши елкасига кириб кетаёгандек эди. Умуртқаси бутун экан. Ҳаммадан кейин бўлсада ўрнidan турди. Аммо қўллари қарсакка қовушмади. Ҳаракат қилаяпти, бироқ кафти кафтига тегмаяпти. Бошқалар эса қарсак чалаётганимни “Шум” кўрсин дегандек худди беш қарсак ўйинини ижро этишмоқда.

Бундай ҳолатларда Мудофаа, Ички ишлар вазирлиги, Бош прокуратура муҳим рол ўйнаши керак. Аммо бу идораларнинг раҳбарлари ҳам хаяжон билан қарсак чалишмоқда. Демак, Раис улар билан гаплашиб чиққан ёки ярим тунда учкичга бориб келишган. Нима бўлганда ҳам юзларидаги ташвиш ўрнини кониқиш ҳисси эгаллади.

Фақат Битта одам хафага ўхшаяпти. Ҳақимий. У кейинги пайтда “Батя”нинг қўриқчиларига бош-қош эди. Ким билсин, балки ҳақиқатни билар? Балки хабарсиз қолган ва энди бўйнимга қўйишмасин, деган хавотирда. Унинг мана шу ерда бўлишининг ўзи Раиснинг тўрида эканлигидир. Балиқ тўрга тушдими, тушди, питирласа питирламаса, ўзини кутқазиши мушкул. Менимча. биринчи бўлиб ишдан кетадиган шу одам. Раис уни жинидан баттар ёмон кўради.

Шум қўлини кўксига қўйиб, ҳаммага раҳмат айтдида, қатъий оҳангда:

-Бўлди ишга ўтамиз,- дедида Раисга қаради.

Раис:

-Бизга тунда бир неча мамлакат раҳбари телефон қилди,-деди у ва қўлидаги телефонни очди. Хонада дераза йўқлиги ва сукунат бўлгани учун овоз яхши эшитилди:

-Сизларга ҳамдардлик билдираман. Кутилмаганда юз берган бу воқеа бизни ҳам ташвишга солди. Аммо ҳаёт бу ҳаёт. Ҳаммамиз ҳам кетамиз. Энди мавжуд тинчликни бузмасдан ҳокимиятни қўлдан қўлга силлиқ ўтказиш ҳақида ўйлаш керак. “Шум”нинг номзоди менга жуда маъкул келди ва чин дилдан қўллаб қувватлайман. ”Батя”нинг ҳурматини жойига қўйиш мутлоқ ва мутлоқ зарур. Унинг номи ҳаммага азиз бўлиши лозим. Оиласига ҳурмат кўрсатинглар. Бу тинчлик давом этиши учун жуда муҳим. Қолаверса, гўрдан чиқариб ташланган раҳбарларингиз тақдиридан ва Владимир Илич қисматидан дарс олиш лозим. Тўрт беш кун сир сақлаш керак бўлади. Азалдан шундай анъана бор. Ҳамма ишни жойига қўйиб, кейин эълон қилинади. Унгача биз ҳар қандай ёрдамга ҳозирмиз. Йигитларни юбордим, улар сизнинг қанотингиз!

Ҳамма таниди. Бу Владичнинг овози эди. Дунёнинг ишлари қизиқ. Бир пайтлар Америка Қўшма Штатлари президенти сўзларининг бош ҳарфларидан олиб код исм тўқишган. Потус! Буни фақат кўрикчилар ва тансоқчилар билишган. Аммо ғалвирда сув турмаганидек, одамда сир турмайди. Бу ёйилиб кетган ва энди келадиган ҳамма янги раҳбарларни ҳам “потус” дейишади. Ҳатто уларнинг ўзи ижтимоий тармоқларда шу ном билан ёзишади. Бизда ҳам шундай бўлди. Авалига “Батя” оммалашиб кетди. Кейин уни таржима қилиб олдик: “Дода” деб. Мана энди “Шум” ҳам

оммалашади. Ҳатто Владич ҳам “Шум” деди. Ҳалиям “Шум Шумич” демади.

Владич “Шум”ни табриклашидан масала олдиндан ҳал бўлгани сезилиб қолди. Азимжон ўтирган жойида тўкилди. Балки олдинроқ билганида, ҳаммадан олдин қутлардим, деб ўйлаётгандир? Нима ўйласа ҳам барибир энди фойдаси йўқ.

Дарвоқе, Владичнинг Ленин ҳақида эслатиши қизиқ. У Ленинни Сталин гуруҳи ўлдиртириб, кейин номини кўкка кўтариб юришганига ишора қилдимикан? Яхши тактика. Барибир миш-миш тарқалади. “Батя”ни ўлдиришгани бир жойдан сизади. Ўшанда одамлар ишонишмайди. Агар ўлдиришган бўлишса, нега бу қадар улуғлашмоқда, нега ҳайкалига тиз чўкишмоқда, деган савол устун келади. Ана бу онгни осонгина ювиш дейилади. Владич гўридан чиқарилган раҳбаримиз ҳақида нимага ишора қилдийкин? Балки уни ота-онасининг ёнига кўминглар, акс тақдирда бир кун келиб бош оғри бўлади, дедимика?. Хуллас, ҳамма гапни “Шум”нинг ўзига айтган. Бу ердаги гап эса қолганлар учун.

Сўнг қўшни мамлакатнинг отахон раҳбари гапириб, табриклади ва ундан кейин яна бир қўшнининг сўзи эшиттирилди. У икки тилда гаплашадиган битта халқнинг орасига сим тўр тортилгани, мина тўшалганига ишора қилиб, ўзим кўмиш маросимига бораман ва “Шум” жанобларининг каватида тураман,- деди.

-Менимча етарли, қолганларга ҳам раҳмат айтдик,-деди “Шум” атайлаб сўзларга урғу бериб. У бир лаҳзада жиловни қўлига олиб, ҳукм қила бошлади.

-Ички ишлар! Тур ўрнингдан. 24 соат оёқда турасан. Сани қандай ишга келганингни биламан. Ўзингни оқла бола. Бу сенга бир имконият. ”Батя”нинг командасида биз билан бирга давом этишни истасанг кеманинг бирор жойидан сув кирмаслиги керак. Ёнг деганини олиб тиқиб қўй. Кейин чиқарамиз. Девон атрофида тўпланганлар бўлмасин. Ўзинг ҳам ухламайсан, болаларинг ҳам, тушунарлими? Яхши ишласангиз ўғрлик қиласанми, пора оласанми ишим йўқ. Инсоф билан қилаверасан. Ёмон ишласанг ана шу олганларингни бурнингдан чиқариб оламан. Манга содиқлик керак, хиёнат эмас. Манга одолат керак, билдингми, одолат! Қўрсат буни!

-Тушунарли ўртоқ Бош қўмондон!

-Бор, ишни ташкил қил!

Вазир чиқиб кетди. “Шум” Бош прокурорга юзланди:

-Қара, санларни яхши танийман. Қадамингни ўйлаб бос. Шундай кезде менга ёрдам берсанг, қанотим остига оламан. Ана у чиқиб кетгани назорат қил! Хиёнатни кечирмайман! Қонимни ичмаларинг!

-Хўп қўмондоним!

-Бор, ишни юрит! Хотинингга ҳам айтмайсан нима гаплигини, ана у қариндошларингга ҳам!

У ҳам орқаси билан юриб, чиқиб кетди.

“Шум” Мудофаага юзланди.

-Сан вазифангни биласан! Агар тонсанг, қочадиган жойинг бўлмайди. Кунига 23 соат ишлайсан, майли бир соат мизғийсан, шу ҳам кўп! Агар тварлик қилсанг, яхшилик кутма!

-Албатта қўмондоним!

“Шум” Ҳақимийни турғазди.

-Хўш генералчик! Сени нима қиламиз? Банана ейсанми ёки бир жуфт олма берайинми? Кўрдингми, ташлаган қадамингни биламан. Лекин санга ҳам шанс бераман. Имконият! Беш кун давомида ўликни қўриқлайсан, ҳиди чиқса бошинг кетади. Истасанг кўринтирмай моргга олиб бориб қўй, истасанг моргни унинг уйига олиб кел, бўлмаса беш олти халта муз олиб бориб, музлатиб тур. Агар битта эгри кадам ташласанг, ўша заҳоти пагонингни юлиб оламан! Мана, ма бу қўлларим билан. Биласан кузатувимдасан, биласан санга ишонаман. Бор, ўзингни оқла!

Ҳакимий ҳам ярим эгилиб, чиқиб кетди. “Шум” бошқаларга ҳам шундай вазифаларни бериб чиқариб юборди, бир иккитасини жуда қаттиқ сўқди. Айниқса Акмалхонга:

-Сен тиржайиб юришни бас қил, оғзингдан бошқа, кўтингдан бошқа гапирасан! Ҳамма ёқни саситиб юрасан. Гапиришни ўрган! Агар яна лўлилик қилсанг, чиққан жойингга кириб кетасан. Кўнглимни топсанг, кафтимда ўтирасан. Ўшанда ёлғонингни ҳам сотиб юраверсан! Бор,-деди.

Хонада беш киши қолди.

Шу пайт эшик очилив “Батя”нинг беваси кириб келди. Қўлида ҳасса. Ҳали кеча ҳам ҳассаси йўқ эди. Кўнглимга ёмон фикр кела бошлади. Агар “Шум”га ташланса, нима қилишни режалаб, ўша томонга яқинлашдим.

6. “Надежда”

““Шум”” худди “Дода”сини кўргандек, дик этиб ўрнидан турди. У ўтирган ўриндиқ орақага йиқила бошлади. Бир қўлим билан ушлаб қолдим. Унга яқин борганим иш берди. Ухламаган бўлсам ҳам,

хушёрликни йўқотмабман. Қизиқсан-а. бундай пайтда уйқу келадими? Ҳолатингдан уйқу ҳам кўркиб, қочиб кетади.

“Шум” Бевани аввал қучоқлади, у ҳам “Шум”ни бағирга босди. Юзида ғам белгисидан асорат ҳам йўқ. Қандайдир мамнунлик бор. “Шум”нинг елкасидан қўлини тортиб олгандан кейин “Шум” унинг икки қўлини ўз қўллари орасига олди ва эгилиб ўпди. Бу худди мен билмайдиган қандайдир маросим белгисига ўхшайди. Қолганлар эса ўринларидан туриб худди корейслар ҳурматли одами қаршисида икки қўлини вужудига жуфтлаб, эгилгандик бошларини қуйи солдилар.

-Сиздан минннатдормиз,-деди “Шум” унга русчалаб. Умуман суҳбат русчага кўчди.

-Нима қилмоқчисизлар энди?,-деди кампир атрофдагиларга разм солиб.

-Ҳаммаси яхши. Келишганимиздек силлиқ кетмоқда. 3-4 кун сир сақлаймиз. Унгача майда-чуйда масалаларни ҳам ҳал қиламиз.

-Мен кичкина қизим ва невараларимни чақираман. Нима гаплигини айтмайман. Узоқ йўл, то етиб келишгунча бир икки кун ўтади. Байрамга келларинг дейман,-деди Бева хола.

-Яхши қиласиз. Шунча йил панада юрдингиз. Меҳнатларингизни ҳеч ким кўрмади. Энди халқ сизни ҳам таниши ва эл ардоғида бўлишнинг ҳаяжонини ҳис қилишингиз керак. Шунинг учун сизга ҳам битта вазифа бериш ҳақида ўйладик. Одатда ўлган раҳбарнинг беваси турмуш ўртоғининг музейини яратади, унинг номини

тарғиб қилади. Шу билан унинг сиёсати давом этишига катта улуш қўшади,-деди “Шум” уни эркалаб.

-Ўғлим, саломатлигим пан бермаса, сизлар билан биргаман.

-Даволаймиз,-жавоб қилди “Шум”.-Дунёнинг мана ман деган духтирларини олиб келамиз. Ҳали кўрасиз. Келинингиздан ҳам ёшариб кетасиз.

-Унақа дема,-Бева хола жилмайиб сенсираб гапира бошлади,-келинимга тенг келадигани йўқ. Бутун Корея унга ҳафас қилса бўлади. Гапимга кириб уни узоқ йил ўша ёқда сақлаганинг ҳам иш берди. Бу ерда бўлса ўлган хотинбознинг кўзига тушса, ҳаётинг барбод бўларди. Ёнидаги энг яқин дўстларининг хотинига ҳам кўз олайтирди. Ёш қизлар ошиб-тошиб ётганини, нима қилиб юрганини билмасмидим? Билардим, дардим ичимда эди. Аёл киши учун бундан ҳам оғриқ азоб борми? Менга уйланганда оёқларимни ўпган. Кейин хиёнат қилди. Мана балога грифтор бўлиб кетди.

“Шум” яна унинг икки қўлини кафтлари орасига олди.

-Энди кетди. Бу ёғига уни унутамиз. Аммо уни унутолмайдиган жуда кўп одам бор. Ёшларнинг миясига кириб олди. Қурт каби кемириб ташлаган.

-Бор гапни айттингиз, қўйдингиз,-деди Раис ҳам яқин келиб, суҳбатга аралашиб.-Хафсизлик хизматлари ичида тўқсон тўққиз фойиз ёшлар уни “додам” деб билади. Умуман ҳуқуқ тартиботни сақлаш соҳаси деймизми, талабаларми, ҳали кўрасиз ўлганини эшитиб қолишсин, дунёни вайрон қилиб йиғлашади.

-Ҳа, ўзимизда ҳам бор. Уни давлатимиз асосчиси, миллий қаҳрамонимиз, ўлмас кошшей қилиб кўрсатдик.

Энди унча бунчага уларни ишонтира олмаймиз,-деди Бева хола.

Биттаю битта йўли Владич айтганларидек, ҳар қадамда ҳайкалларини қўйиш, номини кўкка кўтариб, улуғлаш, буюк одамимиздан айрилб қолдик, деб кўрсатиш, унинг китобларини нашр эттириш, музейини яратиш... Дарвоқе, у ишлаган бутун бинони сизнинг ихтиёрингизга бераман. Ўзингиз бу ишга бош-қош бўласиз. Халқнинг муҳаббати сиз томонга қайрилади.

Раис ҳам суҳбатга арлашди ва:

-Сиз бизнинг Эленора Рузвелтимиз бўласиз. У эридан кейин қарийб йигирма йил яшаган, унинг сиёсатини давом эттирган, сиз ундан ҳам кўп яшайсиз.

Бева кампир бироз ўзгарди. Балки Эленора Рузвелт ҳақида ўйлаётгандир? Дунёнинг энг машҳур аёлларидан бири. У БМТни тузишда, Инсон ҳуқуқлари декларациясини қабул қилишда фаол қатнашган.

Аммо эри ҳокимиятга келмасидан олдин таниқли сиёсatchи бўлган. Иккинчи жаҳон уруши пайтида Мудофаа вазирининг ўринбосари сифатида жангдаги аскарлар ёнига боришга журъат қилган.

-Киносини кўрганман, у хонимчани,-деди хола сал асабийлашиб.- Уни “дода”га тенглаштирсанг бўлади. У ҳам аёлларга ишқибоз бўлган, феминистка.

“Шум” нима қилиб қўйдингиз дегандек, Раисга кўз қирини ташлади. Ўзи эса қизариб кетди ва онасининг олдида гуноҳ қилган боладек, питирлаб қолди.

-Албатта, у сизнинг тирноғингизга ҳам арзимади...

-Истганингизча хизматкор бераман. Пул ҳам қанча десангиз шунча. Сиз фақат кўриниш бериб юрсангиз бўлди. Туғилган кун қиламиз, ўлган кун қиламиз. Владич сизни бекордан Надежда Крупская демадилар,- “Шум” гапни бошқа томонга буриб, топқирлик қилганидан мамнун эди.

Крупская... Лениннинг вафодори сифатида тарихда номи қолган. Ленин ўлгандан кейин ўзини эрининг фаолиятини тарғиб қилишга бағишлаган. Ленин отилганда унинг ёнида мунғайиб ўтирган сурати халқнинг кўз олдига муҳрланган. Мактабда ҳам, олийгоҳларда ҳам, китоблару кўчаларда ҳам шу суратни кўришган. Аслида нафрат қилган эридан. Чунки аёл. Бола кўраман деган. Ленин эса буни истамаган. Ҳали, эрта, ҳали эрта деб алдаб юраверган. Ўқ еб хастахонада ётганида, Надеждаги бор гапни айтган.

-Мен сени алдаб келдим, асли бола яратиш имкони йўқ эди,-деган.

Ўшанда у Володяга:

-Сени ҳам севаман, ҳам сендан нафрат қиламан,-деган экан.

Лекин унинг нафратини ҳеч ким кўрмади, ҳеч ким сезмади ҳам. Унинг нафрати оддий гувоҳ ҳамширанинг хотирасида қолиб кетди. Ҳамширанинг ўзи эса уйида йўқолиб қолган.

Крупская деган гап холага ёқди. Қолаверса, Владичнинг қиёси бу! Шунча йил эрининг соясидан чиқолмади, ўзи билан ўзи унсиз гаплашиб юрди. Мана энди замони келди. Мамлакатда иккинчи шахс кўрнишида юради. Амалда эса биринчи. Нима деса, айтган гапи фармон,

фатво ўрнида янграйди. Демак, бундан кейин қора кўйлакли, хафакон аёл ролини ўйнаши керак.

“Шум” уни онаси каби ҳурмат қилади. У ҳам ўғлим дейди. Иккаласининг орасидаги бундай яқин боғнинг сабабини билса-билса Раис ёки Салимхон билар? Аммо биз билмаймиз. “Тайчи” ва Отаси ҳам билган. Лекин улар йўқ энди. Демак, бу сирлигича қолади.

Бу заминнинг “пешонаси шўр” экан. Нега дейсизми? Ман шундайларнинг кўлига қолган-да. Ахир қайси юрт бу қадар кўп азият чеккан, бу қадар кўп талофат берган, бу қадар кўп қони тўкилган? Уч қарра тили, етмиш етти марта кўли кесилган бу юртнинг тақдири ҳақида ҳали ҳеч ким аниқ тасаввурга эга эмас ва ҳали бери бу қусур барҳам топмаслиги аниқ.

Кимлар босиб олишни орзу қилмади ва кимлар босиб олмади? Жангу жадалсиз, азоб-уқубтсиз ўтган йили борми бу юртнинг? Гоҳида Машрик тарафдан, гоҳида Мағриб ёндан отлар дупури келиб турди, ўқлар ёғилди бошига. Баъзан Спитамен бўлиб кўкдан ёғилган ўққа кўксини қалқон қилди ўғлонлари.

Нева соҳилида уйғонган Пётрнинг тушларига бу юртнинг олтинлари кирди. Екатеринадан тортиб, инқилоб қиличидан йиқилган Романовларга, сўнг Владичларга қадар ҳам, бу юртнинг тиллолари, бойликлари, меҳнат учун яралган “олтин қўллари” тинчлик бермади.

Нега? Бу саволни беришга ҳаққимиз йўқ. Мени шу қийнайди. Ҳали ҳам бизни босиб олишмаган “ихтиёрий кўшилганмиз” деб ўйлашади. Ҳали генерал губернатор Кауфманнинг “Элни тиз чўктириш учун унинг маданиятини яқсон қилиш керак” деган “пурҳикмат”

сўзларини билмаганлар бор. Скоблев, Черняев деган зотларнинг қиличидан оққан қон доғлари тарихимизнинг чанг босган саҳифаларида кўринмасдан қолаётир. Регистон мадрасасида отиб ташланган талабалар руҳи қарийб бир асирдирки, осмонимизда чирқиллаб юрибди. Бухоро вайрон этилган, ўқ тешмган жойи қолмаган кунни биз байрам қиламиз.

Эндигина қодирийлар дафтарини очдик. Усмонлар мустақиллик учун занжирланганини билдик, холос. Бироқ, мозий узоқ ва яқин ўтмиш ҳали қоронғулик ичра мағлуб бўлиб турибди. Ҳали нур ёритган эмас бу кенгликни. Ҳали ҳам мана шундай холалар ҳукмрон. Бу халқнинг маданиятини бир тийинга олмайди. Тилини менсимайди, билмайди. Аммо ҳукмрон. Ҳамма унинг қўлини ўпади. Қўйиб берса оёғини ўпадиганлар ҳам чиқиб қолади.

Кимки оламдан ўтмасин, уни ерга топширар эканмиз, қабристонда “У қандай одам эди?” деган савол берилади. Ҳамма “яхши эди” дейди. Бу ҳикмат. Чунки у дорил фанодан дорул бақога кетди. Энди уни қайтариб ололмайсиз. Уни сўроққа тутаман, десангиз тилингиз тошга айланади. Аммо “Ленин тирик!” деган гап қонимизга сингиб кетган. Қолаверса, жасадини ҳали ҳеч ким ерга топширган эмас. Умуман кўпнинг тақдирини ҳал қилган одам бўлса, у ҳақда ўлганден кейин гапирмаслик ўлим билан баробар. Гапириш керакки, ундан ибрат олишсин, гапириш керакки унинг жинойатларини ҳалафлари такрорламасин.

Болаликдан оталаримизнинг тили Ленин деб калимага келган. Ҳатто эр-хотин муносабатларида ҳам ленинча назариялар яратилган. Болалар Ленин руҳида тарбияланган. Унинг ҳайкаллари ёнида келин-куёвлар

суратга тушган, ҳайкал остига гуллар қўйишган, тўнқайишган... Ундан зулм кўрганлар ҳам уни макташган, унинг номи берилмаган маскан қолмаган. Бунда Крупская пешқадам бўлган.

Бугунга келиб, ҳайкаллари йиқитилди, номи олиб ташланди, тўла асарлар тўплами чала бўлиб чикди. Юртларни босиб олиш, мустамлакани кучайтириш хусусидаги “асарлари” яшириб келинган экан-ку?! У жиниятлари очилиб қолди. Латвия ва Эстонияни жазолаш ҳақида ёзган хати ўртага чикди: Бирор чегарадан кириб мингга яқин қорни тўқ одамни сўйиб келиш керак деб кўрсатма берган экан.

Мана энди ўзимизнинг Ленинни яратиш ҳақида бош қотирилмоқда. Надеждамиз майдонга чиқди.

Бири “Даҳо” номи билан яшади. Иккинчиси “Дода” номи билан яшайди. Аммо қачонгача? Бунинг фарқи йўқ. Бу ҳақда ўйлаш мана булардан кейин келадиганларнинг иши.

-Кўмиш масаласида ҳам сизнинг ёрдамингиз керак,- деди “Шум” холага

-Узокроққа кўмайлик. Ҳар кун қабрини кўравериш ҳам осон эмас.

-Туғилиган жойига кўмсақ бўладими?

-Яхши, ота-онасининг ёнига. Қўшмазор бўлсин ўша ерда...

-Бу гапингизни эшитиб қолишмасин, деворнинг ҳам қулоғи бор,-деди Раис.

-Сизлар ўтирган бу деворнинг қулоғи йўқ,-деди хола. Улар енгил кулиб юборишди.

Демак, буюк шаҳар оёқ ости қилинар экан-да? У ерда ётган улуг ва табаррук зотларнинг руҳи чинқирмайдими? Лекин улар ҳақидаги ҳақиқатни ҳам билмаймизку? Худди “Дода” ҳақидаги ҳақиқатни ёшлар билмаганидек?

Яна диққатим қочди. Раисга қарайман, у кўмиш маросимини қандай ўтаказиш ҳақида гапирмоқда.

-Бизнинг талабаларимизга бирдек оқ кўйлак буюрганман, ҳаммасининг дўпписи ҳам бор. Махсус амалиёт учун тайёрлагандик. Ана шуларни олиб чиқамиз. Ўзим бориб бошида тураман.

-Йўқ, мен ўзим бораман,-деди “Шум”.-Сиз бу ерни ташлаб кетсангиз ҳолимизга маймун йиғлайди. Ғуломнинг гуруҳи аллақачон эшитиб бўлгандир? Улар ҳам ўз режасини тузишмоқда. Сиз бу ерда шуни назорат этсангиз... Майда чуйдасини йўқотаверинг. Хўрозларини халқ ичида ўзим патини юлиб бераман. Кейин у сенаторга юзланди:

-Сизни доим ҳурмат қилиб келганман ва бугун хато қилмаганимни тушундим. Сиз ҳам хонангизда маҳкам ўтиринг. Чапдан ҳам, ўнгдан ҳам келаверишади. Таклиф, фитна... Ҳаммасига хўп деяверинг. Аммо жойингиздан жилманг.

-У кишини ҳам кўриқлаймиз. Ёнларига одам бераман. Айтиб бўладими, ёмонлар кўп. Хоналарини ҳам. Уйларини ҳам видео кузатувга қўямиз. Ҳаётлари биз учун муҳим,-деи раис.

Сенаторнинг юз қизариб кетди. Аммо ўзини ушлади.

-Раҳмат, сиздан доим миннатдорман. Муҳтарам раҳбаримиз нима десалар шуни бажарамиз.

-Бекордан Крупскаяни эсламадим. Унинг исми Надежда бўлган. Умид. Бизнинг Надеждамиз ўзингиз,-деди “Шум” яна Таня холага қараб.

-Қўлимдан келганча ҳаракат қиламан. Бу ерга етаклаб келган бошқа нарсa. Эшиттимки, Пулнорани қўйиб юбормоқчи экансизлар.

“Шум”нинг авзойи бузилди. Буни кўрган Раис гапга аралашди.

-Ҳакимийдан эшиттингизми? Қизингизни озод қилмоқчи бўлган ҳам, байрам куни саҳнага олиб чиқишни режаллаган ҳам, “Батя”ни...

-Келинлар “Батя” демайлик энди, Бундан кейин “Дода” дейлик,- гапни кесди “Шум”.

Бу гап раисга ёқди.

-Ҳақиқатдан ҳам додамиз эди, додани Ҳакимий бошқа йўللарга бошлади. Сизни кўнглингиз тўқ бўлсин, Пулдона камокдан чикмайди. Буни бизга муҳтарам раҳбаримиз ваъда бердилар.

-Ундай бўлса, миш-мишга ишониб, бу ерга югуриб келиб, хато қилибман.

-Йўқ хато қилмадингиз, яна бир марта кўришганимиз яхши бўлди, ҳамма гапни сиз билан бамаслаҳат қиламиз ва сиз ҳам бизга ҳукм қилиб турунг. Сиздек доно аёлга эҳтиёжимиз бор. Сиз қаҳрамонсиз. Ҳозирги ҳаракатингиз билан нафақат бизни, балки бутун мамлакатни асраб турибсиз.

“Шум”нинг бу гапидан Таня хола офтобда қолган музқаймоқдек эриб кетди.

Унинг “қораси ўчгандан” кейин:

Салимхон ака:

-Жуда ҳам инсофли аёлда,-деди.-Тинчлик, мамлакат учун қизидан ҳам, эридан ҳам воз кечди.

Ёдимга бир ривоят тушди.

“Бир гуруҳ одам саҳрода кетаётган экан. Ҳаммаси чарчаган ва чанқоқда. Бир бино кўриб қолишибди. Ўша жойга келишса, Сардоба экан. Ҳамма сув ичаман деб Сардоба эшигига юзланибди.

-Тўхтанглар,- дебди уларнинг шайхи.-Битта-битта кирасизлар. У шундай деб йўловчилардан бирини чақирибди.

- Туш сен ичиб чиқ, кейин бошқа одам одам. Нафсингни тий!

-Тақсир нега мени танладингиз?-деб сўрабди ҳалиги одам.

-Сен инсофлироққа ўхшадинг. Агар битта инсофсизни туширсам, бошқаларнинг ҳақиға хиёнат қилиб чиқиши мумкин. Ораларингдаги инсофсизни охирида туширамиз, бўкканича ичсин,-дебди Шайх.

-Мен охирида тушсам майлими?-деган экан ҳалиги одам. Бева хола ҳам мана шундай инсофли, охирида бўкмоқчи.

Ташкирига чиқарканмиз, раис менга Сенаторни ишхонасига олиб боришимни ва ундан кўз кулоқ бўлиб туришимни буюрди. “Хўп деб кетаётгандим, “Шум””

-Телефонни ташлаб кет,-деди.

Раис, Селимхон ака ва “Шум” қолишди, Сенаторни олиб йўлга чикдим. Аллақачон куёш кўтарилган. Ҳаво қиздирмоқда. Совуқ ҳавони очдим. Сенатор орқада мағрур ўтирибди. Кўзим Анҳорга тушди. Бир маромда оқмоқда. Ҳатто оқаётгани ҳам сезлимайди. Ташидан кўл каби сокин, ичида эса нималар бўлмоқда, сезмайсиз. Бироздан кейин ҳукумат идоралари, айникса, Ғуломнинг гуруҳи “шаршарага” айланади. Ўзларини тошдан тошга уришади. Фойдаси бўлармикан? Кўрамиз!

7. Жонхўр

Одамзот пайдо бўлган вақтда инсондан нафрат қиладиган бир махлуқ яшар экан. Номи Жонхўр. У қаерга борса, ертўла ковлаб олар ва ушлаган одамани тортқилаб келиб, ертўлада қийнаб ўтиришдан лаззатланаркан. Исон терисини шилиш унинг кайфини чоғ қилса, кимнингдир суякларини қирсиллатиб синдириш ором бағишларкан. У қаерга бормасин, кўчаларда инсон қони излари пайдо бўларкан. Буни кўрганлар ё қочиб қутуларкан, ёки эшитишлари билан узоқ жойларга кўчиб кетишаркан. Унга қарши бош кўтарадиган одам чиқмабди. Чиқиб қолса ҳам уни самимий кўриниши ва ширин сўзи билан алдаркан. Жонхўр шундан кейин одам қиёфасига кирибди ва авлодлари ҳам одам кўрнишида яшаб, эски ҳунарларини бажаришаркан. Уларнинг ҳузур ҳалавоати инсонни таҳқирлаш, камситиш, қонини ичиш, қийноққа солиш экан.

Сенаторни олиб бораяпману хаёлим Раисда. У ўша Жонхўрнинг давомчиларидан биттаси бўлса керак.

Ички ўзлигим саволга тута бошлади.

Олийгоҳда дадам билан бирга ўқишган. Эсингдами Шунқор? Пойтахтга келганингда даданг:

-Юр ана у идорага кириб чиқайлик, синфдошимни кўриб кетмоқчиман,-деди. Ичкарига киритишмади;

Даданг сизларни қувмоқчи бўлган зобитни четга чақириб:

-Ука Раис билан бирга ўқиганмиз. Ёшликда дўст эдик. Саратонга учраб қолдим, у билан хайр-хўш қилиб кетмоқчиман, кириб бир сўра, йўқ деса, кетавераман,-деди.

Даданг бу гапни сен эшитмайди деб ўйлади. Ваҳоланки, орқасида тургандинг. Дунё ағдар-тўнтар бўлиб кетди. Қандай раисни кутдиларинг, хонасига чиқиб, улар нимани гаплашдилар, даданг раисга “гўшти ҳам, суяги ҳам сизники” дегани, Раис сенга ўзи иш топиб бериши ва ўқишга киритиши, ёрдам қилишини айтиб, телефон номер берганини эслайсанми?

Ташкирага чиқиб дадангга:

-Зобитга нима дедингиз? Қанақа саратон?-дединг.

-Эшитиб қолдингми? Қулоғинг жа ўтқир-да. Парво қилма, шундай демасам, Раисни кўролмай кетардик,-деб жавоб қилди у.

Ишондинг! Гўл! Галварс!

Ўқишга кириб, раиснинг идорасида ишлаб юрганингда отанг оламдан ўтди. Ростдан ҳам саратон экан.

Раис бошингни силади. Уни яхши одам деб ўйладинг. Аста-секин унинг шайтонлигини кашф эта бординг. У

ҳар қандай одамнинг ичига кириб олиш маҳоратига соҳиб. Сенинг ҳам ичингда яшай бошлади. Унинг жаллод эканлигини билиб борганинг сайин, ичингдаги шайтон кичрайиб борди. Уни жаллод дейиш унга ҳурмат бўлади. У жаллодларнинг жаллодбошиси. Инсон зотини бир тийинга олмайдиган Жонхўр. Унга бировни йўқотиш суваракни эзиб ташлашдек гап. У одамларга сувараклар деб қарайди. Ҳар қандай одамни осонгина йўқотади ва бундан енгил тортади.

Эсингдами, бир кун чакириб қолди. Ўта муҳим гапларни гаплашадиган хонасига ўтдингизлар. Бу хона ҳар қандай электро магнит тўлқинларидан ҳимояланган. У ерда телефон ҳам ишламайди. Девор ичидан овоз ютгич мато билан бир неча қават қилиб қопланган.

Раис ўринбосарларига ишонмайди. Дода уларни қайраб қўйган. Бир-бирига тиржаяди, аммо кўргани кўзи йўқ. Қачон оёғидан осаман, деб юришади. Сени раисдан ҳам кўпроқ ёмон кўришади. Унинг муридчаси деб ўйлашади. Аслида ҳам шундай.

Кетиб кетолмайсан! Нафрат қилиб ҳурмат кўрсатасан! Айтганини айтганидан ҳам ошириб бажарасан. Ўзинг ҳам Жонхўрнинг авлодига айланиб қолдинг, Шунқор!

Раис бир икки кунга сафарга бориб келса ҳам бу хонадаги девор қопламасини алмаштиради. Аниқроғи сен алмаштирасан. Темир-бетонли деворни махсус аппарат билан текшириб чиқасан ва кейин усталарга янги қоплама қилдирасан. Ҳар сафар бошқа жойдан уста олиб келасан. Ишни битиришгандан кейин яхшигина ҳақ тўлайсан. Нақд пулда. Ана шу пул уларни “тинчитади”.

-“Заман” деган дорининг янгисидан озгина суриб қўй, кўп ўтмай юрагини ғижимлаб қолади,-деб буюрган Раис сенга.

Мана шу кичкина хонани деб ҳар йили 3-4 киши кетади.

Нима ҳам қилардинг? Раис шуни буюрди деб ўзингни овутдинг. Бунни ватан учун, миллат учун хизмат деб айтди-да. Бурчингни бажараясан деди. Қаҳрамонликка йўйди. Ишондинг. Яхши иш қилаяпман, халқимнинг хизматидаман деб юрдинг.

Лекин юрагингда озгина учқун бор эди. Устани топганда кексароғини, касалмандини кидирардинг. Оиласини суриштирардинг. Баъзиларига кўпроқ пул берардинг. Ҳеч бўлмаса, жигарбандларига бир нарса қолсин, деб ўзингни овутардинг.

Келадиган устанинг бошига қоп кийгизилади. Ҳеч қаерда камерага тушмайди. У бирор шов-шувли ишнинг гумондори сифатида олиб келинади.

Хуллас, ўшанда Раис эшикни ёпдида:

-Ўғлим муҳим топшириқ олди, бунни сендан бошқасига топширсам, барибир ҳиди чиқади. Жуда ёмон киллер келибди. Бировнинг уйини ижарага олибди. У ўзини артистдек қилиб кўрсатади. Аммо дунёдаги ёмон қотиллардан бири. Малайзия орқали келди. Ўзи асли италиялик. Марказдан айтишларича, ўта муҳим вазифа билан келган ва жуда усталик билан йўқотиш керак. У ҳақдаги маълумотларни мана бу ерда ўқигин ва кулдони билан олиб кет..

Бу дегани қўлимга берилган ҳужжатни ёқишим ва кулини ўзим олиб чиқиб, анҳорга оқишим керак.

“Жорж Карабуччо. 1978 йилда Италиянинг Сицилия минтақасида туғилган. Дунёга машҳур модел. Бизга келгунга қадар бешта мамлакатга кириб чиқибди. Жуда мохир қотил. Ҳар қандай заҳарни билади ва қўллашга уста. Энг катта мамлакатлар ҳам унинг изидан юриб, ҳеч нарса тополмайди ёки кўп пул бериб ишлатади. Лақаби Йўлбарс.”

Демак, у биздаги заҳарларни ҳам билади. Бу эса ишни қийинлаштиради.

Эсингдами, унинг нима учун келгани ҳақидаги уч тахминни ўқиб ваҳимага тушдинг..

Биринчиси: Яқинда келадиган олий мартабали меҳмонни заҳарлаш.

Иккинчиси: Шумнинг қизида алами бор. Москвада тузоғига илдира олмаган.

Учинчиси, мени топмоқчи. Яъни Шунқорни. Евани тинчитганим учун. Ева уларга ҳам ишлаган. Еванинг изини қидирмоқда.

Демак, муҳим одам экансан. Лекин ҳиссиётга берилмай, ақл билан иш қилиш керак.

У ўлади. Кейин нима бўлади? Қаердадир хабар чиқади. Казо-казолар ва катта мамлакатлар аралашади. Ҳеч бири у бизга ишлаган деб айта олмайди. У машҳур модел, дейди холос. Лекин уларни бу модел билган нарсалар бизга маълум бўлиши ва биз орқали қаергадир чиқиши мумкинлиги ташвишга солади.

Жорж қолган жой ўрганилди. Уй эгасини узоқроқдаги қўшнисиникига меҳмонга чақирдинг.

-Қаердан топдингиз бу чет элликни?

-Бир қиз телефон қилди. “Таржимониман”, деди. Келди, келишдик. Калитни бердим. Бу қадар. Нима қилайлик, тирикчилгимиз шу йўл билан. Ўғлимни уйида яшаб, ҳовлини ижарага берамиз.

Кузатиш керакми?? Йўқ, энг ахмоқлик бўлади. Нима қилиш керак унда?

-Амаки бир бориб хабар оласиз уйингиздан. Ҳеч ким бўлмаса индамай чиқиб келаверасиз. Кимдир бор бўлса, “ахлатни чиқаришга келдим” дейсиз, уй сасиб қолмаслиги, кўчага тўкилса жаримаси борлигини айтасиз. Ахлатни тўплаб, бу уйингизга олиб келасиз,- деб буюрдинг Амакига, эсингдами? У ҳазил аралаш:

-Шпионлик қилар эканман-да,-деди.

-Штирлиц, соатига оғзингиздан чиққанини “кўк”ида оласиз. Аммо ҳеч ким билмасин.

-Ҳе, ука, кўрасиз қандай қотираман,-деди амаки.

Отахон бир зумда бориб ахлат халтани кўтариб келди. Таржимон қизнинг ўзи чиқариб берибди.

-Ҳеч таржимонга ўхшамайди. Сакраб-сакраб физкултура қилаётган экан. Аммо сулув...,-деб оғзидан суви қочиб гапириб берди амаки.

-Ҳа, отахон, кўз тўймайди денг.

-Кўз тўйганди, аммо бирдан очиқиб қолди-да,- отахон аскиячи экан, қаҳқаҳа отиб кулди.

Кузатган бўлишлари мумкин. Отахонга бир даста кўкидан тутқазиб икки кунга бир хонангизни берасиз, дедим. Чунки унинг ўзидан ҳам бохабар бўлиб туришим керак.

Ахлат халтани текширганинг эсингдами, Шунқор? Меҳмон сомса ейишга келган экан деб ўйлагандинг. Гўштини еб, хамирини ташлар экан.

-Айтмасам бўлмайдиган, қўшнимиз сомсачи, шундан олиб бориб бераман, ёқиб қолган , ҳар куни истайди. Беш-олтита думбали сомса етказаман. Айибга буюрмайсиз, ука,-деди амаки.

Модел бўлса, қандай қилиб ҳар куни думбали сомса ейиши мумкин? Хўкизга айланиб қолади-ку? Э, йўқ, хамирини емас экан-ку? Ҳа, ёдимга тушди, ўзимизда ҳам четга борадиган йигитларга 3-4 кун ҳар нарса емайсан. Фақат гўшлти овқат еб тур. Акс тақдирда заҳарланиб қолишинг ва вазифа орқага сурилиши мумкин, деймиз.

Лабараторияга бординг. Бюртма бердинг. Сомсага қўйиладиган махсус хом гўшт. Ичкетма қилади, тўхтатадиган дори йўқ. Ҳолдан тойдириб, жон узади.

Отахон сомсани олиб борса, таржимон йўқ экан. Жорж севиниб олибди ва анчагина пул ҳам берибди. Бу орада таржимон ҳам топилди. Уни ҳам отахоннинг уйига олиб келдинг.

Иккаласи анчадан бери яқин экан. Жорж олдин ҳам бир келиб кетибди, Шу хонадонда турган экан. Отахон бунни айтганди, таржимон изза бўлиб қолди.

Эртасига борса, Жорж қорнини ушлаб юрган экан.

-Тинчликми ?-деса, тушунмабди.

Таржимон қизга сим қоқиб, ичкетма бўлганини айтди. Телефонини эшитиб тургандинг-да.

-Буюк Ибн Сино ҳам ҳамма дардга даво топган, аммо ичкетмага тополмаган, ўзи шундан ўлган деб айт,- дединг таржимонга,- қиз курғур айтмади ва сенга ҳуқуқдан дарс ўта бошлади. Раисга ҳисоб бердинг.

-Уларнинг бурни остига озгина заҳар сур,-деди Раис ўшанда,-гуппа ётиб қолади. Кейин амакинг билан иккаласини ечинтириб, кўрпа остига тикиб қўй!

Бажардинг! Аммо амакини унута олмайсан. Жуда яхши одам эди. Ростдан ҳам сен ҳам Жонхўрга айландинг, Шунқор!

Ўша кун тумандаги интернетни суслатиб қўйдинг. Электр ҳам учиб қолди. Отахонга ҳовлини сиртдан қулфлаб келишни буюрдинг. Вақт ўтаверди. Моделдан садо чикмади.

Бир ҳафтадан кейин Ташқи ишлар вазирлигидан илтимос тушди, Италиядаги қариндошлари суриштираётган экан. Миршаблар бориб текширишди, экспертиза қилишди. Ичкетмадан ўлган. Хом гўшт еган. Отахон ва аёлни эса аллақачон кўмиб келишганди.

Бу шу қадар кучли қотил бўлса, нега бунча осон ўлди? Шу нарса сенга тинчлик бермасди. Қолаверса, Раис ҳам худди унутгандек. Жоржнинг тарихини суриштирдинг. Ҳақиқатдан ҳам модел сифатида дунё бўйлаб кезиб юраркан. Бундай одамлар махсус хизматларнинг эътиборидан четда қолмаслиги ҳам аниқ деб ўйладинг, ўзингга таскин бердинг.

Катта шахсга суиқасд қиладиган одам бу қадар оддий иш тутмайди. Демак, бошқа гап бор. Қидирсанг, қумдаги игнани ҳам топасан. Топдингу, ичингдаги шайттонни енга бошладинг. Жоржнинг гуноҳи

Раиснинг ўғли билан таниш эканлиги. У Московда Жорж билан дўстлашиб қолган экан.

Раис мана шунақа, ҳар қандай гумонга ўрин қолдирмайди.

Раис аввалига ҳар кун Андропов ҳақида ўқирди, видеоларини кўрарди. Ўшанда у Додани йўқотиб, ўрнини олади деб ўйлардим. Хурсанд ҳам бўлардим. У мамлакат бошига келса, яхши бўлади деб севинардим. У жуда кўп ўқирди. Энди ўйлаб кўрсам, ўқиган ҳамма китоблари фитналар ҳақида. Ўшанда бундай вазифадаги одам шундай китобларни ўқиши керак деб ўйлаганман. У мусиқани ҳам яхши кўради. Айниқса мумтоз куйларни. Ёддан шеър ўқишни, баъзан ўзи ҳам ёзишини қотиради. Кам гап. Кўрган одам уни ўта маданиятли деб ўйлайди. Қандай қилиб мана шундай одам бу қадар шавкатсиз, раҳмсиз бўлиши мумкинлиги менга тинчлик бермайди.

“Ўзини тинчит, ишни ёп, ҳиди чиқмасин!”

“Тунда кўмишсин. Ўлгани ҳақида ота-онаси билиши шарт эмас!”

“Маҳалласида шарманда қилинглار”

“Ота-онаси, яқинлари билан ишланглар, тавбасига таянсин!”

“Ўн беш кунга олиб киринглар, у машхур. Гап-сўзлар тинчигач, чиқмайдиган қилиб қўясизлар!”

“Видео қилинглар, шармандасини чиқаринглар!”

“Уйидан таъқиқланган китоб чиқиши турган гап!”

“Халтачадан ташлаб қўйинглар”

“Хотинига йўл топинглар!”

“Кўкини ишга солинглар”

“Кўҳанинг болаларига топширинглар!”

“Овозини ўчиринглар!”

“Хориждагиларга боғланглар!”

Бу гаплар унинг оғзидан жуда осон чиқарди, худди бир пиёла чой куй деган оҳангда айтиларди, совуққонлик билан. Ачиниш ҳисси йўқ. Шайтон деганда кўз олдимга бадбашара, кўрқинчли махлуқ келади. Бу бадбашара эмас. Юзи кулимсираб туради. Истараси иссиқ, аммо қалби шу қадар совуқки, ўз онасини ўлдириш керак бўлса ҳам, осонгина айтиб қўяди. Дунёдаги энг ваҳший куч шайтон дейишди, лекин раис ундан ҳам ёмонроқ, Жонхўр!

У ўзи тахтга чиқаман деб юриб, кутилмаганда воз кечиб қолди ва “Шум”ни тайёрлади. Нега бундай қилди? Саломатлиги панд бера бошладими? Йўқ, ярим вужуди ишламай қолса ҳам тахтни оларди. Бундай одамлар худди ўзларига ўхшаган бош йиртқичнинг измида бўладилар. Демакки, унга шу вазифа топширилган. Одамлардан хасни улоқтиргандек воз кечадиган бу кимса тахт орзусидан ҳам шундай осонгина воз кечди.

Раиснинг отаси ҳам, бобоси ҳам шу тизимда ишлаган. Отаси шўролар пайтида КГБнинг полковниги бўлган. Бу даража бугунги ўзимизнинг генералдан ўн марта баланд мавқе. У Шўро деган империянинг КГБсида полковник бўлган. У Афғонистон чегарасида туғилгани учун форсчани яхши билган. Олийгоҳда ҳам шу соҳага ихтисослашган. Эрон адабиётини ўрганган. Форсча

шеърларни айтганда, қадахлар титраб кетади. Дода унинг форсча шеър айтишини ёқтирарди.

Отаси уни ўқиб юрган пайтида, курилишда ҳам ишлади қилиб, партияга ўтказиб қўйган. Армия баҳонасида ўзининг идорасига ишга жойлаган.

Тил билгани иш берган. КГБнинг энг сирли - биринчи бошқармасида ишлаган. У ерга ҳар ким ҳам ўтолмаган. Ташқи разведка дейди уни. Афғонистонга резидент қилиб жўнатишган. Шўролар босиб борганда у ўша ерда КГБнинг резиденти бўлган. Диндорларга нафрати ўша ердан. Кўп одамнинг бошини еган. Афғонлар Жонхўрнинг бошига тилла тиккандан кейин Москов уни марказга олиб кетган.

Хуллас, катта қозонда қайнаган. Одамнинг қадри деган тушунчадан йироқ қолган. Умуман одам деган маънидан узоқ бўлган.

Бироқ Раисни манқурт деб айта олмайсиз. У одамсизлик ертўласида чиябўрига ўхшаган махлукқа айланган. “Бу чиябўри, уни кўрганда таниш мумкин”, деманг. Бун таний олмайсиз. Зиёсиз, зиёнли деёлмайсиз. Маънавий қашоқ деб ташҳиз қўёлмайсиз. Ҳаммаси аълодек кўринади. Туппа тузук одамга ўхшайди. Аммо жигарингизни осонгина суғуриб олиши, юрагингизни юмшоққина парчалаши, миянгизни бир зумда заҳарлаши, қўл оёгингизни шеър ўқиб ғир-ғир арралаши мумкин. Унга ёш бола, гўдак ёки аёл, онанинг фарқи йўқ. Йиғлаётган, оч-наҳор жовдираётган, дул-дул титраётган одам унинг парвойини бузолмайди. Енгил тиржайиши бор. Билолмай қоласиз. Илжайдими, тиржайдими, кулимсирадими, заҳархандалик билан

қарадими? Бу балонинг қўлига тушиб қолсангиз хонумонингиз вайрон, тирик қутулмайсиз.

Эҳ, Шуноқр, сени отангнинг қўлидан тортиб олиб, сендан ҳам шундай қиёфа яратмоқчи бўлган у. Буни биласан. Кўп нарсага эришди ҳам. Лекин отанг сени пишитган экан. Ички умуртқанг синмади. Уни синдиришга қўймадинг. Шундай дейману унинг тошириғини бажариб, сенаторни олиб кетаяпсман. Сенаторни у айтгани каби қорачиғдек асрашинг даркор.

Хаёл қурсин, билмай қолибман. Икки томондан икки машина бизни сиқувга олди.

8. Саманнинг сирини нимада?

Хаёлга берилдингми, хушёрликни йўқотасан. Булар қаердан пайдо бўлишди? Қандай қилиб икки ёнимдан келган икки машинани сезмай қолдим? Секинладим. Қарасам битта машинада катта куёв. Иккинчисида кичкинаси. Улар қўллари билан “четга ол” ишорасини қилишди. Тушиб улгурмасимдан катта куёв ёнимга келди. Унинг идорадаги лақаби “Ичкуёв”. Иккинчисига эса “Иткуёв” деб ном беришган.

“Иткуёв” ёнимга келиб:

-Нега сенатор жанобларини идорага эмас, бу томонга олиб кетаяпсан?-деди.

Бу қайнотасига ўхшаб ҳаммани сенсираб гапиради. “Сиз” дейишга тили айланмайди. Балки тўғридир, бутун дунёда азлдан “сен” дейиш одат. Бугунга келиб баъзи халқларда бегонани “сиз” дейди. Туркларда ҳам қадимдан “сен” деб гаплашилган. “Сиз” дейиш қачон бошланган экан ва унинг илдиизи қаерда?

Бу томонда қовуннинг каттаси тушган экану каминанинг “сизу биз, жизу-биз” ҳақида ўйлаши нимаси?

Махфий мажлис залидан икки дақиқада Сенаторнинг идорасига етиш мумкин. Сен эса уни уйига олиб бораяпсан Шунқор. Қаллангни едингми? Вазиятдан чиқ энди? Қани маҳоратинг? Усталик билан вазиятдан чиқмасанг, Ғуломнинг гуруҳига аъзо қилиб қўйишади. Тақдири маконинг Саҳрои Кабир бўлади.

-Сенатор “ҳар кун ичадиган дори уйда қолибди”, дедилар,- деб юбордим.

Сенатор ҳам пишиқ одам. Мени саҳарлаб ўзига яхшилик қилди, деб ўйламаётган бўлса ҳам шу дамда кутқазиб қолиши кераклигини тушунади. У ҳам ўзига содиқ одам топиши керак-да. Бир гап билан йўқ этиши ҳам мумкин. Қил устидасан Шунқор!

-У кишини биз олиб кетамиз, сен эса бориб дорини олиб кел,-деди “Ичкүёв”.

Идамадим. Жонимга сенатор ора кирди.

-Почча,-деди у кулимсираб.-Бу бориб менинг доримни сўраса, кеннойингиз ваҳимага тушади. Майли, бугунчалик дори ичмаганим бўлсин. Орқага қайтдик.

Унга миннатдорлик назари билан қарадим. У ҳам кўзи билан кулимсиради. Мени қармоғига илинтириб қўйган бўлди. Шундай бўла қолсин. Тахтини бой берган одам шу нарсага хурсанд бўлса, нима қилибди?

Сенаторнинг ишхонасига келарканмиз:

-Ҳа, сиз ҳам кўз остидасиз, эҳтиёт бўлинг,-деди менга.

-Раҳмат Устоз,-дедиму ўйланиб қолдим. Ростан ҳам кўз остидамиз. Демак, “Шум”нинг яқинлари ҳам бу кечси билан ишлаган ва ҳар қандай “чапга бурилиш”нинг олди олинган. Кузатувчига кузатув қўйиш дейилади бунга. Шундай бўлмаса, давлатми? Ҳокимият дегани жон дегани. Ҳокимиятни олган жонингизни ҳам олади. Мана, биттаси ёнимда. Жонсиз. У билан иш жойига келдик.

-Шунқорбек, сиз менинг ички хонамада ўтиринг, бўлмаса шубҳа пайдо бўлади,-деди у. Котибаси ва ёрдамчиси аллақчон ишга келишган экан. У икки кишилик нонушта буюрди.

-Ёрдамчининг ичи узилди, у ўзининг ўрнига сизни ишга олишимни тушунгани аниқ, рангидан, ҳаракатидан билдим,-деди жилмайиб. Ҳар кун буюртмани дафтарчасига ёзар ва “Бошқа нарса истамайсизми?” деган бир савол қўшарди. Бугун эса пати юлинган товукдек пилдир-шилдир қилиб қолди. Аммо ўзи яхши бола. Ким ҳам иссиқ жойини йўқотгиси келади?

Сенатор билан унинг ичкаридаги хонасида нонушта қилдик. У ўз ҳаракатидан мамнун эди. Жуда катта иш қилиб қўйгандек енгил тортган, сейфдан топилди дейилган нарсалар ҳақида ҳам унутган. Йўқ, хато қилдим, Унутмаган экан:

-Доданинг сейфидан чиққан нарсаларни нима қилишди?- деди у хаёлимни уққандек.

-Менга беришди, сақлаб қўйиш учун,-дедим тили қисқлик халтасидан чиқиш учун.

У индамади. Демак, бу ҳақда кейинчалик гап бўлади. Ҳозирча ҳужжатлар ишончли қўлда эканидан рози.

-Ука, умуман ухламаган кўринасиз, мизғиб олинг,-деди у диванни кўрсатиб ва иш хонасига чиқди.

Қаёқда? Бундай пайтда мизғиб бўладими?

Кўзим стол устидаги от ҳайкалчасига тушиб қолди. Тўхта! Ажаб? Худди шу ҳайкалчадан Раиснинг хонасида ҳам бор. Уни “Шум”нинг ичкари хонасида ҳам кўргандим. Дул-дул от. Лойдан пиширилган. Сопол каби ялтираб турмаса ҳам, сариқ кесакдек диққат тортмайди. Унча бунча одам эътибор қилмайди. Эсингга келдими, Шунқор, бир пайтлар мелисанинг отаси Чалматов сенга ҳам берганди ва:

-Сен ҳам доданинг назарига тушган боласан,-деганди. Ўшанда буним олиб кўздан кечирдинг. Остида “Horse”, \$ белгиси ва 8.75 ёзилган. Бу одамлар ахмоқ. Шуни ҳам қарийб тўққиз долларга оладими, деб хайрон бўлгандинг. Четга чиққан бўлса ҳадя ўрнида олгандир-да? Ҳадянинг арзон ё қиммати бўлмайди. Лекин одатда бизда ҳадянинг нархи олиб қўйилади. Қизик, балки эътибор қилмагандир? Хуллас, у ёқ бу ёғини текширдинг. Аммо раиснинг хонасида ҳам айна ҳайкалчани кўриб қолдинг. Ўзингники деб ўйлаб, остига қарадинг. \$ белгиси ва 21 рақами бор эди. Буниси яна ҳам қиммат деб ўйладинг. Токи, яна икки-уч жойда кўрмагаунча ва нархлари турли эканини англамагунча шубҳа қулмадинг. Кейин қизикдинг.

Тарихда Паркана отларини “учар от” дейишган. Дул-дул от Паркана давлатининг рамзи экан. Бақтирия қиролининг тангасида ҳам худди шу от тасвирланган. Аммо дунёга машҳур бўлиши шундай ҳайкалчалардан иккитаси Хитойнинг Танг империяси қабирстонида топилгандан кейин бошланган.

Миллоддан аввал Хитой Фарғона дул-дул отларни ўзимизники, деб дунё бозорида роса пуллаган. Кейинчлаик бу отлар Паркана, яъни Фарғона оти эканлиги маълум бўлган ва бугун шу ном билан аталади.

Хитой Паркана давлатининг номини Давон деб атайди. Хуллас, бу ҳайкалчалар қанадай бу ерга келиб қолди? Нега асосий раҳбарларнинг хоналарида турибди? Ким берган экан? Қардан келган? Маъноси нима? Агар четдан ҳадя қилинган бўлса нега Раиснинг ҳам хонасида турибди? Нега Чалматов ҳадя қилиб юрганди? Раис соатини сониялаб санайдиган одам. Хориждан келган нарсани хонасида сақламайди. Сенаторнинг ҳайкалчаси остида \$ белгиси ва 2.04 ёзилган

Чин императорларини кўмганда сопол аскарчалар ва от ҳайкалчалари билан кўмишган. От ҳайкалчалар Фарғона отларининг нусхаси. Эрамаиздан олдин Чин жосуси Фарғонага келиб бу ерда “Жаннат самани” дейилган отларни кўриб қолади. Бу отлар шу қадар учқирки, қоплон ва шерга икки ҳамлада етиб олади. Ундан ҳам қизиғи, одамнинг гапини тушунади. Тўрт оёқлаб юриши, эгилиб таъзим қилиши, кўкка қараб ўрлаши, ўз эгасига содиқлиги, фавкулудда гўзаллиги, терисининг олтиндек товланиши, уч туёғида оппоқ ёл, пешансида ҳам оқ белги, ёллари чиройли хонимнинг сочларидек силлиқ... деб таърифлайди жосус ўз императорига. Шундан кейин император армия юбориб, отлардан талаб қилади. Парканаликлар беришмайди. Чин сон-саноқиз аскар билан босиб келади. Паркана ҳар тарафдан ўраб олинади.

Охири келишувга боришади. Чин уч мингдан зиёд от ва минглаб отбоқарларни олиб кетади. Отларни кўпайтиришни режалайди. Уддасидан чиқолмайди.

Отбоқарлар бўйсунмайдилар. Уларни қатлиом қилишади.

Кейин яна тарихда “От уруши” номи билан қолган жангга киради. Аммо бу сафар Чин Фарғонада катта талафотга учрайди. Сўнг айёрликка ўтади. Олтин эвазига отларни сотиб олади, от қочириш, яъни урчитиш усулини ўрганади ва Фарғоналикларни ишга таклиф қилади. Уларга яхши шароитлар қилиб беради. Натижада ўшанда Хитой дул-дил отларни дунёга сотибгина қолмай, ўзининг кўп минг сонли армиясини шундай отларга миндиради.

Лекин нега Танг қабростонида топилган ҳайкалча бу ерда? Бу аслими? Балки шунчаки ўхшатмадир? Нега унда Сенаторнинг ҳам ичкариги хонасида столнинг устига қўйилган. Нима сири бор бунинг? Тўхта! Буни вазирларнинг ҳам уйида кўргандинг? Ҳокимлардан бир иккитасининг хонасида ҳам бор эди? Кимдир буларнинг ҳаммасини совға қилганми? Ким? Чин-мочинми? Владичми? Валадичга нима қизиғи бор? У ҳадя қилса, Кремл акс этган бирор нарсани совға қиларди? Йўқ, бу ерда қанақадир сир бор?

Туркманларнинг Аҳалтегин, форсларнинг Нисо отлари ҳам Фарғона саманларига бориб тақалади. Чин тарихчилари бу отларга ўз давлатчилигининг рамзи сифатида қарар экан? Жуда қизиқ! Аслида бизники. Аммо улар бизнки деб турибди. Рамзи раҳбарларимизнинг хонасида. Бу ерда қандайдир сир-синоат бор? Англай олмаяпсан, Шунқорбек! Излан. Топасан! Шун тополмасанг, нима қилиб юрибсан бу дунёда?

Телефонимни очдим ва интернетдан бир нарсa топарман, деб қидира бошласам, кўзим ўзимиз хабар сиздирадиган машхур бир сайтга тушди.

Унда “Дода енгил инсулт кечирди” деган бир сатрли хабар. Ўн дақиқа олдин кўйилибди.

Сир Сирдарёга тўкилибди. Қандай тўкилди? Одатда у сайтга хабарларни ўзимиз сиздирар эдик. Раис сиздирдими? Мақсади нима? Тушунарли. Миш-мишларнинг олдини олиш. Лекин кўп ўтмай бошқа сайтда “Дода ўлган бўлиши мумкин-ми?” деган саволли хабар пайдо бўлди. Ортидан “Дода жидий касал” деб ёзилди.

Бу сафаргиси олдингиларига ўхшамаяпти. Илгари идора бу сайтларни шундай хабарларлар билан роса семиртирган. “Дода амалиёт кечирди”, “Дода юрак хуружига учради”, “Дода касал бўлиб қолди.”

Бу жуда ўйлаб қилинарди. Қайси бир сайтнинг рейтинги ошиб кетаверса, бундай хабар ўша томонга сиздириларди. Ҳамма қизиқарди. Ташвишга тушарди. Баҳслар бошланиб кетарди. Аммо эртасига ойнаижаҳонда Дода кўринарди. Бу ҳам рақибларни, ҳам мухолифларни обўсизлантиришнинг бир усули.

Мана шунинг учун бу сафар турли сайтлар ўз уқувчиларини ишонтириши мушкул бўлаётганди. Айниқса, рус сайтларида бу авжга чиқди. Хабар Марказдан сиздирилдимикан? Уларда жамоатчиликни катта воқеаларга тайёрлаш усули бор. Идора ҳам буни қўлламоқда. “Дода ўлган” деган хабарлар ҳам пайдо бўлди.

Сенаторнинг хонасида телевизор қўйилган. Купа-кундузи Доданинг қарор ва фармонларидан ўқиб беришмоқда, Одатда бундай ҳужжатлар кечки соатларда эълон қилинади. Бунинг устига шанба куни. Демак, сиздириш идорадан ёки Раисдан эмас. Бу ё марказдан, ё Ғуломнинг гуруҳидан. Улар билиб қолган. Кимлардир унга ҳам ишлайди. Баъзилар ҳар икки томонга хизмат қилади. Бунинг олдини олиш, бировни жазолаш жуда қийин. Раис билан опоқ-чапоқ бўлган ходим, унинг ўринбосари билан тескари бўлолмайдими-да. Қолаверса, уларнинг кўпчилиги раҳбарлар иккига бўлинганини билишсада, ҳар икки томонга талтайишади. Бу жон сақлашнинг бир йўли. Жон сақловчилардан биттаси ҳамма гапни Раиснинг ўринбосари Ғуломга шипшитган бўлиши аниқ. Бундан ташқари Ғулом телефонлар оқимини ҳам назорат қилади.

Телефоним “тинг” этди. Очсам Истанбулдаги резидент.

“Об-ҳавони сўрамоқчи эдим?” деб ёзибди.

“Об-ҳаво жойида. Ҳаво жазирама, киздирмоқда.”

Шундай деб ёздиму ўчирдим. Чунки жазирама сўзини ҳар томонга буриш мумкин. “Иссиқ”, десам ҳам хабарларни тасдиқлаган бўлиб чиқаман.

“Ҳаммаси жойида...”

Уч нуқта қўйдим. Қандай тушунса ўзи билади. Уни алдасам, бир кун у ҳам мени алдайди. Унга ишора берсам, бошимга бало бўлиши мумкин.

Яна телефон “тинг” этди.

Москвадан эски таниш.

“Бизга ҳар турли хабарлар келмоқда. Суриштириб беролмайсизми?”

“Уйда ётибман. Бугун дам олиш куни. Нима гап экан?”

“Дода ҳақида. Ўқимадингми?”

Ўзимни гўлликка солдим:

“Кеча жуда кеч ётгандим, ухлаб қолибман. Нимани ўқишим керак? Ҳавола бериб юбор.”

Боя ўқиганларимнинг ҳаммасини юборди. Кейин у яна ёзди.

“Машҳур врач сиз томонга учмоқда, гуруҳи билан. Сен бўлсанг ухлаб ётибсан-ми?”

Шу гап алам қилди. Аммо у билмайдик, врачлар қўналгадан қайтиб кетади. Эртага бир гап чиқиб қолмаслиги учун машҳур таниш-билиш докторлар чақиртирилади. Қўналгага келади. Оладиганини олади ва қоғозга қўл қўйиб, қайтиб кетади. Бу масала билан Салимхон ака шуғулланмоқда. Истаса, уларга ош қилиб беради, истаса, меҳмон қилади. Хуллас, унинг вазифаси. Ҳатто етказадиганини етказиб, докторларни ярим йўлдан қайтариши ҳам мумкин.

“Хуш келибди. Кучоқ очиб кутиб оламиз. У одамлар кун ора келиб туришди. Додамизнинг азиз меҳмонлари, даволаб кетишади. Бунинг устига ҳафта охири” деб ёздим.

“Миш-мишлар билан мос тушиб қолгани учун қизиқдим.”

“Қизиқиб кўрай, миш-мишларнинг тагида бир гап бўлса, ўзибм сенга еказаман.”

Унга кўп ҳам ишониб бўлмайди. Биз сиздирган хабарларни ҳам чоп этади. Аммо пулни Ғарбдан олади. Ўзиникиларга ҳам ишлайди. Хабарни улар орқали олган ва мендан тасдиқлатмоқчи кўринди.

Салимхон аканинг ҳунарларини билмайди-да. У керак бўлса чет элларнинг мана-ман деган духтирларини ҳам чақиртиради. Учқич юбориб олиб ҳам келади. Калганларидан кейин:

-Узр, кеч бўлиб қолди, кетиб қолдилар, бизда мусулмончилик, майитни у ёқ бу ёғини кесиб, азоб бермайдилар, васиятлари шунақа,-деб ҳақларини беш-ўн бараварини тўлаб, жўнатади ҳам. Унинг бу борадиги санъатига қойил қолмай, тан бермай иложингиз йўқ. Ҳаммадан гап чиқса чиқади, аммо унда чиқмайди. Уни “гўр” дейишади. Эшитгани ичига кўмилади. Гўрнинг устида ўт-ўлан униб чиқади, бунинг юзига ҳеч нарса чиқмайди, “гўр”лигини ҳам сезмайсиз.

Хаёлга барҳам. Чунки сенаторнинг хонасига кириб-чиқувчилар кўпайди. Партия раислари, кўмита раҳбарлари битта-битта кириб, уни қучоқлаб, қулоғига бир нарсаларни шипшитиб, чиқиб кетишмоқда.

-Ҳеч гап йўқ ҳали. Кўнгилни тинч қилинглар. Озгина маззалари бўлмабди. Дуо қилинглар, ваҳимага, миш-мишга ўрин берманглар!

Сенаторнинг ҳаммага айтаётган гапи шу.

9. Зухра

Ёдимга тушди. От ҳайкалчалардан биттасини архивда кўрган эдим. Архивнинг жовон қаторлари бошида кирил ҳарфлари ва ёнида турли ҳайвончаларнинг сурати бор.

Масалан, “Б” ёнида балиқ, П ҳарфи ёнида “Пул”, “О”нинг ёнида отнинг ҳайкалчаси. Ҳарфлар қатор сирасини белгилайди. Сурат эса сирли код. Мисол учун, “Балиқ” бўлимида турли жинойтлар билан ушланган ва осонгина кутилиб кетган одамлар билан боғлиқ ҳужжатлар сақланади. Жовон ёнида махсус сейфлар бор. Рим рақами билан рақамланган. Унинг ичидаги ҳужжатлар эса Хоразмий рақамлари тарзида жойлаштирилади. Идорага ишга келган одамнинг архивдан фойдаланиши осон эмас. Бу ишни Зухра назорат қилади.

Зухра исмига монанд қиз. Қадди қомати унча-бунча йигитни асирга олади. Кўзлари кўкимтир, сочи қора, юзи қаймоқранг. Доим жиддий. Ҳеч кулганини кўрмайсиз.

Эсингдами, Шунқор, янги ишга келган пайтларинг эди, уни лифтда кўриб қолдинг. Бир қарашда вужудинг жунжикди, лабинг куриб, тилинг коминга тортилди. Аранг ўзингни кўлга олиб, унга қарадинг. У ҳам сенга тикилиб турибди. Жилмайддинг. У эса қовоғини солди, парво қилмади. Кўзингни олиб қочдинг, аммо унинг термулиб тургани сени гоҳ музлатиб, гоҳ эритиб юбораётганди. Ҳатто қайси қаватга чиқиш тугмасини ҳам босмабсан. У тўртинчи қаватга чиқди.. Орқасидан қараб қолдинг. Ханжардек тик, қадам ташлашлари ҳам аскарникидек маҳкам. Орқасига қарайди деб ўзингни овутдинг, аммо қарамади. Лифт эшигини башарангга бекитди. Нимадир жинг этди. Шунда билдингки, лифт пастга қараб кета бошлади. Ертўладан чақиришган экан. Лифтдан тушиб атрофга назар солдингда, иккинчи лифтнинг тугмасини босдинг ва кута бошладинг. Эшик очилиши билан бояги қиз чиқди. Вужудинг шув этди.

Унга қараб кулимсирадинг, у эса парво ҳам қилмай ўтиб кетди ва архив томон йўл олди. Ўла, йигит бўлмай, ҳатто бир сўз айтолмадинг. Битта идорада ишлайсан-ку энди, нега жиддий тарзда бирор нарса дея олмадинг? Ойлар ўтаверди, уни лифтда кўриш учун пастга, тепага қатнаб юрдинг. У хоналарга керакли архив ҳужжатларини тарқатиб юргани учун лифтга тез-тез чиқади ва гоҳида кўришиб қоласизлар. У сенга қарайди. Писанд қилмайди. Худди девонага термулгандек нигоҳини узмайди. Сен унга томоша.

Бир кун Раис билан келаётгандинг, Зухра ҳам лифт кутаётган экан. Раисга алоҳида лифт эшигини очиб туришади. У Зухрага имо қилиб, лифтга чақирди.

-Ассалому алайкум, ўртоқ генерал!-деди у лифтга минаркан.

-Амаки деявер,-деди Раис саломга алик ҳам олмай.

Кейин менга қараб гапирди:

-Зухра яқин дўстимнинг қизи. Шахматини кўтариб келадиган дўстимнинг қизи.

Сўнг қизга қаради:

-Зухра, бу йигитни танийсанми? Ёрдамчим. Архивда нима керак бўлса, топиб беравер, қайдиётдан ўтказиб юрма. Менга ишонгандек ишон унга!

Биринчи марта кўрдим, Зухра бошни эгиб, кўзини олиб қочди. Қани эди лифт тўхтамаса. Яна биров уни томоша қилгим келди. Аммо Зухра тушиб қолди. Раис эса:

-Жуда билимдон қиз, уни қўлга олишинг учун билимли бўлишинг керак, тўйингни ўзим қилиб бераман,-деди

Уялиб кетдинг. Раис қаёқдан билиб қолди? У лифтни ҳам кузатадими? Балки идорада кимни кимга уйланиши, кимнинг оиласидан ажралиши ҳам раисга боғлиқдир?

Хуллас, Раис йўлингни очиб берди. Аслида у сени Зуҳрага яқинлаштириш билан бирга юз йиллик тарихнинг ичига қўйиб юборди.

Ҳар кун Зуҳранинг олдига тушардинг.

У сенга архив қоидаларини, ҳужжатларни қандай асрашни, Раис айтгани билан ҳеч нарса ўзгармаслигини, ҳужжатларни текшириб бериши ва текшириб олишини айтди. “Ғинг” дея олмадинг. Архивда нима кераклигини ҳам билмасдинг. Бир кун Зуҳрага:

-Идора тарихини ўрганмоқчиман, қандай маслаҳат берасиз?-дединг.

У бутун архивни кўрсатиб:

-Ҳаммаси тарих,-деди.-Чап томондаги девор “Биринчи сейф”. Икки марта махфий ҳужжатлар ўша ерга ташланади. Ҳеч ким очолмайди. Сирли рақамланган. Эллик йилда ўзи ўзидан очилади. Ўнг томондаги эса юз йилда очилади. Жовондагилар очиқ. Албатта ҳаммага эмас. Раисга, ўринбосарларига ва мана энди сизга ҳам. Қолганлар учун алоҳида қоида бор. Мурожаат қиладилар ва ўзим олиб бориб, ҳужжат имзолатиб, маълум соат ёки маълум кунга топшираман. Айтилган пайтда ёрдамчим йиғиб, жойига қўяди. Атрофга қарайман, ёрдамчи кўринмайди.

-Ёрдамчим тўртинчи қаватда ўтиради. Унга компьютерда рўйхатни ташлайман ва қайси соатда кимдан қайси ҳужжатни олишни билади.

-Нега бу ерда эмас, тўртинчи қавтда ўтиради?

-У ерда хужжатларга кимёвий ишлов берилади. Эскириб ёки ўчиб қолмаслиги учун. Кейин ўзим олиб келаман. Агар маълумот кўп керак бўлса, терговчилар шу ерга келишади ва мана бу хоналарда ўтириб, ишлашади.

Кўзинг, жовондаги “Қ” ҳарфига тушди ва суратига қарадинг. “Қилич”. Ўзингча ўйладинг, бу ерда қотиллар ҳақидаги маълумотлар тўпланса керак.

-Ашаддий киллерлар ҳақидаги маълумотлар билан танишмоқчи эдим,-дединг Зухрага.

-Кўча қотилларими ёки ўзимизнинг қотилларми?

Ажабланиб қолдинг. Бу гап жуда совуқ эшитилди. Нима дегани бу? Қанақасига ўзимизнинг қотиллар. Аммо Зухранинг ёнида бўш келмасликка ҳаракат қилдинг.

-Ўзимизнинг қотиллар...

-Тирикларими ёки ўлганларими?-деб сўради Зухра. Шошиб қолдинг.

У худди устингдан кулаётган ва бу борада саводсизлигингни пеш қилаётгандек эди.

-Тириклари,-дединг сохта совуққонлик билан. Қиз боланинг ёнида ўзингни пастга ургинг келмади. У яна саволга тутди?

-Ичкаридагиларми ёки четдагиларми?-деди.

Ниҳоят сени синдирди ва билмаганингни тан олдинг.

-Шу қадар бўлимларга ажратилганми?

-Кўрдингизми, архивдан фойдаланиш учун ҳам кўп нарасани билиш керак. Бўш вақтингизда келсангиз ҳаммасини тушунтириб бераман,-деди.

-Жоним билан!-деб юбординг. Унинг майин товуши сенга шу қадар ёқдики, худди “бўлди мен сизники” дегандек эшитилди. Ўзингни йўқотдинг ва ортга бурилиб чиқиб кетаётгандинг, Зуҳра гап отди:.

-Рўйхатни кўрмайсизми?

-Қайси рўйхатни?

Яна қовун туширдинг.

-Бунақа доводи раб қоладиган бўлсангиз бу идорада кўп ишлай олмайсиз,-деди у ва жилмайди. Бу унинг сенга илк жилмайиши эди.

-Тўғриси айтийинми, аслида архивдан фойдаланишни ўрганишга келгандим, гап бошқа томонга айланиб кетди,-дединг.

-Тушунарли, анча нараса ўргандингиз, лекин баяги масалани яна давом эттириш мумкин. Масалан, қотилларнинг ҳақиқий исм-шарифлари бўлган рўйхатми ёки тўқима номларими деб ҳам сўрашим мумкин.

-Ҳаммадан шундай сўрайсизми?

-Йўқ, фақат сиздан. Чунки Раис сизга изн бердилар. Ҳаммага изн бермайдилар. Ҳамма ўз чегарасини билади.

-Демак мен чегарасиз...

-Йўқ, сиз ҳам чегарангизни билишингиз керак. Масалан, мени кўрганда доводи раб қолмаслигингиз зарур. Акс тақдирда кўрганлар ҳар нараса деб ўйлайдилар.

Қолаверса, лифтда тушиб-чиқишни камайтиришингиз шарт. Бекорхўжа деб ўйлашади.

-Раҳмат,-дединг, кейин,-таслим бўлдим, мот қўйдингиз,-деб жилмайдинг.

-“Шах” дейишни ва ортидан “мот” дейишни дадам яхши биладилар. Раис билан бирга ўқиганлар. Дарвоқе, сизнинг дадангиз билан ҳам. Улар курсдош бўлишган.

-Сиз қаёқдан биласиз?

-Кўрдингизми, яна хато қилдингиз, мен архивда ишлайман-ку?-деди Зухра яна ўзининг устунлигини кўрсатиб.

Унинг дадаси кун ора кечки пайт кириб келади. Уни ҳамма танийди, шекилли, ҳеч нарса демай кириб келаверади. Раиснинг хонасида кечқуруни билан шахмат ўйнашади. Ёнларида телефон туради. “Кетдилар” деган овоздан кейин ўйин қизимайди. “Ухладилар” дейилганидан сўнг улар ўйинни тўхтатишади ва биргаликда чиқиб кетишди.

-Дадам хақида билмоқчиман,-дединг архив томонга тикилиб.

-Дадангизни билмайсизми? Буни Раисдан сўрашим керак. Кўрдингизми, сизга ҳам чегара қўйилган.

-Ким қўйган?

-Ким бўларди, мен қўйдим,-деди Зухра;

-Эртага...,-деб тўхтаб қолдинг.

-Эртага вақтим йўқ,-деди Зухра.-Йигитларга озгина рўйхушлик берсанг, тамом, эртага деб гап бошлайди.

-Эртага архивга келсам бўладими?-демоқчи эдим.

-Эртага дам олиш куни, мен ишламайман. Бошқа одам келади.

Индамай бош эгиб чиқиб кетдинг. Зухра тит-питингни чиқариб ташлади. Гапга чечан, ишни биладиган, кўркмас, жасур қиз экан. Бундайларни қуруқ гап билан енгиб бўлмайди. Ўзингни кўрсатишинг керак. Эътибор қилмаслик лозим унга. Йўқ, бунга катта салоҳият керак. Қўлингдан келмайди. Яхшиси, бўш вақтингда архивда ишла. Калланга кирса-кирмаса, ҳужжатларни варақла.

Зухра баҳонасида архивга бошинг билан кириб, оёғинг билан чиқиб кетолмай қолдинг. Шу қадар сирли дунё эканки, Зухранинг гапини эшитмай қолардинг. Машҳур одамлар билан боғлиқ ҳужжатларни кўрганингда инсон зотининг қанчалик турланишига ҳайрон қолгандинг. Ака-укаларини, яқин дўстларини қоралаб кўрсатма берганлар. Айниқса, мансабдорлар осонгина ҳамма гапни ёзиб беришган ва айбни бошқага тўнкашган. Кўпларини усталик билан синдиришган деб ўйлардинг.

Мана энди кўриб турибсан, Сенаторнинг хонасига кириб чиқаётганларни, аввалига уни қучоқлаб, қулоғига шивирлашган бўлишса, энди очиқчасига табриклашмоқда.

Битта партиянинг раиси кириб урусча гапирди:

-Худога шукур, шу кунларга ҳам етдик. Сизни бизга Худонинг ўз берди. Ҳаммамиз сиздек истеъдодли раҳбарга муҳтожмиз,-деди.-Бошингизда “ангеллар” айланиб турибди.

-Унақа деманг, ҳали ҳеч гап йўқ,-деди Сенатор айна гапини русчалаб.

У телефонда ҳам кимлар биландир русча гаплаша бошлади. Фақат “Шум” билан гаплашганини сездинг. “Шум” негадир унга бақирди. У ўрнидан туриб, “ест-эст” деб тураверди.

Шундай пайтда эзилиб кетасан, Шунқор. Халқ кимларнинг қўлига қолган.

Бирлашмаган халқ оломонга айланади, бўронлар остида қолади, шунда ҳам бирлашмаса, ёлғиз кимсаларга айланади, сиртлонлар қўршовида қолади, шунда ҳам бирлашмаса, у йўқолиб, йўқ бўлиб кетади. Наҳотки шу ниқтага яқинлашаямиз?

Хаёлимдан олис тарих ўта бошлади. Минг йил нари ва минг йил берида ҳам бирлашганлар омон қолишган. Қанча-қанча элатлар тарқоқлик туфайли йўқ бўлиб кетганлар. Агар одамлар уят жойларини ёпишни ҳали англаб етмаган ўша ибтидоий жамоа даврида бирлашмаганларида бугун ер юзида фақат ҳайвонлар яшармиди?!

Тарихимиз архивларда ётибди. Биз сайёҳ Клавихо, савдогар Женкинсондан ўқиймиз тарихни. Бартолд нима ёзган деб китоб қидирамиз. Имомқулихоннинг ўрислар подшосига бизга вакил юборинг, деб илтимос қилганини билмаймиз. Иван Хохловнинг Хива, Бухоро, Самарқандга келиб икки йил ахборот тўплагандаёқ, бу заминга офат келишини ўйлаб ҳам кўролмаганмиз. Шохниёзхоннинг Пётрга совға - саломлар йўллаб, зарбоф тўнлар юбориб, “Бизни қўшиб олинг!” дея гапиришга нима мажбур қилганини ўйлабмиз.

Назаримда, уруслар энг нозик жойимизни топган кўринади. Яъни қалъани ичидан олиш осонлигини билиб олишган. Ахир Искандар Зулқарнайн қандай

қилиб бу тупроқни босиб олганини эсланг? Ундан олдин чин-мочинчи? Оқпошсо ҳам шу йўлни танлади.

Тоғлари олтин, боғлари кумуш, замини кон, юрти кучга макон жойни нима қилиб бўлса-да олиши керак эди. Очкўз ва очофат генерал Черняевнинг Тошкентга кириб келишини биласизми? Ўрис подшо бу шаҳарни куч билан эмас, ҳийла билан олган.

Тошкент сарҳадида ўттиз минг сипоҳий турарди. Жанг деярли бўлмади. Зангиота, Ниёзбек, Чинозда дарров таслим бўлишди. Душманнинг аскарари икки минг нафарга ҳам етмас эди. Черняев шаҳарга йўл олди. Бу орада Туркистоннинг ўзида ҳам ички курашлар бошланиб кетганди. Тошкент шаҳри ёшлари жангга отланишганда оқсоқоллар орага тушишди. Ўз фарзандларини, келажакни боғлаб беришди.

Ана шу даҳшат, ана шу мерос бугунгача давом этаяпти. Мустақиллик дея бирлашган юртсеварларга, мустақиллик тарафдорларига қанча оқсоқоллар панд-насихат ўқиганлар. Уларни идорага чаққанлар. Қўлёзмаларини кўриб ваҳимага тушгандинг, Шунқор!. Мустақиллик дея чиққанлар қолиб, унга қарши бўлганларни қўллаган идоранг, Шунқор! Мард йигит-қизларни ўлдиришган. Қотилларнинг номларини, қандай ўлдирганликлари ҳақидаги битикларни кўравериб, сен ҳам одамликни йўқотдинг, Шунқор!

Бу анаъна деб ўзингни овутасан, Туркистон қон ичида, олов ичида қолган дамларда қанча боболаримиз эшик очиб берилиши учун хизмат қилдилар деб таскин топгандек бўласан. Туркистонни қиличдан ўтказган генерал-губернатор Кауфманнинг “яшин тезлиги”да Самарқанд, Каттакўрғон, Зирабулоқ, Бухорони босиб

олишини билиб, қонинг қайнаган бўлса, амир Музаффариддин ҳимояга отланиш ўрнига Кауфман билан тил бириктиргани ҳақидаги ҳужжатларни ўқиб музлаб қолдинг.

Хайриятки, Абдурахмон офтобачи сингари улуғлар атрофига бирлашган ғазавотчилар ҳақида ўйласанг, хаёл ботқоғидан чиқа бошлайсан. Лекин архив оёғинга осилади.

Урус инқилобидан кейин Туркистон яна олов ичида қолди. Яна ўша шаҳарлар, қишлоқлар вайронага айланди, ёниб кул бўлди. Энди фақат Кауфманнинг ўрнида Фрунзе эди. У ҳам қалъани олиш учун ичкаридан ҳаракат қилиш “қоида”сини ишга солди. Сотқинлар қаҳрамон бўлдилар, қаҳрамонлар сотқин! Юрт эса вассал, мустамлака! Миллат вакилларининг, жадидларнинг озодлик учун йигирма йиллик курашлари, бирлашолмаганлари талофот билан, офат билан, замоннинг ақли янчиб ташланиши билан тугади.

Яна замон ўзгара бошлаганда олов сели устимизга келди. Фарғона воқеалари илдизига қарамадик. Паркент фожеасига юзаки муносабатда бўлдик. Кейин Ўшдаги оловнинг гулханини ёққанларга сўзимизни айтмадик.

Мана оқибат. Ҳамма кўрсатмани Москвадан олмоқда. Дод деб юборинг келади. Аммо ўзинг ҳам улардан биттаси эканлигинг бу фарёдни ютиб, майдалаб, ҳазм қилиб юборади, Шунқор!

Нима ҳам қила олардинг? Бу савол сени ҳам, бошқаларни ҳам маҳф этган.

Яна хаёлга берилдинг ва Сенатор кимлар билан гаплашаётганига эътибор қилмадинг. Телефонинг

“тинг” этмаса ҳали бери хаёл ботқоғидан қутула олмасдинг.

“Бор, дамингни ол”. Бу раиссинг буйруғи..

Ташқарида кун ботган. Кун ботганда ва тонг отганда кўкдан Зухрани қидирасан. У ёрқин сайёра! Кимдир Қуёшни алқайди. Кимдир Ойни мақтайди. Сен эса Зухрани севасан. Кўкка боқдингми, уни қидирсан, ҳа, деганда кўринмайди. Аммо топасан. Кўкдан тополмасанг, қалбингдан топасан. Уни қалбингга муҳрлаб қўйгансан. Қийин соатларда дилингни ёриштиради, куч беради.

Ташқари дим, аммо Сенаторнинг хонаси каби биқик эмас.

Ташқари қоронғу, аммо Сенаторнинг юзидек тунд эмас.

10. Ғулом

“Батя” ўлдию ўзимни эркин ҳис қилиб, хаёлга берилаяпман. Хаёллар оғушида ҳали уйга етиб келмасимдан ортга қайтаришди. Раиснинг ўзига учрашишим керак экан. Борсам:

-Қаҳва ичаяптилар, биров халақит қилмайлик, - деди қабулхона адютанти. У генерал. Сен эса полковник, Шунқор. Лекин сендан ҳайиқади. Худди ўзидан катта генералга муомала қилаётгандек “юмшоқ супурги” бўлиб олади.

Стол устидаги аппарат “гапириб қолди”:

-Келдими, кирсин!

Адютант бошини қимирлатиб, тиржайиб қўйди ва эшикни очди.

Ҳаяжон билан қадам ташлаб кираётгандим:

-Кел, ўғлим,-деди раис ва ёнидаги креслони кўрсатди.-
Ишларинг қалай?

-Яхши ўртоқ Раис!

-Раис-паисингни қўй! Сени нариги идорага кўчирдим. Янги раҳбаримизни кўриқлайсан. У жуда ҳам яхши одамлигини биласан, бир неча йил ҳам бевосита, ҳам билвосита хизматини бажардинг. Бошимизни силайди. Биз унга содиқ бўлишимиз керак. Келгусида сен ишлайдиган идорани қайта тузамиз ва ўзинг бошқарасан. Одамларингни танлаб юр. Бу гап иккаламизнинг орамизда қолсин. Сен, мен ва янги раҳбар билади. Ҳозир эса бор, дамингни ол, эртадан бошлаб ухлашга вақтинг бўлмайди. У кишининг атрофида хас айланмаслиги керак. Девонга бормайдиган бўлди. Сенаторларнинг биносида ишлаб туради. Анхорнинг бўйида. Эрталаб ўша ёққа борасан. Қолганини ўзинг биласан, сен қандай бола эканингни даданг айтмасдан олдин ҳам билардим. Раҳматли даданг яхши одам эди. Сени ишга олишимизга розилик бермаганди, тирик бўлганда кўрарди, ўғли қанақанги ишга кўтарилди.

Бошлиқ шундай деб аранг ўрнидан турдида, “Боравер” дегандек елкамга уриб қўйди.

-Хаёлга берилма,-деди эшикка яқинлашганимда.

-Хўп бўлади Раисим!

Уйга келгунча хаёл суришга чўчидим. Шунинг учун қўшиқ эшитиб келдим. Уйга келиб ижтимоий тармоқлару ойнаижаҳонда нима бўлаётганини олдинроқ ёзгандим. Бутун мамлакат ўликни тузалсин деб дуо

қилиш билан овра. Ҳатто сендай одам ҳам бунга ишониб қолаяпсан, Шунқорбек. Тарғиботнинг кучи ёмон. Соппа-соғ одамни жиннига айлантириб қўяди.

Чарчаган эканман, ухлаб қолибман. Телефоннинг тинимсиз жиринглашидан уйғониб кетдим. Ичкуёв экан.

-Тез етиб кел, сафарга кетамиз,-деди у. Олдин сенсирамасди. Нима бўлдийкан?

Янги девонга бориб билдимки, Ичкуёв расман ишга олинган экан. Катта хўжайин. Бу соҳани умуман билмайди. Олийгоҳларда ўқияпман деб ҳужжат сўраган, ўзинг ясаб бергансан, Шунқор! Кореяда ҳар куни спорт билан банд, саунага борган, маликаси билан дунёни кезиб юрган. Қайната “пул дунёсига кўмиб қўйганди. Мана энди, осмондан тушган фариштадек ҳаммани ишга буюрган, вазифаларни белгилаган, ҳисоб сўраган, сенсироган... хуллас, калласига келгани тилига чиқмоқда.

Ичкуёв ёнимга келиб:

-Иккаламиз икки томондан юрамиз. Мен бу ишда янги бўлсам, сен... кечирасиз братан, тилим “сен”га ўрганиб қолибди, сиз бу ишда эски, тажрибали. Адамни ҳам яхши биласиз, кайфиятларига қараб иш тутишимиз керак. Менга ҳам паст-баландни кўрсатиб турасиз. Битта кўзингиз адамда турса, биттаси менда бўлади,-деб “тарбия” берган бўлди.

Бир зумдан кейин ҳаммамизни ““Шум””нинг хонасига таклиф қилишди.

У Ичкуёвга қарадида:

-Сен Шунқорга бўйсунасан, -деди худди унинг бироз олдин менга айтган гапини эшитган каби. Кейин менга юзланди: -Шунқор, бу болага полковник унвони бердим. Расмийлаштириб қўй! Унга дарс бериб, одам қиласан! Қолганларига ҳам йўл кўрсатасан! Жамоатчиликка озроқ кўрин. Узоқроқда, панада юр ва ҳаммасининг қадам олишини кузат. Кўзинг амалдорларда бўлсин. Керакли гапни сендан сўрайман!

Камина шикоят қилгану “Шум” Ичкуёвга дашном бераётгандек у икки қўлини олдинга қилиб, бошини эгиб турарди. Пишиқ бола. Уни олдиндан яхши биламан. Ҳозир ташқарига чиқиши билан “Хўжайин” дейишни бошлайди.

“Шум” бошқаларга жавоб бериб, Ичкуёв билан каминани олиб қолди. Бизни ичкари хонага бошлади.

-Бу ерни яхшилаб текширинглар, -деди. -Шунқор, сен куёвга Ғуломнинг гуруҳи ҳақида батафсил маълумот бер. Ким ким билан битта тешикка сийишини тушунтириб қўй. Улар талвасада. Арининг уясини ковламасин. Бироздан кейин йўлга чиқамиз. Мен билан кетасан, -деди.

Ичкуёвга идорадаги паст-баландни тушунтирдим. Айтганимдек у ўзини қаршимда ёш боладек тутат бошлади.

Елкасига уриб қўйдим:

-Сиз билан эски қадрдонлармиз. Барибир бамаслаҳат иш қиламиз, -деб кўнглини олган бўлдим. Билиб бўладими, “Шум”га бирор гап етказса, менга эмас, унга ишониши турган гап. Султон суягига содиқ!

Биз Ичкуёв билан анча гаплашиб қолдик. Ғулом ҳақида билганларимни айтиб бердим.

Ичкуёв четда юриб ичкаридаги хабарлардан беҳабар экан. Ҳатто Ғуломнинг саройни титратган ўйинларини ҳам эшитмаган. Демак, бу жойларга келиб қолиш ҳаёлининг кўчасидан ҳам ўтмаган. Олма териб катта бўлган болани трактор заводига олиб бориб, бош таъмирчисан дегандек гап бу. Тош кўтариб юриш, бош кўтариб юриш деб мана шунга айтадилар. Ичкуёв бироз ўпка. Икки маъносига ҳам мос тушади. Спорт залларида тош кўтарган бўлса, мана энди қўлтиғида тоши борлиги ҳам кўриниб қолди. Чунки божасидан шикоят қилди.

-У латтага бошқа иш бериш керак эди,-деди. Божа божани кўрганда аллақаери қичийди деб бекорга айтишмаган.

Ҳали иш бошлаганимиз йўқ, бу божасини ёмонлаяпти.

-Нима иш беришибди?

-Салимхонга ўринбосар...

Индамадим, гапни яна Ғуломга бурдим.

Ғулом ““Дода””нинг энг севган эшаги эди. Аслида у Раиснинг муриди. Уни Раис топган ва ўзининг ўрнига тайёрлаб юрганди. “Олтин юлдуз”дан биттасини унинг кўксига тақдирган ҳам Раис. Агар индамай юрганда ёки ““Дода””нинг гиж-гижлаш ўйинига тушмаганда, бугун омади олчи эди.

Унга “Дода” Раиснинг талтайиб кетгани ва бирор муҳим гап чиқса ўзига етказиб туришни айтгандан кейин атрофига бир нечта генералларни йиғди. Раис сир бермайди. Ғулом “Дода”га етказиши учун воқеаларни

Ўзи яратиб, гўё Раис яширгандек қилиб айтиб юрган. Норвонни баланд қўйган. Ғулом томга етаман деганда норвонни тортиб олишни режаллаган.

“Дода” аста-секин унинг айтганига ишона бошлади. Яқинлари амалдан амалга сакрай бошлади. Бир куни уни “Дода” чақириб, тайёргарлигини кўр, яқинда Раисни ишдан оламиз, деган. Раис илоннинг ёғини ялаган одам, худди шуни кутган. Московдаги ошналари орқали саройни титратди.

Ғуломнинг укаси уммон ортидаги давлатга сотилгани ҳақидаги хабарни олиб “Дода” жинни бўлиб қолай деган.

Бу етмагандек Раис “Дода”нинг қизи ҳақида тўпланган ҳужжатларни очикқа сиздирди. Хориждаги уйларни томошага чиқарди. Овозаю дарвоза бўлди.

“Дода” дод-вой қилди. Бу ҳам Ғуломнинг бўйнига илинди. У ҳам бўш келмади. “Дода”га бориб, Раис қамоқхоналарда диндорларни тайёрламоқда, ниманидир режалармоқда, деб айтган. Бир иккита маҳбусни гапиртириб, ҳокимиятни Раис олмоқчи, деб хабарлар чиқарди. Жанжал бошланиб кетди. Ғулом ташқаридан ҳам одам йиға бошлади. У Азимжон билан учрашиб турди. Буни видеога олганинг эсингдами, Шунқор. Бу гапларни Ичқуёвга билдирсанг, бошинг балонинг тегирмонига киради. Сирни бердингми, тамом, у бир кунмас бир кун ўзингга қарши ишлайди. Шунинг учун ҳам сирни айтганда, бир жойини букиб айтиш керак. Ўзингга қарши ишлатишса, букилган жойини очиб, душманингни тит-пит қиласан.

-Ғулом гуруҳи бизга қарши ер остида ғимирлаб юришибди,-дединг Ичқуёвга, ўзингни унга яқин тутиб.

Аслида ҳам яқинсан. Шу гуруҳдасан. Раис нима деса шуни бажарасан, шундай эмасми, Шунқор? Ғуломнинг гуруҳини битта-битта синдириш муаммоо чиқаришини, уларни бир ҳамлада битириш режасини айттинг.

Мана шу гап Ичкуёвга ёқиб кетди.

“Шум” чиқиб қолдию суҳбат узилди.

-“Дода”нинг туғилган юртига борамиз. Мошиндами, самалётдами?-деди сенга “Шум”

Нега сўради? Мени синаб кўрмоқчими? Балки ичида кўрқув бордир? Қўналғада Ғуломнинг гиёҳбандаси етарли. Улар наркотик келишини ва кетишни назорат қиладилар. Пичоқлари мой устида. Уларни “гиёҳбанда” деб атаймиз. У кечаги гаплардан хабарсиз қолгани учун бандитларини музнинг тагига тикиб олган бўлса керак. Талвасада у бир нарсани ўйлаши, режалаши ҳам мумкин.

-Ишончлиси машина,-дедим.

-Санда адашмадим, калланг зўр,-деди “Шум” елкамга қўлини қўйиб.

-Рухсат берсангиз, бошқа машина олиб келаман, икки дақиқада,-дедим ва йигитлардан бирига телехат юбордим.

“Эртага бозорлик қилиб, жиянларингга олиб бор, тушимга киришибди”.

Бизнинг махсус ёзишмамиз бор. Ёдлаб олганмиз. “ертага” дегани “ҳозирок”, “бозорлик”, дегани “янги машина” “жиян” шунқор, “тушимга кирибди” дегани Анҳор томондан кириш”.

Ғуломнинг қулоғи ҳам, қармоғи ҳам телефонда. Шунинг учун доим унга топишмоқ ташлайман..

“Шум” орқага қайтди. Узоқ йўл, ҳожатини чиқариб олиши керак. Унинг йўлда машинадан тушиш одати йўқ. Чидайди, Бўзариб кетаверади. Тўхтайлик десанг, “хайда” дейди. Охири бўлмайди. Бир жойда тўхтайди. Қийналиб кетади шекилли, уф-уфлаб қайтиб келади. Худди орқасидан кимдир милтиқ билан қувиб келатгандек, югуриб машинага ўтирадида, “сур” дейди. У қоронғудан кўрқади. Неғалигини билмайман. Балки биров пойлаб юрибди, деб ўйлаши ҳам мумкин. Балки болаликда кўрқитишгандир? Унинг битта дафтари бор. Жўқининг шеърларидан ёзади. Бир кун қўлимга тушиб қолди. Илк саҳифасида “Сиёсатга кирмаганимда шоир бўлардим” деб ёзилган. “Заминий” деб таҳаллус ҳам олган. Қоронғудан нега кўрқиши сирини шеърларидан биридан топгандайман.

“Тунда жийда тагидан,

Ўтма дердилар бувим,

Тунда дарахт баргидан,

Тутма дердилар бувим”

Демак, бувиси кўрқитган бўлса, шуурида қолган. Ҳозир анча вақт ичкарида қолди ва кейин, чиқиб;

-Келдими?-деди.

Икки дақиқалик йўл, Шогирдим кутиб турганига шубҳам йўқ эди.

-Келди,-дедим.

Орқа эшикдан ташқарига чиқсак, машина йўқ.
“Шум”нинг авзойи бузилди. Хаёлим қочди. Бир нарса
бўлмаса, шогирдим етиб келарди. Нима қилиш керак?
Йўлини топ, Шунқор?

Атрофга қарадим, Худога шукур, шогирдим, узоқроқда
телефон титиклаб турибди. Тушундим.

Атрофда ҳеч ким йўқ.

-Бу ёққа кел,-дедим унга.

Салом бериб келдида:

-Орқадан кузатишаётганини сездим, машина ошхона
эшиги ёнида. Олиб келайинми?- деди.

-Йўқ, биз ошхона эшигидан чиқамиз, у итларга
кўрсатаман ҳали, ҳаммасини булбулчадек сайратаман, -
деб “Шум” жаҳлини яширмади.

Тезда машинага миндик. “Шум” дарҳол ётиб олгандек,
машина ичига чўкди.

-Бу бола ким?-деди хавотирли оҳангда.

-Бу йигит энг ишончли шогирдим, ўлса ўлади, аммо
хиёнат қилмайди. Сизга жуда содиқ. Орқаваротдан жуда
ҳурмат қилади сизни.

-Бунақа гапларни кўп эшитганман, Раис биладими?

-Биладилар?

-Нега менга айтмади. Бир четга тўхтат!

Тўхтадим. “Шум” шогирдимга:

-Ука хафа бўлмайсиз, бизнинг махсус ишимиз бор. Мана сизга йўлқира. Уйга етиб оласиз. Садоқатингиз учун раҳмат,-деди.

У қўлтиқ чўнтагидан бир боғ долларни унга узатди. У ўзини тарозига солаётганди:

-Ол, табаррук, бу кишининг қўли теккан пул нарса омад келтиради,-дедим.

Шогирдим, тушиб қолгач, “Шум” бироз дашном берди. Жуда сўқағон. Оддий гапни ҳам болохонадор сўқиниш билан айтади. Гапнинг очиғи ичимда хафа бўлдим. Уни деб жонимизни беришгача бораяпмизу...

Буни ўзи ҳам тушунди, шекилли:

-Шунқор, сен ўзимнинг кадрдон укамсан, сени сўкмасам кимни сўкаман, яхши кўрганимдан сўкаман, хафа бўлмагин,- деди.

Тушуниб турибман, буни одамийлик учун айтмади. Шу дамда ҳаёт-мамоти қўлимдалиги эсига тушди.

-Бу қанақа машина,-деди бирдан.- Бунақасини кўрмаганман. Кошона-ку?

-Бу “Бентлей” деган машина. Янги маркаси. “Дода”нинг қизи буюртма қилиб олган, лекин унинг тансоқчиси олиб қўйган.

-Бунга у ярамас минганми?

Кимни сўради? Отасиними, қизиними? Тушунмай қолдим.

-Қизи кўриб ҳам улгурмаган. Аммо унинг буюртмаси билан қўлда терилган ва ташқариси оддий машинага

ўхшатишган, ичи эса мана шундай қошона,-дедим
йўлдан кўзимни узмай.

-Қизини сўрамаяппман, ўзи.

-Йўқ улгурмади.

-Худога шукур!

Шундай деб “Шум” хаёлга чўмди. Сен ундан ҳам
чуқирроқ хаёлга берилдинг!

“Шум” “Дода”сидан жуда кўрқарди. Бир марта қора
телефон жиринглаганда олдию, ўрнида турди. “Дода”
уни роса ясади, шекилли, бир муддат симёғочдек қотиб
қолди. Кейин икки кўлини бошига муштлади. Бирдан ёш
боладек хунграб йиғлаб юборди.

“Ўлдим, ҳаммаси тамом!” деб бошини деворга ургандек
пешонасини деворга тираб, туриб қолди. Демак, “Дода”
унга йўқол, бўшадинг деган. Ўшанда видеодан бу
манзарани кузатиб, дарҳол Раисга еказгандим.

Раис унга телефон қилди. У гапиролмади. Ичкари
хонага кириб, юзини ювди, кейин Раисга жавоб қилди.

-Ака кутқазинг, ўлдим, ўлдим, ака!-деб ялина бошлади,-
Бир умр хизматингизни қиламан. Азимнинг иши бу!
Дунёда ҳақиқат йўқ экан, мени сотишди, ака, сотишди!

-Ҳозир Шунқорни юбораман, сизни бир жойга олиб
боради,-деди Раис ва мени жўнатиб, ўзи “Дода”нинг
олдига кетди.

Келсам “Шум” Салимхон ака билан гаплашаётган экан.
Анча кутдим, қарасам қизил чироқ ҳеч ўчмайдиган. Бир
кор-ҳол бўлмасин, деб ичкарига мўраламоқчи эдим,
котиба қиз кўзи билан қизил чироққа ишора қилди.

Ёрдамчининг эса ранги ўчган ва менга кираверинг дегандек ишора қилди.

Кирсам “Шум”:

-Раҳмат ака, раҳмат, куллуқ акажон,-деб Салимхон билан гаплашаётган ва ўзини анча босиб олган эди. Бу дунёда ҳақиқат бор ака, бу сиз билан Раис!

Боягина бу дунёда ҳақиқат йўқ деб турган одам, ҳақиқат бор деб турибди.

Лекин барибир апосематик ҳолатда эди. Юзи қизарган, ички қаҳри бетига урган.

Ҳайвонот дунёсида апосематиклари бор. Хаф билан юзма юз қолсалар заҳарли тиканларини, рангларини, ҳунарларини, ҳар турли ҳимоя воситаларини ишга соладилар.

Айрим одамларда ҳам шундай турланиш мавжуд.

Ишонмайман. Бизда ҳақиқат исталгани қадар эгилади, синдирилади, товланади, йўқ қилинади, оёқ ости этилади. Бу зехниятни бузишга уринганларни душманга чиқаришади. Ҳақиқат уларга қўшилиб, синиб кетади, йўқолиб кетади ва биз тарих деб ёлғонларга ошуфта бўлиб юраверамиз.

Ростга шубҳа билан қараймиз ва ёлғонни индамайгина ҳазм қиламиз. Ўқимишлиси “Худога бандамиз” деб айтиб, ўзи шохга кул бўлади. Шоири “Дарвешман” деб сарой остонасида гадойлик, тиланчилик билан овора. Бошқаси маҳаллийчи, манфаатчи ва ёлғончилик қилади. Бу аҳволда ҳақиқат қандай қилиб синмай қолиши мумкин?

Озгина пул, мансаб ваъда қилган одамни кўкларга кўтаради. Пулим йўқ, берадиган мансаб ҳам йўқ деб очиқ айтган одамдан юз ўгиради. Бири, ваъдалар ёлғонлигини билади, аммо қуруқ ваъдага сотилади. Иккинчиси, гап ростлигини билса ҳам шубҳадан қутула олмайди. Бу аҳволда ҳақиқат қовжираб кетмайдими?

Билиб туради, тинч намоишга чиққан халқ отилди. Аммо ростга шубҳа билан қараб, ёлғонга маҳлиё бўлади, ёлғоннинг этагига осилаверади. Бундай заминда ҳақиқат қандай кўкарсин?

Билиб туради, минбарга чиққан одам уни сотмокда, аммо ҳокимиятга келиб қолар дея унга тилининг учидаги саволини бермайди.

Билиб турибди, дўсти қотил, аммо рақибим унинг ўрнига келиб қолса-чи, деган ўй билан қотилга оқловчи бўлади.

Билиб турибди, миллати ва мамлакати сотиб юборилмокда, аммо “менга нима?” дея пинагини бузмайди. Шундай экан, ўртада ҳақиқат қоладими?

Мақтасангиз ёқасиз, мақтамасангиз душмансиз. Ҳатто читтакдай одам ҳам сиздан филдай мақтов кутади. Филдай одамни чумолининг чакқанидай ҳам таъсир қилмайдиган даражада танқид қилсангиз, бас бир умрбод душмансиз. Ҳақиқатни шундай синдиришадики, тиклаб бўбсиз!

Тўхта, тўхта Шунқор, файласуф бўлиб кетдинг. Нималар деяпсан? Мана кўрасан, бу одам яна жойида қолади. Аллақачон бу ҳал бўлганки, ҳақиқат бор деб айтмокда.

Ўшанда ўйлаганинг тўғри чиқди. Мана энди шу одамга ўзинг ҳам қулсан, Шунқор. Ҳамма ҳам сендек, сен ҳам ҳаммадек. Ғуломни ғулом дейсан, ўзинг ҳам ғуломсан, Шунқор!

11. Қабристон

Ярим тун. Машинамиз “Батя”нинг шаҳрига яқинлашиб қолди. “Шум” телефонда ҳокимга топшириқ берди:

-Талабалар бўладими, қурилиш ташкилотларими, фарқи йўқ, ҳаммасини олиб чиқ ва қабристонни текисла!

Ҳоким нимадир деди “Шум”га ёкмади.

-Саккизта одамнинг оғзини юма олмасанг, нима қилиб ўтирибсан у ерда, тезда хавфсизликни уйғот, болаларини олиб чиқсин, ҳозир ўзим ҳам тўғри ўша жойга бораман. Дарвоқе, беш олтига бола олиб “Батя” яшаган уйни бориб кўр, эшикларини янгила, деворларини бўяб қўй, кираверишда катта портрети турсин. Бутун дунёнинг кўзига тушадиган жой, ялтиратиб қўй. Агар бирор камчилик топсам ўзингга ялатаман, билдингми? Сен билан бугунгача бирга ишладик. Агар энди ҳам қоқилмасанг ҳеч қачон қоқилмайсан, қанотим остида бўласан. Битта камчилик топсам қаерга тикиб юборишимни биласан!

У аслида ҳокимни яхши кўради. Чунки ҳоким унга хизмат қилишнинг ҳавосини олган. Бошқаларнинг вазифасига кирадиган ишни ҳам унинг олдида ўзи қилаверади. Бир кун “Шум”нинг туфлисидаги ипи очилмай қолди. У шунча чаккон ва кўзи ўткирки, бир сонияда “Шум”нинг қўлидан туфлисини олиб, ипини ечди ва туфлининг чангини ўзининг уст қийимига суртиб, кийгазиб қўйди.

Ҳозир ҳам биз етиб боргунча у “Батя” туғилган уйга одамларни жойлаштириб, ўзи қабристонга бориб туради. ““Шум””нинг калласидан нима ўтишини ва нима унга ёқиб-ёқмаслигини ҳам ўрганиб олган. Ҳатто дарё бўйидаги қўриқхонага “тандир” ҳам буюриб қўяди. “Шум”нинг тандирда пишган гўштни яхши кўришини билади.

“Шум” жуда оз ухлайди. Ўлгудек чарчаган бўлса ҳам бир мизғиб олса, етарли, югуриб кетаверади. Ҳозир жимиб қолди. Демак, мизғимоқчи. Биламан, мизғий олмайди. У ҳозир ўзи билан ўзи гаплашмоқда. Ҳаётининг энг бурилиш нуқтасида турганини ҳис қилади. Битта хато одим уни гум қилиб юбориши ва бутун ниятлари яксон бўлиши мумкин. Шунинг учун ҳам кўзини юмгани билан ухлай олмайди.

Шу пайт қаршисида биров бўлганда уни уришарди, захрини унга сочарди.

Бир пайтлар дадам айтиб бергандилар. Бир подшо касал бўлиб қолибди. Манаман деган табиблар келиб кўрибди. Очилмабди. Ҳазинлик дилидан юзига кўчибди, кундан кунга сарғайиб кетаверибди. Хонага кириб олиб, хунг-хунг йиғларкан. Нашага ружу қўйибди. Энди йиғлаш ўрнига қаҳқаҳа отиб куладиган бўлибди. Уйқусида ҳаловат йўқ, кундузида кўз олдини қора булут босган каби ёруғ жой излармиш.

Шунда кўшни юртдан овозаси чиққан бир донишманд табибни олиб келишибди:

Табиб подшони кўриб бўлгач:

-Саройдагилар сизни девонага чиқаришбди, сизни шаробхўр, нашаванд, ақлдан озган, кучини йўқотган,

тилдан қолган дейишмоқда, менимча уларга ўзингизни кўрсатиб қўйишингиз керак. Уларни йиғиб шундай гапиринг-ки, етмиш етти суяклари зирқирасин ва бундан кейин миш-мишларга берилишмасин, сизнинг катта билим соҳиби, донишманд, йўлбошчи эканингизга тан беришсин! -дебди.

Подшонинг жаҳли чиқиб, ғазаб “отиға миниб” сарой аёнларини тўплабди ва ҳаммани роса сўкибди, уларга бақириб-чақирибди. Айримларини ўлимга буюрибди, баъзиларини дўппослабди. Кимларнидир зиндонга жўнатибди.

Эртасига табиб шоҳнинг ҳузурига кирса, унинг авзойи жойида.

-Олампаноҳ, кечаги ишни тез-тез такрорлаб турсангиз, бир ҳафтада тузаласиз,- дебди.

Дадам айтган ҳикоятни тинглар эканман, ўшанда ҳайрон бўлгандим. Аҳмоқ табиб қанча одамнинг уволига қолибди деб. Лекин дадам давомини айтганларидан кейин кўнглим жойига тушганди.

Табиб илк кўришидаёқ подшонинг касалини билган экан. Баъзи одамлар бургут, айримлар илонсифат бўлишаркан. Бургут кенгликни, эркинликни севади. Илон эса заҳрини сочиб турмаса, ўзини заҳарлаб ўлдиришаркан.

Табиб кетишида Подшо унга “Тила-тилагингни”дебди:

-Бир қошиқ қонимдан кечсангиз, қилган хатоимни айтаман. Кечирмасангиз қиличингизни шайланг, ҳаётим шн кунгача экан.-дебди табиб.

-Қани айтчи, ундан кейин қарор берамиз,- дебди подишоҳ.

-Сизни илк кўрганимда ёлғон гапирдим. Саройингиздагилар сизга содиқ, меҳрибон, ғамхўр эканликларини кўрсатишди. Аммо сизни даволашнинг бирдан бир йўли шу эди,-дебди табиб.

Подшонинг жаҳли чиқибди.

-Сенга ишониб энг содиқ одамларимни ҳам ўлимга буюрдим... Эвоҳ!

-Яна бир гуноҳ қилдим. Ўша одамларни сиз буюрдингиз деб ўлимдан, зиндондан сақлаб қолдим.

-Худого шукур! Яхши қилибсан! Ўзим ҳам пушаймон эдим. Сен доно одам экансан,-деб уни маслаҳатчи қилиб олибди.

“Шум” ҳам шундай. Бировни сўкмаса ёки урмаса касал бўлади. Бу юкумли касаллик унга “Дода”дан ўтган. Ундан эса ҳокимларга.

Бирдан “Шум”нинг “қора” телефони жиринглади. “Минг йилда” бир жиринглайдиган бу телефон фақат чет мамлакат раҳбарлари билан гаплашганда ишлатилади. Бунинг учун олдиндан ёрдамчилар томонидан вақти ва муҳокама қилинадиган мавзуси келишилади. Тайёргарлик кўриб, кейин гаплашилади.

“Шум” кўлини елкамга қўйди. Машинанаи четга олдим.

-Ҳайдайвер, аммо секинлаш,-деди. Кейин телефонни очди. Владич экан.

Одамлар олдида сизлайдиган Владич бундай пайтда ўзига яқин олиб сенсирайди.

-Қаердасан, тинчликми?-деди у. Унинг гапи менга ҳам эшитилиб турди.

-Раҳмат, соянгизда тинчмиз.

-Ҳа, яхши. Сени тополмай қолишибди. Хабар менга қадар етиб келганига қараганда сен муҳофазани пишиқ қилганга ўхшайсан!

-Ҳозир шундай қилмасак бўлмайди-да. Ўзингиз маслаҳат берган эдингиз!

-Лекин бизникилар билиб турсин, ёрдам керак бўлса юбориш учун. Ҳеч бўлмаса Раисга айтиб кет! У ҳам тилмовсираб қолди.

“Шум” “хўп, хўп” деди-да телефонни ёпди:

-Бу сенинг айбинг,-деди енгил овозда. Доим шундай ишласанг мартабанг ошаверади. Раиснинг ўрни ҳам сеники бўлади.

Орқага бурилиб қўлим билан ишора қилдим. Аввал телефонни кўрсатдим ва қўлимни осмонда айлантирдим. У дарҳол тушунди.

-Владич жуда яхши одам-да, унинг ёрдамисиз ҳеч нарса қила олмаймиз. Умри узоқ бўлсин ва бизга доим нур сочиб турсин! Раис кекса одам, аммо жуда яхши одам. Ўрнига сени тайёрлаётганини ҳам биламан. Шунинг учун яхши тайёрлан дедим-да, Шунқор! Майли мен мизғиб олай!

Шундан кейин гаплашмай кеттик. Унинг ҳамма шаҳарда ўзининг қоладиган махсус жойи бор. Лекин у ерга бормадик.

-Қабристонга борамиз,-деди. Нима кўп қабристон кўп. Эшитган одам ҳеч нарсани тушунмайди.

Манзилга етиб келганимизда тонг отган, қабристонда юздан зиёд йигитлар ишлашаётганди.

Машинадан тушганимиздан кейин:

-Қандай эшитади?-деб сўради. Индамай телефонни ундан олдимда, ўз телефонимдаги қоламани унга ўтказдим. Телефонимни эса машина ичига ташладим.

-Эшита олмасди, аммо телефонингизга сатилет орқали махсус хизматларини боғлаб қўйди,-дедим унинг бояги саволига жавоб қилиб.

-Бундан кейин чорасини кўриб қўй, ҳамма гапни билишмасин,-деди у.

Одамлар катта бозорнинг атрофидаги дўконларини очган, ҳеч кимнинг биз билан иши йўқ. Кимдир бозор томонга, кимдир бозор томондан деган гап бор-ку, шундай вазият. Қабристон ичида эса йигитлар қабрлар устидаги хас-хашак, қуриган-қуримаган гулларни териб ва панжараларни ағдариб, қабр тошларини йиғиб олишмоқда.

Бирдан қаршимизда “лўп” этиб ҳоким пайдо бўлди. У шунчалик тез ҳаракат қиладики, ҳатто бир сонияда ҳам эгилиб, ҳам қўл билан кўришиб, ҳам гапириб улгуради.

-Чой тайёр, нонушта қилиб олсангиз бўларди...

-Жуда ҳам кичик жойни тозалаяпсизлар. Кенгрок олинглар, иложи бўлса ана у томонларни ҳам текисланглар. Латта-путта бозорини йиғиштир! Мана бу ерда мақбара қурамиз, унга чиқиб келадиган махсус йўлак учун ҳам жой керак. Мақбара атрофида одамлар,

зиёратга келадиган меҳмонлар учун ва дуо пайти тўпланиш майдони бўлади. Шуни ҳам ҳисобга ол !

-Бир сония из беринг, топширикни етказай,-деб ҳоким бузилаётган қабрлар устидан лапанглаб ўтиб кимнингдир ёнига борди. Шу пайт кутилмаган воқеа бўлди.

‘Шум’ нимадандир чўчиб ўзини орқага олди. Қарасам, бир аёл шартта машинамизнинг олдига келиб, ерга ўтириб олди. Оқ кўйлақда. Рўмоли ҳам оппоқ сурфдан. Худди қабрдан чиққандек ранги бир ҳолу бир аҳвол. Юзида ҳам нафрат, ҳам ялиниш ифодаси бор. Кўзлари ичига чўккан. Югуриб бориб, уни кўтараман десам, қичқириб йиғлаб юборди.

-Тегма онахонга, ман ўзим гаплашаман,-деди “Шум”. Кейин етмиш ёшлардаги онахон ёнига бориб энкайди.

-Онахон, мени танийсизми?-деб сўради.

-Йўқ, танимайман, аммо ана у ҳоким ёмон экан, жуда ёмон экан, мени онамдан сўкди, илоё ўзининг онасини ер тортсин! Номард! Ҳайвон! Қабристонни ҳам бузасанми? Элнинг бозорига ва мазорига текканни Худо уради! Илоё сенинг ҳам мазоринг кунбаякун бўлсин!

-Шундай дедими, хали, бўлди уни ишдан куваман,-деди “Шум”.

-Э, йўқ, қуволмайсиз, у “Дода”сининг бу ердаги сояси. Ана қаранг, бутун қабристонни текисламоқда. Бу ерда менинг ота-онам ётибди. Уларнинг гўрларини ҳам бузди. Дод дастингдан жаллод! Илоё ота-онанг ҳам гўрба-гўр бўлсин!

Онахоннинг кўзларидан дув-дув ёш оқди. Лаблари қуриб қолмоқда, шекилли, қайта-қайта лабини ялаб, кейин фарёд қилмоқда.

Тўғриси, жуда ёмон аҳволга тушдим. Онам тенги аёл. Балки бечора онам, шу ёшга ҳам етмадилар. Отамнинг вафотидан кейин кўп яшамадилар. Дадамга “Кетсак бирга кетамиз” дердилар доим. Отамнинг вафотидан сўн қадларини кўтара олмадилар. Бир ойга бормасдан дадамнинг ёнига қўйдик. Тассавур қилаяпман, агар кимдир уларнинг қабрини бузадиган бўлса, кекирдагини суғуриб олардим. Тўхта, Шунқор! Мана ҳеч нарса қила олмаёпсан-ку? Ўзингни овутма, ота-онангни мазорини буз, деса, дарҳол кетмон олиб ишга киришасан! Қулга айланиб қолдинг, Шунқор!

“Шум”нинг гапи хаёлимни бўлди:

-Мана ҳозир ҳокимга айтаман, гўрингизни топиб тузатиб қўяди,-деди у ва ҳокимга қараб:

-Тез кел,-деди. Ҳоким саккиз одимни бир қадам қилиб, гўрларнинг устидан сакраб етиб келди.

-Бу нима? Сени онанг йўқми? Нега бунча зорлатдинг бу аёлни? Нега мўтабар онахонни сўқдинг, аблаҳ! Онанг борми ўзи? Нима сен ҳаромими? Ота-онангни қабрини биров бузса, нима қилардинг?

Ҳоким бошини эгиб тураверди. Ўрганган. Онангни деб сўкса ҳам қўли кўксида тураверади Орият, ғурур ўлдирилган ҳаммамизда!

-Буни олдинроқ ўйлашинг керак эди. Қани атрофда муҳофаза? Нега ўраб олмадинг? Нега ҳамма бу ерга келиб томоша қилаяпти? Ҳаммасини тинчит,-деди ва чўнтагидан бир даста пулни чиқариб онахонга тутқазди.

Ҳайрон бўлманг, бунинг ҳамма чўнтаги тўла пул экан, деб. Кеннойи анча-бунча ирим-жиримларга ишонади. Бирор ёмон ҳодиса ёки яхши хабар бўлса, эрининг чўнтагига уч-тўрт боғлам “кўки”дан солиб қўяди ва:

-Буни бошингиздан айлантириб, гадой-садойга беринг,- дейди.

Онахон ‘Шумнинг қўлини қайтарди.

-Мени сотиб олмоқчимисизлар? Ота-онамнинг гўрини сотаман-ми? Бу пулни нима қиламан, гўримга олиб кираман-ми?

-Онажон билмайсизми, ҳамма нарсани пул ҳал қилади. Пулингиз бўлса гўрни ҳам кўчирасиз, қабр устига каттароқ тош ҳам қўясиз. Хатмқуръон қиласиз, муллага берасиз, ота-онангизни руҳлари шод бўлади. Қолаверса, буни чин юракдан сизга ёрдам деб бераяпман. Бировга эҳсон қилмоқчи эдим.

-Раҳмат, болам, барака топинг! Ҳар кун бўлмаса ҳам кун ора бир келиб ота-онамнинг қабрини зиёрат қиламан. Ёшим бир жойга етди. Болаларимга васият қилганман, ўлсам, онамнинг қабрига қўйинглар деб. Энди нима бўлади?

-Унақа ўйламанг! Ҳали кўп яшайсиз. Бу томон бўлмаса ана у томонда жой бор!

-Йўқ! У томонга зинҳор ба зинҳор қўммасинлар! У томонда ана шу қабристонни буздирган катта жаллоднинг ота-онаси ётибди. Илоё, унинг ҳам мазорига шу кун келсин!

“Шум” ҳокимга қаради:

-Онахонни тинчит ва кузатиб қўй! Қабр тошини топиб, кўмиладиган жойларига қўйиб қўй,-деди ва машинага ўтирди.

-Ҳайда!

-Қайси томонга?

Ҳоким жуда ҳам қув. Мен машинадан чиққунимча югуриб келди ва:

-Қўриқхонага,-деб қайтиб кетди.

Боргунча “Шум” гапирмади. Қўриқхона қабристонга яқин жойда. Илгари ҳам бу жойга кўп келинган. Бир томондан сув оқиб ўтади. Иккинчи томонда дунёнинг энг гўзал ва ноёб ҳайвонлари боқилади. “Шум” айниқса, товусни яхши кўради. Машинадан тушиб, товус боқиладиган жойга борди. Товус ҳам одамни танийдими, бошқа пайт унча-бунчага қанотларини ёймайди. Аммо “Шум”ни кўриши билан ундан аччиқлангандек, орқасини бурди. Кейин қанотларини ёзди. Бу жуда катта товус. Қанотларини ёйганда рангли телевизор экранидек, диққатингизни ўзига михлайди. “Шум” бироз тикилиб турдида, ўнг тарафга қараб ҳайрталаниб қолди.

Қафасда катта шер ётибди.

-Бунақаси йўқ эди-ку, қаердан пайдо бўлди?- деб сўради.

Ҳали жавоб бериб улгурмасимдан, у телефонини чиқарди ва:

-Ишончинг комилми?-деди.

-Исроилдан келган. Ҳеч нарса ўтмайди. Қоплама мустаҳкам,-дедим--Шерни Владичнинг ўғай ўғли юборган. Эски муфтига аталган. Аммо у ўлиб қолди. Кейин бу ерга келтирилди.

-Билмаган нарсанг йўғ-а?

-Ишимиз шу, билмасак бошимиз кетади.

-Кетмайди, хавотир олма, мен бор эканман сенга ҳеч ким теголмайди.

Индамадим. Нима дейман. Бошимни эгиб турдим.

-Сен ана у шерга ўхшаб бошингни эгиб турибсан. Қара, унинг биз билан иши йўқ. Парвойига ҳам келмаяпмиз. У мағрур ва лоқайд. Лоқайд бўлмаганда қафасга тушармиди? Минг марта қафасга тушиш ҳолати пайдо бўлса ҳам шер қутилиб кетиши керак!

У гапирмаганимга мени шерга ўхшатайти деб ўйласам, ўзи ҳақида сўзлаётган экан.

-Шер болаликда кўп азобларга учрайди. Аммо енгади. Душманини кўрса, мулоҳаза қилади. Унинг кучини синайди ва пайт пойлаб уради. Вақтини, соатини кутади. Шунинг учун ҳам шер! Бор, тандирдан олиб кел,-деди.

Бу ерда кўп одам бўлмайди. Битта одам ишлайди, у ҳам кўзга ташланмасликка ҳаракат қилади. Ичкарида эса энг гўзал қизлардан иккитаси хизмат қилади.

“Шум” ҳар келишига тандир тайёрланишини билади. Лекин ҳали очилмаган экан.

Шу сабаб хом гўшт олиб келдим.

-Тандир очилмабдими ёки бу шернинг кайфиятини кўтарадими?-деди “Шум”.

-Тажриба қилиб кўрайлик,-демоқчи эдим, Шер гуриллаб ўрнидан турди ва қафаснинг биз томонига келиб, сўлагини ялай бошлади.

-Кўрдингми, Шунқор, унинг қорни оч, бу пайтда сени ҳам, мени ҳам еб қўйиши мумкин. Шунинг учун шерни ҳеч қачон оч қолдирмаслик керак!

У шундай деб менга қаради.

-Шунқор хато қилдикми, қабристонни текислаб?

Индамадим.

-Биламан, онангни эсладинг, мен ҳам эсладим, лекин нима қила олардик? Баъзан қўлимиздан ҳеч нарса келмайди. “Дода”нинг хотини шу ерга деб туриб олди, Владичга ҳам айтибди. Мавзолей қиласан, деди. Нима, ўйлайсанки, менда юрак йўқми? Мен ҳам ана шу шерга ўхшаб ҳозир қафасдаман. Қўлимдан ҳеч нарса келмайди. Бажаришим керак! Шунинг учун ўзим келдим!

Қўлимдаги беш килога яқин гўштни шернинг олдига ташладим.

“Шум” орқага қайрилдида:

-Айт, тандирни очсин,-деди ва ичкарига қараб юрди.

Демак, у ҳам очиқибди.

Қайтиб келсам “Шум” хаёлга ботган.

-Шунқор, сени яхши биламан. Оғзинг маҳкам, ишинг пишиқ, ўзинг менга содиқсан. Кўрдинг, хатто куёвимни ҳам сени қўлинга топширдим. Сен мен билан очиқ гаплашиб юргин. Баъзи гапларни бошқаларга айта олмайман. Энг яқинларимга ҳам айта олмайман. Фақат

сенга айтишим ва сен билан маслаҳат қилишим мумкин,-деди.

Индамадим.

-Индамасликни бас қил! Менга дўст керак, сирдош керак, таклифингни бажармасам ҳам муносабатингни билишни истайман. Тўғриси айт, бу ҳоким менга содиқми, йўқми?

-Билишимча содиқ,-дедим.

-Қаердан биласан?

-Тандир гўшти дастурхонга қўйилгунча у кириб келади,-деб юбордим.

-Фолбинлигим ҳам бор дегин?

-Таҳлил ва кузатув...

Кутилмаганда очилиб кетдим. Кўп гапирган, кўп хато қилади, Шунқор! Тилингни тий!

Шу пайт эшикни тақиллатиб ҳоким келди ва ортидан тандир гўштини олиб киришди.

-Истасангиз қаймоқ билан иссиқ нон ҳам келтирдим, -деди у.

-Йўқ, Аткинс деган парҳездаман. Озишим керак экан. Фақат гўшт ейишим керак экан. “Тандир” бўлса бас, кун бўйи жонга тегмайди.

-Қаймоқ ҳам ўша парҳеҳга киради.

-Сен ҳам биласанми буни?

-Оз-моз, аммо нонсиз қаймоқ еб бўлмайдида...

-Тинчитдингми?

-Узр-да, у ҳар куни сахарлаб келаркан. Билмай қолдик. Ҳозир яна икки-учтаси топилиб келди, болалар оғизларни бекитишяпти.

-Барка топ! Сенга ишонаман! Ишқилиб, хорижга сизиб кетмасин.! Телефон қил, мелисани, прокурор ва хавфсизликни чақир!

-Улар шу ерда, ташқарида кутиб туришибди.

-Шунқор, қани уларни чақир!

Мен қолиб ҳоким югуриб, чиқиб кетди. Унга қойил қолмай илож йўқ!

Ташқарида бирдан талатўп бошланди. Бақир-чақир эшитилди. “Шум” менга қаради. Ташқарига отилдим.

12. Сирли маросим

Ташқарига чиқсам, қандайдир икки машина келган ва бир киши ичкарига кирмоқчи. Вилоят раҳбарлари уни тўхтатишга уринмоқдалар. Қарасам, Бой отанинг одами. Уни четга тортдим.

-Нима гап?

-Бой ота юбордилар.

-Бу ерни қандай топиб келдингиз?

-Шу ерда бўламан деган бўлсалар керак. Бой ота шу ерга юбордилар.

Шунқор сен бўлсанг, телефон қоплмасини ўзгартириб юрибсан. Мана, топаман деган одам ҳар қанадай жойдан ҳам топади. Нима, Бой ота билганни Владич

билмайдими? Сен ўзингни билагон деб юрибсан-да!
Кўрдингми, кичкина одамсан!

-Нариги машина кимга оид?

-Уни билмайман, аммо мени кузатиб келди. Балки идорангиздан бўлса керак?!

-Қани юрчи, текшириб кўрамиз.

Машина ичида икки йигит ва не кўз билан кўрайки, Пулдона. У мени кўриши билан отилиб чиқди ва русчалаб бақира кетди:

-Сен ҳам отамга душмансан, биламан “Шум”нинг қўлоёғисан! Биргалашиб отамни ўлдирдинглар! Қотиллар!

-Нима деяпсиз? Ким ўлди, қачон? Отангиз тирик! Озгина маззалари қочди, холос. Даволанаяптилар!

-Бекор айтибса, санлар ўлдирдинглар уни! Ана у номардга айт, бу ёқа чисин!

Мен ҳам жаҳлимни кўрсатиш учун уни сенсирадим.

-Билиб билмасдан бировни ҳақорат қилма! Кимни айтаяпсан? Ўзингча фол очма!

Машина ичидан тушган йигитларни танидим, “Дода”нинг кўримасидан.

Бўлди. Бу Ҳакимийнинг иши. Пулдонани қамоқдан чиқариб, “Бой”отанинг изига ташлаган.

-Олиб кетинглар буни! -дедим уларга.

Пулдона товушини янада баландлатди. Шу лаҳзада сочи тўзиб кетган, кўзлари киртайган, жаҳ суяги бўртиб қолган алвастига ўхшаб кетди.

-Гапирма, улар менинг соқчиларим! Отамга бир гап бўлса, мана мен бор! Ҳокимиятни ўзим бошқараман! Ҳаммангни ертўлага тикаман ва дорга осаман! Ҳамма мен томонда. Санларга хана!

-Ичиб олганмисан? Нима деб валдираяпсан? Ўчир товушингни!

Шу пайтда ичкаридан “Шум” чиқиб келди. Пулдона унга ташланганди, бир ҳамлада қўлини қайириб қолдим. Қўрималари яқинлашганди, “Шум”нинг вазоҳатидан қўрқиб кетишди.

-Бу ёққа кел, твар, ўша Ҳакимийнинг пагонини ўз қўлим билан юлиб оламан, билдингми? Томоша қилиб турасанлар!

Кейин менга юзланди:

-Шунқор, Ҳакимийни топ!

Телефон қилсам, дарров олди. Телефонни ““Шум””га узатдим.

-Итвачча, сенга нима деган эдим? Генераллик пагонингни юлиб олиб, ...га тикиб қўяман! Бу итларингни нимага юбординг? Ма, гаплаш!

Телефонни йигитлардан бирига олиб бердим. Унинг ранги ўчиб кетди ва “Кетдик!” бир зумда машинага минишди. Пулдона эса бақаришда давом этди:

-Отамни нимага ўлдирдинглар? У мени авф этганди ва байрамга чақирганди. Мен унга айтгандим, булар сени ўлдиради деб, кулоқ солмади. Байрамдан кейин сенлар билан юзма-йиз учраштирмакчи эди.

“Шум” машина ичидаги йигитлар ёнига келди:

-Мана бу манжалақини олиб бориб, чиққан жойига тиқиб қўйларинг ва бу ҳақда Ҳакимий Шунқорга ҳисоб берсин!-деди.

“Ош захар бўлди” дегани мана шу. “Шум” ўзимизнинг машинамиз томонга юрди. У боши билан Бой отанинг вакилига ишора қилди. Демак, яхшигина танийди уни.

Ҳоким югурганча бир нарсани машина орқасига қўймқочи бўлди.

-Нима бу?-деб сўрадим.

-Тандир!- деди.

“Шум”га қарасам, “Ол” дегандек, имо қилди.

Бой отанинг вакили машинанинг олдинги ўриндиғига ўтирди, ҳеч ким билан хайрлашмасдан ҳам жўнаб кетдик.

-Қўналғадамилар?-деди “Шум” бироздан кейин.

-Ҳа, сизни кутаяптилар.

-Орқа эшикдан кирамиз,-деди “Шум” ва менга бир ҳижжатни узатди.

Бу қўналға бошлиғи Алибекка оид ҳужжат эди.

Етиб боргач, шуни кўрсатдим. Гинг демай очишди. Алибек қудратли экан, ҳатто текширишга ёки машина ичига разм солишга чўчишди. Айланиб, Бой отанинг учқичи ёнига бордик. У тайёргарликни қилиб, бизни кутиб ўтирган экан. Ҳавога кўтарилдик. Бирдан кўзим Зухрага тушиб қолди? У бу ерда нима қилади? Ким уни бу ерга чақирди? Наҳотки... Калламда наҳоткилар айлана бошланди. У менга кўзи билан “қалайсиз” деб қўйди, жавоб беролмадим. Авзойим бузилди.

Хизматчининг кийимини кийиб олганди. Наҳотки Раис уни жосус сифатида бу ерга қўйди? Шунқор нима қилдинки, раис сенга ишонмай қолди? Нега уни ҳам юборди? Ўзим билан ўзим олишиб тургандим, “Шум” чақирди ва олдинги томонда хизмат қилиб турган бошқа қизга ишора қилди. У икки даста гул ва кутиларда бир нарсалар олиб келди.

-Шунқорбек, укам, сени уйлантириш менинг зиммамга тушди,-деди “Шум”.

-Отанг раҳматли бўлганда ҳозир у ҳам даврамизда бўларди,-деб қўшиб қўйди Бой ота.-Лекин бахтли экансан, кўкда, мана шундай учқичда сенга нон синдирамиз. Бу ишни бир мамлакатнинг каттаси бажармоқда. Бундан ортиқ бахт борми?

Тилим дилимнинг ичига кириб кетди. Ўзимни қўлга ололмай қолдим. Негадир кўзимда ёш қалқади. Томоғим ғилт-ғилт этиб, юрагим уриши тезлашиб кетди. Отамни эсладим. Зухра у ҳақда ҳам маълумот бор деганди. Бой ота уни қаердан билади. Зухрани ишга солишим керак.

“Шум” ўрнидан турди ва;

-Келин, бу ёққа кел,-деди Зухрага қараб, сени отанг уйида хуррак отиб ётибди, аммо розилигини олдик, мана тоғанг шу ерда, бахтли бўл қизим,-деб унга ва менга гул берди. Кейин оғир-оғир кутиларни тутқазишди.

-Мен никоҳ уйларининг бош кўмондониман, шу дақиқадан бошлаб иккингишни бир оила,-деб эълон қиламан,-деди “Шум” қўлтиқ чўнтагидан бир дафтарчани чиқариб қўлимизга тутқазди. Тавба, никоҳ ҳужжати-ку бу?

-Табриклайман,-деб елкамга уриб қўйди.

Зухрани чўлпиллатиб ўпди.

-Бахтли бўл жиян,-деди унга. Сўнг менга юзланди ва:

-Сен билан битта жонмиз, ман ўлсам сан ўласан, сан ўлсанг ман,-деди.

Ўзимга келолмай қолдим, Зухра қайда эдию мен қайда эдим? Раиснинг гапидан сўнг кечалари Зухра ҳақида хаёл сурардим, холос. У қўлини ушлатмасди, нигоҳи билан ҳукм қиларди. Ҳуркоғ кийик эди. Бирданига бу кийик бош эгиб ёнимга келса, бундан ортиқ бахт борми? Зухрага кўз қирим билан қарайман лов-лов ёнмоқда. У шу лаҳзада ҳаммадан ҳам қутиларни очиб кўрмоқчидек эди.

-Борларинг чап қўлдаги хона сизларники,-деди Бой ота.

Тавба! Хонани келин куёвлар учун махсус тузатишибди. Йўкнинг ўзи йўқ. Зухранинг қўлидан тутмоқчи бўлдим, қушдек “лип” этди-ю ўзини тортди.

-Нима, шунча осон деб ўйлайсизми?-деди лаблари титраб.

-Ўйладим, ўйламадим, энди меникисиз? Менинг жоним, менинг осмоним!-деб юборганимни ўзим ҳам билмай қолдим.-Мана ҳужжат!

-Йўқ, сиз “Шум”нинг жонисиз,-деди у.

Бу гап асабимга болтадек тегди ва севги деган ҳаяжонни чиққан туйнугига яширди.

-Биз у ёқдаги гапдан беҳабар қолдик,-дедим мен уни тушунган каби.

-”Шум”и дардингиз.

-Йўқ, мана истасангиз суҳбатни эшитинг, у шундай деб тугмани босди.

“Шум” ва Бой ота русча гаплашаётган экан.

-Ҳакимийни ўртадан кўтариш керак. Оёғимизга болта урмоқчи.

-Ҳа, кўп нарсани биздан яширарди. “Дода” ҳали тириклигидаёқ Пулнорани чиқаришга улгурган экан.

-Пагонини юлиб ташлайман у ифлосни, кўрамиз қани кейин нимани яширади?

-Азимни нима қиламиз, тезроқ йўқотмасак бошимизни оғритади?

-Шошманг, аввал уни халқнинг олдида обрўсизлантириш керак. Тарафдорлари кўп. Ёшлар ичида ҳам, хорижда ҳам. Асталик билан, усталик билан итни ҳам ўргатиш мумкин. Бу нима бўлибди? Ҳозир маросимларни эсон-омон ўтказиб олиш ҳақида ўйлаш лозим. Мен ҳам истамасдим бунча даҳмазани. Аблах эди. Лекин нима қила оламиз. Владич шундай қиласанлар деганларидан кейин мажбурмиз. Азимни эса дарахт каби каллаклаймиз. Кўмиш маросимида, Сиз ҳам тобутни кўтарасиз, деб айтиб кўямиз. Аммо сиз белгиланган вақтдан олдинроқ кўтарасиз ва унга қарайсиз. У қаққайиб кутиб турган бўлади ва буни тасвирга оламиз. Сиз унга қараб жаҳл қиласиз, “Кўтар номард” дегандек. Буни бутун халқ кўради, қайта-қайта намоёиш этилади, ИАКнинг ҳамма одамлари сиз томонга кўчади. Кейинчалик уни калламуш деб эълон қиласиз ва кичикроқ бир вазифа берасиз, юриверади, ўралашиб, битлаган пўстагини қоқиб. Ўлдирсангиз ёки

ишдан олсангиз, халқ ичида обрўйингизга путур етиши мумкин. У мазлумга айланади.

Бу Бой ота дегани жуда ақли одам экан Қовунни тилкалаб кесибгина қолмай едиришни ҳам биларкан. Кейин мазза қиласизми, қорин қаппаядими, фарқи йўқ.

Гапнинг индаллосини айтганда Зухра қўлини ҳам ушлатмади. Унинг менга хотинлиги масаласи ҳам ўйинга ўхшаб қолди. Ўзидан сўрасам, хафа бўлди. Қўлини ушлайман десам, олиб қочади. Куч ишлата олмайман-ку? Учқичнинг ичида қувиб юраманми? Ман шу товукнинг катагидек хонадан чиқа олмасак, Бой отанинг бу кулбасини вайрон қиламизми? Чарчаган экан, бир пайт жойга кирди, учқич уни аллалай бошлади.

-Озгина ичиб оласизми?-дедим, унга стол устидаги шаробни кўрсатиб.

-Жинни бўлдингизми, ўз аёлингизга ҳам ичирасиз-ми?-деди у сузилибгина.

Ўзиимни унинг кучоғига отдим. Ухламадик.

Уялиб, қизариб-бўзариб учқичдан индик. Бизларни “Шум”нинг қизлари қутиб олишди. Улар худди корейс аскарларига ўхшаб кийинган экан. Чегарачилар келиб, текширган бўлиб, машиналарга кузатишди.

Машинада “Шум”нинг қизи ўтирмоқчи эди, отаси қаршилиқ қилди.

-Шунқор хайдайди, сизлар опанг билан олдинги машинада борасизлар,-деди.

“Шум” бу ерда гўзал, ҳашаматли кошона қурдирган. Кеннойи доим шу ерда яшарди. Адашмасам 14-15 йил

бўлган бу ерда. Неваралари шу ерда туғилган. Кеннойининг ўзлари ҳам шу ерда битта туғиб олганлар. Агар келажакда юртимиз подшоликка айланса, шу бола тахтга чиқади. Унга ҳамма нарсани ўргатишмоқда. Инглиз тилини ҳам, корейс тилини ҳам бирдек билади. Технология бўйича поччалари унга ялиниб юришди. Узоқ Шарқ курашлари тўғарагига ҳам қатнайди.

“Шум”нинг оиласи учун сотиб олинган қаср шарқона усулда қурилмаган бўлса ҳам таъмири ва безатилиши шарқона эди. Бино тўрт қаватли бўлиб, ичида элликка яқин хонаси бор. Ҳар бир хонанинг ичи битта оилага мосланган. Ҳаммомидан тортиб, жакузи ҳовузчаларига қадар ҳамма нарсаси мавжуд. Ташқи кўриниши қадимий шохнинг қасрига ўхшайди. Қимматбаҳо тошлардан нақш тизилган. Илк келганимда бу томони эмас, хавфсизлик ҳисоб-китоби ром қилганди. Бино ўртада. Атрофи кенг дала. Бир томонда катта очиқ ҳовуз. Ёнида эса учта кичкина ҳовуз. Иссиқ сув буғланиб туради. Катта ҳовузда чўмилган одам кейин иссиқ сувга кириб-чиқиши назарда тутилган. Ҳовузнинг атрофида болалар сузиб юришлари учун айлана сой қурилган. Бу сойда катталар ҳам балон қайиққа миниб роҳат қилишлари мумкин.

Ҳовузнинг яна бир томонида волейбол ва футбол ўйнайдиган жой. Спорт зали ичкарида. Ҳовлида девор ости бўйлаб югурадиган жой ҳам қилинган. Бу жойнинг осмонида дронлар ва учқич учмаслиги учун катта пул тўланади. Девор бурчакларида субтропик дарахтлар бор. Сунийми, табиийми ажрата олмайсиз. Чунки битта табиийнинг ёнида битта сунийси ҳам бор. Камералар ана шу суний дарахтга ўрнатилган. Дарахтнинг баргларида кўз бор дегани ана шу.

Дарвоза очилиб-ёпилиши билан орқадан машина яқинлаша олмайдиган пўлат тўсиқ кўтарилади. Девор эса менга ўхшаган одамнинг учтасининг бўйидан ҳам баланд. Тепасида қамоқхона симтўри каби тиконли муҳофаза ўрнатилган. Сим махсус ўргимчак тўридан ясалган. Узилмайди. Унда доим ўртача ток мавжуд. Ўтаман деган одамни беҳуш қилиб қўяди. Яқинига келиб қарасангиз ҳам кўринмайди. Бу эса қаср қалъасининг хуснига доғ туширмайди. Корейсларга қойил қолиш керак. Агар деворга яқин жойда бегона одам кўринса ичкаридагиларнинг телефонида ўша одамнинг сурати пайдо бўлади. Унинг ҳаракатини кузатиб туришингиз мумкин. Дарвоза қаршисида кўрима ташкилотининг уйи ҳам бор. У ерда доим навбатчи ўтиради. Хуллас, бу ер дунёнинг энг тинч ва ҳавобахш жойи.

Ичкарига кириб жойлашганимиздан кейин билдикки, Бой отанинг одами Олий даражали спа хизматини буюрган экан. Бир зумда “Шум”нинг сочини бўяб, қошини териб, юзини ботокс қилиб қўйишди. Қорнидаги вазни ҳам олиб ташлашмоқчи эди. Рози бўлмади. Бир ҳафтадан кейинга қолдирди.

-Бу иш худди юзингизни ботокс қилган каби осон кечади,- деганига ҳам кўнмади.

Унга турли ўт-ўланлардан ҳозирланган уйку дори беришди. Донг қотиб ухлади. Ҳайрон эдим. Наҳотки бу ерга ухлаш ва спа олиш учун келинди. Буни ўша ёқда ҳам қилиш мумкин эди-ку? Йўқ, бу ерда бошқа гап бўлиши керак? Наҳотки сен беҳабар қолдинг, Шункор?

Ўйларим алдамади. “Шум” уйқудан уйғониб, сутли ҳовузда чайқаниб, хушбўй ўтларнинг чойидан ичиб

олгандан сўнг, кутилмаганда саросима бошланди. Қанақадир меҳмонлар келиши керак экан. Дарвоза очилиб, иккита машина кирди. Улар Бой ота билан Узоқ Шарқ услубида энкайиб саломлашдилар. Кейин “Шум”га қараб эгилдилар. “Шум” ҳам икки қўлини ёнига қўйиб, уларга эгилди.

Ичкарига кирдик. Келган одамларнинг ёрдамчилари ўртага каштасимон гиламни ёйишди ва ёстикка ўхшаган митти кўрпачани қўйишди. Кўрпача қаршисида эса от ҳайкалча. Ҳов ўша, сирига етолмаганим, казо-казоларнинг хонасида турадиган от ҳайкалчанинг яна биттаси.

“Шум” кўрпача устига чордона қуриб ўтирди. Келганлардан бири ёнидагисига имо қилди. У машинада қинга солинган қилич олиб келди. Мен хушёр тортдим ва Бой отага қарадим. У хотиржам бўл ишорасини қилди.

Хитой башарали одам қилични қинидан чиқарди. Олтин рангли, дастаси эса олмосдан ясалган. Қиличнинг учини “Шум”нинг бошига яқинлаштириб ҳавода бир айлантирдида, дастасини “Шум”нинг қўлига тутқазди. “Шум” бу маросимнинг қоидасини олдиндан билган экан. Қачон ва кимдан ўрганди. Бўлди. Биз учикда Зухра билан ичкари кирганимизда улар шуни гаплашишган. Бой ота унга тушунтирган.

“Шум” қилични қўлига олдида, ўрнидан турди ва ўпди. Кейин қинига солиб, қиннинг боғичидан бўйнига осиб олди ва:

-Хизматга шайман, сўнги қоним қолгунга қадар қилич қўлимда, от ёнимда туради. Ўзим ўзим учун эмас, ўзим

биз учун! Бир йўл, бир камар!,-деб ортидан учмарта “Шанхай” деб такрорлади.

Шундагина нималарнидир тушунгандек бўлдим. Бу Шанхай қасамёди бўлса керак. Шанхай олтилиги тузилганда шундай қасамёд қабул қилиш кераклиги ҳақида гаплар бўлганини эшитгандим. Аммо маросимидан беҳабар эдим.

Шу пайт девордаги монитор ёнди. Унда дастлаб Владич кўринди, “Шум”ни табриклади ва қайтишимда кириб ўтаман, гаплашамиз, деди. Владичнинг ёнида Хитой раҳбари ҳам ўтирганди. У ҳам қисқа қилиб, бир нималар деди. Табрикладилар, деб Бой ота таржима қилган бўлди. У мандарин тилини билар эканда деб ўйладим.

Хонадан чиқарканмиз, “Шум” кулоғимга:

-Мум!,-деди

Бу ўлсанг ўласан, аммо заҳар ютган каби жимгина ўласан, дегани!

Икки аждарҳо нималарни ишга солмоқда? Шанхай ташкилоти кутблашманинг бир кўриниши деб ўйлар эдим. Энди тушуна бошладим. Бу дунёни бўлиб олиш ва ўзиники қилишнинг ҳаракати экан. Бу кетишда дунё яна иккига бўлиниб қолса керак?

Биз нега буларнинг пинжига тиклиб қолдик. Бу қачон юз берди. Оқ пошшо истило қилган пайтдами? Қизиллар инқилобидан кейинми? Қачон бўлса ҳам, анчадан бери уларнинг пинжидамыз. Бугуннинг тили билан айтганда стратегик шерикларимиз. Шерикни қасам ичдириш нимаси унда? Бу қанақа шерикчилик? “Дода” қозикни қаттиқ қоқиб кетган экан. Уни синдириш ёки арқонни узиш осон бўлмаса керак?

Бир пайтлар ўқигандим, ким ёзгани эсимда йўқ.
Ўзимизнинг зиёлилардан бири

-“Шанхай” бизга ҳеч нарса олиб келмайди, балки фақат
“Дода”га ўзини қониқтириш учун ташқи қалқондир,-
деб ёзганди. Мана энди “Шум”нинг ҳам қалқон--химояси,
қиличи-кучи ва оти-йўли! Бу бекорга-ми? Бир пайтлар
Оқпошшо Бухоро амири Олимхонга генерал унвонини
берар экан:

-Унутма, сен менинг сеvimли аскаримсан, аскарнинг
ҳиёвати эса кечирилмайди,- деган. Буни очиқ айтган.
Булар шуни ёпиқ тарзда айтишмоқда-ми?

Зухрага қарасам, ҳеч нарсадан хабари йўқ, меҳмонлар
келиб кетди деб ўйлади, шекилли, савол ишораси билан
менга қаради. Елкамни қисиб қўйдим. Ким билсин,
қасамёднинг қондасида бўйдоқлар қатнашмасин, деб
ёзилганмики, бизни росманасига уйлантириб қўйишди.
Хатто қўлимизга ҳужжат ҳам тутқазишди. Демак, бу ҳам
бежиз эмас.

Қисқа маросимдан кейин дарҳол йўлга чиқдик. Учқич
“Дода”нинг шаҳрига қўнди. “

“Шум” ёнимга келиб:

-Шунқор, ана унинг жаҳлини чиқармайин деб “Шум”
деган код номга рози бўлгандим. Ўзгартир!

--Нима деб қўямиз?

13. Нурхон

Хато қилдим. Ҳеч қачон унга савол беришим керак эмас.
Олган илмим шундай. Аммо у мени ўзига маслаҳатчи,
энг яқин одамдек тутгани учун савол бердим. Нима

бўлса, бўлди? Бу ҳам бир синов. Қани қандай муносабат қилар экан?

-Фарқи йўқ! Ўша номдан кутулсам бўлади. Жонга ҳам тегиб кетди,-деди.

-“Муҳтарам”га нима дейсиз?

-Сенларга мақул бўлса, бас.

-Бу тез оммалашиб кетади. Ҳамма олдингисини унутади, мана кўрасиз.

Шунқор, сенга нима бўлмокда? Ўзингни жуда қўйиб юбораяпсан! Қисқа, лўнда гапир! Қўшимча, изоҳга берилма. Қатъийлигингни йўқотма!

-Яхши...

Гапимизни ёнимизда келаётган Нурхон эшитаётган экан, мени қўллади.

-Ҳақиқатдан ҳам, тез ёйилади. Бу ном халқнинг севгисига йўл очади. Тез ёйилиши учун матбуотни ишга солишимиз керак.

“Муҳтарам” қизига топшириқ берди:

-Паст-баландни тушунасан, матбуот ва интернетни назоратга ол. Ҳар нарсалар чиқиб кетмасин! Жиловни яхши ушлаш керак. Лозим пайтида бўшатиб, зарур ҳолатда тортиб туриш даркор. Акс ҳолда от биз истган томонга эмас, бошқа ёққа олиб кетади.

Нурхоннинг қувончи чексиз эди. Хунуккина кўзларига нур инган ва ёқимли бўлиб қолган. Отаси унга энг муҳим соҳани ишонди.

Нурхон Московда ўқирди. У ҳақда гап сўзлар кўпайиб қолди, шекилли, бир кун Раис:

-Шу кизни кузатасан,-деди.- Ойиси истаяпти. Фарзанд ҳам баъзан бошингга бало бўлади. Вақтинча командировкага борасан, унга таҳдид бўлган деб, сени қўримага қўяман. Ойисига оғзингдан олдирма. Нима сўраса, мендан олишини айт.

Раиснинг бу дегани, ҳамма гапни ўзимгагина ҳисоб берасан, дегани.

-Ҳатто отаси авраса ҳам эзилиб кетма, сўкадиган одати бор, индамай турасан. Аммо оғзингни тикиб оласан. Қиз сенга кўз олайтириши мумкин. Кўзингни сузма. Келишган йигит, нима қилсанг қил, ёқтириб, севиб қолишига йўл берма. Йўл нима, ҳатто сўқмоқ ҳам очма!, Уни бошқа йўлдан қайтариб олсанг, ишинг беш. Нимага қизиқишини, қандай гапларга маҳлиё бўлишини, қайси масалада баҳс қилишини ўрган. Уни анқайтириб қўядиган битта ҳезалакни топамиз, бошини айлантариб юради, ўшанда қайтиб келасан, бу ерда кераксан. Қиз эрсираган кўринади. Кўрган ҳўкизга қараб югураяпти экан. Онанинг кўнгли ҳамма нарсани сезади. Бечора нима қилсин?

Борганда билдимки, Нурхон яхши қиз экан. Кўп китоб ўқийди, ақилли, мушоҳадали. Аммо очик кўнглили ва дилидагини яшириб ўтирмайдиган шарттаки. Мени аввалига назарига илмади. Ўзига қоровул деб ўйлади. Мен қоровулликдан ҳам ўтказиб юбордим. Уйини сидириб, қозон-товоғини ҳам ювиб қўядиган бўлдим. Секин-секин кийим танлашда, харид қилишда ҳам унга ёрдамчи бўлдим. У Раис айтганчалик, ҳўкизни кўриши билан бузоғини узадиган эмас экан. Одмигина қиз,

бироз манманлиги бор. Ҳамма соҳада илк бўламан, дейди. Бошқалар ҳақида ҳам қайғуради. “Дода”нинг қизларидан гап очилса, ёмонлайди. Улар бизни бош кўтара олмайдиган қилиб қўйди, дейди. Аммо улар билан юзма-юз гапиришга чўчийди. Болаликдан калласига “запрет” қўйилган.

Қисқа вақтда дўст бўлиб қолдик, у менга шу қадар ишондики, қўшни хонада эмас, ўз хонасидаги диванда ухлаб қолишимга ҳам қаршилиқ қилмайдиган бўлди. Баъзи кунлари суҳбатимиз авж оларди. Озгина-озгина ичардик. У ухлаб қоларди, менинг ҳам ярим тунда хонамга кетгим келмасди, диванда ётиб қолардим. Эрталабга яқин у устимга ўзининг палтосини ёпиб қўйишидан сездимки, хонасида қолишимга рўйхушлиқ бермоқда.

Мен нафсимни тийишга ҳаракат қилардим У баъзан гапира-гапира бирдан билмасдан қўлларимни ушлаганда ҳам, худди қиз боладек бармоқларимни унинг кафтидан суғуриб олардим. Унинг мана шундай самимияти ёмон фикрлар туғилишига олиб келган деб ўйласам, бир куни у “ёрилди”

-Дадам биттасига бермоқчи, отаси сизлардан. Дадамнинг яқин дўсти. Оғиз очган экан, йўқ демабди. Бола билан учрашдим, сўтак. Бўйи мендан пастлиги гўрга, аммо калласида интригадан ва спортдан бошқа нарса йўқ. Фалон китобни ўқидингми десам, кўрган киносини айтади. Жаҳон адабиётидан сўрайман, у яширин кўрсатиладиган бесселлерларни гапиради. Классиклардан сўрайман, мум тишлайди. Ҳеч бўлмаса мардлик қилиб, вақтим бўлмади, ўқий олмадим, сиз қизиқ деяпсиз, ўқишим керак экан, деса ҳам майли эди. Эркак кишига китоб эмас, пул топиш муҳимлиги ҳақида

шама қилади. Дадамнинг имкониятларидан гапиради, у кишининг ёнида юрсак, китоб ўқишга вақт бўлмайди, дейди. Ойимга истамайман, дегандим, кўз ёши қилдилар. Ким билсин, балки сизни тикиштираётган бўлишлари мумкин. Қайси китобдан сўз очсам, ҳаммасини ўқигансиз, қайси соҳадан гапирсам, билмаган нарсангиз йўқ.

-Мени тикиштираётган бўлишса, хўп дердингизми?

-Ўйлаб кўрардим.

-Мен ҳам, мени кимгадир тикиштиришларига хўп деб кетавермаган бўлармидим, шундай деб ўйлайсизми?

-Шуни ўйлаяпманда, сизга ўхшаган бир сўзли йигитни синдириш қийин. Қолаверса, каттанинг қизига уйланишга ор қиласиз, чунки эришган ҳамма нарсангизга ўзингиз эришган бўлсангиз ҳам, қайнатаси туфайли дейишларига дош беролмайсиз.

-Жуда топқир ва ақиллисиз!

-Сизни мени кўндиришга, ўша сўтакка кўндириш учун юборишгани аниқ. Аскар сифатида бунга рози бўласизда...

Унинг назарида ҳам биз қулмиз. Қандай топшириқ бўлса, бажариб кетаверамиз. Нима ҳам дея олман. Йўқ, бундай дея оламанми? Асло, бунга на кучим, на журъатим бор. Шунинг учун индамадим.

-Лекин мени ўрганишга қанча вақт керак?-У бу саволни берар экан, юзига қаердандир чироқ нури тушгандек бўлди. Кўзида алланима ғилт этгандек туюлди. У худди титраётгандек эди.

-Сизни ўргандим деб айта олман,- дедим бепарво оҳангда.

-Унда нега ўша сўтак ҳақида бир оғиз ҳам гапирмаяпсиз? Ундан кўрқасизми? Балки у ҳақда сўз очма дейишганми?-Унинг бу саволларининг оҳангида қандайдир эътироз борга ўхшади.

-Чунки сиз айтаётган одамни танимайман. Сурати борми сизда?-дедим. Аммо уни танийман. Отасини ҳам яхши биламан. “Мухтарам” билан тез-тез учрашиб турарди. Ҳар турли гаплардан уни воқиф этарди.

Нурхон сумкасидан битта суратни олдимга ташлади.

-Мана!

-Бу сизнинг муносибингиз эмас, сизга хотин эмас, эр керак! У сизга яраша эр бўлишни бажара олмайди. Илтимос, бу гапимиз орамизда қолсин. Чегарадан чиқдим, Хато қилдим, азбаройи бу болани ёқтирмаганим учун гапириб юбордим.

Қўлга тушдим:

-Балки мени ёқтириб қолаётган бўлсангиз ва бу унга нисбатан нафаратингизни кучайтирган бўлса-чи?

Айтдимку, бу нозиккина қиз эмас, бу ҳар қандай эркакни боши бер кўчага киритиб қўядиган туридан. Москвада яшашнинг, эркинликнинг, пулдан кам бўлмасликнинг таъсири ҳам бўлиши мумкин.

Ўзим тушиб қолган вазиятдан қандай қилиб чиқиб кетишни ўйладим. Битта йўли бор холос, орқага қайтиш керак.

-Ҳа, десам-чи?! Ўйлаб кўришингизни тезлатасиз-ми?

У менинг кўлимдан ушлаб, ўзига тортди.

Қулоғим остида ширин сўзлар эшитилди. Энди нима бўлса ҳам ундан ажралишим, аммо жуда юмшоқлик, усталик билан ажралишим керак.

Ўл-а, Шунқор! Ўзингни назорат қилишни уддалай олмадинг. Бу қизнинг юрагига бойчечак экдинг. Кошки бойчечак бўлса. Тезда сўлиб қоларди. Аммо бу тикан каби ўрнашиб олса-чи? Бутун ҳаётингни маҳв этади-ку?! Аммо буни у кўтара оладими? Унинг кўзидан оқадиган томчиларни кўтара оласанми?

Бир кун унга:

-Нега сизга Нурхон деб исм қўйишган,-дедим.

-Ёқмаяптими?-деб пичирлади.

Индамадим. Унга совуқ муомала қилишни бошлашим керак.

-Тарихи узун, бир кун айтиб бераман,-деб ўрнидан тургач, чой ҳам ичмай ўқишга югуриб кетди. Шунда англадимки, унга ёқмасликнинг йўлига кирибман. Хонани тозалашни тўхтатдим. Уйда қозон-товоқ қалашиб ётадиган бўлди. Қарасам, у ўқишдан қайтиб, уйни тозалайди, кирларни ювади, қозон-товоқни тозалаб жойига қўяди, кўчадан олиб келган егуликни стол устига қўйиб, мени ҳам чойга таклиф этади. Сухбатларимиз кундан кунга қисқара бошлади. Унинг ўқишга вақти етмаётган эди.

Бир кун телефонда онаси билан уришиб қолди. Кейин отаси сим қоқди. У билан айтишди. Улар тўй куни белгиланганини айтишди. У хунграб йиғлаганча

хонасига кириб, ётиб олди. Уни овутмоқчи бўлгандим,
Раис телефон қилди:

-Қайт, иш чиқиб қолди.

-Тинчликми, қаердадир уруш бошланибдими?-деб,
Нурхон хонасидан чиқиб келди.

-Шундан бўлса керак, тезда етиб боришим ҳақида
буйруқ келди.

-Менчи...

-Бошқа одам юборишса керак,

-Дадам билан гаплашаман, ҳаммасини очик айтаман!

-Гаплашинг, илтимос, фақат ўртадан йўқ бўлиб
кетмаслигимни ҳам назарда тутинг. Кичкина одамман,
қандай бу ишга келганимни айтиб бердим, Дадангизни
бир оғиз сўзи билан ана у ҳезаланинг отаси мени бир
умрга зиндонга тикади ёки ўлдиради.

-Қўрқаяпсизми?

-Қўрқиш эмас, реаллик шу! Сизни ҳеч қачон менга
бермайдилар. Отангизни феълини биламан. Ундан кўра,
бир-биримизни узоқдан бўлсада кўриб юришимизга
имкон беринг! Бир умр яқин дўст бўлиб қолайлик!

-Менчи, мен реал эмасми, кўчада қолганманми, нега йўқ
десам ҳам, ўшанга тикиштиришмоқда?

У юм-юм йиғлай бошлади.Бағримга босдим.

-Бу томонини менга қўйиб беринг, бориб ҳал қилиб
қайтаман,. Бошқасини юборишганда, бир хатосини
топсангиз , кейин ўзимни қайтариб жўнатишади.

Ёнингизда, соянгиз бўлиб юрсам, бас! Узоқдан кўриб турсам ҳам етарли менга!

Кўлимни тортиб қорнига қўйди. Оёғим қалтираб кетди. Бунчалик бўлишини кутмагандим. Ахир, оилам, икки ўғилим бор. Унда ҳали ажрашмаган эдим. Уларга нима дейман? Ҳаётим барбод бўлди. Эрталабгача ўз хаёлларим билан олишдим. Эрталаб йўлга чиқдим. У негадир сокингина хайрлашди. Демак, у ҳам қарорини берган. Қолаверса, бу иш яхшилик билан тугамаслигини ҳис этган.

Қайтиб келсам, Раиснинг юзида табассум- “Ма, ҳаммасини кўриб чиқ ва хулосангни айт”,-деди.

Флешкаларни кўрдим, ҳамма нарса ёзилган. Демак, бу марказнинг иши. Улар ҳам кузатади. Наҳотки, шунга ақлим бормади? Наҳотки, Раис ишора қилиб қўймади? Наҳотки... Бошимга оғрик кириб, елкамдан музли тоғ эза бошлади. Бир пайт қизил чизикли телефон жиринглади. Югуриб бордим:

-Тўйга рози бўлибди,-деди Раис.-Билардим, уни сендан бошқаси кўндира олмасди.

-Унга қийин бўлади. Ёнига битта ўқимишлироқ биттасини кўшиб қўйиш керак. Эрдан ҳам кўпроқ, унга суҳбатдош зарур.

-Мен топдим,-деди раис,- жуда ақлли бола, ўқимган китоби йўқ. Ҳар қандай қизга ёқади, Бизнеси бор. Гаплаш, нима қилсанг қил, ишга ол! Яхши томони, ҳезалак, Онаси билан яшайди. Уйлана олмайди, Ҳалигилардан. Аммо қизларга жуда ёқади. Эртагаёқ жўнатишимиз керак. Бўлмаса, дадасига дод- вой қилиб, сени олиб кетади. Аслида, сени юбориб мен хато

қилдим. Ундай ақлли қизнинг олдига сендай ақлли болани юбормаслик керак эди. Бошқа томондан яхши, Марказ хурсанд. Истаган пайтда ишлатиш учун сиртмоқ-да.

Раис учун ҳамма бир тийин. Марказ ундан мамнун бўлса, бас. Қачон марказ юз ўгирса, ўша кун касалга чиқарилади. Кейин секингина масканига жўнатилади. Нималарни ўйлаяпсан, Шунқор! Ўзингни келажагинг ҳам шу! Қопқонга тушдинг.

Нурхоннинг тўйи бўлди. Орадан йиллар ўтди. Онда-сонда кўришиб юрдик. Кин сақламайдиган аёл экан. Барини унутди. Яқин дўст бўлиб қолдик. Ҳатто Зухрани кўриб, ҳаваси келганини ҳам айтди.

-Ажралиш режаларингиз борлигини ўшанда айтганингизда, сизни каклик каби овлардим,-деди.-Аммо бу ҳурлиқони кўриб, хурсанд бўлдим. Ҳамма томонлама етук экан. Бахтли бўлинглар, деди.

Ким билсин, балки отасининг энг ишонган одамига айланганим учун шундай муомала қилдим ёки ростдан ҳам реалистми, хуллас унга эски ҳавасим яна қўзғала бошлади.

Шу дамда у “Муҳтарам” деган номни ҳам қўллади. Бу ном “Муҳтарам”нинг ўзига ҳам ёқди.

Биз нимага пойтахтга тушмай, яна бу ерга қайтдик? Ана шу савол мени қийнаётган эди. Қолаверса, раҳбарларнинг аксарияти шу ерда эди. Ҳали “Дода” ўлганини эълон қилишмади. Наҳотки, ими-жимида кўмиб юборишади. Унда ана у дахмазалар нимага керак? Қабристонни текислаш. Ҳамма ёқни ўраб олиш, Йўқ, бошқа гап бор. Нега мен билмайман? Раис

яширдими мендан? Балки “Муҳтарам” ҳали тўла ишонмас.

Телепатия деган гапларда жон бор. Баъзан ўйлаб турган нарсангга ёнингиздаги одам жавоб беради.

-Шунқор, кўзингни катта оч! Пойтахтдаги ҳамкасбларинг менга суиқасд қилишмоқчи экан. Бу ерда қорасини кўрсанг, йўқот! Кимлигини биласан, бошида ана у “герой” турган экан. Бой отага марказдан шундай хабар келди. Улар пойтахтда билган ...ини еб ўтираверсин, биз “дода”ни кўмиб олайлик, кейин уларни ҳам кўмамиз,-деди.

Бу гапни Нурхоннинг олдида айтди. Демак, унга жуда ишонади.

Нурхон менга қараб кўзининг қири билан жилмайди. Орқадан Зухра ҳам етиб келди.

-Келин, сен ҳар турли аёлларни кузат, эринг Нурхон билан бирга ёнимда юради,-деди “Муҳтарам”.

Зухра “Хўп бўлади” дер экан қулоқлари кизарди. Демак, ўтмишдан унинг хабари бор. Дарвоқе, Марказ ёзиб олган суҳбатларимизнинг асли унинг қўлига ҳам тушган бўлса, не ажаб? Ундай бўлса, нега менга сездирмади? Ишқилиб, Зухра марказнинг одами бўлиб чиқмасин-да. Хаёлимга келган бу фикрдан аввалига қўркиб кетдим, кейин эса, марказ ўзимни ҳам тузоққа туширганини эслаб, уни қандай туширган экан деб, ўйлай бошладим. Аммо хаёлларим бўлинди.

Қаердандир ўқ овози эшитилди.

14. "Қулоқсиз"

“Муҳтарам” менга қаради. Унинг ранги ўзгариб, кўзлари косасидан чиқиб кетай дегандек эди. Мен зумда унинг олдини бекитдим. У ортимда тўхтаб қолди. Биздан икки юз метрлар чамаси узоқда бир аёл йиқилиб ётарди. Ким у? Уни нега отишди? Ким отди?

Шу дамда “Муҳтарам”нинг хаёл осмони ҳам йиқилиб тушган бўлса керак? У ҳатто олдинга ўтишга ёки қимирлашга ҳам чўчиб қолган ва икки қўли билан орқа елкамга осилиб олгандек эди. Бу сониялик ҳолат тезда тугади.

Ҳокимнинг машинаси етиб келди.

-Қаерда юрибсан?-деб ўдағайлади унга “Муҳтарам” .

У индамасдан машина эшигини очди.

-Шунқор сен қол, тезда нима гаплигини аниқла ва менга етказ!-деб “Муҳтарам” шиддат билан машинга ўтирди.

-Хўп,-деб уларни кузатдим ва қўналға томонга қараб юрдим. Бу пайтда у ерда ишлайдиганлардан бир қанчаси аёл ётган жойга етиб келишди. Ўлиб ётган ёш жувон экан?

-Нима бўлди?-деб сўрадим қўналға хавфсизлик хизмати ходимидан.

-Бу бизда ишлайди. Бобосининг қабрини бузишибди, шунга ёрдам сўрайман, деб югурибди. Мана бу ахмоқ уни отиб қўйди.

Ҳақиқатдан ҳам ахмоқ бўлмаса, “Муҳтарам” келаётган томонга қараб отадими?

-Буни қамокқа олинглар,-дедим.- Мақсади бошқа бўлиши ҳам мумкин. Раҳбар томонга қараб ўқ отиш

жиноят! Ҳар қандай мақсадда бўлса ҳам жиноят! Ўқ, Худо кўрсатмасин... Хуллас, тергов натижасини тезда менга хабар қилинглар!

-Кечирасиз, сиз ким бўласиз?-деб қолса бўладими. Жаҳлим чиқди.

-Онангни эри бўламан,-деб юбордим. Хато қилдим. Ҳалиги одам бошини эгиб қолди. Шу дамда менга тарсаки урса ҳам индамасдим. Қандай бу манфур гап оғзимдан чиқди, билмайман. Лекин ортга чекинишим, ундан узр сўрашим мумкин эмас. Бу таъқиқланган. Хато қилдингми, уни тузатиш учун вақт сарфлама, олдинга кетавер, деб ўргатишган. У шу лаҳзада ўзи ҳам қамоққа кириб кетишини ҳам ўйлади, шекилли, миқ этмади. Вилоят хавфсизлик хизмати раҳбари етиб келди. Текширувни унга топшириб, унинг машинасини олдимда “Муҳтарам”нинг ортидан кетдим. У қаерга боришини билардим. Унга бўлган воқеани айтиб бердим.

-Бу ҳам менинг бўйнимга қолиб кетмасин,-деди у.- Ими-жимида ҳал этишсин. Ким айтибди менинг бу ерга келишимни?

-Қиз уочокларни кўндириш бўлимида ишларкан. Сизни билмаган, аммо Бой ота келишини билган ва ундан ёрдам сўрамоқчи бўлган.

Пойтахтдан асосий одамларнинг ҳаммаси шу ерга чақирилган экан. “Муҳтарам” уларнинг ҳар бирига топшириқлар бера бошлади. Салимхон унга:

-Рухсат берсангиз иш жойингизни саройга кўчирсак, болалар кутиб туришибди,-деди.

-У бинодан сиз ҳазар қилмайсизми? Мен у ерга бормаيمان! Ҳозирги жойим яхши. Бир томонидан таъмир бошланглар. Фақат кечаси ишласин. Тақ-туқларига тоқат йўқ.

Салимхон “Дода”га қандай куллуқ қилган бўлса, “Муҳтарам” олдида ҳам ўша сохта камсукумликини сақлаб турарди.

-Унда, дарёнинг бўйидан яшашингиз учун битта кулба қурдирсак. Хавфсиз жойда яшамасангиз бўлмайди.

“Муҳтарам” биров ўйлаб турди-да:

-Тезда битадиган бўлса, майли. Сайловгача тайёр бўлсин. Сайловдан кейин кўчиб ўтамыз!-деди.

-Ундан олдинроқ ҳам битирамиз,- деб жавоб қилди Салимхон майин овозда.

-Меҳмонларга атаб ҳам бир жой қилишимиз керак..

-Маросимга келадиганлар учунми?

-Йўқ, буни ҳоким ҳозирлаган. Сиз каттароқ фикрланг. Илгариги раҳбарлар Қиримда дам олишган. Энди у ёқлар узок! Бегона...

-Ундан яхшироғини ўзимиз қурамыз. Сангин ва Раматжонга айтсак, ўзимизнинг Ялтани ясашади. Денгизи ҳам бўлади, ов жойлари ҳам. У жойга ҳеч ким боролмайдиган бўлади. Тоғларнинг орасига қурамыз.

-Илгари бошлаган жойимизни давом эттиринглар. Пулни аяманг, қурилиш сифатли бўлсин. Тошсиз тарозининг шайини синиқ, деган гап бор. Тошу тарозиси жойида бўлсин!

Қизиқ! Кимга аза, кимга тўй. Ҳали “Дода”нинг ўлгани эълон қилинмасдан тўйнинг маслаҳати бўлаётганга ўхшарди.

Раматжон “Дода”га яқин одам эди. Бир кун зиёфатда “Лазги”га ўйнаганда, семиз эмасми, шими тушиб кетди. Роса кулги кўтарилганди. Шундан кейин унинг лақаби “Лазги” бўлиб қолди. Ўзи ҳам хурсанд, хайриятки “Мазги” деб қўйишмади, деб кулади. Уни “Мухтарам” ҳам яхши кўради. У билан анча йиллар олдин, Нурхоннинг ёнида эканлигимда танишгандик. У Нурхонга марказдан бир неча миллион долларлик уй олиб берганди. Хизмати учун “Мерседес”ни шофери билан ҳадя қилганди. Кун ора дунёнинг энг ноёб неъматларини Нурхонга етказиб турарди. Кейин биз шоферни алмаштирдик.

Бир кун ундан:

-Бу ҳақда отаси биладиларми?-деб сўрадим Раматжондан.

-Билмайдилар. Мана энди сиримиз очиладиган бўлди. Сиз у кишининг қалби. Сиз сездингизми у киши ҳам биладилар,-деди. Ҳақ эди. Билган нарсамни қачондир “Мухтарам”га айтишга мажбур бўламан. Акс тақдирда ишончсизлик пайдо бўлади.

Сангиннинг ҳам тарихи бор. Бир кун у сув омборида чўмилаётган пайтда “Батя” телефон қилибди.

-Қаердасан?-деса, “Шу ердаман” дебди. “Батя” хушёр эди, шамол ва сувнинг шовқинини сезганми ёки “қулоқ”лари гап етказганми:

-Нега иш пайтида чўмилаяпсан ?-деса.

-Амудаман, чўмилмаяпман, сиз севган балиқни ушлашга ҳаракат қилаяпман,-деган экан.

Шундай кейин “Батя” унга “Аму” деб ном қўйди. У ҳам ўз номидан мамнун. Амалдорларга тепадан қандай лақаб қўйишса ҳам хурсанд бўлишади. Буни яқин одамиман, деб талқин қилишади.

“Дода” лақаб қўйишга уста эди. Ҳатто битта вазирга “Фоҳиша” деб лақаб қўйганди, у тиржайиб юраверди. Менимча, энди ишдан кетадиганлардан биттаси ўша. “Муҳтарам” уни жуда ёмон кўради. У гап ташийди. Лақаби ҳам шундан келиб чиққан.

Ҳоким келиб, “Муҳтарам”нинг қулоғига нимадир деди. У мен томонга қайрилди.

-Шунқор, пойтахтга жўна! Ана уларни ўзинг назоратга ол! Бирор ифлослик қилишмасин. Сенга ҳамма ҳуқуқларни бердим, керак бўлса, ертўлага тикавер! Жонини суғуриб ол! Итдай ишлат, қулоғини кесиб ташла, керак бўлса!

Зуҳрани ҳам олдим ва йўлга тушдим. Зуҳра машинанинг орқа қисмида мизғиб олиш учун чўзалди.

“Муҳтарам”нинг қулоғини кесиб ташла, деган гапи болаликка етаклади.

Қишлоғимиз тоғ адирлари орасида бўлгани учун ҳамманинг ити бўларди. Ваҳшийроқ бўлсин деб қулоқларини кесишади. Бундай ит одамни ҳам аямайди.

Бир кун тоғдан ривож териб қайтаётгандим, қулоғи кесилган бир ит ташланди. Уни ушладимда, бир кўлим билан жағини қисиб олдим. Кўзлари ёнди. Важоҳати шу даражагача етиб бордики, қўйиб юборсам, мени еб

ташлайдиган. Бироз кўзларига тикилдим. Унинг ваҳожатига сув сепгандек бўлди. Кейин бошқа кўлим билан пешанасини силадим. Кўзини юмди. Кейин уни отиб юбордим. Қочиб кетди.

Уйга яқинлашганда қарасам, орқамдан келаяпти. Кутиб турдим. Келиб оёғимга суйкалди. Кейин худди бўри каби кўкка қараб увлади. Бу бўриларни қўрқитадиган азамат ит экан. Аммо кимники? Нега менга эргашиб келди? Балки эгасидан қочгандир? Ҳа, майли, бир кун тура қолсин, эгаси чиқса олиб кетади, деб уйга бошладим. Дарвоза олдида унинг бошни силаб, кўзларига анча қараб турдим. Мехр борга ўхшайди. Садоқат борга ўхшади. Ҳовлига олиб кирдим. Ойим эшикдан чиқишлари билан ўқдай ташланди. Югуриб бориб, ойимни қутқаздим. Тирсакларидан тишлабди.

-Безарар,-дедилар. Аммо ранглари ўчган.

Яхшилиқни билмайдиган итни девордан ташқарига итқитдим. Ойимга сув олиб келдим. Итнинг тиши теккан жойларига “зелёнка” суриб қўйдим.

Ит эшикнинг ёнидан кетмай, уй-увлаб тураверди. Энам:

-Болам бунчалар увлатиб қўйма!-дедилар.

Бориб эшикни очсам, оёғим орасидан сизиб кириб, энам томонга отилди. Бориб худди ёмон иш қилгану узрга келган одамдек тиз чўкиб олди. Энам бошини силадилар. Шу билан ҳовлимизда қолди. Эгаси чиқмади.

“Қулоқсиз” деб ном бердик. Кўп яшамади. Қариб қолган экан. Бир кун остонага бош қўйиб, ўлиб қолибди. Балки ишонмайсиз, ўшанда увлаб-увлаб йиғлаганман. Ҳатто энам ҳам йиғлаган.

Шунқор! Ўзингни ҳам ‘қулоқсиз’ каби ҳис қилмаяпсанми? Йўк! Қани эди, ундай бўлсанг! Унда қулоқларини кесиб ташлагани учун алам бор эди. Аммо сенга тан берди. Энангни ҳам севди. Сен ҳам соҳибингга содиқсан. Сенга фалончини йўқот, деса, ўша одам мутлоқ гуноҳсиз, эл учун керакли бўлишига қарамай, ўлдирасан! Сенда ўзи нима бор? Меҳрми? Меҳрсизликми? Қаҳрми? Нафратми? Нима бор? Шу пайтга қадар қул эдинг. Мана энди озод қулсан. Ўзингча йўл танлай олмайсан. Айтилган йўлдан юрасан. Шундай даражага келдинг. Бечораларга ёрдам қилиш имконинг бор. Ҳа, бор! Аммо ё қўрқасан ёки...

Телефон жиринглаб қолди. “Муҳтарам”.

-Идорани тўла назоратга ол, ҳаммани кузатишаётган экан, сўзлашувларини эшитишаётган экан. Нухта қўй барига! Одолат ўрнат!

У нуқтани нухта, адолатни одолат дер эди.

Демак, Ғуломнинг одамлари тинмаяпти. Нима қилиш керак? Уларни қандай қилиб тўхтатаман? Орқада ухлаб ётган Зухра уйғонди.

-Нима гап?

-“Муҳтарам” сим қоқди. Ғуломнинг одамлари ҳаммани эшитаётган экан. Шунга нуқта қўйишимиз керак.

Зухра бир зум ўйланиб турдида:

-Нуқта қўйишнинг иложи йўқ. Раиснинг қарори керак. Аммо давом этаверишсин. Ёзув ва хатга тушириш маркази ҳамма нарсани менга олиб келиши ва кейин раҳбариятга бориши лозим. У ерда ишончли одамларимиз бор.

-Аммо “Муҳтарам” нуқта қўй деб айтди. Тўхтатиш керак.

-Демак, “Муҳтарам”нинг яқинларини эшитишмоқда ва кузатишмоқда. Раис билан гаплашинг.

-Менимча “Муҳтарам” у билан гаплашган ва у ишни Шунқор уддалайди, деб қутилган бўлса, ажабмас?!

-Ундай тахминларга борма, жоним, улар бизни ҳам эшитишлари мумкин.

-Қўрқадиган жойимиз борми? Уларни тўхтатишнинг йўлини биламан, лекин сиз мени сенсирадингизми?

-Ҳа, жоним, яқин олганим учун сенсирадим ёки хотиним эмасмисан? Шанхайчиларнинг “уйланмаганлар маросимда қатнашмайди”, деган қондаси учун ўйин қилдик-ми?

Ёнбошлаб ётган Зухра шартта ўрнида турди:

-Сизга ўйин бўлиши мумкин! Икки боласи билан отасиникига олиб ташлагансиз-ку биттасини? Иккинчиси билан кўз уриштириб турганингизни кўрмадим-ми?

Индамадим. Чунки хато қилдим. Бир ҳисобдан яхши бўлди, қачондир бу масала кўтарилиши керак эди. Шу йўлларда қолиб кет син... гаплашиб оламиз.

-Борим шу! Отам касал эдилар, гапларини икки қилолмай уйлангандим. Ёмон аёл эмасди. Аммо менинг ишимга чидамади. Уни тушундим. Болаларимдан ҳозир ҳам хабардорман. Балки уларни сиз билан ҳам таништираман,- дедим атайлаб сиз сўзига урғу бериб.

У гап жидийлашганини ҳис қилсин деб давом этдим:

-Иккинчисига келсак, вазифамни бажардим. Ҳали келажакда ҳам шундай топшириқлар бўлса, нима дейман? Зухрадан рухсат олиб беринглар, дейманми? Унисиниям, бунисиниям севганим эмас. Аммо сизни севдим. Хоҳласангиз қабул қилинг, истамасангиз муносабатларимиз расмий бўлиб қолаверсин. Сизни севаман, аммо бундай дашномларни кўтара олмайман!

Зухра индамади ва анчагача жимлик чўкди. Машинани жуда тез ҳайдабман, орқадан “данчилар” қувди. Нима қилсам экан? Қувиб ета олмайди. Аммо бундай пайтларда “дум”нинг кераги йўқ. Йўл четига олдим ва эшикни очдим.

-Тушманг... Ғуломнинг одамлари бўлиши мумкин...

Қулоқ солмадим. Хужжатимни кўрсатгандим, миршабларнинг ранги қув ўчди. Лаблари гапга айланмай қолди.

-Ака, олдинда юриб сизга йўл очиб борайлик-ми?

-Йўқ, фақат бундан кейин хужжат кўрсатганга ялтоқлик қилманглар. Ҳозир сохта казо-казолар кўпайган,-дедим ва машинага қараб юрдим.

-Тўхта,-деди миршаблардан бири.

Бурилсам, иккаласи ҳам шахдам одим билан мен томонга келмоқда.

Шунқор, ўзинг қилдинг, энди ўзинг тинчит! Керакмиди шу сенга? Мана энди қаршингда таппонча ўқталиб турибди.

-Акалар, тўғриси айтмай, хотинимни касалхонага олиб бораяпман,-дедим.

Зухра инқиллагандек машинадан тушди ва улар томонга юрди.

-Илтимос, уни ушланглар, мени ҳам алдади,-деди.

Миршаблар бу гапни эшитиб, “ўлжалари” томонга ташландилар. Зухра орқага ўтди. Тушундим. Зухра жуда чиниққан. Болдирлари қайроқ. Ҳамласи қоплондек. Мен индамасам ҳам бўлади. Иккаласини бир ҳамлада ерга қулатди. Қўлларида таппончаларини олдик.

-Энди умрларинг камокда чириydi. Хужжати тўғри эди,-деди Зухра уларга.

-Майли қўйиб юбор уларни, хушёрликлари учун мукофот берамиз,-дедим.

Иккаласининг ҳам хужжатларини олдим ва:

-Вазирингиз олиб келиб беради, мукофоти билан,- дедим.

-Акажон, бола-чақамиз бор, бизни қўйиб юборганингизнинг ўзи мукофот. Бир ахмоқлик қилдик. Кечиринг, жон ака!

-Гапларингизни бу қисми ёқмади. Мардонавор турганларингда бахт кулиб боққан эди,-дедимда уларни огоҳлантириб:

-Ҳатто хотинингизга ҳам айтмайсиз бу воқеани,-дедим.

Бечоралар! Маҳкам туриб, бизни ушлагандаку Ғуломдан мукофотни каттасини олишарди.

Машинани ҳайдагандан кейин:

-Раҳмат, ҳаётимни қутқаздингиз,-дедим Зухрага.

-Бундан кейин сизлайдиган бўлдингиз-ми? Бир сенладингизми, бўлди, сенлайверинг-да,-деди Зухра.

Демак, у масалага нуқта қўйилди. Зухранинг ўзи ҳам билади, ана у икки миршабни “текислаб” қўйишимни. Аммо шундай бўлсада “кредит”ни унга бердим.

Пойтахтга етиб келгунча нима қилиш режасини туздик. Ёзиб оладиганлар ва эшитадиганлар ҳаммаси Ғуломнинг қўлида. Уларга бир нарса десак, ишнинг пачаваси чиқади.

Ёзувларни Зухрага топширадиган зобитнинг уйига бордик. Тонг сахар. У балки тунги ишдадир? Балки ухлаб ётгандир? Хуллас, нима бўлса ҳам мен машинада ўтирдим, Зухра эшикка борди.

Йўқ экан. Ишда. Мен ҳам қўшилиб зобитнинг уйига кирдик ва хотинидан эрига телефон қилиб, чақиришни сўрадик. Унга кимлигимизни очик айтдик. Бўлмаса, қийин эди. Аёл ўқимишли экан, тушунди ва эрига телефон қилди:

-Адаси, тез келмасангиз бўлмайди, кичкинамиз иситмалаб ёмон бўлди. Докторларни чақирдим, олиб кетолмаймиз, аҳволи оғир дейишди...

Аёл туппа тузук актриса экан. Бир пиёла чой ичгунимизча зобит кириб келди. Зухра ва мени кўриб шошиб қолди.

Унга ҳам тўғриси айтдик:

-Қара,-дедим унга.-Ҳаммасини билишади ва ҳаммаларинг Ғулом бошчилигида борса-келмасга кетасизлар. Агар келажакда шу ерда қоладиган,

болаларингга оталик қиладиган бўлсанг, айтганимизни бажарасан.

-Ака “Дода” ростдан ҳам...

-Ҳа, ўзинг ҳам биласан буни...

-Ҳамма ёқда шу гап. Аммо расмий эмас-да.

-Мана мендан эшитганинг расмий.

-Ўрнига...

-Ўрнига аллақачон “Муҳтарам” ўтдилар.

-“Муҳтарам”? Ким бўлди экан?

-“Шум”. Ўзгарди бу ном. Қарорингни бер, биз биланмисан?

-Албатта, мен давлатимга хизмат қиламан деб кирганман бу ишга. Нима десангиз шуни бажарамиз!

-“Муҳтарам”нинг яқинларининг сўзлашувларини хатга туширмайсизлар! Ғулом сўраса, салом-алиқдан бошқа гап йўқ дейсан. Керакли нуқталарини гум қиласан. Қолганини одатдагидек Зухрага топшираверасан.

-Хўп бўлади!

-Унвонинг нима?

-Полковник!

-Шу ишни уддаласанг, генералсан, мен сўз бердим сенга!

Икки кун чидасанг бўлди, кейин яна сув ўз жойида оқаверади. Ҳатто сендан гумон қилган тақдирда ва ҳатто

сени қамаганда ҳам ўзим чиқариб олман ва бундан ҳам яхшироқ вазифага ўтасан!

У оч қушдек нонни кўриб, кафтга осонгина қўнди ва кечадан буён эшитилган гапларни ҳам айтиб берди. Зуҳра унинг машинасида кетди. Мен эса “Муҳтарам”нинг идорасига келдим. Ҳамма ёқ сув қуйгандек жимжит. Маслаҳатчилар бирин-кетин келиб, саломлашиб, топшириқ олиб кетишди. Фақат биттаси савол берди:

-Қўналғада ва яна бир икки жойда Владичнинг одамлари юрган экан, хабарингиз борми?

-Улар Владичнинг эмас, ўзимизнинг одамлар, хавотир олманг,-дедим.

Қўлидан бирор ёмон иш келиши мумкин бўлганларни вилоятларга жўната бошладим. Ўша ёқда тартибни сақлашлари учун. Каттароқларини эса “Муҳтарам”нинг ёнига...

Бир пайт Зуҳра кириб келди, ранг-кути учган:

-Мана буни эшитинг,-деди.

15. “Кетган” олтинлар

Зуҳрани бундай ҳолда кўрмаган эдим. Важоҳати кўрқинчли.

-Нима гап? Тинчлими?

-Буни эшитинг, ким бу одам?

Ёзувга қулоқ солдим. Кимдир рус тилида Азимга буйруқ бераяпти.

“Бардам бўл, эртага кўмишга борсанг ҳам баҳона қилиб қабристонда кўринма.”

“У унча-бунчага чекинмайди. Ҳамма ёқни ўзиники қилиб олган. Эҳтиёт бўлмасак...”

“Иккиланмаслик керак! Уни қабристонда тинчитамиз, отаси билан битта гўрга киради!”

“Бу қийин масала...”

“Биз учун қийин масаланинг ўзи йўқ. Етарки, сен ўзингни қўлга ол! Имконини топ ва борма!”

“Уни йўқ қилсангизлар, фавқулодда ҳолат юз бериши ва Сенатор сайловгача раҳбарликни ўзим бажараман, деб чиқиши мумкин.”

“Уни ҳам тинчитамиз! Ҳаммаси бирдан кетади.”

“Унинг янги тансоқчиси бор. Аввал шуни йўқотиш керак.”

“Бу масалада ишляпмиз. Уни амаллаб пойтахтга олиб келдик. Охирги соатларини яшамоқда.”

Зухранинг ваҳимага тушганича бор экан. Ким бу? Қаердан телефон қилган?

Зухра шу саволни кутиб турган экан:

-Марказдан! Гап орасида Владични ҳам кўндираман, деган жойи бор,-деди.

-Демак, катта куч. Бундайлар соясини саратонда солади. Бу Ғуломнинг Марказдаги акахонлари. Улар манфаат учун ҳеч нарсадан қайтмайдилар.

-Тахминларни кейин қиламиз,-деди Зухра жиддий оҳангда, худди менга дашном бераётган каби.-Биринчи галда бу ердан чиқиб кетишимиз зарур. Мени ҳам кузатган бўлишлари мумкин.

-Қўявер, бизга хужум қилишсин, балки эртанги маросим режаси бузилиб, уларнинг бурнига лой тикилиб қолар?

-Олов билан ўйнашамизми? Бу ерда уларнинг келишини кутиб турсак, нарёқда бир нарса қилишмасин?!

-Раисга чиқайлик!-дедим.

-Раис нима дерди, тинчитинглар, дейди. Менимча “Муҳтарам”нинг ўзи билан гаплашиб, режаларни ўзгартириш керак.

-Бўпти. Ёзувни унинг ёпиқ телефонига ташлайман. Балки гапирган одам унга танишдир? Балки у Владич билан гаплашар?

Ёзувни “Муҳтарам”га юбордим..

Кўп ўтмай, ўзи телефон қилди.

-Бораяпман, мени кутинглар,-деди.

“Муҳтарам”нинг хонасига кириб, овқатланадиган хонасида сувни шариллатиб оқизиб қўйдик ва турли режаларни тузишга бошладик. “Муҳтарам” келиши билан “Нима қиламиз?” деб сўрайди.

Гапирмасдан фикримизни қоғозга ёза бошладик. Мен ёздим, кейин Зухра жавоб қилди:

“Кўмиш маросимини орқага ташлаш керак?”

“Байрамгача кўминглар, деган гап бўлган Марказдан”

“Владичга телефон қилинса, бундай пайтда бошқа планга рози бўлади”

“Кейинчи, кейин нима қиламиз?”

“Бугуноқ Азимни қамоққа олиш шарт”

“Йўқ, ундан мазлум ясаймизми? Агар, Худо кўрсатмасин, уларнинг плани амалга ошса, уни қамоқдан қаҳрамон қилиб олиб чиқадилар. Менимча, “Муҳтарам” ҳеч нарса билмагандек, Азимни ёнида олиб юриши керак. Бир қадам ҳам узоқлаштирмаслик лозим. Шу ҳақда ўйлайлик”

Хуллас, бир қанча йўллари қоғозга туширдик. Бир пайт “Муҳтарам” телефон қилди.

-Учоқдаман! Содиқ болаларингни чиқар ва қўналгани қўлга олишсин. Эҳтиёт бўлишсин, Владичнинг болалари билан тўқнашиб қолишмасин. Уларга жавоб беринглар, кетаверишсин.

Гаплашиб бўлиб, топшириқни Зухрага айтдим.

-Сиз ҳаққингизда ҳеч нарса демадимми?

Нима дерди? Хўжайиндан наф келса, орқасидан зарб келади. Ёлғон гапирдим:

-Ўзингни эҳтиёт қил, дедилар.

Зухра алдаганимни тушунди, шекилли, лабини буриб қўйди.

Дарвоқе, мен ҳақимда нима десин? Унга ҳозир ўзининг жони ширин. Биринчи галда ўзини ўйламоқда. Бизни ҳам шу йўлга солишган. Ўзимизни эмас, уни ўйлашимиз даркор. Биз ҳеч киммиз, аслида. Вазифамизни бажаришдан озгина чекиндикми, тамом, ҳаётимиз

тугайди. Буни Зухра ҳам яхши билади. Лекин шунга қарамасдан сўради. Унинг учун шу дамда “Муҳтарам” эмас, мен азизга айланганимни ҳис қилиш қувват берди. Биринчи хотиним буни тушунмасди, “Сиз ҳам отасиз! Болаларингиз меҳрингизга зор! Саҳар кетиб, ярим тунда қайтасиз. Бошқа биттаси борми?” деб жанжал қилаверарди. Аёллар учун вазифа, ишдан ҳам оила муҳим. Мана бу ҳам шу соҳада ўқиган, етишган бўлишига қарамай, шу топда эрини ўйлаяпти.

Телефон жиринглади:

“Шунқор, нима қилсанг ҳам Азимни учоққа олиб кел, шамол ҳам сезмасин!”

Нахотки уни йўқотишга қарор қилишди? Қандай қилиб олиб борамиз? Шоферини алмаштирамиз, Зухрани юбораман. Йўқ, ўзим бораман.

Ёнимдаги хотинимга хат ёздим:

“Азизим! Тезликда Азимнинг шоферини алмаштириб, унинг ўзини қўналғага олиб боришим керак. Шамол ҳам сезмасин, дедилар. Майли сен шу ерда қол, мен кеттим!”

‘Йўқ, сиз шу ерда қолинг ва мен кетаман. Бу ишни уддалайман. Уни эсон-омон олиб бораман! Кўнглингиз тўқ бўлсин”.

Унинг шундай дейишини билардим. Бу ишни уддалашини ҳам биламан. Аммо унга буйруқ бергим келмади. Қолаверса, таклиф ундан чиққани яхши-да!

Йўлини қилиб, қўналғага бордим ва ҳаммаёкни кузатиб, йигитларни жойлаб, Зухрани кутдим.

Кўп ўтмай, номаълум машинада келишди. Ўзимни панага олдим. Азим мамнун. Юзида хавотир йўқ. Шахдам одим билан учқичга кўтарилди.

Зухра менга қараб, кўзи билан кулимсиради. Ичкарига киришимиз билан тарвузи қўлтиғидан тушган одамдек Азим қалтираб, орқага югурди. Уни ушлаб қолдим.

-Сен тварни еб-ичаман, аблаҳ, ҳали мени ўлдирмоқчимисан?

“Муҳтарам” сўкинганча Азимга ташланди. Раис жим ўтирибди. Қовоғи осилиб қолган. Кўзида ҳадиксираш. Иштонини ҳўл қилиб қўйган боладек кимирламай ўтирибди. Негадир кўзимга у ичига сомон тикиб қўйилган халтага ўхшади. Тўхта, Шунқор, аллақачондан Раисни назарга илмаяпсанми? Унинг яхшиликларини унутдингми? Сени шу ергача ким олиб келди? Йўқ, у аждарҳо!

Доим “Муҳтарам” унинг асири эди, ҳозир аксидек. Нахотки, бу ишларнинг орқасида у турган бўлса? Йўқ, бундай бўлиши мумкин эмас. У икки томонга ўйнамайди. Бу ерда бошқа гап бор.

-Нима қиламиз буни?-деди “Муҳтарам” менга қараб.

Тузган планларимиз қоғозини унга узатдим. Ўқиб чикдида қайтиб берди.

-Кўмиш маросимини қолдирамиз. Азим, сен шу соатдан бошлаб менинг соям бўласан! Қаерга борсам, ёнимда турасан! Ярим қадам ҳам узоқлашмайсан! Бирга ухлаб, бирга турамиз! Ўлмаганингга хурсанд бўл! Атайлаб олиб қолдим, кўмиш маросимида биргаликда гўрга кирамиз! Ҳавога кўтарилганда, сени учқичдан ташлаб юбормоқчи эдим. Аммо мана буларга қуллук қил!

Ҳаётингни кутқазиб қолишди. Сен бўлсанг, биринчи галда Шунқорни ўлдиришни буюрдинг! Шунқор, мана у сенинг қўлингда. Қимирласа, башарасини титкилаб ташла, -деди.

Сўнг телефонида Азимнинг суҳбатини эшиттирди. Азим худди нураган иморатдек йиқила бошлади. Бир қўли билан ўриндикни тутиб қолди.

“Муҳтарам” раиснинг ёнига бориб унинг қулоғига пичирлади.

Демак, Раис ҳали ҳам ўз мавқеида. Бўлмаса, унга ҳам бақирарди.

Бой отанинг ишораси билан учкич кўкка кўтарилди.

Мамлакат худидидан чиққандан кейин Владичга телефон қилинди. Овозни Раис таниган экан. У Владичнинг хавфсизлик идораси бошлиғи.

Владич эшитиб, нимадандир ранжиди:

-Их мочит надо! Вот блин! Бу эски план-ку? Қанақа замон бўлди, ўнг қўлинг қилганини чап қўлинг билмайди.

У русчалаб сўкинди-да:

-Яхшиям менга чиқдингизлар, хавотир олманглар, ҳаммаси жойида бўлади,-деди.

“Муҳтарам” Владичнинг гапига эътибор қилмади, шекилли, юзидаги хавотир ўрнини мамнунлик эгаллади.

Зуҳра менга термулиб қолганидан билдимки, у ҳам сезган. Демак Владичнинг дастлабки плани Азимни қўйиш бўлган. Балки унинг плани эмас, Хавфсизлик идорасининг плани бўлгандир. Владич кўк чироқ ёққан.

Кейин Бой ота уни “Мухтарам”га кўндирган. Владич эса “отбой” беришни унутган. Шундай деб хулоса қилса бўлади. Лекин бунга ишонмаяпман. Бошқа гап ҳам бўлиши мумкин. Нега унда Раисни четлашди? Бу планни Раис ҳам билганмикан? Билган ва Бой отани ишга солган бўлса-чи? Фақат бу ҳақда “Мухтарам”га шипшитмагандир? Аммо булар тахмин. Ҳақиқат энди ўртага чиқади.

Дарвоқе, Владич нега кўмиш маросимини байрамдан олдин қилинглари деганди? Бизда аввал тўй, кейин аза дейилса, ҳам қабул қилмади. Ўзи беш олти кун сақланглари, деб айтганди. Орқасидан “кўмасизларки кўмасизлар”, деб туриб олди. Негадир ғиштлар қолипга мос эмас.

Саволлар оқиб келаверди. Жавоби эса йўқ. Демак, ҳушёрликни оширишимиз керак.

Билса билса ҳамма гапни Азим билади.

Худди фикримни уқиб тургандек “Мухтарам” Азимни ёнига келиб ўтирди.

-Қачондан бери гаплашаётган эдингизлар?-деб суради.

-Кечадан бери. Ғулом боғлаб берди. Таппончаси бўйнимга қўйилган эди. Ҳамма сўзлашувлар пайтида у ёнимда турди. Қўрқдим. Владичнинг плани дейишди. Ишондим. Бошқа йўлим йўқ эди. Майли, мен розиман шу машмашалар ўтгунча қамаб қўйинг бир жойга. Бўлмаса, тинчлик беришмайди. Сиз ўлдирмасангиз улар ўлдиради. Мен тугаган одамман...

Тоғ бошида қор, бундайларда ор йўқ!

У шундай деб йиғлаб юборди.

-Шунча ҳолинг бор экану, яна мамлакатга раҳбар бўламан деб юрибсан-а? Сени йиғлоқиларга бошлиқ қилиб қўйиш керак. Ҳаёт бу кураш! Қўлингдан келса курашга кир! Рискни бўйнингга ол! Қўлингдан келмадими қисиб юр!

-Тур ўрнингдан сассиқ! Қанча бердинг? Кимга бердинг?- “Муҳтарам” сўроққа ўтди.

-Берганим йўқ...

-Сен ифлос мен билан ўйин қилма, гадони нонидан танийман, керак бўлса! Нима, билмайди деб ўйлайсанми? Ўзингни оғзингдан эшитмоқчиман.

-Мен берганим йўқ. Ғулом юборди.

-Қанча? Кўкиданми, сариғиданми?

-Сариғидан?

-Неча тонна?

-Кўп... Аниғини айтмади. Махсус учкичда жўнатибди.

-Эвазига нима сўради?

-Раиснинг ўрнини...

Раис парво қилмай сўзга аралашди ва мавзуни ўзгартирди:

-Бундай ишларни ўзлари қилишмайди. Кўчага буюришади. Буйруқ тепадан зинама зина тушади ва охирида ижрочиларни ҳеч ким танимайди. Шунинг учун “отбой” берилса ҳам, буюртма давом этавериши мумкин. Қўрималарни алмаштирамин. Талабалар орасидан йигитларни саралаб, жонли девор ташкил

қиламиз. Маросим куни, ёнма-ён, бирга юрасизлар. Азимжон, унгача ўртада кўринмайсиз!

Гапга “Муҳтарам” аралашди:

-Қани садоқатингни кўрсат! Ғуломни бу ерга чақир!

-Тушундим, ҳаммасини бажараман.

Бу амалдор дегани артист бўлармикан, ҳозиргина йиғлаб ўтирган Азимга “жон кирди”, ўз телефонидан сим қоқди.

-Яхши гаплар келди. Бой ота ёрдамида Владич билан гаплашдик. Ҳаммаси яхши. Ана уни қамокқа олиш керак. Мен кўналғадаман, Бой отанинг учкичида. Шу ерга келинг, ўта муҳим гап бор.

Қойил қолдим. Овозининг оҳанги ҳатто ўзгармади. Буларни “Дода” бичиб кетган. Гадо гадодан уялади, бу бойлар эса бир-биридан уялмайди. Амалдор бўлмай ўл!

Ярим соат ҳам ўтмай, Ғуломнинг келаётганини билдиришди

-Болаларинга айт, кутиб олишсин,- деди “Муҳтарам”.

Ғулом келганда панага ўтдим ва орқасидан учкичга қараб юрдим.

У зиналардан сакраб-сакраб, югурганча, яхши кайфиятда кириб келдию, жамоани кўриб эсанкираб қолди. Хавфсизликда етишган одамнинг бундай эсанкираши жуда қизиқ эди. У ҳаммадан энг қийин ҳолатларда ҳам ўзини йўқотмасликни, вазиятдан чиқиш йўлини топишни талаб қиларди. Мана энди ўзи қудуққа тушди. Қани қандай чиқаркин? Орқага қараб

қочолмайди. Эшик олдини мен “қўлга олдим”.
Зухранинг ҳам қўли таппончасида.

Ғулом жуда айёр, кўринишидан билинмасада, ичидан ўқ
ўтмайдиган либос кийиш одати ҳам бор. Аммо
таппончаси борлиги сезилмаяпти. Одатда оддий
кийимда юрадиган бу одам янги ҳарбий либосни кийган,
генераллик унвонлари ҳам ялтираб турибди,
қаҳрамонлик белгисини ҳам тақиб олган. Бу Зухранинг
“ҳунари” бўлиши мумкин. Иш битди, раисликка
тайинловга юринг деб уни қув туширганга ўхшайди.

-Шунқор, уни текшир!

Орқасида турганим учун, таппончага интилмасин деб,
аввал икки қўлини ушладим. У тортиб олмоқчи бўлди.
Уддасидан чиқмади. Ҳар куни спорт залига бориш
ўрнига зиёфатма зиёфат юргани зарарига ишлади. Бир
ҳамлада икки оёғини икки томонга итардим.
Текширдим. Ҳаммага арқон тўқийдиган одам ўзига ип
эшолмай қолиши мана шу. Шунчалик ўзига бино
қўйганки, таппончасини ҳам олмаган.

“Мухтарам” ўрнидан туриб, унга яқинлашди.

-Сен кимга ишондинг, хоин! Ватан сотқини!

У шундай деб Ғуломнинг пагонини шартта узиб олди.

-Нима қиляпсиз?

-Нима қиляпман? Шунқор видеога ол, халққа
кўрсатамиз. Мана нима қиляпман! У иккинчи пагонни
ҳам узиб олди.

-Мана оддий одам бўлиб қолдинг. Дарвоқе, мана бу
юлдуз ҳам сенга ҳаром!

“Муҳтарам” унинг қаҳрамонлик юлдузини ҳам узиб ташлади.

-Ҳаққингиз йўқ бундай қилишга, буни менга давлат берган, “Дода” берган.

-Ҳе, доданг билан қўшиб, онангни... , сен иблисни.

-Онадан сўкманг,-ялинган оҳангда гапирди Ғулом.

-Яна бир марта сўкаман. Қани нима қила оласан? Ҳе, онангни... Тиз чўк!

Ғулом бўйсунмади. Эгилмасанг эгамиз! Икки тиззасининг орқасига тиззам билан ургандим, тиз чўкиб қолди.

-Сен ҳақиқий ғулом эдинг, ғуломлигинга қайтдинг! Сендан раис чикмайди. Ютқаздинг. Буни кураш дейдилар. Энди Раиснинг устидан шикоят қиладиган жойинг ҳам йўқ. Биттаси кетар жойига кетди. Бошқалари сени сотди. “Ставка”ни шу галварсга қиласанми? Ахмоқлигинг мана шунда.

Ғулом ҳеч нарса қила олмаслигини, синганини ҳис қилди. Буни унинг орқасида туриб сезиш мумкин. Тиззаси қалтираётгани сезилмоқда. Шими худди шамолда ўйнаётган каби қимирламоқда. Умрида тиз чўкмаган, зиёфату маишатлардан бўшамаган одам, тиззасида узоқ туrolмайди-да!

Шу пайт у бир неча оловнинг ичида. Бир томонда тиззалари қийнаяпти, иккинчи томонда юраги ёнаяпти. Азим ҳаммасини сотди деб ўйлаб, хато қилдим, деб пушаймон. Аммо ўрни тутармиди? Учинчи томондан йиққанлари ҳавога учиб кетди. Бунинг устига унвонларидан ҳам айрилди. Бу ўлимга тенг. Экин эккан

экин экади, текин келган текин кетади. Барибир бунча хўрланишни кўтариш осон эмас.

-Неча тонна юбординг?

Ғулом билмасликка олди.

-Нимани?

-Энангни... ни! Сан яна мен билан ўйин қиляпсанми?

“Мухтарам” уни тепиб юборди. У йўлакка йиқилди ва бир ҳамлада турмоқчи бўлди. Тепкининг иккинчисини мендан еди ва “иҳ”иллаб қолди.

-Неча тона юбординг ва қардан олдинг?

-Заҳирадан... 15 тонна...

-Аблаҳ! Заҳирани ҳам эгаллаб олганмидинг, ҳали? Ким олиб чиқиб берди? Шунқор, қоғоз бер бунга, ҳаммасини ёзсин. Бир бошдан ёз! Кимлар бор бу ўйиннинг ичида? Аслида биламан, аммо сен тасдиқлашинг керак. Биттасини яширсанг, бугун ҳаётингни охири куни бўлади.

Ғулом қўли қалтираб ёзолмади.

-Сен айт, Шунқор ёзади. Ҳе, титрамай ўл!-деди “Мухтарам”.

Анча одамни қўлга олган экан. Ичида нафақат хавфсиликдан, балки прокуратура, ички ишлар, девон ва ҳукуматдан ҳам рутбали одамлар бор экан.

-Ҳаммасини айтдингми?

-Ҳаммасини...

“Муҳтарам” яна унинг ёнига келиб, бир тепиб, роса сўкди.

-Сенга нима дедим? Нега ҳаммасини айтмайсан?

-Айтдимку...

-Укангчи? Укангни унутдингми? Ҳа?!

-У денгизнинг нарёғида ва бу ишларга алоқаси йўқ.

-Демак, тугадинг. Шунқор, буни олиб бор ва йўқот!
Йўқолгани ҳақидаги хабарни кейинчалик тарқатамиз.
Ўлиги сувдан топилганда!

Ғуломни елкасидан силтаб:

-Тур ўрнингдан,-дедим.

У масала жиддийлигини англади ва:

-Ҳаммасини айтаман,-деди.

-Азим элчининг ҳузурига борган экан. Элчи биз аралашмаймиз,-дебди. Шундан кейин укамни ишга солдик. У ўша ерда ҳукумат идораларига кириб чиқди ва рад жавоби олди. Шундан кейин Марказга чиқдим. Улар нархни жуда баланд қўйишди. Владични кўндириш қийинлигини айтиб, 15 тонна сўрашди.

-Нима бўлди? Шунча олтин куйди, пуффф... учиб кетди. Сен тварнинг касрингга... Энди қайтмайди!

Ичкариги хонада куёвлар кутиб туришган экан. “Муҳтарам” уларни чақирди ва рўйхатни берди. Ҳаммасини уйдан чиқарманглар. Ёнг деганини ёнгиллатиб қўясанлар. Шунқор, сан мана бу ярамасни ол, ертўлага тикиб қўй. Эҳтиёт бўлки, унинг шотирлари хабар топмасин!

Ғуломнинг икки қўлини орқага боғладим.

-Сен ҳам ҳали шу куйга тушасан,-деди.-Мен ҳам эдим сендек, сен ҳам бўласан мендек.

Шу пайт қўлларида автомат ушлаган бир неча аскар учқич салониға бостириб кирди. Улар биздан эмас, бегоналар эди.

16. Тобут

Бир сонияда хаёлим дунёнинг минг кўчасига кириб чикди. Атроф ўраб олинган. Йигитларим учқичнинг атрофида. Қандай қилиб булар ёриб ўтди? Аскарларга қарайман бизга ўхшамайди. Қандайдир ярим ҳарбий ёки қандайдир гуруҳнинг мансублари. Бундай пайтда жуда тез ҳаракат қилишим керак. Бошқалар билан ишим йўқ. “Муҳтарам”ни кутқазишим шарт. Кўз қирим билан у томонга қарадим. У эса парво қилма, деган ишора берди. Қуролланган кишилар югурганча орқа томонга ўтишди. Учқичнинг ўртасидаги мажлис залига юрдим. “Муҳтарам”ни бекитиб турган бўлдим.

-Хабаринг йўқми? Булар Бой отанинг боллари.

Индамадим.

-Қайтамиз, деб кўрсатма бердим. Улар нариги учқичда эдилар. Шунқор, сен бундай нарсалардан хабарсиз қолмаслигинг керак,-дея Бой ота мени масхара қила бошлади.

-Шунқорга бошқа ишлар буюргандим, шунинг учун хабари бўлмаган,-дея мени оқлаган бўлди “Муҳтарам”.

Хуллас, яна биз қоладиган улар “Дода” кўмиладиган жойга қайтиб кетадиган бўлишди. Азим ҳам улар билан бирга ҳавога кўтарилди. Азимни ҳар қандай қудуқдан

чиқа оладиган одам дейишганди, ишонмагандим. Ҳақиқатдан ҳам бало экан. Ҳамма ишни бошида ўзи турган бўлса керак. Бирок, сафдошларини сотиб, ўзи қутилиб қолди.

Ғуломни эса шаҳар ташқарисидаги махсус ҳовлига олиб бордим. Бу ерда ҳамма шароитлар бор. Қаттиқ кўриқланади. Интернетга кириш учун Раисдан рақам олиш керак. Ҳаммага ҳам бермайди. Муҳим меҳмонлари келгандагина беради. Ғулом шукур қилсин, ертўлага олиб бориб тикмадим. Ертўла хавфсиз эмас. Бунинг яқинлари, қариндошлари, тарафдорлари анчагина. Нима бўлганда ҳам уни соғ-салим сақлашим даркор. Тақдири нима бўлишини “Муҳтарам” билади.

Ғуломнинг оёғига қочса, жиринглаб овоз берадиган ва қисиб оладиган кишанни тақдик.

-Уч метргача бемалол юриб туришингиз мумкин,- дедим.-Майли телевизор ҳам қўйиб бераман. Агар ўзингизни ўлдиришга урунсангиз... бемалол.. бу сизнинг ҳаққингиз. Кутсангиз балки қуёшингиз қайтадан қулиб боқиши ҳам мумкин.

Тўғриси шу дамда унга раҳмим келди. Ким эди-ю ким бўлди? Шункор, бу сенга ҳам дарс бўлсин. Сен энг тоза деган жойларда кўраяпсанми нималар бўлмоқда? Жиддий деб юрган одамларинг кўчанинг жалабидан фарқ қилмайди. Осонгина сотилади, осонгина сотади. Буларга халқ бир тийин. Булар артист, сахнада бошқа, парда орқасида бошқа. Халқни томошабин, қарсакчи деб билишади.

Телевизорни қўйдим. Тинмай “Дода” ни мақташмоқда. Ўлганини эълон қилишибди. Уни авлиёга чиқариб улгуришибди. Биттаси бетини без қилиб:

“Дода” зилзилани олдиндан билардилар, деса бўладими? Бутун дунёнинг олимлари билолмаган нарсани у биларкан! Тавба!

Яна биттаси:

-Атрофда барча мамлакатларда уруш бўлаётганда “Дода” бизни тинч сақлади, дунёнинг қанчадан қанча раҳбарлари уни устозим дейди. У авлиё эди!-деди.

Хуллас, маддоҳ зотида на бет, на кет бўлади, деганлари тўғри экан.

-Кўрдингми, уни халқ қандай севарди. Сеникини ҳатто танимайди ҳам,-деди Ғулом минғирлаб.

Индамадим. Чунки хонадаги ҳамма ҳаракат видеога ёзиб олинмоқда. Буни у яхши билади ва мени тўрга илинтирмоқчи. Унга ҳаёлимда жавоб қилдим:

“Биласизми, қадимда бир золим шоҳ бўлган экан. Унинг даврида дарёларда қон оқар, қамчилардан жон узилар экан... У шунчалар золим экан-ки, бирор киши ҳам унга бу қилмишлари яхши эмаслигини айтолмас экан. Шундай кунларнинг бирида Ҳотамтойнинг йўли унинг ўлкасига тушибди. Халқнинг азоб уқубатларидан ларзага тушган Ҳотамтой саройга қараб йўл олибди ва шоҳни одилликка чорлабди. Шунда шоҳ:

-Сен халқимни танимас экансан, унинг еттидан етмиш яшарига қадар мени ўзига дўст деб билади. Сен бегонасан, сени душман деб билади. Ишонмасанг, ана Девонбеги билан халқ ҳузурига чиқинглар,-дебди.

Девонбеги ва Ҳотамтой қаерга боришмасин халқ шоҳни дўст дея улуғлаб, Ҳотамтойни душман дея ҳақоратлабди.

Саройга қайтишганда Ҳотамтой шоҳга:

-Улар Девонбегидан қўрққанларидан бир нарса дея олмадилар,-дебди.

Шунда шоҳ:

-Ундай бўлса, тунда жанда кийиб чиқингиз,-дебди.

Яна Девонбеги ва Ҳотамтой қаерга боришмасин ва кимдан сўрашмасин ҳамма Ҳотамтойни лаънатлабди. “Агар у бизга дўст бўлганда, бизни шундай қийин шароитга қўярмиди? У бегона-да, бизни билмайди-да, бизда нима қасди бор унинг?” дейишибди.

Саройга қайтишганда шоҳ яна Ҳотамтойни изза қилибди.

-Бечора халқ, икки кишидан бири жосус бўлиши мумкин, деб ўйлаб, чекаётган азоб-уқубатларидан сўз очмади,-дебди Ҳотамтой.

Шунда шоҳ:

-Бўлмаса бор, ўзинг сўра, қани нима дейишади?- дебди.

Ҳотамтой кўчага чиқса, ҳамма ундан юз буриб, узоқроқдан юрар, баъзилар эса минғирлаб уни сўкишибди. Бунинг сабабини сўрайман деса, уни тошбўрон қилишибди. У қонга беланиб ётганда, бир дарвеш унинг ёнига келиб:

-Кўрдингми, кимнинг душмани кўп,-дебди.

Ҳотамтой дарвешнинг овозидан танибди. Бу ўша шоҳ экан. Жанда кийган шоҳ. Халқ золим шоҳнинг ана шундай кезиб юришларини билар ва юрак олдириб қўйган экан. Сен сиғинган отанг ҳам худди шундай эди...”

Йигитларга тайинба-тайин қилдим ва ёзиб олинаётган видеоёзувни телефонимга боғлаб қўйдим. Истаган пайтда Ғуломни кузатишим мумкин. Унинг сокинлиги мени хавотирга солди. Нимагадир жуда ишонмоқда. Лекин бу жойни унинг ўзи ва Раисдан бошқа санокли одам билади. Унинг бу ерга олиб келганимизни тахмин қилишолмайди. Шунга қарамай, очиқ телефонда Раиснинг ёрдамчисига сим қоқиб:

-Ғулом ишдан олинди, унвонлари бекор қилинди ва ўзи “подвал”га ташланди. Биров у ҳақда сўраса, Раисни ёки мени хабардор қилинглар,-деб қўйдим.

Машинага чиқсам Зуҳра машинадан тушди.

-Нима гап?

-Кўнглим ғаш. Биласиз, у шунчаки оддий одам эмас. Марказга ўн беш тонна тилло етказиб берадаган кучга қодир одамнинг тарафдори кўп бўлади. Жиноят занжири очилиб кетмаслиги учун ундан қутилишни истаганлар жуда кўп чиқади. Ҳатто Марказнинг ўзи ҳам ундан қутилиш йўлини қидириши мумкин.

-Гапинг тўғри! Шунинг учун ҳам бу жойни танладим. Ҳеч кимнинг хаёлига келмайди.

У ўлдирилса, сояси “Муҳтарам”га тушади. У томонда Азимнинг вазиятини кўрдингиз. Бундай пайтда битта кичик хато ҳам бизни осмонга учириб юборади.

Зуҳранинг ўйлаш қобилияти жуда кенг. Унча-бунча эркакдан яхши ўйлайди ва яхши хулоса чиқаради.

-Нима қиламиз унда?-дедим Зуҳрага ён бериб.

-Менимча шу ерда қолишимиз керак.

-Қувноқ Ғулом билан суҳбатлашиб ўтирамизми?

-Қувноқ хотинингиз турганда-я?

- Қувноқлигини ўзидан эшитиб, ажабланиб қолдим. Сен жуда ҳам жиддийсан!

-Мана шундай қочириқ гаплар қилиб ўтирсак, ана уни қочиришмасин...

Қайтиб ичкарига кирдик. Қоровул йигитларни ҳушёрликка даъват қилдим. Алоҳида хонага кириб, егулик келтиришларини айтдим. Кўп олиб келишди.

-Ғуломга ҳам беринглар, очидан ўлиб қолмасин,-дедим.

Худога шукур эрталабгача ҳеч нарса бўлмади. Сахарлаб “Муҳтарам” телефон қилди.

-Тинчликми?-деди.

Юрагим шув этди. Бирор кор-ҳол юз бердимикан? Лекин бундай пайтда ўйлаб ўтиришга вақт бўлмайди.

-Тинчлик. Ғуломни ҳеч ким билмайдиган жойда сақлаяпман.

-Ўлдириб қўйма... Уни очик суд қиламиз. Булбулчадек сайратамиз ҳали. Бутун халққа кўрсатамиз унинг кимлигини, қанақа қаҳрамонлигини... Уни ишончли одамга топшир, Зухра ҳам ўша ерда турсин. Ўзинг тобутни ҳозирлашга бор. Жасадни бугуноқ юбор, машинада. Бир кор-ҳол бўлмасин, деб шундай қарор қилдик. Сенга ишондим. Эҳтиёт бўл! Ўзинг сохта тобут билан бирга келасан. Яхшилаб қўриқла!

Бир ҳисобдан кўмиш маросимини кечиктиришгани яхши бўлди. Тайёргарлик кўриш учун вақт керак-да.

“Дода”ни касалхоналарда айлантриб юрган йигитларни топиб, топширикни бердим. Боргунча вилоятдан вилоятга ўтганда мени хабардор қиласизлар, дедим.

Сохта тобутни ҳозирлаш ҳам қийин кечмади. Уни ҳукумат касалхонасининг моргига келтириб қўйдик.

“Муҳтарам” ҳушёрликка чақирганидан, тушундимки қандайдир маълумот олишган. Акс тақдирда жасадни алоҳида, тобутни алоҳида олиб боришни буюрмасди.

Шундай дейману тепадаги майнавозчиликларни кўравериб, хулоса чиқаришга ҳам қийналиб қоламан, баъзан. “Муҳтарам” хаёлига нима келса, шуни қиладиган одам. Ҳатто хатолигини билиб турса ҳам ўша ҳужжатга имзо отади. Кейинчалик хатонинг ортидан катта хатолар келавергач, бекор қилиб, сўзидан қайтиб қўяверади. ”Дода”нинг пайтида шунга ўрганишди. Ҳар қандай қарор ёки фармонни тайёрлашда кўп одамлар қатнашади. Фикрлар олинади. Олимлар кўриб чиқадилар. Ундан кейин “Дода”га имзога борганда, у битта гап билан орқага қайтарарди. Шундай ҳоллар бўлардики, олдинги ҳужжатнинг мутлоқ тескарисини ёзиб кел, деса шуни ёзиб, ҳаммага тасдиқлатиб, кейин “Дода”га кўрсатишарди. Энди ўзи унинг ўрнида. Билмадим, нима бўлади?

-Қўналғага борадиган йўлни ўзгартирмоқчи бўлдим. “Берия” ҳовлиқиб келди ва:

-Биз одамларни шу маршрут бўйича чиқишга ҳозирладик,-деди.

-Кимни?

-“Дода” билан видолашувга чиқаман деган халқни.

-Талабалар эмас-ми?- Ўзимни гўллика урдим.

-Улар ҳам халқ,-деди маслаҳатчи ва гапи ўзига қўпол туюлди, шекилли:

-Топшириқ шундай бўлган,- деди.

Биламан, “Муҳтарам” бундай топшириқ бермаган. У тасодифий ҳолатдан ҳам чўчиб турибди. Уни шунга кўндиришган. Маслаҳатчи яна гап қўшди:

-Халқимиз жуда яхши кўрарди раҳматлини. Бизга отадек бўлиб қолган эдилар. Видолашувга чиқмаса, одамлар жуда норози бўлишади.

-Гул ҳам буюрдингизлар-ми?-дея пичинг қилдим. Маслаҳатчи чин деб ўйлади:

-Ҳа, гулчиларни бой қилдик. То қўналғага боргунча йўлларга тўшаб чиқишади. Талабаларга ҳам тарқатилади. Бутун дунё кузатади, ахир, бизга баҳо беришади. Ҳозирнинг ўзи ҳаммаёкни журналистлар босиб кетди. Қани булар биринчи раҳбарига қандай ҳурмат кўрсатишди, деб ўйлашлари аниқ. Эҳҳе, келаман деган раҳбарларнинг сон саноғи йўқ. Юборилаётган ҳамдардлик мактублари хоналарга сиғмай кетаяпти...

Биламан, мактублар қандай ёзилишини. Индамадим. Маслаҳатчи индамаганимдан чўчиб қолди ва тинмай гапира бошлади.

-Сиз ишонмаслигингиз мумкин, аммо халқимиз ўз отасини йўқотгандек қайғурмоқда. Қайси бир хонадонга кириб боринг, ҳамманинг кўзида ёш, йиғи-сиғи. Ҳурматли “Муҳтарам”га осон бўлмайди. “Дода”нинг юки жуда оғир.

Унинг бу гапи менга ёқмади. Қандай журъат қилди бу гапни айтишга? Балки бу ҳам ўзини суғурта қилиш учун йўл қидирмоқдами?

Кайфиятим чўккандай қилиб кўрсатдим ўзимни. Маслаҳатчининг қоши чимирилди. Авзойи бузилди. Хато қилиб қўйганини тушунди.

-Аслида “Муҳтарам”дан бошқа одам давом эттира олмасди. Фақат ва фақат у киши бу ишни уддалаши мумкин. Худойим, яхши одамни берди бизга. Ана энди ривожланишни кўрасиз. “Муҳтарам”нинг оёғидан олов чакнайди. Кўрасиз, коррупсияни ҳам йўқотадилар!

Нима деяпти бу? “Берия”нинг ўзи ҳам билади. Аксар одамларнинг қарашлари муқим эмас. Инсон шундай тузилганки, унинг ўзи каби қарашлари ҳам ўзгариб туради. Бунга вақт, давр, воқеалар, тажриба ва бошқа омиллар сабаб бўлади. Манкуртгина бир умр бир зайлда қолиши мумкин. Булар бугун “Дода”ни севсалар, эртага “Муҳтарам”ни улуғлайдилар.

Ҳамма ўзгариши мумкин, аммо “Дода” ўзгармади. Буни вақт кўрсатди. Унда инсоний фитратдан шайтоний иллат кучлилик қилди. Юртни коррупцияга ботирди.

Бу жуда ёмон хасталик. Қўл билан ушланмайдиган ва кўз билан кўриб бўлмайдиган, аммо ҳар қадамда ва ҳар лаҳзада ҳис этиш мумкин бўлган иллатдир.

Диктатура жамиятида ҳамма нарса диктаторга боғлиқ. Чунки бутун жиловлар унинг қўлида бўлади. У истаган одамни йўқотиши ва истаган ишини қилиши мумкин. Аммо у коррупцияни йўқотишга қодир эмас. Чунки унинг ўзи коррупцияга, коррупциянинг тимсолига, коррупциянинг ўзагига айланган бўлади. Унинг

коррупцияга қарши ўт очиши ўзига қарши ўт очиши
демакдир.

Коррупция диктаторнинг нафас олувчи ҳавоси.

“Дода” икки гапнинг бирида шу ҳақда гапиради.
“Берия” ёзиб берган, у ўқиган.

Ҳар нутқида коррупция борлигини тан оларди ва бунга
қарши курашга бел боғлаганини айтарди. Лекин
коррупцияга қарши чиқса, куни битишини ҳам биларди.
Шунинг учун бу борада гапириш мумкин, аммо бирор
иш қилинмайди. Уч тўртта раҳбарни қамаб туриш бу
коррупцияга қарши кураш эмас.

Ўргимчак уяси ва унинг ўртасидаги ўргимчакни
тасаввур қилинг. Бу уяни тўқиган ўргимчак шу уянинг
бандига айланган. У мана шу уяда оёғидан осилиб
ўлади, аммо бу уяни буза олмайди.

“Берия”ни гапи хаёлимни бўлди У шунақанги мақтай
бошладики, ҳатто “Муҳтарам” ҳақида ҳозирданоқ китоб
ёзишга киришганини ҳам қистириб кетди.

Бирдан:

-Дарвоқе, табриклайман сизни, катта вазифага ўтдингиз.
Энди ҳар бир одимни сиз билан бамаслаҳат қиламиз,-
деди.

“Муҳтарам” бу одамни яхши кўради. Уни
узоқлаштирмаслиги аниқ. Янада яқинга олади. Шунинг
учун у билан душманлик қилишнинг фойдаси йўқ.
Шунқор, у сенга ялинган каби муомалага ўтди. Битта
хатоси учун уни ўзингга душман қилмагин.

-“Дода”ни сиздан яхши биладиган одам йўқ.
“Муҳтарам”нинг ҳам ҳурмати баланд сизга. Яхши-яхши

гаплардан ёзиб берсангиз, кўрасиз, охиригача ёнларида олиб юрадилар.

У устидан қор кўчган тоғдек “енгил тортди”. Аслида қор тоғ учун ҳеч нарса, аммо ҳамма ёғини очиб кетади.

Телефон жириглади. Одамлар, кимдир гапимни гапираяпти, деб кулоқларини қашиб қўйишади. Қандайдир ҳақиқат бор бунда. Мана “Муҳтарам” ҳақида гаплашаётган эдик, ўзи сим қоқди:

-Қаердан бўлса ҳам “Берия”ни топ ва бу ерга етказ,-деди у.

Тасодифми бу? Ахир маслаҳатчи ёнимда бўлса? Шундай ҳолатлар кўп бўлади. Телепатия дейишади. Бироқ ундан ҳам таъсирлироқ куч бор атрофимизда, фақат биз уни билмаймиз.

-Телефонингиз борми?-деб сўрадим “Берия”дан.

-Бор, аммо шошинчда ишхонага ташлаб чиқибман, шоферни юбордим, келиб қолса керак?!

Саволни атайлаб бергандим. Демак, ростдан ҳам уни қидиришган ва топишолмаган. Бу эса икки-уч кечадан бери ухлай олмаган. Соқоли олинмаганидан ҳам билиниб турибди.

Шофери келиши билан унга:

-Хўжангизни уйига олиб боринг. Ярим соат вақт. Йўлга чиқинглар, сизларни кутишмоқда,-дедим.

-Яхши хабар, хавотир олманг, “Муҳтарам”нинг сизга махсис топшириқлари бор, етиб боринглар, омадингизни берсин!-дедим “Берия”га.

Унинг чехраси очилди ва яқинлашиб кучоқлаб олмоқчи бўлди. Елкасига уриб қўйдим ва у жилмайиб, машинага ўтириб кетди.

Тайёргарликни яна бир текшириб чиқдим ва ўзим ҳам уйга кириб, бироз дам олдим. Сўнг Зухранинг ёнига бордим, у билан боғни айланиб суҳбатлашдим:

-Тинчликми?-десам:

-Олдинги бошлиқ билан ҳангома қилиб ўтирдик. У кўп ҳаракат қилди, қўлга олишга. “Дода”нинг кулини кўкка соғуришлари ва “Муҳтарам” бунинг учун жавобгар бўлишни тахмин қилмоқда,-деди.

-Бу унинг тахминими ёки режасими?

-Мени авраши учун топган қуруқ гапи ҳам бўлиши мумкин.

Унга “Муҳтарам”нинг гапини эслатдим.

-Демак, шундай режа бор экан-да. Айтган бўлса, бунинг “Муҳтарам”га Азим айтган. Шундай қилган бўлса, ҳаётини қутқазибди.

-Бу режа фош бўлган. Олди олинди ҳам. Сен билан сохта тобутни қўриқлаб борамиз.

-Сохта тобут?

Унга вазиятни аниқлатдим.

-Ўғул “Дода”нинг кулини кўкка соғуриш ҳақида бир нима ҳаётини айтган. Балки бу ҳам ўғулнинг ичиди? Уни йўл-пўлда бирор нарса қилишмасин?!

-Кулини кўкка соғурса ҳам ҳеч нарса ўзгармайди.

Асл гапни Зухрага айтмадим. “Муҳтарам” кўрқмоқда, Раис ва Салимхон ҳам. Докторлар зиёфатни еб, мукофотларни олиб, шахсий врач нима деган бўлса, ўша асосида хулоса ёзишган. Қолаверса, “Дода”нинг ўзи ёзган васиятномаси ҳам ўртага чиқди. У хотини айтганига яқин. Фақат ўртада кўча бор. Яъни у тайёрланаётган жойга эмас, балки “мени отамнинг ёнига эмас, отамнинг қабрига қўйинглар”, деган. Отасини шунчалик яхши кўрганмикан? Йўқ. Отаси унга ёшлигида қанчалик муаммо чиқарган бўлса, умрининг охирида ҳам уни кўп ўйлатди. Интернетга қанчадан-қанча маълумот сизиб чиқди. Балки ўша гапларни босди-босди қилиш учун шундай қарорга келган бўлсачи? Агар отаси уни оқ қилган бўлса, унинг қабрига қўйинглар, деб васият ёзадими? Ҳар қандай одамни шу ўйлатади. Лекин отаси ётган жойни текислаб, кенгайтириб бўлмайди. У ерда онаси ва бошқа қариндошлари ҳам бор. Катта жанжалга айланиши мумкин. Шунинг учун унинг васиятини бажаришга қарор қилишган. Сохта тобут эса тайёрланган жойга қўйилади. Ҳақиқий жасад бу кеча кўмилади. Тахминимни Зухрага айтсам:

-Бир марта гапирдингиз, бошқа гапирманг. Деворнинг ҳам кулоғи бор,-деди у.

-Боғдамиз-ку? Бу дарахтларга кулоқ қўйилмаган, шекилли? Қолаверса, жуда сокин гапираяпмиз. Ёзиб олинганда ҳам сени қўлингга келади.

-Ўзингиз сезаяпсизми, йўқми, жуда эркинлашиб кетаяпсиз?

-Эркинроқ жойга ўтдим-да, асосийси ёнимда сен бор...

Зухра хаёлга ботиб қолди. Шу дамда нима дейман унга? Овунчоғим хаёл. Бир нарсани тушунгандайман. “Муҳтарам” мени тансоқчиликка олди. Аммо махсус топшириқлар бўйича ишлайдиган, худди “Тайчи” каби “кирли ишлар”ни бажаришга олмаган бўлсин-да. Менимча шундай. Акс тақдирда у бошқа шаҳарда ва камина бошқа ёқда юрармидик?

Ишқилиб, олиб борган йигитлар эсон-омон қайтишсин. Ўзимнинг яқин йигитларимни жўнатибман-а? Ҳаҳ, Шунқор ҳали ҳам хомсан! Агар уларга бир нарса бўлса, узоқ вақт ўзингни кечиролмай юрасан.

Ичкарига кирдик, Ғулом ухламади. Уни англаса бўлади. Ҳаёти остин-устун бўлиб кетди. Чўққидаги одам онийдан йиқилиб тушса, етмиш икки суяги синади, деган гап бор. Унинг аҳволи баттароқ. Биз-чи? Биз нега ухлай олмадик? Чумчуқ уйқу билан тонгга етдик.

Бирдан Ғуломнинг қаҳқаҳа отиб кулгани эшитилди. Зухра билан ўша томонга отилдик.

17. Ғуломнинг ҳужуми

Эшикдан ичкари киришим билан бошимга мушт тушди. Бир сонияда айланиб, мушт урган қўлни қайириб, орқасига тиззам билан тепиб юбордим. Юзи билан ерга йиқилди. Шунча жони бор экан, бу қандай қилиб катта лавозимга чикди? Кўзим оёғига тушди. Оёғидаги элетрон кишан йўқ. Атрофга назар солсам, кишан уйнинг бир четида ётибди. Қандай қилиб очди? Наҳотки, биз қўйган рақамларни топа олди? Уни турғазиб, диванга ўтказиб қўйдим.

-Кўрдингми, Шунқор! Раисинг ҳам, каттаси ҳам сенинг мана шу хом калланга ишонади. Мен эса ухламай, бунинг сирини ечдим.

-Ечишга ечибсан...

-Сенсирама мени,-дея у ўдағайлай бошлади.

-Мени сенсираш мумкин, бизга сизни сенсираш мумкин эмасми? Хурматингизни қилиб тургандим. Аммо ғирт каллаварам экансан. Оёғингдагини ечибсан, мен кирганда бошимга ўша билан урмайсанми? Ўшанда сени ҳали ақлини йўқотмабди, деб ўйлардим.

-Сенга раҳм қилдим... Майли, сенсиранимга хафа бўлма. Ишхонада ҳаммани сенсирашимни билардинг. Сиз-пиз деб ўтиришга тоқатим йўқ эди. Сиз дейишга тилим айланмайди, кўнглингга олма.

Унинг калласи ғовлаб кетган ва бир қанча ражаларни тузганга ўхшайди. Акс тақдирда ҳам тепки еб, ҳам ялақилик қилмасди.

-Кодни топган одам қаҳқаҳа уриб кулади-ми?-дедим юмшоқ оҳангда.

-Сени устингдан кулдим,-деди у, хаёлимни уқиб тургандек, манзиратдан масхара қилишга ўтиб. Жаҳлим чиқди:

-Энди навбат менга. Қаҳқаҳангни эшитганлар бор. Мана Зухра ҳам шу ерда. У ҳам гувоҳ. Ақлдан озибсан. Жойинг жиннихонада. Ҳозир чақирамиз, энди оёғингга электрон кишан қўймаймиз, оппоқ халатга ўраниб ётасан!-дедим кескин оҳангда. Сенсирашим уни сергак торттирди.

Зухрага қайрилиб:

-Телефон қил, жиннихонага олиб бориш учун машина юборишсин,-дедим.

Зухра “хўп” деб эшикдан чиқаётганди:

-Зухра, тўхта,-деди Ғулом.- Агар ёмон ниятим бўлганда, Шунқорнинг ўзи айтган каби бошидан дарча очган бўлардим. Атайлабдан кулдим ва келишларингизни билардим. Ҳамкорлик таклиф қилмоқчиман.

-Кимга? Бизга-ми?

-Санлар билан нимани ҳамкорлик қиламан. Оёққа кишан тақиш-тақмасликними?-У яна масхараомуз тиржайди.

-Ҳа, ким билан ҳамкорлик қилмоқчисан? Владич биланми? Отанг бўладими у, сенга кулоқ солсин?

-Сенсирашни бас қил! “Шум” билан ҳамкорлик қилмоқчиман. Бориб айт унга.

Буйруқ берадиган ҳолда эмассиз? Ҳатто савол беришга ҳам ҳаққингиз йўқ. Сиз тоғдан қуладингиз, худди орқасига сочма ўқ еган какликдек.

Ғуломнинг каклик овига чиқишини билардим. У тоғни тепасига чиқиб, сочма ўқ отиб, каклик овлаши ҳақида эшитгандим. Айниқса қишда бу иш осон. Каклик жонивор бошини қорга тикиб, орқасини осмонга “тираб” ётади. Гапим унинг нозик ҳисларини титратиб кетди, шекилли.

-Мен жиддий айтаяпман. “Шум”нинг ҳаёти хавф остида, саноқли соатлари бор!

-Ҳамма ҳам кафасга тушганда чиқиш учун баҳона излайди.-Биринчидан, у “Шум” эмас, “Мухтарам”.

Иккинчидан, у сиз билан гаплашмайди. Тақдирингизни менга топширди.

Уни сизлаганим учун Ғулом “усул”ни англади. Кимнидир синдириш зарур бўлса, ҳурматини жойига қўйиб, иложи борица дўстлашиб, калласидаги қудук қовланади. Бироқ Ғулом ҳеч қачон бу усулга риоя қилмаган. Қаршисидаги гумондорнинг бошига халта кийгизиб, тепишни яхши кўрган. У қўллаган кийноқ усуллари дунёнинг бошқа жойларида одамнинг хаёлига ҳам келмаса керак. У бир амалдорни синдириш учун унинг қизига келишган, хушбичим йигитни тиқиштирган. Қиз “тегаман”, йигит “оламан” бўлган пайтлари ҳамма ҳолатни магнит лентасига ёзган. Кейин терговда отасига кўрсатган. У юрагини ғижимлаб йиқилган. Ярим тунда олиб бориб кўмишган. Маълум бўлишича, ўша амалдорнинг айби йўқ экан. Ҳамма ишни вазир бажариб, ўринбосарини айбдор қилишган. Гап -сўз кўпаймасин, деб ўн гулидан бир гули очилмаган қизни ҳам йўқотган. Раис ҳужжатларни тўплаб, “Дода”га олиб борганда:

-Буни Ғуломга топшир, текшириб чиқсин,-деб ҳатто гап нимадалигини ҳам охиригача сўрамаган. Шундан кейин Раис ва Ғулом икки итга айланди. Бир-бири кўрганда тишини ғичирлатадиган даражага етишди. Хаёлга ботганимни кўрган Ғулом:

-Бизнинг ишда хаёлпарастлик мағлубиятнинг белгисидир,-деди.

-Сизнинг ишингиз қолдими?

-Раисингга кўп орқа қилма. Ҳамма ёқни расво қилган ўша.

-Агар “туз”ингиз Раис бўлса, “Муҳтарам”ни бу қизиқтирмайди.

-Ростдан шундай деб ўйлайсанми? Унинг хориждаги мулк адресларини билишни истамайдими? Қайси мамлакатда қанча тилласи борлигини ҳам билишни хоҳламайдими? Адреслари ва рақамларигача бор. Қўлёмалар институтидан йўқолган Қуроннининг дунёдаги ноёб нусхаси қаерга йўқолганини мендан бошқа ҳеч ким билмайди. Миллий Университетдан ҳам минг йиллик қўлёмаларни у хориждаги уйига жўнатган. Бошлигинг эди. Сен ҳам... ҳа, кел, ёш болага ўхшаб аразчи экансан, сизлай қолайин, ҳаммасидан хабарингиз бор укам! Агар очилиб қолса, бошингиз дорда. Кўпларини ўзингиз ташиган бўлишингиз мумкин-да?

-Мени шантаж қилмоқчимисиз?

-Ҳа, йўқ, мен не-не диндорларни синдирганман. Муҳолифатман деганларини одам бўлганига пушаймон қилдирганман. Нечтасини нариги дунёга жўнатганимни ҳам биласан. Сен билан ишим йўқ. Сен пиёдасан, ука. Гуноҳсиз “пешка.” Бажар, дедими, бажаргансан! Ўрнингда мен бўлсам ҳам шундай қилардим.

-Янги “тактика” қўллаяпсиз. Агар сиз айтган ишда қўлим бўлса, демак сизнинг ҳаётингизга нуқта қўйишим керак. Мантиқ кўрмаяпман.

У менга тикилиб қолди. Кўз уриштирмоқчи, шекилли, дедимда, нигоҳимни унинг кўзига қададим. У чидай олмади ва суҳбатда давом этди:

-Мен эса мантиқ кўраяпман. “Муҳтарам” сенга бунинг бир дона ҳам сочи тўкилмасин деган. Буни

тушунмайдиган даражада ахмоқ эмасман. Акс тақдирда бу жойда сақламас эдинг. Аллақачон гум қилардинг!

-Хўп, сиз айтган каби бўлсин. Лекин “Муҳтарам” эшитишни истмаса-чи? Кўрдингиз сизга қандай “хурмат” кўрсатди.

-Бизнинг ишда бугун тоғдасан, эртага ғорда. Ҳаммасига тайёр бўлиш керак. Ғордан чиқиб, яна қояга кўтарилиш учун куролингни ҳозирлаб қўйишинг лозим. Бугун ҳурмат қилмаса, эртага тушунади. Бир оғиз гапи билан сув ўзанига қайтади. У мен билан учрашмаса ва одамга ўхшаб гаплашмаса, ўзи билади, менинг аҳволимга тушади. Соатлар қолди. Бутун оиласи тузоқда. Уларнинг бугунгача қилган ишлари видеога олинганини сен билмасанг, ана Зуҳра билади. Нусхасини унга ташлаб қўйганман. Бор ва каттанга айт, Хитой отларининг сирини ҳам, видеоларни ҳам ташқарига чиқарганман. Агар менга бир гап бўлса, ҳаммаси интернетда пайдо бўлади. Қудаси ҳақидаги ҳужжатлар бутун дунёнинг диққатини тортади. Ўзи ҳақида ҳам далиллар етарли. Унинг далада сигирни отаман, деб бир болани отиб қўйгани ҳам видеога тушган. Ўша боланинг ота-онаси қаерда ҳозир, биласанми? Билмасанг, бориб суриштир. Қани, топа оласанми?

-Шуми ҳаммаси?-дедим худди айтганлари диққатимни тортмагандек кўрсатиб.

-Йўқ, бу ҳамир учидан патир. Биласан, наркотрафикни мен назорат қилганман. Келадиган даромад фақат менда қолди деб ўйлайсанми? Сен бир пайтлар катталарнинг хонимчаларига тарқатган пулнинг илдизини қаерда деб ўйлайсан?

-Бу гаплар билан хеч нарсага эриша олмайсиз. “Муҳтарам”га қизиғи йўқ. У сизни қамокқа тиқиб қўяди. Олам гулистон! Бир умр қамокда ётасиз ва маълумотларингиз ҳам ўзингиз билан бирга гум бўлади.

-Гум бўлмайдиганлари бор. Салимхон билан муносабатлари. “Муҳатарам”ингга эслат! Менда унинг Салимхонга бериб турган пулларининг рақамларигача бор. Бева холангга берганларини ҳам эслатиб қўй. Истаса, ҳамма видеолардан бир нусхадан бераман.

Ҳар қандай одам бир мақсадни кўзласа, ҳамма қартасини ўртага тўкмайди. Бунинг биладиган бошқа нарсаси бор. “Муҳтарам” билан юзма-юз гаплашса, бозорлик чун малзама деб сақламокда. Нима экан у? Олдингининг ҳам шундай қоронғу дунёси бор эди. Таржима ҳолидан бошлаб, Марказга ишлаганига қадар. Бу Хитой отларининг сири деганига қараганда, у ҳам аҳамиятли эмасга ўхшайди. Балки бу билмас, билганда оғзининг бир четидан осонгина чиқмасди бу гап. Нимаси бор бунинг? Нега бу қадар хотиржам. Бояги масалаларда уни чуқурроқ қовлаштираман бўлади, аммо Зухра борлиги ҳалақит қилмокда. Бу менинг ҳам қилмишларимни атайлабдан айтиши мумкин ва Зухранинг олдида мулзам бўлиб қоламан. Демак, гапни кўп чўзмасдан Зухрага жавоб беришим ва кейин бу билан гаплашишим керак.

Электрон кишанни қайтадан рақамлаб, Ғуломнинг оёғига тақдим ва ташқарига чиқдим.

-Нима қиламиз?-дедим Зухрага.

-Унинг биладигани кўп. Ҳозир айтганлари ҳам тўғри. Видеолар архивда турибди,-деди Зухра.

-Раиснинг хабари борми?

-Ҳаммасини билади.

-Нега унда йўқотмадингизлар?

-Раисни билмайсизми, ўзидан кейин дарё тошиб кетишини истайди. Ҳамма ёқ ағдар-тўнтар бўлишини хоҳлайди. “Барини асрайсан ве ҳеч ким билмасин”, деган.

-Энди мен кўрсам бўладими?

-Рухсат олсангиз бўлади.

-Кимдан?

Зухра бир зум ўйланиб турдида:

-Кимдан бўларди, каминадан-да,-деди жилмайиб.

-Ҳозирча уларнинг кизиғи йўқ. Буларнинг бари ёмон. Ҳаммасининг қўли қонга ботган. Ёмонлар тўдасидан бундайроғини қидирсанг, “Муҳтарам” бўлиб чиқади. Ғуломнинг ўзи ҳеч кимни ўлдирмаганми? Қулоғимга чалинганлари қанча. Менга архивдан у ҳақдаги нарсаларни топиб келсанг, уни яхшилаб сўроқ қилишимиз ва керак бўлса “Муҳтарам”га ҳисоб беришимиз лозим.

Зухра кетди. Ғулом ўтирган хонага кирдим.

-Ҳа безовта бўлиб қолдингми? Хонимчани жўнатиб юбордингми? Гувоҳнинг кераги йўқ! Ҳали сенга етиб келмадим. Сени ҳам тарихингни биламан. Охиргисини айтийинми, кимга сомса едириб ўлдирганингни билмайманми? Бегуноҳ одам эди? Раиснинг оддий тахмини билан ўлиб кетди. Раис сени алдади. Ватан деди, миллат деди, мамлакат деди. Шундайми? Унинг

ватани борми? Бор. Унинг ватани пул! Унинг миллати ҳам пул! Унинг мамлакати ҳам, имони ҳам, виждони ҳам кирли пул! Пул бўлганда ҳам ё кўкидан ёки сариғидан? Биласанми, унда сариғидан қанча бор?

-Сиз бу гапларни камера борлиги учун ўзингиздан тўқияпсиз,-дедим унга.

-Бу камеранинг видеоси сени кўлингга тушишини билмайманми? Балки, аллақачон алмаштириб ҳам келгандирсан. Магнит лентаси чўнтагингда турган бўлиши ҳам мумкин.

-Хўп, шундай ҳам дейлик. “Муҳтарамдан буларнинг эвасига нима истайсиз?

-Нима бўларди? Ҳаётимни.

-Ҳаётингиз нархи шу қадар холосми? Айтганларингиз эвасига чумчуқнинг жонини ҳам қутқара олмайсиз. Ҳаётингизни сақлаш учун каттароқ рўқач керак. Сизни йўқотиш менга топширилган, аммо саккиз кундан кейин.

-Нега саккиз кун?

-Ўша кун “Муҳтарам” тантанали маросимда вазифани қабул қилиб олади. Ўшангача бу ерда яшаб турамин. Кейин... майли яхшилик мендан. Ўзингиз қай шаклда истасангиз, ўшандай қилиб бажараман. Сувга оқиз десангиз, сувга. Сомса ейман десангиз, у ҳам қийин эмас. Хуллас, орзуингизни ўйлаб қўйинг. Мен аскарман. Топшириқни бажараман. Сиз бўлсангиз ҳам шундай қилардингиз, тўғрими?

-Йўқ, ундай қилмасдим. Ўз раҳбаримнинг келажагини ҳам ўйлаган бўлардим. Мени тўққизинчи кун ўлдирсанг, ўнинчида раҳбарингдан айриласан!

Гапидан мантиқ топа олмадим. Мана ҳозир ҳам у ўртада йўқ. Тўққизинчида ўлган тақдирда ҳам ким хабар топарди?

-Шунқор бекорчи хаёлларга берилаяпсан? Мен ўша лаънати юлдузни бекорга олган эдим-ми?. Генералликни-чи? Қолаверса, жуда яхши биласан, идоранинг асосий қисми менга ишлайди. Менинг болаларим. Сен ўтган идорада ҳам кўпчилиги менинг болаларим. Уларни ўзим етиштирганман. Ҳозир ҳаммаси мени кидирмоқда. Кўча болалари-чи? Улар ҳам хизматимда. Кўр-кўрона иш қилмайман. Ҳаммаси режаланган. “А” план ишламаса, “Б” планим бор.

Худди ҳеч нарса бўлмагандек бамайлихотир гапираётган Ғулумни саволга тутдим:

-“В” ҳам борми?

-Бор, бу “Муҳтарам” билан учрашув ва ҳаётимни сақлаб қолиш.

-“А” планчи? Нима эди?

-Ишламади.

-“Б” ?

-Мана “Б”ни бошладик. Қўналғага Зухранинг гапига кириб боравердим-ми? Билардим, жуда катта ҳодиса борлигини. Лекин Марказ бунчалик осонга сотганини, Азим дарҳол тиз чўкишини хаёлга келтирмагандим. Бой ота ҳам ўйин қилди. Уни тушунаман. Сенга очигини айтаман. Йигитларим бу ерни топиб келишди.

Ишонмасанг, эшик оғаларидан сўрагин. Оёғимни ҳам очган улар. Сен ва Зухрани ўлдиришимиз ва кетишимиз мумкин эди. Бундай қилмадим. Қаерга кетаман!? Чет элгами? “Муҳтарам”га ва Раисга бу жуда аскотади. Мени хоин деб эълон қилишади. Тухматчи, ватанга тош отувчи, хиёнаткор... ва ҳоказо ва ҳоказо. У ёқда ҳам тинч юра олмайман. Мени ушлашади ва сенларга сотишади. Қўлимда эса ҳаётимни қайтиб оладиган куролим бор.

-Нима экан у?

-Сен билан эртақ айтиб ўтиришга вақт йўқ. Бу ердан ҳеч қаерга кетмайман. Бор, “Муҳтарам” билан гаплаш. “Дода”нинг сўнгги соатлари ёзилган видео ҳам менда. Уни ташқарига чиқарганман. “Муҳтарам” ҳаётимни қайтиб берса, айтаман, бориб олиб келасан барини. Сенга ёлғон гапираётганим йўқ. Зухрага айт, тўртинчи сейфни очсин. Нусхаси ўша ерда. “Муҳтарам”га кўрсат. Ҳаммаси имми-жиммида бўлади.

-У барибир сизни кечирмайди.

-Кечирмасин, аммо ҳаётимни қайтиб берсин. Майли суд қилсин, қамасин, аммо тирик қолишим керак. Вақт ўтиши билан “Муҳтарам” юмшайди.

Унинг ёнида Зухрага телефон қилдим, ва тўртинчи сейфдаги касеталардан Ғулом айтганини олиб келишини сўрадим.

-Мана бу бошқа гап. Энди жиддий ишга ўтдик. У ҳолда Зухрага айт, менинг хонамдаги сейфда ҳам битта флешка бор, уни ҳам олиб келсин. У сен ҳаққингда, сенинг одимларинг ҳақида, ўзинга ҳадя қиламан. Отам

деганинг Раиснинг сенга қарши қилган жиноятини кўрсатаман.

Индамадим. У мот қилмоқчи мени, деб ўйладим.

-Гапларимга ишонмаяпсанми? Бор қоровул билан гаплашиб кел!

Ташқарига чиқдим. Шунча вақтдан бери нафас ололмай қолган кишидек чуқур нафас олдим. Худди алвастининг қўйнига тушиб қолдим у мени аврамоқда. Қоровулга:

-Кеча сизларга тайинба тайин қилган эдим, нега бегоналарни киритдингизлар?

-Ока, бегона келган эмас, “Дода”нинг бош соқчиларидан бири келди. “Ғинг” десанг, Шунқор билан бирга ўласан,- деди. Унга бўй сунмасдан жонимиз нечта. У бевосита раҳбаримиз бўлади.

Бу давлат эмас, девонахона экан! Наҳотки, шу даражада лақиллатишди сени, Шунқор? Ўзингни ақилли деб юргандиг-ку? Энди нима қиласан? Ғуломнинг сенга қандай ҳадялари бор? Уни бошқа жойга кўчирасанми? Энг хавфсиз жойда қовун туширдин-ку? Бошқа жойда нима қилардинг. Улар сени кузатишган ва сезмагансан. Ўл бу кунингдан, галварс! Қопқонга тушдинг! Қочиб чиқаман десанг, “пақ” этади ва тамом. Қопқоннинг ичида қачонгача турасан? Йўлини топ, Шунқор! Битта йўли бор, Ғуломни “Муҳтарам” билан юзма-юз учраштириш. Акс тақдирда бошимиз ғавғодан чиқмайди. Йўқ, Ғуломнинг биринчи хужумидан кейиноқ, мот бўлдингми? Кутиш керак. Бундай пайтда шошмаслик олтин қоида! Сабр, сабр дейишадику? Сабр мана шундай пайтда керак, Шунқор!

Зухра келди, авзойи бузук.

-Сизга берганини кўрманг! Илтимос,-деди у ялиниб. Кейин бўйнимга осилиб йиғлади.

-Илтимос, илтимос, уни кўрманг!

-Ғуломнинг ишончига киришимиз зарур. Унда ҳақиқатдан ҳам кўп нарса бор! Ҳаммасини олиш ҳақида ўйлашимиз даркор...

Зухра гапираяпти, аммо менинг хаёлим флешкада. Унда нима бор экан? Балки, Ғуломга беришдан олдин, ўзим кўрсаммикан?

-Ғуломга беришдан олдин кўриб чиқаман, кейин у билан гаплашаман,-дедим Зухрага.

-Ундай қилманг. Сўнг ҳеч нарсага эриша олмаймиз. Ҳозир нима бўлса ҳам унинг ишончини қозонишимиз зарур. Ҳақиқатдан ҳам, жуда кўп одам унга ишляпти. Чиқишимдан қайтишимчага кузатишди. Очикдан очик кузатишди. Ҳатто:

-Буни акага етказинг, қон босимлари бор, дорилари,-деб безбетларча мана буларни бериб ҳам юборишди.

Шунчалар кучлими бу? Давлат ичида давлат қурганми? Бунга қандай эришган? Нега Раис олдини олмаган? Эшитардим баъзи гапларни, аммо бунчаликка борганини тахмин ҳам қилмагандим.

Зухра келтирган нарсаларни Ғуломга бердим.

-Мана энди ҳамкорлигимиз бошланди. Шунқор, сен чик ва мана бу флешкадаги ёзувларни кўр, кейин гаплашамиз сен билан,-деди Ғулом мамнун қиёфада.

Зухрага қарадим. Кўзида ёш ғилтиллаяпти. Боши билан йўқ ишорасини қилди. Ўтибор қилмадим ва флешкани

олиб, ташқарига чиқдим. Юрагимнинг уриши аввал кўкрагимда эшитилди, кейин қулоқларимга кўчди. Зухра югуриб келди орқамдан:

-Кўрманг, мен ўзим айтиб бераман.

-Бу сен билан боғлиқми?

-Қанийди, мен билан боғлиқ бўлганда. Бу сиз билан... ўзингизни қўлга олинг. Менга сўз беринг! Ўзимни ушлашга қодирман, деб сўз беринг!

-Нима бало эди бу, нега бунча ялинаяпсан?

-Мен ҳам билмас эдим. Бугун билдим. Келгунча, йиғлаб келдим. Бу сизни “портлатиб” юборади. Ўзингизни бирор нарса қилмасангиз, бас! Балки, билганингиз яхшидир?!

Флешкани телефонга боғлайман деганда сездимки, қўлим қалтираяпти? Кўрмасдан туриб, шунча титроққа тушдинг, Шунқор, кўргач нима қиласан?

18. Ватан

Флешкани ишлатаман деб турганимда Зухра келиб қўлимни ушлади:

-У сизни синдирмоқчи, ўзининг йўлига солмоқчи! У тулки! Одамни гарангсителиб, бошқаришни билади. Бунинг учун ҳар нарсани тайёрлашини ва одамни қандай “жинни” қилиб қўйишини билмасангиз, мана мен биламан. Керак бўлса, товушни ҳам ўхшата оладиган энг сўнгги қурилмани сотиб олган. Суратингизни ҳам уйдиради. Мана бу ерда эски “қулоқлар”, ғариб усулларда магнит лентасига ёзилади. Аммо Ғуломнинг қўл остида Исроил ва Хитойда яратилган энг ноёб технология бор.

Зухра тўғри айтаяпти. Бу ердаги ва бошқа қароргоҳларимиздаги ускуналарни янгилаш учун кўп мурожаат бўлган. Тепадан қоп-қоп пул тушган. Бир эмас, ўн марта. Лекин янгиланмайди. Раис эса буни бошқача изоҳлайди. “Бугун технология илгарилаб кетди. Ҳамма янгисининг кетидан қувмоқда. Эскиси мустаҳкам ва қўлга киритиш учун уриниб ҳам кўришмайди”, дейди.

Бу кесак билан танкка қарши чиқишга ўхшайди, десангиз, Раис “атрофга қара, энг кучли давлатларни дронлардан кўра, якка худкушлар қўрқитади”, дейди. Магнит тасмалар қалашиб ётибди, уни эшитаман деган қулоқ йўқ. Фақат керак бўлгандагина ҳафталаб кидириб, топилган жойини флешкага ўтказишади. Эҳ, “дам-дам”, намунча “ҳардам” бўлиб қолдинг! Ҳозир шу ҳақда ўйлайдиган вақтми?

Тўхта, Зухра нега бу қадар қаршилик қилмоқда? Айтган гапида жон бор. Ғулом мени синдирмоқчи бўлса-чи? Менинг кўлим билан иш бажармоқчидир балки? Тулкининг туллагига бу!

-Аввал мана буни эшитиб кўринг, балки видеони кўришга ҳожат ҳам қолмайди,-деб Зухра хаёлимни бузди.

-Бу нима?

-Бу дода ўлдирилган оқшомда Раис ва Ғулом орасидаги тортишув.

Эшита бошладим. Ғулом жаҳл билан Раисга юзланган.

“-Нима қиляпсизлар? Марказ биладими? Бу топшириқни Марказдан олиб келдингизми? Нега мени четладиларингиз? Ахир биринчи ўринбосарингиз

бўламан-ку? Нега “Дода”ни ўлдиришга буйрук бердингиз?

-Агар сизга айтилмаган бўлса, демак билишингиз керак эмас. Гапингизни ўйлаб гапиринг, ҳеч қанақа буйрук берилган эмас!

- Унда сизлар давлат тўнтариши қилдингизлар...

-Давлат дегани бир киши эмас! Бир кишини тўнтарса, давлат тўнтариши бўладими? “Дода”нгиз ҳаммаёқни тикқан жойига тикқанди. Давлат титилиб кетди-ку! Сиз ўзингизча ҳар қанақа хулоса қилаверманг!

-Агар хулоса қиладиган бўлсам, бу жинойт учун ҳаммаларингни ҳозироқ қамоққа олишим керак эди.

-Ўпкангизни босинг,ука! Бировни қамайдиган бўлса, мана мен қамайман! Истасам, ҳозироқ сизни ертўлага тушираман.

-Оҳ-ҳо, иштаҳангиз катта-ку! Ваколатларимиз деярли тенг эканлигини биласиз-ку! Қолаверса, менинг қаҳрамонлигим, ватан учун фидойилигим ўртада.

-Ватан учунмиш? Ўша қаҳрамонликни сизга ким олиб берган?

-Ҳар ҳолда сиз эмассиз! Қаршилиқ қилганингизни “Дода” менга айтмаган деб уйлайсизми?

-Айтганми, айтмаганми, у энди йўқ, аммо “Олтин Юлдуз” учун тавсия ҳужжатда менинг имзойим турибди! Керак бўлса ҳозир ҳам қайтиб олишим мумкин.

-Кучингиз ет са, қайтиб оласиз! Ҳозир мана шу ернинг ўзида сизни бир ёқлама қилишим мумкин.

-Бу сўзларингиз учун жавоб беришингни биласизми? Суҳбатни ёзиб олаяпман. Сиз билан гаплашишнинг бошқа йўли йўқ!

-Мен ҳам ёзиб олаяпман! Сизни ўлдираман демадим, истасам ўлдиришим мумкин, дедим. Сизни судга олиб чиқаман ва бутун жиноятларингизни очиб ташлайман!

-Ука, шошқалоқлик қилаяпсиз. Сизнинг қилмишларингиз олдида менинг хатоларим уммондан зарра! Сизнинг нарқобаронлар билан қилиб юрган ҳунарларингизни билмайди, деб уйлайсизми? Тергов бошқармасидаги жаллодингиз орқали қанча гуёҳванд моддаларни шимолга қараб сурганингиздан хабардор эмасмизми?

-У ишда сизнинг ҳам қўлингиз бор! Нақд пуллар қаердан келди ва қаерга кетди? Улушингизни олмадингизми? Болтиқ бўйидаги қошоналарни мени тоғам сотиб олиб бердими? Марказдаги энг қимматбаҳо манзиллардан олган уйларилингиз-чи? Ҳожатхонасигача олтиндан. Комунистлар доҳийси Ленин халққа ваъда қилган олтин ҳожатхонадан сизда йигирма еттитаси бор.

-Ҳали ҳожатхона ҳам санаб юрибман денг?

-Хорижий банкларда сақланаётган бойликларингиз код рақамларини ҳам айтиб берайинми? Ҳаммасига “76816” деган пин рақами қўйганингизни ҳам биламиз. Етмиш олти ёшда, саккизинчи ой, ўн олтинчи йил... Тасодифми бу? Худодан сўраганмисиз буни? Жуда мос! Наҳотки буни 10 йил олдиндан режалагансиз?

-Ука, сиз чекист эмас, эртакчи амаки бўлибсиз. Бу ҳикояларингизни болаларга бориб айтиб беринг, балки

кулишар? Яхшироқ ўйлаб кўринг, у рақамларда бошқа гап бор!

-Додани алдаб, неча минг гуноҳсиз одамларни қамоққа тикдингиз! Буни ҳам болаларга айтайинми? Бўжи келаяпти, деб сизнинг номингиз билан кўрқитайинми?

-Ҳей хей, ҳамма қилмишларингизни менга тўнкаяпсизми? Тергов бошқармаси кимнинг қўлида? Қийноққа солиш гуруҳини тузган мен-ми? “Дода”га диндорлар ҳамма ёқдан ўраб олди, Раис сиздан яшираяпти, деганингизни билмайманми? Мухолифатчиларнинг уйини ким ёндирди? Ким уларни қамади, қийноққа тутди, гўрга тикди, қариндошларини қувғинга олди? Ҳатто хорижга бориб бир қанча юртдошимизни оттирган менми? Қўшни мамлакатдаги журналист йигитни мен оттирдимми? Марказдаги ўзимизнинг уч-тўртта ишбилармонни мен гум қилдимми? Битта имомни отиш учун миллионларни сарфлаб, шу ишни ҳам охирига етказолмаган менми?

-Ўзингизни фаришта қилиб кўрсатманг, Раис! “Дода”нинг қизи ҳақидаги машмашаларни интернетга сиздириб, қизини қамоққа тикқан сиз эмасми? Унинг ўғирлаган пулларини хорижга мен чиқаргандимми? Одамда озгина виждон бўлиши керак! Унга кўплаб мамлакатлардан қошоналар олиб берганингизни унутдингизми? У заргарлик билан шуғулланаман деса, тонналаб олтинни ташитган сиз эмасми? Эсингиздан чиқдими, тикучар воқеаси? Ўша олтинлар Марказда қолиб кетди!

-Мен “Дода”нинг қизини бой қилибман, сизчи? Ҳамма қариндош-уруғингизни идорага тикдингиз! Ҳатто укангизни ҳам!

-Укам ҳақида гапирманг! У тоза йигит. Шунинг учун ҳам “Дода” уни чет элга ишга юборди.

-Ҳа, шуни айтаяпман мен ҳам. Укангиз жуда-а “тоза одам”. Дипломатик йўл билан нималарни қаерга ташиганини айтиб берайинми? Уммоннинг нарёғида сизга атаб дарё бўйида қурган уй-жойларни санаб берайинми? Бойликларини қайси кампирнинг ҳовлисига яшириб қўйганингизни ҳам билмайди, деб уйлайсизми?

-Мени укам йиққан бўлса, сизни ўғлингиз йиғди. Давлатни ҳимоя қилиш ўрнига сотдингиз! Бошқаларни ватан хоини дейишни яхши кўрасиз, аммо ватанга энг катта хиёнатни сиз қилдингиз!

-Сиз ҳам ўша хоинлардан биттаси! Кўп ҳам оғзингизга эрк берманг! Бошингизда қора булутлар айланмоқда.

-Кўрамиз, Худо хоҳласа, пагонингизни юлиб, пешанангизга ёпиштириб қўядиган кунлар яқин! “Дода”ни ўлдириб, ҳаётингизни энг катта хатосини қилдингиз! “Дода” уч марта ишдан олганда ҳам сиз уни қайта тиклашга муваффақ бўлдингиз, энди уни “Дода”нинг ўрнига чиқаришга уринаяпсиз.

-Ҳа, сиз ҳар дом компромат тўплаб, уни чоҳга қулатаман деддингиз. “Дода”нгиз сизга ишонди. Аммо вақтинча. Балки бир неча соатга, холос. Орага мен қўшилганимдан кейин сиз фарзиндан пиёдага айланиб қолавердингиз. Бутун аламингиз шунда!

-Ҳаётингиз охирига келиб қолган бўлса ҳам, ўтирган жойингизда ўтириб қоладиган бўлсангиз ҳам, кўзингиз оч, қонга тўймаган қотилсиз! Сизга халқ мамлакат, ватан деган тушунчалар йироқ. Чекистнинг ватани

бўлмайди, у сотиб кетавериши мумкин, деган гап сизга қарата айтилган.

-Жуда кулгили эшитилар экан! Ғулом, сизни ғуломликдан шу даражага кўтарган ким? Кул ўз хўжасига исён қиладиган кун келдими? Гапларингиз “сериал киллер”нинг мақтанишига ўхшаяпти. “Дода”га ёқмаган одамларни оиласи, болалари билан бирга йўқотганингизни унутдингизми, ука?

-Менку “Дода”нинг душманини йўқотибман, сиз эса ўз яқинларингиз оиласини йўқотишдан хузур оласиз! Ўғлим деб ёнингизда олиб юрганингиз Шунқор билиб қолса борми, каллангизни учириб, шафаққа михлаб кўяди!

-Ҳа, Шунқорни ўғлимдек яхши кўраман. Нима қилган бўлсам, унинг келажагини уйлаб қилдим! Унинг ўтмиши тоза бўлсин, дедим. У ҳали сиздан ҳам, мендан ҳам юқори лавозимларга кўтарилади. Шунга лойиқдир!

-Шунинг учун ажрашган хотини ва болаларини йўқотиш учун одам юбордингизми?

-Ҳа, у аллақачон ажрашган, лекин хотини уни ўз ҳолига қўймаётган эди. Мен уни бу ташвишлардан кутқазиш учун йўлини тозаладим ва ўзига мос бўлган қизга уйлантирмоқчиман...

-Видеосини кўрдингизми? Ана у кўкрагингиздаги бир парча гўшт қандай бардош берди?

-Кўрмадим. Аммо сиз видеога олишингизни ва Шунқорга етказишингизни тахмин қила биламан. Шунинг учун ҳам бу ишни сизга яқин бўлган одамларга буюрдим. Бугун кимнинг кимлигини аниқлайдиган кун, ахир!”

Давомини эшита олмадим. Кўзим қонга тўлди. Миям алғов-далғов. Қулоқларим остида қандайдир чинқирик. Аввал дарахт устидан учуб кетгандек бўлдим. Кейин қуйига, қудуққа шўнғидим. Қудуқнинг туби йўқ экан. Оёғим осмонда. Бошим билан тушиб кетаяпман, кетаяпман... Қани эди қудуқнинг тубига тезроқ етиб борсам ва бошим урилиб, ёрилсаю бу даҳшат тўхтаса?!

Видеони очдим. Зухра узоқлашди. Тун. Болаларим ухлаб ётишибди. Кимлардир кириб келди. Болалар чинқирмасин деб оғзига “скоч” ёпиштиришди. Кейин қопга солишди. Онасини ҳам қопга тикишди...

Йўқ, давомини кўра олмайман! Эй, номард юрагим тўхта! Ахир у икки гўдакда нима айб? Аёлимда ҳам айб йўқ-ку? Сен уларни қутқазиб қоламан, ўз ҳаётини яшасин, деб олиб бориб қўймаганмидинг? Бу ифлос ишлардан узоқда яшашсин демаганмидинг? Қора ишларни касру касофати болаларингга урди, Шунқор! Уларни сен ўлдирдинг, сен! Раис ўлдирган эмас, сен ўлдирдинг, ахмоқлигинг, виждонсизлигинг, одамийликдан маҳрумлигинг учун ўлдирдинг! Балки буни сенга Худо раво кўргандир? Ахир қанча-қанча бегуноҳларнинг ёстиғини қуритмадингми? Қанча оилаларнинг бошига қиёмат солмадингми? Сен ватаним деб ватанни эмас, Раисни севдинг. Унга меҳр қўйдинг. Айтганларини бажардинг. Ўша “ватан”нинг нима берди сенга? Сени қудуққа отди. Туби зим-зиё. Тушса чиқмас қудуққа отди. Инсонлигинг тугади. Ҳайвонлигинг бошланди. Қасоас, қасос! Сени ёндира бошлаган куч мана шу. Хўш, кимни ўлдирасан? Раисними? “Мухтарам”ними?

Илонни домига тушдинг, Шунқор! У сени ўраб олмоқда. Икки оёғингни ўради. Қимирлата олмаяпсан. Ана

белинггача ўради. Бироздан кейин кўксингни қисади ва бўйнингга ўралади. Сўнг хоҳласа чақади, хоҳласа бўғади. Ҳеч нарсa қилолмайсан! Тугадинг Шунқор! Болаларингга хоинлик қилдинг! Аёлингга хоинлик қилдинг. Бошқасини севдинг. Ҳатто ўшанга уйлантириб кўйишди. Бирор марта, ўзингдан нега деб сўрадингми?

Телефон жиринглади. Раис. Олмадим, Нима дейман? Онангни деб сўкаманми? Болаларимни нима қилдинг, деб сўрайманми? Қайси тил билан? Ахир тилинг музлаб қолган-ку, Шунқор! Тишламоқдан лабларингни қонталаш қилиб юбординг-ку, Шунқор?

Зухра олдимга келди. Ўзини анча босиб олибди.

-Нега телефонни очмадингиз?

-Қотил билан телефонда гаплашмайдилар, юзлашадилар,-дедим.

-У қотил эмас, болаларингиз тирик экан. Мана адреси. Гап шундаки, Ғулом уларни гаровга олишни режалаштирганда, Раис ўйин қилиб, уларни бошқа жойга кўчирибди.

-Ёлғон! Ишонмайман!

Шу пайт телефоним “тинг-тинг” этиб суратлар ва видео келди. Болаларим тушган видео. Улар Туркияда экан. Денгиз соҳилида. Бир зумда елкамдаги тоғ йиқилиб, нафас ола бошладим. Телефон яна жиринглади. Раис:

-Шунқор, сени бунақа ифлосларнинг ўйинига бу қадар тез илинасан, деб ўйламаган эдим. Ўзингни тутиб ол. У илонни вужудингдан чиқариб ташла ва битта ҳам сочи тўкилмасан, тирик тут. Хоҳласанг ертўла ковлаб ўша ерда сақла, истасанг у билан ўйин ўйна!

Гапиролмадим. Болаларимнинг халоскорини қотил деб тургандим. Уни ўлдирмоқчи эдим. Бир сонияда пишиқ эмаслигим, ўйинлар қармоғига лаққа балиқдек “лип” этиб илинишимни англаб қолдим. Зухра нима деб ўйлайди? У ҳам ишонди-ку? Боя келганда кўзлари қизариб косасидан чиқиб кетайин деган, хўнгир хўнгир йиғлаётган эди.

Барибир у мендан ақлли экан. Раисга сим қоқмаганида билмадим бу ёғи нима бўларди? Раис нега бу воқеани мендан яширди? Бир оғиз шипшитиб қўйса бўларди-ку?

Зухра қўлимдан тутиб:

-Юринг бир боғни айланамиз,-деди.

Бироз индамай бордик. Дархтлардан битта ярим барглар тўкилиб, оёқ остида эзилмоқда. Эзилса ҳатто шу жонсиз барглар ҳам овоз чиқаради. Инсон эса, жони бўла туриб баъзан ўз ичига кўмилади. Овоз чиқара олмайди. Овоз чиқарганлари эса осмондаги гапларни гапирадилар. Ватан, ватан дейдилар. Ваҳоланки улар учун ватан дегани фоҳишадек гап. Бирининг қўйнидан чиқиб бошқасининг қўйнига киради. Бу менинг фикрим эмас. Бу “Муҳтарам”нинг гапи. Унга кўра, ким босса ватан ўшаники. У ватан билан қоришиб, ўзи ҳам ватанга айланади. Одамлар уни севишлари керак. Унга садоқат кўрсатиш талаб этилади. Уни салгина ҳақорат қилиб қўйган одамнинг “уйини куйдиришади”. Ўзлари эса истаганча сўкадилар, мириқиб-мириқиб сўкадилар. Асаб чқиндиларини халқнинг устига тўкадилар, худди ахлат тўккандек. Халқ ҳам чидайди. Ахлатнинг тагида қолса ҳам садо чиқармайди. Ҳатто шу хазончалик садо чиқармайди.

Ўзингчи Шунқор! Садо чиқара оласанми? Сен ҳам улардан бири. Гунгсан! Биласан, садо чиқарсанг тилинг кесилади. Ўз ахлатинг ичида яшаб юраверасан. Бахтни ҳам, бахтсизликни ҳам ахлатга қориштириб юборасан. Кўрдингми, сени Ғулом қандай ўйнатди? Оловдан олиб, сувга отди, сувдан чиқариб яна оловга ташлади. Бунга ким чидай олади?

Шунқор бунча тез кўрқоққа айландинг? Бир “пуф”лик жонинг бор. Ҳамма қатори барибир ўласан. Ҳеч нарсани орқалаб кетолмайсан. Шундай экан, ўзингни қўлга ол! Сени ахлатга итқитганларни жазола, ўзларини тик ўша сассиқ ботқоққа.

-Зуҳра ватан дегани нима?

Бу саволимга Зуҳра ажабланиб қолди. Юзимга қаради. Кўзимга қаради. Кейин:

-Биз ана улардан қўриқлашимиз керак бўлган нарса...

Ватан нарсами? Зуҳранинг бу гапи ёқмади менга.

Ватан бу қўл билан ушланадиган нарса эмас. Ватан тафаккур остидаги маънавий кенгликни тўлдирган поёнсиз тушунча.

Ватан – рухнинг умуртқаси, ҳиснинг вулқони. Инсон шу тушунча билан туғилади. Чунки у қондан қонга оқади, ирсиятдан рухга кўчади. Ота-она авлодидан келади бу ирсият. Бир кун олимлар инсон танасидаги миллионлаб генларнинг энг каттаси ва энг кучлиси ватан ҳиссини ташийдиган ген эканлигини аниқлашса, бу ҳақиқатнинг ўзгинаси бўлади. Чунки бу ҳиснинг таркибида инсоннинг кўними бор. Бу кўним унинг руҳияти ёйилган маскан.

Бу маскан сарҳадлари ичида инсоннинг қадри ҳақидаги қонуният бор. Ана шу қонуният бузилса, ҳислар дунёсида зилзила бошланади. Ҳислар дунёсида инсоннинг ҳурриятга бошлайдиган куч мавжуд. Инсон мудом ҳурриятни, озодликни қидириб, севиб яшаши ана шундан.

Инсоннинг тинчликка интилиши, осойишни ахтаришини бошқарадиган марказ ҳам ўша масканда. Ўша маскандаги чинорлардан бири ҳузур-ҳаловатга интилиш кучидир.

Бошқа бир устун эса, инсоннинг бахтга, саодатга ташналиги.

Инсон оиласи, яқинлари билан бирга бўлганда, бу маскан улкан боғга дўнади. Дарёлар ошиқадиган, нурлар ёғиладиган, ойдинлик инадиган, шодлик шошадиган, қувонч қувнайдиган боғ. Аммо сенга ўхшаган инсон, бундай қувончдан ҳам маҳрумсан, Шунқор!

Ватан мудом инсон билан бирга. Инсон уни тарк этолмайди, ўзи билан бирга олиб юради. Ватан ҳам инсондан айрилмайди, буюк бургутдек унинг қалбига қўниб яшайди. Шунинг учун уни кимнингдир фоҳишаси бўлишга йўл қўйилса, демак гап ватанда эмас, гап бизда. Уни шундай деб тушунган хум каллада гап! Уни оёқ остига олган хоинда гап! Уни пуллаган йиртқичда гап! Шунқор, сен ватанни ҳимоя қилишинг, уни қутқазишинг керак? Кимдан? Ватанни устига чиқиб олган “Муҳтарам”данми? Устингда тажриба ўтказаётган Раисданми? Сени қўғирчоқдек ўйнатаётган Ғуломданми? Кимдан? Ўзинг ҳам билмайсан бунини?

-Намунча ҳаёлга чўмиб кеттингиз?

-Ғуломни калласини бир бураб юборсамми, деб ўйлаяпман.

Гапимиз бўлинди, Раис телефон қилди.

-Ана унга жавоб бер! Уйига йўқолсин! Сен эса саҳарлаб тобутни олиб кел!

-Наригиси бориб етдими?

-Ҳа, уни васият қилган жойига кўмиб қўйдик. Нима бунисни ҳеч ким билмасин. Морглаarga қара, ўхшашини тополмасанг, “Дода”нинг “двойниги”ни тик!

19. “Двойник”

Ҳайратдан ёкка ушлаб қолдим. Нималар бўлаяпти ўзи? Боягина Раис Ғуломни қаттиқ кўриқлаш ҳақида гапирганди. Энди эса, уни қўйиб юбор, демокда. Раисга қулоқ солишим керакми ўзи? Ахир унинг идорасидан кетдим-ку? “Муҳтарам”нинг махсус вазифалар бўйича тансоқчиси бўлсам, нега Раиснинг қўлида ўйинчоққа айланаяпман? Зотан ўйинчоқ эдинг, Шунқор! Йўқ, энди Раис истаганини ололмайди. Вақти келади унинг ҳам жоноятлари очилади. Балки мен очарман?

Сабр қилмасдан хулоса чиқариш керак эмас. Миямда айланган саволларга бир зумда Раисдан жавоб келди:

“Хизматдаги барча зобитларга! Ғулом янги раҳбаримиз томонидан ишдан олинди ва унвонлари бекор қилинди. У ватанга хиёнатда айбланмоқда ва кучли назорат остига олинган. У билан гаплашиш, уйига бориш, яширинча учрашиш каби ҳолатлар таъқиқланади. Мамлакатимиз учун оғир бўлган шу кунларда кимнинг кимлиги аниқланади. Шунинг боис босган қадамингизга эҳтиёт бўлинг! Ўзингизга боғлиқ “узунқулоқ”ларни

назоратга олинг! Жиддий шубҳалар пайдо бўлса, бевосита ўзимга мурожаат қилинг!”

Бу раиснинг тантанаси эди. Неча йиллардан бери орзу қиларди ва мақсадига эришди.

Бизда “қулоқлар” ва “узунқулоқлар” бор. Ҳаммаси хизматдан ташқари. Биринчиси, нима биландир қўлга тушиб, ҳамкорлик учун имзо чекканлар. Иккинчиси, кўчанинг хўжайинлари. Уларнинг ёнларига одам қўйилган ёки ўзлари тўрға илинтирилган.

Хуллас, Раисдан келган электрон мактуб кўп нарсани ойдинлаштирди. У халқимизнинг зеҳниятини яхши билади. Ишдан олинган ёки урилган одам акаси бўлса ҳам, бундай пайтда баҳона топиб, ўзини четга тортади. Ғуломнинг қочиб кетишига ҳам ишонишмайди. Қаерга борса ҳам изига тушилади ва ўша жойда ўлдирилади. Бу хизматнинг бузилмас қоидаси. Ғуломнинг ўзи такрорлаган гап бу! Уни ушлаб берадиганлар ҳам кўп. Биринчи галда Владичнинг ўзи. Бошқа мамлакатларда эса уни нарқобарон деб билишади. Ким билсин, балки қочишга уринсин, деган режа ҳам бўлиши мумкин. Нима бўлганда ҳам Раис бу қарорни якка ўзи олмаган.

Телефон жиринглади. Худди хаёлларимни уқиб олгандек, Раис:

-Саволларингга жавоб топдингми, Шункор? Бу “Муҳтарам”нинг буйруғи! Уйига борсин, дамини олсин, маросимлар тугагач у билан гаплашаман, дедилар. Буни ўзига етказиб қўй!-деди.

Ҳа, Раис қурмағур. Бу томонини ҳам билади. Озгина ёлғончи умид катта режаларни бузиб юборади.

Зухрага:

-Агар ичкарига кирсам, у заҳар гап қилади ва жанжал чиқади. Бор, сен унга етказ, уйига бораверсин,-дедим.

Зухра хонага кирар экан, эшик ортида кутиб турдим. Бирор кор-хол чикса, югуриб киришга ҳозир эдим.

Зухранинг гапини эшитиб бўлган Ғулом:

-Шунқор қани, ўзини осиб қўймадими?-деди кинояли оҳангда.

Зухра жавоб қилишидан олдин ичкари кирдим ва:

-Сиз билан ишимиз битди. Ҳозир “Муҳтарам” билан гаплашдим, сизга жавоб, уйингизга бориб, кутар экансиз, “Маросимлардан кейин яккама-якка гаплашаман”, дедилар. Аммо ҳеч кимга айтманг. Сиз берган маълумотлар аллақачон у кишининг қўлида. Бўлди, бошқа гапира олмайман,- дедим.

-Биламан, ука сизга жуда оғир шу дамда. Бошингиз омон бўлсин! Ўтганларни Оллоҳ раҳмат қилсин! Жувонмарг бўлишди. Ҳали уларнинг қасдини оламинг...,-деди Ғулом бамайлихотир оҳангда.

-Чикдик,-дедим ва қоровул йигитларни чақириб, бу ерни ёпишлари, муҳрлаб уйга кетишларини буюрдим. Зухра билан ташқарига чиқсак, Ғулом:

-Менга бериб кетилган телефонлар ишламаяпти. Бу ерда кутиб туриши керак бўлган йигитлар ҳам йўк. Телефонингизни бериб туrolасизми?-деди менга яқин келиб.

-Узр, ўзингиз талаб қилган қоида, телефонингни отангга ҳам берма! Мумкин эмас,-дедим унинг ўз буйруғини эслатиб.

-Бу ердан қандай кетаман? Уйимга олиб бориб кўйинглар бўлмаса.

-Бизга алоҳида топшириқ берилди. Тез етиб бормасак, балога қоламиз,-деди Зухра.

Узоқдан бир машина кўринди. Тўхтатдим:

-Қанча сўрасанг шунча берадилар. Бу кишини уйларига олиб бор!,-дедим ҳайдовчи йигитга. У ҳам кира қилишга чиққан эканми, дарҳол рози бўлди.

...Зухра билан бориб, тобутни йўлга ҳозирлаш чораларини кўрдим.

Нима қиламиз? “Дода”нинг ўхшашини тобутга тикамизми? Э, йўк, у жуда ҳам яхши одам. Бечора. Бировга тик қаролмайди. “Дода”нинг ғирт акси. Бироқ кўриниши унга ўхшайди. Бўйи-басти ҳам бирдек. Юзларида чўтири ҳам бор. Юрганда битта оёғи кўринмас тарзда оқсайди. Балки эгизагидур? Болаликда ажралиб кетишган бўлишлари мумкин эмас-ми? Шундай дейману дунёда деяри ҳамма раҳбарларнинг шундай эгизаклари бўлган. Буни махсус ўқиганмиз. Айрим “иккинчи”лар кейинчалик машҳур ҳам бўлиб кетишган.

Янги раҳбар келганда ўхшашини кидиришади, топишади, ўқитишади ва яширин сақлашади. “Дода” аввалига истамаган. Фитна чиқариб, жойимни олиб қўяди, деб хавотирланган бўлса, не ажаб?! Аммо кейинчалик жарроҳлик амалиёти ўтказганда, касалланиб ётиб қолганда “двойник” керак бўлди. У гапирмайди. Узоқдан кўриниш беради. Одамлар орасидаги миш-мишларга нуқта қўйиш учун бирорта мажлисда кўриниш беради, холос. Бир марта “Дода”нинг юраги хуруж қилганда, “ўлаяпти”, деган гап

тарқалиб кетди. Ўшанда “Дода”нинг хотини, қизи билан биргаликда тунги шаҳарни айланишган, “сохта эгизак”нинг кўксига бош қўйиб, суратга тушишган. Бир нечта мухбирлар уларни узоқдан кузатиб, юртбошимиз тунги сайлга чиқдилар, деб халқнинг қулоғига лағмон илишган. Хато айтдим. Чунки уларнинг ўзи ҳам билмаган. “Лағмон”нинг муаллифи бизникилар.

-Зухра, у одам жуда ҳам хокисор, мингта гапирсанг аранг битта жавоб қиладиган бегуноҳ инсон. Уни тобутга тикишга ҳеч кўнглим йўқ, -дедим Зухранинг фикрини олиш учун.

-Мен уни танимайман. Сиз яхши десангиз демак яхши, - деди у.

-Қандай танимайсиз. У ахир хизматнинг номенклатурасига олинган. Архивда ҳеч нарса йўқми у ҳақда?

-Эшитганман, “иккинчи одам” бор деб. Аммо архивдан ҳеч нарса топа олмаганман, -деди Зухра ва тин олиб қўшимча қилди:

-Уни топишгандаёқ қачондир ўлдириб юборишга қарор беришган бўлишса-чи?

-Унда Раис аввал ўликхоналарни кўр, демас эди. Тополмаган тақдиримиздагина уни тобутга қўйишимизни айтди.

-Ундай бўлса, кетдик, ўхшашнинг ўхшадини топамиз.

Ўлихонлардаги ҳидлардан “заҳарланиб” кетган бўлсак керак, ташқарига чиққанимизда ҳам ўша ҳиддан қутула олмадик. Бирорта ўхшайдиганини топмадик. Ўхшашнинг ўхшаши топилмади.

-Барибир очишмайди. Ундан кўра бирор ҳайвонни тиксак-чи?-дедим Зухрага,-масалан, чўчқами, қўйми?

-Қўй ҳайф кетади, чўчқани ўйлаб кўриш зарур.-Риск қила олмаймиз. Кафанга ўраб кўмамиз ёки ювамиз деб қолишса нима бўлади?

Хуллас, бошимиз қотди.

Телефон жиринглади. “Двойник”ни отиб кетишибди.

-Сизга нима дедим?-Зухра бир нарсаларни биладию мендан яширмоқда деган ўй кечди ҳаёлимдан.

-Ҳа, тасодиф эмас, сен билар экансан. Раиснинг хунари бу! Унинг “Биринчи кетдими, иккинчи ҳам кетади” деган гапи бор эди. Бизга телефон қилиб унинг ўлгани ҳақида хабар қилишдими, демак бу бежиз эмас, режаланган.

-Раис бизга ҳам ишонмай қолаётган бўлиши мумкин,- дедим Зухрага.

-Балки ишимизни осонлаштирмоқчидир?-деди у ўйлаб ҳам ўтирмай.

Хуллас, тобутга “двойник” тикилди...

“Берия” яхши ишлабди. Қўналғага боргунча ҳамма ёқ гулга тўлган. Театршунослик талабаларини олиб чиққанми, ҳаммаси “отам-а, отам!” деб йиғламоқда. Ораларида “Додамни топиб беринглар, бўлмаса ўзимни осаман!” деганлари ҳам бор. Биттаси шунчалик бақириб айтдики, бу гапни мен машинада туриб эшитдим.

Хуллас, қолган гапларни биласиз. Кўмиш маросимида кўзим доим Азимда эди. У ўзини йўқотган, гарангсиз

қолган. Ҳатто тобутни кўтаришда ҳам нима қилишни билмай қолди.

-Кўтарсанг-чи!- “Муҳтарам”нинг бу нидосидан кейингина энгашди.

“Муҳтарам”нинг ўшандаги вазоҳатидан чўчиб кетдим. Бирдан пешанасида ажинлар бўртиб чиққандек бўлди. Қошлари чимирилди. Атрофда одамлар бўлмаса, Азимни дўппослаб кетган бўлармиди? Унинг бундай вазоҳатидан шунчаки қутулган одам оз. Ҳеч бўлмаганда “Твар! Онангни...!” деган гапларни эшитарди.

Сохта тобутни ва “двойник”ни кўмишаркан, билдирмай қаршидаги мазорга ўтдим. Ростдан ҳам “Дода”ни отасининг жойига қўйишган, шекилли, яхшилаб қараган одам қабрнинг янгилигини билиб олади.

Хуллас, маросим тинч ўтди. “Муҳтарам” бир қанча меҳмонлардан ҳам ҳамдардлик ва айни дамда табрик ҳам қабул қилавериш чарчаган экан, мени ёнига чақирди.

-Шунқор, машина тайёрла, сен билан кетаман,-деди. Ўйда мизғиб олмоқчи деб ўйладим.

Машинага бир ўзи эмас, қизи ва Марказдан келган бир хушбичим жувон ҳам ўтиришди.

Раис машинага яқин келди. Деразани очдим:

-Сизни энди якка юбора олмаймиз. Вазиятни биласиз. Шунинг учун олдинда ва орқада кузатувчилар бўлади,- деди “Муҳтарам”га.

-Кузатувчиларни эртадан бошлаб ишлатамиз, бугун шахсий ишим бор, Шунқор ўнта кузатувчининг ўрнини босади,- деди ва елкамга қўлини қўйиб,

-Ҳайда,-деди.

Йўлга чикдик. “Мухтарам” кимгадир телефон қилди. Бироз гаплашгач, қабристон ёнида кўришамиз, деди.

-Шунқор, онам ётган жойга борамиз,-деди.

“Мухтарам”нинг онаси у ҳали ёшлигида оламдан ўтган. Ўғай она кўлида ўсган. Уни ҳурмат қилади. Опасингиллари бор. Опаси унинг уйида болаларига, невараларига қарайди. Уғай укалари ҳам бор.

Кўп ўтмай етиб келдик. Ҳаммалари қабристон ёнида кутиб туришган экан. Ҳоким ҳам шу ерда. “Мухтарам” индамай битта қабр ёнига борди. Бу ерга онаси кўмилган. Шу ерда ўтириб, кўзига ёш олди.

-Мана шу тошни кўйишимни ҳам ёмонликка йўйиб, “Дода”га иғво қилишганди. Кўрамиз энди кимга шикоят қилишади?-деди у кўлини юзига тортиб бўлиб, ҳокимга қараб.-Сенга бир ҳафта вақт. Қабристон деворини янгилайсан! Бу ерга келадиган йўл бошқатдан асфалт қилиниб, икки томонига дарахт экасан ва ўтиргичлар қўясан. Қабристон ичида мана шу ерга келгунга қадар йўлак қурасан. Энди бу ерга келадиган одам кўп бўлади. Раҳматли онам жуда яхши аёл бўлган. Оддийгина ишда ишлаган. Элнинг хизматини қилган. Унга ҳурмат кўрсатмасам, Худо уради. Бу ерда мақбара қурасан. Қурондан оятлар ёзиб қўясан. Бир ҳафтадан кейин келиб, хабар оламан. Кираверишда бино ва айвон қурасан. Қор-ёмғирда одамлар кутадиган жой бўлсин. Бир ҳафта етадимми?

-Кўплик ҳам қилади,-деди ҳоким.

-Менга куруқ гапларни қилма, бир ҳафтадан кейин келиб кўраман. Гапингни тилингга ўлчаб гапир! Тилинг осилиб қолмасин тагин!

-Бизга озгина маблағдан ва қурилиш материалларидан...

-Мана, Шунқорга айтасан, нима керак бўлса.

“Муҳтарам” кейин менга юзланди:

-Шунқор, бунга телефон номерингни бер. Дарвоқе, онамнинг қайси суратини қора мрамр ичига қўйишни мен билан маслаҳат қилинглар. Мана, қариндошлардан сўраб, танлаб олинглар ва менга кўрсатинглар,-деди.

Ҳамма ҳам шундай қийин пайтда онасини эслайдими? Юрагида одамийлик уфурдими? Менимча, “Дода”нинг даккиси кўнглида қолган экан. Бу ерни обод қиламан, деганда кимдир “Дода”га сув омбори қурилишидан кўп нарсани қабристонга олиб кетаяпти, деб хабар берган. Шундан кейин катта қурилиш ҳам тўхтаб қолганди, оз қолсин “Муҳтарам”нинг ўзи ишдан кетарди. Раис орага кирмаса, иши чатоқ эди. Ўшанда “Дода” уни жуда ёмон сўккан. Шундан кейин бу ерга келмай қўйганди. Юрагида экан-да. У ёқда “Дода”га макбара қуришни буюрди, бу ёқда онасига ...

Машинага ўтирганимиздан кейин:

-Сув омборига ҳайда,-деди.-Қурилишни бошлатамиз!

Йўл-йўлакай кимларгадир телефон қилди. У ҳали ҳам ўзини олдинги иш жойида деб ўйлаб, ҳаммага сим қоқар ва эскичасига гаплашар эди.

Сув омбори ёнига етиб келганимизда уни анча одам кутиб турган экан. Пойтахтдан ҳам “дев”лардан уч-

тўрттаси келган. Демак, уларга олдиндан хабар берган, акс тақдирда бунча тез етиб кела олишмасди.

Келганлар билан саломлашиб ҳам ўтирмади.

-Қанчада қуриб битирамиз?-деди у Сангинга.

-Анча иши бор. Тўрт-беш йил керак.

-Туш кўраясанми? Тошбақага ўхшаб судралиш йўқ энди. Йўлбарсга ўхшаб югурасан!

Сангин биров ўйлаб турдида:

-Уч йилга тикиштиришим мумкин...,-деди. Унинг қўли қорнининг устида эди.

-Бу гап қорнингдан чиқди-ми? Мен ҳали сенга ишониб юрибман-ми? Бу ерда асосий иш битган. Тўхтаб қолмаганда қачондир балиқ овлаб юрган бўлардик.

-Ўшанда халқаро экспертлар “Дода”га биздан изн олмади, деб шикоят ёзишганди. Ҳозир ҳам улар билан келишмасак бўлмайди.

-Шу ҳам масалами? Мана “Дода”ни кўмамиз, десак, ЮНЕСКО изн бермади. У жойга мақабара қуриш мумкин эмас экан. Бир соатда ҳал қилишди ва изн берилди. Ана, Ҳалимбойваччага айт, бориб ҳаммасини ёғлайди ва ўзлари келиб, сенга оқ йўл берадилар. Ҳаммаси бўлиб бу ерга қанча пул кетади?

-Ярим миллиард доллар бўлса, етади, Етмаса, ўзимиздан қўшамиз!

-Ўзимиз-пўзимиз йўқ. Қанча пул десанг топиб бераман. Аммо тез қуришинг керак. Одимларимизни кўриб одамлар илҳом олсин, ҳайратлансин, бизга баҳо

берадиган бўлса, мана шундай иншоотларимизга боқсин!

-Икки йилга тикиштирамиз...

-Ўзингни икки йилга тикиштириб қўяман, шунақа қилсанг. Бир йил санга! Бугуноқ ишга кириш. Одамлар ҳар бир гапимга ва ҳар одимимга қарашади. Шундай экан, қўп нарса сенга боғлиқ! Бажармасанг, келган жойингга кетасан! Мана Шунқорнинг ўзи олиб бориб қўяди, билдингми?

-Билдим!

-Шу ҳам ишми? Мана шу жойни ёпасан, сакиз машина шағал тўкасан, бас!

Сангин ерга қаради. Лоф ҳам эви билан-да, деган гап ўтдиёв кўнглидан. Балки “Мухтарам” нолларни ташлаб гапиришини эшитмаганми? Эшитган, шунга қарамай саккиз машина дегани лофнинг тескараси бўлди-да.

-Келаси йил сен билан мана шу ерда қайикда сузамиз? Биргаликда балиқ овлаймиз. Тасаввур қил, ҳовуз тўла балиқ! Сон-саноқсиз... Сен билан улардан баъзиларини қармоққа илинтириб, соҳилда ковурамиз. Бунинг гаштини биласанми? Ўзингни энг қудратли куч деб ҳисоблайсан ўшанда. Яхши яхшиларидан келтириб ташла, кўпайсин! Балиқхўрлик қилмаганимизга ҳам кўп бўлди.

-Айтганингиздек бўлади!

-Қара, эрта-индин вазифани расман бошлайман ва кимни хоҳласанг ўшани қўл остингга жўнатаман. Бу мен учун ҳаёт-мамот масаласи, билдингми?

-Билдим...

-Эсингдами, мени баҳона қилиб тўхтатишган буни? Ким бу ишнинг орқасида эканини биламан. Қонимни ичган! Ҳали сайратаман ҳаммасини! Сув омбори ҳақида сайловдан олдин эълон қиламан ва бир йилда сўзимизнинг устидан чиқишимиз зарур!

-Сиз айттингизми, бажарилади!

Сангиннинг нимагадир ранги оқариб кетди. Улгурмаслигини англаб турибди. Улгурмаса ҳам улгуради. Унга вақтини айтиш керак, тамом! Ўша кун ҳисоботни олиб келади.

-Сен билан яна бир ишни бошлаймиз. Эсингдами, учини чиқаргандим. Бошлаб ҳам қўйгандик. Лекин пул топилмади. Мана энди вақти келди. Тоғлар орасидаги жой. У ерда ҳам сув омбори қурасан. Бундан кичикроқ. Атрофида Владичнинг саройи каби меҳмонхоналар қурасан. Ҳалимбойвачанинг саройини кўрганмисан? Ўшанинг беш-олти баравар каттаси бўлсин! Ҳамма қулайликлари билан. У ерга куш ҳам учиб бормади. Тикучарда борамиз. Салимхонга айтганман, осмондаги юлдузни сўрасанг, узиб беради. Ўзим бориб кўраман. Сани дидингга гап йўқ. Шундай бўлса ҳам ойда бир бориб тураман. У жой жуда ҳам муҳим. Араб шайхлари меҳмонга келса, қабул қиладиган жойимиз йўқ. Уятдан ерга кириб кетамиз. Уларга эса шоҳона кошона керак. Кошонани кўрсалар ишонадилар ва пул чиқарадилар. Бўлмаса, улар тошдан қаттиқ!

-Айтганингиздан ҳам зиёда қиламиз. Дунёга донғи кетадиган бўлади!

-Аксинча ҳеч ким билмаслиги керак. Бу жой сир ичидаги сир бўлади!

Пойтахтга қараб йўлга чикдик. Нурхоннинг “дугонаси” аслида Владичнинг “сартароши” экан. Йўқ сочини бор қилиб кўрсатадиган. У энди биз томонга ишга юборилибди. “Имажмейкер” дейишаркан. У “Муҳтарам”нинг ташқи кўринишига жавобгармиш. Каминага рақиб топилибди. Жувонни кузатдим. Шунчаки эмас. Болдирлари бақувват. Чиникқан. Кам гап. Юзи кулимсираб туради. Ўзимизнинг қизларга ҳам ўхшаб кетади. Исми ҳам ўзимизга яқин. Камила экан. “Муҳтарам”нинг парвойига келмайди Аммо менинг вазифамга вазифа қўшилди. “Муҳтарам”ни ундан ҳам ҳимоя қилишим керак. Ким розилик берди экан бунга? Раисми? Балки Нурхонни қўлга олдими? Хуллас, яхши эмас. Балки вақтинчага келгандир, Шунқор? Сен ҳам хаёлий бўлиб кетаяпсан. Йўлдаман. Ашула айтишим керак-ми? “Муҳтарам” билан хангома қилиб боришим даркор-ми? Йўқ, уни ўз хаёлларига ташлаб, мен ҳам ўз гирдобимда айланаман-да.

Нурхон билан дугонаси “Муҳтарам”нинг сочини бўяб, қошини тердириб, қабоқларини четидан тепага торттириш, вақти-вақти билан “ботокс” қилиш, туфлисининг пошнасини баланд кўтариш, калтароқ кийим кийиш каби икир-чикирларга кўндиришга уринишмоқда. “Муҳтарам” индамай кетаяпти. Хаёлидан бошқа мамлакат раҳбари ўтаётган бўлса, ажабмас. Биттаси сочини сариққа бўяб, бошига салладек ураб қўяди. Бошқаси дунёда тароқ анқонинг уруғига айланиб кетгандай сочини умуман тарамайди. Владич эса “дугоналар” айтганидек, аёлларнинг пардоз-андозини қилиб юради. Хуллас, осон эмас! Олдингидек машинада ўтириб олиб, “Озодлик”ни эшитиб юриш энди тугайди.

Аслида “Муҳтарам”га осонмас. “Дода” уни четга чиқармай, “уйбола” қилиб қўйди. Ким нима деса, шунга кўнадиган.

Телефон жиринглади. Ким бўлдийкин?
“Муҳтарам”нинг авзойи бузилди.

-Аниқми? Мелисани каттаси шунақа қилиб юрибдими? Сабр қилинг, унинг ҳам пагонини юлиб оламан! Аниқ бориб учрашибдими-эй! Шунча гапдан кейин ҳам-а? Сиз бўлсангиз битта хат билан ҳаммасини айириб қўяман, деб юрибсиз. Менга Чалматовни топинг!

—...

-Биламан, биламан, ким уни вазирликка қайтараман деяпти? Унинг қўли қонлигини биламан. Мафиянинг отаси эканлигини ҳам. Бироқ у билан гаплашадиган гапим бор. Ана у мафияси билан боғлиқ!

Демак, Ички ишлар вазири Ғулом билан кўришган. Телефон қилган эса Раис. Бошқа одам бўлганда бундай хабарни эшитиб, юмшоқ гапирмаган бўларди.

...Пойтахтга кириб келганимизда йўл тўсиб қўйилган эди. “Муҳтарам” мизғимоқда. Узокроқда тўхтатдим ва машинадан тушиб, мелисалар томонга юрдим.

20. Сирларнинг сир

Бизни кутиб олишга чиқишган экан. Шаҳар ичида қўримасиз юриш мумкин эмас. Атайлабдан бўлмаса ҳам, тасодифан фалокат оёқ остидан чиқиши мумкин.

“Муҳтарам” бошқа машинага ўтар экан:

-Шунқор, сенга жавоб, бориб дамингни ол, кечқурун кераксан,-деди. Қизлар ҳам у билан бирга кетишди.

Кўнглим ғаш эди. Чунки қиладиган муҳим ишим чала қолганди. Уни Зухра ҳам билмасди. Аслида, у билмасин деб маҳорат билан рол ўйнадим. Агар сезиб қолганда, ишнинг белига тепиши мумкин эди.

Тобутнинг ичига “Двойник”ни тикдик, дегандим. Буни Зухрани ишонтириш учун ўйлаб топгандим. Агар ўликни қайтадан ювамиз ёки башарасини кўрамиз дейишса, нақд ўша ерда отиб ўлдирилардим. Буни бўйнимга олгандим. Мустақил ҳаракат қилмаслик жонимга текканди. Энди ўз хоҳишимга кўра ҳам ҳаракат қиламан деб кўнглимга туйдим. Нима бўлса бўлсин, амакини кутқазиш ҳақидаги фикримни миянинг энг чуқур жойига ёзгандим.

Йигитларимдан бири яхши иш бажарди. У “двойник” амакини чегара томонга олиб бориши ва Раисга унинг отиб ўлдирилгани ҳақида хабар ташлаши керак эди. Билмасликка олдим ва ҳаммаси Раиснинг режаси деб қарадим. Акс тақдирда Зухра ишни бузарди.

“Қотил” йигитни кўчадан топганман. Бир куни интернетда идорамиз ҳақида кескин танқидий мақола пайдо бўлди. Ҳамма гаплар ҳақ. Раисдан бошлаб ўринбосарларига қадар бошидан “қайноқ сув тўкилганди”. Ҳаммаси бор гап. Саноқли одам биладиган ҳужжатлар сиздирилган. Раис буни Ғуломдан, Ғулом эса Раисдан кўрди. Ваҳоланки, мақола иккаласига қарши ёзилган.

-Бу иблис Ғуломнинг иши. Билишмасин деб ўзи ҳақида ҳам ёзган,-деганди у.

Шунқа одат бор. Буни кўпроқ мухолифатчиларга қарши қўллаймиз. Уларни шу йўл билан бир-бирига қийратиб қўйилади. Рақибининг услуги, ишлатадиган сўзлари

билан ёзилади ва ўзи ҳақида ҳам қисман қистириб кетилади. Раис ўзи ҳақида кўпроқ ва Ғулом тўғрисида камроқ ёзилгани учун шундай хулосага келганди.

Жумбоқнинг тубига етишни каминага топширди. Қидирдим, тополмадим. Кейин, кимлар сўрамасдан, компьютер ва иш телефонини уйига олиб боришини кузатдим. Энг тепадагилардан уч киши. Ҳаммаси генерал. Оилаларини ўргандим. Биттасининг ўғли диққатимни тортди. Интернетда блогерлик қилар экан. Қизиқ?! Фақат дарахтлар ҳақида гапирди.

Ҳамма видеоларини қараб чиқдим. Бирор жойда одамлар, шарт-шароит, сиёсий-ижтимоий воқеа, муаммо ҳақида гапирмаган. Бу шубҳали. Унинг фаолияти худди жосуснинг ишига ўхшарди. Текширсам, видеолари тўғри. У айтган жойларда дарахт кесилган бўлиб чиқди. Барибир дилим ёришмади. Уни кузатувга олдим. Кечаси бориб дарахтни арралар ёки остига дори сепиб қўяр экан. Ушладим. Отасига телефон қилмоқчи бўлдим. Қўймадим. Уйга олиб келдим.

Яхши бола экан. Анча гаплашдик. Охири очилди. Ҳеч кимга айтмаслигим ҳақида кафолат олгандан кейин саволларимга аниқ-тиниқ жавоб қилди.

-Нега бундай қиласан? Нега дарахтлар умрига зомин бўлаяпсан?

-Аксинча дарахтларни қутқараяпман,-деди у.- Қовжираётган ёки қуриб бўлган, касалманд дарахтларни танлайман,-деди у ўз ишидан фахрланиб.

-Бу билан нимага эришасан?

-Одамларнинг диққатини дарахтларга тортаман. Қаранг, ҳар йили миллион-миллион дархт экилади, бироқ

кўкармай қолади. Бу ерда катта ўғирлилик ҳам бор. Лекин экилганларига эътибор йўқ. Чунки дарахтни қадрламаймиз. Унинг ҳаётимизда бўлган ўрнини билмаймиз. Умримизни узайтиришини тил учида гапираму аслини билмаймиз. Дарахтлар яшаса, биз ҳам яшаймиз! Дарахтни эъзозлаш керак! Одамларни шунга ўргатмоқчиман.

-Бундан ҳам долзаброқ масалалар бор, агар видео қиламан десанг, нега ўзингни хавф остига отаяпсан?- дедим унга.

-Қолган масалада гапиришимга изн йўқ. Отам жаллоддан ҳам ёмон. Ундан қўрқаман.

-Урадимми?

-Урса майли эди. Ўлдиради.

-Шунчаки ўлдираман деб қўрқитади-да. Одам ўз боласини ҳам ўлдирадимми?

-Менинг отам ўлдиради. Онамни ўлдирган!- Бу гапни айтаркан унинг лаби титраб, кўзида ёш қалқди.

-Йўғ-ей?

-Ҳеч кимга айтмайсиз-а?

-Кўнглимга кўмдим. Уни ҳеч ким қовлаб ололмайди.

У тин олиб турдида:

-Ҳа, урмасдан, сўкмасдан ўлдирган. Ойимга қандайдир дори ичирган.

-Буни қаердан биласан?

-Онам айтган ўлимидан олдин. Отангдан ҳушёр бўл, мени еди, сени ҳам ейди, деганди.

-Бу дегани заҳарлади дегани эмас-ку?

-Онам соппа-соғ юрганди. Отам билан жанжаллашиб қолди.

-Нега жанжаллашди?

-Отам “Дода”нинг идорасига ишга ўтиши керак экан. Уйдан кимгадир пул олиб бориб берибди. Ичидан сохталари чиқибди. Шунини онамдан кўрди. Онам жуда хафа бўлди. Қасам ичди. Фигон чекди. Лекин отам ишонмади. Сен йўлимга ғов бўлдинг, уканг билан бирга,-деди.

-Тоғангни нега қўшди?

-Тоғам билан келишмас эди. ‘Суриш’ деган хаёлга келдим. Интернет орқали машҳур олийгоҳга илиндим. Юбормади. Мумкин эмас эмиш. Шундан кейин, истамасам ҳам ҳуқуқшуносликка жойлаб қўйди. Бўш пайтимда алаимни блогерликдан оламан. Дарахтшунос бўлиб кетдим.

Дўст бўладиган йигит экан. Сир сақлашда унга тенг келадигани йўқ. У билан бирга ишлашга қарор қилдим. Айтган топшириқларимни “топ-тоза” бажаради. Бу орада отаси бизнинг идорадан прокуратурага ўтказилди.

Интернетга идорамиз ҳақида маълумотларни сиздириб келган унинг отаси экан. Шундай қилиб ўзига тепага йўл очар ва кўтарилиши учун бошқаларнинг “тагига сув қуяр” экан. Ҳужжатларни тайёрлаб қўйдим. Раис сўрамагунча гап очмадим. Ҳалига қадар гап очилмади. Энди уни “Мухтарам”га берсам бўлади.

Шу йигитга айтиб, “Двойник”ни чегара яқинидаги танишимнинг уйига жўнатгандим. Раисга эса бошқаси орқали хабар жўнатгандим. Бундай олганда ўзим ҳам калаванинг ичига ўралиб бораяпман. Пушаймонлик йўқ.

Дарвоқе, ҳалиги йигитнинг исми Ҳумоюн.

-Исмингни маъносини биласанми?-деб сўрадим ундан.

-Биламан. Лекин отам бу исмга ҳам қаршилиқ қилган. Замонавий исм эмас деб. Бобом- ойимнинг отаси катта олим эдилар. Шундай исм қўяман деб туриб олганлар.

-Ўзингга ёқадими?

-Ёқади. Шу исмим сабаб Боборийлар авлодининг тарихини ўқиб чиққанман.

Ҳумойинни олиб, амаки турган жойга бордик. Амакига ҳамма гапни очиқ айтдим. Ишониши ва қабул қилиши қийин бўлди. Унинг оиласини “Дода”нинг одамлари гум қилганини эшитиб ишонмади. Унга Раиснинг “Тобутга “двойник”ни тик”, деган гапини телефонимда қўйиб бердим. Шундан кейин девонасираб қолди.

-Нега ўлдирмадингизлар? Ўлишни истаيمان! Яшамайман! Яшолмайман!-деган сўзларни такрорлайверди. Режам бўйича уни четга чиқариб юбормоқчи эдим. Кўнмади. Бошим қотиб қолди. Бу ёғи чигаллашиб кетмаса, бас!

-Сохта тобутга нима қўйдингиз?-деди Ҳумоюн.

-Айтолмайман...,- бирдан хато қилганимни тушундим. У менга ишонмоқда, мен эса...,-ҳозирча.

Кутганимдек, ундан кескин жавоб олдим:

-Орамиздаги сирдошликка дарз кетибди-да,-деди у.

Отаси бошқа ишга кўтарилгандан бери Хумоюн уйида яшамайди. Отасининг беш-олтита уйи бор. Уларга ҳам бормади. Унга жой қилиб бердим. Алоҳида телефон тутқаздим. Унга айтсаммикан? Айтолмайман! Уни алдашим керак. У алданадиган йигит эмас. Дарсларга бормаи имтиҳон пайтида бир кўриниб, ҳаммасини аълога топшириб келади. Келгусида уни ёнимга оламан деган режам ҳам бор.

-Сен бўлганингда нима кўярдинг?-дедим унга.

У ўйлаб турдида:

-Отамни,-деди.

-Бу яхши эмас, нима, отангни ўлдириш хаёлингда борми?

-Йўқ, унинг жазосини Худо беради. Шунчаки айтдим-да!

-Ҳайвонлардан қўйсанг қайси ҳайвонни кўярдинг?

У ўйланиб қолдида:

-Бечора ҳайвонга жабр бўларди-да,-деди.

-Жабр бўлмайдиган ҳайвон ҳам бор. Ўшандан биттасини чиройли қилиб жойладим.

У тушунгандек мийиғида кулди.

Нариги хонада бошини ушлаб ўтирган амаки биз томонга кириб келдида:

-Ука, қўлингиздан келса, мени тоғ жойга жўнатынг. Беш олтита мол қилиб беринг. Боқаман. Одамларнинг кўзидан нари юраман,-деди.-Соқол қўйиб олсам, ҳеч кимнинг диққатини тортмайман. Фақат битта шартим

бор, ҳамма жойда ишлайдиган телефон ҳам берасиз. Йиллар давомида телефонга ўрганиб қолдим. Суянганим телефон. Кўраман, ўқийман, изоҳлар ёзаман...

-Изоҳлар ёзасиз?

-Ҳа, Бакирбек деб танилиб қолганман.

-Ҳаммаси яхши... аммо изоҳлар ёзишингиз бўлмайди. Қўлга тушишингиз мумкин.

-Ҳеч парво қилманг. “Дода”нинг пайтидаёқ ўлимни бўйнимга олганман. Мана костюмимнинг ёқасида турибди. Боя ичиб юборгим ҳам келди, аммо сизларни ўйладим. Ҳаётларингизни хавф остига қўйиб, менга яхшилик қилаяпсизлар. Агар қўлга тушадиган бўлсам, ўша ерда ўламан. Бошқа паспорт ҳам қилиб берарсиз.

Хуллас, расмий исми ҳам Бакирбек бўлди. Бакир ака жуда самимий бўлиши билан бирга дунёга очиқ кўз билан қарайдиган одам. Бу аҳволда “Дода”нинг ролини қандай ўйнадийкин? Мен бўлсам унга доим бошингизни эгиб, хафақон юрасан деб буйруқ беришган, деб ўйлардим. У эса паст-баландни яхши тушунадиган, оқ-қорани ажратадиган оқил инсон.

-Бўлмаса, шу ерда бирон ой турасиз. Ҳумоюн ўз ўғлингиз каби хизматда бўлади. Илтимос, ҳовлидан ташқарига чиқманг. Бирор ҳодиса юз берса, мана бу телефонни ишлаатасиз, деб унга ҳам Ҳумоюнга берилган қурилмадан бирини бердим. Ҳаммасини ҳал қилиб, сизни яхши бир жойга кўчираман,-дедим.

-Ука, юрагингиз отникидек экан. Қандай бу ишга жураёт эттингиз, билмайман? Шундай одамлар бор деб

ҳеч ўйламасдим. Халқимиз қўрқитилган қўйдек деб юрардим. Аммо бургутларимиз ҳам бор экан,-деди.

Нима дейман унга? Сиз бургут деган одамнинг ҳам панжаси қон дейманми? У қанчадан қанча бегуноҳ одамларни йўқотиб, энди ақли кириб қолди, дейманми? Умуман қилаётган бу ишим тўғримикан? Садоқат сўзини қунига юз марталаб такрорлайдиган “Муҳтарам” билиб қолса, хоинликда айбламайдими? Бир марта яшаймиз. Айбласа айблар. Қачонгача яширин қотил бўлиб юраман, қачонгача боши эгик қул бўлиб юраман.? Бундан кейин гуноҳларимни ювишим, бечора одамларга ёрдам қилишим, ана у аблахларни эса бир-бир тузоққа илинтиришим керак. Бунинг учун Ҳумоюн каби йигитларга эҳтиёжим бор. Бунақалар эса қўп. Айниқса, муҳолифат орасида, ҳеч нарсадан чўчимайдиган алплар бор. Ўлимни ҳам писанд қилмайдиганларини кўрганман. Уларнинг орасидан ҳам танлаб олишим керак. Шунчаки эмас, бу ишларни расмий томонини ҳам ўйлаб, “Муҳтарам”нинг имзоси билан бир ҳужжат ҳам қилиб олишим зарур.

Уйга келсам, Зухра ҳам қайтибди. Биргалашиб овақатланаётган эдик, телефон жиринглади. “Муҳтарам”:

-Ана уни олиб кел, биргаликда гаплашамиз, учинчига кел!

“Муҳтарам”нинг шаҳар марказидаги қўп қаватли уйларда махфий жойлари бор. Уни рақамлаган. “Ленин шапка”ни бостириб кийиб оладида, ҳеч кимга парво қилмай кириб-чиқаверади. Бугунгача уни яхши танишмасди. Ҳиди чиқмаган.

Ғуломни уйидан олиб, айтилган жойга бордик. Кўп куттирмади. “Муҳтарам” кириб келиши билан Ғулом сакраб ўрнидан турди. “Муҳтарам”га ташланиб қолмасин, деб ёнига ўтдим. У шартта тиз чўкиб ялина бошлади.

-Тур ўрнингдан, ўзингни қўлга ол ва айтадиган гапингни айт, вақтим йўқ,-деди “Муҳтарам”.

-“Дода”ни ўлдиришди,-деди.

-Кўрдингми, ким ўлдирди?

-Раис...

-Чўпчак айтма! Далилинг бўлса ўртага қўй!

-Бир кун “Дода” чақирди. Сени ўрнимга тайёрлаяпман, яқинда Бош прокурорликка қўяман. Кейин Бош вазир бўласан. Ҳамма ёқни назоратга ол. Пулдонани оқла, байрамгача,-деди.

-Шуми ҳаммаси?

-Йўқ, сизга тегишли “папка”ни ҳам берди. Негадир сиздан жуда хафа эди. Душманларим билан битта тешикка сийиб юрибди, деди.

-Душманлари ким экан?

-Ўша пайтда сўрай олмадим. “Папка”даги ҳужжатларни кўриб чиқиб, асосий душмани Раис эканлигини тушундим.

-Қандай ҳужжат.

-Раиснинг марказ билан суҳбатларининг матни. У “Дода”нинг ишлай олмай қолгани, ким нима деса ўша томонга йўрғалаши, гапирган гапи беш дақиқадан кейин

ёдидан чиқиб қолиши, четга катта миқдорда тилла чиқараётгани...

-Булар ҳужжат эмас, шунчаки гап.

Ғулом чўнтагига кўлини тикди. Бир лаҳзада “Мухтарам”нинг ранги оқарди ва менга қаради. Бу “Текширганмисан?” дегани эди. Ҳаммаси жойида дегандек, бошимни қимирлатдим. Дарҳақиқат, бир эмас икки марта текширгандим. Шунга қарамай “Мухтарам”нинг кўркуви кўнглимни хира қилди. Наҳотки, оз бўлса ҳам ишончсизлик бор? Шунқор, ўзингни бос! Бундай сезги ҳаммада бор. Ҳатто қиролича Клеопатра ҳам ҳар кун ўзининг севимли илони ётган кўзага кўлини тикқанда ранги оқараркан.

Ғулом чўнтагидан икки бетли қоғозни олди. Унда фақат рақамлар ёзилган эди.

-Бу нима?-деб сўради “Мухтарам”.

-Бу Раиснинг хориждаги ҳисоблари. Мана буниси эса сизники экан.

“Мухтарам” худди турғазиб қўйилган бош халтага ўхшаб шалоплаб йиқилгандек бўлди. Кўз олдимда муздек эрий бошлади.

-Меники?-деди аранг.

-Ҳа, сизники?

-Ўзим билмайман, сен қаердан биласан?

-Буни Марказдан беришган. Банкларнинг номи, адреси ҳам бор. Қўйилган пул миқдори ҳам.

-Четга чиқмаган бўлса, қандай қилиб банкларда бойлигим бўлади?

-Кимлар олиб бориб қўйгани видеога тушган, улардан айримлари ҳозир ҳоким. Айримлари вазир.

-Кимлигини биласанми? Бу фитна!- “Мухтарам” ўзини тутоқиб кетгандек кўрсатмоқчи бўлди шекилли, овозини баландлатди. Аммо овозининг “кучи” йўқ эди.- Вой аблахлар, бу қандай бедодлик. Агар сен “Дода”нинг ўрнига келсанг, мени ертўлага тикардингми? Шунга ишониб-а?

-Ишонмаса бўлмайдиган ҳужжатлар бор. Бойликни қўйиб келганлар орасида Шунқор ҳам бор.

-Шунқорни аралаштирма бу ифлос ишингга.

-Ҳокимларнинг одами қайтиб келгандан кейин рақамларни сизга бергани ҳам видеога олинган экан.

-Ҳожатхонага кирганим ҳам олинган эканми?

-Афсуски, бор. Майли унга ўтмайлик.

-Яна ниманг бор?

-Сиз билиб ё билмасдан отиб қўйган бола ҳақида... кейин одамларни дўшпослашларингиз... буларни ҳисобга олмадим. “Дода” тинчитиб учун саунада келишилгани ва Марказга Раис қанча олиб боргани...

-Тўхта! Мени шантаж қилмоқчимисан?

-Истасангиз мени ўлдириб ёки қамоққа олиб, эртасига ҳаммаси интернетга чиқади. Бари ташқарида, ишончли одамимда.

-Хўп, нима истайсан?

-Ҳаётимни қайтиб беринг.

-Қайтиб бераман, аммо унвонларсиз. Балки очикда, балки қамоқда яшарсан.

-Очикда ўлдиришади. Бу иккаламизга ҳам ёмон.

-Демак, фақат қамоқ...

-Одаминг нима бўлади.

-Сиз суд қилиб, бир умрга қамайсиз. То мен чиққунча ҳеч нарса бўлмайди.

-Ишонмадим гапларингга.

-У ҳолда Шунқор телефон қилсин. Мана бу номерга.

Канаданинг телефон номерини берди.

-Одаим Канадада эмас. Ўша ернинг телефон номерини олиб берганман. Ҳозир Шунқор билан гаплашиб бўлгач, адресини ўзгартиради.

Телефон қилдим. Аёл киши олди. Русча гаплашди.

-Ўзлари билан гаплашаман, -деди.

Телефонни Ғуломга узатдим;

-Биринчи папкани оч ва у ердаги иккинчи флешкани телефонга боғла,-деди Ғулом аёлга.

Кейин менга юзланди.

-Сиз эшитасизми?-деди.

“Муҳтарам”:

-Ўзим эшитаман, -деб телефонни олди.

Кўз олдимда унинг юзига ажин тушгандек, сочлари оқара бошлагандек туюлди. Томоғига бир нарса

тиқилган одамдек телефон ушлаган қўли қалтирай бошлади. Унинг вазоҳатидан аср ҳам қолмади. Лапашанг одамга ўхшаб қолди. Бирдан:

-Ўлдираман сени аблах,-деб Ғуломга ташланди.-Ҳамма ишга аралашсанг ҳам оилага аралашма. Оила тоза ва муқаддас, билдингми? Санларга ким ҳуқуқ берди, бировнинг оиласига туҳмат қилишни?

-Бу туҳмат эмас. Буни менга “Дода” берган.

Гапнинг очиғи “Муҳтарам” нимани эшитганига жуда қизиқиб қолдим. Уни чўктирган, кейин ўзидан чиқарган гап нима эди? Нега унинг қошлари “таёқ”дек бўлиб кетди? Нима гап экан? Наҳотки сен билмайсан, Шунқор?

-Ма, айт одамингга, сени суд қилиб, умр бўйига қамайман!

Ғулом телефонни олиб, айни гапни айтди:

-Мен камокда экан, ҳеч нарса, ҳеч қаерга чиқмасин, ҳаёт-мамот масаласи бу!

“Муҳтарам” менга тикилди. Кўзидан уқдим:

“Шунқор уни топасан!” деган буйруқ эди бу қараш. Бошимни силкитдим.

-Келишдик,-деди “Муҳтарам” Ғуломга қараб ва ғудурлаганча сўкиниб, чиқиб кетди. У кетгандан кейин Ғулом менга юзланди:

-Бу тентак мана шундай сандроқлаб юриверадиими? Шўрингиз куриган экан, унинг ўнг қўли бўлиб. Далада кетмон чопадиган одамдан нима фарқи бор унинг?

-Ҳамма ҳам даладаги кетмончи одамдек бўлганда дунё бошқа томонга ривожланган бўларди. Далада ишлайдиган одамнинг қалби мусаффо, кир босмаган. У жинойтларга кўмилмайди. Сиз ва менга ўхшаб тирноғининг учига қадар қонга булганмайди. Қонунлар уни кувлаб юради. Сиз ва биз эса қонунларнинг устида юрамиз,-дедим.

-Тўғри, лекин бунда рахбарлик каромати йўқ-да, ўртоқ генерал!

-Нима, қанақасига генарал?

-Кўрдингизми, Раис ҳам, сиз ҳам шохиди юрсангиз, биз баргида юрамиз. Раиснинг хонасида сизга айтилган гапни ҳам эшиттирайми?

-Ўзингиз эшитиб юраверинг! Ҳаётингизни қайтиб олдингиз-ку!

-Бир кунмас бир кун қаҳрамон бўлиб чиқаман. Халқимиз доим мазлум томонида бўлади. “Муҳтарам” бу дунёга устун эмас, қилич билан келган, қилич билан кетади!

Телефон жиринглади. “Муҳтарам”:

-Шунқор уни яхшилаб кўриқла! Бирортаси калласини узиб ташламасин. У жуда ҳам хафли, уни суд қиласан, умрбодга қамайсан, ва иштон тиктирасан! Умр бўйи шу иш билан шуғуллансин,-деди.-Уни аврайсанми, алдайсанми, нима қилсанг қил, қўлида бор нарсаларнинг ҳаммасидан нусха ол. Салимхондан бошлаб, Раисгача ҳаммасининг шилтасини билиб ол!

21. “Жалабхона”

Уйга қайтаётсам яна “Муҳтарам” чакираётганини айтишди. Унинг учун эртами-кечми, фарқи йўқ. Борсам, бир қанча ҳокимлар қабулхонада ўтиришибди. Котиб:

-Ичкарга кираркансиз, ўртоқ генерал!- деди.

Котиб яхши йигит. Тарбиясига қойил қоламан. Кунига мингта одам келса, минг марта ўрнидан туради ва қўли кўксида. Унинг қулоғига гап киради, аммо чиқмайди. Чиқариб олишнинг имкони ҳам йўқ. “Эшитмадим” деб тураверади. Урасизми, сўкаси, кийнайсизми, фарқи йўқ. Девор, сас чиқади, гап чиқмайди. “Ичимдагини топ” деган туридан. Шунинг учун ҳам Раис уни бу ёққа “сафарбар” қилганди.

“Дода”нинг котиблари биттаси нафақага кетди, иккинчиси ертўлага. Бу ерда ёрдамчи ҳам бор, қарши эшикдаги хонада ўтиради ва қабулхонада эса котиб.

Котиб эшикни очди ва ундан миннатдор эканимни билдириш учун елкасига қўлимни қўйдим-да, ичкарига кирдим.

-Кел, Шунқор, бу ерда керак бўласан, мана бу ифлосларни уришга ҳам ор қиламан. “Ғинг” деганини ерга қулатасан,- деди “Муҳтарам”. Тушундимки, бу кеча уйқу йўқ.

-Мана суянган тоғинг йиқилди,-деди “Муҳтарам” ҳокимга қараб.

Ҳайрон бўлдим. Тоғ қандай йиқиларкан?

-Сенга айтаяпман, йиқилдими ёки ҳали ҳам осмондан тушмайсанми?

Кечагина ҳеч кимни писанд қилмай юрган ҳоким худди иштонини ҳўл қилиб қўйган бўладек шумшайиб

қолганди. Кўз косалари олайиб, йириклашиб кетган. Худди оёғи қопқонга илинган каламушдек, нима қилишини билмаётганди. Гапирсинми, гапирмасинми? Охири инқилаб-синқилаб гапирди:

-Сиз... сиз нима десангиз шу, ернинг тагига кир десангиз ҳам кираман!

-Ер остига киришинг эмас, садоқатинг керак!

-Қанча?-деди ҳоким енгил тортгандек.

-Нима қанча?

-“Садоқат”-да? “Дода”га ишга ўтишда бира тўла берардик.

-Эҳҳее, яхши-ку? Ўша садоқатингдан икки баравари керак!- мийиғида заҳархонада кулди “Мухтарам”

-Бўлди, топаман, фақат болаларим, невараларим...

-Уларни ҳам ўғриликка ўргатаяпсанми? Қаердан оласан бунча пулни? Нимага ўғирлаяпсан? Уялмайсанми, оғайни? Уят санга. Виждонингга ўт кетсин! Падарингга минг лаънат! Аттангга лаънат!

-Кам бўлса... айтинг, уч бараварга чиқарамиз...,- ҳокимнинг нафаси ичига тушиб кетди.

-Тақдиринг кимнинг қўлида? Илгари писанд қилмасдинг? Мен борганда нега аэропортга чиқмаган эдинг?

-Айбдорман! “Дода” буюргандилар...

-Энди ким буюради? “Доданг” кирган жойига кириб кетди. Тақдиринг мана менинг кўлимда! Ҳе, онангни

с...ай, порахўр, ўғри, твар! Нега тиржаяпсан? Қў...ққа куласанми? Онангни о...ига тикиб қўяман сани?

“Муҳтарам” тутокиб кетди ва менга қараб:

-Шунқор, орқасига бир теп, олдинга қочса, юзига тепасан,-деди.

Ҳоким аслида кулмаган эди. “Муҳтарам”нинг гапига жавоб қилмоқчи бўлиб лабини жуфтлаганди, худди мийиғида кулган каби кўринди. Унинг ёнига борсам, ялинган назар билан қаради. Раҳмим келмади. Онасини сўктириб ўтирган одамга умуман раҳмим келмайди. Бундай одамга онангни гўрдан чиқариб олиб кел, деса ҳам йўқ демайди. Ўзини ҳимоя қилмайди. Ғурурсиз, ҳамиятсиз, шаънсиз бу одам. Биламан, у бу ердан қайтиб бориб, бошқаларни худди шундай сўқади ва уради. Шу билан ўзини қониқтирган бўлади. Лекин мен урган каби уролмаса керак. Бир айланиб, сакрадимда, орқасига тепдим. Олди билан бориб деворга урилди.

-Кўрдингми,-деди “Муҳтарам”,-тур ўрнингдан, нимага мен айтган ишни қилмадинг?

Ҳоким энги билан оғзини артган бўлиб, чоьккалаб қолган жойида жавоб бермоқчи бўлди, уддалай олмади.

-Ман санга нима дедим, твар, тур ўрнингдан, дедим, ҳозир башрангдан дарча очдираман!

Ҳоким бир амаллаб ўрнидан турди.

-Аризангди ёзасанми, гапимга кулоқ солиб ишлайсанми?

Ҳоким бошини эгди.

-Сан ҳали гапимга жавоб ҳам бермайсан-ми? Энангни о...ига тикаман сен ҳаромини. Сани гандонлигингни дунёга кўрсатаман! Ҳозир бўғдириб ўлдирсам, нима дейсан, онангни гўрига кирасан, ҳеч ким билмай қолади, ярим тунда олиб бориб кўмишади. Нима, билмайди деб ўйлайсанми, икки кишининг ўзига чуқур қаздириб, тириклайин кўмганингини билмайман-ми? Ўзингни ҳам шундай қиламан.

-“Дода” буюргандилар...

-Ҳе энангни с...кай сани, қотил, қонхўр, жаллод! Намунча “Дода”ни сотасан!

Ҳоким, “Энам” деб бир нарсa демоқчи бўлди,

-Пахтани нега энангни о...ига тикдинг, бу йил бажарасан-ми!

-Бажараман!

-Сенга ишонмайман, пидараз!

-Илтимос, ишонинг!

-Қў...мни ебсан, аблаҳ! Алдайсан! Лекин билиб ол. делавойликни манга қилолмайсан! Мен гапирганда гап қўшсанг кўтанингни суғуриб оламан, билдингми?

-Билдим...

-Ҳозир мана шу ерда кўлингга кишан солайин-ми?

Ҳоким йиғлаб юборди.

-Чиқ йўқол. Агар яна ана уларга мезбонлик қилсанг, кў...тингни йиртиб кўяман! Шу соатдан бошлаб кучли назорат остидасан, ўзингни оқла, пахта-махтангни билмайман, садоқатингни кўрсат! Бошқа вилоятга

ўтказаман, у ерда ҳам ўзгармасанг, қаерга тикаман,
жойингни биласан-ми?

-Биламан...

-Ундай бўлса, топган тутганингни тўпла ва мендан
хабар қут!

Ҳоким худди эмаклаётгандек чиқиб кетди.

Бошқаси кирди. Югуриб келиб “Муҳтарам” билан
кўришаман деганди, у қўлини бермади.

-Сенг қўл берсам ҳаром бўлади. Деворнинг тагида тур,
нах...й! Онангни си...й, сани, нега Ғуломга тилло
ташидинг?

-Қанақа тилла?

-Ҳа, онажонингни си...й сани!

-Нимага онамни сўкяпсиз?

-Ўҳҳҳоо сани онанг борми? Уни сотиб бўлгансан. Нега
Ғуломникини еб юрибсан?

“Муҳтарам” менга юзланди.

-Шунқор, буни бир ихҳиллат, тили узунга ўхшайди.

Нима қилардим? Лекин бунда озгина виждон бор экан,
онасини ҳимоя қилмоқчи бўлди, шунисига ҳам қойил!
Унинг ичига бир ургандим, эгилиб қолди. Тўғриси
қаттиқ урмадим. Ўз онаси учун маҳкам турган одамга
қўл кўтаргим келмайди.

-Ташшоғингни суғуриб оламан, санга ўхшаган
маймунни. Манга лўлилик қилма. Саволларимга аниқ
жавоб бер! Нега унга тилло ташидинг?

-Талаб қилди.

-У отангми, сендан талаб қилади? Нега менга айтмадинг?

-У Марказ мени танлади деганига...

-Ким нима деса ишониб, иштонингни ечаверасанми?

-Йўў..

-Ҳаммасини жойига кўясан. Бундан кейин сакрамайсан! Ўйнашма ман билан, блят, ўйнашма! Сан ишонган одам к...т! Хоин! Сотқин! Сан эса унга шерик бўлиб қолдинг! Тушиндингми? Пидараз, қани айтчи, қаердан бой бўлдинг?

-...

-Оғзинга Ғуломникини солиб олганмисан? Ҳаммасини биламан! Ҳозир шу ерда қамоққа оламан сени, бир умрга кетасан! Ҳаммасини биламан. Кимга қанча ер соттинг? Қанча машинанг бор? Уй-жойларингни қандай қургансан? Базалардан ойига қанча оласан? Бозорлардан қанча терилади? Ҳов тоғларда қанча қўйинг бор? Ҳаммасини биламан. Уруғ аймағингни қаерларга жўнатганинг ва уларнинг номига қаерларда виллалар олиб қўйганингни ҳам...

-Агар шундай қилганимда “Дода” онамани Учқўрғондан кўрсатарди.

- Мен эса онангни о...ига шундай тикаман, қўяман. Мен нима десам, тўнғизим нима дейди? Менга ўлиб кетган “Дода”нгни пеш қилма! Истасам, ҳозирнинг ўзида сани унинг ёнига олиб бориб қўяман.

-Худога эмас, сизга сиғинаман, нима десангиз шуни қиламан, фақат...

-Вот блин, ҳали сан Худога ҳам сиғинасанми? Ҳажга ҳам бориб келгандирсан-а? Ҳожидрсан балки? Йўқ ҳажи қизсан! Ҳозир модага айланган. Оғирлик қилиб-қилиб, кейин Ҳажга бориб келасан-а? Гўёки тоза бўлдинг! Энди виждон ҳам тоза. Ҳаммасини қайтадан бошлайсан, лушқага ботганингдан кейин яна Ҳажга борасан. Ҳаж ҳам санлардан безор бўлгандир? Яна “Ҳожи ака” десалар эриб кетасан. Биз ҳам сени бундан кейин “Ҳожи ака” дейликми? Санлар динни ҳам...

-Изн берсангиз бориш ниятим бор! Ҳали бормаганман...

-Уфф! Сан қонимни ичгани келганмисан? Шунча ифлосликни қилиб, яна гапирган гапингга қара! Томинг кетиб қолганми сани?

-Сизга содиқман!

-Ҳар бир одиминг назоратда. Чик, йўқол! Кўзимга кўринма, Салимхон акага учраш ва у айтган қурилишни таъминлаб бер! Ўшанда ишнинг сифатига қараб, сан билан гаплашаман.

Ҳокимнинг бирдан юзи очилди. Оламида қуёш чарақлади.

-Раҳмат, хўжайин, раҳмат “Муҳтарам”, айтганингизни ортиғи билан бажараман. - деб енгил қушдек учиб чикди хонадан.

Хонага машхур бой, Бош вазир ўринбосари кирди.

-Биласан, энди-энди сени бағримга босаётгандим. Ўзинг чичиб қўйдинг, ўзинг виноват. Сув омборини нега тезлатмаяпсан,-деди унга “Муҳтарам”

-Тезлатдим. Лекин ҳужжатбозлик кўп экан. У ёғини текшир, бу ёғини текшир...

-Манга баҳона топма! “Дода”ни латифа айтиб хурсанд қилардинг. Аммо манга тишинг ўтмайди. Осмонга чиқсанг оёғингдан, ерга кирсанг қулоғингдан тортаман! Нима учун герой бўлганингни, унинг нархи қанча тушганини билмайди, деб ўйлаясанми? Ўзингни эркак деб юрибсанда-а? Кўтингда иштонинг бор. Аммо аёлчалиш гап қиласан. Энди байрамларда жилпанглаб ўйнашинг кетмайди. Сан ҳам аёллар билан бирга юравериб, товукмия бўлиб қолдингми? Шу ернинг ўзида бошингни оламан ва бошсиз тананг билан юриб чиқиб кетишга мажбур қиламан, билдинг-ми?

Бошсиз тананинг ўттиз қадам юргани хақида ўқигандим. Наҳотки “Муҳтарам” ҳам ўқиган?

Олти юзлар чамаси олдин Бавария қироли ўзига қарши бош кўтарган аслзода ва унинг тўрта боласини ўлимга ҳукм қилган. Уларни бошини кесишга буюрган.

Қирол ҳукм ижроси олдидан маҳкумларга охириги сўзини айтишни буюради. Шунда маҳкум қиролга “Бошим кесилгач, сизнинг ёнингиздан югуриб ўтсам, яқинларимнинг гунохидан кечасизми?” дейди.

Қирол тиржаядида, рози бўлади. Маҳкумнинг боши сапчадек учиб кетади. Даҳшат юз беради. Тана қон сачратиб ўтиз қадамдан икки одим ошириб, кейин гурсиллаб йиқилади.

Қирол хушини йўқотиб, кейин ўзига келгач, маҳкумнинг болаларини қўйиб юборади. Бунга ўқиганда мен ҳам ҳайратга тушгандим. Мана энди шундай ҳолат ўзимизда. Қани нима бўларкин?

-Бутун аймоғингни қуритаман. Каллангни эса сапчадек узаман!

Шу пайт кутилмаган ҳодиса юз берди. “Герой” бир сонияда бошини стол устига қўйди ва:

-Бу бошим сиз учун кесилса, розиман! Аймоғим ҳам сизга фидо!-деди.

Бу ҳолат менга ёқмади. Аммо “Муҳтарам”га ёқди. Унинг юзидаги кизариш ғойиб бўлди.

-Бўлди, бу бош меники, истаган пайтимда кесаман, сан бунақа шовменлик қилмагин, айтилган ишни бажар, бажармасанг унвонинг ҳам кетади, бошинг ҳам, яқинларинг ҳам. Бошингни гаровга қўйдинг, унутма! Йўлимдан чиқдингми, бошингни мана шу ерда тегирмон тошининг остига тиқиб, эзғилайман, билдингми?

-Билдим ҳўжайин!

-Билган бўлсанг нега кеча берилган топшириқни савол остига олдинг? Бундан кейин мен айтган гапни савол остига оладиган бўлсанг ўзингни ўша сув омбори остига ётқизаман. Айтдимми, бажарасан! Чиқ йўқол!

У ҳам чиқиб кетганидан кейин “Муҳтарам” менга юзланди:

-Аслида сени бу учун чақирмагандим. Итваччани қаттиқ назоратда тут. Қочиб кетмасин!

-Хўп!

Қочмаслигини биламан. Қочса ўлишини унинг ўзи ҳам, “Муҳтарам” ҳам билади. Лекин бу боғловчи гап. “Муҳтарам”нинг бошқа масаласи бор. Бошлаш қийин

бўлса, шундай тоғу-роғлардан олиб келиб, кейин гап очади.

-Мана шу видеони кўрасан. Икки хулоса керак. Биринчиси, ҳақиқийми? Ҳақиқий бўлса ким олган? Иккинчиси, уйдирмами, унда кимнинг иши? Биламан оғир, аммо топасан, тез!-деди.

-Хўп,-дедим.

Кайфияти бузилган пайтда “хўп”дан бошқа сўз уни “портлатиб” юбориши мумкин.

-Менга биттаси бу хорижда махсус тайёрланган,-деди.- Аммо ишонмадим. Сен аниғини топасан. Ҳа, дарвоқе, ўзингга битта гуруҳ туз. Хакер-сакерлардан беш ўнтасини ишга ол! Бу иш самарали экан. Ўлишимга оз қолди. Сиёсатимизга қарши битта сўз отадган бўлса, уларга мана шунақа видеолар, ясалган суратлар жўнатынглари. Ҳаммаси мақтаниб расмларни интернетга қўяди-ку, ўшалардан фойдаланинглари. Менга бу видео сохта деган одам, ҳозир четда қалбаки видеолар тайёрлаш дастурлари борлигини айтди. Табиийсидан асло фарқ қилмас экан. Суратларни ҳам шундай тайёрлар эканки, ҳатто айтичилар ҳам билмас экан. Ҳаммасидан сотиб ол! Ман бу ишёқмасларни ҳам шу йўл билан назорат қиламиз. Аввалига ўзи ҳақдаги порно видеони ўзига юборасан, кейин менга. Кўрасан, ҳаммаси чўккалаб қолади!

Аслида олдинги ишхонада шундай хизмат бор. Биз уни “Жалабхона” дердик. Чунки порночилик билан банд бўлган болаларнинг ўзлари соғ эмасга ўхшардилар. Афтлари айтиб турарди. Лекин улар қилган ишни бошқаси қилолмасди. У жойга кирилмасд ва у ерда нима борлиги сир тутиларди. Бир марта кирганман. Қарасам,

машҳур аёлни расво қилиш устида банд эканлар. Гапнинг очиги экранларига қараб қусгим келди. Қайтиб у жойга бормадим.

Демак, мен ўзимга махсус “Жалабхона” очарканман. Бу кетишда қўшмачилк ҳам қиласан, ҳали, Шунқор!

Бизнинг иш шунақа, баъзида бирдан қудукқа тушиб кетасан. Қутқарадиган одам йўқ. Аксинча бир илож қилиб жон сақласанг, қаерда эдинг, деб қойишади. Шунчаки қойиш бўлса майли, эшитган гапингдан суякларинг зирқираб кетади.

Яна қудукка тушдим, шекилли ?!

Кеча Нурхон ёнимга келиб:

-Қарзингиз кўп! Биттасини узадиган пайт келди,-деди.

-Бошим қилдан ҳам инжа,-дедим.

-Инжа деганингиз нима?

-Нозик...

-Кимдир бизни видеога олибди...

-Олса олар!

-Йўқ, ёмон вазиятда.

-“Кал” биланми?

Нурхон қизариб кетди, кўзларида олов ёна бошлади.

-Ҳаммаси сизнинг ишингиз, аслида. Ҳаётимни издан чиқариб юбордингиз,-деди ярим жаҳл билан.

-Нима қилай? Бу ерлардан бош олиб кетайинми ёки отангизга кириб “Бир гуноҳ қилдим, кесинг бу бошни” деяйинми?

-Гапни бурманг! Мен уни уйдирма, дедим. Аниқламоқчи. Сизга видеони бериши мумкин. Бу масалада бошқага ишонмаслигини биламан. Балки аёл деб хотинчангизга бериши ҳам мумкин. Йўқ, ундай қилмайди, Сизга беради. Сиздан талабим: унинг сохта эканлигини отамга исботлаб берасиз!

-Тушунмадим!

-Нимани тушунмайсиз? Сиз Зухрангизни кучоғига кирганда мен қараб турармидим? Мен ҳам инсонман. Менда ҳам юрак бор, ҳис бор, ҳирс бор! Нима қилай, “кал”нинг қайиғига миндим!

-Демак, видео ҳақиқий, уни қандай қилиб ёлғон дейман, бошқага кўрсатсалар-чи?

-Намунча кичик қиласиз, бўлмаса отамга ҳаммасини айтаман, сизга қўшиб мени ҳам қамаб юборсин! Бошқа йўл йўқ! Истасангиз хакерларни ишга солинг, истасангиз қайтадан олинг видеони, истасангиз бирор жойингизга тикиб қўйинг!

Ўле, Шунқор! Нима ҳолга тушдинг? Тағин генерал бўлдим, деб ғурурингга осилиб юрибсан. Бунақа гапни эшитгандан кўра, қамоққа кириб ўтирсанг яхши эмасми? Эркакмисан ўзи? Бу эрка-тантиқ жипириқи сени эшак қилиб минишни бошлайдими, орқанга халачўп урадими?

-Менга бунақа гапирманг, ҳозир бориб истеъфомни бераман ва видеони қаерга тикиб қўйишни ҳам қулоғингизга пичирлаб қўяман!-дедим жаҳл билан.

Шартта орқага бурилиб кета бошладим. Шундай ҳам ишим бошимдан ошиб ётибди. Шундай ҳам на уйқумда, на хушимда ҳаловат қолди. Энди кеча кучоғимга сидирилиб кирган тошбақа, бугун устимга чиқиб сиядимми?

Нурхон югуриб келиб қўлимдан ушлади:

-Кечирасиз мени! Хато қилдим. Олдин ҳам сизни вазифа учун менга яқинлаштиришган. Балки унинг ҳам видеоси бордир? Балки отамнинг қўлига етгандир? Нима бўлса ҳам ёрдам беринг! Сўзимизга мен хиёнат қилдим! Чидай олмадим. Бундай кейин сизга қаттиқ гапирсам, тилим кесилсин, ўшанда озгина бўлса ҳам қоникқанингиз ҳаққи ёрдам беринг, қутқазинг, ҳаётим сизнинг қўлингизда, бир умр қулингиз бўламан!-деб ёлворди. Лекин буларнинг ҳаммаси буқаламун. Иши битсин, кейин яна ўзига қайтади.

Пушаймонлиги ҳам бор, сўзлари титраб чиқаётганидан, киприклари намланганидан ҳам маълум эди.

-Хўп!-дедим, ва кеттим. Мана энди видео қўлимда. Унда нима бор? Наҳотки иккаласининг тўшакдаги ҳоли олинган?

Хей, Шунқор, қанақа йигитсан, видеони қандай кўрасан? Чидай оласан-ми, рашкинг кўзғалмайди-ми?

Нималар деяпман ўзимга. Зухра билиб қолса, нима бўлади?

Балки бу бошқа видео бўлса-чи? Дунёда битта ёзув бўлмайдик-у?

Аввал кўр, кейин хулоса қил, Шунқор! Ўзингни қўлга ол! Сенда олдинги қатиятдан учқун ҳам қолмади.

Талтайиб кетаяпсан, унутма сен зобит. Зобит бўлганда ҳам энг юқорини кўзлаган зобит. Орзуларинг бор!

Ярим тун. Уйга боролмайман. Зухра ухлаб қолган бўлса керак? “Мухтарам” чақирдими, қачон қайтишим номаълум эканлигини у яхши билади.

Ишхонамга кирдим. Эшикни ичкаридан қулфладим. Пардаларни туширдим. Интернетни тармоқдан уздим. Атрофни кузатдим. Ҳар қанча ишонсанг ҳам барибир текшир, бу бизнинг қуролимиз! Ўзимнинг алоҳида хавфсиз компютеримни олдим ва флешкани қурилмага тикдим.

22. “Лап-Лап”чи

Ғуломни уйига олиб борганимда, ўзи гап қўшди.

-Ука, яхши ёрдам қилдингиз, буни унутмайман-деди. Товушини тегирмон тоши босаётгандек аранг гапирди.

-Буни яхшилиқ ёки ёмонлик деб бўлмайди, шунчаки вазифамни бажардим,-дедим дарҳол.

-Дарвоқе, сиз ҳаққингизда ҳам билганим бор, аммо айтмадим. Нега иккита тобут қилдингизлар?

Юрагим шув этди. Бу қаёқдан билди? Кимлар биларди ўзи? Наҳотки Зухра? Йўқ, унинг оғзи маҳкам, кўзи кўр бундай ишларга. Ғулом ўйлаб кўриш учун вақт ҳам бермасдан хужумга ўтди. Гўё тилининг устидаги тегирмон тошини туфлаб ташлади ва овозини борича қўйиб юборади.

-Ҳа, йигитнинг гули, нафасингиз ичингизга тушиб кетди?- Шундай деб у бирдан қудуққа тушиб кетган одамдек товушини секинлатди.

-Ҳа, биламан, бу топширик бўлган ва вазифангизни бажардингиз. Парво қилманг.

Шунқор, бурнингдан илиниб қолдингку? Энди нима қиласан? Ишқилиб давомини билмаган бўлсин-да? Э, қаёқдан билади? Бу ёғини ҳатто Зухрадан ҳам яширгандим.

Шу пайт Ғулом иккинчи “граната”ни отиб юборди. У айлана-айлана бошимнинг ичида портлади.

-Иккинчи тобутга нимани тикдингиз? - Бу гап қулоқларимни шанғиллатиб юборди. Худди ўзим сўроқ қиладиган, бошининг устида кучли лампани қўйиб, ухлашга бермасдан, саволга тутганларимнинг аҳволига тушдим.

Кўзларим олди тундлашгандек туюлди. Атрофдаги чироқлар хира тортиб, ҳатто светофор ҳам кўзимга кўринмабди. Қизилда ўтибман, оз қолди қаттиқ фалокат юз беришига.

-Шунчалик та’сирланадиган экансизу мен бўлсам сизни қўлга олиш қийин деб юрибман, - Ғулом писмиқона овозини ўзгартирмай гапирди.

Индамасам, кўрқадиган чиқаради. Балки ўзимни кўрққан қилиб, унинг хизматига кирайинми? Ҳамма нарсани билиб олардим. Йўқ ёниб кетаман. Унга балки «Муҳтарам»нинг бисотидаги сўзлардан бир-иккитасини қўйиб юборсамми? Ўзингни бос, Шунқор, бу билан бошқача гаплашиш керак.

-Аслида иккинчи тобутга сизни тикиш ҳақида буйруқ олгандим,-дедим. Тилимга келган келган бу гапдан ўзим ҳам илҳомланиб кетдим. -Менга қолса, бўлаклаб тикардим. Аммо «Муҳтарам»нинг сиз билан учрашишга

кўндирдим. Шундан кейин у ёғини амалладим. Қайси бир ма'нода ўзим ўзимга қарши чиқдим. Ҳайвонга айланиб кетмаганимни кўрсатгим келди.

-Ўзим ҳам шундай деб ўйладим. Нима бўлганда ҳам кўнглингиз тубида қандайдир одамгарчилик ҳисси бор. Бу яхши хислат. Фақат бизнинг ишда панд беради. Ҳозир эса фойдангизга ишлади.

Индамадим. Хаёлим минг кўчаларга кириб чиқмоқда. Қаерда хато қилдим? Ишонгаларимдан ким сотган бўлиши мумкин? Улардан бирортасини ҳам аралаштирганим йўқ. Телефон махсуз... Э, тўхта, махсус телефонни ҳам бузиб кирадиган ускуна олишганди-ку?! Демак, ҳали ҳам анча одам бунга ишляпти. Уни синаб кўрмоқчи бўлдим:

-Йигитларингиз ҳам чакқон, ҳам қулоқлари яхши эшитади,-дедим.

-Бу ҳам бор гап. Аммо «Дода»нинг ўлигини олиб кетган машинани кузатишдими, йўқми, бу диққатингиздан қочди. Кўрдингизми, ба'зи ҳолларда телефоннинг аҳамияти қолмайди.

Демак, бизни кузатувга олишган ва жасадни олиб кетган машинани ҳам кузатишган.

-Унда нега индамадингиз? Жуда кўп блогерларингиз борку? Шов-шув бўлиб кетарди,-дедим кинояомуз тарзда.

-Хўп, видео чиқарди, нима бўларди? Натижа чиқармиди? Йўқ. Битта сиз учардингиз, балки Зухра ҳам. Қаердандир ёмон хабар олгандик, хавфсизлик нуқтаи назаридан шундай қилдик, дейиларди. Олам гулистон, ҳамма ишонарди. Ҳатто портлатмоқчи бўлган

соқолли одам ҳам ушланарди. Бунинг устига ўзимнинг ҳаётим ҳам таҳлика остида қоларди. Сиз менга яхшилик қилдингиз, мен қарздор бўлиб қолмаслик учун жавобини қилдим ва бу ҳақда гапирмадим.

Унинг уйига етиб келганимизда, у юмшоқ овозда”

-Битта илтимосим бор,-деди.-Сездим, у аёлнинг овозини танидингиз. Қолаверса, унинг изидан тушишингиз аниқ. «Мухтарам» уни йўқотиш ҳақида топшириқ бермаган бўлса, энди беради. Ўшанда ҳам тобутнинг ичига бошқа нарса тикиб юборсангиз, бас. Фақат бу сафар тўнғиз боқадиган одамдан ҳушёр бўлинг!

У машинадан бир қадам узоқлашди-да, орқага қайтиб, қулоғимга пичирлагандек:

-Биз хато қилдик, «Дода»ни биз ўлдиришимиз керак экан. Уни севганимиз панд берди,-деди.

У уйига кириб кетди ва гўлга ўхшаб орқасидан қараб қолдим. Унинг жуда усталиги ҳақида ҳар кун эшитардим. Аммо бу қадар қув ва ҳаммаёқни назорат қилади, деб ўйламагандим. У ишдан олинганидан кейин ҳам унга содиқ одамлари бор экан. Улар мансаб орқали эмас, пул орқали боғланган бўлиши керак. Ўшаларнинг изига тушиш зарур. Уларни ким таниши мумкин? Олтин заҳирасидагиларми? Қариндош уруғларими? Вилоятдошларими? Хуллас, иш кўп. «Мухтарам» билан бу масалани очиқча гаплашиб олишим кера

Бу менинг ожизлигим эмас, балки Ғуломнинг кучли эканлиги. «Дода» унга қаттиқ ишонган ва ҳамма имкониятлар йўлини очиб қўйганди. Истаган пулига истаган нарсасини сотиб оларди. Исроилдаги битта ширкат интернетни назорат қиладиган дастур ихтиро

қилганда, биринчи бўлиб биз олгандик. Ҳамма ҳайрон бўлган. Мана ман деган девлар ҳам уни жуда қиммат деб турганда биз дарҳол олдик. Кейинчалак билдикки, бошқалар бу дастурни ўн барабар арзониға олишган. Текширув ўтказиб, «Дода»га олиб чиқилганда:

-Ҳамма нарсанинг биринчиси қиммат бўлади, Ғуломга ўзим изн берганман, қанчага бўлса ҳам олавер деганман,-деб ишимизни орқага чевирган.

Салтанат дегани катта кўлга ўхшайди. Унга атрофдан тоза сув қуйилмаса бижиғиб кетади. Йиллардир шундай бўлди. Кўлмакдаги балиқлар семириб кетди. Сув тошбақлари офтобда тобланишгагина чиқади. Тикилиб турсангиз сув илонлари лип этиб чиқиб, лип этиб кириб кетишади. Сув сарғая боради ва атрофларини кўкимтир чиқинди босади. Одамлар ундан узоқлашадилар. Бу кўлдан фойда йўқлигини билиб, парво ҳам қилмайдилар. Салтанат ана шу аҳволга келиб қолганди. «Мухтарам» уни тозалай олармикан? Уриниб кўради. Аммо тозалай олмайди. Чунки ўзи ҳам унга ўрганган. Шу кўлмакда семирди.

Шунқор нималарни ўйлаяпсан? Сен дарёда эдингми? Сен ҳам шу кўлмакда эдинг-ку? Тўғри бир четида. Ҳозир ҳам унинг бир четидасан. Фақат керак бўлганигда чорлашади. Яхши ишларга эмас, қора ишларни сенга ишонишади. Бу эса сени ақлли, доно деб билишгани учун эмас, балки таҳликали одам деб қарашгани учун. Йўлларида кудук чиққанда сени туширишади. Сув борми, аждар борми, билмайсан, тушиб кетаверасан.

Хаёлимни телефони бузди.

Телефонни очишим билан «Мухтарам»нинг бақирок овоз эшитилди.

-Кўрдингми?

-Кўрдим!-дедим аскарларга хос шиддат билан.

«Мухтарам» бир зум тин олдида, энди босиқ овоз билан:

-Фикринг қандай?-деди. Бу худди тоғ тепасидан қулаб тушган одамнинг овози каби хаста сас эди. У шу дамда икки олов орасида эди. Ўнгга қайрилсанг ҳам ёнасан, чапга бурилсанг ҳам. Лекин менга ишонади. Агар видео ҳақиқий десам, тамом, дунё ағдарилади ва бир чети ўзимни ҳам парчалаб кетади. Шунинг учун куттирмай:

-Жуда табиий қилиб яшашган, аблаҳлар,-дедим. - «Дода»нинг вақтида жуда зўр дастурлар олинганди.

-Бу ҳали бегонанинг иши эмасми?- «Мухтарам» ажаблангандек савол берди. Жойи келди, от болам, дегандек,

-Гуломнинг болалари қилади бу ишларни,-дедим.

-Ҳаммасини камокка ол, булбулчадек сайрат! Керак бўлса улар билан ўзим гаплашаман. Ҳаммасини онасиникига тикиб қўяман!

«Мухтарам» шундай деб телефонни қўйди. Биламан, у доим махсус иш буюрса, бир палласига ўзини ҳам қўяди. Бу билан мени назорат қилмоқчилигини кўрсатиб туради. Яхши усул. Одамни доим ҳушёр сақлайди. Лекин жуда тез эсидан чиқиб кетади. Бу иши кўплигиданми ёки бошқа сабаби борми, ҳали билмайман. Саломатлиги яхшидек. Лекин дўхтири сир бермайди. Ҳар эрталаб сузади. Бир-икки марта

тўсатдан оқсаб қолганини кўрдим. «Дода» ҳам шундай эди.

-Сузганлар тўксон тўртга киради,-дерди “Муҳтарам” «Дода»га ёқадиган гап айтгиси келса.

-Нега юз эмас,-дерди “Дода”.

Бундай пайтда «Муҳтарам» қовун туширмасликка ҳаракат қиларди.

-Сиз юзда ҳам сузишингизга шубҳа йўқ. Сиз йигирмата “Лап” қилганда, биз аранг ўнтага етаяпмиз,-дерди.

Ховузда нариги томонга бир марта сузиб бориб келишни шундай дейишади. Дода бир пайтлар Америка элчиси билан бирга сузаркан, элчи ҳар бир бориб келганда овоз чиқариб “Лап” деб санар экан.

«Дода» орқаваротдан гапирганда элчини “Лап-лапчи” дерди. Мана энди «Дода» даф бўлиб кетти. «Муҳтарам» ҳам “Лап-лапчи”. Бошқа тилнинг сўзи шу қадар кучлимики, дарров юқиб қолади?

Уйга келдим. “Муҳтарам” чақирмай кўйди. Аввалига буни “Бориб дамингни ол!” деган гапига йўйдим. Аммо вақт ўтавергач, ҳаёлимни ҳар турли тасаввурлар забт эта бошлади. Сен ҳаққингда ёмон гапиришса чап қулоғинг, яхши гапиришса ўнг қулоғинг қизийди, дердилар онам. Негадир доим чап қулоғим қизиётгандек туюлаверди. Зухра таскин беришга уринди.

-Яхши эмасми, дам олайлик, бирга бўлишга ҳаққимиз йўқми, балки «Муҳтарам» шуни истагандирлар? Мана кўрасиз, ҳали бир-биримизни кўришга ҳам вақт бўлмай қолади.

-Бўпти, кетдик, ресторанлаб келамиз.-дедим унга.

-Боргим йўқ, кўнглим айниб турибди,-деди у ва диванга чўзилди.

Кейинги кунлар ҳам шундай бўлди. Ўқчий бошлади.

-Зухра бўйинда борми?

-Қаёқдан олдингиз бу гапни?

-Менимча шундай. Ҳаракатларинг айтаяпти.

- Қани эди, ҳомила тутса, бир муддат расво ишлардан узоқда бўлардим.

Қўлим билан атрофни кўрсатиб, эшитишлари мумкин ишорасини бердим ва:

-Парво қилма, ўша расво ишларни мен қиламан. Қозон-товокни ҳам ўзим юваман, ахлатни ҳам ўзим чиқараман,-дедим.

У менга қараб жилмайдида:

-Унда бир текширтиришим керак. Илоҳим ҳомиладор бўлайин ва ҳамма расво ишларни сизга юклаб қўяйин,-деди.

Тўхта биз қачон алоқа қилгандик у билан? Неча ой бўлди? Кўнгил ўзингга душман дейдилар. Зухрага қарасам:

Кўзлари чакнай бошлади. Уйда ўзини кўярга жой тополмай қолди.

-Шунқор ака, нега бу қадар бепарвосиз? Ахир боламиз бўлиши мумкин? Нега севинмайсиз? Нега югуриб бориб гул олиб келмайсиз?-деб саволга тута бошлади.

-Ҳаммаси кўнглимда бор. Сувни кўрмай этик ечмайлик. Қани текширтир. Шундай бўлса, сени бошимга тож қилиб кўтараман.

-Олдинги хотинингиз кабири?-деди у бирдан. Жаҳлим чиқди.

-Калланг жойидами?-деб юбордим.

Бу гапим Зуҳарага қаттиқ ботди.

-Сиздан худди шу гапни кутгандим. Билман - севинмайсиз. Биламан - бу бошга бало бўлади деб ўйлайсиз. Биламан- сизга оила эмас, иш керак!

-Билсанг нега мени қийнайсан! Нега бирдан ўзгариб қолдинг...

Гапимни тугатмасимдан у йиғлаб юборди. Ёнига боришим билан ўрнида туриб ванна томонга югурди ва ўқчий бошлади. Бориб бошини ушлаб турдим. Унинг кўзлари киртайиб, томчиларга тўла бошлади. Ҳар оёқчиганда вужуди титраб, қўрқинчли овоз чиқарарди. Бу кўпга чўзилмади, юзини ювдида:

-Анор беринг, анор ейман,-деди.

-Ҳозир олиб келаман деб ташқарига югурдим. Супермаркетдан анор олиб чиқаётсам:

-Шунқор ака,-деди бир йигит. Танимадим.

-Кимсиз?-дедим. Танимадингизми?

-Йўқ...

-Мени ушлаган эдингиз. Доллар ясаб юрардим. Қўлга олиб, ўн йилга қаматгандингиз. “Звонокдан звоноккача» ўтириб чиқдим.

-Энди бу ишларингни қилма...

-Қамокдан чиқсанг менга учра деган эдингиз, мана топдим сизни.

-Қандай топдинг?

-Эсингизда йўқми, мени энг зўр хаккер экансан, дегандингиз. Майли анорни Зухра опамга беринг, бош қаронғи бўлганлар. Қайтиб чиқсангиз, гаплашамиз,- деди.

Жаҳлим чиқди. Ёқасидан олиб, улоқтирмоқчи бўлдим. Аммо тийилдим. Бу бола демак уйимга «қўнғизча» қўйган. Аммо қандай? Балки компьютерга улангандир? Буни билишим керак.

-Юр, анорни берайлик, кейин гаплашамиз,- дедим.

Уйга келсам, Зухра анча ўзига келибди.

-Иш чиқди,- дедим унга.- Сен анор еб, уйни текшириб чиқ, компутерларни ҳам. Бизни эшитишаяпти экан. Мен бироздан кейин қайтаман.

-Айтганмидим, иш чиқса жонингиз киради, деб.- Майли, тезроқ айтинг.

Ташқарига чиқсам, бояги йигит:

-Деразангизга «тариқ» антенани отгандим, ҳамма дигитал нарсаларга «кирдим». Деразангиздаги «тариқни» ўзингиз олиб ташлашингиз мумкин. Чап томондаги деразанинг юқори қисмидаги ўнг бурчакда,- деб кўрсатди у.

-Отинг нима эди?

-Отабек.

-Ўн йилда хакерлик ёдингдан чиқмабди-да?

-Бу ишим хакерлик эмас, жосуслик. Ўн йилда яна ҳам пишдим. Чиққанымдан бери идорангиздаги компютерларга ҳам “сафар қилдим? Ғулом ака билан гапларингиздан ҳам хабарим бор. Икки ҳафтадан бери уйингизда қолаётганингиз сабабини ҳам биламан.

-Унга ишладингми?

-Йўқ. Унинг қамалиб кетиши аниқ. Сизга ишламоқчиман. Сизни ҳурмат қилиб қолгандим. Ўшанда мени қандай топганингизга тан берганман.

-Бўлмаса, шантаж қилаяпсанми, пулга эҳтиёжинг борми?

-Йўқ. Истага банкадан истаганим қадар тортиб олишим мумкин.

-Унда менга қандай талабинг бор?

-Сиз билан бирга ишламоқчиман.

-Нега?

-Умримни қолган қисмида ватанга хизмат қилиш ниятим бор. «Гнида»ларга кўрсатиб қўяман. Кўчасига ҳам, ментларига ҳам. Улар қамоқда азоб беришди менга. Қандайдир конга олиб бориб ишлатишди. Сочим тўкилди. Маззам қочадиган бўлди. Ҳунаримни кўрсатиб, кейин ўлсам бўлаверади.

-Нега ўлими ўйлаб қолдинг?

-Саратон касали деб ташҳис қўйишди. 4-5 йил умрим бор экан. «Гнида»лар мани шу куйга солишди. Уларга уруш очдим.

У самимий эди. Ҳақиқатдан сочи тўкилган, қоши оқарган, юзи зафарон. Бироз тожикча акцент билан гапирарди. Кимлардандир қасд оладиган қиёфаси бор.

-Нимадан бошлаймиз,-дедим уни синаш учун.

-Ман уже бошладим. Мана бу флешкани кўриб чиқинг. Ундай кейин учрашамиз.

-Сени қандай топаман?

-Мен ўзим сизни топаман. Бу флешкани кўриб, анализ қилишингиз учун 3-4 кун кетса керак. Якшанба куни соат 3-5 орасига бирор нарса режаламанг, қаерда бўлсангиз ўша жойга келаман.

-Телефонимга ҳам кирдингми?

-Йўқ эни кираман,-деди у ишонч билан. Кулиб қўйдим ва хайрлашдик. Аммо шу дамда ўзимни ўта билимсиздек, қўлида иш келмайдиган одамдек ҳис қилдим. Битта «зек» бола мени мот қилиб қўйди.

Лекин кўнглимда негадир бу бола Ғуломга ишлайди деган бир ҳадик бор. Тезда уйга кириб, флешкани эски компютеримга уладим. Унда антивирус кучлироқ эди. Айтиб бўладими, ўйин бўлиши ҳам мумкин. У билан суҳбатни кийимга қўйганим митти видео билан ёзиб олдим, у сизди шекилли, кўпинча бошқа томонга қараб гапирди.

Флешкани уласам, ичида тўққизта зип файл бор экан.

Биринчисининг номи: “Салом Шунқор ака” деб номланган. Очсам, менинг йиллар давомида идорада тўплаган файлларим. Ҳа, бу Ғуломнинг одами! Бўлмаса буларни қайердан олади?

Иккинчи файлининг номи: “Салом Зухра опа” деб номланган. Уни Зухрага кўрсатгим келмади. Шундай ҳам боши оғриб, кўнгли айниб турибди.

Кейинги файл раис ҳақида. Ҳатто «Мухтарам» ҳақида ҳам ҳужжатлар, видеолар тўпланган. Унга “Лап-лапчи” деб ном қўйилган. У болани тезда топиб, қамокқа олгим келди. Аммо ишни хом қилгандим. Уни топиш учун вақт кетади. Кутишдан бошқа иложим йўқ.

У қандай қилиб бу файлларни қўлга киритди? Хакер бўлганда ҳам бунинг иложи йўқку? Қандай қилиб тизимга кирди? Электрон мактублашма тизимига киришнинг йўлини топиш мумкин. Аммо тизим ичидаги махфий ҳужжатларни қандай қилиб олди экан? Охириги файл Ғулом ҳақида Унинг ҳамма қилмишлари тўғрисида видеоёзувлар, унинг сирли сўзлашувлари, гиёҳванд моддаларни қайси йўллар орқали олиб келиб, қаерларга етказиб бергани, ўлдирган одамлари... Кўнглим бироз хотиржам бўлди. Демак, у Ғуломга ишламайди. Қандай қилиб бунча ҳужжатларни тўпланган? Ким кимни кузатган? Ким ёзиб олган? Ўйлаб ўйимга етолмадим. Ухлаб ухлай олмадим. Масаланинг учини Зухрага айтгандим. У ҳам хайрон.

Диққатимни чил-чил қилиб юборгани «Horse» деб номланган zip-файл бўлди. Наҳотки? Наҳотки, мен ишонган одам хоин? Наҳотки унинг ҳамма гапи ёлғон? Қандай қилиб у рол ўйнаб яшамоқда? Инсон умр бўйи иккинчи юзи билан яшаши мумкинми?

Шу дамда «Мухтарам»ни пана жойга олиб бориб, дўппослаб-дўппослаб сўроқ қилгим келди. Тўхта, буларнинг бари ёлғон бўлсачи? Мақсадлари уни

йўқотишдир? Шунқор, хушёр бўл, ўйин ичидаги гирдобга тушиб қолма!

Хуллас, ҳафта охирига қадар дўзах азобини кўрадиганга ўхшаяпман. Ким? Ким? Ким? Фақат шу савол, худди икки дамли ханжарга ўхшайди бу савол. Миядан чиқараман десам, юракка урилади, юракдан чиқариб ташлайман десам, биқинимга санчилади. Э, Худо, кунларинг бунча узоқ, тунлар бу қадар узун! Тонг отиши ўлим қадар, куни ботиши ўлим қадар! Атрофимда ким бўлса, ҳамманинг сир-асрори тўпланган. Уни кўрганимда юзига қандай қарайман? Устимдан кулмайдими? Жилмайиб, масхара қилмайдими?

23. Қаҳрамон

«Муҳтарам» чақирмаётганидан мен хавотирда, Зухра эса мамнун. Уйқум келмайди. Зухра пишиллаб ухлайди. Жуда кўп ухлайдиган бўлиб қолди. Янгиликларни интернетдан билаяпман. Дунёда энг ёмон нарсани сени унутиб қўйишлари, ҳеч кимга керак бўлмай қолишинг. Ким билсин, балки «Муҳтарам»нинг қандайдир режалари бордир? Яхшилаб дам олсин, деб ўйлаётгандир? Балки видео ҳақида айтган гапим ёлғонлигини билгандир? Кўзимга қарашдан уялмоқдами? Йўқ, ундан ҳамма нарсани кутиш мумкин, аммо уятни эмас. У уятни етти қават кўрпача қилиб, устига чиқиб ўтиради.

Лекин уйқимни ўғирлаган «Муҳтарам»нинг чақирмаётгани ҳам э мас, балки Отабекнинг файллари.

Айтилган кун ҳам келди. Вақтидан олдинроқ кўчага чиқиб, пана жой изладим. Йўқ, пана жой хавфли. Агар кузатишса, суратга олишлари кулай. Видеога туширишлари ҳам осон. Яхшиси эски тактикани

қўлламан. «Эвос» кафесига бордим ва битта кофе ҳамда енгил егулик олиб, деразадан узоқроқ жойга «чўкдим». Энди атрофга қарайман дегандим, Отабекка кўзим тушди. Демак, у анча олдин уйимнинг ёнига келган ва чиқишимни кутган. Кейин орқа «вагон»га айланган. Ўл-э Шунқор! Шунча ҳам боқибегам бўласанми? Ҳушёрлигинг қаёққа йўқолди? Миянгни ёғ босдими? Ўзингни бу боланинг қўлига лакка балиқдек топшириб қўйдинг-ку! Йўлини топ ва уни мот қил.

Бундай пайтда яшин тезлигида ўйлаш ва худди шундай тезликда хулоса қилиш зарур.

Отабек ҳам бир нарасалар олиб, ёнимга келди ва салом берди.

-Яхши жой танлабсиз,-деди у салом-алик қиларкан.

-Ҳа, бошқалардан яширадиган гапимиз йўқ. Лекин уйдан чиққанда сизни сезиб қолдим, кузатиб келганингизни ҳам билдим. Аввал кўчада гаплашайлик деб ўйладим, кейин бу жойда доим мусиқа борлиги ёдимга тушди.

Отабек жилмайиб қўйди.

-Йўқ сизга «дум» бўлмадим. Телефонингиз «локация»сидан кузатдим.

-Телефоним?

-«Блутус»ни доим очиб қўясизку? Лекин бошқа йўллари ҳам бор,-деди у муғомбирона тиржайиб.

-У ҳолда мени бошқа одам кузатмоқда. Балки иккаламизнинг бир орага келаётганимиздан кимлардир хавотирга тушгандир?-дея ўзимни оқлашга уриндим.

Шунча тажрибанг бўлиб, мана бунга кулги бўлиб ўтирибсан, Шунқор! Сенга нима бўлмоқда?

-Кузатаверсин,-деди Отабек. Қўлидан нима ҳам келарди? Энди сизга нарвон қўйиб ҳам етиб бўлмайди. Истаган одамингизни оловга отиб, жизғанак қилишингиз мумкин.

Пастдагилар тепадагилар ҳақида шундай ўйлашади. Аммо тепага чиққан сайин қўрқувга енгилиш борлигини билишмайди. Ҳозир ҳов ана у бурчакда аёли ва икки жажжи боласи билан ўтирган одамга қанчалик ҳавас қилаётганимни бу қаёқдан билсин. Ҳаётим ҳаётми? Дўзахнинг қоқ ўртасидаманку?!

-Ҳа, «дума»га кириб кеттингиз?,- Яна ҳаёлимни бузди Отабек.- Хавотир олманг, энди ёнингизда «атасник» бор.

-У нима нима деганингиз?

-Сизларга қамоқ сўзларини ўргатишмаганми? «атасник» деб хавотирдан огоҳлантирувчи «длинок»ка айтилади.

-Бироз биламан, сен ҳақиқатдан ҳам «длинок», ақлингни ишлатишни биласан. Ҳа, майли, менга ўша сўзларингни камроқ ишлат. Умуман ишлатмасанг ҳам майли.

-Ҳаракат қиламан, шеф!

-Мақсадга ўтайлик. Бу нарсаларни қаердан олдинг?

-Жаҳлингиз чиқдими, яна сенлаяпсиз? Ё доим сенланг, ё сизланг. Хафа бўлиш йўқ. Яхшиси сенлаб гапиринг. Бу «своаяк»нинг белгиси. Бизнинг дунёмизда шундай дейишади. «Шуллер»га «своаяк» бўлиш катта мақом.

-Хўп, укам, бас қил бунақа жаргонларни. Мен «пахан» эмас, демак «Шуллер» ҳам эмас. Буни қаердан олдинг?

-Тахмин қилмадингиз-ми?- Отабек яна кўзини пастга олиб кочиб, ўзини тиржайган қилиб кўрсатди.

-Шу қадар кўп нарсаси, тахмин қилишга ҳам вақт тополмадим,-дедим унинг бу ҳолатига эътибор қилмай.

-Ҳа, мен ўзим шунчаки қараб чиқишим учун бир ҳафта кетди. Аммо сизнинг «талантуша»нгиз мендан кучли, шу учун қисқа вақтда ҳаммасини кўздан кечирасиз деб ўйладим.

-Шунақа бир-биримизга «ланка» тепиб ўтираверамизми? Гапни қисқа қилайлик!

-Ака, мен касалман, айтгандим сизга. Умримнинг қолган қисмини юртимга атадим. Бу файларни кўрганимда кўз олдим қоронғулашиб қолди. Ватанни қутқазиш керак. Иккита ўғлим бор. Уларнинг эртанги куни нима бўлади? Яқинларимиз, ота-оналарим нима қилишади? Уларни қиличдан ўтқазишадими? Қул қилиб олиб кетишадими? Бу гапларим сизга кулгили бўлиши мумкин, аммо мен ўғилларимни жуда қаттиқ севаман. Қамокдалигимда туғилди биттаси. Шунинг учун исмини Озодбек деб қўйдим. У озодликда эди, мен эса банди, қилган хатоимнинг бадалини ўтаётгандим. Мана энди унинг озодлиги иккаламизнинг қўлимизда.

Отабек, Отабек, мана одамга ўхшаб гаплаша оларкансанку? Кўп китоб ўқиганинг ҳам сезилиб турибди. Аммо икки шахсияти бор одамдек, боя бошқа юзингни кўрсатаётгандек эдинг. Маҳбус каби гапираётгандинг. Энди эса озодликдасан.

-Мана шундай одам тилида гаплашавер,-деб қўйдим унга.-Саволга аниқ жавоб қилмадинг?

-Менимча қаердан олганимни биласиз. Аммо қанчага олганимни билмайсиз.

Тушундинг Шунқор! Оддий одамлар интернетнинг юзини кўришади. Хакерлар эса унинг орқа томонида, қора зонада ҳаракат қилишади. Бозорлари бор. Файл сотиб, файл олишади. Баъзан маълумотларни текинга алмашадиар.

-Менга қизиғи бу нарсалар қандай қилиб қора бозорга тушди? Ким тўплади буларни? Ким ёзиб олган? Қандай ёзган?

-Катта пулга сотиб олдим, ўз миллион долларга. Юз миллион сўраса ҳам топиб берардим.

-Мен боғдан келсам, сен тоғдан келаяпсан. Бунақада бирга ишлай олмаймиз. Асабимга ўйнаяпсан.

....,-У ўйланиб қолди. Демак, гапим таъсир қилди.

-Хўп, ўн миллионни қайердан олдинг?,-дедим қатъий оҳангда.

-«Муҳатарм»нинг фондидан чиқардим.

-Билишмадимми?

-Ким ҳисоб-китоб қилади? Бир пайтлар ўзингиз ҳам шу фонддан амалдорларга тарқатар эдингиз. Ҳисоб-китоб қилинармиди?

Бу бола ҳамма нарсани билади-я? Шунақа одамларимиз бору биз кимларгадир қарам бўлиб юрибмиз. Нега ўша пайтда бу болани қутқазиб, ёнимга олмадим? Қамоқда ўтиргунча қанча сирларни очиб берарди. Чет

мамлакатларда шундай «вундиркин»ларни ушлашса, уларни ўзларига ишлатишади. Мен нима қилдим, буни банди этдим. Давоми билан қизиқмадим.

-Тўғри айтасан,-дедим “пастга тушган” оҳангда.

-Хайрият, Шунқор ака, эни хурсанд қилдингиз. Озгина бўлса ҳам тан олдингиз. Демак, хумни очсам бўлади. Бу «зип»лар қора маконга “Али бобо”нинг бозоридан тушди.

-Хитойнинг “Али бобо”сими?

-Ха-да, аксарият хакерлар ўша ерга тўпланган. Уларнинг баъзилари икки фронтга ишлайди. Шулардан машҳури «Horse-1» «ники». Э, кечирасиз, лақаби остидаги хакер. Унга ҳамма тан беради. У “Олтин хазина” деб номланган бу «зип»ларни Хитой идораларидан тортиб олган. Сотувга қўйди. Маллавоёлар биринчи харидор бўлди. Мен ҳам кирдим. Савдолашдик. Русларга сизлар чекиниб туринглар, мен олайн, кейин биргалашиб «еймиз» дедим. Ўн миллион долларга олдим. Лекин нусхаси «Horse-1» да қолган бўлиши аниқ. У “сарик бозор”да ҳам ишлайди. Ўша ёқ орқали бир нусхасини русларга ҳам сотиши аниқ.

...Бундай пайтда одам онгнинг остки қисмини ишга солади. Ҳам суҳбат қиласан, ҳам таҳлил. Шунқор, сен ҳам баъзан “Сарик бозор”га кириб турасан. У ерда маълумотлар крипто валютага сотилади. “Қора бозор”да эса нақд пулга. Ҳисобига пулни трансфер қилиб, маълумотни олади. Отабек иккаласига ҳам кирса керак.

-Икки бозорда ҳам айна «ник» билан ишлайсанми?- дедим унга.

-Йўқ, бошқа-бошқа. Лекин усталар “бармоқ изи”дан билишади. Бунинг унчалик аҳамияти йўқ.

-«Зип»лардан қайси бири диққатингни тортди?- унинг бояги саволини ўзига ташладим.

-Фақат биттаси. Қолганини билардим, тушунардим. Ҳаммаёқ коррупция бўлиб кетган. Сизларда ҳам тоза одам кам. Айниқса тепаларда. Пастда борлари ҳам тепага чиқса бузилишга мажбур. Шунинг учун уларга кўп эътибор бермадим.

-Демак, сенинг ҳам диққатингни «Horse» тортибди.

-Ҳа... Сизни ҳам худди шу безовта қилишини олдиндан тахмин қилгандим.

-Дўстлашиб қолаяпмиз.-дедим унга бироз ишончдан «отиб».

-Қани эди дўстлашсак, нозик жойимни топдингизми, олдинги каби зиндонга жўнатасиз. Ўшанда сиз билан ишлайман дегандим, “Сенга ўхшаган жинойтчи билан ишлайдиган аҳмоқ йўқ” деб жавоб бергандингиз. Руҳим с инганди. Тиклаш қийин кечди. Ҳозир ҳам шу фикрдасиз.

-Отабек, ҳозир ҳам шу фикрда бўлганимда сен билан мана бу ерда эмас, камерада гаплашаётган бўлардим.

-Биламан, қонунлардан тепадасиз. Ҳозир ҳам бир ишора билан ушлашингиз мумкин. Шу ерда ҳам одамларингиз бор.

-Нималар деяпсан?

-Илгарилари «кулоқлар» билан шу ерда учрашар эдингиз.

Вой «блин»! Бу боланинг билмаган нарсаси борми ўзи? У билан гаплашиш тактикасини ўзгартиришим, пастга тушишим керак.

-Майли, кетдик, кўчада гаплашамиз. Қўрқадиган жойимиз йўқ. Сен ҳам ишга олиндинг ҳисоб. Бундан кейин менга ёрдамчи бўласан.

-«Мухтарам» нима дер экан?

-Унинг нима дейиши мени қизиқтирмайди. Айниқса, сен берган файллардан кейин. Керак бўлса уни ҳам, яқинларини ҳам...

-Қандай қилиб?

-Шунча нарсага ақлинг етган укам, шунга етмадими? Қўлингда икки бозор бор. Учинчиси очик бозор, ўша ёққа сиздирамиз. Халқ билсин! Чет элларга битдан ниҳол экиб қўйибман. Ўшаларни сайратамиз.

-Лекин фойдаси бўлармикан? Халқ... билса ҳам билмасликка олади.

-Унда нима қиламиз? От ҳайкалчалар ҳамманинг хонаси ёки уйида тураверадими?

-Нега олдин шу ҳақда ўйлаб кўрмадингизлар?

-Ўйладим, укам, ўйладим. Аммо ҳаммада бор эди. Ҳатто менга ҳам беришган. Текшириб кўргандим. Таркибида сополдан бошқа нарса йўқ эди. Уни “Шанхай клуби” мансубларининг рамзий белгиси деб билишади.

-Кўрдингизми, қанча орқада қолганмиз. Ана шу сопол ичида зарра камералар бор, атрофдаги овозни ёзадиган ва Хитойга узатадиган кўринмас «чип»лар мавжуд. Бундан ташқари ўзларингиз ҳамма техникани улардан

оласизлар. Хонадаги соатдан, қўлингизда телефонга қадар уларники? Биноларга ўрнатилган ”кўз”лардан тортиб, йўллардаги камераларгача уларники.

-Биламан... укам, биламан. Аммо қўлимиздан ҳеч нарса келмайди. Ҳаммани сотиб олишган.

-Лекин сизни ҳали тузоққа туширишмади.

-Балки энди туширишар. Иккаламизнинг гапларимиз бориб етар.

-Йўқ, мен ўз жиҳозларимни тозалаганман. Сизни телефонингизга кириб, уни ҳам «чеканка»ладим.

-Яхши қилибсан? Бу аблаҳлар ҳамма нарсани сотишмоқда. Мақсадлари нима? Ахир ўлса шу ерга кўмиладиларку? Наҳотки ўз авлодларини кимларгадир қул қилиб кетсалар? Отабек, мен сенга юз фойиз ишондим. Сени синаб ҳам ўтирмайман. Бировга сотишингдан ҳам қўрқмайман. Чунки ҳаммаси жонимга тегди. Одам қассоби бўлишнинг оғирлигини ҳис қила олмайсан, ука?

-Ака сизда юрак борлигини билардим. Шунинг учун ҳам ўз туғишган акасининг ёнига келган каби қўрқмадим.

-Раҳмат! Атрофингда ўзингга ўхшаган йигитлар, қизлар борми?

-Кучли одамларимиз бор. Масалан, Қаҳрамон ака...

-Уни қаёқдан биласан? Биз уни кўп қидирдик, аммо изини тополмадик.

-У киши ҳажга бориб келганман деб, исмларини ҳам, паспортларини ҳам ўзгартириб олганлар. Сизлардан кўп ҳам узоқ манзилда эмаслар. Оқсоқол қиёфасида

бизларга одоб-ахлоқдан дарс бериб юрибдилар. Диний йўл билан қамалган маҳбусларни тарбиялаш баҳонасида қамоққа ҳам кириб чиқардилар.

-Одоб-ахлоқ деганинг ҳозир иккаламиз гаплашаётган гапларми?

-Ҳа, у киши ватанни севадиган одам. Юртни қутқазиш орзусида. «Дода» ўлганда севингандилар. Лекин ҳозир жуда хафалар, битта сиёсий партия шамсияси остида тўпланиб, парламентга кириб, ҳамма нарсани аста-аста халқимизга қайтариш керак деган фикрдалар.

-Қаҳрамон ака ҳозир қаерда? Учрашиш имкони борми?

-Кафеда қолдилар. Ўша ерда ўтиргандилар. Биз бирга келгандик. Сизни узоқдан у кишига кўрсатмоқчи эдим. Илтимос, хафа бўлманг.

-Бугун учун керагидан ортиқ гаплашдик. Ҳозирча «Муҳтарам» билан кўришмаяпман,-дедим енгилаетганимда озор чекиб. Отабекнинг олдида ўзимни жуда заиф тутаяпман.

-Лекин эрта индинга чакириб қолади?-деди Отабек бошимга болта билан ургандек.

-Ванга бўлиб кет-э! Фолбинлик ҳам қиласан-ми?

-Йўқ, идорангизга бир маълумот ташладик. Бугуноқ «Муҳтарам»нинг қўлига боради. Аминман, бу масалани сизга топширади.

Отабекни расман ишга олишга қарор қилдим. Зотан, «Муҳтарам»нинг ўзи шундайлардан алоҳида бир гуруҳ туз деганди. Унга Қаҳрамон аканинг шогирдларидан топишни буюрдим.

Қахрамон ака бир пайтлар идорамиздаги ҳамманинг уйқусини қочирган. Унинг чет элдан кириб келганини эшитганмиз. Отини билардик, холос. Аммо кеча-кундуз қидириб тополмаганмиз. Йиллар ўтиб, у билан юзма-юз келиш ҳамманинг орзусига айланди. Мана, бу ҳам қисматингда бор экан, Шунқор! Ўзи келди сенга!

Отабек билан хайрлашиб, уйга етиб келгандим ҳамки, «Мухтарам» телефон қилди:

-Яхши дам олдингми, бас, энди ишга чиқ! Кечқурун олдимга кир!,-деди.

Айтган пайтида етиб бордим.

«Мухтарам» компютеридан ниманидир ўқидида менга:

-Эшитдингми, Қахрамон аканг пайдо бўлибди. Мана буларни у ёзаётган экан. Топ ва олдимга олиб кел. Қахрамон аканинг ёзганларини олдимга ташлади ва ”Ўқи” деди. Ўқий бошладим.

"Мустақилликдан бир йил олдин эди. Сув хўжалиги институтига жиянимни излаб борсам, картошка кўтариб келаётган экан.

-Отанг ётиб қолди, шунга сени олиб кетгани келувдим,- дедим унга.

-Яхшимилар? Кетдик, фақат мана шуни домлга бериб ўтайлик.

-Домланг қаерда?

-Кафедрада зачётда беш кило картошка олиб кел девди.

-Уйига олиб бориб бермайсанми?!

-Кафедрага тўғри кўтариб боравераман, ҳамма шунақа қилади,- деди.-Яхши домла. Пулингиз бўлмаса, нарса олади, хафа қилмайди, қўйиб беради. Ўзи ҳам қишлоқдан чиққанда.

Кўп ўтмай ўша домла депутатлика танланди. Туманга, сўнг вилоятга ҳоким бўлиб ўтганда картошканинг даври келди деб кулишардик. Мана бугун у ҳаммамизга домлалик қилмоқда. Қаҳатчилк даврида кунимиз картошкага қоларди. Бунинг даврида ҳам шундай бўлди.

”

-Ҳе онангни...-деди «Мухтарам» тугмани босиб,-Твар! Малакасос! Сен болани одам бўласан десам, нима қилиб юрибсан? Дунёни сув босса ҳам тўпигингга чиқмайди,-деб бақирди у телефонга.-Ишдан оламан сени, погонингни юлиб ташлайман. Битта одамни топ десам, нафасинг ичига тушиб кетади. Топдингми? Видеоларни нима қилдинг, интернетдан олиб ташлатдингми?

Кимга гапирмоқда? Иккинчи қатордаги, биринчи чироқ. Демак, Ички ишлар вазири. Бугун ундан норози. Иккита-учта видеолар интернетга чиқиб кетган ва бутун мамлакат кулиб ётибди.

Телефонни қўйиб, менга юзланди ва

-Сендан бошқаси айтганимни бажармайди. Қани ўқи,- деди.

"Саудиялик жаллод қиличини чархлаб ўтириб, мухбирнинг саволарига жавоб қилганда, “Ишим шу! Вазифамни бажараяпман. Қиличим ўткир бўлиши керак ва биттада бошни узишим шарт!” деган.

Бугун «Мухтарам» жаллод Чалматовни яна ишга чақирди.

Мен шахсан ҳаж зиёратини мусулмонлик талабларидан биттаси, деб қабул қиламан, ўтмишда қилган жиноятлари учун тавба қилинадиган олий даргоҳ деб ҳисоблайман. Чалматов ўз халқига нисбатан қилган жиноятларини ювиш учун ҳажга бориб келди. Агар у гуноҳлари учун тавба тазарру қилган бўлса, нимага жиноятларни хаспўшлаб, ёлғонларни гапиришни давом қилмоқда? Шериги уни ёнига олди. Уларнинг орасида гап кўп. «Мухтарам»нинг жиноятларини у ёпиб келган. Жуда ёмон гаплар бор. Билганларимни кейинчалик ёзаман.”

«Мухтарам» бошини кўтардида:

-Чалматовга айт, кечга саунасини ҳозирласин. Шўрва солсин! Кириб ўтамиз!-деди.

Бир зумга ташқарига чиқиб Чалматовга сим қоқдим ва қайтиб кирдим.

-Давомини ўқи,-деди «Мухтарам»

"Олийгоҳ ётоқхонасида рус болалар ҳам турарди. Талабалардан бири баҳслашиб, урусга "Санлар босиб олиб ҳамма ёқни расво қилдиларинг, қани бизнинг пахтамиз, қани бизнинг тилломиз, агар санлар бизни бостириб олмаганларингда ҳозир тилло қошиқда овқат еб ўтирган бўлардим" деб қолди.

урус ҳам бўш келмади.

-Санларнинг раҳбарларинг сотди, бизникилар олди. Текинга сотди! Олмасинми? Қўлинган келса мустақил бўл, ўз нарсангга ўзинг хўжайин бўл!-деди урус овозини баландлатиб. Шунда кутилмаган воқеа юз беради. Орамиздан бир йигит ўрнидан туриб, саволрга одамга бир тарсаки тортди.

-Сен миллий масалани қўзғатганингни биласанми, бузғунчи?-деб чиқиб кетди. Кўп ўтмай савол берган одам йўқолиб қолди.

Мана мустақил ҳам бўлдик. Шунча йил яшаб ҳам қўйдик, мамлакатни бошқариш ўзимизникиларга ўтди, лекин оддий халқ қўлидаги беш тийинлик алюмин қошиғини ҳам олдириб қўйди. Юрт бошқа мамлакатлар учун куллар маконига айланди. Жамият ҳар тамонлама инқирозга йўлиқди. Ўша савол берган болани сотиб, комсорг бўлиб олган бола шу «Мухтарам» эди”

-Ким бўлди бу Қаҳрамон? Ким? Шунқор биз билан ўқиганларнинг ҳаммасини топасан ва элакадан ўтказасан. Ўшанда уни ушлайсан. Давоми ўқи:

“Михтарам”га оғай отасидан васият қолган. Васиятда мамлакатни бошқариш учун одамларни камбағал даражасида ушлаб туриш кераклиги айтилган. Халқ қорни, рўзғори билан банд бўли қолса, уни сиёсат қизиқмайди, деган ўғай отаси.

Урусларда келган «имажмейкер» маслаҳатчилар эса унга жарангдор, ваҳимали нутқлар қилиб туриш, журналситлардан қочиш, ўзига душман яртамаслик, ўзини халқ дардини эшитаёгандек қилиб кўрсатиш, раҳбарларни тез-тез у ёқдан бу ёққа ламштириб бориш, ўзига садоқатлиларнинг бошини эгмаслик, бойликларни улар билан баҳам кўриш, қариндошларини муҳим нуқтларга жойлаштиришни ўргатишмоқда.

Қаранг, боғчадаги боладан тортиб, даладаги кетмончига микрофон тегса, «Мухтарам»га раҳмат” деб турибди. Одамларда ватан, киндик қони деган гаплар ўз маъносини йўқотиб борапти...”

-Бас!,-деди «Мухтарам». Шунқор! Ишонганим сан, буни топ ва Чалматовга топшир! Қонини ичсин, сатиллаб ичсин!

Бундай пайтда жим туриб енгил керак. «Ғинг» дедингми оловга керосин сепгандек бўласан.

Қаҳрамон ака қисқа-қисқа, аммо нишонга урадиган қилиб ёзганди. «Мухтарам»нинг суратини чизиб, ўзига кўрсатганди.

Шунқор, бу Отабек деганинг сени ҳам тутиб берди-ку? Қаҳрамон акани топиш сенга юклатилди. Наҳотки сенинг ҳам охириг кўриниб қолди? Йўқ. Дарров енгилма! Улар бирор йўлини ҳам ўйлаб қўйишгандир!? Бўлмаса ўзинг топасан.

Бу элнинг, бу халқнинг пешонаси шу қадар шўр эканми-а? Биттаси ерга кирди. Иккинчиси ундан ҳам ўтказди, шекилли? Шунча йиллар фақат ва фақат мана шу курсига ўтириш учун яшаган экан. Бундай одамдан ҳар қандай ёмонликни куца бўлади.

Мамлакатнинг бошига бирин-кетин офатлар ёғила бошлади. Зулмат инди ҳамма ёққа. Салтанатнинг эса чироқлари ёниб турибди.

(Иккинчи китоб тугади)

